

R.H. Murtazoyeva, A.A. Odilov,
A.A. Ermetov, K.D. Soipova

O'ZBEKISTON TARIXI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

Tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrası

O'ZBEKISTON TARIXI

*Respublika oliy o'quv yurtlari nomutaxassis yo'nalishlar
talabalari uchun darslik*



TOSHKENT – 2020
«DONISHMAND ZIYOSI»

UO'K 94(575.1)
KBK 63.35(O')
M 88

Tuzuvchi mualliflar: tarix fanlari doktori, professor R. H. Murtazayeva, tarix fanlari nomzodi, dotsent A. A. Odilov, tarix fanlari doktori, dotsent A. A. Ermetov, tarix fanlari nomzodi, dotsent K. D. Soipova.

Mas'ul muharrir:

R. H. Murtazayeva – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A. S. Sagdullayev – O'zbekiston Respublikasi FA akademigi;

D. B. Bobojonova – tarix fanlari doktori, professor;

R. E. Holiqova – tarix fanlari doktori, professor.

Oliy o'quv yurtlari nomutaxassis *bakalavr bosqichi* talabalari uchun mo'ljallangan ushbu «O'zbekiston tarixi» darsligi mamlakatimizda eng qadimgi davrdan to hozirgi vaqtgacha sodir bo'lgan tarixiy jarayonlarni qamrab oladi. Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Ushbu darslik bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, undan magistrlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va tarixchi-olimlar ham keng foydalanishlari mumkin. Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrasida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 14-iyundagi 531-sonli buyrug'iga asosan (5120301 – O'zbekiston tarixi) Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6446-5-6

© R. H. Murtazayeva, 2020
© «Donishmand ziyosi», 2020

KIRISH

Uch ming yillik davlatchilik tarixi, boy madaniyat va bebaho ma'naviyatiga ega, jahon sivilizatsiyasi, bashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqi hayotida mustaqillik davri tom ma'noda ma'naviy yangilanish jabhasini boshlab berdi. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ma'naviy yangilanishlar bois mamlakatimiz XXI asrda milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yo'l oldi.

Ta'kidlash lozimki, yurtimiz tarixini xolis va ilmiy jihatdan tadqiq etish, uni tahlil etishda birlamchi manbalarga tayanish, xalqimizning boy tarixiy o'tmishini keng xalq ommasiga tanishtirish masalasi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qator nutq va asarlarida ham to'laqonli tarzda o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston tarixi fani shu yurtda yashab o'tgan ajdodlarimiz madaniy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini o'rganish, targ'ib etish hamda ta'lim-tarbiya sohasida undan keng foydalanish o'sib kelayotgan avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma'naviyatning asosi bo'lmish tarix – milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda, tarixiy xotira esa insonni o'zligini tanitishga, irodasini mustahkamlashga, uning dunyoqarashini kengaytirishga ko'mak beruvchi katta kuch bo'lib hisoblanadi.

Globalashuv asri bo'lgan – XXI asr bir tomondan umuminsoniy qadriyatlarni oldingi o'ringa chiqishi, intellektual salohiyat ijtimoiy hayot mezonini belgilovchi darajaga aylanishi, informatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan umumjahon miqyosidagi ma'naviy tahdidlar, «ommaviy madaniyat»ni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, ta'lim-tarbiya sohasida salbiy illatlarni ildiz otishiga sabab bo'layotgan asr bo'lib ham hisoblanadi. Shu bois ham davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev bu masalaga global tarzda yondashib, BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabrda bo'lib o'tgan 72-sessiyasidagi nutqida alohida to'xtalib o'tgan edi.

Shuning uchun ham, hozirgi kunda o'sib kelayotgan avlod ongi va tafakkurini saibiy illatlardan himoya qilish ma'nosida ularda ma'naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarni ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan azaliy qadriyatlar – ezgulik, odamiylik, bag'rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda tarix fanining o'rni beqiyos darajaga egadir. Aynan Vatan tarixini anglash orqali o'sib kelayotgan avlod nafaqat shonli o'tmish tarixini, balki istiqbolning tom mazmunini, uning mamlakatimiz istiqboliga qaratilgan davlatimiz siyosati mohiyatini yanada teran tushunib etadilar.

Mustaqillikning o'tgan yillarida respublika tarixchi olimlari tomonidan katta ahamiyatga molik, dolzarb mavzularga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi, qator o'quv adabiyotlari, darslik, qo'llanma, monografiyalar chop etildi. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ham xalqimiz tarixini xolis va ilmiy asnoda o'rganish jarayoni davom etmoqda.

Shubhasiz, yangi avlod adabiyotlari ham yuqorida ta'kidlangan mulohazalarga hamohang ravishda zamonaviy talablarga javob berishi darkor. Shuni alohida qayd etish lozimki, ta'lim tizimini sifat jihatidan takomillashuvi uchun unga avvalo ilm-fan yangiliklari, innovatsiyalarni kiritish lozim.

Oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalar uchun havola etilayotgan mazkur darslik yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarda ilgari surilgan masalalarni atroflicha o'zida jam etgan. Darslikni tayyorlash jarayonida qator arxeologik, antropologik, numizmatik materiallar, birlamchi tarixiy manbalar va O'zbekiston tarixining turli davrlariga oid so'nggi tadqiqotlar natijalaridan: dissertatsiyalar, monografiyalar, risolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, hujjat va materiallardan keng foydalanilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan. Mavzular Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nomutaxassis fakultetlar bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan hamda shu yo'nalishda tasdiqlangan «O'zbekiston tarixi» namunaviy dasturi asosida yoritilgan.

Har bir mavzu so'nggida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, tayanch tushunchalar, savol va topshiriqlar berilgan.

1-mavzu. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va obyektini, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.

Reja:

1. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rni. Uning o'rganish predmeti va obyektini.
2. O'zbekiston tarixi fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.
3. O'zbekiston tarixini o'rganishda manbalar va yordamchi fanlar.
4. O'zbekiston tarixini o'rganishning ahamiyati.

1. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rni. Uning o'rganish predmeti va obyektini.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy-evolyutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo'lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarini o'rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g'urur hamda o'zlikni anglash. ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir. Aynan shuning uchun ham, Oliy ta'lim tizimida «**O'zbekiston tarixi**» fanini har tomonlama hamda chuqur o'qitish maqsadida yangi avlod o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va obyektini to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki, O'zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masa-

la bo'lib hisoblanadi. Zero, fan uning o'rganish predmeti va obyektini aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. Bunday holat o'quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy va tabiat fanlaridan farqli o'laroq mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu uning o'rganish predmeti va obyektini hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmog'i kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, **birinchidan**, o'zining butun diqqat-e'tiborini faqat o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandır. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o'rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe' bo'lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, bo'lib o'tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlarini, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston tarixi fani mamlakatimiz o'tmishidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tarixi fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani, O'zbekistonning o'tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti hamda tanazzulini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taalluqli bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma-

daniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqea, hodisa inson (yoki uning bir guruhi-xalq) xatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish makoni-obyektini O'zbekistonning tarixidir. Tarixiy obyekt (makon)ga nisbatan O'zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda obyekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo, boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish obyektini va predmetini hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berisholmaydi.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyektini bitta, ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiatdir. Shuning uchun ham, boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki, boshqa fanlarning hammasi ham tarix mahsulidir.

Qisqa qilib aytganda, tarix fani, ya'ni Vatan tarixi – millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, **birinchidan**, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. Chunki, ular tarix bilan bevosita bog'liq. **Ikkinchidan**, Tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix, ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish tarixga qarab, kelajakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati, iste'dodi, voqealarni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari va intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki xalqning umummadaniy-ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa, ana shu o'ta murakkab, o'ta ziddiyatli, shu bilan birga nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi. Nazarimizda, bu holat tarix falsafasini o'zida ifoda etadi.

2. O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.

Har qanday fan kabi O'zbekiston tarixi fani ham o'zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzini ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa bu ehtiyojlarni ro'yobga chiqishi uchun ma'sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi, ya'ni tarix fani rivojlanishida

metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubi tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham, O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi.

Mutaxassislarining fikricha, «tarix» moziyni o'rganish haqidagi fan bo'lib, ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan bo'lib, uning mavzuyi kishilik jamiyati o'tmishining, uning turli-tuman sohalardagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandır. Ikkinchidan, tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, inson zakovatining natijalari bo'lgan jarayonni tadqiq etish va bizgacha bo'lgan davrni o'rganib, kelajak avlodga yetkazadigan fandır.

Tarixshunoslikdan ma'lumki, tarixiy jarayon tarix qonunlari bilan asoslanadi. Tarix fanining asosiy tayanch tushunchasini tarixiy asos va tarixiy manba, tarixiy makon va tarixiy zamon tashkil etadi. Soha mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, tarix fanini o'rganishdagi eng dolzarb muammo – bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki muammoga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va metodologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, har bir fanda bo'lganidek, tarix, jumladan O'zbekiston tarixi fanida ham o'zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud. Nazariya – bu ilmiy bilimlar yig'indisi va boshqa fanlar bilan mavjud bo'lgan aloqadorlikni bilish jarayonidir.

Tarixchi olimlar butun insoniyat, millat, xalq va o'rganish obyekti (ma'lum mavzu) evolyutsiyasini, uning ma'no va mazmunini to'g'ri bilishi, tahlil qila olishi kerak. Agar tarix falsafasi tarixiy voqealıklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa)larning so'zdagi aniq ifodasi bo'lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarni ro'yobga chiqishi – tarix haqiqiy yozilishi uchun birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dasturdir. Eng qisqa va tushunarlik qilib aytganda, umuman, metodologiya fanlarning fanidir.

Keyingi paytda O'zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi. Avvalo, metodologiya haqida to'xtalsak,

metodologiyaning lug'aviy ma'nosi grekcha «Metodos» va «Logos» degan ikki so'z birikmasidan iborat bo'lib, **metod, ya'ni, usul** – tadqiqot olib borish usuli (yo'li), nazariya, ta'limot, **logiya** esa **fan** deganidir. Demakki, metodologiya uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari majmuidan iborat bir butun fandır. Boshqa ma'noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandır. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri yetaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Har qanday fanning metodologiyasi xususida so'z borar ekan, odatda, shu fanga xos metod (usul)lar majmui tushuniladi. Tarix fani o'qitish metodologiyasi deganda bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tatbiq etilishi tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deganda tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotiga aytiladi. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatidagi nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning qonuniyatlari va tamoyillarini, faqatgina shu fanga xos bo'lgan qat'iy tushunchalar majmui va bilish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama, bog'liqlik har ikkala yo'nalishning umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda O'zbekiston tarixi fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslari.

Bunga quyidagilar kiradi:

– din bilan dunyoviylik o'rtasida mo'tadil munosabat bo'lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;

– tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;

– tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;

– tarixiy taraqqiyot asosini evolyutsion – tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;

– tarixga milliy mentalitet nuqtai nazaridan o'zgalar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;

– tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

– tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

O'zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy), ilmiy usul va tamoyillari. Ular quyidagilardan iborat:

– ilmiy xolislik (obyektivlik);

– tarixiy – tahliliylik;

– mantiqiy – uzviylik;

– borislik va xronologik izchillik;

– g'oyaviylik va vatanparvarlik;

– qiyoslash, kuzatish va umumiyashtirish;

– bahslashish, munozara yuritish va asoslab berish;

– matematik hisoblash;

– shakllash va modellashtirish;

– ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduksiya);

– etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika kabi ko'plab yordamchi fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish.

Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog'i dinlar) tarixi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotni dindand, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo'lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo'ladi. Ma'lumki, sovet tarix fani tarixni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qildi. Tarix qanday bo'lsa, uni shundayligicha o'rganish ustuvor bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham, u din bilan mo'tadil, mutanosiblik asosida o'rganilmog'i hozir eng asosiy zaruriyat bo'lib turibdi. Bu esa, yosh-

larni har xil din niqobidagi dinga aloqasi bo'lmagan terroristik guruhlarga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek tariximizni haqqoniy va to'la yozilishiga imkon beradi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va jahon hamjamiyatining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan ijtimoiy hayot bobida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» tamoyilini targ'ib etish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-tanqidiylik tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo'llanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog'liq to'g'ri hamda noto'g'riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to'g'ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.


3. O'zbekiston tarixini o'rganishda manbalar va yordamchi fanlar.

O'zbekiston tarixi fani va tarixni o'rganishda manbalarning o'рни va ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham, ular millat va xalqning ma'naviy-madaniy merosi, bebaho madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus hujjatxona (arxiv)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda. Xalq og'zaki ijodi orqali tillardan tillarga meros bo'lib o'tib kelayotgan tarixiy voqea va hodisalar bayoni, avtor materiallar asosida bizagacha yyetib kelmoqda. Binobarin, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy ma'lumotlarni, dalillarni olish orqali ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi. Oddiyroq qilib aytganda, ma'lum manbalar va ularni umumlashtirmasdan turib haqqoniy tarixni yaratish mumkin emas.

Tarixiy manbalar davr nuqtai nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, ular o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga ham egadirlar. Birlamchi manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kiradi. Ikkilamchi manba deb esa, birlamchi manbalarning e'lon qilingan nusxalari, maqola va kitob holatiga keltirilganlariga aytiladi.

Tarixiy manbalarga qadimdan qolgan barcha narsalar, ya'ni, insoniyat qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan barcha moddiy madaniyat buyumlari va ashyolar, inshootlar, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, an'analar, tillar kabilar kiradi. Zamonaviy adabiyotlarda O'zbekiston tarixini o'rganishning manbalari shartli ravishda quyidagi oltita guruhga bo'linadi:

1. Yozma manbalar – epigrafik yodgorliklar, ya'ni tosh, metall, suyak va sopolga bitilgan bitiklar, «Avesto», mixxat yozuvlar, qadimgi va o'rta asrlar mualliflarining xabarleri, graffitlar, ya'ni qo'l bilan binolar, metall buyumlar, idishlarda qoldirilgan izlar, papirus, pyergament va qog'ozlardagi qo'lyozmalar, chop etilgan materiallar.



Arxeologik yodgorliklar va moddiy manbalar turlari

2. Moddiy yoki arxeologik manbalar – arxeologik tadqiqotlar natijasida o'rganiladigan mehnat va jangovar qurollar, hunarmandchilik buyumlari, idishlar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyimlar, chorvachilik anjomlari, tangalar, san'at buyumlari, me'morchilik inshootlari, uy-joy qoldiqlari, mudofaa inshootlari kabilardir. Moddiy manbalar yozuvsiz zamonlardagi tariximizni tiklash uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

3. Etnografik ma'lumotlar – eng qadimgi davrdan boshlab so'nggi o'rta asrlarga qadar odamlarning yashash tarzi va turmushi, urf-odatlar va an'analari, bayramlar va diniy e'tiqodlar, xo'jalik yuritish udumlari, ma'lum qabilalar, elatlar va etnik guruhlarga xos bo'lgan an'analarga haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

4. Lingvistik ma'lumotlar – qadimgi tillarning yozma, badiiy va og'zaki nutqda aks etishi, turli xalqlar tili va lahjasidagi o'xshashliklarning tarixiy ildizlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar xalqlar va elatlarning etnik kelib chiqishi hamda mashg'ulotlari, migratsion jarayonlar, diniy e'tiqodlar, madaniyat, turmush-tarzi o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Kinofotohujjatlar – nisbatan yangi, voqea-hodisalar va ma'lum shaxslar bo'yicha ilgari surilgan fikrlarning tasdig'i hisoblanadi.

6. Arxiv materiallari – XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugunga qadar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni o'rganishda markaziy va joriy arxivlarda saqlanayotgan ma'lumotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalarni o'rganishning o'zi, ya'ni manbashunoslik – tarix fanining maxsus sohasi bo'lib, tarix fani rivojlanishi va tarix yozilishida o'ta muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda manbashunoslik fani keng rivojlanmoqda. U yuqorida ko'rsatilgan metodologik ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy asos va ilmiy usullarga tayanadi.

Manbashunoslik fani asosan tarixiy manbalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, manbalarning qimmatini, haqiqiy va haqiqiy emasligini aniqlash bilan birga, ularni turkumlarga ajratadi. Masalan, moddiy va ma'naviy yodgorliklar hamda ashyoviy – etnografik, lingvistik va og'zaki (folklor) manbalar shular jumlasidandir. Manbashunoslik manbalarni aniqlash va saralash, ularning ilmiy qimmatini belgilash, tahlil qilish, yaratilish tarixi, shart-sharoitini o'rganish kabi sohalarga bo'linadi.

Xulosa shuki, manbalar tarixiy jarayon va voqeliklarning o'zida real aks ettirgan bo'lib, tarixiylikning in'ikosi bo'lmog'i kerak. Mana shunda ularning tarixiy ahamiyati, tarixiy ekanligi yuqori bo'lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumki, tarixni xalq yaratadi. Minglab yillar davomida yaratilgan ushbu tarixni o'qitish va o'rganishda yordamchi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunonchi, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, numizmatika, lingvistika, tarixshunoslik, atamashunoslik, sotsiologiya, tarixiy demografiya, tarixiy geografiya, geopolitika, falsafa, o'lkashunoslik, kartografiya, iqtisod, madaniyatshunoslik, dinshunoslik kabi yo'nalishlar yordamchi fanlar jumlasidandir. Lekin, O'zbekiston tarixini yaratishda bir qator yordamchi fanlar ma'lumotlari olimlar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Misol uchun, mavjud o'quv qo'llanmalari va darsliklarning aksariyatida yoritilayotgan mavzuning tarixshunosligi berilmaydi. Mutaxassis talabalar uchun yaratilayotgan darsliklarda qisqacha, ekskurs tarzida ma'lum davr, mavzu va muammo bo'yicha tarixshunoslik yoritib berilsa, kelajakda tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin bo'lgan iqtidorli yoshlarimiz uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Shuningdek, tarixshunoslikdan boxabar bo'lish – yosh olimlarning istiqbolli va dolzarb mavzularni tanlashlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tarixi bo'yicha yangi avlod o'quv adabiyotlarni yaratish bo'yicha e'tibor berilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan yana biri – tarixiy demografiya masalalaridir. Bu yo'nalishda ma'lumotlar ko'p. Chunki, ilgari davrlarda bo'lgani kabi, bugungi kunda ham mamlakatimizda aholi bilan bog'liq bo'lgan muammolar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Binobarin, mutaxasislarning e'tirof etishlaricha, jamiyat taraqqiyotining turli davrlariga oid aholi sonining o'sishi yoki kamayishi, ularning sabablari va omillari, tabiiy sharoit tufayli bo'lib o'tgan migratsiya jarayonlari yoki mustamlaka va sovet davridagi ko'chirishlar tufayli hududlardagi etnik holatlarning o'zgarishi masalalari talabalar o'rganishi va bilishi lozim bo'lgan mavzular sarasiga kiradi.

«O'zbekiston tarixi» fani bo'yicha o'quv adabiyotlari yaratishda tarixiy geografiya va toponimika masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Maktab va o'rta maxsus ta'lim uchun yaratilgan ayrim darsliklarda xaritalar berilgan bo'lsa-da, oliy ta'lim adabiyotlari-

da bu narsa deyarli yo'q hisobi. Tarixiy geografiya va toponimika bilan bog'liq bo'lgan – tog'lar, daryolar, ko'llar, dasht hududlari, tekisliklar, voha va vodiylar, qadimgi makonlarning joylashuvi, hududlarning chegaralari, joy nomlari hamda ularning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi kabi ko'plab masalalar bo'yicha ma'lumotlar olish talabalar bilimining yanada chuqurlashuviga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, geografik nomlar, ularning ma'lum xalqlar va elatlar yashaydigan hududlarda paydo bo'lganligi, bu jarayon tabiiy – geografik shart-sharoit, xo'jalik shakli, turmush-tarzi, urf-odat va an'analar bilan bog'liq bo'lganligi bois ham soha mutaxassislari tor yo'nalishli tadqiqotlarda tarixiy geografiya va toponimikani chetlab o'tisholmaydi.

Olimlarning e'tibor berishlari lozim bo'lgan yana bir muhim jihat – madaniy meros masalasidir. Chunki, o'z tarixini chuqur anglagan, o'rgangan va bilgan xalq yoki millat hech qachon o'zligini yo'qotmasligi barchaga ayon. Shuningdek, so'nggi yillarda xalqimizning o'z yurti madaniyati, qadriyatlar va madaniy merosiga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Aynan shuning uchun ham madaniy merosni targ'ib etish yoshlarimizda tarixiy ongning rivojlanishiga, o'z ajdodlarining qanday buyuk shaxslar bo'lganligini, mahalliy madaniyatning jahon sivilizatsiyada tutgan o'rnini anglab yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, madaniy taraqqiyot natijasi bo'lgan sivilizatsiya o'chog'larining paydo bo'lishi tasodifiy hol bo'lmasdan, ma'lum hududlar uchun xos bo'lgan qonuniyatlar asosida yuz byergan voqeilikdir. Madaniy mintaqalarning shakllanishida landshaft, xo'jalik yuritish usulari, aholi nufuzi, etnik-madaniy omillar, ehtiyojlar xilma-xilligi, ma'naviy omillar (din, axloq, til, an'analar, urf-odatlar) ishtirok etadi va ular turli madaniy mintaqalarda chuqur iz qoldiradi. Chunonchi, sivilizatsion taraqqiyot – ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning xilma-xilligi, rivojlanish darajasi, o'zaro aloqalar va munosabatlar hamda ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonlarni bilish va his etish formatsion yondashuvlardan voz kechilgan bugungi kunda talabalarimiz uchun juda muhim masala hisoblanadi.

4. O'zbekiston tarixini o'qitishning ahamiyati.

Taraqqiy etgan millatlarning o'z tarixini yaxshi bilishi va qadrlashi, tarixiy yodgorlik va obidalarini e'zozlashi, ko'z qorachig'idek asrasining ko'pgina sabablari bor. Bu, eng avvalo, tarix insoniyat paydo


bo'lganidan to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy jarayon oynasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, butun insoniyat shu tarixga qarab, o'z o'tmishi va borligini angelaydi, kelajak rejalarini belgilaydi. Boshqacha bir ma'noda tarix buyuk faylasuf va donishmanddir. Uning mana shu dono falsafasini to'g'ri anglagandagina, xalqlar o'z kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Nasroniy (xristian)lik falsafasi asoschisi A. Avgustian (354–430) hozirgi eramiz boshidayoq, ya'ni bundan bir ming olti yuz yil oldin tarixning xalq va millatning taqdirida tutajak o'rnini ko'rsatib, shunday degan edi: «G'afatda yotgan xalqni uyg'otish uchun, avvalo, uning tarixini uyg'ot». XII asrning buyuk allomasi Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy ham bu fikrni o'zining quyidagi sodda ko'ringan to'rtligida yanada teran ma'noda mana bunday bayon etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixini,
U inson ham emas, olim ham emas.
Biroq kimki uqsa o'tmishini,
Ko'p boyitar o'z turmushini.

XXI asrga rivojlanishning zamonaviy taraqqiyot yo'li bilan kirib kelgan, boy madaniyati va bebaho ma'naviyatiga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ming yilliklar qa'riga kirib borgan tarixiy o'tmishi bilan alohida o'rin egallaydi. Hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va taraqqiyotini ko'zlab o'tkazilgan ko'plab islohotlar, shuningdek yuksalish va inqiroz holatlari, chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari yurtimizning serqirra va rangbarang tarixidan dalolat beradi. Shu bois ham, bu tarix eng qadimgi davrdan boshlab ko'p ming yillar davomida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida nafaqat o'zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham tan olinib o'rganildi, tadqiq etildi va ayni paytda ham shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, mustabid sovet davridagi tarixga munosabatdan farq qilgan holda, o'tmish tarixiga munosabat tubdan o'zgardi. Haqqoniy tarixni tadqiq etish boshlanib, avvalo, tarixni davrlashtirishdagi besh formatsiyali nomini «ozin»lardan voz kechildi. Zero, tarix ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi



bo'lmasdan, balki bir-birini almashtirib va to'ldirib turuvchi, ma'lum xalqlar va elatlar, etnik guruhlar tomonidan yaratilgan sivilizatsiyalar hosilasi hamda zanjiri ekanligi respublika olimlari tomonidan yakdillik bilan e'tirof etildi.

Tarixning yaratuvchisi va ijodkori xalqdir. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, voqea va hodisalar, islohotlarni xalqsiz va tarixiy shaxslarsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Tarix – xalqning fikr hamda tafakkurining hosilasidir. Aynan shuning uchun ham, tarix – ibrat maktabi bo'lib, o'tmishda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni anglash va ulardan tegishli saboq chiqarish, hushyorlik va ogohlikka, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag'rikenglikka chaqiruvchi beqiyos ahamiyatli maktabdir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, qadim o'tmish bilan bugungi kunning, o'tmish ajdodlarimiz bilan bugungi avlodlarimiz o'rtasidagi bog'liqlikni unutmasdan yanada mustahkamlash milliy taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi. Bunday bog'lanishda esa tarix asosiy ko'prik vazifasini bajaradi.

Haqqoniy yozilgan Vatan tarixini o'rganish va o'qitish shuning uchun ham kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g'oya va mafkura takomillashuvini tezlashtiradi. Vatan tarixini o'qitish va o'rganish yana shuning uchun ham zarurki, xalqimiz undan ruhiy quvvat olib, dushmanga bosh egmaslik, qayta mustamlaka qopqoniga tushmaslik, boshqalarga bo'ysunmaslik, begona g'oya va mafkura hamda zug'umlar ta'siriga berilmaslik ma'naviyatiga ega bo'ladi. Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati, falsafasini teran anglash millat uchun yuksak fazilat hisoblanadi.

O'zbekiston tarixi fani oldida turgan asosiy vazifa quyidagilardan iboratdir: **birinchidan**, yoshlarga va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish; **ikkinchidan**, yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkamollikni tarbiyalash; **uchinchidan**, yoshlarda otashin vatanparvarlik va milliy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatlikni rivojlantirish; **to'rtinchidan**, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlik)ni tarbiyalash; **beshinchidan**, yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand,

tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarni chuqur his etish va ularga sadoqatlik ruhida kamol toptirish.

2016-yildan boshlab O'zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon yo'l oldi. Bunda Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan, mamlakatni zamonaviy asnoda rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston tarixi fani mana shu yuqoridagilar va bulardan boshqa o'zining xilma-xil imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga behad katta hissa qo'shadi. Vatan tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan e'tirof etib kelinmoqda. Bunga tariximizning o'zi guvoh. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barchamiz teran his etishimiz va anglab etmog'imiz lozimdir.

Tayanch so'zlar

Fanning predmeti va obyekt, o'quv jarayoni, ijtimoiy fanlar, inson omili, millat o'tmishi, tarixiy makon, voqea-hodisalar, bog'liq fanlar, soha tarixi, inson va tabiat, millat tarixi, tarix falsafasi, o'tmish tajribasi, mentalitet, fan metodologiyasi, ilmiy-nazariy asoslar, usullar, tamoyillar, ijtimoiy zaruriyat, nazariya, o'rganish evolyutsiyasi, fan tamoyillari, sivilizatsion yondashuv, metodologiyaning tamoyillari, davrlashtirish, tarixiy manbalar, yozma manbalar, moddiy manbalar, etnografik ma'lumotlar, lingvistik ma'lumotlar, kinofotohujjatlar, arxiv manbalari, yordamchi fanlar, manbashunoslik, tarixiy geografiya, tarixiy demografiya, toponimika, madaniy meros, fanning ahamiyati va vazifalari.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rniga baho bering.
2. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va obyekt haqida ma'lumot bering.
3. O'zbekiston tarixi fanining usullari va tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?

4. O'zbekiston tarixini davrlashtirishda nimalarga asosiy e'tibor berish lozim?
5. O'zbekiston tarixi fanining metodologiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekiston tarixini o'rganishdagi manbalar haqida ma'lumot bering.
7. O'zbekiston tarixini o'rganishda yordamchi fanlar haqida qanday fikr bildirasiz?
8. O'zbekiston tarixini o'rganishning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.

1-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. «O'zbekiston», 2016.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T. «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – T. «O'zbekiston», 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Xalq so'zi. 2018-yil, 29-dekabr.
5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: «Sharq», 1998.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
7. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015.
8. Sagdullayev A. S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004. – B.18-
9. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: «Turon-Iqbol», 2010.
10. Rasulov A., Isoqboyev A. Tarix fanining ilmiy tadqiqot asoslari va uslubiyoti. – Namangan, 2008.
11. Eshov B. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari. // O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar. – Toshkent: «Noshir», 2012. 0 B. 278-385.
12. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 1-mavzu.
13. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent, «Sharq», 2010 (Lotin alifbosida).
14. Shamsutdinov R. T., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. Toshkent: «Sharq», 2013 (Lotin alifbosida).

2-mavzu. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.

Reja:

1. O'zbekiston sivilizatsiyasi haqida ma'lumot.
2. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. Antropogenez jarayoni. Paleolit davri. Mil. avv. XII–IV ming yilliklarda O'rta Osiyo.
3. Ibtidoiy tasviriy san'at. Bronza davri yutuqlari. Yozuv haqida yangi ma'lumotlar. Ilk shaharlarning paydo bo'lish jarayonlari
4. «Avesto» – O'zbekiston tarixini o'rganishdagi muhim manba.

O'zbekiston sivilizatsiyasi haqida ma'lumot.

O'zbekiston – insoniyat taraqqiyoti o'choqlaridan biri, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Dastlabki sivilizatsiyalar, ularning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, sivilizatsiyaning ilmiy-nazariy tahlili, sivilizatsiyalarga tarixiy-falsafiy yondashuv, umuman, Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining qiyosiy tahlili tarixshunosligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishda A. Toyinbi, O. Shpengler, K. Yaspers, I. M. Dyakonov, B. Masson, A. Vasilev, M. Barg, M. Albedil, A. Koptev, Yu. Yakovets kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. So'nggi yillarda respublika olimlaridan A. Asqarov, R. Sulaymonov, E. Rtveladze, A. Sagdullayev, T. Shirinov va boshqalarning qator tadqiqotlarida masalaning turli jihatlari tahlil etilmoqda.

Dunyo tarixidagi turli hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlardan kelib chiqib turli davrlarda o'ziga xos sivilizatsiyalar taraqqiy etganligini kuzatish mumkin. O'zbekiston hududlarida ham sivilizatsiya jarayonlari o'ziga xos yo'nalishda taraqqiy etib borgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi o'zaro ta'sir inkor etilmaydi.

«Sivilizatsiya» – lotincha so'z bo'lib («civilis»), aynan tarjimasida «grajdanlar», «jamiyatning erkin, ozod a'zolaridan tashkil topgan tuzum, davlatchilik» degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy fanlarda sivilizatsiya tushunchasi asosan madaniyat va madaniy taraqqiyotining barcha qirralarini ifodalovchi tushuncha sifatidagi mazmun kasb etadi. Ushbu mazmunni qisqacha ta'riflaydigan bo'lsak, sivilizatsiya tushunchasi – muayyan hududlarda yashaydigan odamlarning turmush-tarzi va

xo'jalik yuritish faoliyati, ushbu odamlar hamda hududlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ma'lum davrlarda yaratilgan ma'naviy va moddiy madaniyat, jamiyatning taraqqiy etish jarayonida odamlarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatining samarasini anglatadi. Shu nuqtai nazardan ham sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Binobarin, O'zbekiston hududlarida taraqqiy etgan sivilizatsiya ham jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda olib borilgan ko'plab tarixiy-arxeologik tadqiqotlar bu mintaqa qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutganligini asoslab beruvchi ko'plab ma'lumotlar – ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularning natijasi o'laroq, yuqorida eslatganimizdek, «O'rta Osiyo sivilizatsiyasi», «Turon sivilizatsiyasi», «O'zbekiston sivilizatsiyasi» kabi atamalar ilmiy tadqiqotlar va nashrlarda keng ishlatila boshlandi.

Hozirgi O'zbekiston hududlarining ulkan Yevroosiyo mintaqasi markazida, muhim savdo-madaniy yo'llar kesishgan chorrahasida joylashganligi tarixan belgilangan bo'lib, bu holat mamlakatimizni kishilik tarixining ilk bosqichlaridayoq Sharq va G'arb dunyosi o'zaro muloqotga kirishadigan joy sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi. Shuning uchun ham, tarix fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida Vatanimiz tarixini jahon sivilizatsiyasining ajralmas muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish talabalar uchun o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

O'quvchilar shunga alohida e'tibor berishlari lozimki, O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda shakllandi va rivojlandi. Misol uchun, mintaqaning Janubiy hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mil. avv. VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsalar, bu davrda Shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanishgan. Bu notekislik jarayonini tabiiy geografik

sharoitlar va o'zaro aloqalar bilan izohlash mumkin. Bu o'rinda, O'rta Osiyoning cho'l va dasht hududlaridagi hamda daryo vohalari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni qiyosiy taqqoslab ko'rish (Kopetdog', Hisor, Zarafshon tog'oldi hududlari hamda Qizilqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir.

Undan tashqari, O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni, mil. avv. VI–IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'chog'lari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, uzoq asrlar davomida xalqaro savdo va aloqa yo'llari chorrahasida joylashgan, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va, savdo-sotiqda qadim an'analarga ega bo'lgan O'zbekiston va, umuman, O'rta Osiyoda o'tgan asr va asrimiz boshlarida olib borilgan tadqiqotlar mahalliy sivilizatsiyalar taraqqiyoti masalalariga ko'plab aniqliklar kiritish imkonini berdi. Xususan, tadqiqotlar natijasida topilgan ko'pdan-ko'p moddiy madaniyat buyumlari O'rta Osiyo xalqlari ilk yozma manbalar – Ossuriya hujjatlari, Avesto, ahamoniyalar podsholarining mixxat yozuvlari, qadimgi Yunon, Rim, Xitoy tarixchi hamda geograflarining asarlarida tilga olinishidan ancha ilgari davrlardayoq rivojlangan madaniyat yaratganliklaridan dalolat beradi. Bu esa, zamonaviy talabalar bilishi muhim bo'lgan holatdir.

Ikkinchi davr. Ikkilamchi sivilizatsiyalar muttasil kengayishga intilib o'z atrofida juda ko'p aholini, ba'zan bir nechta mahalliy sivilizatsiyalarni birlashtirgan. Natijada jamiyat dinlari shaklidagi mafkura paydo bo'lgan. Shu tariqa sivilizatsiyalarning taraqqiyotida ikkinchi davr boshlanadi. Bu jarayon O'rta Osiyoda mil. avv. VIII–VI asrlar davomida, Hindistonda mil. avv. VI–III asrlarda, Xitoyda mil. avv. III–II asrlarda, Yevropada milodga yaqin davrlarda, Janubiy Amerikada XV asrda pishib yetilgan edi.

Xullas, birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishidan qat'iy nazar, sivilizatsiya – bu dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, shaharlar barpo etuvchi, o'z yozuviga ega va ma'lum qadriyatlar bilan birlashtirilgan ijtimoiy organizmlarning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidir.

2. Insoniyatning dastlabki ajdodlari.
Antropogenez jarayoni. Paleolit davri. mil. avv.
XII–IV ming yilliklarda O'rta Osiyo.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzodning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar Yevropa deydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam dastavval Osiyoning Janubida paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradilar.

Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi bir necha asrlar davomida tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib turli nazariyalar yuzaga kelgan. Chunki, «antropogenez» eng qadimgi davr tarixini o'rganishdagi muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi. Turli mamlakatlarda turli davrlarda yashagan mutafakkirlar insoniyatning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etishgan. Xitoy, yunon faylasuflari mil. avv. VI–V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb ta'riflashga urinishgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar insonni mehnat va aqliy jihatdan kamol topishi natijasida hozirgi darajasiga yetib kelgan, degan fikrni ilgari surishlariga qaramay, odamni xudo yaratganligi, yoki boshqa koinotdan kelib yerga tarqalganligi haqidagi nazariyalar ham bor.

Fanda insoniyatning paydo bo'lishi juda murakkab masala bo'lib, bu jarayon asosan arxeologik va antropologik ma'lumotlar bo'yicha o'rganiladi. Ammo, insoniyat paydo bo'lishining afsonalar, rivoyatlar, ilohiyot va koinot bilan bog'liq bo'lgan nazariyalari ham mavjuddir. Misol uchun, yakka xudolikni targ'ib etgan barcha diniy ta'limotlarda insonning paydo bo'lishi, yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog'lanadi. Xususan, «Bibliya» ta'limotiga ko'ra, odamzod xudo tomonidan 7 ming yil ilgari «qizil loydan» yaratilgan. Muqaddas Qur'oni karimda esa odamning loydan yaratilib Allohning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta'kidlanadi. Zardushtiylik dinida ham shunga o'xshash rivoyatlar mavjud. Insoniyatning ilk vakillari sifatida Bibliyada Adam va Yeva, Qur'oni karimda Odam ato va Momo havo, zardushtiylikda esa Iyim nomlari keltiriladi. Undan tashqari Yevropa olimlarining insoniyat qandaydir kichik mavjudotlar (bakteriyalar)dan paydo bo'lganligi yoki koinotdan tushgan odam qiyofasidagi jonzoqlar haqidagi nazariyalari ham bor.

Dunyoviy fanlar, xususan tarix fani yuqoridagi g'oya va nazariyalarni, hatto hozirgi paytdagi gepotezalar – ko'rinmas odam yoki koinotdagi odamlar kabilarni inkor etmagan holda antropogenez jara-

yonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillarga asoslanib o'rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo'lib, u yerdagi taraqqiyotning ma'lum bosqichida vujudga kelib, uzluksiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar qolgan barcha nazariyalar hamda rivoyatlardan ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayoni antropogenez (yunoncha «antropos» – odam, «genezis» – rivojlanish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda antropogenez jarayoni quyidagi to'rtta bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Odamning ilk ajdodlari.
2. Eng qadimgi odamlar.
3. Qadimgi odamlar.
4. Hozirgi qiyofadagi odamlar.

Odamning hayvonot dunyosidagi ajdodlar bilan bog'liqligi haqidagi g'oya ingliz olimi Ch. Darvinga tegishli bo'lib, uning nazariyasi bo'yicha, insonning hayvonot dunyosida ajralib chiqishidagi asosiy omillar – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir. Jamiyatshunos olimlar bu jarayonda mehnatning roli yuksak bo'lganligini ham ta'kidlashadilar.

Ingliz olimlari ota-bola Likilar o'tgan asrning 50–60-yillarida Sharqiy Afrikada (Olduvoy darasida) qazishma ishlari olib borib oddiy tosh qurollar va qazilma odam qoldiqlarini topib, ular bundan 3–3,5 mln. yil ilgari mavjud bo'lgan degan g'oyani ilgari surishadi.

Fanda eng qadimgi odamlar avstralopitek, zinjanthrop, pitekantrop va sinantrop deb ataladi. Olimlar ularni Homo habilis – xomoxabilis – «ishbilarmon odamlar» turiga kiritgan. Avstralopitek (lotincha «australis» – Janubiy, «pitiekos» – maymun, Janub maymuni)lar bundan 6–5 mln. yil ilgari shakllangan.

Tanzaniyaning Zinj qishlog'i yaqinidan topilgan eng qadimgi odamlar zinjanthrop deb nomlagan, ular Avstralopitek bundan 2–1,5 mln. yil ilgari yashashgan.

Zinjanthroplardan keyingi davrda yashagan qazilma odamlar qoldiqlari Indoneziyadagi Yava orolidan XIX asrning oxirlarida topilgan bo'lib fanda ularni «Pitekantrop» («Maymun – odam») deb atash rasm bo'lgan. Pitekantrop bundan taxminan 1 mln. –





700–600 ming yil ilgari (E. Dyubua) yashaganlari aniqlangan. Shuningdek, 1927-yilda Xitoy hududlaridan topilgan (D. Blek) qadimgi odam qoldiqlari («Sinantrop» – Sinantrop «Xitoy odami») bundan 600–500 ming yil ilgari davrga oidligi aniqlangan. Undan tashqari, eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Germaniyaning Geydelberg, Bengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan. Olimlar pitekanthrop va sinantrop larni Homo erectus (xomoerektus), ya'ni

tik yuruvchi odam turiga kiritishadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, zinjanthrop, pitekanthrop, sinantrop larni eng qadimgi odamlar shakllanib rivojlanishining turli tarixiy bosqichlaridir. Bu turdagi qadimgi odamlar gavdalarini tik tutib yurishgan va toshdan turli mehnat qurollari yasab ulardan foydalana bilishgan. Qurol yasay bilishi, o'simlik ildizlari va mevalarni iste'mol qilishda shu qurollardan foydalanishi, shuningdek ayrim hayvonlarni ovlashi qadimgi odamlarni hayvonot olamidani ajratib turgan.

Arxantrop larni – eng qadimgi odamsimon maymunlarning odamga aylanishi jarayonidagi oraliq mavjudotlar bo'lib, ularda maymun va odamning belgilari mujassamlashgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, «Arxantrop» larni (qadimgi odamlar) eng qadimgi odamlardan farqlanib, ular zamonamizdan 100–50 ming yil keyin yashashgan.

Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastavval Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi sababli fanda ularni «Neandertal odami» deb nomlash qabul qilingan. Neandertal qiyofadagi odamlarning suyak qoldiqlari bugungi kunga qadar Afrika, O'rta yer dengizi qirg'oqlari, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo'ylaridan, Shimoliy Yevropa hamda Osiyo yerlaridan ko'plab topilgan. Bu qiyofadagi odamlar jismoniy jihatdan nisbatan ancha baquvvat bo'lib, 25–26-yil umr ko'rgan. Ular toshdan xilma-xil qurollar yasashni bilishgan.

Neandertallarning tashqi qiyofasi, gavda tutish va fikrlashida hayvonotga xos bo'lgan belgilar saqlanib qolgan bo'lib, ularning bosh miyasi u qadar rivojlanmagan. Lekin zamonaviy qiyofadagi odamga ancha yaqinlashib qolishgandi.

1968-yilda tadqiqotchilar Fransiyaning Tordoni viloyati, Kromanyon g'oridan 5 ta odam dafn etilgan mozorni ochib o'rganishadi.

Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu yerdagi baland bo'yi (180 sm), tashqi ko'rinishi va qiyofasi, miya hajmi zamonaviy odamlarga o'xshash odamlar dafn etilgan. Olimlar g'oridan topilgan odamlar qoldiqlarini g'or nomi bilan «kromanyon odam», ya'ni Homo sapiens (Xomosapiens – aql-idrokli odam) deb atashadi. Zamonaviy odam qoldiqlari bugungi kunda yer yuzining yuzdan ziyod makonlaridan ochib o'rganilgan. Ta'kidlash lozimki, kromanyon odami zamonasiga kelib dastlabki ajdodlarimizning biologik va jismoniy qiyofasi hozirgi zamon odamidani farq qilmaydigan darajada edi. Kromanyonlar davri urug'chilik jamoasi davri edi.

Eng qadimgi odamlar o'zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko'paytirib va sifatini yaxshilab borishgan. Natijada ularning turmush-tarzi, jismoniy ko'rinishida o'zgarishlar bo'lib borgan. Shuningdek, miya hajmi ham o'zgarib borgan. O'rta tosh asridagi turli sabablarga ko'ra, birinchi navbatda, tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana borishadi. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Antropogenez jarayonida mehnatning o'zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarning tashqi ko'rinishidan ham aniqlanadi. Ko'p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar – odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon mehnat ekanligidan dalolat beradi.


Ilmiy tadqiqotlarda tariximizning eng qadimgi davri tarixiy jihatdan ikkita yirik davrga: ibtidoiy to'qmoq va urug'chilik jamoasi davriga bo'linadi. Urug'chilik jamoasi o'z navbatida ikki bosqichga: matriarxat (ona urug'i) va patriarxat (ota urug'i)ga ajratiladi. Arxeologik jihatdan esa eng qadimgi davr mehnat qurollarining tayyorlanishi va takomillashuviga qarab **paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va ilk temir** davrlariga bo'linadi.

Paleolit (yunoncha, «palayos» – qadimgi, «litos» – tosh) – insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo'lib, uning boshlanish sanasi taxminan

bundan 3 mln. yil ilgari davr bilan belgilanadi. Bu davr asosan tosh qurollar davri edi. Insoniyat minglab yillar davomida yashash zaruriyati tufayli toshga ishlov berish texnikasini takomillashtirib va rivojlantirib borgan, turmush-tarzi hamda yashash sharoitini yaxshilashga harakat qilgan. Paleolit davri arxeologik nuqtai nazaridan uch bosqichda: ilk, o'rta va so'nggi bosqichlarga bo'lib o'rganiladi. Ushbu bosqichlar arxeologik davrlashtirishga mansub bo'lib, u faqat ibtidoiy jamiyatdagi qurollar yasash xomashyosiga, uni ishlash texnikasiga qarab bo'lingan. Shuning uchun ham bu davrlashtirish ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasini bildirmaydi va belgilamaydi.

Ilk paleolitning dastlabki davrida (1,5–2 mln. yil ilgari) Janubiy va O'rta Yevropada iqlim subtropik, Janubiy Osiyo va Afrikada tropik bo'lib, issiqsevar hayvonlar keng tarqalgan. Misol uchun, Yevropada fil-lar, begemotlar, yovvoyi otlar, Osiyoda ibtidoiy ho'kizlar, karkidonlar, otlar, zebralar paydo bo'lgan. Bu hududlarda issiqsevar o'simliklar keng tarqalgan.

Eng qadimgi davrni davrlashtirish sxematik tarzda quyidagicha namoyon bo'ladi:¹



¹ A. S. Sagdullayev bo'yicha.

Yaqin yillarga qadar O'zbekiston hududlari eng qadimgi odamlar tomonidan 100 ming yillar ilgari o'zlashtirilgan deb hisoblanib kelinardi. Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Yevropa paleoliti bilan bog'lab kelishardi. Ammo, so'nggi yillarda O'zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

O'tgan asrning 80-yillarida arxeolog O'. Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg'ona vodiysidagi Selung'ur (So'x tumani) g'oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo'lishdi. So'nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selung'ur ilk paleolit davriga oid bo'lib, qalinligi 30 sm dan 1 metrgacha bo'lgan 5 ta madaniy qatlamlardan iborat. Bu qatlamlardan tabiiy jins parchalari va siniqlaridan tayyorlangan qo'l chopqisi, to'mtoq boltalar, pichoqsimon va tishli hamda qush tumshug'iga o'xshash qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan 32 turdagi sut emizuvchi hayvonlarga tegishli bo'lgan 5 tingdan ortiq suyak qoldiqlari tadqiq etilib, Selung'ur hayvonot dunyosi majmuasi qayta tiklangan.

Bu qatlamlardan juda ko'plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko'p hollarda Olduvoy qurollariga o'xshab ketadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Selung'ur topilmalarining yoshi 1 mln. yildan ziyodroqdir. Selung'ur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari va yelka suyaklaridir. Fanda «Farg'ona odami» – «Fyergantrop» deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning insoniyat paydo bo'lib rivojlangan o'choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi.

Undan tashqari Ko'lbuloq makonidan (Shimoli-Sharqiy O'zbekiston, Toshkent vil.) ham ko'p qatlamli yodgorlik ochilgan bo'lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu yerdan 100 dan ziyod chopper, nukleus, qirg'ich va tarashlagich tosh qurollar topilgan.

Ko'lbuloqda 1993–1998-yillarda o'zbekistonlik arxeologlarning chet ellik hamkasblari bilan qo'shma ishlari natijasida paleolitning barcha bosqichlariga oid ko'plab madaniy qatlamlar, xususan, ilk paleolitga oid 22 ta, o'rta paleolitga oid 24 ta, so'nggi paleolitga oid 3 ta madaniy qatlam aniqlandi. 2007-yilda qazishmalar qayta boshlanib Qizilolmasoyda tadqiqotlar davom ettirildi. Yangi tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy

madaniyat buyumlari qadimgi tosh davri industriyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlariga yanada aniqlik kiritish imkoniyatini berdi.

Tadqiqotchilar Tyan-Shan etaklaridagi Onarcha (Qirg'iziston) makonidan hamda Pomir etaklaridagi Qoratov (Janubiy Tojikiston) makonlaridan ham ilk paleolit davri qatlamlarini aniqlab, bu qatlamlardan juda ko'plab tosh qurollar topishgan.

Ilk paleolit davri odamlari toshdan qurol yasash jarayonida, bu qurollarni takomillashtirib, o'zlari ham rivojlanib borishgan. Bundan 500 ming – 1 mln. yil ilgari o'ziga xos ibtidoiy madaniyat yaratgan, oddiy tosh qurol-cho'qmor yasash orqali kishilik madaniyatiga asos solgan odamlar o'zlari yashash uchun qulay bo'lgan hududlarga o'rnatishadi. Ularning faoliyati izlari hozirgi kunda noyob moddiy yodgorliklar hisoblangan makonlar va ulardagi madaniy qatlamlarda qoldirilgan. O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekistonning geografik sharoiti ibtidoiy odamlarning yashashi hamda turmush-tarzi uchun qulay bo'lganligini ham ta'kidlash lozimdir.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarda sodda va qo'pol tosh qurollar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilarining qurollari o'zining soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatdan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o'tkazishgan hamda tabiat oldida juda ojiz bo'lib, unda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib yashashgan. Ular na diniy tushunchani, na hunarmandchilikni va na chorvachilikni bilishgan.



Paleolit davri tosh qurollari.

O'rta paleolit (Muste madaniyati) – qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. O'rta paleolit davriga kelib (bundan 100–40 ming yil muqaddam) neandertal qiyofali odamlar keng hududlarga yoyiladi hamda avv. davrga nisbatan tabiat bilan faolroq munosabatga kirishadi. Bu davrda tabiiy sharoit o'zgarib Yevropa, Osiyo va Amerikaning katta qismini ulkan muzliklar qoplaydi. Natijada mamontlar, Shimol bug'ulari, ayiqlar, umuman, sovuqsevar hayvonlar keng tarqaladi. Muzlikning siljishi oqibatida ob-havoning sovushi neandertal odamlarining tabiiy sharoitga moslashishiga turtki bo'lgan edi. Bunday moslashuv yashash zaruriyatining turli ko'rinishlari – sovuqdan saqlanish, boshpana izlash, kiyim kiyish, olovni kashf etish kabilar bilan izohlanadi. Undan tashqari bu davr odamlari o'z faoliyatlari davomida dunyoni bilish, tabiat to'g'risida, undagi o'zgarishlar va voqealarga munosabat borasida ma'lum dunyoqarashga ega bo'lib, ibtidoiy bilimlar hamda fikrlash ko'nikmalarini egallay boshlaydilar.

Bu davrda tosh qurollar turlari va ularning funksiyasi takomillashuvida anchagina o'zgarishlar kuzatiladi. Hozirgi kunda o'rta paleolit davri tosh qurollarining 60 dan ziyod turlari aniqlangan bo'lib, ular orasida o'tkir uchli qurollar va tarashlagichlar keng tarqalgan.

Bu davrga oid O'zbekistondagi dastlabki yodgorlik Teshiktosh (Surxondaryo) g'or makoni 1938-yilda A. Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Keyinchalik O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlandi va ularda tadqiqot ishlari olib borildi. Omonqo'ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo'tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Qorabura (Baxsh vohasi), Jarqo'rg'on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg'iziston), Og'zikichik (Tojikiston), Xo'jakent (Toshkent viloyati), Qopchig'ay (Qirg'iziston) kabi ko'plab makonlar o'rta paleolit davriga oid bo'lib, ularning jami 300 ga yaqinlashib qoladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyo hududlarida o'rta paleolit nisbiy tarzda mil. avv. 100–40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Surxon vohasidagi (Boysuntog') Teshiktosh g'or makoni topilmalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. O'rta paleolit davriga mansub bu g'or makon Shimoli Sharqqa qaragan bo'lib, kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m. Tadqiqotlar nati-

jasida g'or makondan beshta madaniy qatlam aniqlanib, bu qatlamlardan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Undan tashqari, turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg'ich-tarashlag'ichlar alohida o'rin egallab, ularning ba'zilari kesgich qurol vazifasida ishlatilgan bo'lishi ham mumkin.

Eng muhimi shundaki, Teshiktosh g'or makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab qo'yilgan. Shuningdek, g'or makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o'rni va atroflaridan tog' echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan.

Toshkent viloyatidagi Obirahmat makoni (1962-yilda ochilgan, g'or yaqimidagi buloq nomi bilan nomlangan) Tyanshan-Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimidan topilgan. G'or makon yoysimon shaklda bo'lib, Janubga qaragan, sahni keng, quruq va yorug'. G'orda 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan bo'lib, ushbu qatlamlar qadimgi odamlar bu yyerda uzoq vaqt yashaganlaridan dalolat beradi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parrakchalar, o'tkir uchli sixchalar, qirg'ichlar va kurakchalar, uchrindidan tayyorlangan kesgichlar topilgan bo'lib, ularning umumiy soni 30 mingdan oshadi. Shuningdek, Obirahmatdan hayvon suyaklaridan yasalgan bigizlar hamda bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, jayron, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari, gulxan, kul, ko'mir va boshqa narsalar qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Obirahmatda qadimgi odamlar miloddan 120–40 ming yil ilgari yashab, terib-termachilik va yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilishgan.

Obirahmatda tadqiqotlar yangidan boshlanib, 2003-yilning yozida arxeologlar g'or makondan zamonamizdan kamida 50 ming yil muqaddam yashagan qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini topishdi. Bu yyerdan topilgan qadimgi odam suyaklari faqat O'zbekiston emas, balki Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, topilgan kalla suyagi va tishlar hozirgi zamon odamining neandertal odami bilan omuxtalashganligini namoyon etadi. Shuning uchun nam, uning ko'pgina morfologik jihatlari noyob bo'lib,

paleoantropologik jihatdan o'xshashi deyarli yo'q. Undan tashqari, bu topilma, yaqin-yaqinlargacha ehtimoldan uzoq deb hisoblab kelingan hozirgi odamlarning ajdodlari bilan neandertalning chatishganligiga dalildir. Ushbu qadimgi odam suyak qoldiqlari qadimgi tosh davri O'rta Osiyo aholisi tashqi qiyofasiga yanada aniqliklar kiritish uchun muhim ham hissa bo'lib qo'shildi.

Topilmalari bilan mashhur bo'lgan Qo'tirbuloq makoni Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on hududlaridan topilgan. Tadqiqotlar natijasida makondan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Qatlamlarning qalinligi har xil bo'lib, ulardagi topilmalar ham bir xilda tarqalmagan. Bu qatlamlarda o'tkir uchli poykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, ikki tomoniga ishlov berilgan bargsimon qurollar va boshqa turli-tuman tosh qurollar topilgan. Shuningdek, ko'plab yovvoyi hayvonlar – fil, bug'u, yovvoyi ot, quyon kabilarning suyaklari aniqlangan. Qo'tirbuloqda yashagan qadimgi odamlar mevalar va o'simlik ildizlari hamda yovvoyi hayvonlarni ovlab turmush-tarzi yuritgan.

Shuningdek, Boysun tog'idagi Amir Temur g'ori, Toshkent vohasining Xo'jakent, Bo'zsuv, Ko'lbuloq makonlari, Farg'ona vodiysidagi Jarqo'ton, Bo'ribuloq, Tomchisuv yodgorliklari, Zarafshon vohasidagi Omonqo'ton, To'rdara, Qo'tirbuloq makonlari ham o'rta paleolit davriga oiddir.

O'rta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O'rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlashadi. Bu davrda, ayniqsa, uning so'nggi bosqichida qadimgi odamlarning turmush-tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo'ladi. Qurollarning turlari ko'payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog'liq bo'lgan nayzasimon o'tkir paykonlar, turli pichoqlar, qirg'ichlar, kechgichlar shular jumlasidandir. Bu davrning ijtimoiy **kromanyon odami** hayotdagi eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o'xshash odamlar (kromanyon) paydo bo'lishi uchun zamin hozirlandi.

Bu shart-sharoitlarning negizida mehnat qilish bilan bevosita bog'liq mehnat qurollarining takomillashuvi va shu asosda o'sha davr kishilarining xo'jalik hayotidagi ilgari tomon qilingan dastlabki siljishlar yotadi. Demak, bu davr – ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qurollar takomillashayotgan, nutq madaniyati o'sib borib,



fikrlash nisbatan ancha oshgan, olov sun'iy tarzda yaratila boshlangan, ovchilik ancha rivojlanib, keng hududlarga tarqalgan davr edi.

O'rta paleolit davri O'rta Osiyo hududlarida tabiiy iqlim o'ziga xos bo'lib, yozda ob-havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namgarchilik bo'lgan. Bu davrning o'rtalari va oxirlariga kelib Shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida iqlim tamoman o'zgaradi. Natijada qadimgi odamlar turmush-tarzida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko'proq g'orlarga joylasha boshlashadi. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib kyetib, Shimol bug'ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo'ladi. Ulkan hayvonlarning paydo bo'lishi esa, o'z navbatida, jamoa bo'lib ovchilik qilishning paydo bo'lishiga olib keldi.

Undan tashqari, sovuq iqlim tufayli o'rta paleolit davri odamlari olovni kashf etishadi hamda sun'iy olov chiqarish va uni saqlashni o'zlashtirishdi. G'or va ungurlarni o'zlashtirish, o'choq yasab uning atrofida to'planish va, nihoyat, jamoa bo'lib ov qilish uslublarining paydo bo'lishi mintaqamizdagi qadimgi odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

So'nggi paleolit uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi bo'lib, nisbiy tarzda mil. avv. 40–12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davr yodgorliklari muste madaniyati yodgorliklari madaniyatiga nisbatan kamroq o'rganilgan. Hozirgi kunga qadar O'rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Samarqand (shaharning o'zida), Xo'jag'or (Farg'ona vodiysi), Shug'nov (Pomir etaklari), Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog'iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

So'nggi paleolit davri qadimgi odamlarning zamonaviy jismoniy qiyofasi shakllanishida, ibtidoiy to'dadan jamoaga o'tilishida, tosh qurollar tayyorlashda yangi yutuqlar qo'lga kiritilishida muhim ahamiyat kasb etgan davrdir. Chunki, bu davrga kelib mehnat qurollari yasash texnikasida, ibtidoiy xo'jalik shakllarida, qadimgi odamlarning yashash sharoiti hamda turmush-tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, fikrlash va dunyoqarashida, jismoniy qiyofasida keskin o'zgarishlar bo'lib o'tdi.

Bu davrdagi moddiy madaniyat o'z xususiyatlari hamda tayyorlanish uslublari bilan ilgarigi davr tosh qurollariga nisbatan ancha takomillashadi. Xususan, bu davrda keng tarqalgan tosh qurollar to'g'ri va uzun shaklda bo'lib, ulardan asosan pichoq sifatida foydalanilgan.

Shuning uchun ham, arxeologiya fanida ular pichoqsimon qurollar deb ataladi. Ushbu davrning ajralib turadigan muhim xususiyatlaridan yana biri – suyakdan qurollar yasash edi. Misol uchun, bu davr topilmalari orasida suyakdan yasalgan garpunlar va ignalar ko'plab uchraydi.

Bu davr makonlaridan topilgan topilmalar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlardan ham dalolat beradi. Xo'jalikdagi asosiy mashg'ulot ovchilik va temirchilik bo'lib, erkaklar ovchilik bilan, ayollar esa termachilik bilan shug'ullanishgan. Undan tashqari, xo'jalikni boshqarish, olovni saqlash ham ayollar zimmasida bo'lgan. Shu bois, urug'chilik tuzumiga asoslangan ibtidoiy jamoa – matriarxat (urug'i jamoasi) deb atalgan.

So'nggi paleolit davriga kelib hozirgi zamon qiyofasidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o'zida yevropiod, negroid va mongoloid irqalarining paydo bo'lishiga olib kelgan edi. Ular birbirlaridan terisining rangi, soch va ko'zlarining shakli hamda rangi, muskullar va bo'ylarining uzun-kaltaligi, bosh suyagining shakli, yuz tuzilishi va boshqa belgilari bilan farqlangan. Irqlarning shakllanishida tabiiy sharoit ham muhim ahamiyat kasb etgan. Negroidlar Afrikada, yevropiodlar Yevropada, mongoloidlar Osiyo hududlarida keng tarqalishgan.

Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan Ko'lbuloq makonining eng tepadagi uchta qatlami so'nggi paleolit davriga oiddir. Bu qatlamlardan nisbatan takomillashgan tosh qurollar hamda ko'plab hayvon suyaklari topilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda Toshkentning G'arbidagi Bo'zsuv I makoni ham so'nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan.

Samarqand shahrida 1939-yilda ochilgan yodgorlik mintaqadagi so'nggi paleolit davriga oid dastlabki makon hisoblanadi. Samarqand makoni ko'p qatlamli bo'lib bu qatlamlardan ko'p sonli (7,5 ming) xilma-xil topilmalar topilgan. Ular orasida qirg'ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, ushatgichlar, boltalar kabilar bor. Shuningdek, madaniy qatlamlardan gulxan qoldig'i, ko'mir parchalari va gulxan atrofidan hayvonlar hamda o'simliklar qoldiqlari, chayla ustunlari, kromanyon odamning suyak qoldiqlari aniqlangan. Bu topilmalar bu yyerda yashagan kishilarning ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi.

Undan tashqari turli yillarda O'zbekiston hududlarida so'nggi paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlangan bo'lib, ularning nisbatan mashhurlari quyidagilardir:

Bo'zsuv I makoni – Toshkent shahridagi Qoraqamishsoyning (hozirgi Chilonzor tumani va Erkin mavzusi hududlari) bo'ylarida joylashgan. Tadqiqotchilar tomonidan turli yillarda bu makondan 100 ga yaqin tosh qurollar (tosh pichoqlar, tosh qirg'ichlar va boshq.) topib o'rganilgan.

Bo'zsuv II makoni – Toshkent shahrining Bo'zsuv sohilidagi Sho'ralisoy degan joydan topib o'rganilgan. Olimlar tomonidan bu yerdagi madaniy qatlamdan 100 dan ziyod tosh qurollar (ikki tomonlama ishlov berilgan tosh pichoqlar, qirg'ichlar, nukleuslar va boshq.) topib tadqiq etilgan.

Tuyabo'g'iz makonlari – Toshkent viloyatida joylashgan bo'lib, unda so'nggi paleolit davriga oid oltita makon mavjud. Bu makonlar Tuyabo'g'iz suv ombori havzasidan topib o'rganilgan. Makonlardagi madaniy qatlamlardan parrakchalar, teshgichlar, qirg'ichlar kabi ko'plab tosh qurollar tadqiq etilgan.

Takalisoy g'ori – Samarqand viloyati hududida joylashgan bo'lib, olimlar tomonidan bu makondan nukleuslar, qirg'ichlar, tosh pichoqlar va turli hayvonlarning ko'plab suyaklari topilgan. Bu yerda yashagan qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti ovchilikdan iborat bo'lgan.

Xo'jamazgil makoni – bu makon ham Samarqand viloyatida joylashgan bo'lib makondan turli rangi chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar, kesgichlar, o'roq-randalar, pichoqlar, chopqilar, ugrindilar, nukleuslar kabilar topib o'rganilgan.

Umuman olganda, ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyo so'nggi paleolit davrini asosan uchta – **Samarqand, Xo'jag'or va Ko'lbuloq** madaniyatlariga ajratishadi. Bu davrga oid madaniyatlardan faqat Samarqand shahridan so'nggi paleolit davri odamining qoldiqlari, ya'ni yelka suyak qismlari, pastki jag' va tishlar topilgan bo'lib, tadqiqotchilar bu suyaklarni 25–30 yoshli kromanyon qiyofali ayolga tegishli bo'lgan deb hisoblashadi.

So'nggi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush-tarziida ham turli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Xususan, odamlar g'orlardan chiqib yengil turar joylar-chayla va yarim yyerto'lalarda yashay boshlashadi. Ular endi faqat tog'li hududlarda yashab qolmay vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylarida joylashishadi

hamda qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo'ladi hamda ular ayrim urug'larni birlashtirib urug' jamoasini tashkil etadilar.

Urug'chilik (matriarxat) qadimgi jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu jarayon ijtimoiy hayotdagi qator o'zgarishlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Lekin, dastlabki urug'chilik tuzumi nisbatan rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tarilgan bo'lishiga qaramay, bu davr odamlari ovchilik, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirishardi.

Paleolit davriga xulosa yasab shuni aytish mumkinki, bu davrda odamning paydo bo'lishi jarayoni (antropogenez) asosan tugadi. Qadimgi odamlar xo'jalik yuritishning eng oddiy yo'llaridan (terib-termachlab) murakkabroq ko'rinishlariga (ovchilik, baliqchilik)ga o'tishdi. Olov kashf etildi. Insoniyat to'da davridan urug'chilik tuzumiga o'tdi. Mehnat qurollari takomillashib, ularning turlari ko'paydi va sifati yaxshilanib bordi.

Bu davrda qadimgi odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'ldi. Teshiktoshda murdani maxsus qabr qazib ko'milishi, uning yoniga tog' echkisining shoxlari va tosh qurollar qo'yilishi mutlaqo tasodifiy hol emas edi. Bu jarayon paleolit davri neandertal odamlari garchi sodda bo'lsa-da, ko'mish marosimlariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi.

Tosh asrining keyingi rivojlanish davri fanda mezolit (o'rta tosh asri) asri O'rta Osiyoda nisbiy tarzda mil. avv. 12–7 ming yilliklar deb qabul qilingan. Mezolit – odamlarning yer yuzi bo'ylab keng tarqalish davri bo'lib, ular Shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog'li hududlarga ham tarqala boshlashadi. Kaspiy bo'ylaridan Tyanshan-Pomirgacha, Markaziy Qozog'istondan Kopettog' etaklarigacha bo'lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining namunalari topib o'rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg'ona vodiysi), Markaziy Farg'ona, Bo'zsuv, Qo'shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston), Darayi sho'r (Baxsh vohasi) kabi O'rta Osiyodagi 50 dan ziyod yodgorliklar, shular jumlasidandir.

Mezolit davriga xos bo'lgan xususiyatlar, chegarasi va nomlanish borasida olimlar orasida ko'plab bahs-munozaralar mavjud edi. Chunonchi, bir guruh olimlar bu davrga qadimgi tosh asrining

alohida bosqichi deb baho berishgan bo'lsa, ayrimlari tosh asrining so'nggi bosqichi degan fikrni bildirishgan. Ammo, ko'plab olib borilgan tadqiqotlar natijasida tosh qurollar shakli, qo'llash va ishlash texnikasidagi o'zgarishlar ilmiy o'rganilib, yangi xususiyatlar aniqlandi hamda bu davr tosh asrining o'rta bosqichi ekanligi e'tirof etildi. O'rta tosh asrining quyi va yuqori chegaralarini belgilashda tadqiqotchilar geografik shart-sharoit, toshni qayta ishlash texnikasi va odamlarning turmush-tarzi hamda mashg'ulotlariga asosiy e'tibor qaratishadi.

Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana Shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Buning natijasida O'rta Osiyo hayvonot olami va o'simliklar dunyosida ancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Paleolit davrining yirik hayvonlari yo'qola borib ular o'rniga kichik tuyoqli, tez yuguruvchan hayvonlar – jayron, sayg'oq, bug'ular, tog' echkisi, arslon, yo'lbars, qoplon, quyon kabilar ko'paya boradi. Shuningdek, Janubga xos issiqsevar, yovvoyi boshqoqli o'simlik va daraxtlar ham tobora ko'payib bordi. Tabiat va iqlimdagi bu o'zgarishlar mezolit davri kishilarining hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o'zlashtira boshladilar. Xususan, Janubiy o'lkalarda, shuningdek O'rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar-mikrolitlar paydo bo'lib ular uchun suyak va yog'och dastachalardan qadama sifatida foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama – o'q-yoyni kashf etdi. Natijada chopqir, kichik tuyoqli hayvonlar va parrandalarni ov qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yovvoyi hayvonlar – it, qo'y, echki kabilarining qo'lga o'rgatila boshlanib, xonakilashtirilishidir. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O'rta Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlanadi. Bu jarayon ilg'or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik iqlim bilan bevosita bog'liq edi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi Machay (Boysun) g'or makonidir. Daryo sathidan 70 metrcha baland-

likda joylashgan bu makonda qalinligi 40 smdan 1 metr oralig'ida bo'lgan 2 ta madaniy qatlam bo'lib, ushbu qatlamlardan ko'plab suyak va asosan tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, mo'zan kabildan iborat bo'lsa, tosh qurollar – pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushatgich toshlar, nayza va o'q uchlari kabilaridir. Bu qurollarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lsa ham Janubiy Qozog'iston va Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o'xshab ketadi.

Machay makoni topilmalarining eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerdan antropologik topilmalar – odam bosh suyaklari, tishi, jag'i va boshqa a'zolari qoldiqlari topilgan bo'lib, bu topilmalarni o'rganish tadqiqotchilarga O'rta Osiyoning Janubidagi mezolit davri kishilarining evropoid irqiga mansub ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Odam suyaklaridan tashqari Machayning madaniy qatlamlaridan bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon kabi hayvonlarning ham suyak qoldiqlari topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda 20 turdan ziyod hayvon suyaklari mavjud bo'lib, ularning aksariyati mayda, sindirilgan va olovda kuydirilgan. Demak, machaylik mezolit davri odamlari olovdan keng foydalanishgan hamda hayvon va parranda go'shtlarini olovda pishirib yeyishgan.

O'zbekistonning Janubidagi yana bir mezolit davri yodgorligi Ayritom makoni bo'lib, u Termezdin 18 km uzoqlikda joylashgan. Ushbu yodgorlikning ko'p qavatli madaniy qatlamlaridan tosh parmalagichlar, nukleuslar, tosh uchrindilar, o'q uchlari kabilar topib o'rganilgan.

Farg'ona vodiysidan mezolit davriga oid Obishir g'or makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg'ichlar, pichoq qadamalari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan deyishimiz mumkin.

Keyingi 30–35-yil ichida Markaziy Farg'ona hududlaridan Sho'rko'l, Achchiqko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko'l kabi 80 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari aniqlandi. Ularning ko'pchiligi ko'l yoqalaridan topilgan bo'lib aftidan bu joylar mezolit davri kishilarining yashashlari uchun ko'pgina qulayliklarga ega bo'lgan. Bu yerlardan topilgan ko'pgina qurol va tosh buyumlar o'zining nisbatan nozikligi, ixchamligi bilan paleolit davri qurollaridan ajralib turadi. Markaziy

Farg'ona tog'lari orasida yashagan mezolit davri qabilalarining turmush-tarzi yovvoyi hayvonlarni ovlash va termachilik bilan bog'liq bo'lib, Markaziy Farg'onadagi mezolit davri qabilalari xo'jalik hayotida ovchilik, termachilik hamda baliqchilik ustunlik qilib, qulay tabiiy-geografik sharoit mazkur hududlarda qadimgi odamlarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

Markaziy Farg'ona mezolit yodgorliklari ochiq makonlar bo'lib, ularda madaniy qatlamlar saqlangan. Ushbu makonlarda yashagan mezolit davri qabilalari ovchilik, baliqchilik va termachilik mashg'ulotlari va turmush-tarzi bilan kun kechirishgan. O'rta Osiyoning Markaziy Farg'ona mezolit davri quyidagi ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilk mezolit – Ittak qal'a, Achchiq ko'l, Yangiqadam, Toypoqko'l kabilar bo'lib, ular mil. avv. IX–VIII ming yilliklar bilan sanaladi.

2. So'nggi mezolit – Achchiqko'l, Yangiqadam, Bekobod, Sho'rko'l, Madiyor, Zambar, Taypoqko'l makonlari (ko'plarining yuqori qatlamlari) bo'lib, ular mil. avv. VII ming yillik bilan sanaladi.

Toshkentning G'arbida, qadimgi Bo'zsuv anhuri sohilidan Qo'shilish mezolit makoni topib tadqiq etilgan. Ushbu makondan chaqmoqtoshdan ishlangan nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirg'ichlar, har xil shakldagi qurollar, tosh pichoqlar, silliqlangan tosh qurollar topilgan. Qo'shilish makoni topilmalari mil. avv. XI–X ming yilliklariga oid bo'lib, bu yerda yashagan qadimgi qabilalar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan.

Xullas, mil. avv. XI–X ming yilliklariga kelib Kaspiy bo'ylaridan Pomir tog'larigacha, Kopetdog' etaklaridan Markaziy Qozog'istongacha bo'lgan keng hududlarda mezolit davri qabilalari yoyilishadi. Ushbu hududlarning geografik sharoiti xilma-xil bo'lib, mezolit davri makonlari pasttekisliklar, daryo va soy bo'ylari hamda tog' oldi hududlarida joylashgan. Bu davr qabilalari va urug'lari ovchilik, baliqchilik hamda termachilik bilan kun kechirishgan. Makonlardan topilgan ko'plab hayvon suyaklari bu davrdagi chorvachilikning ilk bosqichidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo tarixida **neolit davrining** (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil. avv. VI-quyi chegarasi IV ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O'rta Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat

hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

Jamoa mehnati, ishlab chiqarish vositalarining jamoa mulki hisoblanganligi o'sha davr turmush-tarzining asosiy mezoni hisoblangan.

Ma'lumki, arxeologik davrlashtirish bo'yicha neolit davri tosh davrining so'nggi – yakunlovchi taraqqiyot bosqichi hisoblanadi. Bu davrda urug'chilik tuzumi rivojlangan bo'lib, jamoada onalar hukmron bo'lgan.

Bu davrda muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y byergan bo'lib, mahsulot ishlab chiqarila boshlangan. To'qimachilik, kemasozlik, kulolchilik paydo bo'lgan. Mehnat vositalarida o'zgarish yuz berib, xususan tosh, suyak va yog'ochga ishlov berishning an'anaviy uslublari yuksaklikka erishgan. Ayniqsa, toshni silliqlash, parmalab teshish singari texnologiyalar kashf etilgan, mikrolit qurollar yanada takomillashgan.

Eng muhimi – bu davrda mahsulot ishlab chiqarishning xo'jalik asoslari, dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'ladi. Bu voqeilik, shubhasiz, ibtidoiy odamlarning ijtimoiy tuzumi, kundalik turmush-tarzi, sallas, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining barcha sohalarida keskin, tub ilg'or o'zgarishlarga olib keladi. Aynan shuning uchun ham bu tarixiy jamiyatni ingliz arxeologi B. G. Chayld «neolit inqilobi» atamasi bilan fanga kiritgan.


Bu davrning tabiiy iqlim sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi hozirgi zamonga nisbatan yaqinligi bilan izohlanadi. Jumladan, ilgorigi taraqqiyot bosqichlariga qaraganda yangi, tabiatan ma'qul hududlarni o'zlashtirish jarayoni tezlashib, odamlar nisbatan kengroq mintaqalarda yashay boshlashadi. Hozirgi O'zbekiston hududlarida mezolitning oxiri va neolit davrda odamlar yashashi uchun qulay ekologik muhit mavjud bo'lib, bu davrda Janubi-G'arbiy Ustyurt va Qizilqumning ichki hududlari Zarafshon va Amudaryo etaklari ibtidoiy jamoalar tomonidan deyarli o'zlashtirib bo'lingan edi.

Soha mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, neolit davrida «Lav-lakon namgarchiligi» deb ataluvchi tabiiy iqlim sharoitining vujudga kelganligi yangi mintaqalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, ibtidoiy jamoalar turli tabiiy, ekologik sharoitlarga tushib qolib, bu holat ular turmush-tarzining moslashish zaruratini taqozo etgan va, o'z

navbatida, bu jarayon turli neolit madaniyatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan edi.

Joytun madaniyati Janubiy Turkmanistonda, Ashgabat shahridan 25 km Shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo'lib, bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun O'rta Osiyoda mashhurdir. Joytun qishlog'i bir necha uylardan tashkil topgan bo'lib, uylarning maydoni 12–14 kv.m dan iborat. Uy devorlari somon aralashtirilgan paxsadan qurilgan. Uylar to'g'ri to'rtburchak bo'lib, bir xonalik va har bir xonada alohida o'choq izlari topilgan. Uylar yonida esa omborxonalar, saroy va xo'jalik o'ralari ham bor. Tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda, Joytunda 30 ga yaqin uy bo'lib, unda 130–150 kishi yashagan, 5–6 kishilik oila yashagan uylarda ona urug'i hukmron bo'lgan.

Uylardan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, shuningdek har xil taqinchoq va bezaklar topilgan. Joytun xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, qurol sifatida ishlatiladigan o'tkir uchli toshlar, teshgich parchalar, qirg'ichlar, kamon o'qlarining uchlari-poykonlar topilgan.



Neolit davri sopol idishlari.

Joytun makonidan qo'lda ishlangan sopol idishlar namunalari ham topilgan bo'lib, ular O'rta Osiyodagi dastlabki sopol namunalari. Joytun qishlog'i aholisi mil. avv. VI–V ming yilliklarda yashab asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanishgan. Joytunda O'rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlanadi va bu makon hozircha mintaqadagi dastlabki dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Joytunliklar tabiiy suvlardan (qor,

yomg'ir, toshqin) foydalanib dehqonchilikka asos solishgan. Umuman olganda, Kopetdog' bilan Qoraqum oralig'idagi hududlardan ko'plab neolit davri makonlari ochilgan. Bu makonlardagi xo'jalik ishlab chiqarishi va madaniyati bir-biriga juda o'xshashligi sababli ularni fanda Joytun madaniyati (dastlabki topilgan joy nomi bilan) deb atash qabul qilingan.

Kaltaminor madaniyatiga oid makonlar dastlab Amudaryo etaklari va Xorazm hududidan topilgan bo'lib bular orasida Xorazmdagi Jonbosqal'a makoni diqqatga sazovordir. Bu yerni qazish paytida chayla va yarim yyerto'la shaklidagi makon ochilgan. Bu makon yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Ustiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, ularning usti qamish bilan berkitilgan. Chayla o'rtasidan katta markaziy o'choq qoldig'i, atrofida mayda o'choq qoldiqlari aniqlangan. Makondan mayza poykonlar, kamon o'qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul suyaklari va jiyda danaklari ham topilgan. Topilmalar orasida sopol idish namunalari ham bo'lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda ular mil. avv. V–IV ming yilliklarga oiddir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal'a sopoliga juda o'xshashdir. Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'isho'r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni o'rganish, tahlil etish, Yaqin Sharq, Qozog'iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo'lib, mil. avv. IV–III ming yilliklarga oid degan xulosaga kelishdi. Bu makonlarda yashagan neolit davri odamlari termachilik, jayron, yovvoyi cho'chqa, bug'u va boshqa hayvonlar hamda baliq ovlab kun kechirishgan.

So'nggi yillarda O'rta Osiyoning Sharqiy hududlaridan, Hisor-Pomir tog'laridan ko'plab neolit davri yodgorliklari ochildi va o'rganildi. Bu o'ziga xos madaniyat fanda Hisor madaniyati degan nom oldi. Asosan tog'oldi va tog'liklarga xos bo'lgan Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar 200 dan ziyod bo'lib Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Darayi Sho'r, Gaziyontepa kabilar shular jumlasidandir. Hisor

madaniyatiga mansub yodgorliklar asosan mil. avv. V–III ming yilliklarga oiddir.

Hisor madaniyati sohiblari sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug'ullanishgan. Hisor makonlaridan topilgan turli-tuman topilmalar ushbu jarayonlardan dalolat beradi.

Demak, O'rta Osiyoning barcha hududlaridan – Shimoldagi Ustyurtdan, Markaziy va Janubiy Qozog'istondan, Qizilqum va Qoraqumdan, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysidan ko'plab neolit davri makonlari ochilgan. Xususan, neolit davri Markaziy Farg'ona madaniyati fanda O'rta Osiyoda to'rtinchi neolit davri madaniyati deb kiritilgan.



Neolit davri mehnat qurollari.

Ushbu makonlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, neolit davriga kelib, mezolitning so'nggi bosqichlarida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqaladi. Parrakchalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoqlar, teshgichlar, parmalar, qirg'ichlar, yorma toshlar, o'roq va boshqa qurollar takomillashadi. Eng qadimgi davrning dastlabki davrida qo'lga kiritilgan barcha yutuqlar bu davrga kelib yakunlanadi. Neolit davri odamlari o'zlarining tinimsiz mehnati, kuzatuvchanlik qobiliyati, ibtidoiy bilimlarini safarbar qilib, xo'jalikning ilg'or, unumdor shaklini – dehqonchilik va chorvachilikni kashf etishdi. Geografik muhit va shart-sharoitning turli tumanligi bu davr qabilalarida mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylar va xo'jaliklarning turlicha bo'lishiga olib keldi. Xususan, O'rta Osi-

yoning Janubidagi neolit davri qabilalari xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan bo'lsa, Shimoldagi qabilalar esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli uzoq vaqt rivojlanishdan orqada qolgan. Bu holat esa hududlardagi xo'jalik hayotining notekis rivojlanishiga sabab bo'lgan edi.

Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab ularni olovda pishirish yo'li bilan kulolchilikka asos solishdi. Shuningdek, ip yigirish asosida to'qimachilikni kashf etishdi. Odamlar yog'och va qamishdan qayiq yasab (qayiqsozlik) suvda suzishni ham o'zlashtirishdi. Xullas, neolit davri yutuqlarga boy bo'lib, o'zidan ilgarigi davrlarga nisbatan yuksak rivojlanish davri bo'ldi.

Tadqiqotlar natijalariga qaraganda tosh va bronza davrlari o'rtasida **mis-tosh (eneolit)** davri bo'lganligi aniqlangan. Bu davr metall qurollarning barchasi bronzadan qilinmay sof misdan yasalganligi ma'lum. O'rta Osiyoda eneolit davri nisbiy tarzda mil. avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda mis o'zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik, egiluvchanlik) tufayli xo'jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avv.dek tosh qurollar asosiy o'rinda bo'lib qoldi. Shuning uchun ham, bu davr mis-tosh asri deb yuritiladi.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tkazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot yetishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo'lgan. O'rta Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liqdir:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qila boshlashi.
2. Toshdan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi.
3. Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari.
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i – xumdonlarning ishlatilishi.
5. O'troqchilik xo'jaligining rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g'ishtning paydo bo'lishi.

6. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumiga (matriarxatga) xos haykalchalari;

7. Rangdor sopol buyumlar, ya'ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida O'rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Lekin, bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi.

Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o'tgach, madaniy, xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo'jalik turlari – dehqonchilik va chorvachilik avv.dek, Turkmanistonning Janubi-G'arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o'simliklar o'stirishga o'tmagan edilar. O'rta Osiyoning Sharqiy qismidagi tog'li hududlar aholisi xo'jaligida esa ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida O'rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanib qoladi.

Dasht va tog' hududlaridan topilgan xilma-xil moddiy manbalarni o'rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo'shimcha xo'jaliklar – ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlanadi, deyish mumkin. Lekin, neolit davri an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining asosiy qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko'llar atrofida yashagan. Tabiiy boyliklar eneolit davri odamlari uchun hayot manbai hisoblangan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi Anov va Nomozgohtepa hududlarida aniqlangan. Bu yerdagi uyjoylar xom g'ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollarga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shuningdek, bu makonlardan topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ham ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Sirti qora bo'yoqda geometrik chiziqlar va hayvon yoki qush rasmlari bilan bezatilgan bu topilmalar mil. avv. IV ming yillikka oiddir.

O'zbekiston hududlarida eneolit davri yodgorliklari hozircha yaxshi o'rganilmagan. Mil. avv. IV–III ming yillik boshlarida Amudaryo va Zarafshon quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari,

sopol idishlari va uy-joylari keng tarqalgan. O'rta Osiyoning Shimoli-Sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo'jaliklari rivojlanadi. Buxoro vohasidagi **Lavlakon**, **Beshbuloq** makonlari va **Zamonbobo** qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan so'nggi Kaltaminor topilmalariga o'xshash sopol idishlar bo'laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar va munchoqlar topilgan.

Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km G'arbda joylashgan **Sarazm** qishlog'i xarobasi eneolit davri dehqonchilik qabilalarining O'rta Osiyoni Shimoli-Sharqiga yoyilganidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining dehqonchilik chegaralarini ham ko'rsatadi.

Umumiy maydoni 90 gektar bo'lgan Sarazm qishlog'i xarobalari 10 ta tepalikda joylashib 4 ta davrga bo'linadi. Ular topilmalarga qarab bir-biridan farq qiladi. Dastlabki ikki davr eneolit, keyingi ikki davr esa bronza davriga oiddir. Sarazmdan uy-joy va ro'zg'or-xo'jalik inshootlari qoldiqlari ochib o'rganilgan. Bu yerlardan sopol idishlar, metallardan va toshdan ishlangan qurollar, (jumladan, tosh ketmonlar) zeb-ziynat buyumlari ko'plab topilgan.

Sarazm moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston, Janubiy Afg'oniston, Eron, Hindiston madaniyatlariga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalari o'rtasidagi keng madaniy va iqtisodiy aloqalardan dalolat beradi.

3. Ibtidoiy tasviriy san'at. Bronza davri yutuqlari Yozuv haqida yangi ma'lumotlar. Ilk shaharlarning paydo bo'lish jarayonlari

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan g'orlarning devorlariga turli tasvirlar tushirish so'nggi paleolit davriga oiddir (Isponiyadagi Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib, bu san'at yangi asosda rivojlanish bosqichiga o'tadi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa, Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning namunalari topilgan. O'tmish tariximizning xilma-xil yodgorliklari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va O'rta Osiyoning tog'li tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xildir. Bu holatda bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, Altamir



g'ori (Ispaniya), ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, Hayvon tasviri chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar) keng tarqalgan.

O'lkamizdagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy, Xo'jakent kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi

hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlar kabillardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to'qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.



Zarautsoydagi hayvonlarni ovlash manzaralari.

Respublikamizdagi eng qadimgi rasmlar Zarautsoyda bo'lib (Surxondaryo), bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil. avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Undan tashqari, qoyatosh suratlarini mazmun va manzaralarining boyligi bilan ajralib turadi va ular keng tarqaladi. Ushbu suratlarining ishlanish uslubi

xilma-xil bo'lib, arxeologik yodgorliklarning bir turi hisoblanadi. Ularning mazmun va manzarasi ma'nosidan kelib chiqib, ibtidoiy yoki qadimgi davr kishilarining xo'jalik hayoti, hayvonlarni ov qilish, qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikni paydo bo'lishlari haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ayni paytda qoyatosh rasmlari o'ziga xos san'at asari bo'lib, ular orqali biz ibtidoiy va qadimgi odamlarning san'ati, estetik iste'dodi o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori darajada bo'lganligini bilib olishimiz mumkin.

Toshkent vohasi qoyatosh tasvirlari G'arbiy Tyanshandagi eng ko'p tarqalgan qadimgi san'at turi hisoblanadi. Bu hudud shu kabi tarixiy yodgorliklarga nihoyatda boy bo'lib, hozirgi vaqtda ularning soni 10 mingdan oshadi. Ular mavzularining turli-tumanligi, yuqori badiiy darajasi, manzaralarining originalligi va ajoyibligi bilan ajralib turadi. Toshkent vohasidagi ayrim petrogliflar Markaziy Osiyoda mashhur hisoblanadi. O'ziga xos va betakror qoyatosh suratlariga Xo'jakent, Qoraqiyasoy, Boshqizilsoy, Chotqol, Ohangaron kabilar kiradi.

Ushbu yodgorliklardagi qoyatosh rasmlarining xronologik sanasi – neolit – bronza davridan antik davrgacha boradi. Mazkur suratlar mazmun va mavzu jihatdan ancha boy va rang-barangdir. Ular orasida ot, it, tuya, qo'y, echki, tog' takasi, arxar, bo'ri, tulki, qoplon kabi hayvonlar tasvirlari, shuningdek ma'nosi hozirgacha noma'lum bo'lgan turli shakl va belgilar saqlanib qolgan. Ta'kidlash lozimki, rasmlar orasida yakka holda, to'da holda va raqsga tushayotgan holatda, biror-bir odatni ijro etayotgan kishilarning tasvirlari ham uchraydi.

Respublikamizning tog'li hududlarida keng tarqalgan qoyatosh suratlarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega. Chunki, ular ham boshqa moddiy manbalar qatori qadimgi ajdodlarimizning turmush-tarzi, ijtimoiy hayoti, madaniyati va san'ati, diniy tasavvurlari haqidagi muhim manba hisoblanadi. Qoyatosh suratlarining ahamiyati yana shundaki, ular O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning hayvonot dunyosi tarixini, hayvonlarning xonakilashtirilishi, chorvachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini o'rganishda keng imkoniyatlar ochib beradi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning Janubi-G'arbida mil avv. III-II ming yillikning boshlarida rivojlangan jamiyat keng ravnaq topadi. O'rta Osiyoda

bronza davri mil. avv. III ming yillik o'rtalaridan I ming yillikning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronza asri uchta xronologik davrga: ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davrlariga bo'linadi. O'rta Osiyoning Shimoliy va Sharqiy hududlarida mavjud bo'lgan bronza davri yodgorliklari madaniyati Janubiy hududlardagi o'troq madaniyatdan ajralib turadi.

O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda 50 dan ziyod ochilgan bo'lib, ular fanda **Tozabog'yob madaniyati** nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatga mansub sopol buyumlar Qozog'iston va Sibir hududlaridan topilgan sopol buyumlarga ancha o'xshab ketsa-da, o'ziga xos xususiyatlari bilan Sharqiy Yevropa chorvadorlari yaratgan bronza davri Yog'ochband madaniyatidan, Qozog'iston va Sibirdagi Andronovo madaniyatidan ham farq qiladi. Bunga asosiy sabab, tozabog'yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalgan. Tozabog'yob madaniyatiga oid makonlarning ayrimlaridan qadimiy mozorlar (Ko'kcha), ko'pchiligidan esa yarim yyerto'la shaklidagi uy-joy qoldiqlari ochilgan. Ulardan zeb-ziynatlar, hayvon suyaklari, sopol idishlar, toshdan va bronzadan ishlangan qurollar topilgan. Tozabog'yob sopol idishlari asosan qo'lda ishlangan.

Xorazmdagi so'nggi bronza davriga oid yodgorliklar **Amirobod madaniyati** nomi bilan mashhur bo'lib mil. avv. IX–VIII asrlarga oiddir. Bu madaniyat sohiblari Tozabog'yob madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim yerto'la turar joy, sug'orish inshootlari izlari va qo'lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlanadi. Amirobod madaniyatiga oid qator yodgorliklar ochilgan bo'lib, ular orasida eng yaxshi saqlangan va boy arxeologik materiallar byergani Yakka-Parson 2 makoni hisoblanadi. Makonni qazish vaqtida 20 ga yaqin yerto'la tipidagi turar joylar ochilgan. Yodgorlikdan g'alla o'ralari, omborlar, o'choq, bigiz va ko'plab hayvon suyaklari topilgan. Sopol idishlar qo'lda yasalgan.

Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari **Zamonbobo madaniyati** nomi bilan ataladi. Bu davrga mansub yodgorliklar orasida Zamonbobo ko'li yoqasidan topilgan qadimgi qabriston ayniqsa diqqatga sazovordir. Qabrlar yakka va juft qabrlar bo'lib dafn etish jarayonida ko'mish marosimlariga amal qilingan. Qazishmalar jarayonida erkaklar qabrlaridan o'q-yoy poykonlari, pichoqlar, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar; ayollar qabrlaridan sopol idishlar,

bronza ko'zgu, upadon, surmadon kabi pardoziy buyumlari va yarim qimmatbaho toshlardan turli shaklda ishlangan munchoq va marjonlar topilgan.

Zamonbobiliklar chaylasimon kulbalarda istiqomat qilib dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Topilgan ko'plab mehnat qurollari, boshqali o'simliklar qoldiqlari va hayvonlar suyaklari bundan dalolat beradi. Shuningdek, zamonbobiliklar jamoasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan kulolchilik, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash, ayniqsa, toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Zamonbobo madaniyati Janubdagi o'troq dehqonchilik jamoalari ta'birida shakllangan. Bu madaniyat xonaki chorvachilik va motiga (ketmoncha) dehqonchiligi bilan kun kechirgan Buxoroning tub aholisiga mansubdir. Bronza davrida Buxoro vohasining daryo adoqlarida endigina dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo'lib, ular yarim yerto'la va shox-shabba engil chaylalardan iborat turar joylardan tashkil topgan. Bularda uy hunarmandchiligining misgarlik, tosh-taroshlik, to'qimachilik kabi turlari mavjud bo'lsa-da, ammo hali ular kasb-hunarning rivoj topgan darajasiga yetib bormagan edi.

O'zbekistonning Janubidagi bronza davri yodgorliklari qadimgi sug'orish hududlari – Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Ular **Sopolli madaniyati** nomi bilan mashhurdir.

Sopollitepa Sherobod cho'lida joylashgan bo'lib, uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan yirik qishloq bo'lgan. Uning umumiy maydoni 4 gektarga yaqin. Yodgorlikda uzoq yillar tadqiqotlar olib borgan A. Asqarovning fikricha, Sopollitepa mustahkam asosda qad ko'targan bo'lib, quyidagi ajralib turuvchi belgilariga ega: ikki qismli tuzilish – mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlanmagan maskan; uncha katta bo'lmagan maydoni; asosiy qismning aniq rejaviy tuzilishi; sakkizta turar joylar qismlarining markazlashuvi va ularning yo'laklar bilan ajralib turishi; bo'lma (otsek)lari bo'lgan himoya devorlari. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi hamda dehqonchilikning yetakchi mavqega ega bo'lishi ham Sopollitepa uchun xosdir.

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan Sopollitepa – bronza davridagi daryodan kechuv yo'lini himoya qiluvchi mustahkam

oldingi istehkom (forpost) sifatida paydo bo'lgan. Keyinchalik o'troq dehqonchilik jamoalari Shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qota boshlaydi va bo'shab qoladi. Asosiy markaz vazifasi esa, tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi mustahkam qal'a sifatida paydo bo'lgan Jarqo'tonga o'tadi.



Sopollitepa. Bronza ko'zgu.



Sopollitepa. Bronza idishlari.

Mil. avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib Jarqo'ton o'sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog'oldi vohalari va Janubiy Tojikistonning G'arbiy hududlariga Shimoldagi aholining ko'chishlari bo'lib o'tadi. Bu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davlatlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo'lib o'tganligini ko'rsatadi. Bu jarayonning rivojlanishi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi o'troq dehqonchilik turmush-tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o'sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekiston hududida chorvador qabilalarga mansub bronza davri qabristoni Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'ida ham topilgan.

Quyi Qashqadaryo Gujayli qabristonidan chorvachilik va dehqonchilik qabilalariga tegishli bo'lgan ashyolar, Farg'ona vodiysi Yangiariq hududida dehqonchilik buyumlari va dehqonchilik bilan bog'liq qoyatosh suratlar, Chustdan hunarmandchilik va dehqonchilikka oid buyumlar ko'plab topilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Farg'ona vodiysida dehqonchilik madaniyatining taraqqiyoti mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragida boshlanadi. Bu madaniyat fanda birinchi topib o'rganilgan joy nomi bilan Chust madaniyati deb nomlangan. Davriy jihatdan Chust madaniyati yodgorliklari ikkiga bo'linadi va birinchi bosqich mil. avv. XII–IX asrlar, ikkinchi bosqich keyingi asrlar bilan sanaladi.


Qadimgi Farg'ona dehqonlari ko'p hollarda suv manbalari atroflarida o'z makonlarini bunyod etishgan. So'nggi yillarda Farg'onadagi bronza davri aholisining yerni haydab dehqonchilik qilganlari haqida yangi ma'lumotlar olindi. Xususan, Farg'ona tog' tizmalaridagi Soymalitosh hamda So'x yaqinidagi Yangiariqsoy qoyatosh suratlarida qo'sh yordamida yerga ishlov berayotgan inson tasviri aniqlangan. Umuman, Farg'ona vodiysida Chust madaniyatining 80 dan ortiq yodgorliklari hisobga olingan.

Bu davrda hunarmandchilik sohasida ham katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Xususan, kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlar keng tarqaladi. Bunday idishlar qo'lda ishlangan sopolardan ancha farq qilib, asosan dehqonchilik madaniyati uchun xosdir. Kulolchilik charxining hunarmandchilikka keng kirib kelishi sopolchilik ishlab chiqarishi yangi texnikasining yaratilishiga sabab bo'lib, keyinchalik ixtisoslashgan hunarmandchilikka o'tishining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qildi.

Mil. avv. II ming yillikka kelib O'zbekistonning dasht hududlariga chorvador qabilalar kelib o'rnasha boshlashadi. Ularning makonlaridan topilgan moddiy manbalar Janubiy Qozog'istonning cho'llaridagi Andronov madaniyatiga o'xshab ketadi. Dasht qabilalari tarqalganligidan, ayniqsa, sopol idishlar, metall buyumlar va chorvador qabilalarga mansub qadimgi qabrlar tuzilishi dalolat beradi. Bu o'rinda tadqiqotchilar bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ma'lum darajada etnik madaniy jarayonlar bo'lib o'tgan degan fikrni ilgari surishadi.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli O'rta Osiyo dasht va tog'oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy jarayon – kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Ibtidoiy jamiyatning asosiy belgilari



Bu davr manzilgohlarini o'rganib, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan deyish mumkin. Birinchisi – qadimgi qabilalar dehqonchilik uchun qulay yerlarga joylashib yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo'lsalar, ikkinchisi – xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan holda dasht va tog'oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyatini yaratishgan.

Bronza davri O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarishlar sodir bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bu davrda ham davom etdi. Ammo, bu davrda ona urug'ning mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat ahamiyatga ega bo'lib bordi. Natijada jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va chorvachilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qila boshladilar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'lishadi. Ushlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'lga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rni ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, neolit davriga kelib «dusorlik» ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog' va Ko'hitanggacha bo'lgan tog' va tog'oldi hududlarini o'zlashtirishadi. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko'rinishga ega bo'lgan hamda o'ziga xos xo'jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi.

Ushbu madaniyat sohiblari yashagan maskanlardan biri Sopollitepa bo'lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida, Ko'hitangtog'dan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmog'i bo'yida joylashgan. Sopollitepa paydo bo'lgan soy mahalliy aholi orasida O'lanbuloqsoy deb ataladi. Janubiy O'zbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo'lgan eng qadimgi o'troq dehqonchilik jayronlari, tadqiqotchilarning fikricha, quyidagi beshita asosiy bosqichga bo'linadi:

Sopollitepa bosqichi – mil. avv. 1700–1500

Jarqo'ton bosqichi – mil. avv. 1500–1350

Ko'zali bosqichi – mil. avv. 1350–1200

Molali bosqichi – mil. avv. 1200–1050

Bo'ston bosqichi – mil. avv. 1050–900

Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotchilar tomonidan maxsus tahlil etilib, ilmiy jihatdan asoslangan (A. Asqarov).

Sopolli madaniyati hukm surgan davr tarixiy-madaniy jarayonlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mil. avv. II ming yillikda Amudaryoning o'ng va chap qirg'og'ida ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha ikkita: Sopolli madaniyati va Dashti madaniyati yoki Sopolli-Dashtli madaniyatining ikki xil ko'rinishi keng tarqaladi.

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan Sopollitepa-bronza davridagi dastlabki o'troq dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Ammo, keyinchalik, asosiy markaz vazifasi Jarqo'tonga o'tadi. Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Sherobod daryosining ko'hna o'zani Bo'stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973-yildan boshlab uzluksiz olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bu hududlarda ro'y byergan urbanizatsiya jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, Jarqo'tondagi 100 gektardan kam bo'lmagan hududdan arki a'lo, shahriston, ulkan ibodatxona qoldiqlari, metall erituvchi pechlar, 20 gektar qabriston, ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topib o'rganilgan. Undan tashqari, Jarqo'ton hududida olib borilgan tadqiqotlar ko'hna shaharning paydo bo'lib rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz byergan tarixiy-madaniy jarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o'rganish imkoniyatini berdi.

Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Jarqo'tondagi qadimgi shahar hayoti dastlab uch bosqichga, ya'ni Jarqo'ton (mil. avv. 1500–1350), Ko'zali (mil. avv. 1350–1200) va Molali (mil. avv. 1200–1000) bosqichlariga bo'linadi. Keyinroq, Jarqo'tonning qarama-qarshisida, Bo'stonsoyning o'ng sohilida o'rganilgan yodgorliklardagi tadqiqotlar natijasida Molali bosqichini ikki fazaga, ya'ni Molali (mil. avv. 1200–1000) va Bo'ston (mil. avv. 1000–900) fazalariga bo'lib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkin, mil. avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib Jarqo'ton o'sha hududlarda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aftidan, aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog'oldi vohalari va Janubiy Tojikistonning G'arbiy hududlariga Shimoldan aholining ko'chishlari bo'lib o'tadi. Aynan mana shu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davrlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo'lib o'tganligini ko'rsatadi. Undan tashqari, yana shu narsa ham ma'lumki, bu jarayon-

ning rivojlanishi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi o'troq dehqonchilik turmush-tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o'sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Bronza davri Janubiy O'zbekistonning o'troq jamoalari dehqonchilik madaniyati rivojining yangi darajasiga o'tadilar. Agar Sopollitepada avvaldan o'ylangan reja bo'yicha qurilgan shaharmonand (protogorod) ning belgilari ko'zga tashlansa, Jarqo'ton esa, O'zbekiston hududlaridagi ilk shahar rivojining boshqacharoq namunasini aks ettiradi. E. B. Ritveladzening fikricha, Jarqo'ton bir necha qishloqdan iborat bo'lib, uning hududi aholining turli guruhlar tomonidan bosqichma-bosqich o'zlashtirilgan. Olimning hisoblashicha, shahar tizimining rivoji ma'lum sxemada bo'lib o'tgan: ilk qishloq, yoki qishloqlar guruhi – shaharmonand – shahar.

Bronza davri Janubiy O'zbekiston hududlarida yashagan o'troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog'onasida bo'lib, ibtidoiylikning so'nggi bosqichidan sivilizatsiyaga o'tadilar. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shaharmonand (protogorod) belgilarni o'ziga aks ettirgan Sopollitepa bo'lgan bo'lsa, Jarqo'ton O'zbekiston hududlaridagi ilk shaharlarning yorqin misoli edi. Sherobod vohasidagi shu davrga oid Jarqo'ton majmuiga kiruvchi maskanlar guruhini esa shahar-davlat yoki davlatlar bilan qiyosiy solishtirish mumkin. Yoki hech bo'lmaganda, mil. avv. II ming yillikning so'nggi choradagi Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo'lgan, nom yoki voha ko'rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo'lgan hududiy-siyosiy birlashmalar shakllana boshlagan degan g'oyani ilgari surishimiz mumkin.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan ilk shaharsozlik rivoji zanjiriga Farg'ona vodiysi ham kiradi. Vodiydagi o'zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi (katta maydon, murakkab tuzilishi va mudofaa tartibi, alohida ark, hunarmandchilik markazi va boshq.) arxeologik yodgorliklar haqidagi konsepsiya 1973-yildayoq Yu. A. Zadrevskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi. Shundan so'ng ushbu masala yuzasidan ayrim mulohazalar bildirgan bo'lishiga qaramay, yuqoridagi konsepsiya hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

So'nggi yillarda olib borilgan arxeologik-paleogeografik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysi qadimgi davrining inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlariga ko'pgina aniqliklar kiritildi. Farg'onalik qadimgi bobodehqonlar sug'oriladigan yerlarni o'zlashtira borib, qator sifatlari ya'ni, avvalo, tuproq ekologik sharoitlari bilan farqlanib turadigan hududlarda joylashishadi. Ular tabiiy landshaftlardan to'g'ri va oqilona foydalanishlari natijasida o'zlariga zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishgan. Sun'iy sug'orish va yerga ishlov berish bilan birga suv cho'kindilari ham hosildorlikni oshirib borgan.

Farg'ona vodiysidagi qadimgi ziroatchilarning makonlari suvga yaqin joylardagi unumdor yerlarning o'zlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida (ikki va undan ortiq yodgorlik) joylashgan. Buning isboti sifatida keyingi 50-yil ichida vodiya o'rganilgan Chust madaniyati yodgorliklari tartibiga kiruvchi manzilgohlarning joylashish tizimini keltirib o'tish mumkin. Ana shunday vohalar Farg'ona vodiysidagi 15 ta geografik rayonda topib o'rganilgan. Bular G'ovasoy, Kosonsoy, Aravansoy, Chortoqsoy va boshqalardir. Qadimgi dehqonchilik vohalarini har biridagi yodgorliklar o'lchamlari hamda joylashishiga ko'ra ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan. Ushbu vohalarda istiqomat qilgan aholi o'ziga xos dehqonchilik jamoalarini tashkil etgan. Har bir voha ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda ularning birlashuvidan dehqonchilik markazlari paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoning boshqa hududlari bilan qiyosiy tahlil etgan Yu. A. Zadneprovskiyning fikricha, qadimgi Farg'ona dehqonchilik markazlari bilan birga O'rta Osiyoning ko'pgina hududlarida dehqonchilik markazlari paydo bo'ladi. Bularga Yoz, Yashilli (Turkmaniston), Kuchuktepa, Chiroqchi, Burguluk, Chust (O'zbekiston), Shahrison (Tojikiston) va boshqa dehqonchilik markazlari kiradi. Ushbu bir-biriga o'xshash dehqonchilik markazlari orasida davriy jihatdan nisbatan qadimgisi Chust yodgorliklari hisoblanadi.

Chust madaniyati yodgorliklari tartibiga kiruvchi asosiy katta manzilgohlar Dalverzintepa, Chust, Ashqoltepalar Farg'ona vodiysidagi o'zida ilk shaharlarsozlik belgilarini aks ettiruvchi yodgorliklar hisoblanadi. Aynan Dalverzintepa va Chustning atrofi himoya devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, ularda hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi.

Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, Dalverzintepada yashaydigan aholi uni uch qismdan iborat qilib qurgan. Har bir qism alohida mudofaa devorlari bilan o'ralgan hamda ularning o'z vazifasi bo'lgan. Dalverzintepa hududining 18 ga turar joylar, 5 ga – xavf tug'ilgan paytda atrof aholi jon saqlaydigan boshpana qismi, 2 ga esa maxsus alohida ajratilgan qism bo'lib, bu yerda hukmdorlar yashashgan. Demak, Dalverzintepa puxta o'ylangan reja asosida qurilgan aholi punkti bo'lib, ushbu yodgorlikda ilk shaharsozlikning deyarli barcha belgilari aniqlangan.

Dalverzintepada olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan tadqiqotchilar quyidagicha xulosa chiqardilar:

Dalverzintepaning maydoni katta, ya'ni 25 ga bo'lib, bu o'lcham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasi hisoblanadi.

Ko'hna shaharda murakkab rejaviy tuzilishi, uchga bo'lingan tarkibiy qism hamda ark mavjud edi.

Yodgorlikda mukammal mudofaa tartibi mavjud bo'lib, ko'hna shaharning har bir qismi alohida himoyalangan edi. Bular orasida arkka alohida e'tibor berilib, u ancha puxta o'ylangan reja asosida mudofaa etilgan.

Dalverzintepada hunarmandchilikning turli sohalarini – kulolchilik, metall, tosh va suyakka ishlov berish kabilar nisbatan yaxshi rivojlangan.

Yuqorida keltirib o'tilgan belgilarga ko'ra, Dalverzintepani ilk shahar ko'rinishidagi yodgorlik deb ta'riflash uchun yetarli asos bor deb hisoblash mumkin. Bu yo'nalishda ilmiy bahslar davom etayotgan bo'lsa-da, Dalverzintepa mil. avv. II ming yillikning so'nggi choragidan boshlab ma'lum muddat Farg'ona vodiysining yirik madaniy va iqtisodiy markazi bo'lib xizmat qilgan, degan fikrni ilgari surish mumkin. Undan tashqari, vodiya sug'orma dehqonchilikning jadallik bilan rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuviga olib keldi va natijada o'troq dehqonchilik madaniyati yoyilgan chegaralar kengayib bordi.

4. «Avesto» – O'zbekiston tarixini o'rganishdagi muhim manba.

O'rta Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va e'tiqodlari, payg'ambarlari va ular ta'limotlarining yoyilishi masalalari uzoq yillardan buyon tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, hamon ko'pgina olimlar orasida ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan masaladir. Ma'lumki, ahamoniylar davridan boshlab (balki undan ham

oldinroq) arab bosqiniga qadar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgan va asosiy din – zardushtiylik dini edi. Bu dinning asoschisi Zaratushtra va uning faoliyati, bu dinning muqaddas kitobi «Avesto» va u paydo bo'lgan hudud haqidagi masalalar ham hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi.

Juda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Zaratushtra afsonaviy bo'lmasdan, tarixiy shaxs hisoblanadi. U yunon-rim manbalarida Zoroastr, qadimgi fors tilida Zardusht, o'rta fors tilida Zaratushtra nomi bilan eslatiladi. Manbalarining guvohlik berishicha, u Spitama avlodidan (Sug'diycha Spitaman degan ism ham shundan kelib chiqqan) bo'lib, otasini Pouro'shasp, onasini Dugdova deb atashgan. Uning nomi «oltin tuyali», «oltin tuya etaklagan odam» ma'nosini beradi. Zaratushtraning otasi kohinlar tabaqasiga mansub bo'lib, u tug'ilgan mamlakat bizga noma'lum. Bularning barchasi Zaratushtra hayoti tarixi, uning tug'ilgan joyi va sanasi, zardushtiylikning vatani hamda dastlabki yoyilgan hududlari haqida to'la ma'lumot bera olmaydi. Ammo, Avestoning maxsus boblari Zaratushtrani tarixiy shaxs sifatida yoritadi.

Zaratushtraning qaysi yilda tug'ilganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. Tadqiqotchilar fikrlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, uning tug'ilgan yili keng tarixiy sanalar bilan bog'lanadi (mil. avv. 1500–1000-yillardan boshlab, mil. avv. VII–VI asrlargacha). Yunon-rim tarixchilari ham Zaratushtra qachon tug'ilganligi haqida aniq ma'lumot berishmaydi. Faqatgina, lidiyalik Ksanf (mil. avv. II asr) Zaratushtraning faoliyatini Kserksdan 600-yil avval edi, deb ma'lumot beradi. Boshqa grek mualliflarining xabarlari bundan ham ishonchsiz. Sosoniylar davri (III–VII asr) zardushtiyalar an'alariga e'tibor beradigan bo'lsak, Zaratushtraning hayoti mil. avv. VII asrning oxiri – VI asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Abu Rayhon Beruniy Zaratushtraning tug'ilgan yilini Aleksandr Makedonskiydan 258-yil oldin edi, deb belgilaydi. Ayrim tadqiqotchilar bu sanani to'g'ri desa, ba'zilar noto'g'ri deb hisoblashadi. 330-yilda ahamoniylarning so'nggi vakili bo'lgan Doro III vafot etadi. Hokimiyat Aleksandring qo'liga o'tadi. Agar Beruniy ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak (330+258=588), Zaratushtra mil. avv. 588-yilda tug'ilgan. B. I. Abayev va I. M. Dyakonov xulosalariga ko'ra, Zaratushtra yashab o'tgan vaqtbu mil. avv. VII–VI asrlardir. Olimlar fikriga ko'ra, Zaratushtra mil. avv. 553–541-yillar atrofida 77 yoshida vafot et-

gan. Bu sana hisobidan Zaratushtra 630–553-yillar yoki 618–541-yillar davomida yashab, faoliyat ko'rsatgan.

Zaratushtraning tug'ilgan joyi haqida hozirgacha ham bahslar davom etayotgan bo'lishiga qaramasdan, bu muammoga to'la aniqliklar kiritilmagan. U haqida turli fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar Zaratushtrani hozirgi Ozarbayjon hududida tug'ilgan deb hisoblashadi. Bu guruh olimlar, Avestoda keltirilgan Aryanam Bayja (Eron tekisligi) viloyatini o'zlariga asos qilib oladilar. Yana bir guruh olimlar Zaratushtrani Baqtriyada tug'ilgan deb hisoblashadi. Bu guruh olimlar grek tarixchisi Ktesiy ma'lumotlariga asoslashadi. Shuningdek, bu guruh olimlar Avestoning eng qadimgi qismlari Baqtriyada yozilganligini ta'kidlashadi. Yana boshqa bir olimlar guruhi Zaratushtraning vatani – qadimgi Xorazm deb hisoblashadi. Olimlar orasida Zaratushtra va Avestoning vatani Sug'diyona degan fikrlar ham bor. Avesto matnlarida esa Zaratushtra tug'ilgan joy va uning vatani haqida hech qanday ma'lumot yo'q.

Avestoda keltirilgan geografik hududlarni o'rganishdan xulosa chiqargan ko'pchilik hozirgi tadqiqotchilar Zaratushtraning O'rta Osiyo viloyatlaridan birida, hech bo'lmaganda bu hududga qo'shni bo'lgan Shimoli-G'arbiy Eron hududida tug'ilganligini e'tirof etadilar. Umuman olganda, Zaratushtraning vatani O'rta Osiyo – Xorazm yoki Baqtriya deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Zaratushtraning diniy islohotlari o'z vatanida tarafdorlarini topmaganligi bois, payg'ambar o'z yurtidan kyetishga majbur bo'lgan. Zaratushtra e'tiqodini qabul qilgan birinchi tarafdorlari – bu qadimgi Baqtriya podshosi Kavi Bishtasp, malika Xutaosa va ularning yaqin qarindoshlaridir. Zaratushtra o'z g'oyalarida qonli qurbonlik (mil. avv. VII asrgacha bo'lgan dinlarda odamlar va hayvonlar xudolarga qurbonlik qilingan) qilishni qat'iyan qoralaydi. Zaratushtra yana shuni ta'kidlaydiki, odamzod yashashga haqli bo'lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Zaratushtra o'z g'oyalarini targ'ib qila boshlagan davr O'rta Osiyo va Eron xalqlari tarixida eng muhim davr edi. Ya'ni, ibtidoiy jamoa munosabatlari o'zgarib, davlatchilik tizimi munosabatlari qaror topmoqda edi. Yangi din bu o'zgarishlarni o'zida aks ettirar va tug'ilayotgan yangi jamiyatga xizmat qilardi. U birlashishga va kuchli markazlashgan hokimiyat tuzishga, o'sha davrda o'troq dehqonchilik

bilan shug'ullanuvchi vohalar aholisi uchun «xudoning qamchisi (tig'i)» hisblangan ko'chmanchi xalqlarga qarshi keskin kurashga chaqirdi.

Zaratushtra islohotlari diniy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham bitta – ulug' va donishmand xudo Ahuramazdaga (so'zma so'z tarjimasini «janobi dono») sig'inishga va Ahuramazdaning dushmanlari deb e'lon qilingan sobiq qabila xudolari – asuralar va devlarga qarshi kurashga olib keldi.

Zardushtiylarning diniy falsafasi qarama-qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash xudolar o'rtasida boshlanib, tabiatda va insoniyat hayotida ham davom etgan. O'shandan boshlab yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasida doimiy va murosasiz kurash boshlangan. Ular o'rtasidagi kurash butun koinotga yoyiladi va zardushtiylarning asosiy falsafiy ta'limoti bo'lib qoladi. Yorug'lik, yaxshilik kuchlarini Ahuramazda (Ormuz), yovuzlik, qora va zulmat kuchlarini Anxro-Manyo (Axriman) boshqaradi.

Ahuramazda yaxshilik, yorug'lik, sog'lik, baxt-saodat keltiruvchi xudo bo'lib hisoblangan. Zaratushtra bunday xabar qiladi: «Biz Ahuramazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni va o'simliklarni, yorug'likni va yerni yaratgan...». Shuningdek, Ahuramazda hayotni va dastlabki odamni yaratgan xudo deb faraz qilingan. Anxro-Manyo yomonlik, o'lim va zulmat keltiruvchi xudo bo'lib hisoblangan.

Zaratushtraning dini vaqt o'tishi bilan asta-sekin turli xalqlar orasida tarqalar ekan, o'z asosini saqlagan holda biroz o'zgaradi. Ahuramazda va Axriman xudolaridan tashqari. Avesto bir qator boshqa ulug' xudolar faoliyati haqida ham hikoya qiladi.

Mitra, Xouma, Anaxita, Ashi va Zurvon kabilar shular jumlasidandir. Bohu Manax (oliyhimmat fikri) chorvaga, Ashi Bahishta esa olovga homiylik qiladi va hokazo. O'tmishning eng ahamiyatli dinlaridan bo'lgan zardushtiylik diniy-falsafiy ikkilikni (dualizmni), qadimgi urf-odatlar va tarixiy rivoyatlarni o'ziga singdiradi va bundan tashqari zardushtiylik, payg'ambar Zaratushtradan oldingi davrlarga oid qadimgi qabilalarning falsafasi va dunyoqarashlarini ham o'z ichiga oladi.

Zardushtiylik Sasoniylar davrida (milodning III–VII asrlari) uzil-kesil rasmiylashgan. Bu davrda zardushtiylikning adabiyoti ham keng tarqaladi. Shuni aytish kerakki, dastlabki paytlarda zardushtiylik diniy muqaddas matnlari avlodlardan og'zaki etkazilgan va Zaratushtra

o'limidan keyin bir necha asr o'tgach ma'lumotlar to'planib yagona matn yozilgan.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi Avesto shu tariqa yuzaga kelgan. Bir qator olimlar zardushtiylik an'alariga tayanib Avestoni ilk sasoniylar (III–IV asrlar) davriga bog'lasalar-da, shunga qaramay uning birinchi tahriri mil. avv. I asrlarda bo'lib o'tgan deb hisoblanadi. Avesto jumlasini ham o'sha paytda paydo bo'lgan bo'lib, u o'rta fors tilida «pastak», ya'ni «asos», «asosiy matn» degan ma'noni bildiradi.

Musulmonlarda Qur'on, nasroniylarda Bibliya bo'lganligidek, Avesto – zardushtiylik dinining matnlari to'plamidir. Bu to'plamlar turli vaqtlarda va turli joylarda vujudga kelgan. Eronda islom dini qabul qilingach, Avestoning katta qismi yo'q bo'lib ketadi. Bizgacha uning kundalik diniy amaliyotlari uchun zarur bo'lgan matnlarigina yetib kelgan xolos.

Eng qizig'i Bavedat bo'lib, to'planning ma'nosi – «devlarga qarshi qonun» demakdir. U koinat majmui bo'lib, poklanish marosimlari qoidalari, gunohlarni yuvish va saxovatli bo'lish, har xil urf-odat qoidalari, shu bilan birga dafn etish marosimlari haqidagi bo'limdir.

Zardushtiylik murakkab va g'oyat o'ziga xos dafn marosimini ishlab chiqdi. Avestodagi yerga, suvga, olovga o'likni tekizib harom qilishni qat'iy taqiqlash – uning asosini tashkil etadi. Kimki insonni yoki itni yerga ko'msa, katta gunoh qilgan hisoblanib, bu gunohi uchun «otning qamchisi» bilan 500 marta urilgan. Inson yoki itning o'ligi ko'milgan yerga bir yilgacha ekin ekish taqiqlangan. Demak, zardushtiylarning qonunlariga ko'ra, jasadni yerga ko'mish, suvga tashlash, gulxanda qo'ydirish man qilingan. Shuning uchun ham jasadni zardushtiylar uydan, manzilgohdan, shahardan, tuproqdan, muqaddas olovdan, suvdan chetlashtirib uni toshli va qumli tepaliklarga yoki boshqa maxsus joylarga olib borib qoldirishgan. Yil davomida qor va yomg'ir suvlari murda suyaklarini yuvib, ularni quyoshning muqaddas nuri yana tozalagandan so'ng, maxsus odamlar – «go'rkovlar» («ristokashlar») zardushtiylarning ochiq qabristonlariga kelib, tozalangan suyaklarni qishloq – shaharlarga olib kelishgan. Faqat shundagina, murakkab dafn marosimlaridan keyin, suyaklarni yerga ko'mish yoki maxsus xonalarda, sopol idishlarda va tobutchalarga saqlash mumkin edi.

Bavedatda bu suyak saqlanadigan joy «isdona» deb yuritiladi, undan qadimgiroq pahlaviy matnlarda esa «ostadon» deyiladi. Uning tarjimasini

haligacha aniq emas va ikki xil ma'no beradi. Ayrim olimlarning fikricha, isdona – ostodan, sopol tobutga – ossuariy bo'lib, ular O'rta Osiyo qadimgi yodgorliklarida tez-tez uchrab turadi. Ayrim tadqiqotchilar, jumladan B. B. Xenning bu so'zni «Yer ostidagi sag'ana» deb tarjima qilgan.

Mil. avv. VI–IV asrlarga oid ossuariylar O'rta Osiyo hududidan ko'plab topilgan. Dafn marosimi bilan alohida odamlar guruhi shug'ullangan bo'lib, ularni «ristokash», ya'ni «iflos va toza bo'lmas odamlar» deb hisoblashgan. Ular olov va suvdan 30 m uzoqlikda yurishlari kerak bo'lgan. Shuningdek, ular odamlarga 3 m gacha yaqin yurmasligi lozim bo'lgan. Umuman zardushtiylik ta'limoti, yer, suv, havo va olovni muqaddas deb hisoblagan. Bu an'analardan ba'zilar (suvga tupurmaslik va peshob qilmaslik, nikoh to'ylarida kelinni olovdan aylantirish va hokazo) bizgacha saqlanib qolgan.

VII–VIII asrlarda arablar O'rta Osiyo va Eronni bosib olgach, bu hududlarda Zaratushtra ta'limoti yo'q qilinib islom dini yoyildi, zardushtiylikning katta qismi XVIII asrda Hindistonga ko'chib o'tadi. Hozirgi kunda zardushtiylikka sig'inuvchi xalqlar faqat Hindiston va Eronda yashashadi. Zaratushtra o'z zamonasida ham va undan keyin ham tarixiy shaxs bo'lib qoldi. U yaratgan ta'limot esa ma'lum muddat deyarli butun Sharqqa va O'rta Osiyoga yoyilib, ko'pchilik davlatlar diniga aylandi.

Umuman olganda, Zaratushtraning diniy-falsafiy aqidalari va ta'limoti urug' qabilachilik va yakkaxudolikka sig'inishni targ'ib qiladi hamda unda adolat, mehnat va mehnatsevarlik, halollik, yaxshilik, yorug'lik, oliyhimmatlik, bag'rikenglik va ezgulik haqidagi olqishlar asosiy o'rinda turadi. Ayniqsa, Zaratushtraning ma'naviy-axloqiy ta'limotida yaxshi fikr (gumata), yaxshi so'z (gugta) va yaxshi ish (gvorishta) ga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Zaratushtra ta'limotida odamlarning teng huquqli bo'lib yashashi, bir-biriga yaxshi munosabatda bo'lish, bir-biriga yordam berish targ'ib qilinadi hamda adolatsizlik, shafqatsizlik, zo'ravonlik va tabiatga bemehrlik qattiq qoralanadi. Zaratushtraning asosiy g'oyalarida dunyodagi barcha ishlar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi kurashlarga bog'lab talqin qilinadi.

Avesto kitobidan o'rin olgan O'rta Osiyo hududida yashagan qabilalar va elatlarning eng qadimgi davrdan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy

hayoti, diniy va dunyoviy mafkurasi, dunyoni bilish haqidagi tushunchalari, urf-odatlarini, ma'naviy-madaniy rivojlanishiga doir ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi.

Zardushtiylik ta'limotida Ahuramazda azaldan mavjud bo'lgan hamda abadiy iloh sifatida alohida o'ringa qo'yiladi. Shu sababdan ham Avestoda barcha ezgulik va yorug'lik Ahuramazda tomonidan yaratilganligi ta'kidlanadi. Zaratushtra ta'limotining jamiyat va insoniyat taraqqiyotidagi eng muhim va diqqatga molik bo'lgan tomoni shundaki, unda butun tabiatni – yer, suv, daraxt, o'simlik va jonivorlarni o'zozlash, yerga ishlov berib, sug'orib, bog'-rog'lar va ekinzorlar barpo etish, chorvachilikni keng yo'lga qo'yish, suv va olovni muqaddas tutish shart bo'lgan.

Shunday qilib zardushtiylik ta'limoti yaxshilik va ezgulik g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, bu ta'limot yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ularini uyg'otadi hamda kishilarni komilikka, yaratuvchanlikka, ezgulikka undaydi.

Avestoning eng qimmatli tomonlaridan biri – u O'zbekiston xalqlari qadimgi tarixi o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Avestoni to'plam holda to'plagan olim Anketil Dyupperon (Fransiya) bo'lib, u XVIII asrning o'rtalarida bu muqaddas kitobni Hindistondagi Gujarat viloyatidan keltiradi va fransuz tilida chop ettiradi. Tadqiqotchilar uni quyidagi qismlardan iborat deb hisoblashadi: – «Yasna» – «qurbonlik keltirish», «Yasht» – «qadrlash», «Bidevdat» – «devlarga qarshi qonunlar», «Bisprat» – «barcha hukmdorlar». «Yasna»dagi 72 ta bobdan 17 tasi payg'ambar Zaratushtraga tegishli. Ular – «Gota»lar nomli «muqaddas qo'shiqlar» yoki madhiyalardir.

Bidevdatda O'rta Osiyodagi viloyatlar va davlatlar haqida qo'yiladigacha ma'lumotlar beriladi: «Men, Ahuramazda eng yaxshi yerlar va mamlakatlar orasida birinchi bo'lib Banxvi Daiti bo'yida (ko'pchilik tadqiqotchilar uni Amudaryo deydilar – B. Eshov) Aryanam Bayjoni yaratdim, shunda o'lim keltiruvchi Anxro Manyo... devlar va qishni yaratdi... Men Ahuramazda yaxshi yerlar va mamlakatlar orasida ikkinchi bo'lib Sug'diylar yashaydigan Gava makonida asos soldim». Shundan so'ng Mouru (Marg'iyona), Bahdi (Baqtriya) Nisaya (Parfiya), Xarayva (Hirot), Boixa-Girta (Kobul atroflari), Avrara (Tus), Xiyрман (Hiimend vohasi) kabilar eslatiladi. Hammasi bo'lib Avestoda 16 ta mamlakat – viloyat tilga olingan bo'lib, ulardan Gava, Bahdi,

Nisaya va Mouru aniq lokalizatsiyaga ega. Qolganlari esa hozircha qaysi hududlar ekanligi taxmin qilinadi.

Ba'zi olimlar, Aleksandr Makedonskiy qadimgi forslar sulolasini tor-mor etganidan so'ng Avestoning eski qismlari yo'q qilingan deb hisoblashadi. Ammo, Parfiya podshosi Bologez I davrida (milodning 51–78-yillari) bu kitobning qolgan-qutgan qismlari to'planadi va keyinroq tahrir qilinadi.

Avestoning eng qadimgi qismlari keng hududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, bu jamiyat haqida yozuvsiz zamonlarga oid tasavurlarni ham saqlashgan. Avesto kitoblari turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shular jumlasidan – qadimgi geografik tushunchalar – daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy-etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy va siyosiy tuzum, diniy nasihatlar, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixi rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar va boshqalardir.

Olimlarning e'tirof etishlaricha, Avesto Sharq xalqlari qadimgi davrlarini tadqiq etishda hozirgacha muhim manba bo'lib, u o'zining bu ahamiyatini bundan buyon ham saqlab qoldi. Bu kitob dastavval e'tiqodlar, tillar va dinlar, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat va madaniyatning rivojlanish bosqichlari haqidagi ilk to'plam hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayonlar davlatchilik va iqtisodiyot rivojlanishining umumiy doirasida bo'lib o'tgan.

Avesto ma'lumotlarini arxeologik materiallar bilan qiyosiy o'rgangan olimlarning fikricha, mil. avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotida o'zgarishlar sodir bo'lib, davlatchilikning ilk ko'rinishi shakllana boshlaydi. Bu davrda ushbu hududlarda yashagan aholining katta qismi yirik vohalarni jadallik bilan o'zlashtirishi natijasida chorvador ko'chmachilikdan o'troq dehqonchilikka o'ta bshlaydi. Bu esa keyinroq Baqtriya, Xorazm, Marg'iyona, Parfiya, Sug'diyona kabilarda davlatchilik tizimining vujudga kelishiga asos bo'lgan edi. Misol uchun, Avestoning «Bandidod» kitobida Oliy xudo Ahuramazda yaratgan o'n oltita mamlakat (o'lka) ning hududiy – ma'muriy, siyosiy hamda qonunchilik tizimiga oid ma'lumotlar berilgan.

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra davlatni, kavi ya'ni, boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalar bilan shug'ullanuvchi shaxs (podsho) boshqargan. O'z

navbatida, davlatni boshqarish huquqi sulolaning bir vakili qo'lidan ikkinchisiga meros sifatida o'tishi diniy va dunyoviy jihatdan qonunlashtirilgan.

Avesto davlat boshqaruvining murakkab tizimi haqida ma'lumotlar beradi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, mil. avv. VII–VI asrlarda O'rta Osiyo jamiyatining asosi kichik-kichik oilalardan iborat bo'lib, har bir oila o'rtacha 5–6 kishidan tashkil topgan. Ular katta patriarxal oila a'zolari hisoblangan. Katta oila esa 20–25 kishidan tashkil topgan. Jamoalar hayotida urug'chilik tuzumining ayrim xususiyatlari saqlanib qolgan. Katta oila a'zolari tomonidan xo'jalikni tashkil etish, yerga birgalikda egalik qilish va umumiy turar joyda – uy-qo'rg'onlarda yashash odati yuqoridagi fikr dalilidir.

Davlatning boshqaruv tizimi oilalar yoki uy-joy birlashmasi – «nmana» yoki «dmana», katta oila oqsoqoli – «nmanapati», urug' jamoasi boshlig'i – «vis», katta qishloq oqsoqoli «vispati», qabila boshlig'i – «zantupati», viloyat hokimi – «daxiyupati», bir necha viloyatlar hokimi – «daxiyusastar» mamlakat hokimi – «kavi»lardan tashkil topgan. Avestoda oila, urug' va qabila boshlig'ini anglatish uchun «pati» so'zi ishlatilgan. «Kavi» yoki «sastar» mamlakatni idora qilgan shaxsga nisbatan ishlatilgan. Avestoning Yasht kitobida quyidagicha ma'lumot bor: «Ko'p yaylovlarga ega bo'lgan Mitrani biz ulug'laymiz. Unga hech kim yolg'on gapira olmaydi: uyda oila boshlig'i, urug' oqsoqoli, qabila yo'l boshchisi va mamlakat hokimi ham yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mitra butunlay oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham tamoman yo'q qiladi.»

Ayrim tadqiqotchilar ilmiy tahlillarga asoslanib Avestoda tasvirlangan va O'rta Osiyo hududida shakllangan ilk davlatchilik asoslarining vujudga kelish jarayonini quyidagi uch davrga ajratishadi: Birinchi davr – eng qadimgi davr bo'lib, bunda adolat va insoniy baxt-saodat hukmron bo'lgan. Ikkinchi davr – yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasidagi adolat uchun kurash davom etgan. Uchinchi davrda – aql-idrok va adolat tantana qilib, dehqonlar badavlat, davlatning siyosiy va qonunchilik tizimi mustahkam bo'lgan. A. S. Sagdullayev uzoq yillik qiyosiy tadqiqotlar asosida Avesto davri davlat boshqaruvini quyidagicha izohlaydi:

Boshqaruv tizimi		Avesto tushunchalari
Uy qo'rg'on jamoasi	Uy egasi	«Nmanopati»
Qishloq jamoasi	Qishloq oqsoqoli	«Bispati»
Tuman – bir necha qishloq jamoalari	Oqsoqollar kengashi	«Xanjamana»
Viloyat (bir necha tuman)	Viloyat hokimi	«Dahyupati»
Mamlakat	Mamlakat hokimi	«Kavi»

Shuningdek, olimning fikricha, Avestoning Yasht kitobida keltirilgan ma'lumotlar O'rta Osiyoda qabilalar siyosiy birlashmasining tarkib topgan davrlariga mansub bo'lishi mumkin. Avesto davrida xususiy mulk quyidagilardan iborat bo'lgan: uy-joy, chorva, tomorqa yerlari, ishlab chiqarish qurollari, barcha ro'zg'or va shaxsiy buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari.

Avesto kitoblarida qadimgi chorvachilik va dehqonchilik hayoti haqida ma'lumotlar turli qismlarda saqlangan bo'lib ularda shunday deyiladi: «Biz Ahuramazdani ulug'laymiz, Ahuramazda yaratgan barcha narsaning ichida eng muhim bo'lib, birinchi o'rinda chorva turadi. Biz chorvaga tinch o'tlov va yemish ta'minlashga chaqiramiz». Yoki Bidevdat kitobida dehqonchilik savob ish ekanligi ta'kidlangan: «Kim agar chap va o'ng qo'li, o'ng va chap qo'li bilan bu zaminga ishlov bersa, O. Spitama Zaratushtra, u yerga manfaat keltiradi».

Ta'kidlash joizki, Avesto davri qabilalar va jamoalar e'tiqodlarining mukammal jahon dini darajasidagi din bilan almashayotgan davri edi. Shuningdek, bu davr tub iqtisodiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishda sifatli o'lg'a siljishlar davri bo'lganligi bilan ham izohlanadiki, bu holat ierarxik tuzumga ega bo'lgan davlatchilik hamda urbanizatsiyaning yangi bosqichga ko'tarilishiga, kasbiy hunarmandchilik, birinchi galda metallurgiyaning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan edi.

Mis, bronza, keyinroq temirning paydo bo'lishi ishlab chiqarishdagi katta o'zgarishlarga, jumladan hunarmandchilikning maxsus tarmoqlarga ajralishiga va mahsulot ayirboshlashga olib keldi-ki, bu jarayon O'rta Osiyo qadimgi shahar va qishloqlarining rivojlanishiga, ziroatkor va chorvador aholi turmush-tarzinig tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Avesto ko'pgina ma'lumotlar qatori metallurgiya sohasida erishilgan yutuqlar haqida ham ma'lumotlar beradi. Bunga Avesto xudolarining boy qurol – yarog'lari misol bo'la oladi. Masalan, zardushtiylarning ulug' xudolaridan biri Mitra «oltin arava»da tasvirlanib, qo'lida «sariq ma'dandan yasalgan, tilla bilan qoplangan, yuz tig'li va yuz zarbali, eng kuchli va eng zafarli» bolta ushlab turadi. Mitraning aravasida yoki qalqonida kumush va oltindan bezaklar solinadi. Mitraning aravasida «o'tkir, yaxshi charxlangan, ilohiy uchadigan va ilohiy kesadigan» minglab o'tkir o'qlar va nayzalar, minglab pichoqlar va cho'qmorlar tasvirlangan.

Avestoda tilga olingan viloyatlar (o'lkalar) – Aryanam Bayjo, Gava Sug'da, Mouru, Bahdi, Nisaya kabilar, O'rta Osiyo, Janubiy Uraloldi va Markaziy Qozog'iston hududlarida joylashgan bo'lib bu ulkan mintaqada muhim polimetallar bazasi, Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida keng yaylov hududlar, Baqtriya, Marv, Niso va Sug'dda urbanizatsiyalashgan markazlar mavjud edi.

Avesto madhiyalarida ma'lum ijtimoiy bosqichlardagi izchillik va ierarxiyani ham ajratish mumkin. Shuningdek, Avestoda ilk shaharlar shakllanish bosqichlari Ahuramazda farmoni bilan dastlabki odam Yima tomonidan mustahkamlangan «vara» bunyod etishi misolida kuzatiladi. Bunday «vara»lardan biri arxeologlar tomonidan Janubiy Ural – Qozog'istondagi «shaharlar o'lkasi»dan topilgan bronza davrida oid Arkaim yodgorligida bo'lishi mumkin. Arkaim yodgorligi bir nechta mustahkamlangan manzilgohlardan iborat bo'lib, xandaqlar va qatorli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, kirish qismi himoyalangan. Yodgorlik murakkab va aniq tuzilishga ega. Yodgorlik hududlaridan, hunarmandchilikning, avvalo, metall eritish va unga ishlov berishning izlari, bronzadan yasalgan buyumlar, turar joylarning Avesto madhiyalarida eslatilgan «vara» shaklidagi bunyod etilishi shahar madaniyati belgilarini, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining yuqori darajasini, nomdavlatlar ko'rinishidagi shaharlar shakllanishini o'zida aks ettiradi. Bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishi esa, O'rta Osiyoning Janubiy va markaziy hududlarida kuzatiladi.

Bizning kunlarimizga qadar yetib kelgan Avesto kitobi va zardushtiylarning an'analari hamda ta'limoti, inson hayoti va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ma'lum qonun-qoidalarga yoki ma'lum huquqiy tartibga asoslangani haqida ma'lumot beradi.

Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, Zaratushtra yashagan davr ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qaror topayotgan notinch va murakkab davr edi. Bir necha bor adolatsizlik, shafqatsizlik va zo'rvonliklarning guvohi bo'lgan Zaratushtra o'zining dastlabki ta'limotini yovuzlik va zo'rvonlikka qarshi qaratadi. Aynan shuning uchun ham, Zaratushtra ta'limotining asosini tartibga chaqirish, huquqiy normalarni belgilash, adolatga intilish, xulq-obod tantanasi, tinchlikka intilish hamda ezgulikka da'vat etish tashkil etgan.

Avesto ma'lumotlariga ko'ra, yaxshi so'z va yaxshi maqsad, poklik va ezgulikka intilish, doimiy haqiqatni ro'yobga chiqarish, suv, yer, olov, xonadon va chorvani asrab-avaylash barcha narsadan ustun axloqiy burch bo'lib sanalgan. Inson o'ziga yuklatilgan ezgu burchlar, o'zining qilgan ishlari va fikrlari bilan, ezgulik, yaxshilik, yorug'lik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat baxshida etuvchi oliy xudo Ahuramazdaga yordamchi bo'lib kasallik va o'lim keltiruvchi yovuz xudo Axrimanga qarshi bo'lishi lozim edi.

Avestoda kishilarning o'zaro muomala va munosabatlarida berilgan va'daning ustidan chiqish, majburiyat va qasamiga sodiq qolish odatiy qonunlar ekanligini kuzatish mumkin. Agar qasam ichib ahd qilgan kishi o'z ahdini bajarmagan yoki buzgan bo'lsa, da'vogar o'z haqligini isbotlash uchun sinash va jazolanish usulidan foydalangan. Adolatli sud qilish uchun sinash va jazolashning 33 ta usuli mavjud bo'lib, agar so'z qasami buzilsa, suv bilan sinash, agar shartnomaga oid bo'lsa, olov bilan sinash jarayonida aybdorga o'zining haqligini isbotlashga imkon berilgan.

Oila yoki jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh hisoblangan. Yashtning X bobida bu xususda shunday deyilgan: «O, Spitam, shartnomani buzuvchi kishi, butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga, Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O, Spitam, ahdingni buzma...». Zaratushtra «kuch va imkonim boricha men odamlarni haqiqat «asha»ga chorlayman» deya, ulug' xudo Ahuramazdaga qasamyod qiladi. «Asha» – tartib, imon va adolat timsoli bo'lib, unga yaxshi niyat, yaxshi so'z va savobli ishlar bilangina erishish mumkin bo'lgan.

Avesto kitoblarida keltirilishicha, «bir-birini qo'llovchi ikki qadrdon do'st o'rtasida tuzilgan ahdnoma yigirma qirrali kuchga ega; bir

jamoaning ikki a'zosi o'rtasida tuzilsa, o'ttiz baravar kuchga ega; ikki bankor o'rtasidagi ahdnoma qirq bor o'z kuchini saqlaydi; er va xotin o'rtasidagi ahdnoma ellik darajali kuchga ega; ikki ummat orasidagi ahdnoma oltmish karra kuchga ega; ustoz va shogird shartnomasining yyetmish karralik kuchi bor; kuyov va qaynota ahdnomasi to'qson kussulik kuchga ega; ota va o'g'il o'rtasidagi tuzilgani yuz karra, ikki mamlakat o'rtasidagi tuzilgan shartnoma ming karra kuchga egadir».

Tadqiqotchilar bundan shunday xulosa chiqaradilarki, oila va jamiyundagi axloqiy va huquqiy munosabatlar (xonadon egasi va oila a'zolari, er va xotin, ota va o'g'il, kuyov va qaynota, qo'shnilar o'rtasidagi) keng qamrovli bo'lib ular, yolg'on, zo'rvonlik va nohaqlikka qarshi qaratilgan. Shu bilan birga, Avesto ta'limoti oltita ahdnomaga (qasam yoki kafolatga) rioya qilishga (so'z, qo'l, qo'y, sigir, odam, viloyat qasami) chaqiradi.

Gunohlar ichi-da eng og'iri – odam va itlar jasadini «tuproqqa topshirish», ya'ni, yerga ko'rinish, suvga tashlash, gulxanda kuydirish jinoyati bo'lib, Avestoda ta'kidlanishicha, «dunyoda hech bir jazo, hech bir tovon bunday gunohni poklay olmaydi».

Avestoda jinoyat va jazo masalalari har tomonlama tartibga solinganligini kuzatish mumkin. Misol uchun, jinoyatlar quyidagi turlarga bo'lingan: dinga qarshi jinoyat, shaxsga qarshi jinoyat, hayvonlarga qarshi jinoyat, mulkka qarshi jinoyat, tabiatga qarshi jinoyatlar kabi.

Shaxsga qarshi harakatlar ichida qurol olib tahdid solish, birovni kaltaklab hushidan ketkazish, unga jarohat etkazish, qonini oqizish, suyagini sindirish, boshini yorish kabi harakatlar qattiq jazolangan. Mulkiy jinoyatlardan o'g'rilik, firibgarlik, talon-toroj, bosqinchilik, qarzdorlik kabilar Avestoda gunoh hisoblangan. Unga ko'ra, «kimda kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi». Olingan qarzni o'zlashtirish ham jinoyat hisoblangan.

Dinga qarshi jinoyatlar, qasddan qilingan jinoyatlar va takroriy jinoyatlar uchun ayniqsa qattiq jazolar belgilangan. Birovni qasddan urib, uning qonini to'kkan kimsani, ellik qamchidan to'qson qamchigacha savalashgan. Shuningdek, agar kimki birovni urib suyagini sindirsa, jinoyatchiga nisbatan otning terisidan yasalgan qamchin bilan, yetmishdan to'qson qamchigacha urish jazosi belgilangan.

Avesto oilani, farzandlarni, uy-joyini asrab-avaylashga chaqiradi: «kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir». Oila va jamiyatdagi, xususan ma'lum xonadon egasi va oila a'zolari, er va xotin, ota va o'g'il, kuyov va qaynota, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi axloqiy va huquqiy munosabatlar keng qamrovli bo'lib, ular yolg'on, zo'ravonlik va nohaqlikka qarshi qaratilgan. Nohaqlik va jinoyatga to'siq qo'yish, ularning oldini olish maqsadida Avesto qonunlari inson va jamoaning huquqiy nazorat qilishga qaratilgan.

Avestodagi diniy – falsafiy va madaniy ta'limot, davlatchilik va qonunchilik tizimi o'sha davrdagi jamiyat va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Ushbu muqaddas kitobda yuksak axloq, pokiza vijdon, marhamatlik, bag'rikenglik, insonlarga va ona zaminga nisbatan doimiy g'amxo'rlik targ'ib etilgan. Avestoni asosini tashkil etgan bunday tushuncha, yo'l-yo'riq, komil insonga xos fazilatlar, qat'iy xulosa va fikrlar davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy qudratini oshirib, uni yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bu muqaddas kitobning o'sha davrdagi qadr-qimmatini hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolganligi shubhasizdir.

Tayanch so'zlar

Sivilizatsiya, O'zbekiston sivilizatsiyasi, iqtisodiy va madaniy aloqalar, G'arb va Sharq sivilizatsiyasi, madaniy notekislik, birlamchi va ikkilamchi sivilizatsiyalar, antropogenez, mezozoy, kaynozoy, eng qadimgi va qadimgi odamlar, nazariyalar, ishbilarmon odamlar, gomoerektus, pitekanthrop, sinantrop, arxantrop, neandertal, kromanyon, aql-idrokli odam, mehnatning o'zgartiruvchanlik mohiyati, eng qadimgi davrni davrlashtirish, ilk, o'rta va so'nggi paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, eng qadimgi makonlar, fyergantrop, mezolit yutuqlari, neolit inqilobi, ilk dehqonchilik, hayvonlarni xonakilashtirish, kulolchilik, to'qimachilik, qayiqsozlik, bronza davri madaniyatlari, mehnatning birinchi yirik taqsimoti, ibtidoiy tasviriy san'at, yozuv, Avesto.

Savol va topshiriqlar

1. «Sivilizatsiya» tushunchasini izohlab bering.
2. O'zbekiston sivilizatsiyasi haqida ma'lumot bering.

3. Antropogenez jarayoni nima? Bu jarayon haqida nimalarni bilasiz?
4. Insoniyatning dastlabki ajdodlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Eng qadimgi davr qanday davrlashtiriladi?
6. Paleolit davri haqida gapirib bering.
7. Mezolit davri haqidagi tasavvurlaringiz qanday?
8. Neolit davri yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Bronza davri madaniyatlari haqida so'zlab bering.
10. Ibtidoiy tasviriy san'at haqida ma'lumot bering.
11. Avestoning madaniy merosligi haqidagi ahamiyati haqida gapirib bering.

2-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2003.
2. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: «O'zbekiston», 1996.
3. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.
4. Исламов У., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Азии. – Ташкент, 1986.
5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – Toshkent: «Fan», 2001.
6. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – Toshkent: «Zar qalam», 2004.
7. Виноградов А. Древние охотники и рыболовы Средней Азии. – М., 1981.
8. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasini. – Toshkent, «Sharq», 2001.
9. Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov S., Ollamov Ya. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – Urganch, 2002.
10. Avesto «G'uliston», 1999. – № 1-5.
11. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

3-mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.

Reja:

1. Ilk davlatlar paydo bo'lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari. Qadimgi aholi.
2. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'diyona davlatlari.
3. Ahamomiyalar hukmronligi davrida O'rta Osiyo.
4. Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari va unga qarshi kurash. Antik davr davlatlari.
5. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li.

Ilk davlatlar paydo bo'lishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslari. Qadimgi aholi.

Davlat boshqaruvining paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo'ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va takomillashuvida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo'ldi.

Dunyo tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq esa davlatlarning paydo bo'lishi uzoq davom etgan jarayondir. E. B. Rtveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan.

Birinchidan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilarni taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli mil. avv. IV ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Yevropacha yo'li» Yevropa hududida mil. avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanish jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. Shunga qaramay, qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham, O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liq.

O'rta Osiyo, umuman, O'zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahs-larga sabab bo'lib kelmoqda. Bu o'rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo'lib yanada jadallastirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir. Bronza davridayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etgan. Sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'ldi.

O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birlamchi qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vodiysida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dojla va Frot) misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dastlabki yirik shahar markazlarining paydo bo'lish muammolari davlatlar paydo bo'lishi masalalari bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar O'rta Osiyo hududlarida ilk davlatlar paydo bo'lishi haqida nisbatan aniq ma'lumotlar bermaydi. Bu o'rinda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Anov, Sopoli, Jarqo'ton, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib o'rganilgan. Mehnat qurollarining metalldan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So'nggi bronza davriga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi

iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosini ilk shaharlar tashkil etgan davlatchilikning paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ldi. Ilk davlatlarning paydo bo'lishida ilk shaharlardagi o'zaro ayirboshlar, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. So'nggi bronza davriga kelib Shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va Janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Janubiy va Shimoliy hududlaridan topilgan topilmalardagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to'liq yechimini topmagan bo'lib, xususan O'rta Osiyo qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammosi shular jumlasidandir.

XIX asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar olib borilgan «Avesto» ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek Ktesiyning Qadimgi Baqtriya davlati haqidagi ma'lumotlari va, nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan xizmat qiladi.

So'nggi bronza va ilk temir davriga kelib aholi soni va zichligining o'sib borishi, hosildor yer maydonlarining o'zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvining hayotiy zarur hududlarga bo'linib kyetishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma'lum bir qismi xo'jalikning yarim o'troq va choryachilik shakliga o'tishga majbur bo'lishadi. Shuning uchun ham O'rta Osiyodagi mill. avv. VI-IV asrlarga oid

ko'chmanchilar yodgorliklari o'troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo'yi, Shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir va boshq.) joylashganligi tasodifiy hol emas.

Aholi aralash joylashuvi hududlarida o'troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri – O'rta Osiyoning Janubidagi dasht hududlarda joylashgan ko'chmanchi qabilalar hujumi xavfli edi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo'lishi muqarrar edi. Chunki, O'rta Osiyoning ko'pgina tog' va dasht hududlarida yilqichilik keng tarqalib, ko'chmanchilarning o'zlari esa katta jangovar muvaffaqiyatlarga erishib, jiddiy xavf tug'dira boshlashadi.

Mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O'rta Osiyoning Janubidagi qishloqlar rivojlanishiga jadallik bilan o'zgarishlar boshlanib Baqtriya va So'g'diyona hududlarida o'zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o'q otish yo'laklari va boshq.) aks ettiruvchi makonlar paydo bo'ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyonada 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 gadan kam) qishloq qo'rg'onlari, uchun katta bo'lmagan alohida qal'alar va dehqonchilik qishloqlaridan iborat. Shaharlar turiga kiritish mumkin bo'lgan, kattagina qo'rg'onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko'p bo'lmagan.

Ilk davlatlarning asosiy belgilari.

Ijtimoiy-iqtisodiy belgilar	Arxeologik belgilar
Aholi sonining oshishi va ijtimoiy tabaqalanishni ko'rsatuvchi belgilar	Turar joy manzilgohlarining oshishi; manzilgohlarning hududdiy kengayishi; qabrlar va ularda uchraydigan topilmalarning son va sifat ko'rsatgichlari
Ilk davlat markazi – shaharning mavjudligi	Shaharlarning paydo bo'lishi; shahar atrofiga qishloq-manzilgohlarning jamlanish jarayoni
Hunarmandchilikning rivojlanishi	Hunarmandchilik sohalarining markazlashish jarayoni; hunarmandchilik mahsulotlari turlarining oshishi, sifatiy o'zgarishlar

Dehqonchilikning rivojlanishi	Mehnat qurollarning takomillashuvi; sun'iy sug'orish shaxobchalalari va kanallarning paydo bo'lishi; ekin turlari sonining oshishi.
Chorvachilikning rivojlanishi	Uy hayvonlari suyaklari sonining oshishi
Harbiy ishlarning takomillashuvi	Harbiy istehkomlar mavjudligi; qurollarning takomillashuvi; mudofaa inshootlar, burjlar
Kishilarni ruhiy birlashtiruvchi markazlashgan din	Oila altarlarining mavjudligi; monumental ibodatxonalar
Savdo va madaniy aloqalar	Boshqa madaniyatlarga xos bo'lgan moddiy madaniyat namunalari; qadimgi aloqa yo'llarining takomillashuvi
Xususiy mulk, siyosiy birlashma belgisi	Muhr
Jamiyatning sivilizatsiyasi darajasi	Yozuv

Davlatchilik paydo bo'lishidagi ayrim nazariyalar va ularga qisqacha ta'rif.

<p>Teologiya nazariyasi. Tarafdorlari: XIII asr, Foma Akvinskiy, XIX asr Jozef Mestr, islom mafkurasi va katolik cherkovi.</p> <p>Bu nazariya davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog'laydi. Qadimgi davridayoq paydo bo'lgan bu nazariya ilk davlatlarning diniy boshqaruv shakllarini (teokratik) qattiq turib himoya qiladi.</p>
<p>Patriarxal nazariya. Bu nazariya dastlab Aristotel asarlarida asoslanib, XIII asr R.Filmer tomonidan rivojlantirildi.</p> <p>Bu nazariya tarafdorlari dastlabki davlat bevosita oiladan o'sib chiqqan deb hisoblaydi. Unga ko'ra davlat hokimiyati otaning oila a'zolari ustidan hokimligini belgilab beradi.</p>
<p>Patremonial nazariya. XIX asrda yashagan fransuz olimi A. Galler tomonidan ishlab chiqilgan.</p> <p>Bu nazariya tarafdorlari davlat yerga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan (patrimomum) deb hisoblashadi. Ya'ni, hokimiyat, yerga egalik qilish huquqidan bevosita u yerda yashovchi odamlarga yoyiladi.</p>
<p>Shartnomaviy nazariya. XVII–XVIII asrlarda keng yoyilgan bu nazariya tarafdorlari A. Gortsiy, J. Lokk, T. Gobs, J. Russo, D. Didro, Sh. Monteske kabilar edi.</p> <p>Bu nazariyaga ko'ra davlat – odamlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida odamlarning ongli ravishda birlashishidir. Odamlar shartnomaning kuchi bilan o'z erkinligi, o'z hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.</p>

<p>Zo'rvonlik nazariyasi. Tarafdorlari: E. Dyuring, L. Gumilovich, K. Kautskiy. Bu nazariya tarafdorlari davlat cheksiz va himoyasiz qabilalarning kuchli va uyushgan qabilalar tomonidan bosib olinishi yo'li bilan zo'rvonlik yoki kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan deb hisoblashadi.</p>
<p>Irripatsiya nazariyasi. Nemis olimi K. Bittfogel tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, davlatlarning paydo bo'lishi, ularning birlamchi despotik shakllari Sharqiy agrar viloyatlarda ulkan inshootlar qurilishi bilan bog'lanadi.</p>
<p>Psixologiya nazariyasi. Tarafdorlari: L. Petrajetskiy, Z. Freyd, G. Tard. Bu nazariya tarafdorlari davlatning paydo bo'lishi inson psixologiyasi, shaxsning jamoada yashashga ehtiyoji, obro'li kishilarni izlash, buyruq berish va itoat istagi bilan izohlashadi.</p>
<p>Sinfli nazariya. Tarafdorlari: K. Marks, F. Engels, B. Lenin, G. Plexanov. Bu nazariyaga ko'ra, sinflar paydo bo'lishi va ular o'rtasida sinfiy kurash keskinlashuvining yakunidir. Davlat bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlik qurolidir.</p>

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqalanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Janubiy hududlaridagi bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Yaqin Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan kelib chiqqan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib aytish mumkinki, qadimgi davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo'lgan. Dastlabki davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qayerda oldinroq rivojlangan bo'lsa, o'sha hududlarda paydo bo'lgan. Davlatchilik jahon tarixida mil. avv. IV ming yillikning oxirida vujudga kelgan bo'lib, insoniyat sivilizatsiyasining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi.

Davlat tushunchasiga ta'rif berishda quyidagi umumlashgan yondashuv ayni haqiqatdir: davlat – bu muayyan oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarining manfaatini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilotdir. Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Aholining hududiy asosga ko'ra birlashganligi.
2. Milliy suverenitetga egaligi (ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi mustaqillik).
3. Maxsus boshqaruv va majburlov apparatining mavjudligi.
4. Huquq tizimining mavjudligi.
5. Soliq tizimiga egaligi.

Davlatlarni tiplarga ajratishda formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. **Formatsion yondashuv** – davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy darajasini, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratishdir. **Sivilizatsion yondashuv** – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va funksiyalari bilan bir qatorda ko'proq ularning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, an'anaviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda davlatchilik masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarning aksariyati sivilizatsion yondashuvni qo'llab-quvvatlashadi. A. S. Sagdullayev qadimgi boshqaruv tizimi quyidagi funksiyalar bilan bog'liq holda amalga oshirilganligini ta'kidlaydi: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy.

Davlatning jamiyat taraqqiyoti va uning siyosiy tizimida tutgan o'rni quyidagicha izohlanadi:

1. Ma'lum hududlardagi davlat o'z hududi doirasida yashovchi tildan, dinidan, millatidan qa'ti nazar, barcha aholiga hokimiyat ta'siri o'tkazadigan yagona siyosiy tashkilotdir.

2. Davlat o'z ichida va tashqi aloqalarda yo'lga qo'yiladigan munosabatlarda boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan farq qilgan holda, oliy hokimiyatga, to'la suverenitetga egadir.

3. Davlat jamiyat hayoti taraqqiyotining turli sohalari va yo'nalishlarini muvofaqlashtirib turadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hudularidan topilgan piktografik belgi-yozuvlar bronza davriga oid bo'lsa-da, ular hozircha kam sonli bo'lib, qadimgi jamiyat haqida to'liq ma'lumotlar bera olmaydi. Mil. avv. V–IV asrlarga oid ayrim kam sonli topilmalar ham (Xorazm, sak yozuvlari) to'liq emas. O'rta Osiyo hududlaridan mil. avv. III–II asrlarga oid ko'plab tanga pullar topilganki, ular qadimgi tarixni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari to o'rta asrlarga qadar yetib kelgan ko'p sonli yozma manbalar ma'lumotlari ham muhimdir.

O'rta Osiyo hududlaridagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma manbalar – zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahamoniylar davri mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari hisoblanib ularning barchasi yurtimizdan chetda bitilgan. Shuning uchun ham, ularda ba'zi hollarda chalkashliklar va noaniqliklar, bir-birini inkor etish hollari uchrab turadiki, bu o'rinda mavjud yozma manbalarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish va tahlil etish nihoyatda muhimdir. Arxeologik ma'lumotlar yozma manbalar ma'lumotlarini kengaytiradi, ularga aniqlik kiritadi, tarixiy taraqqiyotning aniq yo'nalishlarini ko'rsatib, ma'lum davr haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Mil. avv. VI asrning o'rtalariga kelib Erondagi Ahamoniylar sulolasi hukmdorlari Qadimgi Sharqdagi ko'pgina mamlakatlar ustidan, jumladan O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, «Saklar o'lkasi» ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishadi. Ahamoniylar davrida bitilgan mixxat manbalarda O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari haqida turli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Bu yozuvlar mil. avv. VI–IV asrlarga oid bo'lib, Eron hududlarida, xususan Behistun va Naqshi Rostam qoyalari, Suza, Persepol va Hamadon shaharlaridan topib o'rganilgan. Bular orasida eng muhimi Behistun yozuvlari bo'lib, u Doro I davrida yozilgan. Bu yozuvlarda Doro I bosib olgan o'lkalar sanab o'tiladi: Shuningdek, bosib olingan hududlarda forslarga qarshi qo'zg'olonlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Suza shahridan topilgan yozuvlarda Doro I bunday e'lon qiladi: «Suzadagi saroyini men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog'ochi Ganxaradan, oltin – Sard va Baqtriya-dan, yaltiroq toshlar va lojuvard So'g'diyonadan, feruza – Xorazmdan, kumush va bronza Araxoziyadan, tosh ustunlar – Elamdan yetkazib kelingan.»

Persepol shahridagi saroy devorlarida baqtriyaliklar, xorazmliliklar, so'g'dlar va saklarning o'yib ishlangan rasmlari topilgan. Bu rasmlarda So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm va saklar o'lkasidan bo'lgan soliq to'lovchilarning ahamoniylarga turli xil buyumlar (hunarmandchilik, tikuvchilik, zargarlik, harbiy qurollar) hamda qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan otlar va tuyalarni soliq sifatida olib kelayotgani tasvirlangan. Xullas, ahamoniylar davri yozuvlarida o'lkamiz xalqlarining qadimgi tarixiga oid quyidagi ma'lumotlar saqlangan: viloyatlar va xalqlar

ning nomlari, ayrim siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat ma'lumotlari.

Yunon-rim tarixchilaridan birinchi bo'lib «tarixning otasi» Gerodot (mil. avv. V asr) O'rta Osiyo xalqlari haqida ma'lumotlar beradi. Gerodot o'zining mashhur «Tarix» kitobini mil. avv. 455–445-yillarda yozgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Gerodot O'rta Osiyo viloyatlarining birortasida ham bo'lmagan. Shuning uchun ham, O'rta Osiyodagi xalqlar, viloyatlar joylashuidagi nafaqat aniq, balki umumiy chegaralaridan ham bexabar bo'lgan. O'rta Osiyo viloyatlari haqida esa, o'zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

A. Sagdullayevning hisobiga qaraganda, Gerodot «Tarix» kitobida Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 45 marta, so'g'dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib ularning moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.



Kir II



To'maris

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo'shinlari safida yurtimiz xalq-

lari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog'-aslahalari, yo'lbo'shchilari, forsiyunon urushlarida ularning jasorat ko'rsatganligi, xalqlarning ahamoniylar davlatiga bo'ysunishi va soliq tartibi, sak-massagetlarning turmush-tarzi va diniy e'tiqodi va boshqa ayrim ma'lumotlardan iborat.

Misol uchun Gerodot massagetlar haqida shunday xabar qiladi: «Bug'doyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik bilan (Araks daryosida baliq serob) shug'ullanishadi hamda sut ichishadi. Massagetlar ichida ulug'langan yagona xudo – bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurbon qilishadi, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon – tezchopar jonliqni qurbon qilish lozim deb o'ylashadi».

Asli Kichik Osiyodagi Knid shaharlik bo'lgan yunon tarixchisi Ktesiy ahamoniylar podshosi Artakserks (mil. avv. 404–359) saroyida tabiblik qilgan. Ktesiy qalamiga mansub «Persika» asarining katta bir qismi baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlangan.

Ktesiy Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishlari, Baqtriyaning poytaxti va ko'p sonli mustahkam istehkom va shaharlar haqida ma'lumotlar berib, jumladan shunday yozadi: «Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p shaharlar orasida Baqtra nomli mashhur bir shahar bo'lgan. Bu shahar mamlakatning markazi bo'lib, ko'p shaharlar o'rtasida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podsho qal'asi joylashgan».

Yana bir yunon muallifi Ksenofont «Kiropediya» nomli asarida Ktesiy xabarlariga o'xshash, Baqtra shaharlarining ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya urushlari haqida ham yozadi.

Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa qilgan yurishlari natijasida O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar haqida ko'plab yangi tarixiy-geografik ma'lumotlar paydo bo'ldi.

Keyingi antik davr mualliflari (Arrian, Kurtсий Ruf, Strabon va boshq.) asarlaridagi ma'lumotlar ilk antik davr mualliflarinikiga nisbatan kengroq berilgan. Aleksandr yurishlari haqida yozgan tarixchilar asarlarida qadimgi O'zbekiston viloyatlari, shaharlar, qal'alar, manzilgohlar, himoya devorlari, xo'jalik va madaniy hayot haqida kengroq va batafsilroq ma'lumotlar olish mumkin.



Ma'lumki, O'zbekiston qadimgi tarixining juda katta davri yozma manbalarsiz, arxeologiya va antropologiyaga oid manbalarga tayangan holda o'rganiladi. Qadimgi Sharq yozma manbalaridan (Hind, Ossuriya va Eron manbalari) ma'lumki, mil. avv. II ming yillikning o'rtalari va oxirlari (bronza davri) – O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixi – hind-eron qabilalari yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan. Hind-eron qabilalari dastlab juda keng hududlarda – Bolga, Ural va Janubiy Sibir oralig'idagi yerlarda yashashgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoda aholi joylashuvi etnik hududlarining ajrala boshlashi mil. avv. IX–VIII asrlarga oid bo'lishi mumkin. Mil. avv. VI asrda Erondagi ahamoniylar sulolasi podsholari yurtimizda yurish qilganda bu xalqlarning ajralib borish jarayoni butunlay tugagan va turli xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning ma'muriy chegaralari ahamoniylardan ancha oldingi davrda paydo bo'lgan.

Ming yillar davomida O'zbekiston hududlarida yashab o'tgan qabilalar va elatlarning tarixi hamda madaniyati izsiz yo'qolib ketmagan. Ushbu elatlarning ayrimlari ajdodlarimizning yirik guruhlarini tashkil etib, eng qadimgi yozma manbalarda tilga olingan. Ushbu manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. VII–VI asrlarda O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida so'g'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiylar yashaganlar. O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari, dashtlari va cho'llarida yashagan saklar va massagetlar chorvador qabilalardir.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida yurtimiz hududlarida joylashgan turli xalqlar qadimgi Sharq-eroniy tillar shevalarida gaplashishgan. Ularning etnik qiyofasi va tillari bir-biriga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham, so'g'dlar, baqtriyalar, xorazmiylar, sakmassagetlar qarindosh xalqlar bo'lib, bir-birlarini tushunishgan. Ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanib o'troq xo'jalik yuritgan aholining moddiy va ma'naviy madaniyati bir-biriga ancha o'xshash bo'lgan.

2. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va Sug'diyona davlatlari. Qadimgi Baqtriya davlati.

Hozirgi Afg'onistonning Shimoli-Sharqi, O'zbekistonning Janubi va Tojikistonning Janubi-G'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika, Tuxolo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni

Baqtriya deb atash e'tirof etilgan («Shohnoma»da Baxtar zamin, qadimgi turkiylarda Bahodirlar yurti).

Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, mil. avv. II ming yillik o'rtalariga kelib Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyatining jadallik bilan rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos xususiyat va qonunlariga ega edi. Agar davlatchilik asosini shahar madaniyati tashkil etilishini hisobga oldigan bo'lsak, bu jarayon O'zbekistonning Janubida, Baqtriya hududida mil. avv. II ming yillik birinchi yarmidayoq shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. A. Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o'zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlar bilan protoshahar, ya'ni, Avestoda tilga olingan «vara» inshootini eslatsa, Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma'nodagi shahar edi. Jarqo'ton qadimgi Sharq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Jarqo'ton ko'rinishidagi ko'hna shaharlarni qadimgi Sharqdagi nom-davlatlar shakllari bilan qiyoslash uchun dalillar etarli. Ammo, Mesopotamiya nom-davlatlarining asosiy belgilaridan bo'lgan yozuv Jarqo'tonda mavjudligi hozircha bahslarga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, mil. avv. II ming yillikning so'nggi choragiga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalari shakllana boshlaganligiga ilmiy asoslar bor.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy-madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq edi:

1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi.
2. Qal'alari bo'lgan qishloqlarning paydo bo'lishi va keyin ularning shaharlarga aylanishi.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.
4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi.

Tarixning otasi Gerodotning «Tarix» asarida Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olnadi. Yunon tarixchisi Ktesiy Knidskiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi davlatdagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas-tuganmas boylıkları haqida

hikoya qiladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Qadimgi Baqtriya podsholigi qudratligi jihatdan qo'shni viloyatlardan ancha ustun bo'lib, ular orasida alohida mavqega ega bo'lgan. Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda ham Old Osiyoga qadar mashhur edi. Ayniqsa, Badaxshon lojuardi (lazurit) va la'li juda qadrlangan.

Avestoning eski qismlarida Ahuramazda yaratgan «eng yaxshi o'lkalar va mamlakatlar orasida to'rtinchi bo'lib go'zal va bayroqlari baland ko'tarilgan **«Bahdi mamlakati»** atamasi uchraydi. Ayrim olimlarning fikricha bu «baxtar» atamasiga mos kelsa kerak. Baqtriya haqidagi keyingi qadimgi ma'lumotlar Axamoniylar podsholarining mixxatlarida va bo'rtma tasvirlarida uchraydi. Misol uchun, Axamoniylar podsholarining markazlaridan biri Persepol shahridagi saroy devorlarida bo'rtma rasmlarda baqtriyaliklar idishlar ko'targan va ikki urkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlanadi. Demak, Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Axamoniylar davlatining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

A. Sagdullayevning tadqiqotlariga ko'ra, Baqtriya haqidagi turli ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari – Gerodot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kurtsiy Ruf, Diador, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo'lib, ular bu davlatning qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Xususan, Ktesiy Knidskiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qilgan yurishi, uning baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganligi, Baqtriya podshosi Oksiart va uning boy xazinasi haqida ma'lumot beradi. Ktesiyning Baqtriya chegaralari haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir. Uning xabar berishicha: G'arb tomondan Baqtriya tekisligiga boradigan yo'lni tog'lar to'sib turadi, ulardan faqat dovonlar orqali o'tib borish mumkin. Baqtriya Tanaisdan Hind daryosiga cho'zilgan bo'lib, Tanais uni Yevropadan, Hind daryosi esa Hindistondan ajratib turadi.

Gerodot o'zining «Tarix» asarida Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga oladi. «Baqtriya» atamasi Esxilning mil. avv. V asrda sahnaga qo'yilgan «Fors»lar tragediyasida ham uchraydi. Yana bir qadimgi tarixchi Strabon Baqtriyani «oriylar o'lkasining javohiri» sifatida ta'riflaydi.

Shunday qilib, mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga kelib qadimgi O'zbekistonning Janubida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan

vohalarning har biri ma'lum hududiy-siyosiy birlashmani tashkil etgan bo'lib, o'z nomiga, ma'muriy markazlariga, yirik shaharlariga ega bo'lgan bo'lishi mumkin edi. Misol uchun, Surxondaryodagi Qiziltepa ko'hna shahri atrofida to'rtburchak shaklda qurilgan qadimgi uy-qo'rg'onlari (Qizilcha) 3–4 ta qo'shni uylardan iborat bo'lib, alohida joylashgan qishloq jamoasini tashkil etgan. Har bir katta oila jamoasini ma'lum uy-joy, chorva va yerga egalik qilib, ma'lum darajada iqtisodiy mustaqil bo'lgan. Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-qabilaviy birlashuvdan tubdan farq qilib, ilk davlatchilik shakllari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. VII–VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo'linish shakllanib, aholining o'troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko'hna shaharlar qishloq xo'jalik atroflariga ega bo'lib, qal'alar paydo bo'ladi, muhim savdo yo'llari bo'ylarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati yetakchi o'rin egallaydi.

Qadimgi Baqtriya dehqonchilik rayonlarining tuzilishi tabiiy-geografik joylashuv va shart-sharoitlarga qarab turlicha bo'lgan. Manzilgohlarning soni va o'zlashtirilgan yerlarning umumiy maydoniga qarab madaniy-xo'jalik vohalar bir nechta guruhlariga bo'lingan. Bohalarning chegaralari sug'orma dehqonchilik hududlari va sug'orish tarmoqlarining chegaralari bilan uzviy bog'liq edi.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda davlatchilik jamiyatning ichida, o'z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shakllana boshlagani 3,5 ming yildan kam emasligi ilmiy jihatdan asoslangan Baqtriya davlatchiligi buning yorqin misolidir.

O'ria Osiyodagi yana bir yirik davlat uyushmasi – Qadimgi Xorazm davlati hisoblanadi. «Katta Xorazm» va «Qadimgi Xorazm» masalasi bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik ko'plab olimlar turli-tuman tadqiqotlar olib borgan bo'lsalar-da bu masalalar hamon tadqiqotchilarning bahs-munozaralariga sabab bo'lib kelmoqda. Avesto va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlari bu munozaralarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, o'tgan asrning 50–60-yillaridan boshlab bugunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Xorazm davlatchiligi tarixi bo'yicha boy materiallar berdi.

Avvalo, so'nggi yillardagi ibtidoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X. Matyakubov) xulosa chiqaradigan bo'lsak,

Xorazm mil. avv IV–III ming yillikdayoq Oʻrta Sharqning qadimgi sivilizatsiyalar olami bilan uzoq Shimolni bevosita bogʻlovchi halqa rolini oʻtay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabogʻyob madaniyatlari qadimgi Xorazm yerlarini oʻzlashtirib bir-biri bilan qizgʻin aloqada boʻlgan, Shimol va Janubdan taʼsir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtarilgan qabilalar madaniyati edi.

Ularning urugʻ jamoalari yarim yertoʻla uy-joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shugʻullanib, ibtidoiy ishlab chiqarish xoʻjaligi sari ilk qadam tashlashgan. Ammo, ularning moddiy xoʻjalik taraqqiyoti darajasi Oʻrta Osiyoning Janubiy mintaqalari (Baqtriya, Margʻiyona)dagi qabilalarga nisbatan ancha orqada edi.

Amirobod madaniyati (mil. avv. IX–VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar boʻlib, irrigatsiya xususiyati ibtidoiy urugʻ-qabilachilik anʼanalarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. Oʻrta Osiyoning Janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqulay tabiat injiqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi yozma manbalar maʼlumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga koʻra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo boʻlishigan asos boʻlgan ilk shaharsozlik madaniyati sohiblari – Xorazmiylar koʻchib kelgach tarkib topdi va rivojlandi.

Olimlarning taʼkidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Baychax shu manbada eslatilgan Kavi Bishtasning podsholigi boʻlib, mil. avv. IX–VIII asrlarda Drangʻiyona, Satagadiya, Ariya, Margʻiyona va Amudaryoning oʻrta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. Gʻarb tadqiqotchilari B. Xenning va I. Gershevichlar Kavi Bishtasning davlati Marv va Hirot atrofida joylashgan «Katta Xorazm» deb hisoblashadi. «Katta Xorazm» muammosi Gerodot maʼlumotlaridan boshlangan. U «Tarix» asarining uchinchi kitobida quyidagicha maʼlumot beradi: «Osiyoda bir vodiy bor. Uning barcha tomoni togʻ bilan oʻralgan, togʻni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqtlar bu vodiy xorasmiylarga tegishli boʻlib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh yerlarda joylashgan. Bodiyni oʻrab turgan togʻdan Akes nomli yirik daryo boshlanadi». Shuningdek, Gerodot, Akes daryosida toʻgʻon qurilgani va bu toʻgʻon xorasmiylarga tegishli ekanligi haqida maʼlumot beradi.

Gerodotdan sal oldinroq yashab oʻtgan Gekatey parfiyaliklarning Sharqiy tomonida joylashgan «Xorazm»ni, «bir qismi tekisliklarda, bir

qismi togʻlarda yashovchi xorazmliklarni» eslatib oʻtadi. Tadqiqotchi W. A. Livvits ham bu «Katta Xorazm»ni Marv va Hirotning toʻrtta rayoniga joylashtiradi.

S. P. Tolstov va Ya. Gʻulomovlar bu nazariyaga qarshi boʻlib, xorazmliklar Oʻrta Osiyoning Janubidan koʻchib kelmaganlar balki, Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan deb xulosa qilishgan. Ammo, bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududlaridan ancha keng boʻlgan.

Oʻrta Osiyo Janubidagi dehqonchilik madaniyati va ilk shaharlar boʻyicha mutaxassis hisoblangan A. A. Asqarov soʻnggi yillarda Qadimgi Xorazm masalalariga oʻz eʼtiborini qaratdi. Olimning eʼtirof etishicha, Xorazm vohasining qadimgi davri oʻziga xos xususiyatlariga ega. Bu hududiy kenglik Amudaryoning quyi havzasi hisoblanib, Oʻrta Osiyoning bu yirik daryosi bir necha yuz yillar davomida yuqori oqimlardan quyiga unumdor loyqa oqizib kelib, Janubiy Orol boʻylarida sugʻorma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Ammo, bu zamin eng qadimgi davrlarda ajdodlarimiz tomonidan oʻzlashtirilib, sugʻorma dehqonchilik madaniyatining Margʻiyona va Baqtriya singari makoni boʻla olmadi.

Arxeologik manbalarning maʼlumot berishicha, ilk temir davriga kelib Xorazm hududlarida paydo boʻlgan Amirobod madaniyati davrida Janubiy Xorazm aholisi Amudaryo quyi havzasining oʻzanlari boʻylab barpo etilgan keng va sayoz kanallar yordamida ziroatchilikka qulay joylarda dehqonchilik qila boshlashadi hamda oʻtroq hayot asta-sekin ularning turmush-tarziga aylana boshlaydi. Ammo, Amudaryoning quyi havzalari, uning toʻqayzor va qamishzor keng maydonlari, serunum yaylovlari chorvachilik xoʻjaligining taraqqiy etishi uchun juda qulay edi. Shuning uchun ham, qadimgi Xorazmda Quyi Sirdaryo sak-chorvadorlarning Quysisoy madaniyati keng rivojlangan.

Yunon geografi Strabon xorazmiylarning ajdodlari massagetlarga borib taqalishi haqida maʼlumotlar beradi. S. P. Tolstovning fikricha, Xorazm tarixining massagetlargacha boʻlgan davrida bu zaminda Suvyorgan va Tozabogʻyob madaniyatlari aralashuvidan tarkib topgan Qovunchi qabilalari yashashardi. Ular mil. avv. II ming yillikning soʻnggi choragida qadimgi Xorazmning massaget nomi ostida yuritilgan koʻchmanchi qabilalarining asosini tashkil etgan.

So'g'da. Gerodot esa so'g'diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o'lkasidagi xalqlarni sanab o'tganda va forslarning qo'shinlari safida jangchi – so'g'diylarning o'rnini ko'rsatib byerganda tilgan olgan. Ammo, tarixchi So'g'd shaharlari, daryolari, tog'lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma'lumotlar qoldirmagan. Ahamoniylar mIXxatlari So'g'diyona haqida asosan rasmiy darajada e'lon qilishadi va turli xil tarixiy muammolarni o'rganishda ulardan foydalanish og'ir kechadi. Gekatey, Ktesiy va Ksenofont asarlarida so'g'diylar haqida ma'lumotlar yo'q.

Aleksandr Makedonskiy davri va so'nggi yunon-rim tarixshunoslari asarlarida tarixiy-geografik ma'lumotlar ancha keng berilgan. So'g'diyonadagi alohida joylarda, viloyatlar, qal'alar – Nautaka, Ksenippa, Maroqanda, Bagi, Basileya – «podsho shahri», Politemet-Zarafshon, «Oksiart, So'g'd qoyasi» va boshqa xabarlar shular jumlasidandir.

Bu ma'lumotlar asosida turli fikrlarga ega bo'lish mumkin. Dastavval, mil. avv. IV asrga kelib, sug'diylarning hududiy joylashuvi, ularning yashash uchun foydalangan asosiy yerlarining chegaralari, daryo vohalari va viloyatlari aniqroq ko'rinadi. Ammo, bu jarayonning tarixiy an'analari – sug'diylarning yoyilishi, o'troq vohalarining paydo bo'lishi va shu joylarda yirik shahar markazlariga asos solinishi yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Ilk temir davri So'g'diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo'lib markaz vazifasini bajaragan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman – voha markazi vazifasini bajaruvchi markazlar – Daratepa, Konimex, Chordara; maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan shaharlar – Uzunqir, Yerqo'rg'on, Xo'ja Bo'ston; bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi shaharlar – Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabilardir.

Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib boradi. Bu manzaraning Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta – sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradi. Bu jarayonda qadimgi yo'llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on kabi ko'hna shaharlar O'rta Osiyo Shimoliy dasht hududlaridan keluvchi yo'llar ustida joylashgan.

Tadqiqotchi Sh. Odilov Sug'diyonada, xususan Buxoro va Zarafshon vohalarida topib tekshirilgan ilk temir davriga oid arxeologik ma'lumotlarni boshqa hududlar bilan solishtirib chuqur tahlili etadi. Buxoro hududlaridan topilgan «ahamoniylar davri» yodgorliklari uncha katta bo'lmagan hududlarda joylashgan bo'lib, bu yerlarning keng hududlarga yoyilgan etno-madaniy viloyat tarkibiga kiritish lozimki, ilk temir davrida bu hududlarda tashqi ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Bu etno-madaniy viloyat dastavval Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya), Janubiy So'g'd, markaziy So'g'dning bir qismi, Buxoro So'g'dining Shimoli-G'arbiy va Shimoliy-Sharqiy hududlari, shuningdek Ustrushona kabi tarixiy viloyatlarini o'z ichiga olgan.

Eng so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Qiziltepa (Surxondaryo), Yoztepa (Turkmaniston), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand) kabi ko'hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari va qurilish usullari bir-biriga nihoyatda o'xshash ekanligining guvohi bo'lamiz. Ammo, Yerqo'rg'on, Kuchuktepa, Qiziltepa, Yoztepadan topilgan mil. avv. IX–VII asrlarga oid buyumlarga o'xshash buyumlar Xorazm hududlaridan shu paytga qadar topilmagan.

Demak, qurilish usullari va moddiy madaniyatdagi o'zaro o'xshashlik, mil. avv. I ming yillikning boshlari Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona hududlari o'rtasida hech bo'lmaganda etnik tarixiy-madaniy birlik mavjud bo'lganligidan dalolat berib, bu o'xshashlik savdo-sotiq munosabatlari, o'zaro almashinuv va qadimgi savdo-tranzit yo'llariga ham bog'liq edi. Mil. avv. VI asrga kelib esa, Xorazm mustaqil davlat sifatida tashkil topadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'zaro almashinuvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xorazmdagi ilk temir davri savdo-tranzit yo'llari voha ichidagi ichki yoki ikkinchi darajadagi yo'llar vazifasini o'tar edi. Asosiy savdo yo'llari esa Baqtriyadan Janubiy So'g'd (Qashqadaryo), Markaziy So'g'd (Samarqand) orqali Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga o'tib ketardi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqalanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. O'zbekiston hududlaridan olingan yangi arxeologik ma'lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishini yanada

kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma'lumotlarga qaraganda, ilk temir davri umumiy jamoalardagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Manzilgohtar joylashuvining tashqi belgilariyoq katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo'jayinlari, shuningdek alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o'rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo'lishgan, o'zining qishloq xo'jalik mahsulotlari zaxiralari va chorvalari bo'lgan yoki o'zining iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jalikni aks ettirgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini solishtirib va umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, So'g'diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog'oldi hududlari, daryo vohalari, keyinchalik esa, dasht hududlariga tarqalishadi. Bu hududlarda mavjud bo'lgan qulay tabiiy sharoit – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

Turli qadimgi manbalarda Sug'diyona nomi tilga olinsa ham, alohida davlat sifatida eslatilmaydi. Bu hol tadqiqotchilarning turli bahslariga sabab bo'lishiga qaramasdan, arxeologik tadqiqotlar bu masalaga ko'pgina aniqliklar kiritadi.

Ushbu tadqiqotlarni tahlil qilib va boshqa ma'lumotlarni umumlashtirib shunday hulosa chiqarish mumkin:

– Mil. avv. I ming yillikning boshlariga oid tarixiy – madaniy yodgorliklar So'g'diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi;

– Sug'diyona davlatchiligi tarixida nafaqat chetdan bo'lgan tashqi ta'sir, balki, ichki omillar imkoniyatlarining ham ahamiyati katta bo'ldi;

– Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida So'g'diyona Baqtriya davlati doirasida nafaqat siyosiy, balki etnik-madaniy birlikni tashkil etardi. Qurilish usullari, me'morchilik san'ati va moddiy madaniyatdagi o'xshashlik fikrimiz dalilidir. Zero, bunday o'xshashlik iqtisodiy, madaniy munosabatlar hamda siyosiy birlik asosida paydo bo'lishi mumkin edi;

Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan keyingi davrlarda So'g'diyona mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni yanadi rivojlantiradi.

3. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo.

Mil. avv. VI asrning o'rtalariga kelib shafqatsiz kurashlar natijasida Midiya podsholigi o'rnida Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Ko'pchilik ilmiy – tarixiy adabiyotlarda Kir II Ahamoniylar davlatining mo'chisi sifatida e'tirof etiladi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi juda ko'plab mamlakatlar ostidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirishgan va shunday siyosat olib borishgan. Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil. avv. 545– 539-yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil. avv. 522–486) Ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududga o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'p sonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan Ahamoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Mil. avv. VI asrning o'rtalarida Kir II o'zining sodiq lashkar-boshlaridan biri bo'lgan Garpagga Kichik Osiyodagi shahar-davlatlarni bosib olishni buyuradi. O'zi esa O'rta Osiyo hududidagi viloyatlarni (Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona va boshq.) bosib olishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Gerodot Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi haqida so'zlar ekan, bu yurishlarning ko'pchiligi haqida to'xtalmasdan, faqat forslarni tashvishga solgan yurishlar haqida eslatib o'tadi. Tarixchining ma'lumot berishicha, Garpag Kichik Osiyo shaharlarini birin-ketin bosib olguncha Kir II butun Osiyo xalqlarini bo'ysundiradi va shundan keyingina Bobilga yurish boshlaydi.

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borishgan. Xususan, massaget qabilalari malika To'maris (Tomiris) boshchiligida forslarning turli hiyla-nayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo'shinini tor-mor etishadi. Malika To'maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda ahamoniylar hukmdori Kir II ham halok bo'ladi. Gerodot xabar berishicha, «Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng dahshatlisi edi... Kamon o'qlari tugagach, qo'l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashadilar. Qo'shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozonadilar».

Kir II qo'shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530-yilga to'g'ri keladi.

Tarixchi Polien forslarga qarshi kurashgan Shiroq qahramonligi haqidagi afsona to'g'risida xabar beradi. Uning xabariga ko'ra, sak qabilalarining vakili bo'lgan Shiroq ismli cho'pon hiyla yo'li bilan forslarning katta qo'shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo'yadi. Shiroq ham, fors qo'shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo'ladilar.

Mil. avv. 522-yilda ahamoniylar taxtiga Doro I o'tiradi. U taxtga o'tirishi bilan oq Parfiya, Marg'iyona va «saklar o'lkasi»da forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522-yilning oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natadi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladi. Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi.

«Saklar o'lkasi»dagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519-518-yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Saklarning ko'pchiligi o'ldirilib, aksariyati asir olinadi. Ularning yo'l boshchisi Skunha asir olinib, o'rniga boshqa yo'l boshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O'rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o'zlariga bo'ysundirishadi.

Ahamoniylar davrida davlat boshqaruvi shohlar shohi-shahanshoh qo'lida bo'lgan. Hokimiyat ierarxiyasida shahanshohdan keyin boy fors oilalarining boshliqlari turgan. Shahanshoh saroyida Kengash mavjud bo'lib uning tarkibiga boy oila boshliqlari, saroy ayonlari, yuqori lavozimdagi amaldorlar va noiblar kirgan. Davlat ahamiyatiga molik muhim bo'lgan barcha masalalar ushbu kengashda ko'rib chiqilsa-a, hal qiluvchi qarorni shahanshoh qabul qilgan.

Shohlar shohidan keyingi shaxs xazarpat (mingboshi) deb atalgan. Xazarpat shahanshoh gvardiyasining boshlig'i va davlat boshqaruvida shahanshohning bosh yordamchisi hisoblangan.

Ahamoniylar davlatining bosh ma'muriy markazi Suza shahri edi. Bu yerda shahanshoh devonxonasi joylashgan bo'lib, barcha hujjatlar shu yerda saqlangan. Shahanshoh devonxonasi boshlig'i dapirpat (mirzaboshi) deb atalgan. Devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, qozilar, mirzalar va boshqa amaldorlar ishlashgan.

Mil. avv. VI asrlarning o'rtalarida tashkil topgan ulkan Ahamoniylar davlati tartibiga hozirgi Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Shimoliy Hindiston, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Misr kabi hududlar kirgan edi. Bu ulkan davlat ma'muriy-qaram o'lkalar – satrapiyalarga bo'lingan edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu an'ana Midiya davlatidan qabul qilingan, Doro I davrida ma'muriy boshqaruvda islohotlar o'tkazilib, butun davlat 20 ta ma'muriy-qaram satrapiyalarga bo'linadi. Ularni satraplar (shahanshoh noiblari) boshqargan. Satrapiyalar ancha yirik bo'lib, ayrim hollarda bir necha o'lka va viloyatlarni birlashtirgan. Masalan, Parfiya, Girkaniya, Areya, Xorasmiya va So'g'diyona bitta satrap tarkibiga kirgan.

Satrapiyalarning chegaralari ayrim hollarda o'zgarib turgan. E'tibor berish lozimki, Ahamoniylar davlatida satrapiyalar etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satrapiyalar shahanshohning noibi sifatida asosan forslardan tayinlangan. Satrapiyaning ma'muriyati va boshqaruvi shahanshoh ma'muriyati va markaziy boshqaruv apparatini qisqartirilgan holda takrorlagan. Ya'ni, satrapda ikkita yordamchi, devonxonasi va mirzalar bo'lgan. Bir vaqtning o'zida satrap o'zi noiblik qilib turgan hududda bosh qozi vazifasini ham bajargan. Ayrim hollarni istisno qilganda satrap harbiy boshchilik vazifasini bajarmagan. Misol uchun, Doro I barcha satraplarning harbiy vazifalarini bekor qilgan va ularga faqat o'ziga bo'ysinuvchi harbiy boshliqlarni jo'natgan. Satraplarning faoliyati markazdan qattiq nazorat ostiga olingan. Hattoki, shahanshoh huzuridagi amaldorlar tez-tez kelib satraplar faoliyatini tekshirib turishgan.

Ahamoniylar davlatida muntazam qo'shin mavjud bo'lib, uning asosini tarkibida o'n ming jangchi bo'lgan «abadiy o'lmas» polk tashkil etgan. Qo'shinlarning bosh qo'mondoni shahanshoh edi. Harbiy tuzilmada keyingi o'rinda «xazarpat»-mingboshi turgan. Ahamoniylar qo'shinlari quyidagi qismlardan iborat bo'lgan: 1) «abadiy o'lmas» polk; 2) piyoda qo'shinlar; 3) otliq qo'shinlar (suvoriylar); 4) satraplar qo'shinlari; 5) yunon yollanmalari; 6. ko'ngilli qo'shin. Qo'shinning qismlari 10,100,1000, 10000 kishilik harbiylardan iborat bo'lib, har bir qismning tayinlab qo'yilgan boshlig'i bo'lgan.

Butun davlat hududi 4 ta harbiy okrugga bo'lingan. Har bir okrugining harbiy boshlig'i bo'lib, u bevosita shahanshohga bo'ysungan. Bo'ysunilgan o'lkalar va chegara tumanlarida harbiy garnizonlar

joylashtirilgan. Harbiy boshliqlarning deyarli barchasi forslardan tayinlangan.

Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, ulkan Ahamoniylar saltanati alohida viloyatlar (o'lkalar) – satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning soni 20 ta edi. Har bir satrapiya har yili ma'lum miqdorda soliq to'lab turishi shart edi. Soliqlarning miqdori ko'p hollarda kumush talant (talant-pul birligi, bir talant 30 kg kumushga teng bo'lgan) bilan belgilangan. Soliqlar kelib tushishini tizimga solish uchun Doro I yagona pul tartibini joriy etadi. Bu tartibining asosini og'irligi 8,4 g keladigan oltin darik tashkil etardi. Oltin darikning bir donasi og'irligi 5,6 g bo'lgan 20 ta kumush tangaga almashtirish mumkin bo'lgan. Oltin darik faqat podsho tomonidan, kumush tangalar esa ayrim viloyatlar hukmdorlari tomonidan zarb etilgan.

Qaram o'lkalar pul solig'idan tashqari mahsulot bilan ham soliqlar to'lashgan. Ushbu soliqlar hisobidan Persepolda, Suzada va Ekbatanda fors podsholarining hashamatli saroylari qad ko'targan. Misol uchun, Suzadagi saroyni qurish haqida Doro I yozuvlarida shunday xabar beriladi: «Bu yerda ishlatilgan oltin Lidiya va Baqtriyadan keltirilgan. Ko'k tosh «kapa-utaka» (lojuvard) va «sinkabrush» (yarim qimmatbaho tosh-serdolik) So'g'ddan keltirilgan. «Axshayna» toshi (feruza) Xorazmdan keltirilgan». Shuningdek, Gerodot Ahamoniylar davridagi yana bir soliq turi – sun'iy ko'llardan dalalar uchun olinadigan suv puli haqida ham ma'lumot beradi. Tarixchining ta'kidlashicha, ko'llarning to'g'onini ochgani uchun fors podshosi «odatdagi soliqdan tashqari katta pul oladi».

Ahamoniylar davlatida majburiy harbiy xizmat ham muhim ahamiyatga ega edi. Elefantin orolidagi (Misrning Janubiy chegaralari yaqinida) garnizon arxividan ma'lumki, bu yerda mil. avv. V asr oxirida xorazmlik jangchi Dargamon xizmat qilgan. Sak jangchilari haykalchalarining topilishi Misrdagi yirik harbiy bazalardan biri bo'lgan forslarning Memfis garnizoni tarkibida sak otliqlari ham bo'lganligidan guvohlik beradi. Yunonlarga qarshi chiqqan Kserks qo'shinlari tarkibini sanab o'tar ekan Gerodot, baqtriylar, sak-amorglar, parfiyonlar, xorazmiylar, so'g'diylar va saklarni ham tilga oladi.

O'rta Osiyoning o'troq vohalaridagi sug'orish tartibida mil. avv. VI–IV asrlarda sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tgan. Bu davrda ko'p joylardagi to'planib qolgan suvlardan foydalaniladigan mavsumiy ta-

biy sug'orish o'rmini keng hududlarni sug'orish imkoniyatini beruvchi yirik magistral kanallar tartibi egallaydi. Bunday o'zgarishlar natijasida nisbatan kengroq hududlarni o'zlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. O'rta Osiyoning deyarli barcha tarixiy-madaniy viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida o'troq aholi tomonidan yangi yerlarning o'zlashtirilganligi kuzatiladi.

Shimoliy Baqtriya hududlarida bu davrda Surxon va Kobadiyon vohalari keng miqyosda o'zlashtirilib, o'ng qirg'oq Amudaryo irmoqlaridan magistral kanallar o'tkaziladi. Baxsh vohasida Bolday kamali qazilib, uning atroflarida mil. avv. V–IV asrlarga oid manzilgoh aniqlangan. Xorazm hududlarida, chap qirg'oq Amudaryodagi Sariqamish havzasida joylashgan Ko'zaliqir yaqinida Ahamoniylar davriga oid yirik dehqonchilik vohasi aniqlangan. Bu yerdan o'sha davrga oid bir nechta kanallar aniqlangan.

Mil. avv. VI–IV asrlar sug'orish inshootlari takomillashuvi bilan birga O'rta Osiyo qishloq xo'jaligida dehqonchilik taraqqiyotiga sezilarli turtki byergan temir buyumlardan foydalanish ham keng tarqaladi. Shimoliy Baqtriyadagi Qizilcha 6, Xorazmdagi Ding'ilja va Ko'zaliqir, So'g'diyonadagi Afrosiyob va Daratepa hamda boshqalardan topilgan temir buyumlar shu jarayondan dalolat beradi.

Bu davrda O'rta Osiyo o'troq tarixiy-madaniy viloyatlari xo'jaligi doirasida chorvachilik ham taraqqiy etadi. Xo'jalikning bu turi katta va kichik daryolar havzalari hududlarida, tog' va tog' oldilarida, dasht chegara hududlarida ayniqsa jadallik bilan rivojlanadi. Qadimgi Xorazmdagi Ko'zaliqirdan mil. avv. VI–IV asrlarga oid hayvonlar quyaklarining topib tadqiq etilishi bu yerda xo'jalikning asosini chorvachilik, avvalo, yirik tuyoqli hayvonlar tashkil etganligidan dalolat beradi. Persepol tasvirilarida ham ko'pgina O'rta Osiyo xalqlari fors podsholariga soliq sifatida turli hayvonlarni etaklab kelayotganligining tasvirlanishi ham tasodifiy hol emas.

Mil. avv. VI–IV asrlar O'rta Osiyo viloyatlarida hunarmandchilik ishlab chiqarish, xususan sopol hunarmandchiligi yuqori darajada rivojlanadi. Kulolchilik charxida tayyorlanib maxsus xumdonlarda pishirilgan sopol idishlar ko'pchilik O'rta Osiyo viloyatlariga xos shakllarga ega edi. Bu o'rinda silindrsimon va silindr konussimon idishlarning keng tarqalganligini ta'kidlash joizdir. Bunday ko'rinishdagi idishlar Baqtriyadagi Balx, Kobadiyon, Boldaytepa, Talashkan, Qiziltepa,

So'g'diyonadigi Afrosiyob, Xo'ja Bo'ston, Uzunqir, Sarmish, Xorazmdagi Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Ding'ilja, Marg'iyodagi Yozdepa va Govurqal'ardan topib o'rganilgan. Metallarni badiiy jihatdan qayta ishlash uslublari yuqori darajada bo'lganligi haqida Amudaryo xazinasi buyumlari hamda «yovvoyi skif uslubi»ga oid yodgorliklar qimmatli ma'lumotlar beradi. Kam sonli bo'lsa-da, hunarmandchilikning boshqa turlari – to'qimachilik, toshga ishlov berish, suyakni qayta ishlashga oid bo'lgan topilmalar topib o'rganilgan.

O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvador turmush-tarzining yonma-yon yoki birgalikda kechishi bilan bog'liq mil. avv. I ming yillik O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan mehnat taqsimoti – savdo-sotiqning rivojlanishiga olib kelgan hamda mahsulot xususiyatiga ega bo'lgan hunarmandchilik ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ko'pgina davlatlarning ulkan Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirishi, avvalo, tashqi savdoning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Ammo, Ahamoniylar davri O'rta Osiyoga keltirilgan yoki bu hududlardan olib chiqilgan mahsulotlar haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. Shunga qaramasdan, Kichik Osiyodagi Efes shahridan Baqtriyaga, undan Hindistonga ketuvchi yo'l haqidagi ma'lumotlar O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlatining G'arbiy viloyatlari bilan savdo aloqalari olib borganligi tasdiqlaydi. So'g'diyonadan va ayniqsa Baqtriyadan topilgan tangalarga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, mil. avv. VI–IV asrlar O'rta Osiyoga nafaqat markaziy Ahamoniylar hokimiyati hukmdorlari zarb etgan tangalar balki, Kichik Osiyo va yunon tangalari ham muomalada bo'lgan.

O'tgan asrning 30-yillarida Ahamoniylar davri madaniy qatlamlari faqat Janubiy Tojikiston hududlaridagina ma'lum edi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin mil. avv. VI–IV asrlarga oid yodgorliklar ko'pgina hududlarda aniqlanib, tadqiqotlar ko'lamini kengaytdi. Hozirgi kunda bu davrga oid manzilgohlar nafaqat Janubiy Turkmaniston, balki Shimoliy va Janubiy Baqtriyadan, So'g'diyonadan, Parfiya va Marg'iyonadan, Xorazmdan, Choch va Farg'onadan topib o'rganilgan bo'lsa, Farg'onadan, Oloydan, Sharqiy Pomirdan hamda Orolbo'yidan ko'mish marosimiga oid yodgorliklar topib tekshirilgan.

Xorazm ekspeditsiyasining sa'y-harakatlari tufayli qadimgi Xorazm hududlarida ham Ahamoniylar davri yodgorliklari aniqlangan. Ulardan biri – Satrapning qurib bitkazilmagan saroyi Qal'aliqir I hisoblanadi. Yana bir bu davrga oid ko'hna shahar Amudaryoning o'ng qirg'og'ida

joylashgan Ko'zaliqir bo'lib, u tabiiy tepalik ustida joylashgan. Uning maksimal uzunligi 1000 metr, eni esa 500 metrdan ziyodroqdir. Qashshmalar natijalariga ko'ra, ko'hna shahar ikki qator devor bilan o'rab olinib, tashqi devor minoralar bilan mustahkamlangan. Ichki devor esa turli qurilishlarga tutashib turgan.

So'g'diyonaning yirik madaniy markazi va poytaxti bo'lgan Afrosiyob ko'hna shahri bu davrda ayniqsa gullab-yashnadi. Bu davrga kelib umumiy maydoni 219 gektar bo'lgan Afrosiyob markaziy va yirik shahar sifatida ancha rivojlanib, bu yerda shahar hayotining rivojlanishi So'g'diyona va butun O'rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy hayotning yuksalishi hamda inqirozi bilan muvofiq tarzda kechgan. Ahamoniylar daridagi Samarqand So'g'di xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyoti haqida Lolazor, Laylaqo'ytepa, Ko'ktepa, To'rtko'ltepa kabi yodgorliklardan topilgan topilmalar ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu topilmalarga qarab (jangovar va mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar, qurilish uslubi va hokazo) Samarqand va uning atroflaridagi hududlarda mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida yashagan aholi xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik, uy hunarmandchiligi va ixtisoslashgan hunarmandchilik turlarini anchagina rivojlantirishgan degan xulosa chiqarish mumkin.

Buxoro vohasidagi Xo'ja Bo'ston, Konimex, Qumrabod, Arabon, Chordara, Quzmontepa kabi o'nlab ko'hna shahar va manzilgohlar Ahamoniylar davriga oiddir. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ular yirik etno-madaniy viloyatning uncha katta bo'lmagan tumanlari bo'lib, bu hududlarda mil. avv. VI–IV asrlarda umumiy ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Topilgan topilmalarning nihoyatda o'xshashligi shundan dalolat beradi.

Keyingi yillarda Buxoro shahri va uning atroflarida ko'pgina arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida Zarafshonning yirik bir irmog'i Buxoro shahari hududlaridan oqib o'tib, uning o'ng va chap qirg'oqida shaharga asos solinadi. Yana shu narsa ham aniqlandiki, bu davrda ark hududi paxsa devor bilan o'rab olinadi. Buxoro atroflaridan esa bu davrga oid qal'alar va qo'rg'onlar ham ochilganki, ular atrof qishloqlarni tashkil etgan. Tadqiqotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Buxoro – vohadagi urbanistik jarayonlarning markazi bo'libgina qolmasdan, geografik nuqtai

nazardan ham vohaning markazida joylashib, viloyat markazi vazifasini bajargan.

Qashqadaryo vohasi mil. avv. VI–IV asrlar yodgorliklari So‘g‘diyoning boshqa hududlariga nisbatan yaxshiroq o‘rganilgan. Bohadagi ko‘hna shaharlardan biri Yr‘qo‘rg‘on mil. avv. VIII–VII asrlarda shakllanadi va Ahamoniylar davriga kelganda hududlari ancha kengayib, to‘rtburchak shaklda devorlar bilan o‘rab olinadi. Undan tashqari, bu davrga kelib ko‘hna shahar atrofida alohida qishloq manzilgohlari paydo bo‘ladi. Bu davrda dehqonchilik vohalari atroflarining o‘zlashtirilishi shaharlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zlashtirilgan hududlar shaharlarga vositachi yoki tayanch vazifani bajargan. Bunday kichik qishloqlarning bir qismi shahar aholisining shahar tashqarisidagi erlari bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Mil. avv. VI–V asrlar voha va shahar yagona jamoadan iborat bo‘lib yaxlit So‘g‘d o‘lka – satrapiyasi tashkil etgan bo‘lishi mumkin.

Mil. avv. VII–VI asrlarda Baqtriya hududlarida himoya devorlari bilan o‘rab olingan shaharlar shakllana boshlaydi. Oltindiryor (Aorn), Baqtra, Qiziltepa kabilar bu hududlardagi yirik shaharlar edi. Ahamoniylar davri Shimoliy Baqtriya haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma manbalarda ma‘lumotlar berilmasa ham arxeologik tadqiqotlar bu masalaga ko‘pgina aniqliklar kiritadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Baqtriya Kir II ning mil. avv. 539–530 yoki 547–539-yillardagi yurishlaridan so‘ng Ahamoniylar davlatiga bo‘ysundiriladi. Bu jarayon Ahamoniylarning Baqtriyadan So‘g‘diyonga o‘tuvchi barcha yo‘llarni qat‘iy nazorat ostiga olganlaridan dalolat beradi.

Bu davrga kelib aholi punktlarining turli shakllari: o‘troq dehqonchilik zodagonlarining mustahkamlangan qo‘rg‘onlari (Qizilcha), yirik manzilgohlar (Bandixon II), murakkab mudofaa-rejaviy tuzilishga ega qo‘rg‘onli shaharlar (Qiziltepa) paydo bo‘ladi.

Mil. avv. VI–IV asrlarga oid yodgorliklar Farg‘ona vodiysidan nisbatan ko‘proq aniqlangan bo‘lib, ular manzilgohlar va mozor-qo‘rg‘onlardan iborat. Ular orasida nisbatan yaxshi o‘rganilganlari Eylaton ko‘hna shahri, Oqtom, Kungay va Niyozbotir hisoblanadi.

Eylaton ko‘hna shahri xarobalari Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi Iilton qishlog‘i yonida joylashgan. Mahalliy aholi orasida bu ko‘hna shahar Shahri Xayber nomi bilan mashhurdir. Mil. avv. VI–IV asrlarga oid bu ko‘hna shahar nisbatan yaxshiroq o‘rganilgan bo‘lib,

Eylaton madaniyati yodgorliklari vodiyning deyarli barcha hududlaridan aniqlangan. Eylaton ko‘hna shahri ikki qismdan iborat. Ichki qism devorlar bilan o‘ralgan, 20 gektardan iborat, lekin istehkomi yo‘q. Tashqi qism, 200 gektardan iborat bo‘lib bu hududda qurilishlar qurilmagan. Bu qism ham uyum-devorlar bilan o‘rab olingan. Qazishmalar natijasida doimiy turar joylar, xo‘jalik xonalari, sopol idishlar, mehnat va jangovar qurollar, taqinchoqlar topib o‘rganilgan.

Mil. avv. VI–IV asrlar O‘rta Osiyo san‘ati haqida hozirgi kunda «Amudaryo xazinasi» (yoki «Oks xazinasi»)dagi ayrim buyumlar, Taxtisangin ko‘hna shahri (Oks ibodatxonasi) ba‘zi topilmalari, Pomir va Orolbo‘yi saklari mozor-qo‘rg‘onlaridagi bronza buyumlar hamda Farg‘ona sopollaridagi o‘ziga xos naqshlarga qarab fikr yuritishimiz mumkin.

1877-yilda Tojikistonning Qobadiyon bekligidagi aholi kanal qazish paytida tilla va kumush buyumlardan iborat xazina topib oladi. Ushbu xazina dastlab buxorolik savdogarlarga, keyin Hindistonga, so‘ngra esa Londondagi Britan muzeyiga borib tushadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Angliyadagi ushbu xazinaning asosiy qismini haqiqatan ham Shimoliy Baqtriyadan topilgan topilmalar tashkil etadi. Undan tashqari, I. R. Pichikyan tadqiqotlariga ko‘ra, «Amudaryo xazinasi» Panj daryosining Baxsh daryosiga qo‘yilish joyida joylashgan Taxtisangin ko‘hna shahridagi Oks ibodatxonasi (mil. avv. IV asr) xazinasining bir qismidir.

«Amudaryo xazinasi» buyumlari orasida Ahamoniylargacha bo‘lgan davr G‘arbiy Eron ustalari mahsuloti bo‘lgan buyumlar, Ahamoniylar podsholari va satraplariga tegishli buyumlar va tangalar, Aleksandr Makedonskiy yurishlariga qadar Kichik Osiyoda tayyorlangan buyumlar bor. Shu bilan birga, tadqiqotchilar aynan mahalliy Baqtriya va skif-sibir qabilalari ustalarining asarlari ham borligini e‘tirof etishadi.

Baqtriya san‘atini izohlash uchun oltin plastinkalarga o‘yib naqsh solingan tasvirlar ayniqsa qiziqarlidir. Xuddi shunday plastinkalar «Amudaryo xazinasi»dan 50 dan ziyod, Taxtisangindan esa 3 ta topilgan. Ularda kohinlar, harbiylar, savat ko‘taragn sovg‘achilar, gullar va qurollar, shuningdek ot va tuyalar tasviri tushirilgan. Plastinkalardagi tasvirlar turlicha. Tajribali ustalar tomonidan yuqori sifatda tayyorlangan plastinkalar bilan bir qatorda tasvirlar yomon tushirilgan va past sifatli asarlar ham uchraydi.

Xullas, mil. avv. VI–IV asrlar Oʻrta Osiyo viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanadi. Bu davrda Baqtriya yirik davlat boʻlib, fors podsholarining Sharqdagi yirik markazlaridan biri edi. Soʻnggi yillarda Oʻrta Osiyoning Janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Qadimgi Baqtriya hududidan oʻttizdan ziyod Ahamoniylar davriga oid yodgorliklar ochilgan. Ularning har birida oʻzlashtirilgan maydonlar va sugʻorish tartibidan tashqari turar joylar va xoʻjalik, mehnat va harbiy qurollar, kulolchilik buyumlarining qoldiqlari mavjuddir. Bu davr Baqtriya aholisining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik edi. Qalʼaimir, Kuchuktepa, Qizilcha, Bandixon kabi oʻnlab yodgorliklardan dehqonchilik bilan bogʻliq mehnat qurollari – oʻroqlar, ketmonlar, yorgʻuchoq va dehqonchilik mahsulotlari qoldiqlarining topilishi dehqonchilikdan dalolat berib, dehqonchilik sunʼiy sugʻorishga asoslanganligini koʻrsatsa, meʼmorchilik madaniyati shaharsozlikning yuqori darajasini ifoda etadi.

Oʻrta Osiyo xalqlari Ahamoniylar madaniyat yodgorliklari bunyod etilishida katta hissa qoʻshdilar. Bu davrda Oʻrta Osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar va muomala qildilar. Oʻrta Osiyo hududidan Ahamoniylar pul tartibiga oid oltin dariklar va boshqa tangalar topilgan. Ahamoniylar davrida koʻpgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi – butun jahon tarixida, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim davr boʻlib qoldi. Bu oʻrinda Oʻrta Osiyo hududidagi xalqlar va qabilalarning ham hissasi nihoyatda katta boʻldi.

Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari va unga qarshi kurash. Antik davr davlatlari.

Oʻtgan asrning 40–50-yillaridan boshlab mil. avv. IV – milodiy IV asrlar davri Oʻrta Osiyo tarixini oʻrganish jarayonida «antik», «antik davr» jumalari muomalaga kirgan edi. Ayrim tadqiqotchilar bu jumalarni faqat Gretsiya va Rim tarixiga nisbatan ishlatish lozim degan gʻoyani ilgari surgan boʻlishlariga qaramay, Oʻrta Osiyo qadimgi davri bilan shugʻullanuvchi tadqiqotchi olimlar – arxeologlar, tarixchilar, antropologlar, sanʼatshunoslarning koʻpchiligi bu atamani Oʻrta Osiyo tarixiga nisbatan ham ishlatish mumkin degan nuqtai nazar tarafdori boʻldilar.

Mil. avv. IV asrdan boshlab Oʻrta Osiyoning asosiy dehqonchilik yoʻnalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning batamom yangi, faol yoʻliga oʻtdiki, bu rivojlanish milodiy III–IV asrlarda inqirozga uchray boshlaydi. Shaharsozlik madaniyati va sugʻorish tartibi, yozuv va pul muomalasi, moddiy va badiiy madaniyatga oid koʻp sonli va turli-tuman yodgorliklar aynan mana shu rivojlanish jarayonidan dalolat beradi. Taʼkidlash joizki, bu davr – qadimgi dunyo koʻpgina davlatlari jamiyati taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va umummadaniy jabhalarida namoyon boʻlgan yangi bosqichi bilan izohlanadi. Bu yangi bosqich turli davlatlarda oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, bu davr butun Qadimgi dunyo davlatlarini qamrab olgan jahon tarixidagi hodisalarning baʼzi belgi va xususiyatlari jihatdan bir-biriga oʻxshashligi jarayonlaridan biri edi. «Antik» jumlasini Yevropa tillarida «antiquite», «antiguty, antique» qabilida ishlatilib, «uzoq oʻtmish», «oʻtmish qadimiyat», «qadimgi» deb tarjima qilinishi mumkin. Biz ushbu darslikda koʻpchilik olimlar tomonidan eʼtirof etilgan «antik» jumlasini qoʻllashni lozim topdik.

Ulkan Ahamoniylar saltanati oʻzining Gʻarbga qilgan ekspansiyasi natijasida yunon davlatlari bilan toʻqnashadi va buning natijasida mil. avv. V asrning birinchi choragida yunon-fors urushlari boshlanadi. Mil. avv. V asr davomida betinim urushlar, saroydagi fitnalar, bosib olingan xalqlarning ozodlik uchun kurashlari Ahamoniylar davlatini ancha zaiflashtirib qoʻygan edi. Mil. avv. IV asrining oʻrtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda Makedoniya podshosi Filipp II Bolqon yarim orolida oʻz mavqeini mustahkamlab olib Ahamoniylarga qarshi kurashga tayyorgarlik koʻra boshlaydi.

Filipp II oʻz davriga mos harbiy islohotlar oʻtkazib tartibli va yaxshi qurollangan qoʻshin tuzishga muvaffaq boʻldi. Mil. avv. 336-yilda Ahamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Filipp II ning oʻldirilishi tufayli bu kurash toʻxtab qoldi. Oʻsha yili taxtga Filipp II ning oʻgʻli 20 yoshli Aleksandr taxtga oʻtirdi. U Ahamoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qoʻshinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash tuzib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qoʻshinlar oldiga aniq vazifalar qoʻydi.

Mil. avv. 334-yil mayida (Graniq daryosi yonida), 333-yil oktabrida (Gavgamela, Shimoli-Sharqiy Mesopotamiyada) boʻlgan janglarda fors

qo'shinlari to'la mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo'l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so'ngra Suza, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo'lga kiritdi. So'nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyaga qochib ketdi. Kurtsiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyaga Doro IIIga qarshi fitna uyushtirilib u o'ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo'shinlarni qarshi qo'ya olmadi.

Mil. avv. 329-yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang'iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo'ylariga chiqib keladi. Arrian va Kurtsiy ma'lumotlariga ko'ra, bu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqago'zar, Termiz atroflari va Sho'rob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, Aleksandr qo'shinlari qoplariga somon-xashak to'ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar saqlangan.

Aleksandr qo'shinlari daryodan o'tgach Bessni ta'qib etib, «Sug'd viloyati Navtakaga» yo'l olishadi (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg'or qism, keyin asosiy kuchlar). So'g'd yerlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to'xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to'xtatish niyati yo'q edi. Navtakadan so'ng yunon-makedon qo'shinlari So'g'diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallashadi. Kurtsiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra yunon-makedonlar «shaharda o'zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», Shimoli-Sharqqa tomon harakat qila boshlashadi. Jizzax va O'ratepa oralig'idagi tog'li hududlarda yunon-makedon qo'shinlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Shunga qaramasdan tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va sug'diylar o'rtasida chegara bo'lgan Yaksart-Sirdaryoga tomon harakat qilishadi.

Yunon-makedonlar Yaksart bo'yida to'xtab bu yerdagi shaharlarga o'z harbiy qismlarini joylashtira boshlaydilar. Ko'p o'tmay bu shaharlar aholisi Aleksandrga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Daryoning o'ng qirg'og'idagi saklar ham o'z qo'shinlarini bir yerga to'play

boshlaydilar. Xuddi shu paytda, Baqtriya va Sug'diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketadi.

Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga quror qilib, bu yerdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil. avv. 329-yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'oloni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligidagi Maroqandaga jo'natilgan qo'shinlar Spitaman tomonidan mag'lubiyatga uchradi. Aleksandrning o'zi asosiy kuchlari bilan So'g'diyonaga qaytishga majbur bo'ldi. O'rta Osiyo hududlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo'lishga qaratilgan bo'lib, Aleksandrning «varvar»larni osonlikcha bosib olmoqchi bo'lgan rejalarini puchga chiqardi.

So'g'diyonaning tog'li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirinib olgan edilar. So'g'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo'lib, uning g'alabalariga katta umid bog'lagan edilar. Aleksandr esa, mil. avv. 329–28-yillar qishlovini Baqtriyada (ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar o'kan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to'xtatildi (bunga Farasmaning «daryo ortidagi saklar davlati» hujumidan xavfsirashi hamda Aleksandrning yurishlarini to'xtatish harakatlari sabab qilib ko'rsatiladi).

Mil. avv. 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarida kurashni davom ettirishadi. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlariga ishonchli sarkardalar – Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarning zaif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zarbalar berar edi. Spitaman So'g'diy va baqtriyalik zodagonlar hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328-yil-

ning oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni Ona yurtidan haydab chiqarish uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib, dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. Yozma manbalarda eslatilgan «Sug'd qoyasi» (yoki «Arimaz qoyasi»), «Xorien qoyasi» shular jumlasidandir.

Aleksandr Makedonskiy mahalliy aholini kuch bilan yengish nihoyatda og'ir ekanligini anglab etganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan o'zgartirdi. Xususan, zardushtiy kohinlariga birmuncha erkinliklar berib o'zi ham bu dinni qabul qildi. Qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xorien kabilarni avf etib, mol-mulklarini qaytarib berdi. Hatto, qo'zg'olonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini o'rnatib Oksiartning qizi go'zal Roksanaga (Rohshanak) uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil. avv. 327-yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Ular yunonlar o'ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqaga qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Aleksandr qo'shinlari butun Sharq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida Sug'diyona va Baqtriya yadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilishgan. Ammo, kuchlar nishati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan. Shunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan.

Shunday qilib Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg'ona va saklar yurti Aleksandrardan mustaqil bo'lib qoladi. So'g'diyona, Baqtriya,

Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandr bosib olgan hududlarda uning boshqaruv faoliyati dastlab Gretsiyaning ayrim demokratik an'analariga (harbiy yo'l boshchilar tengashi, qo'shinlar yig'ini) asoslangan edi. Qo'shinlar yig'inida sud ishlari ko'rib chiqilib, jinoyat va jazo masalalari qat'iy muhokama qilingan. Jinoyat turlari ichida eng og'irlari – podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da'vat etish hisoblanib, ushbu harkatlar uchun yagona jazo – o'lim jazosi belgilangan. Qatl etish haqidagi qaror qo'shinlar yig'inida qabul qilingan. Sharqqa qilgan yurishlari tugaganidan so'ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o'z saltanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-tartib usullarini o'zgartirmagan. Ya'ni, satraplik boshqaruvi va soliqlar yig'ib olish tizimi o'zining ilgari ahamiyatini saqlab qolgan.

O'rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien-So'g'diyona viloyatlariga hokimlik qilishgan. Mil. avv. 325-yilda Oksiart qo'l ostiga Paropamis-Hindikush viloyati topshiriladi.

Mil. avv. 325–324-yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv. 324-yilda Suza shahrida o'n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanishadi. Aleksandrning o'zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka olishadi.

A. Sagdullayevning fikricha, bunday yondashuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g'oyasi bilan bog'langan edi. Bu davlat nafaqat turli xalqlarning siyosiy birlashmasi bo'libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi.

Ko'plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g'oyasi, insonlarni umumiy ong va yagona tafakkurga bo'ysundirish g'oyasi yangilik emas edi. Bunday g'oyani qadimgi fors podsholari ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan va oqibatda mil. avv. 490-yilda yunon-fors urushlari boshlangan.

Aleksandrning harbiy yurishlaridan so'ng Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlana boshladi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar, o'z navbatida, qadimgi Sharqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qilishadi hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazishadi. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq)da turli an'analarning qo'shilib rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin.

Xullas, Aleksandr Makedonskiyning mil. avv. 334–324-yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining yuqori oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat toshkil topdi. Yunon-makedonlarning 330–327-yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga Ellin (Ellada, Bolqon yarim oroli) madaniyati kirib keldi. O'rta Osiyoning Janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi. Mahalliy va ellin madaniyatining uyg'unlashuvi bo'lib o'tdi.

Salavkiylar davlati.

Mil. avv. 323-yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilanoq davlatdagi markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr tuzgan davlat parchalanib uning o'rniga nisbatan barqarorroq bo'lgan davlat uyushmalari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas balki, Aleksandrning Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40-yildan ziyodroq davom etgan jang-u jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil. avv. 306-yilda nisbatan kuchli bo'lgan diadoxlar – Antigon Birko'zli (Одноглазый), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazi-mas, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analari uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri – Salavkiylar davlati edi.

O'zining eng gullab-yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr saltanatiga kirgan katta hududlarni egallab, G'arbda Egey dengizidan Sharqda Hind subkontinentigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning Janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O'rta Osiyoning Janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tansoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo'lgan Salavka edi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba'zi bir o'lkalarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi. Ya'ni, u shunday xabar beradi: «Salavka I baqtriyaliklar, Sug'diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi». Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyo yerlarining Salavka tomonidan bosib olinishi mil. avv. 306–301-yillarga to'g'ri keladi.

Ammo, Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi yurishlar Salavkiylar foydasiga hal bo'lmadi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida bu yerdagi Chandragupta asos solgan kuchli Maurya davlati Salavkaga qattiq qarshilik ko'rsatganligi sababli Salavka sulh tuzishga majbur bo'ldi.

Uning Hindistondagi mag'lubiyati Salavkiylarning O'rta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarni darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat bu yerda Salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining ko'p sonli qo'zg'olonlari bu kurashlardan dalolat berdi. Ular Salavkiylarning tayanch nuqtalari bo'lgan Marg'iyonadagi Aleksandriya (Mari atroflari) va Aleksandr Esxata (Chekkadagi Aleksandriya, Xo'jand atroflari)ni vayron etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, bu kurashlar natijasida yirik et-

nik ko'chishlar bo'lib o'tgan bo'lishi mumkin. Xullas, Salavkiylar hokimiyatni egallagan paytdayoq ularning O'rta Osiyodagi ahvoli tahlikali edi. Aynan shu sababli O'rta Osiyo viloyatlari yrlaridan mahrum bo'lishidan qo'rqib ketgan Salavka I o'z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (satraplik)larni ta'sis etgan edi.

Mil. avv. 293-yilda Salavka I o'g'li Antiox I ni Sharqiy satrapliklarga, ya'ni O'rta Osiyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Antiox I vayron etilgan qal'alarni tikladi, yirik va qalin devor (Marg'iyona devori) bunyod etdi, qo'zg'olonlarni bostirdi. U Salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrof o'troq va ko'chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox I tomonidan o'tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O'rta Osiyodagi Salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

O'rta Osiyo viloyatlari Salavkiylar davlati siyosiy tarixida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293–261) Antiox I G'arbga qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqiga, jumladan O'rta Osiyo yerlariga kam e'tibor qaratdi. Bu paytda O'rta Osiyo viloyatlarida iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Ancha tinch hayot boshlanib qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo viloyatlari ular davlatining eng muhim qismi edi. O'rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, Salavkiylar bu hudud bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida shaharlar va qishloqlar qurdirib ularda hunarmandchilik, o'zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas edi.

Salavka I va Antiox I (mil. avv. 281–261-yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo'lishgandi. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan O'rta yer dengizining Sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Chunki, bu hududlarda muhim savdo yo'llari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.

Sharqiy viloyatlarda, xususan O'rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hudud boshqaruv mar-

kazlaridan ancha uzoqda joylashgan bo'lib, bu viloyatlar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklar mavjud edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan ko'chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil. avv. III asrdan boshlab ko'chmanchilarning ko'chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv masalalari ham ancha murakkab edi (monarxiya). Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo'lgan ko'plab viloyatlar mavjud bo'lib, bu holat ushbu kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan edi. Shuning uchun ham, davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram etilgan xalqlarni zo'rvonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirib turish edi. Sharq xalqlari mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruv tizimiga jalb etilgan bo'lsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat bo'lgan.

Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma'muriy nazoratning susayib kyetishiga olib kelgan. Manbalarning guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida qabilalar, yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilganlar.

Manbalarning ma'lumot berishicha, Salavka I davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27–28 ta satrapiyaga bo'lingan. Har qaysi satrapiyani podsho tomonidan tayinlanib qo'yilgan satrap yoki strateg mansabidagi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma'muriy, ham harbiy boshqaruvni qo'lga olishgan. Satrap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo'jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda Salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda (Stratonik, Aleksandr, Gieraks, Antiox va boshqalar) tilga olinadi. Demak, Salavkiylar hukmdorlari, asosan, yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlardan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlari bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qi-

lishardi. Salavkiylar hokimiyati O'rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoykiyalar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Salavkiylar davrida anchagina murakkab soliq tartibi joriy qilingan bo'lib, Salavkiylar hukmdorlari o'zlarigacha mavjud bo'lgan soliq tartibini o'zlashtirgan holda unga o'zgartirishlar kiritib, mukammallashtirgan. Dehqonlardan yer solig'ini yig'ib olish satrap-strateglarning vazifasi bo'lgan. Bunday soliqlarning miqdori aniq belgilangan bo'lib, viloyatlardan keladigan soliqlarning umumiy miqdori qishloq jamoalaridan tushadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan.

O'rta Osiyodagi yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba'zi tomonlarini G'arbga tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayrim tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganliklaridek, ellin madaniyatida sof yunon madaniy ijodi emas, balki yunon va Sharq mamlakatlarning o'ziga xos qo'shilishi o'z aksini topgan. Ellin madaniyatining rivojlanishida O'rta Osiyo xalqlari ham muhim rol o'ynashdi. O'rta Osiyoning katta qismi Salavkiylar davlatiga harbiy yo'l bilan qo'shib olinishi ma'lum darajada G'arb va Sharq o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga, mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, hunarmandchilik va sug'orish ishlari izchil rivojlanib bordi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, sug'diylar, parfiyaliklar va boshqa O'rta Osiyo xalqlarining Salavkiylarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning 60–50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada Salavkiylar davlatining Sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o'zgarib markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashadi. Mil. avv. 250-yilda kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o'zlarini mustaqil deb e'lon qiladilar.

Yunon-Baqtriya davlati.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, Yunon-Baqtriya davlatining Salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining

qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan gullab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilashadi (mil. avv. 256, 250, 248 va 246–145). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-G'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'ralib olinadi.



Demetriy tangalari.

Baqtriyaning Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da, bu haqda batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo'jalik hujjatlari, san'at yodgorliklari, sug'orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari byergan ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko'p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I, II, III, Evtidem I, II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etishgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi

va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardagi bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo'lingan bo'lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo'ysunishardi. Ammo, bu davrda davlatda nechta satrapiyalar bo'lganligi va ular qanday nomlanganligi ma'lum emas. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an'alariga amal qilingan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo'shin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, Yunon-Baqtriya qo'shinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo'shinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat bo'lgan. Qo'shinlar tarkibida harbiy fillar ham bo'lgan.

So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryo o'rta oqimining o'ng va chap qirg'og'i aholisining mil. avv. III–II asrlardagi o'zaro aloqalarida darak beribgina qolmay, bu yerlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. E. B. Rtveladzening fikricha, mil. avv. 250–140/130-yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Evtidem, Evkratid, Geliokl kabi podshohlar hokimiyatni boshqarishgan. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari va o'zaro taxt uchun kurashlar natijasida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

Yaqin va O'rta Sharqning turli davlatlari, jumladan O'rta Osiyo hududlarida katta xronologik davr yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib fanda bu davr – ellinizm davri deb ataladi. Ellinizm – (Bolqon yarim orolidagi Ellada shahri nomi bilan bog'liq) bu aniq tarixiy mavjudlik bo'lib, iqtisodiy hayotda, ijtimoiy va siyosiy tuzumda, mafkura va madaniyatda ellin (yunon) hamda Sharq an'alarining o'zaro uyg'unlashuvi ifodasidir.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysigacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab bu hududni uchta mintaqaga bo'ladilar. 1) Ellada; 2) Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3) Efrat daryosining Sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda «Ellinlashgan Sharq» tushunchasida aks etgan bo'lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning Janubiy viloyatlari, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning Aleksandr bosib olgan hududlari kirgan.

Aleksandr Makedonskiy yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va Sug'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozma manbalar Aleksandr nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandriya Oksiana (Oks bo'yidagi Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Aleksandriyasi), Aleksandriya Ercata (Chekkadagi Aleksandriya) haqida ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari «katoykiyalari» deb nomlangan yunon harbiylari manzilgohlari ham mavjud edi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning Janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar joylar, moddiy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin an'analari (shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshq.) kuchli ta'sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi (antik) davr Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

Qang' davlati.

Antik davr O'zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan biri – Qang' davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil. avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, Qang' davlati va qang'arlar tarixining mashhur bilimdoni K. Sh. Shoniyozovning fikricha, bu davlat mil. avv. III asrning boshlarida paydo bo'ladi. Keyinroq esa, Yunon-Baqtriya davlati va qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan bo'lgan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlana-

di hamda manbalarda O'rtta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi. Davlatning nomi «qang'», «qang'ar», «qang'uy» deb nomlanuvchi qabilaning nomidan olingan bo'lib, etimologiyasi munozarali hisoblanadi.

Qang' davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o'rtta va quyi oqimlarida istiqomat qilishgan. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni, mil. avv. II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O'rtta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olar edi.

Qang' davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil. avv. 202-mil. 25) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlashadi. Demak, o'sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo'lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog'liq masalalar ana shu kengash yig'ilishida hal qilingan.

Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo'lingan bo'lib, ularning har birini jobg'u yoki yobg'u (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan hokimlar boshqargan. Jobg'ular mamlakat boshqaruvida Qang' podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg'ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

M. I. Filanovichning fikricha, siyosiy tuzilma sifatida Qang', ehtimol, mil. avv. II asrgacha shakllangan ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning Qang' yo'l boshchilari qo'l ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo'lgan. Dastlab u uncha katta bo'lmagan qabilalar ittifoqidan iborat bo'lib, Janubda yuyechjilar hokimiyatiga bo'ysunsa, Sharqda xunnlarga qaram edi. Ammo, mil. avv. II-mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Qang' davlati

manbalarda 120 ming deb ko'rsatiluvchi kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qo'shni Xitoyga nisbatan g'oyatda mustaqil siyosat olib borgan.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang' qo'shinlaridagi oliq suvoriylar yuyechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'ynini himoya qilsa, dubulg'alar boshni omon saqlagan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo'linma ajdar shaklidagi o'zining maxsus tug'iga ega bo'lgan. Demak, Qang' davlati qo'shinlarida qurollanish va harbiy san'atga alohida e'tibor berilgan.

Katta Xan sulolasi tarixida «qang'lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyuenidagi Bityan shahrida» deb ma'lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyueni nomi uchramaydi. Binobarin, uning quyida joylashganligi aniqlanmagan. K. Shoniyofov Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblaydi. Chunki, tarixiy manbalarda aytilishicha, Yaksart-Sirdaryo bo'yida qadimgi Kanha – Kanka shahri xarobalari joylashgan. Yu. Buryakov uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar olib borishi natijasida Kanxa shahri mil. avv. III–II asrlarda paydo bo'lganligini aniqladi. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan vaqti Kanka shahri paydo bo'lgan davrga mos keladi. Bu nomlar bitta shaharning ikki xil nomlanishidir. Ushbu shahar Sirdaryoning o'ng irmoqlaridan biri Ohangaronning quyi oqimida (hozirgi Toshkent vil. Oqqo'rg'on tumani hududida) joylashgan.

Kanka haqida dastlabki ma'lumotlar Avestoning eng eski qismlari bo'lgan Yashtlarda Turon qabilalarining turar joylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224–651) manbalarida bu shahar «Qandesh» yoki «Qandiz» shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Kanka shahri bir nechta marta keltiriladi. Undan tashqari, o'rtta asrlar geograflari asarlarida bu ko'hna shahar «Kenkrak», «Xarashkent», «Tarband» nomlari bilan eslatib o'tiladi.

Yuqorida eslatilgan Katta Xan sulolasi tarixida «Qang' podshosining yozgi qarorgohi Loyuenidan yetti kun yo'l yurib boriladigan yerda joylashgan» degan ma'lumot beriladi. Shi-gu solnomalarida ta'kidlanishicha «Qang' hokimi qishda (sovuqda), yozda (issiq paytlarda) bir yerda yashamas edi». Bu bilan u fasllarda ularning turar joylari boshqa-boshqa yerda bo'lishi uqtirib o'tiladi. K. Shoniyofovning fikricha, keltirilgan axborotdan Qang' davlati o'sha davrlarda (mil. avv.

III-I, mil. I–Vasrlar) asosan yarim o‘troq qabilalar davlati ekanligini tushunib olish qiyin emas. O‘troq aholidan tashqari Qang‘ davlatining chegarasida bir qancha qabilalar mavjud bo‘lib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda, chorvachilik bilan ham shug‘ullanib kelishgan. Ular bahor va yoz oylarida o‘z chorvalari bilan ko‘chib yozgi yaylovlarda yashashgan. Qishda esa an‘anaviy qishlov joylariga ko‘chishgan.

Antik davrda Qang‘ podsholarining yozgi qarorgohlari an‘anaviy qishlov joylaridan Shimolda o‘rta asrlardagi O‘tror shabri o‘rnida hozirgi Qozog‘istonning Aris va Turkiston shaharlari o‘rtasida joylashgan. Keyinroq, ya‘ni ilk o‘rta asrlar davriga kelib yarim mustaqil Choch hukmdorlari O‘trorni o‘z qo‘llarida saqlab qolganlar. Bu shahar ularning yozgi qarorgohi hisoblangan.

Qang‘ davlatining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lib, uning anchagina katta hududlarida Sug‘diyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan o‘troq aholi bilan birgalikda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvadar qabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilishgan. Sirdaryoning o‘rta oqimida yashagan qang‘lilar Qang‘ davlati tashkil topishida asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib, Qang‘ podsholari asosan qang‘lilar bo‘lgan.

Mil. avv. II – mil. II asrlarda Qang‘ davlati o‘z rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Qang‘ podsholariga bo‘ysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat o‘z vaqtida anchagina kuchli bo‘lib, o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘z o‘rniga egadir. Agarda antik davrda O‘rta Osiyoning Janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar an‘analarini o‘zlashtirib taraqqiy etgan bo‘lsa, Qang‘ davlati taraqqiyotida ko‘chmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.

Bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik ma‘lumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qang‘ davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida o‘z munosabatlarini bildirishadi.

Manbalar Qang‘ podsholarining nomlari haqida ma‘lumotlar bermaydi. Faqat shu narsa ma‘lumki, ular o‘z nomlari bilan birgalikda urug‘ nomini ham qo‘llashgan va «Qang‘ xonadoni hukmdori» deb atalgan. Qang‘ da saylangan hukmdorning hokimiyati oqsoqollar kengashiga

tayangani va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qo‘yilganini kuzatish mumkin. Qang‘ hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi ma‘lum. Ammo, kengashdagi zodagonlar vakillari qanday atalganligi turli bahslarga sabab bo‘lgan. Antik davrdagi usunlar, yuyechjilar va qang‘larning hukmdorlari yabg‘u unvoni bilan atalgan.

Qang‘ davlati olib borgan tashqi siyosat qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o‘z chegarasida osoyishtalik o‘rnatishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, payti kelganda atrofdagi kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlar ustiga hujum qilib, ularni o‘ziga qaram qilish ayrim hollarda tashqi siyosatni belgilab berar edi.

Tadqiqotchilarning fikricha, qang‘lilarning eng ashaddiy dushmanlaridan biri – usunlar edi. Qang‘ davlati hokimiyat boshliqlari usunlarning bosqinchilik siyosatini cheklash maqsadida xunlar bilan yaqinlashib, ular bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishadi. Mil. avv. II–I va mil. I asrda usunlar Xitoy hukmdorlari bilan yaqin munosabatlar o‘rnatib xunlar va qang‘lilarga qarshi kurash olib borishadi. O‘z navbatida, Xitoy imperatorlari ko‘chmanchilarning o‘zaro kurashlaridan foydalanib, o‘z yerlarini kengaytirish maqsadida Qashg‘ar, Yorkent va Davan yerlariga hujumlar uyushtirishadi. Qang‘lilar xitoyliklarning harbiy va siyosiy maqsadlarini tushunib, ularni o‘z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar. Chunonchi, Xitoy qo‘shinlari mil. avv. 104, 102, 65-yillar va milodiy I asrda Davan, Yorkent va Qashg‘ar viloyatlariga bosqinchilik yurishlari uyushtirgan vaqtlarda qang‘lilar yordamga kelib xitoyliklarning bosqinchilik yurishlarini bartaraf etishda faol ishtirok etadilar.

Qang‘ davlatining Janubdagi qo‘shnisi – antik davrdagi ulkan va qudratli saltanatlardan biri Kushon davlati edi. Qang‘lilar bu davlat bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qilishlariga qaramasdan mil. I asrda kushonlar qang‘lilarning mulklari hisoblangan ayrim viloyatlarni o‘z chegaralariga qo‘shib olishadi.

Qang‘ davlatining asosiy aholisi o‘troq va yarim o‘troq turmush-tarzi kechirishgan va ularning atrofida ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi yashagan. O‘troq aholi asosan vodiya, daryo vohalarida yashab, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishgan. Qang‘lilar dehqonchiligida arpa, bug‘doy, tariq, no‘xat, sholi va boshqa donli mahsulotlar yetishtirish asosiy o‘rinda turgan.

Mil. avv. IX–III asrlarda, ya'ni Burg'ulik (Burkanlik) madaniyati rivojlangan davrda mehnat quollarining barchasi asosan tosh va bronzadan yasalgan bo'lsa, qang'lilar davriga kelib temir buyumlar keng tarqaladi. Mil. avv. II-mil. – VI asrlarda Toshkent vohasida chorva qo'shib, onioch bilan yer haydash keng rivojlangan edi. Shuningdek, bu davrda yerni sun'iy sug'orib ekin ekish, katta va kichik kanallar qazish, suv inshootlarini bunyod etish ham taraqqiy topadi.

Bohalarda yashovchi o'troq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda, chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan. Yozma manbalarda bu aholining sut-qatiqlari va zotdor otlari borligi haqida ma'lumotlar beriladi. Chorva mollarning ko'pchilik qismi ko'chmanchi va yarim o'troq aholi ixtiyorida bo'lgan. Ko'p sonli chorva mollari esa mavsumga qarab, bir joydan ikkinchi joyga haydab boqishgan. Qang' podsholari va ularga yaqin bo'lgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar bo'lishgan. Ular bahor kelishi bilan yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan birgalikda yozgi qarorgohda, ya'ni O'troga borib yozni o'tkazishgan. Kuzda esa qishloqni o'tkazish uchun Kankaga qaytib kelishgan.

Qang' shaharlari qalin va baland devorlar bilan o'ralgan. Devorlarning tashqarisida qal'a atrofi gir aylantirilib chuqur va keng qilib xandaq qazilgan. Shaharlar ichida mustahkam istehkom (ark) va shahristonlarning ham baland mudofaa devorlari, bir necha darvozalari bo'lgan. Yirik shaharlardan tashqari, Toshkent vohasida yuzga yaqin aholi yashaydigan katta va kichik qo'rg'onlar ham mavjud bo'lgan.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, qang'lilarning ko'pchiligi shaharlarda va katta-kichik qishloqlarda yashashgan. Shaharlar mustahkam himoya inshootlari bilan o'rab olinib, ularda qal'alar ham mavjud bo'lgan. Ko'pchilik shaharlarning avvaldan o'ylangan rejaviy tuzum asosida qurilganligi Qang' davlatida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning ko'plab sohalari – kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, toshtaroshlik, to'qimachilik kabi o'nlab turlari rivojlangan edi. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning ma'lum sohasiga ixtisoslashgan ustalarning mahallalari mavjud bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan rangdor sopol idishlar, turli matolar qoldiqlari, charm buyumlar, ot-ulov anjomlari hamda turli zeb-ziynatlar Qang' davlati madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan

dalil beradi. Shuningdek, Kanka xarobalaridan, Jo'nariq atroflaridagi tepaliklardan, Qovunchitepa, Choshtepa va Toshkent vohasining ko'pgina hududlaridan mil. avv. III – milodiy V asrga oid arxeologik topilmalar ham Qang' madaniyati rivojining namunasidir.

Qang' tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, bu davlat madaniyatining yuqori darajasi tasodifiy hol emas. Yaksart-Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lilarning Sug'diyona, Farg'ona hamda daryoning quyi oqimida yashovchi ko'plab xalqlar bilan o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari Qang' davlati madaniyati taraqqiyotiga asos bo'lgan edi. Shuning uchun ham, ko'p hollarda ular madaniyatidagi umumiylik ko'zga tashlanadi. Undan tashqari Qang' davlati hududlaridan Buyuk ipak yo'li tarmoqlarining o'tganligi ham davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga, qo'shni davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishi uchun omil bo'lib xizmat qilgan edi.

Davan davlati.

O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona haqida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar berishmaydi. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Guning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib «tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayuan ham «tog'lar orasidagi vodiy» ma'nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'nggi yillarda o'zbek olimlaridan A. Asqarov, A. Xo'jayev, B. Matboboyev, A. Anorboev, S. Qudratov, B. Abulg'oziyeva, B. Abdullayev, Abduxoliq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lishlariga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg'ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratishadi. Ilk temir va antik davrga kelib Farg'onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. III asrdan boshlab butun Farg'ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna shaharlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham, mil. avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg'onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson, Axsikent, O'ratepa yoki Jizzax o'rnida joylashtiriladi.

Eng qadimgi yozma manbalar O'rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma'lumotlar bersada, Farg'ona haqida bunday ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan Yu. A. Zadneprovskiy Qadimgi Farg'ona (Davan) podsholigining mavjud bo'lganligini taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil. avv. I ming yillikning o'rtalaridan oldingi davrdagi Farg'ona haqida so'z yuritilganda, odatda, faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo'lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg'onada davlatchilik, aftidan, mil. avv. V–IV asrlarda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Mil. avv. II asrdan boshlab Qashg'ardan Davanga Shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlanadi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga oshiriladi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil. avv. 125-yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunar-

mandchilik xo'jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko'radi. Chjan Syan Davanning qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: «O'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko'plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlashadi. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham buzilmay saqlanadi». Shuningdek, bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyatini yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni, ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda ommon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog'larida uzumdan tashqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'lashadi.

Xitoy manbalari, shuningdek qadimgi Farg'ona chorvachiligining o'ziga xos tomoni bo'lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo'lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo'lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlarini bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak san'at sohiblari bo'lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlashgan.

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Ban» (podsho) unvonini bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Ban» unvoniga ega bo'lgan

Motsay, Chan Fin, Mug'ua, Yan'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo'lgan podsho, ya'ni «Ban» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bitta katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo'lmagan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etishgan, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilishgan. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Ban Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo'lingan holda idora etilgan bo'lishi mumkin. Chunki, manbalarning ma'lumot berishicha, Yuchen shahrining hokimi Xitoy qo'shiniga oziq-ovqat yetkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N. Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o'z hokimi bo'lganligi haqidagi taxmini ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan va unda hal qiluvchi mavqega ega bo'lgan. A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo'lida edi.

So'nggi yillarda Davan davlati tarixi bo'yicha samarali ish olib borayotgan B. X. Matboboyevning yozishicha, ichki tartibni saqlash va mamlakatni tashqi dushmanidan himoya qilish uchun Davan davlatida asosan piyoda askarlar va otliq suvoriylardan iborat bo'lgan 60 ming kishilik qo'shin mavjud edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, davanliklar «otda ketayotib o'q otishda mohir bo'lganlar». Jangchilarning qurollari o'q-yoy va nayzadan iborat bo'lgan. Davan qo'shinlari ochiq jangga kirishga ham, uzoq muddatli mudofaa urushlari olib borishga ham qodir bo'lgan.

Davanning «samoviy otlari» va davlatning serunum yerlari uchun mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy va Davan o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Chjan Syan va Sima Syanlarning byergan ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy imperatorlari Davanga ikki marta yurish

qilishadi. Birinchi yurish mil. avv. 104-yilda uyushtirilib, xitoyliklar Davanning markazi Ershiga yetib kela olmay Lobnorda qattiq qarshilikka uchraydi. Undan tashqari O'zgannda katta talofat ko'rgan Xitoy qo'shinlari, qang'lilardan yordam kelayotganini eshitgach imperator qo'shinlari davanliklardan 3 mingta «samoviy tulpor»ni olib Xitoyga qaytishga majbur bo'lishadi. Shunday qilib, Davan davlati xitoyliklardan o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

O'zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imperatorlar va kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushmasdan o'z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Davanning o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, Farg'ona vodiysi mil. avv. VI–IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy bosqinlaridan chetga qolgan. Aleksandr faqat Xo'jand shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi. Salavkiylarning ham Farg'ona vodiysiga kirib borganlari haqida ma'lumotlar yo'q.

Milodning I–II asrlariga kelib qadimgi Farg'ona aholisining o'troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bu davrga oid ko'p sonli aholi manzilgohlari, qal'alar, qo'rg'onlar, ko'hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyning turli hududlarida keng yoyilish sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilikning markazi bo'lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqqanligidan darakdir. Bu jarayon, o'z navbatida, hunarmandchilik va tog'-kon sanoatining (turli ma'danlar qazib olish) yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, Xitoy manbalarida Davanda qo'rg'oshin, oltin, temir rudalari qazib olinganligi haqida ma'lumotlar bor. Qo'rg'oshin Haydarkondan, temir, kumush va zumrad esa Farg'onaning Janubidan, Shimolidan va Shimoli-G'arbidan qazib olingan. Ushbu hududlardan ko'plab aniqlangan qadimgi konlar qoldiqlari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil. avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk

ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda Sharqiy So'g'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lning xavfsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar yetkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.

Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati – o'z davrida qadimgi o'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an'alarini davom ettirgan davlat bo'lib, davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog'liq ko'pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir.

Kushon davlati.

Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko'chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma'lumot beradi. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiyalar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib olishadi. Pompey Trog xabar berishicha, – «Baqtriya va Sug'diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar». Tadqiqotchilarning fikricha, har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma'lumot byergan.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuyechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil. avv. 172–161-yillar oralig'ida deb belgilashadi) yuyechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning Shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida «Da-yuyechji» – «Buyuk» yoki «Katta yuyechji» deb eslatiladi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuyechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning Janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib olishadi va Guyshuy (Amudaryo)ning Shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuyechjilar Guyshuy daryosining Shimoliy tomonida o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuyechjilar mil. avv. 140–130-yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirishgan. Oradan ko'p o'tmay, Baqtriyada Katta yuyechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tari-

xi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuyechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xalqchilik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuyechji davrini uch bosqichga bo'lishadi:

Mil. avv. 139–125-yillar – Katta yuyechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan Shimol tomonda edi.

Mil. avv. 25-yilga qadar – Katta yuyechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan Shimol tomonda bo'lib, Janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuyechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

Mil. avv. 25-yildan keyin Katta yuyechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta'kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o'rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

Yunon-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil. avv. II asrning oxiri – I asr).

Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab-yashnashi (milodiy I–III asrlar).

Ko'chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qo'lashi (III asr oxiri – IV asr).

Mil. avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko'hna shahri xarobalari bo'lgan Kushon davlati o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi duryo-

ning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi «Guyshuan hokimi Kiotszyukyu», ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan «Kushon podshosi Kujula Kadfiz»ga aynan mos tushadi.

Tangashunoslik ma'lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80-yildan ziyodroq umr ko'rib 50-60-yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35-yilda vafot etadi. O'zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo'lmagan yuyechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari G'arbiy va Janubiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni o'z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko'tariladi. Ammo, manbalarning guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati to'la shakllanib bo'lmagan edi. Har holda, bu davrda Kushonlar o'z tangalariga ega bo'lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o'g'li Bima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o'tirganidan so'ng «Tyanchju (Markaziy Hindiston) ni zabt etdi va u yerga o'z sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. Shu davrdan boshlab yuyechji kuchli va boy davlatga aylandi», deb xabar berishadi. Bu xabarni tangashunoslik ma'lumotlari ham ta'kidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o'ng qirg'oq Baqtriyadan, Tojikiston va O'zbekistonning Janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Kadfiz II zarb ettirgan «Shohlar shohi – buyuk xaloskor» degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatganligi haqida ma'lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg'oniston) atroflariga ko'chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy

Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, «Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning G'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'z garovga qo'ygan odamlarini yuborar edilar».

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni podshoga ko'rsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turishgan. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. I ming yillikning oxiri – milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Baxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchaqina rivojlanganligidan dalolat beradi.

Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan o'zlashtiriladi. Misol uchun, E. B. Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda balki tog'li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi tog'li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o'rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgarigi davrda

giga nisbatan anchagina murakkablashgan sug'orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodgorligidan II–III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Bu davrda O'rta Osiyo shaharlari ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko'pgina viloyatlar va vohalarda o'tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar sonining ancha ko'payganligi kuzatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma'muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal'alar alohida ajalib turadi. Bunday qal'alar Samarqanddagi Afrosiyobda, Marvdagi Govurqal'ada, Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'onda, Eski Termizda, Dalvarzintepa va boshqalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Kushon davri shaharlari diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini ham bajarib, ularda yirik-yirik topinish joylari va diniy marosimlar o'tkaziladigan inshootlar joylashgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a, Balxdagi budda majmuasi, Termizdagi budda ibodatxonalari, Quvadagi budda saroyi shular jumlasidandir.

Kushon davri shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiqning ham markazi edi. O'rta Osiyoning barcha hududlaridan juda ko'p sonli hunarmandchilik buyumlari, sopolchilik xumdonlari, metalni qayta ishlashning izlari, zargarlik buyumlari, harbiy va xo'jalik qurol-yarog'lari topib o'rganilgan.

Kushon davlatida tashqi va ichki savdo ham taraqqiy etadi. Kushonlar Buyuk ipak yo'lining Sharqiy qismi nazoratini o'z qo'llariga olgan edilar. Chetdan keltirilgan ipak, mo'yna, bronza ko'zgular, muhr-lar, shisha idishlar, haykalchalar tashqi savdo taraqqiyotidan dalolat bersa, ko'plab hunarmandchilik buyumlari hamda kumush va bronza tetradraxmlar (tangalar) ichki savdo rivojlanganligini isbotlaydi.

O'z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda so'zlashishgan, yozuvning turli tartibidan foydalanishgan hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar kuzatiladi. Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda buddizm-

ning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan o'ndan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o'rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz yaqinidagi Doratepa ibodatxonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o'ziga xos madaniyati me'morchilik san'atida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o'z aksini topadi.

Kushon davri Xorazm madaniyati ham o'ziga xos edi. Bu hududlarda buddizmning izlari aniq kuzatilmasa-da, ayol xudolarga sig'inish aniqlangan va ko'plab terrakota haykalchalar topilgan. Kushon davriga oid Xorazmdagi nafaqat me'morchilik, balki moddiy va badiiy madaniyat namunasi mashhur Tuproqqal'a hisoblanadi. Bu yerda ikkita yirik saroy majmuasi, sig'inish, harbiylar va podshohlar zallari hamda ko'plab moddiy madaniyat buyumlari ochib o'rganilgan. Xorazm kulolchilik buyumlarida ham ko'pgina o'ziga xosliklar aniqlangan. Kushonlar davrida Sug'd kichik mulklarga bo'lingan edi. Madaniy jihatdan bu viloyatni uch qismga – Samarqand Sug'di (Zarafshonning yuqori va o'rta oqimi), Buxoro Sug'di (Zarafshonning quyi oqimi) va Qashqadaryo Sug'di (Qashqadaryo vohasi)ga ajratiladi. Bu hududlardagi diniy inshootlar Sangzor daryosi vohasidan, Kindikli tepa va Yerqo'rg'ondan, Setalk I (Buxoro)dan, Samarqand yaqinidagi Qo'rg'ontepadan topib tadqiq etilgan.

Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yukalganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda Sug'dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Farg'ona, Choch, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindistondan ochilgan ko'plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hududlardagi madaniy hayot o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik ham shakllan ham mazmunan rivoj topganligi kuzatiladi. Chunki, bu davrdagi ma'muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar joy, mudofaa inshootlari, Sharq me'morchiligi bilan ayrim o'xshashliklar topsada, o'ziga xos tomonlari ustunlik qiladi. Me'morchilikning o'ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o'rganilgan bo'lib, ular jahon miqyosida mashhur bo'lgan obidalardir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Grek-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o'xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qulash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo'lishgan. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalani uchun ichki va tashqi sabablarga ko'ra, zaiflashgan yirik davlatlarda yetarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o'zining asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari Shimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

Shunday qilib, Kushon podsholigi o'z tarkibiga ko'pgina hududlar va ko'plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo'lsada, uning tarixi O'zbekiston tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va, ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo'lib kirdi.

5. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li.

Eng qadimgi yo'llar. O'tgan mavzularda ta'kidlaganidek, bronza davriga kelib O'rta Osiyodagi tarixiy-madaniy taraqqiyotni tezlashtirgan bir qancha jarayonlar bo'lib o'tdi. Bronzaning kashf etilishi va jadallik bilan xo'jalik hayotiga kirib kelishi, o'troq dehqonchilik xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi, qishloqlarning rivojlanib ilk shaharlarga aylanishi, boshqaruv tizimining yanada murakkablashuvi, qadimgi yo'llarning shakllanishi va, nihoyat, dastlabki ulov va transport vositalarining paydo bo'lishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan bronza davridan boshlab O'rta Osiyoni Qadimgi Sharq dunyosi bilan bog'laydigan aloqa, savdo-tranzit yo'llari tizimining paydo bo'lishi va shakllanishi mintaqaning xalqaro aloqalar tizimiga qo'shilishiga asos bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, bronza davrida O'rta Osiyoni Qadimgi Sharqning sivilizatsiya markazlari bilan bog'laydigan dastlabki savdo-tranzit yo'llarining paydo bo'lishida iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi o'chog'lariga O'rta Osiyoning Janubiy hududlaridan, avvalo, So'g'diyona va Baqtriyadan olib ketiladigan metall va nometall mahsulotlar, qimmatbaho toshlar va nodir minerallarga talab katta bo'lgan. Bunday mahsulotlar ichida Qadimgi Sharqda yuksak qadrlangan Badaxshon lojuvardi ayniqsa katta ahamiyatga ega edi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi savdo-tranzit yo'llari bronza davridayoq paydo bo'ladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu yo'lni «Lojuvard yo'li» deb ataydilar. Bu yo'l tog'li Badaxshondan boshlanib Mesopotamiya, Misr, Hindiston hududigacha yetib borgan edi. Bu davrdagi O'rta Osiyoning savdo yo'llaridan biri Baqtriya va Marg'iyonani Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan.

Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiyada Badaxshon lojuvardi mashhur bo'lgan. Shumer va Akkaddagi tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan lojuvarddan yasalgan turli buyumlar shundan dalolat beradi. Undan tashqari Mesopotamiyaning Uruk, Ur, Kish, Lagash shaharlaridan Badaxshon lojuvardidan yasalgan turli buyumlar topilgan. Shumer sopol bitiklarida ham uzoq tog'li o'lkadan oltin, kumush va lojuvard olib kelingani haqida ma'lumot saqlangan. Demakki, bronza davridagi yana bir yo'l Badaxshondan Janubi-Sharqqa tomon Afg'oniston orqali O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shahar-davlatlari bilan bog'lagan.

«Lojuvard yo'li»ning yana bir yo'nalishi mil. avv. II ming yillikda Amudaryoning yuqori oqimidan Eron hududi orqali Kichik Osiyoga ham kirib borgan. Kichik Osiyodagi mashhur Troya shahri xarobalaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan buyumlarning topilishi shundan dalolat beradi. Bronza davrining yana bir yo'li O'rta Osiyoning Janubidagi Baqtriya va Marg'iyonani Hindistondagi Xarappa va Mohinjo-Daro, Erondagi Shahri So'xta, Afg'onistondagi Mundigak kabi madaniyat markazlari bilan bog'lagan. Tadqiqotchilarning fikricha, Badaxshondagi lojuvard konlaridan boshlangan bu yo'l, Amudaryoning chap qirg'og'ida, Ko'kcha daryosining Amudaryoga quyilish joyidan Shimolroqda joylashgan Sho'rto'qay makoni orqali o'tgan va bu yerdan bir necha tarmoqlarga bo'lingan.

Mil. avv. II ming yillikka kelib Farg'ona va Shosh hududlari ham Qadimgi Sharq bilan aloqalar o'rnatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu davrda Mesopotamiya shaharlaridan chiqqan savdo yo'llari Eron va Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So'g'diyonadan o'tib Farg'onaga kelgan. Bu yo'lning bir tarmog'i Farg'onadan G'arbga Qozog'iston cho'llari orqali Ural va Bolga bo'yiga ketgan. Yana bir tarmog'i esa, Farg'onadan Sharqqa, Dovon orqali Sintszyan, Shimoliy Xitoyga ketgan. Bu o'rinda aytib o'tish joizki, bizga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar mil. avv. II ming yillik oxirlariga kelib O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasida qizg'in aloqalar yo'lga qo'yila boshlanganidan darakdir. Xususan, xitoylik arxeologlar Tyanshanning Janubiy yonbag'irlaridagi so'nggi bronza-ilk temir davriga oid Ukunbaka (Sinbaka) makonidan O'rta Osiyodan keltirilgan temir o'roq va dastali bronza oyna kabi buyumlarni topganligi ham mintaqaning Sharqiy Turkiston bilan aloqalarining qadimiyligini asoslab berdi. Qadimgi xitoylik dehqonlarning bu makonidan naqshi va shakliga ko'ra Chust va Burgulik madaniyatlari sopol idishlariga o'xshash idishlarning topilishi esa O'rta Osiyo va Xitoyning qadimgi aloqalaridan va bu aloqalarda qadimgi Choch vohasi va Farg'ona vodiysining tutgan o'rnidan dalolat beradi.

O'quvchilar e'tibor berishlari lozimki, O'rta Osiyoning Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlari bilan olib borgan aloqalarida nafaqat qimmatbaho toshlar, birinchi galda lojuvard katta o'rin tutgan, balki, bu aloqalar bronza davridan boshlaboq iqtisodiy-madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan edi. Mil. avv. III-II ming yilliklarga kelib O'rta Osiyoning Xitoy, Hindiston, Eron, Mesopotamiya, Misr kabi hududlar va o'lkalar bilan turli-tuman aloqalari yanada faollashadi. Buni ko'pgina hududlardagi ibodatxonalar, shaharsozlik madaniyati, sopol idishlar va buyumlar, terrakota haykalchalaridagi o'xshashliklar misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Hindistonning O'rta Osiyo bilan aloqalaridagi yana bir muhim yo'nalish yo'li Shimoliy Afg'oniston va Surxon vohasidagi bronza davri makonlaridan – Dashli, Sopolli, Jarqo'ton kabilar orqali o'tib mintaqaning ichki hududlariga olib kelgan. Tadqiqotlarga ko'ra, bu yo'nalishdagi aloqa yo'li bo'ylab mil. avv. II ming yillikda olib borilgan iqtisodiy-madaniy aloqalarni Sopollitepa qishlog'idan topilgan tosh va metallardan yasalgan burgut tasvirli muhrlar hamda Jarqo'ton ko'hna shahridagi moddiy madaniyat buyumlari ham tasdiqlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Zarafshonning yuqori oqimidagi Sarazm madaniyatiga oid turli topilmalar ichida Hind okeanida uchraydigan chig'anokdan yasalgan taqinchok va munchoqlar, Shimoli-G'arbiy Hindistondagi qadimgi sopol buyumlarga o'xshash kulolchilik mahsulotlari uchraydi. V. M. Massonning fikricha, bu topilmalar Sarazm makoni shakllanishida Hind daryosi vodiysidan ko'chib kelgan aholi ham sezilarli o'rin tutganligini, xususan bu manzilgoh xarappaliklarning O'rta Osiyo tog'larida mavjud bo'lgan polimetall rudalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Uzoq yillar mobaynida O'rta Osiyoning qadimgi yo'llari masalalarini bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan O'. Mavlonovning tadqiqotlari xulosalariga ko'ra, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyoda ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarga xizmat qilgan yo'llar tizimi shakllanadi. Mintaqadagi asosiy aloqa yo'llari asosan tog' dovonlari, daryo vodiylari, dasht va cho'llar orqali o'tgan yo'llardan keng foydalanish boshlanadi. Buning natijasida qadimgi ajdodlarimizning mintaqa tabiati va geografik holati hamda joylashuvi haqidagi, shu bilan birgalikda, qo'shni o'lkalar to'g'risidagi tasavvurlari ham kengayib bordi. Bu amaliy bilimlar, o'z navbatida mahalliy, mintaqaviy va transmintaqaviy aloqa yo'llari shakllanishiga asos bo'ldi.

Eng qadimgi yo'llarning birinchi guruhiga mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kirgan bo'lib, ular avvalo, o'troq dehqonchilik markazlarini dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari, ov qilinadigan hududlar, xomashyo zaxiralari mavjud bo'lgan joylar, suv manbalari va boshqalar bilan bog'lashga; yagona madaniyatga mansub makonlarning o'zaro aloqalarini ta'minlashga; chorvador qabilalar xo'jaligida muhim o'rin egallagan qishloq-yaylov-qishloq yo'nalishdagi harakatni boshqarishga xizmat qilgan.

Mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi guruh yo'llari, avvalo, O'rta Osiyodagi eneolit va bronza davriga mansub turli madaniyatlarning o'zaro aloqalarini ta'minlagan. Mintaqaning ichki iqtisodiy-madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ko'p tarmoqli bu yo'llar yo'nalishlari O'rta Osiyo o'troq vohalari o'zlashtirilishiga mos ravishda kengayib borgan. Mintaqaviy aloqa yo'llari bo'ylarida mahalliy qabilalar va xalqlar nazoratida bo'lgan turli inshootlar va tegishli infratuzilmalar shakllanib, ilk ulov va transport vositalaridan foydalanishga o'tiladi.

Eng qadimgi yo'llarning uchinchi guruhi transmintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llardir. O'rta Osiyoning turli hududlarida metall va nometall qazilma boyliklari hamda boshqa xomashyo zaxiralarining mavjudligi va Qadimgi Sharq mamlakatlarida ularga bo'lgan katta talab, ya'ni iqtisodiy omillar mintaqada tranzit ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar yo'nalishlarining paydo bo'lishiga olib kelgan edi. O'rta Osiyoni Hindiston, Eron va Mesopotamiya orqali Old Osiyo, Misr, Sharqiy Turkiston va Xitoy hamda mintaqa Shimolidagi dashtlar orqali Sibir va Uralorti hududlari bilan bog'lovchi tranzit yo'llar – aloqa yo'llari tizimining eng muhim qismi bo'lib, bu yo'llar orqali olib borilgan iqtisodiy-madaniy aloqalar O'rta Osiyoda sivilizatsiya markazlarining paydo bo'lishi, avvalo, ilk shahar madaniyatining shakllanishi, keyinchalik, davlatchilik jarayonlari taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida bo'lib o'tgan yangiliklar va o'zgarishlar qadimgi savdo-tranzit yo'llari tarmoqlarining kengayishi va aloqa yo'llarining yangi yo'nalishlari paydo bo'lishi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrdagi tor doiradagi hududlarni bog'lovchi ichki aloqa yo'llaridan tashqari Dasht yo'li, «Oltin yo'li», «Shoh yo'li» kabilar mintaqadagi iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyotini ta'minlagan edi.

Ilk temir davri ichki aloqa yo'llari yo'nalishlarini aniqlashtirishda mintaqadagi bu davr makonlari joylashuvi katta ahamiyatga egadir. Arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalar ma'lumotlari natijalariga ko'ra, mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoning Janubiy va Shimoli-Sharqiy hududlari bir necha yo'nalishdagi aloqa yo'llari tizimi bilan o'zaro bog'langan edi. Ular orasida Parfiyadagi Ulug'depa, Ulkandepa va boshqalarni, Janubiy Turkmanistondagi Saraxs vohasidan Marg'iyona orqali Qadimgi Xorazm, So'g'diyona va Baqtriyaga eltuvchi yo'llar katta ahamiyatga ega.

A. Sagdullayev va E. Rtveladzelarning fikricha, O'rta Osiyoning ilk temir davri savdo-tranzit yo'llari tizimida Marg'iyonani Qadimgi Baqtriya hududi bilan bog'lovchi yo'llar ham katta ahamiyatga ega edi. Surxon vohasi va Janubiy Tojikiston hududlarida (Shimoliy Baqtriya) bu davrdagi aholi punktlari, asosan, daryolar va ularning irmoqlaridagi bir qancha dehqonchilik vohalari bo'ylab joylashgan bo'lib, har bir

dehqonchilik vohasi yirik shahar tipidagi makon atrofida joylashgan mustahkamlangan qo'rg'onlar va qal'alarga ega edi. Marg'iyonani Shimoliy Baqtriya bilan bog'lagan aloqa yo'li Janubiy Baqtriya orqali (Shimoliy Afg'oniston) o'tgan. Bu hududlardagi ilk temir davriga oid Tillatepa, Maymana, Davlatobod, Shibirg'on va Oqcha makonlari mazkur aloqa yo'lining muhim oraliq punktlari hisoblangan. Shimoliy Afg'onistondan yo'l Amudaryodagi Cho'chqaguzar va Sho'rob ko'chuvlari orqali Surxon vohasi va Janubiy Tojikistonga o'tgan.

Bu davrda Baqtriya va Marg'iyonadan, Xorazmdan kelgan yo'llar Samarqand orqali Farg'ona, qadimgi Choch vohasiga va mintaqa Shimolidagi dasht hududlarga qarab ketgan. Qadimgi Baqtriya va Xorazm Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab o'tuvchi aloqa yo'li orqali bog'langan. Shuningdek, bu hududlarning o'zaro aloqalari Amudaryo suv yo'li orqali ham olib borilgan. Sug'diyona va Xorazm vohasini bog'laydigan yo'llar bir nechta yo'nalishda bo'lgan. Asosiy yo'nalish Zarafshon daryosi bo'ylab joylashgan makonlar orqali Amudaryoga olib chiqqan.

Ilk temir davri O'rta Osiyoning tashqi aloqalarida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu holat, avvalo, tashqi aloqalardagi iqtisodiy omillar bilan bir qatorda siyosiy manfaatdorlik bilan bog'liq edi. Chunki, bu davrda qadimgi shaharlar rivojlanib, ilk davlatchilik shakllanayotgan davr edi. Bu davrdagi Dasht yo'li haqida gapiradigan bo'lsak, bu davrda O'rta Osiyo hududlari orqali o'tgan savdo-tranzit yo'llari ichida Oltoydan boshlanib Eron, Mesopotamiya, Arabiston va Shimoliy Afrikaga hamda Bolga va Ural daryolari oralig'idagi dashtlardan Hindistonga olib boruvchi yo'llar muhim ahamiyatga ega edi. Qopa dengizning Shimolidagi dashtlardan Oltoyga qadar cho'zilgan bu yo'l tarixiy adabiyotlarda «Dasht yo'li» deb ataladi. Bu yo'l Qora dengiz Shimolidagi savdo shaharlaridan boshlanib, Don daryosining quyi oqimidan Tanais shahri, Quyi Bolgabo'yi, Orolbo'yi, Janubiy Qozog'iston orqali Yuqori Irtish va Zaysan ko'li hududiga, Oltoy va Sharqiy Turkistonda olib chiqqan.

Qadimgi Sharq davlatlarida qimmatbaho va nodir metallar hisoblangan oltin va kumushga bo'lgan talab Ahamoniylar davridan oldinroq, ilmiy adabiyotlarda «Oltin yo'li» deb nom olgan mintaqalararo aloqa yo'li paydo bo'lishiga sabab bo'lgan edi. Tog'li Oltoydagi oltin konlaridan boshlanib O'rta Osiyo orqali Hindiston va Eronga boruvchi

bu yo'l qadimgi davrning katta siyosiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'llaridan hisoblangan. Bu davrda mintaqamiz hududlarida siyosiy birlashmalar, tarixiy-madaniy viloyatlar, ilk davlat uyushmalari shakllanib, qadimgi shaharlar rivojlanayotgan davr ekanligini hisobga olsak, bu yo'lning davlatchilik taraqqiyotidagi ahamiyati juda katta bo'lganligi kuzatiladi.

A. Sagdullayevning tadqiqotlariga ko'ra, ilk temir davrida O'rta Osiyoning Hindiston bilan aloqalari davom etgan bo'lib, bu aloqalar olib borilgan yo'llar yo'nalishlarida birmuncha o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrda Hind daryosi vodiysini Hindikush tog' dovonlari orqali Amudaryoning yuqori oqimi bilan bog'lovchi yo'l Xonoboddaryo va Qunduz yoki Daryoi Bangi-Panj daryolari vodiylari bo'ylab o'tgan. Bu oraliqda Kalafagan, Ko'kcha, Oyxonim, Rustak, Yangi qal'a kabi ilk temir davriga oid makonlarning topilishi bu aloqa yo'li yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga kelib Gretsiya va Misrdan O'rta Osiyo va Hindistonga qadar ulkan hududlarda tashkil topgan Ahamoniylar davlati ko'pgina davlatlar, xalqlar va elatlarining turli tomonlama aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Doro I hukmronligi davrida «Shoh yo'li» nomini olgan savdo-tranzit yo'li o'z faoliyatini boshlagan edi.

Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyo qadimgi tarixiy-madaniy viloyatlaridagi shahar va qishloqlardan Persepol, Suza va imperiyaning boshqa shaharlariga eltuvchi savdo-tranzit yo'llari mil. avv. VI-IV asrlarda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Xullas, mil. avv. I ming yillikning o'rtalaridan boshlab mavjud «Dasht yo'li», «Oltin yo'li», «Shoh yo'li» kabilardan nafaqat, turli qabilalar va xalqlarning bir hududdan boshqa hududga ko'chishida, turli hududlarda yashovchi qabilalarning o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalarida, balki harbiy-siyosiy maqsadlarda ham izchil foydalanilgan. Bu holat avval Ahamoniylar, so'ngra esa Aleksandr Makedonskiy yurishlari yo'nalishlarida yaqqol kuzatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eng qadimgi davrlarda savdo karvonlari ming-minglab kilometr ga cho'zilgan yo'llar orqali ko'zlagan manziliga o'sha davr nuqtai nazaridan yetib borgani shubhali bo'lsa-da, mahsulot ayirboshlash qabiladan qabilaga, tumandan tumanga,

viloyatdan viloyatga, vohadan vohaga o'tib keng hududlarni qamrab olganligi bugungi kunda ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu hududlar tizimida O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi qabilalar ham mavjud bo'lib, ularning sa'y-harakatlari va faoliyatlari natijasi o'laroq, mintaqada ilk shahar madaniyati shakllanib, dastlabki davlat uyushmalariga asos solindi. Bu jarayonda qadimgi savdo-tranzit va madaniy aloqalar yo'llarining ahamiyati beqiyosdir.

Nafaqat o'zbek xalqi, balki dunyodagi ko'pgina xalqlar davlatchiligi tarixida, rivojlanish bosqichlarida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan edi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri – II asrning o'rtalaridan boshlab, Xitoy sayyohi va diplomati Chjan Szyan xitoyliklar uchun ilk marta G'arbiy o'lka – O'rta Osiyo viloyatlariga yo'l ochgan davrdan boshlab Buyuk ipak yo'li shakllanadi. «Buyuk ipak yuli» degan nom o'sha davrlarda Fapb davlatlari uchun juda qimmatbaho hisoblangan ipak mahsulotlari bilan bog'liqdir. Ammo, bu degani bu yo'ldan faqat ipak mahsulotlari olib o'tilgan, degan ma'noni bermaydi. Tadqiqotchilar ipak qurtidan ipak olish sirlarini xitoyliklar bundan besh ming yil ilgari o'zlashtirgan deb hisoblashadi. Ayrim tadqiqotchilar ipakchilikning vatani Hindistonning tog'li tumanlari, G'arbiy Himolay va, hatto, Eron deb hisoblasalarda, ipakning vatani Shimoliy Xitoy, aniqrog'i, Shandun viloyati ekanligi aksariyat olimlar va xitoyshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

Xitoy elchisi va diplomati tomonidan ochilgan bu yo'l aslida ikkita buyuk yo'lni birlashtirgan yo'l edi. Ulardan biri – G'arbdan, O'rta Yer dengizi hududlaridan O'rta Osiyoga kelgan bo'lib, Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar sarkardasi Demodam yurishlari davrida Yaksart – Sirdaryogacha cho'zilgan. Ikkinchisi esa, Sharqdan, Xan imperiyasidan O'rta Osiyoga yo'nalgan bo'lib, Chjan Szyan bu yo'l bo'ylab Shimoldan Davan, Qang', Sug'd, Baqtriya orqali Janubga chiqqan edi. Ikkita buyuk sivilizatsiya – G'arb va Sharq, sivilizatsiyalarini birlashtirishda bu yo'llar ustida joylashgan O'rta Osiyo xalqlari faoliyati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xitoy va Yunon-Rim manbalarining ma'lumot berishicha, paydo bo'lgan davridan boshlaboq, bu yo'ldan savdo karvonlari va diplomatik elchilar qatnay boshlagan. Bu yo'l XIX asrning ikkinchi yarmida (1877-yilda) nemis olimi Ferdinand Paul Bilgelm Rixtgoften tomonidan dastlabki marta «Ipak yo'li» deb

nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan «Buyuk ipak yo'li» deb e'tirof etildi.

Bu yo'lining qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xan imperiyasining U-Di hukmronligi davrida (mil. avv. 140–86) Xitoyning G'arbiy tomonidagi hududlarga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Xitoyliklar bu hududlarda o'sha davrda ancha xavfli bo'lgan harbiy kuchlar-xunlar bilan to'knashadilar. Xunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish va ular bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida imperator U-Di mil. avv. 138-yilda yuqorida nomi tilga olingan diplomat, sayohatchi va savdogar Chjan Szyanni O'rta Osiyoga jo'natadi. Chjan Szyan bir necha yil xunlar qo'lida asirlikda bo'ladi va mil. avv. 128–126-yillarda Davan (Farg'ona)ga keladi. Davan hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Szyan ko'p qiyinchiliklardan so'ng yurtiga yetib keladi. Uning missiyasi Xitoy uchun G'arbiy o'lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik Xitoy imperatori bilan Davan hukmdorlari o'rtasida qonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Davan «samoviy otlari» edi.

Mil. avv. 101–105-yillarda imperator U-Di Parfiya (Xitoy manbalari da Ansi deb eslatiladi) podshohlariga, Qang' hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya (Kushonlar) yerlariga o'z elchilarini jo'natib ular bilan diplomatik – savdo aloqalarini o'rnatadi. Shu tariqa mil. avv. II–I asrlarda Sharq bilan G'arbni bog'lovchi Buyuk ipak yo'liga asos solinadi. O'z vaqtida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'ning dastlabki tarmog'i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan. Yevrosiyo materigining katta qismi aynan Buyuk ipak yo'lini tashkil etuvchi tizim bilan bog'lanib, bu yo'l orqali moddiy va ma'naviy boyliklar almashinuvi jadal olib borilgan. Bu o'rinda, O'rta Osiyoning qadimgi tarixiy-madaniy viloyatlari o'ziga xos vositachilik vazifasini bajargan.

E. Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, tipologik jihatdan bu yo'llar (ikkita kontinent – Osiyo va Yevropani bog'lovchi Buyuk ipak yo'li) – kontinental ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar (bir kontinentdagi turli mintaqalarni bog'laydigan yo'llar, masalan Baqtriya va Hindiston, Baqtriya va Xitoy); mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar (O'rta Osiyo kontinentining ichki hududlarini bog'laydigan yo'llar, masalan Baqtri-

ya va Sug'd, Baqtriya va Xorazm); viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan yo'llar (ma'lum tarixiy-madaniy viloyat ichidagi yirik aholi punktlarini bog'laydigan yo'llar, masalan Afrosiyob va Ko'ktepa, Uzunqir va Yaro'rg'on); mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar (shahar va atrof aholi punktlarini bog'laydigan yo'llar); qishloqlar o'rtasidagi so'qmok yo'llarga bo'lingan. Olimning fikricha, turli yo'llar o'rtasidagi masofa turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, kontinentlararo yo'llar – 10 va undan ortiq, ming km., kontinental yo'llar – bir necha ming km., mahalliy yo'llar – bir necha o'n km., so'qmoq, yo'llar – bir necha yuz metrdan bir necha km.gacha.

Buyuk ipak yo'lining Xitoydan O'rta Osiyoga keluvchi yo'nalishida dastlabki hudud sifatida Farg'ona vodiysi muhim o'rin tutgan edi. Ushbu hudud orqali o'tgan tranzit savdo yo'llari yo'nalishlari bo'yicha keyingi yillarda ko'plab yangi ma'lumotlar paydo bo'ldiki, ularning tahlillariga asoslanib Farg'ona vodiysidagi yirik shaharlarning bu transmintaqaviy aloqa yo'li yo'nalishlarida tutgan o'rni va ahamiyati hamda bu davr Farg'ona davlatchiligi rivoji haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, bu davrda Davan davlatida 70 dan ortiq shaharlar mavjud bo'lib, ular Buyuk ipak yo'li yo'nalishlarida joylashgan yoki ular bilan mahalliy ahamiyatga molik yo'llar orqali bog'langan edi. Bu shaharlar Buyuk ipak yo'li shakllangan dastlabki davrlardan boshlab Farg'ona vodiysining muhim iqtisodiy va madaniy markazlari, ayrimlari (Ershi, Sho'rabashat) esa siyosiy-ma'muriy markazlar sifatida mintaqaning ichki va tashqi aloqalarida faol ishtirok etib kelgan.

Buyuk ipak yo'lining Farg'ona vodiysi shaharlari orqali o'tgan asosiy yo'nalishlari Asht dashtlari orqali Xo'jandga yoki Chotqol tog'laridagi Qamchiq va Rezak dovonlari orqali Choch vohasiga olib kelgan. Bu yo'llar Ohangaron va Chirchiq daryosi vodiylaridagi shaharlar va makonlar orqali Sirdaryodagi muhim kechuvlar tomonga yo'nalgan. Toshkent vohasidagi qadimgi shaharlarning Sirdaryoning o'ng qirg'oq hududlarida, Ohangaron va Chirchiqning quyi oqimlarida shakllanganligidan xulosa chiqargan ayrim tadqiqotchilar vohada urbanizatsiya jarayonlari boshlanishida qo'shni Sug'dning ta'siri katta bo'lgan deb hisoblashadi. O'z navbatida, O'rta Osiyoning bu ikki tarixiy-madaniy viloyatlari o'rtasidagi qizg'in iqtisodiy-madaniy munosabatlar ham-

da vohani So'g'diyona bilan bog'lovchi aloqa yo'llari jadal faoliyat ko'rsatganligi ta'kidlanadi.

Ustrushona va Toshkent vohasidan Zomin va Jizzax orqali kelgan savdo yo'li So'g'diyonaning poytaxti Afrosiyob (Samarqand)ga olib kelgan. Bu shaharning o'sha davr O'rta Osiyoning ichki va tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarida muhim o'rin tutgan yirik savdo yo'llari chorrahasida joylashganligini alohida ta'kidlash lozimdir. Afrosiyobdan Amudaryo kechuvlariga tomon ketuvchi yo'llar bu davrda Janubiy So'g'd, hozirgi Qashqadaryo viloyati hududlari orqali o'tgan. Kesh (Uzunqir), Nikshapa (Yerko'rg'on), Naxshab kabi yirik shaharlar vohaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

So'g'diyonadagi yo'llar Buyuk ipak yo'li shakllanib, mintaqaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanib borishiga mos ravishda kengayib boradi. Samarqanddan quyi Qashqadaryo vohasi orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga olib chiquvchi yo'llar So'g'diyonaning mintaqaviy ahamiyatga ega karvon yo'llari edi. Bu davr Zarafshon daryosining quyi qismiga, Buxoro vohasiga chiquvchi yo'llarda ham qizg'in aloqalar davom etgan. Bu davr Xorazm vohasidagi asosiy punktlar – shaharlar, qal'alar, qo'rg'onlar Amudaryoning quyi oqimidan daryoning har ikkala qirg'og'iga chiqilgan yirik kanallar bo'ylab joylashgan edi.

Surxon vohasida (Shimoliy Baqtriya) mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar bilan bog'langan Termiz shahri alohida ahamiyatga ega. Amudaryodan kechuv joyida joylashgan bu ko'hna shahar mintaqaning markaziy hududlarini Shimoliy Afg'oniston va Hindiston shaharlari bilan bog'laydigan muhim xalqaro savdo-tranzit yo'li ustida edi. Undan tashqari, bu shahar Amudaryo suv yo'lidagi muhim punktlarga egaligi bilan ham boshqa shaharlardan ajralib turadi.

Ipak yo'lining Buxoroga kelgan tarmog'i ikkiga bo'lingan. Bu tarmoqning Janubiy yo'nalishi Buxoro–Qarshi–Guzor–Kesh–Termiz orqali Hindistonga o'tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlaridan biri Tehron–Qazvin–Hamadon–Bag'dod–Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rta yer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Umuman olganda, Buyuk ipak yo'lining Janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva–Marg'ilon–Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Shimoliy yo'nalishi esa Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga

olib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi.

Nullas, mil. avv. I ming yillikning oxiri – milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho'zilgan ulkan geografik hudud-madaniyati yuksak darajada rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar – Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podshohligi, Qang' davlati, Partiya davlati, Rim saltanatining chegaralari ushbu yo'llar orqali bir-biriga tutash edi. O'z davrining bunday zabardast saltanatlari va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixida birinchi bulib «Buyuk ipak yo'li» deb nomlanuvchi bir yo'l bilan bog'landilar. Umumiy uzunligi 12 ming kilometr bo'lib, Xitoydan O'rta Yer dengizining Shimoliy qirg'oqlariga qadar cho'zilgan bu yo'l orqali ko'pgina xalqdar va elatlar, jumladan, qadimgi O'zbekiston hududlarida yashagan xalqlar ham turli tomonlama munosabatlar o'rnatishadi. Podshohlarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. O'sha davrdagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo hududlari orqali o'tgan qadimgi savdo karvon yo'llari o'rta asrlar davrida ham ichki va tashqi xalqaro iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilk o'rta asrlarda so'g'dlar, rivojlangan o'rta asrlarda Movarounnahr va xorazmliklar, so'nggi o'rta asrlarda buxoroliklar va xivaliklar xalqaro aloqalarda katta o'rin tutib, turli hududlar xalqlarini o'zaro bog'lashda asosiy vositachi bo'lgan edilar.

Milodning III asri ikkinchi yarmi – IV asrda O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vohalariga ko'chmanchi xalqlar – kidariylar, xioniylar va eftaliylar bostirib kiradilar. Buning natijasida ko'chmanchi va o'troq xalqlar o'rtasida qonli urushlar boshlanib etnik hududlar o'zgaradi, eski sulolalar inqirozga uchrab yangilari paydo bo'ladi, madaniyatlar o'zgarib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum paydo bo'ladi. Yuzaga kelgan vaziyat, geosiyosiy o'zgarishlar Buyuk ipak yo'lidagi savdo jarayonlariga, G'arb va Yaqin hamda Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi madaniy va diplomatik munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. O'z ahamiyatini yo'qota boshlagan yo'llar o'rniga mavjud ijtimoiy-

siyosiy vaziyatga bog'liq holda xalqaro tranzit aloqa yo'llarining yangi tarmoqlari vujudga kela boshlaydi.

Bu davrdagi Samarqand va Buxorodan keluvchi yo'llar quyi Qashqadaryoning yirik shahri Naxshabda tutashib bu yerdan Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga yoki Temir darvoza orqali Termizga olib chiqqan. Turk xoqonligi davrida Qashqadaryo vohasidagi Kesh shahri ham ijtimoiy-siyosiy mavqei ancha oshganligi kuzatiladi. Kesh shahri rivojida voha orqali o'tgan muhim savdo yo'llari katta ahamiyat kasb etib, bu yo'llar Farg'ona, Choch vohasi va Samarqandni Oqrabot dovoni va Temir darvoza orqali Toxariston bilan bog'lagan. Bu davrda Xitoydan Sosoniylar Eroni va Qora dengiz orqali Vizantiyaga o'tuvchi xalqaro savdo yo'li va ipak savdosi nazoratini qo'lga olgan turklar va ularning homiyligida savdo-sotiq bilan shug'ullangan So'g'd savdogarlari Markaziy Osiyoda ipak savdosi ustidan to'liq nazorat o'rnatdilar. Ta'kidlash lozimki, bu davrda ipak savdosi, nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan harbiy-siyosiy vazifalarni hal etishda ham katta o'rin tutar edi.

E. Rtveladzening ma'lumotlariga ko'ra, VI asrning oxiri – VII asrning boshlarida yashagan Xitoy geografi Pey Szyuy o'zining bizga qadar ayrim parchalari saqlanib qolgan «G'arbiy o'lka esdaliklari va xaritasi» asarida Dunxuan dan O'rta Yer dengiziga boruvchi uchta yo'l haqida yozib qoldirgan. Bular, Shimoliy yo'l – Xami – Barkul ko'li – Issiqko'l – Janubiy Qirg'iston cho'llari – Bolgabo'yi – Shimoliy Kavkaz orqali Vizantiyaga va undan O'rta Yer dengiziga; O'rta yo'l – Turfan – Korashar – Kuchi – Pomir orqali – Ustrushona – Samarqand – Buxoro orqali – Marv – Sosoniylar Eronidan O'rta Yer dengiziga; Janubiy yo'l – Dunxuan – Lobnor qo'li – Takla Makon sahrosi – Bahon yo'l – Toxariston orqali – Hindikush bo'ylab – Sosoniylar Eroni orqali – O'rta Yer dengiziga chiqqan.

Bu asosiy yo'nalishlarga ta'rif byergan Xitoy geografi Pey Szyuy bu yo'nalishlar bir-birlari bilan kesib o'tuvchi yo'llar tarmoqlari orqali bog'langanligini hamda ular orqali har uchala yo'nalish bir-birvobasta ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Bu davrda Xorazm vohasi Afrig'iylar davlati tarkibiga kirgan bo'lib, uning yirik shaharlaridan biri bo'lgan poytaxt Kat shahri Amudaryo suv yo'li va So'g'diyonadan Vizantiyaga ketuvchi karvon yo'li o'ttan yirik savdo shahri edi. Bohaning karvon yo'llari va ularning tarmoqlari

bo'ylarida joylashgan yirik qishloqlari ham mintaqadagi iqtisodiy-madaniy aloqalarda va shu jabhalardagi taraqqiyotda ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan edi.

V–VI asrlarda Choch vohasi ham O'rta Osiyoning ichki va tashqi aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yu. Buryakovning so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, bu davrda Chochda 30 dan ziyod shaharlar mavjud bo'lib, ularning ko'plari yangi shaharlar edi. Arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan solishtirish natijasida bu davrdagi Chochning shahar va qishloqlari, poytaxt shahri Sirdaryo – Yakartga yaqin joylarda hamda uning irmoqlari bo'ylarida joylashganligi aniqlangan. Bu davrda Choch vohasi orqali Sharqdan – Farg'ona vodiysi va Shimoliy dasht hududlaridan So'g'diyona orqali Amudaryo kechuvlariga, undan Toxariston hududlariga yo'llar o'tgan. Shuningdek, Choch vohasi, Shimoldagi dasht chorvadorlari va Sibir hamda Xitoy bilan aloqalarda ham asosiy o'rinni egallagan hududlardan biri edi.

Xullas, bo'lib o'tgan turli tarixiy-siyosiy voqealar hududiy-etnik o'zgarishlar, migratsiya jarayonlariga qaramasdan V–VIII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining tashqi aloqalari ko'lami kengayib bordi. Ayniqsa, O'rta Osiyo – Vizantiya aloqalari asosida tarixiy-madaniy aloqalarning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi va rivojlandi. Ta'kidlash lozimki, turklarning Sosoniylar Eroni bilan ziddiyatlari Turk xoqonligining Vizantiya bilan qalin savdo-diplomatik aloqalari o'rnatilishiga hamda tegishli aloqa yo'llari rivojlanishiga olib keldi.

O'rta asrlarning IX–XIII asrning boshlari davri savdo-sotiq va madaniyat markazlari bo'lgan yirik shaharlarning ko'payishi va taraqqiyoti davri bo'lib, ichki hamda tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida muhim o'rin tutadi. Savdo karvon yo'llari yo'nalishlari bo'ylarida joylashgan Movarounnahr shaharlari, nafaqat Sharq dunyosida, balki ulkan Yevrosiyo mintaqasi miqyosida amalga oshiriladigan tranzit aloqalarda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan edi. Movarounnahrning bu davrdagi yirik savdo shaharlaridan biri Buxoro shahri edi. X asr boshlarida Buxoro ark, shahriston va rabotdan iborat yirik shahar bo'lib, mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Savdo yo'llari Buxoroni Movarounnahr, Yettisuv, Xorazm va Xurosonning turli shaharlari va ular orqali Sharq va G'arb bilan bog'lagan edi. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahri X asrdan boshlab Movarounnahrning Shimolidagi mamlakatlar – bulg'or va xa-

zarlar yurti, Kiyev Rusi va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan aloqalarda muhim o'rin tuta boshlaydi.

O'rta asrlarda Eron va Xurosondan Nasaf, Kesh va Buxoro orqali Xitoyga o'tuvchi savdo yo'lining asosiy yo'nalishi Samarqand, Shosh vohasi, Farg'ona vodiysi orqali o'tgan. Samarqand o'rta asrlarda yirik madaniyat markazi sifatidagina emas, balki yirik savdo markazi sifatida ham mashhur bo'lib, bu yerda ko'plab xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik bozorlar, hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoning yirik savdo-iqtisodiy shahri bo'lgan Samarqand bu davrda mintaqaning Janubi-G'arbiy viloyatlarini (Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo) Ustrushona, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiylari bilan bog'lovchi asosiy yo'l ustida joylashgan.

XIII asrning birinchi choragiga kelib Sharqning kattagina hududlarida jumladan, Movarounnahrda ham mo'g'ullar hukmronligi o'rnatiladi. Mo'g'ullar istilosi tufayli Buyuk ipak yo'lining O'rta Osiyo hududlari orqali o'tgan yo'nalishlari XIII asrning birinchi yarmida savdo karvonlari uchun faoliyatini to'xtatib, ulardan asosan harbiy-siyosiy maqsadlar va elchilik aloqalarida foydalanilgan. Movarounnahrda XIII asrning 60–70-yillaridan boshlab shaharlar tiklanib, ichki va tashqi savdo yo'lga qo'yila boshlandi.

O'rta asrlar Movarounnahr va Xuroson, xususan hozirgi O'zbekiston hududlarida yo'llarning tiklanishi, shaharlar taraqqiyoti, iqtisodiy va madaniy yuksalish, markazlashgan davlatchilik an'analari Amir Temur va Temuriylar davri bilan bog'lik edi. Xususan, Amir Temur 1370-yilda Movarounnahr taxtiga o'tirgan davrdan boshlaboq markazlashgan davlat barpo etishga, kuchli va mustahkam hokimiyat boshqaruvi tizimini yo'lga qo'yishga, shaharlar taraqqiyotiga, ichki va tashqi savdo yo'llari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni xavfsizligini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratgan edi. Amir Temurning sa'y-harakatlari tufayli Movarounnahr bo'ylab xalqaro savdo karvonlari harakatining qaytadan jonlanishi shaharlar taraqqiyotiga, iqtisodiy-madaniy aloqalarning yuksalishiga sabab bo'lgan edi.

Bu davrda Amir Temur davlatining poytaxti Samarqandni Movarounnahr va Xurosonning yirik shaharlari bilan bog'lovchi yo'llar mintaqadagi ichki savdo yo'llari tizimining bosh bo'g'inini tashkil etar edi. Tadqiqotchilarning fikricha, karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash sohasida olib borilgan tadbirlar, ko'plab yo'l bo'yi

inshootlari barpo etilishi, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Amir Temur va Temuriylar davrida Yevropa va Osiyoning ko'pgina davlatlari bilan aloqalar olib borilgan. Xususan, poytaxt Samarqandni Janubda Hindiston, Xuroson, Eron, Iroq, Misr, Shimoli-G'arbda Oltin O'rda shaharlari, Sharqda Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bog'lovchi muhim xalqaro yo'llar alohida ahamiyatga ega edi. Mavjud manbalar ayniqsa, Hindiston va Xitoy bilan olib borilgan aloqalar yo'nalishlari haqida aniq ma'lumotlar beradi.

1402–1404-yillarda O'rta Yer dengizidan Iroq–Eron–Xuroson orqali Samarqandga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ma'lumotlari Yevropa davlatlari bilan olib borilgan aloqalaridan dalolat beradi. Klavixo ma'lumotlariga ko'ra, uning rasmiy elchilik tashrifi quyidagi yo'nalishda bo'lgan: Xurosondan–Termiz–Darband–Temir Darvoza–Oqrabot–Kesh orqali–Samarqandga.

Xullas, Amir Temur va Temuriylar davri O'rta Osiyoning davlatchilik tarixi, ichki va tashqi aloqalari taraqqiyotida muhim davr bo'ldi. Bu davrda Buyuk ipak yo'lining Oltin O'rda davlati tarkibida bo'lgan Dashti Qipchoq, yerlari orqali o'tgan Shimoliy yo'nalishlari o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Movarounnahr va Xuroson shaharlari esa Buyuk ipak yo'lining markaziy yo'nalishlari bo'ylab xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda katta rol o'ynay boshladi. Ammo, bu jarayon uzoq cho'zilmadi.

Ma'lumki, XV asrning oxirlarida yuz byergan buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro dengiz yo'llarining ochilishi tufayli Yevropa va Osiyo davlatlarining ko'pchiligi hayotida, xalqaro aloqalar va savdo yo'llari tizimida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Undan tashqari, XV–XVI asrlarda Usmonli turklarning istilolari ham G'arbiy Yevropa xalqlari bilan Markaziy Osiyo o'rtasida mavjud azaliy aloqa yo'llari yo'nalishlarining o'zgarishiga olib keldi. Natijada ulkan hududlarni qamrab olgan Buyuk ipak yo'li XVI asrdan boshlab o'z ahamiyatini yo'qota boshladi.

Bu holat birinchi navbatda Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli G'arbiy Yevropadan Xitoy va Hindistonga olib boruvchi dengiz yo'llarining ochilishi va ulardan izchil foydalanishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bu davrda O'rta Osiyoda boshlangan o'zaro sulolaviy kurashlar markaziy davlat hokimiyatining zaiflashu-

viga, karvon yo'llari xavfsizligining to'liq ta'minlanmaganligiga olib keldi. Natijada asrlar davomida Sharq va G'arb dunyosini bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li inqirozga uchradi. Bu davrda O'rta Osiyoning Eron, Turkiya, Hindiston va Xitoy kabi davlatlar bilan an'anaviy aloqalari qisman davom etgan bo'lsa-da, uning xalqaro aloqalari yo'nalishlarida o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni, aynan shu davrdan boshlab Moskva knyazligi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatila boshlandi. Shuningdek, Buyuk ipak yo'li faoliyatining to'xtab qolishi ichki savdo-aloqa yo'llariga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatmadi.

Bu davrda Buxoro–Balx–Qarshi va Qarshi–G'uzor–Okrabot–Temir Darvoza–Termiz–Balx; Samarqandni Sharqiy Xuroson bilan bog'lovchi yo'l–Samarqand–Taxtakoracha–Shahrisabz–Yakkabog'–Toshqo'rg'on–Yurchi–Denov–Termiz–Balx; Farg'ona vodiysi–Xo'jand–O'ratepa–Jizzax–Samarqand; Buxoro–Chorjo'y–Hazorasp–Xiva–Ko'hna Urganch kabi savdo-aloqa yo'llari o'z faoliyatini davom ettirdi.

Xullas, O'rta Osiyoning qadimgi davr va o'rta asrlardagi tashqi va ichki savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Xorazm vohasi qadimdan Bolgabo'yi va Sharqiy Yevropa bilan, Baqtriya–Toxariston Afg'oniston va Hindistonning savdo shaharlari bilan, So'g'diyona Eron va Vizantiya bilan, Farg'ona Xitoy va Qashg'ar bilan, Choch vohasi Shimoldan dasht qabilalari bilan aloqalarda asosiy o'rin tutgan. O'rta asrlar davridagi madaniy aloqalar, yagona din, yozuv, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi yaqinlik O'rta Osiyoning turli hududlarida umumimintaqaviy madaniyat shakllanishiga olib kelishi bilan birga, barcha musulmon mamlakatlari madaniyatida ham umumiylik va yaqinlikni keltirib chiqardi.

Agar geografik xaritaga e'tibor beradigan bo'lsak, O'rta Osiyoni qadimgi sivilizatsiyalar o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli O'rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar (hind-yevropa, hind-eroniy, turklarning ko'chishi) bo'lib o'tishiga, madaniyatlarning o'zaro ta'sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi. Osiyoning ichkarisiga va Uzoq Sharqqa harfiy yozuv va dunyo dinlarining (buddaviylik, xristianlik, zardushtiylik, moniy, islom) yoyilishida O'rta

Osiyo xalqlari ulkan hissa qushdilar. Buyuk ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'libgina qolmasdan, Yevroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan jarayondir.

1987-yilda YUNESKO BMTning butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanish bo'yicha «Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li» dasturini qabul qildi. Ushbu dasturda O'rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi – Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko'p sonli xalqlarning o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi. 2000-yilga qadar mo'ljallangan ushbu dastur asosida ko'pgina ekspeditsiyalar va ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

Buyuk ipak yo'lini o'rganish va qayta tiklashda O'zbekiston rahbariyati ham alohida e'tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududlarida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar tadqiq etildi. Qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy-ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro instituti ochilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri Buyuk ipak yo'li va uning bo'ylarida joylashgan shaharlarni o'rganishdir.

Bugungi kunda «Buyuk ipak yo'li»ning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu yo'lni tiklash maqsadida O'zbekiston davlati bilan bir qator mamlakatlar o'rtasida ko'plab shartnomalar tuzildi. Buyuk ipak yo'lini tiklash uchun O'zbekiston–Turkiya–Eron davlatlari o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ta'minlashga bir necha yo'l variantlarida ish olib borildi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi temir yo'llardan foydalanib Krasnovodsk va Boku portlaridan Julfa bekatiga o'tish, undan Fors qo'ltig'iga, so'ngra Turkiya orqali Yevropaga chiqish yo'llari ustida ham ish olib bormoqda. Afg'onistonga an'anaviy savdo yo'llaridan foydalanib Peshovar (Pokiston) orqali Karachi portiga va undan Sharq bozoriga chiqish ustida ham samarali ish olib borilmoqda.

1998-yil may oyida Bryusselda Yevropa Komissiyasi, Markaziy Osiyo hamda Kavkaz orti mamlakatlari, shuningdek Yevropa Ittifoqi davlatlarining vakillari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvdan ko'zda tutilgan maqsad – yangi mustaqil davlatlar – Markaziy Osiyo va

Kavkazorti mamlakatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini ko'rib chiqish edi. Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan «Yevropa – Kavkaz – Osiyo» trans yo'lagini barpo etish masalasi ko'rib chiqildi va shu bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk ipak yo'li an'analarini tiklash borasidagi dastlabki qadam bo'ldi. Yevropa va Osiyoni bog'laydigan TRASEKA yo'li dasturi ishlab chiqildi.

Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakat TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. Mazkur loyihaga qo'shilishni istovchi mamlakatlar soni ham tobora oshib boryapti. O'zbekiston bugun TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etish bilan cheklanib qolmay, transport kommunikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish borasida boshqa loyihalarni ham amalga oshirmoqda. O'zbekiston qo'shni Qirg'iston hamda Xitoy bilan Toshkent–Andijon–O'sh–irkeshtom yo'lini qurish va ta'mirlash bo'yicha yaqindan hamkorlik qilayotir. Buyuk ipak yo'lining bir qismi hisoblangan bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarini Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari va Tinch okeani bilan bog'laydi.

Bugungi kunda Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash tobora global ahamiyat kasb etmoqda. Necha asrlar davomida ko'plab mamlakatlarining taraqqiyotiga xizmat qilgan Buyuk ipak yo'li bugun yana qaytadan tug'ilmoqda. Bu yo'l mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, madaniyat, iqtisodiy ravnaq hamkorlik, bir so'z bilan aytganda, taraqqiyot yo'lidir. Zero, XXI asrda «Bir makon – bir yo'l» dasturi asosida Sharq va G'arb mamlakatlari madaniy va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch so'zlar

Boshqaruv, nom davlatlar, siyosiy hokimiyat, mahalliy va umum-bashariy madaniyatlar, Osiyocha ishlab chiqarish usuli, Sharq yo'li, jamiyatning birlamchi yacheykasi, prinsipial boshqaruvlar tabaqasi, Yevropa yo'li, polislari, ijtimoiy va hududiy birlik, qishloq jamoalari, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, qo'shimcha mahsulot, davlatchilik tushunchasi, davlatning asosiy belgilari, davlatning tiplari, formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv, Qadimgi Sharq davlatchiligi, Bronza davri madaniyatlari, Namozgoh, Dashli, Oltintepa, Gonur,

Kopollitepa, Jarqo'ton, tarixiy-madaniy jarayonlar, mehnatning birinchi yirik taqsimoti, ibtidoiy munosabatlar inqirozi, arxeologik majmualar, mahalliy madaniy jamoa», «Oks sivilizatsiyasi», Chust madaniyati, qadimgi aholining dehqonchilik madaniyati, dehqonchilik markazlari, eng qadimgi yo'llar, ulov, transport vositalari, Lojuvard yo'li, Shimoliy mintaqa, Janubiy mintaqa, transmintaqaviy va mintaqaviy yo'llar, mahalliy yo'llar, Dasht yo'li, Oltin yo'li, Shoh yo'li, Buyuk ipak yo'li, Chjan Szyan, o'rta asrlar yo'llari, buyuk geografik kashfiyotlar.

Savol va topshiriqlar

1. Davlat nima? Davlat tushunchasiga izoh bering.
2. Ilk davlatlarning tipologiyasi va xronologiyasi haqida gapirib bering.
3. Ilk davlatlar paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari nimalarda deb hisoblaysiz?
4. Baqtriya davlati haqida gapirib bering.
5. Qadimgi Xorazm davlati haqida nimalarni bilasiz?
6. Sug'diyona davlati haqida fikr bildiring.
7. Ahamoniylar davri davlatchiligi haqida ma'lumot bering.
8. Makedoniyalik Aleksandr va uning vorislari davri davlatchiligi haqida ma'lumot bering.
9. Davan davlati haqida nimalarni bilasiz?
10. Qang' davlati va qang'lilar haqida ma'lumot bering.
11. O'zbek davlatchiligi tarixida Kushon davlatining tutgan o'rnini qanday izohlaysiz?
12. Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo davlatchiligi rivojidadagi o'ziga xoslik va umumiylik haqida gapirib bering.
13. Eng qadimgi yo'llar paydo bo'lishining asosiy omillari haqida gapirib bering.
14. Eng qadimgi yo'llar haqida nimalarni bilasiz?
15. Buyuk ipak yo'li haqida gapiring.
16. Mintaqaviy Buyuk ipak yo'li va mahalliy yo'llar haqida ma'lumot bering.
17. Buyuk ipak yo'lida Farg'ona haqida nimalarni bilasiz?
18. O'rta asrlar yo'llari haqida gapirib bering.
19. Hozirgi davrda Buyuk ipak yo'lining tiklanishidagi harakatlar haqida gapirib bering.

3-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev O'. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarix-shunosligi. – Toshkent: Akademiya, 2009.
2. Asqarov A. A. Eng qadimgi shahar. – Toshkent: «Fan», 2001.
3. Бикерман Э. Государство Селевкидов. – М., 1985.
4. Дандамаев М. А. Политическая история Ахеменидской державы. – М., 1985.
5. Jo'rayev N., Azizov A. Ijtimoiyot asoslari. Sivilizatsiyalar – ijtimoiy-madaniy jarayon. – Toshkent: «Fan», 2003.
6. Захидов П. Государство Кангюй. – Ташкент, 2009.
7. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.
8. Массон В. М. Первые цивилизации. – Л., 1989.
9. Массон В. М. Культурогенез Древней Центральной Азии. – СПб.: Изво С.Петербург. Ун-та, 2006.
10. Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан. Древность и средневековье. – Ташкент: «Фан», 1990.
11. История государственности Узбекистана. Ответ.ред. Ртвеладзе Э. В., Алимова Д. А. Т.1. – Ташкент: «Узбекистан», 2009.
12. Rtveldaze E. B., Saidov A. X., Abdullaev E. B. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Adolat», 2001.
13. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006.
14. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана ВИИ в до н.э. – ВИИ в н.э. – Т., 2000.
15. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. – Toshkent, 1995.
16. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2014.
17. Eshov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar. – Т., 2002.
18. Eshov B. J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.
19. Qudratov S. S. Markaziy Osiyo hududlarida ilk davlatlarning paydo bo'lishi. – Guliston, 1998.
20. Буряков Ю. Ф., Гритсина А. Мавераннахр на Великом шелковом пути. – Самарканд. Бишкек, 2006.
21. Камалиддинов Ш. С. Историческая топография Южного Согда Тохаристана. – Ташкент: «Фан», 1996.

4-mavzu. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.

Reja:

1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylar.
2. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo.
3. Islom dini. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr.
4. Arablar bosqiniga qarshi kurash.

1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylar.

Milodning IV–V asrlari O'rta Osiyo tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan Kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyoning Janubida uning tarkibidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ulardan Shimolda esa Sug'd alohida bo'lsa, uning Sharqiy tomonida Ustrushona joylashadi. Ustrushonaga tutash hududlarda Farg'ona, O'rta Osiyoning Shimoliy hududlarida Choch va Xorazm mulklari mustaqil edi.

Bu davrda O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar ko'p sonli ichki va tashqi urushlar bilan bog'liq edi. Shuningdek, milodiy IV–V asrlar O'rta Osiyo hududlariga ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi yuzaga kelishi natijasi bo'lgan, yangi siyosiy kuchlardan biri kidariylar bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda G'arb muallif tarixchilaridan biri Prisk Panniyskiy ma'lumotlarida uchraydi.

Kidariylarning dastlabki, vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida berilishicha, yuyechjilar hukmdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo (Balxga)ga ko'chirgan. Yana shu manba xabar berishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib Gandhardan Shimoldagi 5 ta davlatni o'ziga bo'ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar Sharqiy Turkistondan ko'chishni boshlagan so'ng ular ikki qismga bo'linib, katta qismi Shimoli-G'arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O'rta Osiyoga joylashadilar, degan fikrni ilgari surishadi. Kidariylarning O'rta Osiyoga joylashuvi masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning fikricha, ularning markazi Balx emas balki Qarshi atroflaridagi Hyrqo'rg'on ko'hna shahri bo'lgan. Ammo, bu fikrni

ko'pchilik olimlar e'tirof etishmaydi va balki Qarshi atroflarida kidariylarning qandaydir kichik guruhlari joylashgan bo'lishi mumkin degan fikrni bildirishadi.

Yaponiyalik tadqiqotchi K. Enoki braxmiy yozuvida zarb etilgan, «Kidara Kushon sha» degan yozuv bitilgan tangalarni o'rganib, ular taxminan 390–430-yillarga mansub degan xulosaga keladi. Hind olimi A. Bivarning xulosalariga ko'ra, bunday tangalar ikkita hokim tomonidan bir vaqtning o'zida zarb etilgan bo'lishi mumkin. Enokining fikricha, kidariylar Toxariston va Gandharni 412–437-yillar oralig'ida o'z qo'l ostilariga birlashtirishgan.

Ayrim tadqiqotchilar kidariylarni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig'i bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, kidariylarning O'rta Osiyoning Janubidagi xioniylar bilan ittifoqchiligi hamda ularning Eronga qarshi birgalikdagi harakatlari to'g'risidagi taxminlar ham bor.

Tadqiqotchilar Kidar hukmronlik qilgan davrni IV asrning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilashadi. Kidar (yoki Kidara) avval boshda Eron shohi Shopur II ga bo'ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o'z o'g'li Pironi Peshovarda qoldirib Shimolga yo'l olgan. Oq xunlar bilan kurash manbalarda 400-yillarga to'g'ri kelishi ta'kidlangan. Kidar Shopur II (309–379)ning zamondoshi bo'lib, avvalamborib kushonlar hokimiyatining davomchisi sifatida ularga bo'ysunib kelgan hamda xioniylar yordamida Baqtriyada kushonlar hokimiyatiga chek qo'ygan.

Kidariylar tez orada Amudaryo o'ng va chap qirg'oq havzasi hamda Sug'dning katta qismini egallashadi. Manbalarning guvohlik berishicha, kidariylar Eron sosoniylari bilan ko'p martalab urushlar olib borishadi. Bu urushlar ayniqsa, sosoniy podsholari Baraxran V (420–438) va Yozdigard II (438–457) davrlarida, ayniqsa, avjiga chiqadi. 456-yilda bo'lib o'tgan navbatdagi harbiy to'qnashuvlardan so'ng katta talofatga uchragan kidariylar qayta o'zlarini o'nglab olisholmaydi. Bu voqeadan keyin kidariylar haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Faqatgina ular Hindistonda Gupta davlatini egallab bu yerda 75-yil hukmronlik qilgani, 477-yilda Gandhardan Xitoyga elchilar yuborgani ma'lum xolos.

IV asr o'rtalarida O'rta Osiyo yerlariga Shimoli Sharqdan xion qabilalari bostirib kirishadi. Tarixda xioniylar nomi bilan mashhur bo'lgan bu qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orolbo'yida

deb hisoblashadi. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo'lganliklaridan bo'lsa kerak, G'arb tarixchilari ularni «oq xunlar» deb ataydilar. IV asrning o'rtalarida ancha kuchaygan xioniylar Janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to'qnashishadi. Bu to'qnashuvlar hamda xioniylar yo'l boshchisi Grumbat, ularning Suriyadagi Umda shahrini qamal qilganliklari haqida Ammian Martsellin ma'lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag'lubiyatga uchrasalarda, keyinroq ular Sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi Shopur II ga qattiq zarbalar berishadi. K. Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o'zining kuchaygan pallasiga kiradi. O'rta Osiyoda kidariylar va eftaliylar hukmronligi o'rnatilgach xioniylarning siyosiy ahvoli o'zgaradi va ular eftaliylarga tobe bo'lib qoladi. Afsuski, xioniylar va kidariylarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan **eftaliylar** haqidagi ma'lumotlar nisbatan ko'proq saqlangan. Eftaliylar tarixi yuzasidan ma'lumotlar rim, vizantiya, suriya, arman va arab tarixchilarining asarlarida, Xitoy xalqnomalarida, pahlaviy matnlarda, Firdavsiyning «Shohnoma»sida uchraydi. Shunga qaramasdan, eftaliylarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S. P. Tolstov, A. N. Bernshtam, K. B. Trever kabi olimlar eftaliylarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A. Mandelshtam, R. Grishman, K. Enoki kabi olimlar esa eftaliylar vatanini Badaxshon deb hisoblashadi. B. Litvinskiy va K. Inostrantsevlar eftaliylarning ilk vatani Farg'onaning tog'oldi hududlari bo'lganligi haqidagi fikrni ilgari surishadi. Ularning turkiy xalqlar bo'lganligi haqidagi masala uzil-kesil echimini topmagan.

Eftaliylar turli manbalarda turlicha nomlanishadi. Misol uchun, xitoy manbalarida ular «ida, ieda, idan, idyan» deb, suriya va lotin manbalarida esa «eptalit, eftaliy, abdal» arab va fors mualliflarida «haytal, yaftal, eftal» degan nomlar bilan eslatiladi.

Xitoy manbalari eftaliylarni turklar (tukyue) bilan bog'liq ravishda ta'riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopi (VI asr) eftaliylarni xunlardan deb ko'rsatar ekan, «ular (ya'ni, eftaliylar) xunlardandir, tanalari esa oq» deb eslatadi. Eftaliylarning kuchaygan davri V asrning o'rtalariga (456–457), ya'ni ular Xitoyga birinchi marta elchi yuborgan davrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu davrdan to 531-yilga qadar eftaliylar Xitoyga 13 marta elchi jo'natishadi.

kuch-qudrat jihatdan mustahkamlanib olgan eftaliylar O'rta Osiyo va Shimoliy Hindistondagi katta yerlarni ishg'ol etishga kirishishadi.

Eftaliylarning Janubdagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftaliylar asta-sekin Janubiy hududlarni o'zlariga bo'ysundirar ekanlar, ularning sosoniylar bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi kurashlar podsho Pero'z (459–484) davriga to'g'ri keladi. 484-yilda eftaliylar va sosoniylar o'rtasida Marv yaqinida bo'lib o'tgan jangda sosoniylar mag'lubiyatga uchraydi. Eftaliylar 467–473-yillarda Sug'dda mustahkam o'rmashib olgan bo'lsalar, 477–520-yillar mobaynida Gandharni ishg'ol etib, u yerdan kidariylarni siqib chiqaradilar. 490-yilda eftaliylar Urumchini, 497–509-yillar orasida Qashg'arni bosib, deyarli butun Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatishadi.

Shunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftaliylar anchagina katta hududlarni egallagandi, ko'pchilik manbalar eftaliylarning dastavval ko'chmanchi xalqlar bo'lib, keyinchalik o'troqlashganligi haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham, ayrim tadqiqotchilar ularni ko'chunanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta'kidlashadi. Eftaliylarning poytaxti Balx shahri edi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, eftaliylar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi.

Ta'kidlash joizki, eftaliylar o'zlariga tobe bo'lgan xalqlar hayotiga juda chuqur ta'sir etmasdan, o'lpon va soliqlar undirish bilan cheklanishgan. Eftaliylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi. Shuning uchun ham, O'rta Osiyo xalqlari ularning turklar bilan bo'lgan kurashda qo'llab-quvvatlashmagan. Eftaliylar davlati yarim asrga yaqin yashagan bo'lsada O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o'ynadi.

Eftaliylarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiki, arab manbalari va tangashunoslik ma'lumotlarida eftaliylar podsholari faqat turklarga xos bo'lgan unvon-tegin, xoqon unvonlari bilan tilga olinadi. Shu bilan birga tangalarda aks etgan podsholar aniq yevropoid irqini beradi. Bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftaliylarni turkiy xalqlar deb hisoblashlariga sabab bo'ldi.

Prokopiyy Kesarsskiy eftaliylar haqida shunday ma'lumot beradi: «eftaliylar xun xalqlari qabilasi bo'lib, barcha xunlar ichida ular

yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o'xshashmaydi va boshqa xunlarga o'xshab hayvonlardek yashashmaydi. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki beshqalardan qolishmaydigan holda aholiga g'amxo'rlik ko'rsatadi, g'azaro va qo'shnilar bilan bo'lgan munosabatlarda adolat mezonlariga amal qiladi.»

V asrda yashagan Lazar Parbskiy eftaliylarni yetti qabiladan iborat massagetlarning etakchi urug'laridan biri ekanligi haqida ma'lumot beradi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuyechjilarning boshqa bir ko'rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog'i yoki qang'lilarning avlodlari sifatida talqin qilinadi. Undan tashqari, o'zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya–Toxariston erlarida yashab o'tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikrlar ham bor. Umuman olganda, eftaliylarning turkiy xalqlar ekanligi hamda ularning haqiqiy vatani Baqtriya–Toxariston ekanligini e'tirof etuvchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Xullas, o'z davrida eftaliylar yirik davlat tizimini vujudga keltirishdi. Ular O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon davlati o'rnida undan ham kattaroq hududlarni birlashtirishdi. Eftaliylar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'ydilar. Eftaliylar sosoniylarning ichki ishlariga ham aralashib turishdi, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida edi. Eron davlati har yili ularga katta miqdorda o'lpon to'lab turgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Eftaliylar yuqorida eslatilgan ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach obod dehqonchilik vohalariga, rivojlangan shahar va qishloqlarga, savdo yo'llariga ega bo'ladilar. Baqt o'tishi bilan esa mahalliy aholi bilan aralashib kyetishadi. Natijada bevosita mahalliy aholining vorisiga aylanishadi. Shu boisdan 568–569-yillarda Vizantiya imperatori Yustin II huzurida bo'lgan turk elchisi imperatorning «eftaliylar shaharlarda yashaydilar-mi yoki qishloqlardami?» degan savolga «ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari» deb javob byergan.

Darhaqiqat, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyoda shahar madaniyati taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Jumladan, V asrda Panjikentda nisbatan qadimgiroq bo'lgan qishloq o'rniga yangi shahar barpo etiladi. Umumiy maydoni 18 gektar bo'lgan bu shahar VI asrning boshlariga kelib mustahkam himoya tartibiga, ibodatxona, saroy va ijtimoiy jihatdan ajralib turadigan turar joylarga ega edi. Sug'd shaharlaridan yana biri Poykandda ham qizg'in tadqiqot ishlari olib borilgan. Yanada qadimgiroq davrda (antik) asos solingan ushbu ko'hna shahar ilk o'rta asrlar davriga kelib kengayib boradi va V–VI asrning boshlariga kelganda uch qismli yirik markazga aylanadi hamda umumiy maydoni 18 gektarga etadi. Poykand qazishmalarida ilk o'rta asrlarga oid ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topilgan bo'lib, ular haqiqatdan ham Poykand bu davrda arab manbalarida ta'riflanganidek, «Madina-at-tujjor» – «Savdogarlar shahri» bo'lganligidan dalolatdir.

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik markazlardan (ehtimol, poytaxt shaharlardan) biri Buxoro edi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi ushbu shaharning asosi 21 gektar bo'lib, bu yerda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turar joy qoldiqlari ochib o'rganilgan. Topilgan moddiy madaniyat buyumlari Buxoro ilk o'rta asrlardan boshlab O'rta Osiyoning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu davrda shaharning yettita darvozasi bo'lib, bu holat uning muhim savdo-tranzit yo'li ustida joylashganligidan dalolat beradi. Bu davrda Termiz va uning atroflarida ham shaharsozlik madaniyatining jadallik bilan rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Termiz atrofidagi Zartepa shahri ana shunday shaharlardan biridir. Antik davrda kichik manzilgoh paydo bo'lgan Zartepa ilk o'rta asrlarga kelib maydoni 17 gektar bo'lgan yirik shaharga aylanadi.

Bu davrda sug'orish inshootlari takomillashib yangi-yangi yerlar o'zlashtiriladi. O'zlashtirilgan yerlarda, yirik sug'orish inshootlari boshida, markaziy shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo'rg'onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko'taradi. Istehkomlarning to'rt burchagi baland mutahkamlanib, devoru-mo'rilari bir necha qator kamondan o'q o'zgich nishon tuynuklari va istehkomlar bilan ta'minlangan. Bohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirimlab qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan Devori qiyomat, Buxoro vohasidagi 336 kilometrli Kampirak, Toshkent vohasidagi Kampirdevor istehkom devorlari shular jumlasiga kiradi. Bu davr me'morchiligida

asrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonalardan iborat bo'lgan. V asrdan boshlab saroy, qasrlar qurilishida xom g'isht bilan bir qatorda pishiq g'ishtlar ham ishlatila boshlangan.

Ufaliylar davrida hunarmandchilik ham rivojlangan. Ayniqsa, metallchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kabi hunarlari ravnaq topgan. Chochda yasalgan o'q va yoy «kamoni dushiy» nomi bilan mashhur bo'lgan. Katta-kichik shaharlar soni ko'paygan. Birgina Zarafshon vohasida Rivdad, Kushoniya, Xariman, Arqud, Romitan, Baraxsha, Poykand kabi savdo-hunarmandchilik shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Poykand shahri eftaliylarning poytaxti bo'lgan.

Ufaliylar davrida dehqonchilik asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan edi. Qadimgi ziroatkorlar katta va kichik daryolar, jilg'alar suvlaridan foydalanishgan. Bunday sharoitda kanallar qazish va ularni mavsumiy tozalab turish muhim ahamiyat kasb etgan. Baxsh vohasidan, Ustrushonadan, Sug'ddan, Xorazmdan va Toshkent vohalaridan shunday kanallarning izlari topib o'rganilgan.

Tohariston va Sug'dda dehqonchilik bilan birgalikda bog'dorchilik ham rivojlangan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, V–VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i yerlarida ko'plab paxta yetishtiriladi edi. O'rta Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo'lgan. Bu davrga kelib yer egaligi munosabatlarining takomillashuvi natijasida sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – «dehqonlar» qo'lida to'plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin dehqonlari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram bo'lgan «kadivar»larga aylanib boradi.

IV–V asrlar O'rta Osiyoning pul muomalasida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar tangalar zarb etishning markazlashuvi haqida mintaqaning turli hududlarida zarbxonalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bu davrning boshlarida E. Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, Shimoliy Toxaristonda kushon tangalari va ularga taqlid qilib zarb etilgan tangalar muomalada bo'lgan. Butun V asr davomida Termizda mahalliy hukmdor tasviri tushirilgan mis tangalar zarb etil-

gan. Chag'oniyonda shahanshoh Pero'z (459–448) davridan boshlab juda ko'plab sosoniylarning kumush tangalari kirib keladi.

Buxoro Sug'dida o'ng tomonida soqoldor lukmdorlar tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan bo'lsa, Samarqand Sug'dida V–VI asrlarda ters tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb etilgan. Qarshi vohasida o'ng tomonida podsho boshini tasviri tushirilgan mahalliy kumush va mis tangalar muomalada bo'lgan. Xorazmda esa o'ng tomonida hukmdor boshi, ters tomonida otliq chavandoz tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb qilingan.

Yevroosiyo mintaqasidagi umumiy vaziyat va kushon davlatining inqirozi xalqaro savdoga birmuncha salbiy tasir ko'rsatgan edi. Sosoniylar Eroni bilan munosabatlar ko'p hollarda urushlarga aylanib kyetishi tufayli o'zaro savdo aloqalariga putur etgan edi. Buddaviylikning inqirozi tufayli O'rta Osiyoning Hindiston bilan munosabatlari ham yomonlashgan edi. Ammo, Xitoy bilan savdo munosabatlari avv. dek yaxshi edi. Ilgari bo'lganidek, V–VI asrlarda ham Xitoyga rangdor shishalar, qimmatbaho toshlar olib kyetilgan bo'lsa, Xitoydan asosan ipak va atir-upa keltirilgan. Bu davrda Vizantiya bilan ham savdo aloqalari taraqqiy etadi. Xalqaro savdoda, ayniqsa sug'diylarning ahamiyati katta edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Sharqiy Turkistonda sug'diylarning qishloqlari ham bo'lgan. Yurtlaridan uzoqda yashagan sug'diylar o'z vatanlari bilan doimiy aloqa qilib turishgan.

Arxeologik tadqiqotlar (tangashunoslik ma'lumotlari, hunarmandchilik buyumlari) bu davrda O'rta Osiyoda xalqaro savdo bilan bir qatorda ichki savdo ham taraqqiy etganligidan darak beradi.

Madaniy hayot. Ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar O'rta Osiyo madaniyatiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Bu davrdagi madaniy hayot dastavval antik davr madaniy an'analari asosida rivojlangan bo'lsada, Kushon davlati xarobalarida bir nechta mustaqil davlatlar va mulklarning paydo bo'lishi o'ziga xos mahalliy madaniyatlarning yuzaga kelishiga imkon yaratgan edi. Ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga, shuningdek qo'shni davlatlar, avvalo, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy bilan hamda ko'chmanchi chorvadorlar bilan bo'lgan aloqalar ham muhim ahamiyatga ega edi.

Bu davr me'morchiligi O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shakllanayotgan mulkdorlar toifasi

O'rta Osiyoning turli hududlarida yirik qal'alar qurib, ular atrofini himoya inshootlari bilan o'rab olishadi. Bunday qal'alar vohalarda ko'pincha tabiiy tepaliklar ustiga bunyod etilgan. Ular Xorazm, Toxariston, Sug'd, Ustrushona, Marv hududlaridan topib o'rganilgan. Me'morchilikda asosan tosh, paxsa, xom g'isht va yog'och qurilish materiali sifatida ishlatiladi.

IV–VI asrlar O'rta Osiyo xalqlarining diniy qarashlari zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik va moniylik diniy e'tiqodiari bilan bog'liq edi, IV–V asrlarga oid zardushtiylik ananalari bilan bog'liq bo'lgan otashkadalar Qashqadaryodagi Yerqo'rg'ondan, Panjikent atroflaridan, Buxoro vohasidan topib o'rganilgan. Ularning barchasida zardushtiylik bilan bog'liq bo'lgan ossuariy (ostadon)lar uchraydi.

O'rta Osiyodagi xristianlikning markazi Marv shahri edi. Beruniy ma'lumotlariga ko'ra, Iso payg'ambar tug'ilganidan 200 yil o'tgach xristianlar Marvda paydo bo'lishganda. 334-yildayoq Marvda episkoplik, keyinroq esa mitropoliya mavjud edi. Govurqal'adan xristianlik ibodatxonasi qoldiqlari va xristianlar dafn etilgan qabrston ochib o'rganilgan. Sug'dning ayrim hududlarida (Samarqand va Panjikent) ham xristianlik tarqalganligi haqida ma'lumotlar bor.


III asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoda moniylik dini tarqala boshlaydi. Moniylik diniga asosan Sharqiy Turkiston va qisman Chag'oniyon hamda Sug'd aholisi e'tiqod qilgan.

V–VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvur bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at-koroplastika-ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar hududlarga ko'ra turlicha bo'lib, kiyim-kechaklari, yuz siymolari, taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farqlangan.

Ulkan hududdagi eftaliylar davlati juda ko'p xalqlarni o'zida birlashtirganligi sababli undagi diniy e'tiqodlar ham turlicha bo'lgan. So'g'dda zardushtiylik keng tarqalgan bo'lsa, Tohariston va Sharqiy Turkistonda buddizmga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Shaharlarda xristian va yahudiy jamoalari ham mavjud edi. Moniylik va Mazdak ta'limoti tarafdorlari ham paydo bo'layotgan edi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari san'ati devoriy suratlar, haykaltaroshlik, turli taqinchoq buyumlari orqali izohlanadi. Devoriy suratlar Dilbarjin (Afg'oniston), Baraxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o'rganilgan bo'lsa, Kuyovqo'rg'on, Baxsh vohasi, Afg'onistondagi

Chaqaloqtepa, Yerqo'rg'ondan turli hajmdagi haykallar, zargarlik buyumlari topib o'rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O'rta Osiyodagi tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.



Varaxsha. Saroyning tashqi ko'rinishi. Tiklangan holati.

Eftaliylar davrida chorvador aholi turkiycha so'zlashganligi sababli, turkiy til tobora ko'proq yoyila boshlaydi. Bu davrda o'troq aholining katta qismi sug'diy tilda so'zlashishardi. Sug'd tili va yozuvi Yettisuv, Farg'onadan o'tib Sharqiy Turkistonga qadar yetib boradi. Uning «Samarqand usuli» keng yoyilgan edi. Bundan tashqari Xorazm, Kxaroshtiy, Buxoro yozuvlari ham mavjud bo'lgan. Eftaliylar yozuvi baqtriya yozuvi asosida paydo bo'lgan. Syuan Szyanning ma'lumot berishicha, u 25 ta harfdan iborat bo'lib, xat chapdan o'ngga qarab ko'ndalangiga yozilgan. Bunday yozuv yodgorliklari Zangtepa, Qoratepa va Afrosiyob xarobalaridan topib o'rganilgan.

2. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya, ya'ni Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Tarixda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Turk xoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar

VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protoktor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar – Urxo'n-Enisey, runiy yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» kabilardir. Undan tashqari, o'rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham Turk xoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

«Alpomish», «Go'ro'g'li», «Manas», «Dada Qo'rqut» kabi umumturkiy xalq dostonlari, o'rta asrlardagi Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to'g'risida turli qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. 1999-yili Alpomishning 1000-yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahobatli haykal ham o'rnatildi.

Ta'kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542-yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar «turk el», «turk», «turkash», «tukdus», «tu-kyu», «tuk-yut» kabi nomlar bilan tilga olindi. Kuchli, baquvvat, botir kabi ma'nolarni anglatuvchi «turk» atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh payg'ambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning Shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'l boshchisi bo'lgan.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551–552-yillarga to'g'ri keladi. Dastavval, turklarning Ashin urug'idan bo'lgan Asan (Asyan, Asyan-shod) va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin (Xitoycha Tumin) qo'shni tele qabilasini o'ziga bo'ysundirib kuchayishga muvaffaq bo'ladi. Bu paytga kelib anchagina mustahkamlangan Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagi o'zlari qaram bo'lib turgan jujan (juan-juan) lar qabilalariga qarshi kurash boshlab 551-yilda (ayrim adabiyotlarda 552-yilda) ularni tor-mor etishadi. Mana shu davrdan boshlab turkiy hukmdorlar o'zlarini jujanlar egallab turgan yerlarning haqiqiy egalari hamda jujanlarning mavqei va kuch-qudratining vorislari sifatida Anaguyxoqon (kag'an) unvonini kabul qiladilar. Jujanlar hukmdori Anaguy joniga qasd qilib o'zini o'ldiradi.

551-yilda Bumin Turk elining xoqoni sifatida oq kigizga o'tkazilib ko'tariladi. Ammo, 552-yilda Bumin to'satdan vafot etib uning o'rniga ukasi Istami taxtga o'tiradi. Istami xoqon O'rta Osiyo, Bolga va Shimoliy Kavkaz yerlari uchun kurash olib borgan bo'lsa, uning o'g'illari Mug'an xoqon va Taspar xoqonlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Bu paytga kelib turklarning ashaddiy dushmani bo'lgan jujanlarning kichik bir qismi Koreya va Shimoliy Xitoyga joylashadi, yana bir kismi esa G'arbga joylashib avarlar nomini oladi.

Shunday qilib, manbalarning ma'lumot berishicha, Bumin xoqonning vorisi bo'lgan Mug'an xoqon Janubi-G'arbiy Manchjuriyadagi mo'g'ul qabilalaridan bo'lgan kidanlarni va Enisey qirg'izlarini bo'ysundirib Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda Turk eli hukmronligini o'rnatadi. Turklarning G'arbiy yurishlari ayniqsa muvaffaqiyatli edi. VI asrning 60-yillari oxirlariga kelib Turk xoqonligi o'sha davrdagi yirik davlatlar bo'lgan Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoy kabilarning siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartibiga qo'shilib, Uzoq Sharqni O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lovchi savdo yo'li nazorati uchun kurash olib bordi.

VIII asr turk mualliflari o'zlarining ajdodlari bo'lgan ilk xoqonlarning harbiy yurishlari haqida shunday yozishgandi: «Ular Sharqda Qodirkon adirlarigacha, G'arbda Temir darvozagacha o'z xalqlarini joylashtirdilar». Qodirkon adirlari bu – Katta Xingan tog'lari, Temir darvoza esa Boysuntog'dagi Bo'zgalaxona dovonida joylashgan.

576-yilga kelib Turk xoqonligi Manchjuriyadan Kimmeriy Bosporigacha, Enisey yuqori oqimlaridan Amudaryo yuqori oqimlarigacha cho'zilgan edi. Shu tariqa turk xoqonlari siyosiy va madaniy merosi O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan dastlabki Yevroosiyo imperiyasiga asos solgan edilar.

VI asr 50-yillarining oxirlarida Istami xoqonga eftaliylarga qarshi harbiy harakatlar olib borish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ladi. Eron shohi Xusrav I Anushervon (531–579) eftaliylarga o'lpon to'lashni to'xtatadi va ularga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi hamda Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi. Xusrav I siyosiy jihatdan biroz o'nglanib olgach Turk xoqonligiga eftaliylarga qarshi ittifoq taklif etadi. Ayni vaqtda Vizantiyadan foydalangan Eron eftaliylardan Toxariston, Chag'oniyon, Kobul atrofidagi erlarni tortib oladi.

563-yilda eftaliylarga qarshi Shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kirishadi. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. «Shohnoma»da ma'lumot berilishicha, hal qiluvchi jang Huxoro atroflarida bo'lib o'tadi va eftaliylarning Gatifar boshchiligidagi qo'shinlari tor-mor etiladi. Shundan so'ng turklar tezlik bilan harakat qilib iloji boricha eftaliylarning ko'proq erlarini o'z qo'llariga olishga harakat qilishadi. Amudaryoning Janubiy sohiligacha bo'lgan yerlar, Eron, uning Shimolidan Kaspiy sohillarigacha bo'lgan yerlar turklar qo'lga o'tadi. Eftaliylarning mag'lubiyatidan so'ng bevosita ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydiki, bu holat savdo yo'li nazorati bilan bog'liq edi.

Turklar O'rta Osiyo yerlarini bosib olgach, Buyuk ipak yo'li katta qismining nazoratini o'z qo'llariga olishadi. Bu yo'lning O'rta Osiyo hududlaridan o'tuvchi qismida asosan Sug'diylar ipak bilan savdo qilishni nazorat qilishardi. Ipak matolarning asosiy xaridori Vizantiya bo'lib, ipak savdosi Sug'd savdogarlari va turk xoqonlariga katta daromad keltirardi. IV asrning oxirlaridan boshlab Sug'dda, VI asrda Eron va Vizantiyada o'z ipakchilik ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bu mahsulot sotilishini yanada kiyinlashtiradi.

Xoqonlikning bevosita G'arbiy qismini boshqarib turgan Istami va bosh xoqon Muqan xoqon ipak savdosi mojarosini tinchlik bilan hal qilishga harakat qila boshlaydilar. Istami xoqon o'z qo'l ostidagi Sug'd ixshidiga bu masalani hal etish vazifasini topshiradi. Eronga Turk xoqoni nomidan mashhur Sug'd savdogari va diplomati Mani-ax boshchiligida elchilar guruhi jo'natiladi. Xusravshoh o'z atrofidagi amaldorlarning maslahatiga kirib, sug'diylar olib kelgan ipak matolarni sotib olib uni elchilar ko'z o'ngida yoqib tashlaydi. Shundan so'ng Mani-ax boshqa xaridor – Vizantiya bilan kelishishga harakat qiladi. 567-yilda u Turk xoqonligining Konstantinopolga yuborgan elchiligiga boshchilik qiladi. Vizantiya ham Eron kabi Sug'd ipak matolariga unchalik ehtiyoj sezmas edi. Ammo, eroniyarlarga qarshi turklar bilan ittifoqchilik tarafdori edi. Shu tufayli Turk xoqonligi elchilari imperator saroyida izzat-hurmat bilan kutib olinadi.

Ushbu elchilik davomida Turk xoqonligi bilan Vizantiya o'rtasida Eronga qarshi ittifoq tuziladi. Mani-ax orqaga qaytishda u bilan birga Vizantiya imperatorining elchisi, kilikiyalik Zemarx Turk xoqoni qarorgohiga keladi. Xoqon Zemarxni Tyan-Shandagi «Oltin tog'» ya-

kinidagi qarorgohida qabul qiladi va turk qo'shinlarining Eronga yurishida yo'l boshlovchilik qilishni taklif etadi. Eron shohining turklar hujumini diplomatik yo'l bilan to'xtatishga urinishi hech qanday natija bermadi. Shiddatli hujumlar bilan turklar Gurgonni va bir necha boy shaharlarni egallab, 569-yilda Sug'dga qaytadilar.

Turklarning Eronga ikkinchi marotaba yurishlari 588–589-yillarga to'g'ri keladi. Turklarning Chur Bag'a xoqon (ayrim adabiyotlarda Savg' yoki Shaba deyiladi) boshchiligidagi qo'shini Xurosonga bostirib kiradi. Hirot yonida turk qo'shinlari eroniylarning mashhur Bahrom Chubin boshchiligidagi qo'shinlari bilan to'qnashadi. Bu jangda Bahrom Chubin turk qo'shinlarini tor-mor etib, turklar yo'l boshchisini kamon o'qi bilan halok etadi. Qayta qarshilik ko'rsatish foydasiz ekanligini anglagan turklar eroniylar bilan sulh tuzishga majbur bo'ladilar.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgunlariga qadar turklarning O'rta Osiyodagi mulklari bilan Eron o'rtasidagi chegaralar o'zgarmadi. Arab bosqiniga qadar ipak va boshqa mahsulotlar ortgan karvonlar u yoki bu darajadagi barqarorlik bilan Eron, Xorazm va Bolgabayi orqali G'arbg'a qatnab turdi.

576-yilda Muqan xoqon vafotidan so'ng xoqonlik taxtiga uning ukasi Arslon To'ba o'tiradi. U mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Xitoyning Si saltanati bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari, u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish choralarini ham ko'radi. Ammo, 581-yilda Arslon To'ba vafotidan so'ng Turk xoqonlari o'rtasida o'zaro ichki kurashlar avj olib, natijada mamlakat ichida ahvol keskinlashib, iqtisodiy tanazzul boshlanib ketdi.

Aynan mana shunday keskin vaziyat sharoitida turkiy shahzoda Abruy boshchiligidagi 585–586-yillarda xalq harakati bo'lib o'tdi. Muhammad Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Abruyning qarorgohi Poykand atrofida bo'lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o'rnatganligi bois bu toifa aholisi Buxoro viloyatidan ko'chib, Turkiston va Tarozi atrofiga borib o'rtnashadilar. Qochib borganlar Turk xoqonidan yordam so'rashgan. Natijada turk sarkardasi Sheri Kishvar boshchiligidagi qo'shinlar qo'zg'olonni bostirib Abruyni o'ldirishadi.

G'arbiy Turk xoqonligi. Turk xoqonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlar 20 yildan ziyodroq, davom etib 603-yilda davlatning 2 ta: G'arbiy va Sharqiy qismlariga bo'linib kiyetishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk xoqonligi Mo'g'uliston hududlarini, G'arbiy Turk xoqonligi esa, Yetti-

ay, Chu vodiysi, Bolga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Xoqonlar Sheguy va To'n yabg'u davrlarida G'arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu davrda xoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabilalarning zodagonlarining mavqei kuchayib ular xoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta'minlab turdilar. Shaguy G'arbiy xoqonlikning Sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o'z hokimiyatini Tarim havzasi va Sharqiy Pomir oldigacha cho'zishga muvaffaq bo'ldi. To'n yabg'u (To'n Bahodir) xoqonlikning G'arbiy hududlarida faol siyosat olib borib xoqonlikning qishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi bo'lgan Suyobga (hozirga To'qmoq yuqinidagi Oqbeshim ko'hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa, (hozirgi Turkiston shahri yaqinida) ko'chiradi. To'n yabg'uning yangi yurishlari tufayli xoqonlik chegarasi Amudaryoning yuqori oqimlaridan Hindikushgacha cho'ziladi.

To'n yabg'u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo'lgan O'rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o'rnatiladi. Chunki, bu davlatlarning vassalligi faqat o'lpon to'lash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, Shimolda Janubiy Afg'oniston va Shimoli-G'arbiy Pokistongacha bo'lgan hududlarga xoqon To'n yabg'uning ishonchli vakillari – tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig'ish va xoqon qarorgohiga yuboriladigan o'lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni xoqonlik ma'muriy boshqaruviga qo'shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birga, To'n yabg'u nisbatan kuchli bo'lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To'n yabg'uning Samarqand hokimiga o'z qizini xotinlikka byerganligi haqida ma'lumot bor. Xitoy manbasi To'n yabg'u haqida ma'lumot berar ekan shunday xabar beradi: «G'arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo'lgan emas».

O'ta yakkahokimlik xususiyatiga ega bo'lgan To'n yabg'u boshqaruvi – talon-torojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabilalarning zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan o'zaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan To'n yabg'uning tog'asi Qo'l Bahodir jiyanini o'ldirib o'zini Qo'l Elbilga xoqon deb e'lon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari

boshqa da'vogarni qo'llab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630–634-yillarga kelib xoqonlik o'zining Sirdaryoning G'arbidagi O'rta Osiyo mulklaridan mahrum bo'ldi. G'arbiy turk xoqonligining asosi bo'lgan dulu va nushibi qabilalari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketdi.

634-yilda nushibi qabilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ishbara Elterish Sher xoqon hokimiyat tepasiga keldi. U harbiy ma'muriy tartib bo'lgan «o'n o'q eli» boshqaruvini qayta tiklashga harakat qilib, qabila boshliqlarini o'ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o'tkazdi. Undan tashqari, nazoratni amalga oshirish maqsadida Ishbara har bir mulkka xoqon urug'i a'zosi – shodni jo'natadi. Shodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo'lmay, ularnig markaziy hokimiyatga intilishini kuzatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo'yar edi. Ammo, Ishbara Elterish Sher boshchiligidagi xoqonlik hokimiyatining harbiy-siyosiy layoqati qaram mulklar va qabilalarni ushlab turishga qodir emas edi. 638-yilda dulu qabilasi o'zlariga jo'natilgan shodni xoqon deb e'lon dulu va nushibi qabilalari o'rtasida og'ir va qonli urushlar bo'lib o'tib G'arbiy xoqonlik ikki qismga bo'linib ketdi. Shunday bo'lsa-da, xoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 yil (640–657) davom etdi.

Shunday qilib, VII asrning o'rtalarida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657–659-yillarda Yettisuvga bostirib kirdilar. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurashlar uzoq yillar davom etdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga kelib xoqonlik o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo'rishod mamlakatdan haydab yuborildi.

Davlat boshqaruvi. Turk xoqonligida davlatning oliy hukmdori «xoqon» unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. Ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirishgan, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turishgan. So'ngra xonni o'ga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'lashgan va undan «Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?» deb so'rashgan. U necha yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs xoqon hisoblangan. Boshqaruvda xoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib u uchta kuch – osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Xoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor «Yabg'u» (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turkiy xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan.

Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turishgan. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, xoqonning nazoratchisi – «tudun» deb atalgan. Turkiy xoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini «el» deb atashgan. Birinchi turk xoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida xoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan.

Ya'ni, qarindoshlar, xoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalqlar; xoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar; xoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo'lgan. Xoqonning qarindoshlari – o'g'illari, amakisi, jiyanalari va aka-ukalariga «tegin» unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma'lumot berilishicha, xoqonlikda beshta oliy mansab – exu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turkiy xoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tash-

kil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar «budun» yoki «qora budun» deb atashgan.

Xoqonlikda keng miqyosda dehqonchilik ham qilinardi. Xitoy manbalari, «garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo'lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan yeri bor»ligi haqida ma'lumot beradi. Aynan mana shunday «ajratib berilgan yer»larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar imkoniyatdan foydalanib asosan donli ekinlar yetishtirgan. Mevali daraxtlardan bog'rog'lar yetishtirishga alohida ahamiyat berishgan. Manba tili bilan aytganda, «(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan».

Turklardagi qabila va urug' jamoalarining katta oilalarida uy qullari ham mavjud bo'lar edi. Qullarning ko'payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois bo'lsa kerakki, manbalar xoqonlikda qullar mehnatidan keng foydalanish haqida amalda hech qanday ma'lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ko'proq ayollar mehnatidan foydalanilgan va qullar asosan uy ishlari bilan shug'ullanishgan. Ko'pincha jamoada ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin, qul ayollardan ham og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zg'or ishlarida ishlatilinar edi. Qul erkakmi, ayolmi baribir qochib ketavyergan.

Qochgan qul ta'qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to'lamagan. Turkiy xoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sardadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshq.) bilan mashg'ul bo'lib o'zlari zabt etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham, Farg'ona, Sug'd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Misol uchun, Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor – «ixshid» Toxaristonda – «malikshoh», Xorazmda – «xorazmshoh», Keshda – «ihrid», Buxoroda – «xudot», Ustrushonada – «afshin», Choch va Hokda – «budun» deb atalgan.

Turkiy xoqonlik davrida Sug'd hududlariga hozirgi Panjikentdan Kamonagacha bo'lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo'lgan. Sug'dning mahalliy hukmdorlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma'lum mud-dalarda yirik shaharlarda o'z qurultoylarini o'tkazib turishgan.

Farg'ona Sug'd siyosiy ittifoqiga kirmagan bo'lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo'lib, farg'onaliklar Tyanshan xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lishgan. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podshohlar boshqarib turgan.

Ta'kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma'lum darajada to'liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo'lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatletish, odam a'zolarini kesib tashlash, zararni to'lash, mol-mulk tarzida tovon to'lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma'lumot berishicha, o'lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko'tarish, sotqinlik) hamda nohak yoki qasddan odam o'ldirganlik uchun berilgan. O'g'irlik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo'li yoki oyog'i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar etkazilgan zararni o'n barobar qilib to'lash, jarohat etkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to'lash, qizi, xotinini qullikka berish, suygini sindirganlik uchun esa ot berish yo'li bilan jazolanardi.


Madaniy hayot. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O'z davrida Turkiy xoqonligidagi madaniy jarayonlar Buyuk ipak yo'lidagi keng ko'lamdagi, xalqaro aloqalar tufayli jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanib bordi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi va dasht qabilalari o'rtasidagi madaniy aloqalar ayniqsa kuchaydi. Bu davrdagi madaniy hayot moddiy madaniyat buyumlari, me'morchilik va san'at, din va yozuv qabilarda o'z ifodasini topdi.

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoning turkiy xoqonligi tarkibiga kirgan davridagi moddiy madaniyati o'zida mahalliy o'troq xalqlar va ko'chmanchi turklarning mushtarakligini aks ettiradi. Ularning umumiyliqi qurol-aslaha, zeb-ziynat buyumlarining o'xshashligida, qimmatbaho metallardan ishlangan buyumlar ko'rinishida o'z aksini topgan. Tadqiqotchilarning fikricha, moddiy madaniyatdagi umumiylik,

avvalo, O'rta Osiyo shahar va qishloqlari hamda turk xoqonlari manfaatlarining umumiyligi bilan bog'liq edi.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, shomonlik kabi dinlarga e'tiqod qilgan bo'lsalar-da, diniy qarashlarda zardushtiylik yetakchi o'rinda turgan. Zardushtiylarning ulug' xudosi Ahuramazda (Ormo'z, Xurmo'z) «samo va yerning asoschisi» bo'lib, uning sharafiga qurbonliklar keltirishgan. Bu din ayniqsa, Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida keng tarqalgan edi. Bu davrda Toxariston, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkiston shahar aholisi o'rtasida buddaviylik dini keng tarqalgandi. Balxdan, Termizdan, Kobadiyondan, Quvadan ilk o'rta asrlarga oid budda ibodatxonalari qoldiqlari ochib o'rganilgan. Shuningdek, sug'diylarning Yettisuvdagi ayrim yerlarga borib o'nashishlari oqibatida zardushtiylik dini bilan Yettisuvga xos shomoniylik dinlarining bir-biri bilan qo'shilishi yuz beradi.

Turkiylarning dini haqida «Bey-shi» va «Suy-shi» Xitoy yilnomalarida qayd etiladi. Ularda turkiylarning diniy odatlari haqida quyidagi ma'lumotlar bor: 1. Xoqon qarorgohiga Sharq tomondan kirilgan va bu bilan kun chiqish tarafga xurmat ma'nosi ifodalangan hamda ayni paytda quyoshga sig'inishni ham bildirgan. 2. Har yili xoqon o'z amaldorlari bilan g'orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan. 3. Har yilda 5 marta xoqon oy chiqishida yaqinlarini yig'ib, daryo bo'yiga borgan va osmon ruhi (Tangri)ga qurbonlik keltirgan. Qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo'lib, unga doimiy ravishda qurbonlik keltirib turishgan. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonishgan.



Xorazm. Teshikqal'a. Tiklangan holati.

Turk xoqonligi davri O'rta Osiyoda ko'plab yirik shaharlar mavjud edi. Katta va kichik shaharlarda hunarmandchilik, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik kabilari rivojlanadi. Ularning ayrim namunalari o'sha davrda bunyod etilgan qasr va saroylarni bezagan devoriy suratlari va ganchkor naqshlar, haykallar va haykalchalar, tangalarda zarb qilingan ramzlar sifatida bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan. Ularda o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar o'z aksini topgan. Surxon vohasidagi Bolaliktepa, Zarafshon vodiysidagi Panjikent, Baraxsha va Afrosiyob, Farg'onadagi Quva xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manzaralari shular jumlasidandir.



Afrosiyob devoriy suratlari. VII asr.

Bu davrda ulkan hududlarda yashagan turli xalqlarning til va yozuvlari bir-birlariga ta'sir o'tkazgan edi. Arab yozuviga qadar turkumiy, uyg'ur, moniy, sug'd, braxma, kxaroshtiy, xorazmiy va suryoniy yozuvlari mavjud edi. Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. Sug'd va Xorazm yozuvlari oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan bo'lsa, bu yozuvlar asosida Toxariston yozuvi paydo bo'ladi. Sug'd yozuvlari keng hududlarga tarqilgan bo'lib, bu jarayon sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning ipak yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan bog'liq edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Sug'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston hududlaridan topib tekshirilgan. Sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Bu davrda Xorazmda mahalliy yozuv keng tarqalgan va amalda bo'lgan. Tuproqqal'adan shoh arxivlarining topilishi bunga misol bo'la oladi. Boybezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, kiyimlardagi tasvirlar bu yerda tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.

Xoqonlikdagi shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan. Dehqonchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifat o'zidan keyingi uch tarmoq – hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq rava naqi uchun kata turtki bo'lgan edi. Aynan shuning uchun ham, bu vaqtda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, chirmangarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari tobora rivoj topadi. Turklar sarrojlilik, ruda qazib olish va undan qurol-yarog' yasashda, ayniqsa, mohir edilar. Turklar yasagan qurol-yarog' va zeb-ziynat buyumlari o'zining xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan.

Bu davrda konchilik ishlari ham ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, mis, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma'danlar – Sug'd, Shosh, Farg'ona, Qashg'ar, Tohariston kabi viloyatlardan qazib olinganligi manbalarda aniq ko'rsatilgan.

Xullas, O'rta Osiyoning Turkiy xoqonligi tarkibida bo'lishi o'sha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo, Turk xoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jipslashuviga keng imkoniyatlar yaratib, O'rta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, avval Turkiy xoqonligi, keyin esa G'arbiy turkiy xoqonligining kudratli va ko'chmanchilarga xos shiddatli harbiy tashkiloti, sug'diylarning bevosita aralashuvi tufayli olib borgan diplomatik siyosati Xitoy, Vizantiya va Eronning O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davri xalqlari va elatlariga nisbatan olib borayotgan tajovuzkorlik siyosati yo'liga mustahkam to'siq qo'ydi.

Bepoyon dasht va chul hududlarida, serhosil va sersuv vohalarda tashkil topgan ulkan davlat birlashmalari kattagina hududlardagi shaharlar, hunarmandchilik, madaniyat, savdo-sotiq va o'zaro aloqalarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Masalaning yana bir eng muhim tomoni shundaki, Turkiy xoqonligi mavjudligi davri – ko'chmanchilar madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining o'z yo'nalishi va jihatlari ega bo'lgan o'ziga xos va betakror tarmog'i bo'lib, o'troq aholi madaniyati bilan aralashib, uyg'unlashgan madaniyat paydo bo'lishi davri bo'ldi.

3. Islom dini. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr.

Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri – bu Arab xalifaligi. Arab xalifaligi davri O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Hindiston, Pireney yarim oroli va Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o'ziga xos yuksalish davrim belgilab berdi. Arab istilochilari xususida shubhasiz eng asosiy mu'ammolarni arab, musulmon mualliflari berib o'tishgan. Shu xususda, jumladan al-Balazuriyning «Futuh al buldon» (Mamlakatlarning fath etilishi), at-Tabariyning «Tarixi rasuli va muluk» (Payg'ambarlar va podshohlar tarixi) asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom dinining vatani Arabiston yarim orolidir. Arablar semit qabilalari guruhiga mansub bo'lib, asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirishgan. Ko'chmanchilar **badaviylar** deb yuritilgan. Huhulardagi aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dengiz bo'yli, vohalarda shaharlar qad rostlagan bo'lib, ularda asosan savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan kun ko'radigan aholi yashar edi.

VI asrning ikkinchi yarmi, VII asrning birinchi yarmidagi arab ijtimoiy hayoti juda murakkab va rang-barang edi. Unda urug'-aymoqchilik munosabatlari endigina kurtak ochib kelayotgan feodal munosabatlar bilan chatishib ketgan edi. Aholi ichida ko'p xudolik-butparastlik urf edi (xususan, Ka'bada 360 ta but bo'lib, ularning eng yiriklari Hubal va Lut bo'lgan).

Shunday vaziyatda islom to'g'ri va haq yo'lni ko'rsatuvchi din sifatida yuzaga keldi. Islom-bu Alloh yagona deb e'tirof etib, unga bo'ysunmoqlik va butun qalbi bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Islom «itokat», «bo'ysunish» ma'nolarini bildiradi. Bu dinning asoschisi Muhammad (s. a. v.) payg'ambar (570–632) makkalik Abdullohning o'g'li bo'lgan. Uning bobosi Abumutallib quraysh qabilasining boshlig'i bo'lgan.

Muhammad payg'ambarning ta'limotiga ergashganlarni «muslim» («musulmon»), ya'ni «itokatkorlar» deb yuritishgan. O'z payg'ambarlik faoliyatini Muhammad Makkada boshlagan. Makka Arabiston yarim orolining G'arbiy qismidagi Hijoz viloyatida joylashgan shahar bo'lib, bu yerda Ka'ba joylashgan edi. Diniy ta'limotga ko'ra Ka'bani Odam Ato barpo qilgan bo'lib, uni Ibrohim payg'ambar o'z o'g'li Ismoil bilan birga qayta qurgan va birinchi haj safarini uyushtirgan. Ka'baning ichi-

da muqaddas tosh «Hajar-ul-asvod» o'rnatilgan. Har yili bu muqaddas joyga mln.lab musulmonlar ziyoratga kelishadi.

Muhammad (s. a.v.) payg'ambar muslim (musulmon)larning yagona Alloh oldida teng ekanliklarini, Yaratganning o'zi rizq-ro'z ulashishini, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi jazo muqarrar va har bir kishi bu dunyodagi ishlariga ko'ra taqdirlanishi, inson Yaratganga, yolg'iz Allohgagina e'tiqod qilishini targ'ib qiladi. Bu ta'limot aholining barcha qatlamlari manfaatlariga mos bo'lib, tez orada, birinchi navbatda shahar ahli ichida tarqala boshlaydi. Lekin, yangi din tarafdorlarining ahvoli ularning e'tiqodlariga ko'ra og'irlashib borgandan so'ng bir qism musulmon aholi Habashistonga, ba'zilar Shimolga qarab kyetishga majbur bo'lishgan. Muhammad ham o'ziga qarshi turgan quraysh qabilasi a'zolarining ta'qibi kuchayib ketgan 622-yil 16-iyulda (ba'zi adabiyotlarda 15 iyul deyiladi) o'zining eng yaqin do'sti va safdoshi Abu Bakr bilan Makkadan Madinaga ko'chishga majbur bo'ladi. Bu arab tilida «hijrat» deb atalib, shu kundan boshlab musulmon olamida qabul qilingan hijriy yil boshlanadi. (Hijriy yil hisobi 2 xil bo'ladi: hijriy-qamariy, ya'ni oy hisobi bo'yicha va hijriy-shamsiy, quyosh hisobi bo'yicha).

Madinada Muhammad payg'ambar (s. a. v.) o'z ta'limotini davom ettiradi. Madinada shuhrat qozongan makkaliklar butparastlik g'oyalariga qarshi ham harbiy, ham siyosiy zarba bera boshlaydilar. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar vafot etgach (632-y), ketma-ket «Xulofoiy rashoddin» (haq yo'ldan borgan sahii xalifalar) nomlarini olgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar (661-yilgacha) payg'ambar siyosatini davom ettirib, Arabiston yarim orolida markazlashgan – Arab xalifaligi davlatiga asos soladilar. O'zaro qabilalar birlashuvi, dini islomning yoyilishida ilohiy muqaddas kitob Qur'onning o'rni nihoyatda katta bo'ldi.

VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalifalik kengaya borib o'z chegaralarini G'arb va Sharq tomon kengaytirishga harakat qildi. Yaqin va O'rta Sharqning boy viloyatlari qo'lga olinib, nihoyatda uyushgan va jangovar arab qo'shini shiddat bilan harakatlarini boshlab yuborgan edi. Bir vaqtning o'zida arablar o'z yurishlarini Vizantiya va Eronga qarshi olib borishdi. Sosoniylarning so'nggi vakili Eron shohi Yo'zdigard III (632–651) arablarga qarshi turishga harakat qildi. Lekin, Kadisiya (636 y.) va Nahavand (642-y.)dagi janglarda arablar qo'shini forslarga qaqshatqich zarba berib Sosoniylar sulolasiga barham berishdi. Vizanti-

ya qo'shi qilingan harbiy harakatlar natijasida Falastin, Misr, Suriya, Eron egallandi. Xalifa Umar ibn al-Xattob (634–644) davrida ilk bora arab istilochilari Xuroson chegaralarida paydo bo'lgan edilar.

Arab xalifaligi VII asrning boshlaridan boshlab o'z hududlarini G'arb va Sharq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan, 642-yilda Nahavanddagi jangda Eron sosoniylari tor-mor etilgach O'rta Osiyo yerlariga hujum uchun imkoniyat yaratiladi.

Arablar O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni egallash bilan boshlanadi. Arablar Amudaryo (Jayhun)dan Shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr», ya'ni «daryoning ortidagi yerlar» deb nom berishadi. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut byergan ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad payg'ambarning shaxsan o'zi Movarounnahrni bo'ysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga e'tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da'vat etgan.

652-yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo'ldilar. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movarounnahrda hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yilda Chag'oniyonni egallashga muvaffaq bo'ladi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. 657-yilda arablar Chag'oniyonga qayta yurish qilib eftaliylarga kuchii zarbalar berishadi. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Manbalarning ma'lumot berishicha, Movarounnahrda yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko'chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo'ldi.

673-yilning oxiri – 674-yilning boshlarida arablarning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Movarounnahrda hujum qilib Romiton va Poykandni egallaydi hamda Buxoro shahrini qamal qiladi. Ammo, buxoroliklar va turklarning ittifoqchi qo'shinlaridan qattiq qarshilikka uchragach, sulh tuzishga majbur bo'ladi.

676-yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon Buxoroga yurish qilib Buxoro malikasi Xutaxoto'n qo'shinlarini tor-mor etadi va Samarqandga hujum boshlaydi. Ammo, bir oy davom etgan bu urushda sug'diylar arablarga qattiq qarshilik ko'rsatishadi. Natijada arablar sulh tuzib orqaga qaytadilar va yo'l-yo'lakay Termizni talon-

toroj etadilar. 683-yilda xalifa Yazid vafot etganidan so'ng xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrda hujum qilishdan deyarli to'xtab, o'z ichki nizolari bilan band bo'lib qoladilar. Xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685–705) davrida o'zaro ichki kurashlarga chek qo'yilib arablar Movarounnahrda jiddiy harbiy harakatlar boshlaydilar.

Umuman olganda, arablarning yarim asr davomida Xuroson noiblari Abdulloh ibn Amir, Ubaydulloh ibn Ziyod, Sayd ibn Usmon, Salmo ibn Ziyod kabilar tomonidan uyushtirilgan hujumlari talon-toroj qilish, o'lkadagi harbiy-siyosiy vaziyatni o'rganish, boyliklarini olib kyetish maqsadida uyushtirilgan edi. 705-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlangach, Movarounnahrni butunlay bosib olish harakati boshlanadi. O'rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga nihoyatda qo'l kelgan edi. 706-yilda u katta qo'shin bilan Movarounnahrda yurish boshladi va Poykand shahri 15 kunlik qamaldan so'ng egallandi.

Arablar qarshi turklar, sug'diylar, umuman, mahalliy aholi o'zaro ittifoq tuzishga erishgan bo'lsa-da, Qutayba nayrang yo'li bilan bu ittifoqni buzishga muvaffaq bo'ldi va 708–709-yillarda Buxoro va uning atroflariga bir necha marta yurishlar qilib Buxoroni zabt etdi. Qutayba 710-yilda Shuman, Nasaf va Keshni egalladi. 710–712-yillarda Samarqand ixshidi Tarxun va Xorazmshoh Xurzod Qutayba bilan tinchlik sulhi tuzib unga yirik miqdorda boj to'laydi. Ammo, Samarqand aholisining tovon to'lashga qarshilik ko'rsatishi, norozilik natijasida Tarxunning taxtdan kyetishi va o'limi, Sug'd podshosi va Samarqand afshini sifatida G'urakning taxtga o'tirishi arablarning Samarqandga hujumlari uchun bahona bo'lgan edi. Shuningdek, Qutayba «Tarxunning o'limi uchun qasd olaman», deb e'lon qildi va Samarqandga hujum uyushtirib, 712-yilda uni bosib oldi. Mug' tog'i hujjatlarining ma'lumot berishicha, 712–713-yillarda Sug'd, Choch, Farg'ona va Panjikent hokimlari arablar qarshi ittifoq tuzib vaqtincha g'alabalarga erishgan bo'lsa-da, Qutayba bu ittifoqqa raxna solib, ularni tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. 714-yilda Qutayba ibn Muslim turklardan kelayotgan yordam kuchini to'xtatib qo'yish maqsadida Choch vohasiga qayta bostirib kirdi va Isfijobni egalladi. 715-yilda Qutayba Farg'onaga ikkinchi marotaba yurish uyushtiradi. Shu yili Qutayba o'ziga dushman bo'lgan xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko'taradi va mag'lubiyatga uchrab, o'ldiriladi.

Shunday qilib, arablar qisqa muddat ichida Movarounnahr hududlarini bosib oldilarki, buning sabablari quyidagicha edi:

1. O'lkada hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlarning o'zaro kurashlari arablar juda qo'l kelgan edi. Chunki, parokanda va siyosiy jihatdan tarqoq hududlarni alohida-alohida zabt etish Qutayba uchun qulay edi.

2. O'zaro birlashish harakatida bo'lgan va ittifoqchilik uchun harakat qilgan mahalliy hokimlar orasiga Qutayba turli nayranglar bilan raxna solishga erishgan edi.

3. Arablar o'zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini engishi uchun yordam ko'rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birlashtirib bo'ysundirdilar. Misol uchun, Sug'dni zabt etishda Qutayba arab qo'shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi.

4. Arablar Movarounnahrda qadar juda katta hududlarni bosib olgan bo'lib, katta boylik va harbiy zaxiralarga ega edilar. Arablar qo'shiniga muntazam ravishda bosib olingan yerlar va ichki viloyatlardan yangi harbiy kuchlar safarbar kilinib turilar edi.

4. Arablar bosqiniga qarshi kurash.


Movarounnahrda hijriyning 100-yilida (719-yil) arab hokimiyati tugaydi degan gap-so'zlar tarqala boshlaydi. Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo'lib, 720-yilda Sug'd aholisi bosh ko'taradi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qilishadi.

Sug'dlarga yordam berish uchun turkiy xoqon shahzoda Ko'rsul boshchiligidagi turkiy lashkarini Samarqandga yuboradi. Sug'ddagi qo'zg'olon umumxalq qo'zg'oloniga aylanib ketadi. Qo'zg'olonchilar arablar zarba bera boshlaydilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab harbiy qismlarigina katta boj va e'tiborli vakillarni qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar. Xuroson noibi Sayid ibn Abdulaziz bu qo'zg'oloni bostirishga muvaffaq bo'lolmaydi.

721-yil Xalifa Yazid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Xuroson noibi etib Sayid ibn Amir al-Xaroshiy tayinlanadi. U Iroqdagi xalq qo'zg'olonini bostirishda o'z shafqatsizligi bilan nom chiqargan edi. Sayid al-Xaroshiy qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralar nati-

jasida G'urak boshliq zodagonlarning bir qismi arablar tomoniga o'tib ketadi. Qo'zg'olonchilardan bir qismi esa kurashni davom ettirishni lozim ko'rishadi. Arablar 400 ta boy savdogarlardan boshqa hamma Sug'd qo'zg'olonchilarini qirib tashlashadi. Qo'zg'olonchilarga yordam byergan Xo'jand ahli ham jazolanadi.

Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arab hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashras ibn Abdulloh (727–730-y.) islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya solig'i olishni bekor qiladi. U islom dinini keng targ'ib qila boshlaydi. Chegaradagi yerlarda yangi istehkom qurilib, chegaralar mustahkamlana bordi. Lekin g'aznaga kam daromad tushayotganligi, zodagonlarning shikoyati tufayli xirojni qayta tiklaydi. O'z siyosatini targ'ib qilish maqsadida ikkita taniqli arab ruhoniysi As-Sayid Soliq va Robiya ibn Umranni Samarqand va Buxoroga jo'natadi. Xiroj solig'i zodagonlardan ham, kambag'allardan ham zo'rlab undirila boshlanadi.



Arab xalifaligi. VIII asr oxiri – IX asr boshlari.

Samarqandda Abu Sayid boshchiligidagi 700 ta sug'dliklar xiroj to'lashdan bosh tortishadi. Ular shahardan 7 farsax nariga o'tib, qarshilik harakatiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. Abu Sayidni hiyla ishlatib muzokara uchun Samarqandga chaqirtirishadi va o'sha erning o'zida uni va safdoshlarini zindonband etishadi.

O'zaro kurashlar, 733–734-yillardagi Zarafshon vohasidagi qurg'oqchilik, mustamlaka zulmining kuchayishi – bularning hammasi Movarounnahrda norozilikning yanada avj olishiga olib keldi. Norozilik arab harbiylari va qisman zodagonlar ichida ham kuchaya bordi. Shu paytga kelib xorijiy harakati va mafkurasi yanada keng tarqala boshlandi. Xorijiy yuqorida qayd qilinganidek, shialar guruhidan VII asr oxirida ajralib chiqqan bo'lib, bu so'zning lug'aviy ma'nosi qo'zg'olonchilar degani edi. Avval boshda bu harakat oddiy arab va boshqa musulmon xalqlarning manfaatlarini himoya qilar edi. Keyinchalik bu guruhdan ibodiyalar, azrakiylar va boshqa jamoalar ajralib chiqqan. Xorijiyar ta'limotiga ko'ra musulmonlar-zimmiylar (boshqa dindagilar) ustidan hukmron bo'lishlari kerak edi.

Movarounnahrda Xorijiyar harakatiga shu paytda Xoris ibn Suroj boshchilik qiladi. Xoris Movarounnahrda tezda shuhrat qozondi. U Samarqand va Dabusiya'dagi Abu Sayid tarafdorlarini o'z qo'li ostida to'pladi. Abu Fotima uni yordamchisi va harbiy maslahatchisi etib tayinlandi.

Xoris Ummaviy xalifalarni islomga rioya yetmaslikka ayblab, butun Xuroson va Marv aholisini xiroj va jizyadan ozod qilishni talab etadi. Kesh xalq ommasiga tayanib, u Xurosonning Shimoliga yurish qiladi. Uning qo'shini tarkibida Xuttalon shahzodasi Sabil, qarluq yabg'usi va Abu Fotima guruhi ham bor edi. Xalq harakatlaridan norozi bo'lgan xalifa Xurosonga yangi noib Osim ibn Abdullohni tayinlaydi. Xoris qo'shinlari Xurosonning katta qismini egallashib, Osimni chekinishga majbur etishadi. 735-yilga kelibgina xalifa yangi noib Asad ibn Abdullohni Xuroson valiyi etib tayinlab, katta kuch bilan Xorisga qarshi kurash boshlaydi. 736–737-yillarda Asadning qo'shini Xurosondan Xorisni siqib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, talablari ham turlicha edi. Qo'zg'olonda aholining deyarli hamma tabaqalari qatnashadi.

Albatta, hukmdorlar o'rtasida o'zaro nizolar, xiyonatkorona harakatlari, qurol-yarog'ning yetishmasligi, yaxshi uyushmaganlik va boshqalar

o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa ham, qo'zg'olonchilar izsiz qolmay xalifalik siyosiy harakatida o'zining aksini topdi.

Ulkan xalifalikni 661-yildan boshlab Ummaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko'p siyosiy o'zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarning kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo'ravonlik, adolatsizlikning avj olishi ro'y berdiki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. O'rta Osiyoda va boshqa xalifalik yerlarida xalifalikka qarshi norozilik kayfiyatlari kuchli edi. Ularning soliq siyosatidan, zo'ravonligidan quyi tabaqalar, o'z huquqlarining kamsitilganidan esa yuqori tabaqalar norozi edi. Ummaviylarning hokimiyatini arab aholisi ham qo'llamas edi. Ularning hokimiyatga kelishini turli guruhlar, muxolifat kuchlari noqonuniy deb bilishar edi. Avvalo, xorijiyalar ularga qarshi bo'lib, xalifalik taxtining merosiy bo'lishini noto'g'ri deb baholar edilar.

718-yildan boshlab maxfiy tarzda Muhammad (s. a. v.) payg'ambarning amakilari Abbosning tarafdorlari o'z g'oyalarini targ'ib qila boshladilar. Ular hoshimiylar urug'i (payg'ambar shu urug'dan) vakillari hokimiyatga da'vogardirlar deb hisoblashar edilar. Keyinchalik ular o'z kurashlarida shialar bilan birga harakat qila boshlashadi.

Yerga egalik munosabatlarning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi ummaviylarning siyosiy sahnadan kyetishlarini, ularning avv. mavqei tugaganligini ko'rsatib turar edi. Ummaviylar siyosatidan ommaviy norozilik ayniqsa Marvon II (744-750 y.) hukmronlik davrida kuchayib ketdi. Marvon II ning xiroj solig'i miqdorini ko'paytirish va mahalliy xalqlar vakillarini og'ir qurilish ishlariga keng jalb qilishi norozilikning alanganishiga olib keldi. Movarounnahr va Xurosonda Abbosiylar vakillari katta yer egalarini o'zlari tomonga jalb qilishga harakat qiladilar. Abbosiylar vakillari xalifa Xishom (724-743 y.) davridayoq O'rta Osiyoda harakat qila boshlagan edilar. Ularning targ'ibotchilari ta'qib ostiga olinar, ular qo'lga tushgudek bo'lsa, qo'l-oyoqlari kesilar edi. Ayniqsa, Nasr ibn Sayyor abbosiylar va shialarning katta dushmani bo'lib ularni doimo ta'qib etib kelar edi. Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etdi. 746-yil Abu Muslim abbosiylar targ'ibotiga boshchilik qilish uchun Xurosonga yuboriladi. Abu Muslimga «Payg'ambar xonadonining ishonchli vakili» degan unvon beriladi.

O'z tashviqotini Abu Muslim Xuroson zodagonlariga murojaat qilish bilan boshlaydi. U Marv shahridan uch farsah G'arbda Xarkon urug'i sohilidagi Safizanj qishlog'ini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Abbosiylarning ramziy rangi va bayrog'i qora rangda edi. Shu sababli Abu Muslim va uning tarafdorlari qora kiyim kiyib yurishadi. Xuroson aholisiga murojaatida u Qur'on va hadislarga amal qilishga, payg'ambar avlodlariga bo'ysunishga chaqiradi. Keyinchalik mahalliy zodagonlar ham uni qo'llab-quvvatlay boshlaydilar. Abu Muslim tashviqoti Movarounnahr va Xuroson yerlarida tezlik bilan tarqala borib, uning tarafdorlari soni orta boshlaydi. To'planayotgan otliq va piyodalarga bosh bo'lib, Abu Muslim Moxuvon qal'asiga ko'chib o'tadi. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslimga qarshi arab zodagonlari vakillarini birlashtirishga harakat qiladi. Lekin, uning barcha harakatlari zoe ketdi. U Abu Muslimga yurak yutib kurash boshlashga qurbi etmay, 748-yilda Xuroson poytaxti Marvni tashlab chiqib Nishopurga yo'l oldi. Nishopurda unga Abu Muslimning sarkardalaridan biri qaqs-hatqich zarba berib uni mag'lubiyatga uchratdi.

749-yili Abu Muslim qo'shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qiladi. Iroq va Jazoirda ummaviylarga hal qiluvchi zarba beriladi. Qo'zg'olonchilar poytaxt – Damashqni ham qo'lga kiritadilar. Xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Abbosiylardan bo'lgan Abulabbos Saffoh (749-754-y.) xalifalik taxtiga o'tiradi. Joylarda Ummaviylarning barcha vakillari qirib tashlanadi. Shunday qilib arab xalifaligi hokimiyati Abbosiylar qo'lga o'tadi.

751-yil Buxoro shahrida Shorik ibn Shayhulmahriy boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodidan xalifa tayinlash shiorini ko'tarib chiqishadi. Abu Muslim qo'zg'olonn bostirishda Ziyod ibn Solih boshchiligidagi 10.000 kishilik qo'shin yuboradi. Bu qo'zg'olon faqatgina Buxorxudot Qutayba ibn Tug'shodning yordami bilangina bostiriladi.

Abu Muslim O'rta Osiyoning Shimoliga kirib kelgan Xitoy imperatorining qo'shiniga ham hal qiluvchi zarba beradi. 751-yil Talas vodiysidagi xitoyliklar bilan bo'lgan jangdan so'ng Xitoy qo'shini haydab chiqariladi. Shu bilan xalifalikning Shimoliy chegarasi ham mustahkamlanib, qat'iy chegara o'rnatiladi. Xalifalikning ta'siri butun O'rta Osiyo hududida asosiy va qonuniy bo'lib qoladi. Garchi Abu Muslim sadoqat ila xizmat qilsa-da, arab hokimiyati unga ishonmas edi. Xali-

fa unga jangga yuborish haqida noma yo'llab uni markazga kelishga majbur qiladi. 755-yil haj safaridan qaytayotgan Abu Muslim Xalifa tomonidan xiyonatkorona Bag'dodda o'ldiriladi. Uning o'limi xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo'ldi. Uning murdasi Samarqandga olib kelinib Xo'ja Temim Ansoriy maqbarasi yoniga katta hurmat bilan ko'miladi.

Abbosiy xalifalar davrida xalq ommasining ahvoli yanada og'irlashdi. Sug'orilmaydigan yerlardan hosilning yarmi, sug'oriladigan erlardan 1/3 qismi soliq olina boshladi. Ko'p holda soliqlar bir marotaba o'rniga ikki marotaba ham olinadigan bo'ldi. Ozod jamoalarning huquqlari cheklab qo'yildi. Yerlar zodagonlar tomonidan ijarador dehqon – kadirarlarga bo'lib berila boshlandi. Hamma hashar qurilish ishlarida aholi tekin ishlab berishi lozim edi. Shahar hunarmandlarining ahvoli ham og'ir bo'lib, ular o'z mahsulotlaridan katta soliq to'lashardi. Shuningdek, og'ir soliqlar ko'chmanchi chorvadorlar bo'yniga ham qo'yilar edi.

Shunday bir ahvolda xalq harakatlari kuchayib ketadi. Abu Muslimning o'chini olish shiori ostida uning safdoshi Sumbod boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi. 755-yilda ko'tarilgan bu qo'zg'olon tez orada Xuroson va Tabaristonga ham yoyiladi. 70 kun davom etgan bu qo'zg'olon qattiqqo'llik bilan bostirilib Sumbod Rayda qatl etiladi. Garchi u qatl etilsa-da, Abu Muslim tarafdorlari yashirin «muslimiya» guruhiga asos solishadi.

VIII asrning 70–80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar oq rangdagi kiyim kiyganligi uchun tarixda u «oq kiyimlilar» qo'zg'oloni deb ham shuhrat qozonadi. Bu qo'zg'olonning rahbari Muqanna (boshi va yuziga yoping'ich tashlab yurgani uchun unga shunday laqab berilgan) edi.

«Muqanna Marv atrofi aholisidan, – deyiladi «Buxoro tarixi» nomli Narshaxiy asarida, Qo'za deb atalgan qishloqdan bo'lib, asl nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungar (kigiz bosuvchi)lik qilar edi, keyin ilm o'rganishga mashhur bo'ladi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rganadi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib payg'ambarlik da'vosini ham qiladi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib, qadimgi olimlar ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikdan ustoz bo'lgan edi. Uning otasini nomi Hakim, u Abu Ja'far davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan bo'lib, asli Balxdan edi».

Qo'zg'olon 776-yili boshlanadi. Muqanna o'zining 36 ta muridi bilan Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorxudot tug'shod uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som (Sanam) qal'asini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. Muqanna ta'limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish g'oyalarini targ'ib etar edi.

Muqanna ta'limoti Sug'd, Iloq (Ohangaron), Shoshda ham yoyila boshladi. Qo'zg'olonda turli ijtimoiy guruhlar vakillari qatnashib, ularni bir fikr istilochilarini mamlakatdan haydab chiqarish, mustaqil davlat barpo qilish g'oyasi birlashtirib turar edi.

Qo'zg'olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 776-yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda yuboradi. Biroq Jabroil qo'zg'olonchilardan engiladi. U katta talofatlar berib bazo'r Samarqandga yetib keladi. 10.000 askar bilan Jabroilga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim Kesh va Samarqand oralig'ida, G'ariga boshliq 14.000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Natijada Chag'oniyon qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi.

Qo'zg'olon markazi Narshaxda, Buxoro atrofida joylashadi. Shu yili Narshax yaqinida Buxoro hokimi Xusayn ibn Muvoiz va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo'shini o'rtasida to'rt oy jang bo'ladi. «Oq kiyimlilar» bu jangda qo'llari avval ustun keladi, keyinchalik son jihatdan ko'p bo'lgan arablar Narshax qal'asi devor ostidan uzunligi 50 gazli chuqur qazib, uni qulatib qal'aga kiradilar. Narshax qal'asi arablar tomonidan egallanadi. Kesh va Samarqand endilikda qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanib qoladi.

Kurashning oxirgi bosqichi Kesh vohasi (Qashqadaryo)da juda avj oladi. Muqanna qarorgohi bo'lgan Som (Sanam) qal'asini qamal qilish Xaroshiyga topshiriladi. Uzoq vaqt qamaldan so'ng muqannachilar taslim bo'ladilar (VIII asr 80-yillari boshlarida).

O'z davrining eng qudratli davlati bo'lgan xalifalikni larzaga solgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa tugaydi. Bu qo'zg'olonning yengilishiga bir necha sabablar bor edi. Avvalo, qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar alohida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat zodagonlar tomoniga o'tib kyetishadi. Muqannaning o'zi Som yo'lga kirib arablar tomoniga o'tib kyetishadi. Muqannaning o'zi Som

(Sanam) qal'asida bo'lib bevosita qo'zg'olonga rahbarlik qila olmadi. Uning o'zi umumiy tenglik g'oyasini ko'tarib chiqib, o'zi kichik davlat boshlig'iga aylana bordi.

O'zaro urushlar natijasida aholi juda charchadi, ekinzorlar payxon qilindi, iqtisodiy tanazzul boshlana bordi. Muqannadan so'ng uning safdoshlari harakati ham bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon xalifalik kuchini zaiflashtiradi va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlarini chiqishiga turtki bo'ladi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, islom dinining ko'p jihatdan afzalligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uni tez orada qabul etilishiga sabab bo'ladi. Qutayba singari uni pul va qilich bilan joriy etish mumkin emas edi. Qachonki islom mohiyatiga etilgachgina unga rag'bat va e'tiqod kuchayib ketadi. Soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur'on va shariat ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Alloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirar edi. Islomning xalqparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, islom dini ma'naviy bo'shliqni tugatdi. Diyorimizda ota-bobolarimiz dini – islom faqatgina mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi.

Mustaqillik yillarida buyuk diniy arboblari – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Abdulhomid G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband va boshqalarning tavallud yoshlarining keng miqyosda nishonlanishi, ularning oxirgi manzilgohlarini obod qilib, ziyoratgohlarga aylantirilishi, diniy bayramlarimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizning tiklanishi, dindorlarga o'z e'tiqod huquqlarining qaytarib berilishi, qator masjid-madrasalarining, xalqaro islom tadqiqot markazi, Islom universitetining ochilishlari va boshqa xayrli, savobli tadbirlar musulmon olamining bir qismi bo'lgan O'zbekistonda haqiqatda muqaddas islom diniga qanchalik ehtirom bilan qaralayotganligining yorqin isbotidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Soliq siyosati. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgach bu hududdagi hamma shahar va aholi yashash joylarida o'z qo'shinlarini joylashtirishdi. Bu harbiy kuchlar o'z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o'tgan Movarounnahr hududida ko'pgina yirik yer egalari – dehqonlarning mavqei avv. holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga bo'ysunishardi.

Davlat VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shu davrda yirik dehqon urug'-aymoqlari qo'li ostidagi yer-mulklarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o'tishi ro'y beradi. Arab qo'shini tarkibiga mahalliy aholi bilan ko'plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo'ldi, bir qismi asirga olindi. Harcha shahar va qishloqlarda o'z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik yer egalari o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo'lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishini ta'minlar edi. O'rta asr mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, dehqonlar qo'li ostida qishloq jamoalari bo'lib, bu jamoadan yer olgan kishilar xiroj to'lashgan. Dehqonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va qo'rg'onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko'rib chiqilgan.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o'z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to'lashardi.

Arablar iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarimaslik maqsadida bosib olingan hududlarda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qilishdi. Bular asosan quyidagilar edi:

Qavonin yoki mukati'a – mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in.

Maqosima – hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan.

Misoxa – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e'tibor berilmagan.

Bu soliq tizimiga er solig'i – xiroj (hosilning o'ndan bir yoki o'ndan ikki kismi miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan zakot (qirqdan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan – jizya solig'i ham qo'shilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, arablarning O'rtalari va oxirlariga kelib Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirib bo'lingan edi. Bu davrda Movarounnahrda Sug'd, Shosh, Farg'ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston kabilardagi mahalliy hokimlar zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig'ish, ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g'oyalarini aholi o'rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan katta nazorat ostiga olingan bo'lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishi shart bo'lgan.

Arablar istilosidan keyin Movarounnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etildi. Islom huquqshunosligining asosini tashkil etuvchi shariat muqaddas kitob – Qur'oni karim va Hadisi sharifga hamda fiqhshunos olimlarning turli savollarga javoblari va qarorlariga tayanar edi. Masalaning yana bir jihati shundaki, Islom dinining ko'p jihatdan afzalligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyati arablar bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo'ladi.

Tayanch so'zlar

Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Qidar, Piro, «oq xunlar», Prokopiyy KesarSKIY, tegin, xoqon, Lazar ParbSKIY, massagetlarning yetakchi urug'i, «Madinat-at-tujjor», qal'ali istehkomlar. Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, «kamori chochiy», ma'muriy markaz, Zahariq, Darg'om, «kadivar»lar, shahar:shoh Pero'z, xalqaro savdo, buddaviylik, xristianlik, moniylik, episkoplik, metropoliya, turk el, turkash, tukyu, tuqduS, qabila boshlig'i Abanbu, Asan, Asyan-shod, Tuu, Bumin, xoqonlar, Katta Xingan tog'lari, siyosiy va madaniy meros, kishkiyalik Zemarx, Bahrom Chubin, Arslon To'ba, G'arbiy Turk xoqonligi, So'yob, yabg'ular, tudunlar, To'n yabg'u, «o'n o'q eli», «shod», ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, «qora budun», malikshoh, «daryoning ortidagi yerlar»,

Qutaybu ibn Muslim, Tarxun, G'urak, Divashtich, Sharik ibn Shayxulmayr, Ali avlodlari, Devon ad-dar, qavonin, maqosima, misoxa, xiroj, jiryo.

Savol va topshiriqlar

1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylarning siyosiy hamda etnik tarixi haqida so'zlab bering.
2. Eftaliylarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Eftaliylar davri madaniy hayoti haqida ma'lumot bering.
4. Turk xoqonligining siyosiy tarixini so'zlab bering.
5. G'arbiy Turk xoqonligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Turk xoqonligidagi davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
7. Xoqonlikdagi madaniy hayot, hunarmandchilik, savdo-sotiq qanday kechgan?
8. Arab xalifaligi siyosiy tarixini gapirib bering.
9. Qanday sabablarga ko'ra arablar qisqa muddatda Movarounnahr yerlarini bosib olgan edilar?
10. Arablarning davlat boshqaruvi va soliq siyosati haqida nimalarni bilasiz?

4-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg'ozii. Shajarai Turk. – Toshkent: «Cho'lpon», 1990.
2. Bamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent, 1991.
3. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. – Toshkent: «Fan», 2007.
4. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – Toshkent: «Fan», 1991.
5. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. – Toshkent, 1993.– 6. Sagdullayev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.
6. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas'ul muharrirlar D.A. Alimova, E.B. Rtveldze. – Toshkent: «Sharq», 2001.
7. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

5-mavzu. IX–XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.

Peжа:

1. Arab xalifaligining parchalana borishi. Tohiriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.
2. Somoniylar hukmronligi davri.
3. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari.
4. Xorazmshohlar – Anushtaginiylar davlati.
5. IX–XII asrlarda madaniy yuksalishning shart-sharoitlari. O'rta Osiyolik buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi.
6. Xorazm Ma'mun akademiyasining ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni.
7. IX–XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar. Me'morchilik va san'at.

1. Arab xalifaligining parchalana borishi. Tohiriylar davrida Movarounnahr va Xuroson.

Tohiriylar sulolasi tarixi bo'yicha tarixiy manbalar orasida Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al-komil fit-tarix» kitobi Tohiriylar hukmronligi voqeligini nisbatan batafsil bayoni bilan ajralib turadi. Mazkur kitobda, ayniqsa, Tohiriylarning hukmronligi o'rnatilishi masalasi bilan bog'liq voqealar mufassal bayon etilgan. Ibn al-Asir o'z asarida ko'p holda at-Tabariyning «Tarixi ar-rusul va al muluk» asariga tayangan edi. Chunki, aynan at-Tabariyning (Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy) asraida ko'plab muhim tarixiy voqealar jarayonlari aks etgan. Shuningdek, noma'lum muallifning «Tarixi Seyiston», Abu Said Gardeziyning «Zayn al-axbor» asarlarida ushbu davr tarixiga oid ma'lumotlar mavjud.

XX asr tarixshunosligida Tohiriylar hukmronligining u yoki bu jihatlari B. Bartold, S. Len-Pul, R. Fasmer, K. Bosvort asarlarida o'z aksini topgan. Eron tarixchisi S. Nafisiyning «Tarixi xonadoni Tohiriylar» (Tehron, 1956) asari shu yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida chuqur ko'lami bilan ajralib turadi.

IX asrga kelib O'rta Osiyo, xususan Movarounnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka bo'lgan intilishlari kuchayib ketdi. Chunonchi, xalifalikning ichki hududlarida ham ziddiyatlar keskinlashib borayotgan edi.

Xususan, Ispaniyadagi Ummaviylar, Marokashdagi Idrisiylar, G'arbiy Jazoirdagi Rustamiylar, Ifrikiya, Sharqiy Jazoirdagi Ag'labiylar, keyinchalik Misr va Suriyadagi To'luniylar o'zlarini xalifalikdan deyarli mustaqil tuta boshladilar.

Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirish uchun yo'l olgan xalifa Xorun ar-Rashid 809-yilning mart oyida Xurosonning Tus shahrida vafot etdi. Xalifaning hokimiyatga da'vogar ikki o'g'li bo'lib, katta o'g'il Abdulloh 798-yili Xuroson va xalifalik Sharqiy yerlari hokimi etib tayinlangan edi. Abdulloh ona tomonidan kelib chiqishiga ko'ra zodagonlarga borib taqablmagan. Shu bois ham xalifa uni kichik o'g'li Muhammaddan keyin voris bo'lishini e'lon qilgan edi. Abdullohga «al-Ma'mun» (arabchasiga «omadli», «iqboli baland») faxrli taxallusi berilgan. Kichik o'g'il Muhammadga esa «al-Amin» (arabchasiga «ishonchli», «sadoqatli») taxallusi berilib u Iroq, Suriya, Mag'rib yerlari bilan chegaradosh yerlarning hokimi etib tayinlangan edi.

Xorun ar-Rashid vafot etgan vaqtda al-Ma'mun Xurosonning mar-kaziy shahri Marvga, sobiq xalifaning buyrug'iga ko'ra yetib kelgan edi. Al-Aminning xalifa sifatida taxtga o'tirishini (809–813) avval boshda Ma'mun oldindan berilgan va'daga muvofiq xotirjamlik bilan qabul qildi. Lekin, tez orada al-Amin o'z valiahdi sifatida o'g'li Musoning tayinlashi aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Tabiiyki, taxtga da'vogar bo'lgan al-Ma'mun yangi xalifaning bu qarorini qabul qila olmas edi. Garchi al-Amin tarafdorlari ancha bo'lsa ham, uning sa'y-harakatlariga ko'pchilik harbiylar norozilik bildirishdi. Samarqandda qo'zg'olon ko'targan Rofe ibn Lays al-Ma'munning hokimiyat masalasida avval boshida tutgan vazminligini qadrlab, o'z isyoniga chek qo'ydi hamda undan uzr so'rab keldi. Al-Ma'mun uni gvardiya boshlig'i etib tayinladi. Musoning taxt merosxo'ri etib tayinlanishiga javoban al-Ma'mun al-Aminning nomini barcha rasmiy marosimlardan chiqarib tashlab, u bilan choparlar almashuviga chek qo'ydi. Ko'plab Xuroson va Erondagi aslzodalar ham Ma'munni qo'llab-quvvatlay boshladilar.

Tarixiy manbalarga asoslangan materiallarning xabariga ko'ra, Tohiriylar sulolasining birinchi vakili VII asr 80-yillarida Seyiston hokimi al-Huzayy dargohida xizmatda bo'lgan. Uning avlodlari Musa'ib, Husayn, Tohirilar Hirot viloyatidagi Bo'shang shahrini boshqarishgan.

Kelib chiqishi bo'yicha Hirot yonidagi Bo'shang shahri hokimi bo'lgan Tohir ibn al-Husayn al-Ma'munni qo'llagan holda unga xizmat qilishni boshladi. 811-yili Ray yaqinida Tohir ibn al-Husayn xalifa al-Aminning ishongan sarkardasi ibn Moxon (Ali ibn Iso ibn Moxon) boshchiligidagi qo'shinni mag'lub etdi. Ibn Moxon zulmidan aziyat chekkan aholi al-Ma'mun qo'shinlari faoliyatini qo'llab-quvvatladilar. Tohir ibn al-Husayn janglarning birida o'z shijoat va mardligini ko'rsatib, ikki qo'lda qilich bilan jang namunasini namoyon qilgan. Shu bois, Tohir «Zul Yaminayn» (arabchasiga «ikki qo'llab kurashuvchi») faxriy taxallusiga sazovor bo'lgan. Tohir ibn al-Husayn al-Ma'munga sadoqat bilan xizmat qila borib, 813-yili Bag'dodni egallashga muvaffaq bo'ldi. Al-Amin qo'lga olinib, Tohir ibn al-Husayn o'ziga topishtirilgan buyruq asnosida uni qatl etgan, Ibn al-Asimning yozishiga ko'ra sobiq xalifaning boshi avval minora peshtoqiga ilib qo'yilib, keyinchalik yangi xalifa al-Ma'mun ixtiyoriga, barcha xalifalik rasmiy ashyolari bilan jo'natildi.

Yangi xalifa al-Ma'munni (813–833) barcha qonuniy hukmdor sifatida tan oldi. Al-Ma'mun o'zaro nizolarni bartaraf qilish maqsadida 819-yilga qadar Marvdan turib hukmronlik qildi va faqatgina 819-yildagina Bag'dodga qaytib keldi. Al-Ma'mun Tohirning xizmatlarini inobatga olgan holda uni Bag'dod shahri hamda al-Jazira (Mesopotamiyaning Janubiy qismi) viloyatining hokimi etib tayinladi. Ta'kidlash joizki, Tohir ibn al-Husayn butun xalifalik hayotida katta rol o'ynovchi shaxs bo'lib qoldi. Al-Ma'mun Bag'dodga qaytib kelgach, o'z hokimiyatidan xavfsirab, Tohirni poytaxtdan chetlatishga qaror qildi. Ibn al-Asimning yozishiga ko'ra, xalifa o'ziga sadoqat bilan xizmat qilgan Tohirni inisi al-Aminni bir paytlar o'ldirganligini bahona qilib (holbuki buni al-Ma'munni o'zi buyurgan edi), qolaversa uni «makkor shaxs» deya atab, 821-yili Xurosonga hokim etib tayinladi. Shu davrda Movarounnahr hududi ham Xuroson tarkibiga kirar edi.

Xurosonga hokim bo'lib kelgan Tohir ibn al-Husayn xalifalik bilan munosabatlarini cheklay boshladi. Juma namozida xalifani oliy hukmdor sifatida tilga ham olmay qo'ydi. Bu holat xalifa hokimiyatini

tan olmasligidan dalolat berar edi. Shu tariqa Eron, Xuroson, Movarounnahr va unga tutash yerlarda yangi Tohiriylar (821–873) sulolasi hukmronligi yuzaga keldi. Xalifalik siyosatidan norozi ko'plab mahalliy zodagonlar yangi sulolani qo'llab-quvvatlay boshladilar. Tohirning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati xalifaga tabiiyki, maqbul bo'lmadi. 822-yili Tohir ibn al-Husayn o'z yotoqxonasidan o'lik holda topildi. Shubhasiz, uning o'limida xalifaning qo'li bor edi.

Tohirning o'limidan so'ng tez orada uning o'rniga o'g'li Talha ibn Tohir (822–830-y.) noib etib tayinlandi. Buning sababi shunda ediki, xalifalik aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo'zg'olonlarni bostirishda foydalanar edi. Xuroson noibining muhim yuzifalaridan biri esa o'ziga qarashli hududlarda viloyat hokimlarini saylash bo'lgan. Xususan, Tohir dastlabki somoniylar vakillarini Samarqand, Ustrushona, Farg'ona va Shoshga hokim qilib tayinlagan.

Islomlashtirish bayrog'i ostida Talha davrida ma'lum sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Xususan, 822-yili arab sarkardasi Ahmad ibn Abdulhamid boshchiligidagi qo'shni Ustrushonaga yurish qilib, uni butkul bo'ysundirdi.

Talxadan keyin taxtga o'tirgan Abdulloh ibn Tohir (830–844) otasi Tohirning mustaqillik tomon siyosatini davom ettirdi. Bu davrda Xuroson noibligiga Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko'histon, Tabariston va Jurjon hududlari kirar edi. Abdulloh davrida turkiy o'g'uz qabilalarga tegishli ba'zi yerlar ham egallandi. Uning farmoyishi bilan ko'chmanchi qabilalar hukmini bartaraf etish, munosib mudofaa tizimini yaratish maqsadida Farova va Dehiston qo'rg'onlari barpo etildi. Har bir viloyat bir necha ma'muriy birliklarga bo'linib, bu birliklar katta va kichik tumanlardan iborat bo'lgan. Abdulloh o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ayrim harbiy islohotlar ham o'tkazgan. Tohiriylar yuritgan siyosatning xususiyatlaridan yana biri, ularning islomlashtirish siyosati edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Tohiriylar davrida O'rta Osiyoning barcha hududlarida islom dini keng tarqaladi.

Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo'jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar bunyod etib, suvdan foydalanishni yaxshilash choralari ko'rdilar. Abdulloh ibn Tohirning (830–844) buyrug'i bilan o'lkadagi yirik qonunshunoslar sug'orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to'plami – «Kitob al-kuniy»ni tuzdilar. Ushbu qonunlar

yuz yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Tohiriylar shunday ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritganlarki, bu siyosat asosan aholining hukmron tabaqalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, bizga qadar saqlangan Tohir ibn al-Husaynning o'g'li Abdullohga yozgan vasiyat xatida shunday deyiladi: «Shuni bilginki, boylik ko'payib xazina to'lib-toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko'payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e'tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta'minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davroning emin-erkinligi shu bo'ladi, shuhrat va qudrat bag'ishlaydi; shu bilan birga, agar shunday ish yuritsang, yer solig'ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo'lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga saxovat qo'lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo'lasan, qo'shin saqlaysan va hammani o'zingga maftun etasan». Tohir o'z o'g'lini mana shunday siyosat yurgizishga chaqiradi Abdulloh ibn Tohir ko'p holda otasining maslahatlariga amal qilgan.

O'z davrida Abdulloh yirik yer egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim yerlardagi ziroatkorlarga nisbatan bo'layotgan nohaqliklarni cheklashga harakat qildi. U ziroatkorlarning ahvolini birmuncha tartibga soluvchi maxsus farmon e'lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda jumladan shunday deyiladi: «Alloh bizni ularning qo'li bilan boqadi, bizni ularni og'zi bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni taqiqlaydi». Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo'lgan, deb bo'lmaydi. U «dehqonlarga ozor bermaslikni» talab qilishiga sabab, bu-siz davlat xazinasiga yetarli soliqlar kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilingan bo'lishiga qaramay, Tohiriylar davrida aholi ko'pgina qatlamlarining, ayniqsa, ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og'ir bo'lib qolaverdi. Misol uchun, 844-yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdan katta miqdordagi mablag' to'plagan edi. Soliqlarning ko'pligi aholining qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan.

Manbalarda Tohiriylarning islomlashtirish siyosatida qat'iyat bilan turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirgan. Shuning uchun ham, Tohiriylar

islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom rahoniyalarini asosiy tayanch deb bilishgan. Talha ibn Tohir davrida qardushtiylik dini saqlanib qolgan Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

Mustahkam tartib saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o'ziga qarshi har qanday harakat yoki qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli – soliq yig'uvchilarning suiste'molliklariga yo'l qo'ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliqlar yig'ishda turli jinoyiy ishga qo'l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o'zboshimchaligini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon yetkazmaslik maqsadida Abdulloh o'z qo'l ostidagi o'ziga sodiq kishilar orasidan ayg'oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalanar edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar yetkazib turishgan. Uning davrida poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chirildi.

Tohiriylar davlati ko'p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. Shu bois, Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma'lumot olishini ta'minlashga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir ham bo'lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmi boshqarib turgan jiyani Mansur o'zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Abdullohning o'g'li Tohir II (844–862) ham otasidan o'rnak olishga harakat qilgan.

Umuman, Abdulloh va Tohir II hukmronliklari mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo'ldi. Ammo, bu murakkab va qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Tohiriylar sulolasi vakillarining o'zlari, xususan Abdulloh ibn Tohir o'zining arab madaniyatiga xayrixohligini ta'kidlar edi. Shunga qaramasdan, bizga qadar yetib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.

IX–X asrning boshlariga kelib ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo dehqonchilik vohalaridagi davlat hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri – ko'chmanchilar hujumlaridan himoyalaniş edi. Aynan mana shu maqsadda bu davrda qurolli ko'ngillilarning maxsus guruhleri, din uchun kurashuvchilar – g'oziyalar guruhleri tuziladi. G'oziyalar guruhlarining asosiy qismini kasodga uchragan dehqonlar va hunarmandlar tashkil etar edi.

Mahalliy hukmdorlar dehqonchilik vohalari chegaralarini dasht chegaralaridan himoya qilish uchun g'oziyalar guruhlaridan foydalana boshlaydilar. Arab mualliflarining ma'lumot berishlaricha, g'oziyalar «mahalliy hukmdorlar uchun bir vaqtning o'zida ham tayanch, ham notinchlik sababi»ga aylana boshlaydilar. Chunki, bir tomondan ular ko'chmanchilarning hujumlariga qarshi turib, dehqonchilik vohalarini ularning hujumlaridan saqlab tursa, ikkinchi tomondan ko'p hollarda mahalliy zodagonlarga qarshi xalq harakatlarining faol ishtirokchilari edilar.

IX asrning 70-yillarida g'oziyalarning qurollangan guruhlar O'rta Osiyo va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi. Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar (saffor) aka-uka Yoqub va Amr ibn Layslar (Safforiylar) o'z niyatlarini amalga oshirish uchun foydalandilar. Avval boshda Safforiylar kichik bir qaroqchilar guruhini tuzishadi va keyinroq, Seyistondagi g'oziyalar guruhlariga qo'shishadi. Lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo'lgan Yoqub ibn Lays tez orada g'oziyalar guruhlarining boshlig'iga aylanadi. Yoqub boshchiligidagi g'oziyalar guruhi Seyistondagi siyosiy hayotga faol aralasha boshlaydi va xalq harakatlaridan foydalanib 861-yilda Seyistonning markazi Zaranj shahrini egallashadi.

Shu tariqa Yoqub Seyistonning hokimi bo'lib oldi hamda 10 yil davomida Tohiriylarning so'nggi hukmdori Muhammad ibn Tohir (862–873) egallab turgan xalifalikning Sharqiy viloyatlarini undan tortib ola boshlaydi. 873-yilda Yoqub Tohiriylar qo'shinlarini tormor etib, Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi. Shu bilan Movarounnahr va Xurosondagi Tohiriylar hukmronligiga barham berildi. Garchi 885-yili Muhammad ibn Tohir yana Xuroson noibi etib tayinlangan bo'lsada, lekin endilikda uning o'zi somoniylarga qaram bo'lib qoladi. U X asr boshlarida vafot etadi.

Bag'doddagi xalifalik hokimiyati Yoqubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qator choralar ko'rgan bo'lsada, bu harakatlar natijasiz tugadi. 874-yilda xalifa bo'lib o'tgan voqealarni tan olib, Yoqubni Xuroson va Movarounnahr ga noib etib tayinlashga majbur bo'ladi.

876-yilda Yoqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallash maqsadida Bag'dodga qo'shin tortadi. Bag'doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda Yoqub va xalifa qo'shinlari to'qnashib, Yoqub mag'lubiyatga uchraydi. Ushbu muvaffaqiyatsiz yurishdan so'ng uch

yil o'tgach Yoqub ibn Lays vafot etadi va uning o'rmini ukasi Amr ibn Lays (879–900) egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o'z vassalligini bildirganidan so'ng, Movarounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo, Tohiriylarda bo'lgani kabi Safforiylar ham amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borishgan.

Safforiylar asosan mayda va o'rta hol yer egalariga suyangan holda davlatni idora qilishdi. Ular xalqdan olinadigan soliq miqdorini o'zgartirishmadilar. Shuning uchun ham, keng xalq ommasi ularni qo'llab-quvvatlamadi. Safforiylar diniy-ma'naviy hayotda aksariyat ayirmachilik yo'lini olib borishdi. Safforiylarning diniy ayirmachi siyosati aholi orasida haqli norozilikka sabab bo'lgan. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa Somoniylar sulolasi tarix sahnasida paydo bo'ldi. 900-yilda Amr ibn Lays qo'shinlari Somoniylardan mag'lubiyatga uchradi hamda shu tariqa Safforiylar hukmronligiga chek qo'yildi.

2. Somoniylar hukmronligi davri.

Somoniylar sulolasi va davlati tarixiga oid manbalar orasida Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning (959-y. vafoti) «Tarixi Buxoro», Abu Ja'far Muhammad Jarir at-Tabariyning (839–923) «Tarix ar-rasul val muluk» («Payg'ambarlar va podshohlar tarixi»), Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al komil fit tarix» («Mufasssal tarix») kabi asarlari yuqori darajada o'rin tutadi. Shuningdek, IX–X asrlar tarixi bo'yicha XI asr tarixchisi Abu Said Gardeziyning «Zayn ul axbor», Hamidulloh Qazviniyning (XIII–XIV asrlar) «Tarixi go'zida» nomli asarlarida umumiy ma'lumotlar uchraydi.

Masala mohiyati Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih al ulum» nomli qomusiy asarida ham yaxshi yoritilgan. Arab geografi va sayyohlaridan Ibn Xo'rdodbek (X asr), Qudam (X asr), Ibn Ro'st (X asr), al-Yaqubiy (IX asr), Ibn al-Faqih (IX–X asr), al-Mas'udiy (X asr), Abuzayd Balxiy (850–934), al-Istahriy (X asr), Ibn Xavqal (X asr). Al-Muqaddasiy (X asr), keyinchalik as-Sa'moniy (1113–1197), Yoqut Hamaviy (1178–1229)larning asar va yozishmalarida ham mavzuga oid ko'plab materiallarni uchratish mumkin. Buxoro, Samarqand, Varaxsha, Termiz, Balx, Marv (Mari), Niso va O'rta Osiyoning boshqa qadimiy maskanlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar, IX–X asrlar numizmatikasi tarixiy voqealiklar bayoniga tegishli aniqliklarni kiritdi.

XX asr tarixshunosligida Somoniylar davlati tarixi to'g'risida B. Bartold, E. A. Davidovich, N. Negmatov, A. A. Semyonov, E. Sumbaurov, S. Len-Pul, K. Bosvort asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tarixshunosligida A. Ziyov, Sh. Kamoliddinov va boshqalarning masala mohiyatiga oid ilmiy chiqishlari e'tiborga sazovordir.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi yuzaga keldi. Bu sulolaga Somon qishlog'i (manbalarda – Balx yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos soladilar. Yirik yer egasi bo'lgan Somonxudot al-Ma'mun Xuroson noibi bo'lgan davrda uning xizmatiga o'tib, tez orada e'tiborga tushadi. Somonxudotning o'g'li Asad hamda nevaralari ham Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. Shaxsan Ma'munning buyrug'i bilan Asadning o'g'illari 819-yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlandi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg'onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hiroti boshqara boshlaydilar.

Dastavval, Asadning katta o'g'li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. Chunki, Nuhning nomidan tangalar zarb etilgani ma'lum. Shu bilan birga, Nuh Movarounnahrni ko'chmanchilardan himoya qilishga ham harakat qilgan. Chunonchi, 839/840-yillarda u Isfijobga yurish qilgan. U yerda mustahkam mudofaa devorini barpo etgan. Nuh vafotidan so'ng ukasi Ahmad uning ishlarini davom ettirib asta-sekin Movarounnahrni Somoniylar sulolasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu harakatlariga qarshilik ko'rsata olishmaydi. 865-yilda Ahmad vafot etgach, ko'pchilik Somoniylar tomonidan sulola boshlig'i sifatida Ahmadning o'g'li Nasr tan olinadi¹. Nuhning vafotidan so'ng (841-y.) Samarqandda Tohiriylar hukmdori Abdullohning buyrug'i bilan Ahmad va Yahyolar hokimlik qila boshlashdi. Keyinchalik Ahmadning o'g'li Nasr Samarqandni qo'lga oldi. Shosh va Ustrushona Ahmadning boshqa o'g'li Yaqub tasarrufiga o'tgan. Shu tariqa Movarounnahrning katta qismi Ahmadning o'g'illari qo'lga o'tgan. Ilyos vafotidan so'ng (866-y.) esa Hirot Somoniylar hukmidan chiqib ketgan.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Tohiriylarning so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir egallab olib, ushbu hududlarga soliqlar soldi. Bundan g'azablangan xalq Muhammadga qarshi qo'zg'olon

¹ Ahmadning yetti nafar o'g'li bo'lib, katta o'g'li Nasr Samarqandni boshqarar edi. Ahmadning o'g'illari: Nasr, Yaqub, Yahyo, Asad, Ismoil, Is'hoq va Hamid.

ko'tardi. 874-yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga oila a'zolaridan Nasrni noib etib yuborishni iltimos qildilar. Nasr Buxoroga tadbirli va o'z ishi uchun Ismoil ibn Ahmadni (849–907) hokim etib jo'natadi. Nasr o'z ishi uchun Ismoilni o'z noibi deb hisoblar edi. Avval boshda Somoniylar Tohiriylarga tobe sulola bo'lib hisoblangan bo'lsa, IX asr 60–70-yillaridan Somoniylar Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat barpo etishni maqsad qilib qo'yidilar. Og'ir soliqlar, ko'chmanchilar hajumi, xalifalik hukmronligidan charchagan aholining turli qatlamlari markazlashgan mustaqil davlat barpo etish g'oyasini qo'llab-quvvatlar boshladilar. Buxoro Somoniylar sulolasi hukmi ostiga o'tishi bilan xonadon boshlig'i Nasr (865–893) xalifa Mu'tamid (870–892) 875-yili butun Movarounnahrni boshqarishga yorliq olishga muvaffaq bo'ldi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi hamda akasiga tobe bo'lishni istamadi. Natijada 886-yilda aka-ukalar o'rtasida birinchi to'qnashuv bo'lib, Ismoil yengildi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. 888-yildagi ikkinchi jangda Ismoil Nasr qo'shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo'ldi. Garchi bu kurashda Nasr yengilsa-da, uning sulola boshlig'i sifatidagi mavqei saqlab qolindi. Nasr o'limiga qadar bu holat davom etdi. 893-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnahrning to'laqonli hukmdori bo'lib qoldi. Poytaxt tez orada Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Ismoil Somoniy 893-yilda ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortib dastlab Tarozni, keyin esa Ustrushonani egallashga muvaffaq bo'ldi. O'sha yili Ismoil Ustrushonani butkul o'z davlatiga qo'shib olib, uning hukmdori Sayr ibn Abdullohni mahv etdi.


Bag'dod xalifasi al-Mu'tadid (892–902) Ismoilning qudrati oshib ketayotganidan sarosimaga tushib, 898-yili Movarounnahr noibligidan Ismoilni tushirib, uning o'rniga safforiy Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. Movarounnahr noibligi to'g'risidagi yorliqni olgach Amr ibn Lays Ismoilga qarshi qo'shin tortdi.

Ismoil Somoniy va Amr ibn Laysning bosh sarkardasi Muhammad ibn Bashar o'rtasidagi birinchi jang 899-yil kuzida bo'lib o'tib, bunda Ismoil g'olib bo'lgan. U barcha asir tushganlarni hayron qoldirgan holda ularni o'z vatanlariga qaytib kiyetishlariga ruxsat berdi. Ismoilning bunday oliyhimmatligi safforiy harbiylarini lol qoldirdi hamda ularning tahsiniga sazovor qildi. 900-yil bahorida Balx yonida Ismoil Safforiylar

qo'shinlarini tor-mor etdi. Amr ibn Lays qo'shini butkul tor-mor keltirdi, o'zi asirga olinib, Bag'dodga, xalifa huzuriga yuborildi. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Ismoilni nafaqat Buxorodan, balki Xorazm va Farg'onadan ham kelgan harbiy kuchlar ham qo'llab-quvvatlagan edilar. Shu tariqa Ismoil Movarounnahr va Xuroson, Eronning qator Sharqiy va Shimoliy viloyatlarini o'z ichiga oluvchi yirik davlatga asos soldi va bu hududlarda Arab xalifaligi hukmronligiga chek qo'yildi.

Farg'ona, Isfijob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro Xorazm, Chag'oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlar Somoniylar davlati tarkibiga kirdi. Ismoil Somoniy uyushgan qo'shin va marazlashgan davlat barpo etdi. U ko'chmanchilar jumlariga chek qo'ydi. Tarixchi Narshaxiy bu xususida Ismoilning: «Men hayot ekanman, Buxoroning istehkomi o'zim bo'laman», degan so'zlarini keltiradi. Ismoil Somoniy yirik yer egasi bo'lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayanib davlatni idora qilgan. Ismoil va boshqa Somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olmadilar. Natijada dehqonlarning yer egalariga qarshi chiqishlari bo'lib turgan. Bundan tashqari, ayrim chekka viloyatlar hokimlari markazlashtirish siyosatiga qarshilik qilib turishgan.

907-yilda Ismoil Somoniy vafot etib taxtni uning o'g'li Ahmad ibn Ismoil egalladi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi (907–914). Uning davrida davlatni idora etishda arab tilining qayta tiklanishi, boshqaruvdagi ba'zi salbiy holatlar ko'pgina mahalliy zodagonlar va turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otdi. Natijada, u 914-yilda turk



Buxoro. Ismoil Somoniy maqbarasi.

g'ulomlari tomonidan o'ldirilib, taxtga uning 8 yoshli o'g'li Nasr ibn Ahmad o'tirdi va u balog'atga yetgunga qadar davlat ishlarini bosh vazir Abu Abdulloh Jayhoni (914–918) hamda al-Balamiy (918–938) kabi ma'rifatli vazirlar boshqarishdi.

914-yil oxirida Samarqandda yana qo'zg'olon ko'tarildi. Davlatning Janubiy hududlarida bo'lgan Husayn ibn Ali Marvaziy rahbarligidagi isyon ayniqsa keskin tus oldi. Bu qo'zg'olon qarmatlar

g'oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Qo'zg'olon 918-yilda bostirilib Marvaziy asir olindi. Ko'p o'tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko'tardi. 922-yilda esa Ilyos ibn Ishoh qo'zg'olon ko'tardi. Tinmay davom etgan qo'zg'olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga ta'sir ko'rsatib, u asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshladi.

Ta'kidlash lozimki, Nasr ibn Ahmad hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida qarmatlar diniy harakati ancha keskin tus oldi. Qarmatlar islomning yoyilishi, yer egaligi munosabatlarini kuchayishiga qarshi chiqishdi va ilgari an'analari qishloq jamoalarini qayta tiklash g'oyalarini yoqlagan edilar. Mazkur harakat mamlakatda ma'lum notinchliklarga sabab ham bo'ldi. Natijada, Nasr II ga qarshi fitna yuzaga keldi. Garchi Nasr II fitnachilar boshlig'ini qatl etsa-da, lekin mamlakatda yuzaga kelgan norozilik va inqiroz holatini oldini ololmasligiga ko'zi yetdi, shu bois o'g'li Nuh ibn Nasr foydasiga taxtdan voz kechdi. 943-yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh qarmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulklarini musodara qildi.

Nuh hukmronligi davrida (943–954) Somoniylar davlatining inqirozi yuqorol ko'zga tashlana boshladi. 942-yilda xiroj solig'i aholidan ikki marotaba yig'ib olindi. Qo'shinga vaqtida maosh to'lolmaslik esa harbiylar orasida norozilik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo'ldi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu esa tabiiyki, xalq noroziligini yanada oshirdi. Xalq noroziligidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali Chag'oni yordamida 947-yili Buxoro taxtni egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Abu Ali Chag'oni Xurosonga qaytgach, Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Somoniylar hukmdori Abu Ali Chag'oni bilan esa kelishishga majbur bo'ldi. Uni avval Chag'oniyon, 952-yili Xuroson hokimi etib tayinladi.

Abdulmalik I hukmronligi davrida (954–961) ichki nizo va parokandalik kuchayib, turkiy gvardiya boshlig'i Alp Taginning hokimiyat boshqaruvidagi o'rni o'sib ketdi. Alp Tagin vazir Abu Ali Balamiy bilan birga butun hokimiyatni qo'lida mujassam qilib oldi. Lekin, keyinchalik Mansur I (Mansur ibn Nuh) (961–976) davrida uning hukmronlik darajasi cheklana boshlandi. Marv va Balx yonida bo'lgan to'qnashuvlardan so'ng Alp Tagin Janubga qarab yo'l oldi. Tez orada G'azna va uning yon-atroflarini egallab o'z davlatini barpo etmoqchi bo'ldi. Uning

hukmronligi bor-yo'g'i ikki yilga bordi, xolos. G'aznada Sabuqtegin hokim sifatida rasman (963–997) Somoniylarga qaramlikni saqlab turdi. Soliqlarning yil sayin ko'payib borishi, zodagonlarning o'zaro janjallari, noiblarning markazga bo'ysunmay qo'yishi va saroyda bo'layotgan taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi.

Bu kurashlar ayniqsa Amir Nuh II (976–997) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv va Qoshg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrqa qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan qoraxoniy Xorun Bug'roxon 990-yilda G'arb tomon qo'shin tortdi va ikki yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oldi. Nuh II ning qoraxoniylarga qarshi harakatlari tegishli samara bermadi. O'zaro nizo-parokandalik, soliqlardan charchagan aholining aksariyat qismi uni qo'llamadi. Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy yashirin ravishda qoraxoniylar bilan til birlashtirgan bo'lib hukmdorga harbiy yordam ko'rsatmadi. Somoniylar sarkardasi Foyiq esa dushman qo'shini bilan jang qilish o'rniga qoraxoniylar tomoniga o'tib ketdi. Qoraxoniylar tez orada poytaxt Buxoroni egallashga muvaffaq bo'ldilar, Nuh II esa Omul tomonga chekinishga majbur bo'ldi. Faqatgina Qoraxoniylar hukmdori Bug'roxonning to'satdan vafot etishi vaziyatni o'rgartirdi. Qoraxoniylar qo'shini mamlakatni tark etdi. Nuh II G'azna hokimi Sabuqteginga yordam so'rab murojaat etdi. Uni yordamida isyonkor amaldor va harbiylarni jazoladi. Minnatdorchilik ramzi sifatida Xuroson hokimligi Sabuqteginning o'g'li Mahmudga topshirildi. Qayd etish lozimki, Somoniy hukmdorlarining Qoraxoniylar bilan olib borgan kurashi mamlakatni holdan toydirdi.

Mansur II hukmronligi (997–999) davri ham yuqorida qayd qilingan tanazzul holatidan farqli kechmadi. Sulton Mahmud G'aznaviyning Janubdan rasman somoniylarga qarashli Xuroson o'lkasiga tahdidi, qoraxoniylarning doimiy ravishda chegaralarni buzib, ichkari tomon siljiy boshlashlari, Xorazmda deyarli mustaqil Ma'muniylar sulolasining sa'y-harakatlari, harbiy sarkarda, zodagonlarning hokimiyat uchun kurashi, chekka viloyatlardagi notinch vaziyat – bularning hammasi amaldagi davlat mavjudligiga chek qo'yuvchi omillar bo'ldi. Mansur II davrida mamlakatda G'aznaviylarning ta'siri kuchayib ketdi. Nishopur hokimi Bektuzun va sarkarda Foyiq Mansur II ga qarshi fitna tayyorlab, uni hokimiyatdan chetlatishdi. Sosoniylar hukmdori sifatida Man-

sur II ning uksi Abdulmalik II (999) taxtga o'tkazildi. Bu esa Mahmud G'aznaviyning butun Xuroson, jumladan Balx va Badaxshonni ham tezda qo'lga kiritishiga sabab bo'ldi. Somoniylar qo'lida amalda faqat Movarounnahr qoldi, xolos. Avvalroq Sirdaryo bo'ylari, Farg'ona vodiysi Qoraxoniylar qo'lga o'tgan edi.

Abdulmalik II harbiylar va zodagonlar orasida tegishli obro'-a'tiborga ega bo'lmagan shaxs edi. Shu bois ham, bu hukmdor o'z atrofiga tarafdorlarini jam qila olmadi. Tez orada poytaxt Buxoro Nasr Ilekxon tomonidan qo'lga olindi. 999-yil 23-oktabrda Nasr Ilekxon oila a'zolari bilan qo'lga olinib, O'zgandagi zindonga jo'natildi.

Somoniylar sulolasining so'nggi vakili Abu Ibrohim Muntasirning hokimiyatni qaytarib olishdagi sa'y-harakatlari besamar tugab, uning o'zi 1005-yili o'ldirildi. Shu tariqa Somoniylar sulolasi hukmronligi burham topdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun, avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu, ayniqsa, Ismoil Somoniy davrida dolzarb masalaga aylangan edi. Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil, birinchi navbatda, mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon Sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Mamlakatning qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazdi. Mana shunday islohatlardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu ma'muriyat **dargoh** – **amir saroyi** va **devon** – **davlat idorasi, vazirliklardan** iborat bo'lgan.

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor **amir** unvoniga ega edi. Davlat majmui **dargoh** (amir saroyi) va **devonga** (vazirliklar, davlat idorasi) bo'lingan edi.

Saroyda siyosiy hokimiyat **sohibi xoras** qo'l ostida bo'lib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini **bosh hojib** va uning xodimlari olib borgan. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Nasr II davrida Buxoro registonda davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

1. Devoni vazir (bosh vazir devoni). Bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan. Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

2. **Devoni mustafiy (moliyaviy ishlar devoni).** Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan.

3. **Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail (rasmiy hujjatlar devoni).** Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

4. **Devoni sohib-ash-shurot (harbiy ishlar devoni).** Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

5. **Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni).** Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'rnatgan.

6. **Devoni muhtasib (bozorlar va ko'chalar, shariat qonun-qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon).** Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilish edi. Aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lgan.


7. **Devoni mamlakai xos (davlat ish boqaruvchisi devoni).** Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va, ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan.

8. **Devoni vaqf (vaqf erlari devoni).** Masjidlar, madrasalar, umuman, diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.

9. **Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni).** Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

10. **Davlat mulklari devoni.** Bu devon hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

Somoniylar davlat boshqaruvi



Yuqorida sanab o'tilgan devonlarning barchasi (sohib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo'ysungan. Ta'kidlash lozimki, Somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyatlar boshqaruvchilari – hokim, shaharlar boshqaruvchilari esa – rais deb yuritilgan. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanafiy mazhabligiga mansub ruhoniylar hamma diniy lavozimlarni o'z qo'llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig'i «ustod», keyinchalik «Shayx ul-islom» deb atalgan. «Ustod»dan so'ng o'z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida «xatib» turgan. U jome masjidlarida juma namozida xutba o'qish hu-

quqiga ega bo'lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylanadi. Movarounnahrda dastlabki madrasalarning bu yerda barpo etilishi ham bejiz emas.

Yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

Mulki sultoniy – shaxsan amirga tegishli yer-suv, tegirmon, do'konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olishgan. Yana yer egaligining to'ma (umrbod berilgan yer), iqto (merosiy) turlari bo'lgan.

Xususiy shaxslarga tegishli mulk – hukmdor tabaqa xonadoni, dehqon-zodagonlarga, sayyidlar, sipohsolor, badavlat savdogarlarga tegishli mulklar hisoblangan. Shartli yer egaligi ham bo'lgan.

Vaqf mulklari – diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk. Bu mulkni muassasa mutavallisi boshqargan.

Jamoa mulki – yaylov, tog' yonbag'irlaridagi lalmi yerlar.

Xiroj hajmi shariat va davlat qonunlari asosida belgilangan. Somoniylarning birgina Buxoro va Karmana viloyatlari xirojidan tushgan daromadi 116866 dirhamni tashkil qilgan.

Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsim qilindi. Yer egalaringning yangi guruhi tashkil topdi. Ularning ko'pi sipohiylardan chiqqan edi. Masalan, Alp Taginning Xurosonda va Movarounnahrda 500 ta qishlog'i bo'lib, biror shahar yo'q ediki, unda uning qasri yo bog'i, yoxud karvonsaroyi bo'lmasa. Uning tasarrufida minglab otlar va chorva mollari bo'lgan.

Somoniylar davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Bu holat mamlakat iqtisodiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Movarounnahr va Xuroson bu vaqtda Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalaridan hisoblangan.

Umuman, Somoniylar davrida Xuroson va Movarounnahr qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, xususan dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Somoniylar davrida dehqonchilik bilan bir qatorda, hunarmandchilik ham keng sur'atlar bilan tarqalgan. Shahar aholisining ko'p qismi hunarmandchilikning turli sohalari bilan mashhur bo'lishgan. Manbalarda qayd qilinishicha, Movarounnahrda, ayniqsa, to'qimachilik yaxshi taraqqiy qilgan. Bu yerlarda ipak va jundan tayyorlangan turli-tuman gazlamalar o'zining yuqori sifatliiligi, bejirim va nafis naqshlari bilan ajralib turgan.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko'tarilgan. Kulolchilik charxini yanada mukammallani-

shi natijasida idishlarni bezashda sirlardan foydalanishni kashf etilishi bu davrda katta yutuq bo'ldi. Shu davrga oid shaharlarda olib borilgan arxeologik izlanishlarga qaraganda, kulollar shaharlarda mahalla-mahalla bo'lib yashaganlar. Mana shunday mahallalar Samarqandda, Marvda, Axixatda, Termizda ochib o'rganilgan.

Bu davrda shishasozlik ham keng rivojlangan. O'rta Osiyo shishasozlari turli shakldagi katta-kichik shisha idishlarni tayyorlaganlar. Idishlar asosan ko'kimtir va shaffof rangdagi shishalardan tayyorlangan. Ularning ma'lum qismi naqshlar bilan bezatilgan. Shishasozlarning autaxonalari Niso, Marv, Termiz, Poykand kabi shaharlarda ochib o'rganilgan.

Yozma manbalar va olib borilgan arxeologik qazish ishlarga qaraganda bu davrda kon sanoati taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y bergan. Shuningdek, bu davrda Badaxshonda kumush, oltin, billur, lojvard kabi qimmatbaho metall va toshlar qazib olish davom etgan. Ustrushonaning Mink tumanida katta miqdorda temir rudasi, Buttamda oltin, kumush, mis va boshqa metallar, Tuzkon ko'lida tuz, Farg'onadagi Nokad degan joydan oltin, kumush, Isfara yaqinida toshko'mir qazib olingan. Farg'onada neft ham borligi yozma manbalarda qayd qilingan. Shu davrda qog'oz ishlab chiqarish ham yaxshi rivojlangan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib, undagi qog'ozlarning mahsuloti faqat O'rta Osiyo yoki Sharqda emas, balki Yevropada ham mashhur bo'lgan. Samarqand qog'ozining olti navi manbalarda qayd qilingan.

O'rta Osiyolik savdogarlar o'z mollarini Arab xalifaligi tarkibiga kirgan davlatlarga, Kavkazga, Xazar va Bulg'oriyaga, Xitoy va Hindistonga olib borib sotishgan. O'rta Osiyodan Xitoy bilan O'rta Yer dengizini birlashtiruvchi va Janubi-Sharqiy Yevropaga olib boruvchi karvon yo'llari o'tgan. Ayniqsa, O'rta yer dengizi bilan bog'lovchi karvon yo'li ancha gavjum bo'lgan. Bu yo'l Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Amul, Buxoro, Nasaf, Kesh, Samarqand, Ustrushona, Choch, Balasog'un orqali Xitoyga olib borgan. Xitoyga O'rta Osiyodan otlar va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa turli-tuman ipak gazlamalar keltirilgan. Xazar, Bulg'or va Rus yerlariga O'rta Osiyodan quruq mevalar, turli-tuman gazlamalar, guruch va kumush chiqarilgan. O'z navbatida, Janubi-Sharqiy Yevropadan O'rta Osiyoga mo'yna, mis, teri, qoramol, qullar keltirilgan. Janubi-Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aloqalarida

xorazmlik savdogarlarning o'zni katta bo'lgan. Mazkur iqtisodiy holat rivoji keyingi sulolalar davrida ham asosan davom etgan.

3. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari.

Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'rin ega qoraxoniylar davlati tarixshunosligi u qadar boy emas. Tarixchi olimlar qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlashgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud O'shiyning «Fatvo'i qozixon», Abu Said Gardeziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al-komil fit-tarix» asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma'lumotlar mavjud. Mahmud Kashg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi. XX asr tarixshunosligida O. Piritsak, B. Kochnev, E. A. Davidovich numizmatik materiallar asosida mazkur davr tarixiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Qirg'iz olimi O. Karayev ilk bora qoraxoniylar davri tarixiga bag'ishlangan monografiyani yaratgan. O'zbek tarixshunosligida A. Ziyo tadqiqot ishi alohida ahamiyatga ega. B. Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasida Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tahlil etilgan.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlarda, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj-u taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qashg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar – qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtai nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etiladi. 840-yili qarluqlar sardori Isfijob hokimi Bilgakul Qodirxon o'zini xoqon deb atab oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqqan edi. Lekin, o'sha yildayoq Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Turkiy qabilalar, ayniqsa 893-yili Ismoil Somoniy Tarozni egallaganidan so'ng G'arbiy Qashg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishgan


ali Botuq Bug'roxon Somoniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan halda turkiy qabilalar orasida o'z ta'sir doirasini kengaytirib bordi. U Taroz va Qashg'arni qo'lga olib, 927-yili Balasog'unni egalladi hamda o'zini oliy hukmdor deya e'lon qildi. Uning vafoti (955/956)dan so'ng hokimiyat o'g'li Musoga o'tdi. Muso davrida tarixiy manbalar, numizmatik materiallar ma'lumotiga ko'ra 960-yili 200 ming chodirlik turkiy aholi islom dinini qabul qilgan. Muso o'ziga Qashg'arni qarorgoh qilib olgan. Balasog'un esa birmuncha vaqt yana Somoniylar qo'lga o'tadi. Somoniylar hatto Markida (Taroz va Balasog'un oralig'i) ularning himoya qo'rg'onini ham barpo etishgan.

«Qoraxon» so'zi «kuchli», «kuchli hukmdor» degan ma'noni anglatgan. Qoraxoniylardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan va musulmoncha Abdulkarim degan nom olgan hukmdor Xorun Bug'raxon hisoblanadi. Ayrim yozma manbalarda u Bug'raxon at-Turkiy deb nomlanadi. Misol uchun, Ibn al-Asir o'zining «Kitob al-komil fit-tarix» asarida ma'lumot berishicha, Qashg'ar, Balasog'undan to Chan (Xitoy) chegarasigacha bo'lgan yerlar Bug'raxon at-Turkiy hukmronligi ostida bo'lgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zaro hokimiyat uchun kurashlar doimiy asnoda bo'lib turganligi bilan bevosita izohlanadi. Mazkur kurashlar asosan Ali Arslonxon va Xorun Bug'roxon avlodlari o'rtasida bo'lgan. Shu bois, Alilar xonadoni va xoruniylar xonadoni degan atama shu davrga nisbatan ishlatiladi.

Butun Tyan-Shan va Yettisuvni egallab bo'lgandan so'ng, qoraxoniylar Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Movarounnahrda ham harbiy yurishlar uyushtira boshlashadi va tez orada Farg'ona va Isfijob (Sayram)ni bosib olishga erishadilar. 990–992-yillarda qoraxoniy Xorun (Hasan) Bug'raxon Somoniylarga tegishli bo'lgan O'rta Osiyodagi mulklarning kattagina qismini bosib oldi. 992–993-yillarda Xorun Bug'raxon Samarqand va Buxoroni ham egallaydi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turkiy lashkarboshi, Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va yana bir lashkarboshi Balx hokimi Foyiq ochiqdan-ochiq Qoraxoniylarga yon bosadilar. Ya'ni, Simjuriy Xorun Bug'raxon bilan muzokaralar olib borgan bo'lsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'raxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramay taslim bo'ladi. Xorun Bug'raxon Samarqand va Buxoroni egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettirmasdan Qashg'arga qaytishdagi yo'lda Qo'chqorboshi degan joyda 993-yilda vafot etdi.

Qoraxoniylar davlat boshqaruvi



Xorun Bug'raxon vafotidan so'ng ulug' xon (qoraxon) lavozimini, uning jiyani Ali ibn Muso egallaydi. Ammo u uzoq vaqt taxtga o'tira olmadi. Taxtni Qoraxoniy Nasr Ilekxon egalladi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolar, Somoniy hukmdorlari va turk lashkarboshilari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni diqqat bilan kuzatib turgan Qoraxoniylar 996-yilda Nasr Ilekxon boshchiligida Buxoroga yangi yurishlar uyushtirdilar. Somoniy hukmdori Nuh II G'azna hokimi Sabuqteginni yordamga chaqiradi. Balxdan katta qo'shin bilan yetib kelgan Sabuqtegin Kesh va Nasaf oralig'ida joylashib, o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilishini so'rab Nuh II ga elchi yuboradi. Lekin o'z «vassali»ga uncha ishonmagan Buxoro hukmdori o'z vaziri O'zayrining fikriga qo'shilib bu taklifni rad etadi va Sabuqteginni o'zini Buxoroga chaqiradi. Bundan ranjigan Sabuqtegin o'g'li Mahmudni 20 minglik qo'shin bilan Buxoroga jo'natadi. O'zi esa Nasr Ilekxon bilan muzokaralar olib borib, Qoraxoniylarga Somoniylarga tegishli bo'lgan ma'lum hududlarni taqdim etadi.

1005-yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi va o'sha yili so'nggi somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi hamda Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar. XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, Sharqda esa Torim daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar

Buxoro, Samarqand va, umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqara boshlashgan. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg'oq yerlari to G'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshoh-Ma'muniylar, Orol dengizidan Shurtq va Shimoldagi yerlar o'g'o'zlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan erlarni egallash jarayonida turkiylar yirik Qoraxoniylar davlatini barpo etdilar. Bu davlat bir nechta viloyatlarga bo'lingan bo'lib, Movarounnahrda dastlab Nasr Ilekxon hokimlik qilgan. Shijoatli va mohir sarkarda Nasr Ilekxon do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib, qo'shnisi Mahmud G'aznaviy bilan elchilik munosabatlari o'rnatadi. Ammo, bunday munosabatlar uzoq cho'zilmadi. Mahmud G'aznaviyning Shimoliy Hindistonda urush olib borayotganligidan foydalangan Nasr Ilekxon 1006-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi. Shunga qaramasdan, G'aznaviylar Qoraxoniylarni Xurosondan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. 1008-yilda Qoraxoniylar yana Xurosonga hujum qildilar. Mahmud G'aznaviyning o'zi 500 ta jangga o'rnatilgan fillarga ega bo'lgan katta qo'shin bilan Qoraxoniylarga qarshi chiqdi va ularning qo'shinini butunlay yakson qildi. Shundan keyin Qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur'at etmadilar. Termiz, Qabodiyon, Xuttalon kabi Amudaryodan Shimoldagi yerlar G'aznaviylar hukmida saqlanib qoldi.

Qoraxoniylar udel tizimiga asoslangan davlat bo'lib, asosan Sharqiy va G'arbiy qismlarga shartli ravishda ham bo'linar edi. Movarounnahr davlatning G'arbiy qismini tashkil qilib, Samarqand uning markazi bo'lib hisoblangan. XI asr boshlari Sharqiy qismda To'g'onxon hukmronlik qilib, u Xorun Bo'g'roxon avlodidan bo'lgan Yusuf Qodirxon bilan hokimiyat borasida raqobatlashgan. 1005-yili esa u To'g'onxonning qo'lidan Qashg'arni ham tortib olishga muvaffaq bo'lgan. 1017-1018-yillarda Yettisuv va Sharqiy Turkistonga bostirib kirgan ko'chmanchilar bilan jang natijasida To'g'ayxon halok bo'ldi. Yusuf Qodirxon esa butun Qoraxoniylar davlatidagi oliy hokimiyatni mujassam qilib olishga muvaffaq bo'ldi.

Nasr Ilekxonning o'limidan so'ng oradan biroz vaqt o'tgach, Movarounnahrda hokimiyat Qoraxoniylarning Hasaniylar (Xoruniylar) xonadoniga mansub Alitegin qo'lga o'tdi. Movarounnahrni uzoq yillar boshqargan Alitegin bilan Qoraxoniylarning ulug' xoni (tamg'achxon) Yusuf Qodirxon o'rtasida yaxshi munosabat o'rnatilgan edi. Bu munosabatning yanada kuchayib kyetishidan cho'chigan Mahmud G'aznaviy Yusuf Qodirxon bilan kelishib Aliteginga qarshi ish tutdilar. Yusuf Qodirxon Movarounnahrni o'z o'g'li Yinalteginga olib bermochi edi. Ular 1025-yilda Movarounnahrda yurish qildilar. Alitegin Zarafshonning o'ng oqimida yashayotgan ko'chmanchi turkman qabilalari va Saljuqxonning nevaralari Ismoil, To'g'ru'l va Dovudlardan yordam so'raydi. Bu jangda Qoraxoniylar mag'lubiyatiga uchragan bo'lsalar-da, Alitegin Movarounnahrda o'z hokimiyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. 1032-yilga kelib Yusuf Qodirxonga Yettisuvdan tashqari Sharqiy Turkiston, Isfijob, Taroz ham kirar edi. Bu qismning markazi Qashg'ar bo'lgan. Keyinchalik uning vorislari Sulaymon Bug'rotegin va Muhammad Yagonteginlar ham Movarounnahrni qo'lga olishga harakat qilib bu borada Mas'ud G'aznaviy (1030–1041) bilan ham o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamladilar. Lekin, Movarounnahrda amalga oshirilgan harbiy harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mazkur munosabatlar XI asr tarixchisi Abu Said Gardeziyning «Zayn ul-axbor» asarida atroflicha yoritilgan.

Movarounnahr yerlariga batamom o'mashib olgandan so'ng oradan ko'p o'tmay, ya'ni 1015–1016-yillar qoraxoniy hukmdorlari va yirik amaldorlar o'rtasida toj-taxtni egallash, yirik yaylovlarni qo'lga kiritish, ayrim viloyatlarni bosib olish uchun kurashlar avj ola boshlaydi. Natijada 1041-yilga kelib Qoraxoniylar davlati ikkiga: Sharqiy va G'arbiy qismga bo'linib ketdi. G'arbiy qism Movarounnahrdan to Farg'ona vodiysining G'arbiy rayonlarigacha bo'lgan hududlarni egallagan bo'lib, uning poytaxti dastavval Buxoro, bir muddat O'zgand, keyin esa Samarqand bo'lgan. Sharqiy qism Yettisuv, Qashg'ar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'onani o'z ichiga olgan. Uning poytaxti avval Balasog'un, keyin esa Qashg'ar edi.

XI asrning 40-yillarga kelib Xurosondagi G'aznaviylar davlati Saljuqiylar tomonidan yo'q qilindi. Movarounnahrni esa Qoraxoniylar o'z qo'llarida saqlab qoldilar va bu yerda Ibrohim ibn Nasrning siyosiy faoliyati boshlanadi. U o'z qo'shinlari bilan, avvalo, Amudaryo

bo'yidagi Xuttalon, Baxsh, Chag'oniyonni bosib oladi va tez orada hamma Movarounnahr erlarini zabt etadi. U yangi poytaxt qilib o'ziga Samarqandni tanladi va shu yerdan turib hokimiyatni boshqardi (1041–1068).

O'sha yili u hibsdan Alitegin o'g'illari qo'lidan qochib, avval Farg'ona tomon yo'l oladi, keyinchalik esa G'aznaviylarga qarashli Amudaryo bo'yidagi mulklarga kelishga majbur bo'ldi. 1038-yil kuzida avval Xuttalon, so'ngra Chag'oniyonni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. U Movarounnahr hokimi Yusuf ibn Ali bilan kurashib, tez orada Samarqand, Kesh, Buxoroni qo'lga oladi. Numizmatik materiallariga ko'ra 1040-yildayoq uning nomidan Kesh va Samarqandda tangalar zarb etilganligini ko'rish mumkin. Ibrohim, uni yana «Tamg'achxon» deb ham atashar edi, Movarounnahrda uzoq hukmronlik qildi. Uning hukmronlik davriga tarixiy manbalar ancha yuqori baho berib, Ibrohimning o'zini kuchli va adolatli hukmdor sifatida ta'riflashgan. U Sharqiy qoraxoniylarga tegishli bo'lgan Axsikat, Ko'zorda, Shubays, keyinchalik 1062-yili Balasog'unni ham egallashga muvaffaq bo'ldi. U Qoraxoniylarning O'rta Osiyodagi asosiy erlariga ega bo'lib, poytaxt esa to'laqonli ravishda Samarqand shahri deya belgilandi.

Ibrohim ibn Nasr bilan Saljuqiylar o'rtasidagi munosabat ancha yomon bo'lgan. U Saljuqiylarning bir necha hujumlarini qaytarishga erishgan, 1068-yilda Ibrohim ibn Nasr vafotidan so'ng uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda Shamsulmulk g'alaba qozonib, hokimiyatni egallaydi (1068–1080). 1080-yilda Shamsulmulk vafot etib, taxtga qoraxoniy Ahmad o'tiradi. Ahmadxon davrida musulmon ulamolari va turk lashkarboshilari o'rtasidagi kurash avj olib ketadi. Bundan foydalangan saljuqiy Malikshoh Amudaryodan kechib o'tdi va qattiq janglardan so'ng 1089-yili Buxoro hamda Samarqandni egalladi. Ahmadxon esa asir olinadi. Lekin, Movarounnahrni o'z qo'lida saqlab qolishga ko'zi yetmagan Malikshoh Ahmadxon bilan sulh tuzib, katta o'ljalari olib orqaga qaytadi. Ahmadxonning Saljuqiylarga itoatkorligi harbiy lashkarboshilar va ruhoniylarning noroziligiga sabab bo'lganligi bois, oqibatda 1095-yili u fitnada o'ldiriladi.

XII asrning boshlariga kelib Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon (1102–1130 yy.) o'tirib u yarim mustaqil davlatni boshqargan bo'lsada, lekin to'la mustaqillik uchun sa'y-harakatlar olib bordi. Ulamolalar bilan kelishmovchilik tufayli Arslonxon taxtni o'g'li Nasrga topshiradi.

Fitna natijasida Nasr ham o'ldirildi. Shunday vaziyatda Arslonxon saljuqiy Sulton Sanjardan yordam so'raydi. O'sha yili Sulton Sanjar fitnachilarni jazolab, Samarqand shahrini egallaydi va shu davrdan boshlab Qoraxoniylar o'z mustaqilligini deyarli yo'qotib, Saljuqiylarga butkul qaram bo'lib qoldilar. Og'ir xasta bo'lgan Arslonxon esa Balxda vafot etadi.

Oradan ko'p o'tmasdan Movarounnahrda yangi ko'chmanchi qabilalar qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo'ldi. XII asrning 30-yillarida qoraxitoylar Sharqiy Turkiston va Yettisuvni, ya'ni Sharqiy qoraxoniylar hududini bosib olishdi. Sharqiy qoraxoniylar ancha zaiflashib qolganligi tufayli o'z mulklarini himoya qila olmadilar. G'arbiy qoraxoniylarning ham ahvoli bundan yaxshi emas edi. 1137-yildagi Xo'jand yaqinidagi bo'lgan jangda qoraxitoylar qo'shini qoraxoniylar Mahmudxon qo'shinlarini tor-mor etishdi. Bu paytda Xorazmni egalash bilan band bo'lgan Sulton Sanjar o'z vassali Mahmudxonga yetarli yordam bera olmadi. Samarqand talon-toroj qilinib, katta tovon undirilgach, qoraxitoylar orqaga qaytishdi.

Oradan ko'p o'tmasdan, ya'ni 1141-yilda qoraxitoylar yana Movarounnahr yerlariga bostirib keldilar. Ularning hujumini to'xtatish uchun Sulton Sanjar katta qo'shin bilan Samarqand yaqiniga yetib keladi. Bu safar jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'ldi. Hal qiluvchi bu jangda Sulton Sanjar va Qoraxoniylar Mahmudxonlarning birlashgan qo'shinlari qoraxitoylar tomonidan mag'lub etildi.

Samarqand, Buxoro va butun Markaziy Movarounnahrdagi egallangan qoraxitoylar katta o'ljalari bilan orqaga qaytishdi. Qoraxitoylar Balasog'undan tashqari hamma yerlar hokimiyatini qoraxoniylar qo'lida qoldirishdi. Qoraxoniylar endi qoraxitoylarga qaram bo'lib, har yili ularning poytaxti Balasog'unga katta-katta o'lpon yuborib turishardi. Xorazmshohlari 1210-yili Qoraxitoylarni mag'lub etishgach, Qoraxoniylar Xorazmshohlarga qaram bo'lib qoldilar. Sulolaning oxirgi vakili Usmonxon Muhammad Xorazmshohnin qizi xon sultonga uylangan. 1212-yilda Samarqandda Xorazmshohlarga hukmronligiga qarshi qo'tarilgan qo'zg'olonga Usmonxon boshchilik qildi. Qo'zg'olon bostirilgach, Usmonxon qatl etildi va Qoraxoniylar xonadoniga mansub barcha kishilar o'ldirildi. Shu tariqa Qoraxoniylar sulolasiga barham berildi.

Qoraxoniylar sulolasi o'z hukmronligi davrida mulklarining sathlarini bir necha marta o'zgartirgan. Misol uchun, Movarounnahrdagi

egallagan bo'lsa, XI asr boshlariga kelib esa, xoqonlik chegaralari Amudaryogacha etgan. Oradan ko'p o'tmay, ular Sharqiy Turkistonda Qashg'arni va Xo'jandni qo'lga kiritishadi. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqega ega bo'lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Qoraxoniylar davlatini tashkil etilishida yag'mo va chig'il qabilalari muhim rol o'ynadilar. Arslon – chig'il qabilasining, bug'ro (tuya) – yag'mo qabilasi sardorlari nomiga qo'shiladigan atama bo'lgan. Shu bois, yag'mo qabilasidan chiqqanlar keyinchalik nomlariga «Bug'roxon», chig'il qabilasiga bo'lgan hukmdorlar «Arslonxon» atamalarini qo'shishgan.

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qilishdi. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo'lgani kabi to'g'ridan-to'g'ri otadan o'g'ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o'tgan. Ayrim olimlarning fikricha, qoraxoniylarning butun urug'i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo'lib, sulolaning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, umumsulola mulkining bir qismiga da'vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug' a'zosi – ulug' xoqon, kichik xoqon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o'z hissasi ajratib berilar edi.

Qoraxoniylarda ikkita poytaxt: Qashg'ar va Balasog'un mavjud edi. Ulug' xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o'tirgan. Ulug' xoqon yoki ulug' xon «xoqon ul-xoqon» degan nomda yuritilib, arab manbalarida mazkur unvon «sulton us-salotin», fors manbalaridagi «shahanshoh»ga mos keladi. Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg'achxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o'g'il, amaki va jiy-anlar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Qoraxoniylar Movarounnahrdagi boshqarilgan bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi bois, Qoraxoniylar o'z davlatlarini viloyatlarga bo'lib tashlashadi. Movarounnahr viloyatining poytaxti Samarqand, Farg'onaniki esa O'zgand shahri edi. Bu viloyatlar boshliqlari elekxonlar bo'lib ular Qashg'ardagi tamg'achxonlarga rasman tobe edilar. Qoraxoniylar davrida Samar-

qand elekxori ancha kuchayib ketgan. Samarqand elekxoni saroyida Somoniylar davlatida bo'lgani kabi vazir, sohibi-borid, mustavfiy, hojib, rais-muxtasib kabi amaldorlar bo'lishgan. Ta'kidlash joizki, qoraxoniylar hukmdorlari musulmon ulamolari bilan qalin aloqa o'rnatishgan va imomlar, sayidlar, shayxlar, sadrlarni qo'llab-quvvatlashgan.

Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi, xoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga: dargoh va devonga bo'lingan. Xoqonning ulug' hojibixoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: og'ichi-shoyi kiyimlar xazinachisi; biruk-mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshchi-xoqon oshxonasi boshlig'i (bog'archi); bitikchi-munshiy; kotib-mirza; qushchi-xoqon ovinning tashkilotchisi.

Xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan, unga suboshi, yoki sipohsolor qo'mondonlik qilgan. Kichik zobit chovush, sipohiylar to'dasi qo'mondoni xaylboshi deyilgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shi (harbiy lager) xonto'y deyilgan. Xoqon qo'shida doim 9 ta sariq bayroq hilpirab turgan. Xoqonlikda elchini yalavoch yoki yalafar deb atalgan.

Xoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan. Ijtimoiy tuzumda mavqei ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar-dehqonlar qatlamini qoraxoniylar davrida o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'rta Osiyo ko'hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz byergan sulolalar o'rtasidagi taxt almashuvi, eng ta'sirli jihati esa ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarining o'troq aholi hududlarining ishg'ol etishidir.

Qoraxoniylarda oddiy xalq budun deyilgan. Soliq to'lovchi fuqaro rayiyat deb atalgan. Qabila boshliqlari bek deyilgan, savdogarlar sart deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Xonlikda yer egaligining iqto shakli keng tarqalgan bo'lib, undan tashqari xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar hisoblangan.

Qoraxoniylar davrida konchilik sohasi ham taraqqiy etgan. Xususan, Qoramosorda (Ohangaron) mis, kumush, qo'rg'oshin, Farg'onada

oltin, kumush, simob, temir, mis, feruza, qatron, Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar, Buxoro va Ustrushonada oltin, neft, feruza, temir konlari bo'lgan.

Buxoro va Samarqandda va yon-atroflarida gazlama to'qish yaxshi rivoj topgan. Paxtadan to'qilgan turli mato-gazlamalar mahalliy bozorlar hamda chet el savdogarlari orasida shuhrat qozongan. Ko'nychilik, hayvon terilaridan turli po'stin, bosh kiyim, poyafzal tayyorlash, echki, tuya, qo'y yunglaridan issiq kiyim (qars), guldor namatlar to'qilgani ham manbalarda alohida tilga olingan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Buxoroda Minorai Kalon, Jarqo'ton, Bobkentda minoralar, O'zgannda maqbara, minora, masjidlar, Samarqandda shifoxona, madrasalar bunyod etilgan. Undan tashqari, mashhur Raboti Malik, karvon-saroylar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, honaqolar ham barpo qilingan. Qoraxoniylar davrida turkiylashish jarayoni kuchaydi, turkiy til, ayniqsa, uning qarluq-chig'il lahjasi keng tarqala boshlandi, turkiy tildagi adabiyot yuzaga keldi.

Sovet davri tarixshunosligida G'aznaviylar, xususan mazkur davlatning eng yorqin namoyandasi Mahmud G'aznaviy shaxsi to'g'risida umumiy hamda bir yoqlama salbiy qarash ustunlik qilgan. Darslik va adabiyotlarda Mahmud G'aznaviyning asosan «talonchi», «zo'rovon hukmdor» deb ko'rsatish odat tusiga kirib qolgan. Mavzuning manbashunosligiga to'xtalganda bu sulola tarixi Abu Said Gardeziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Ma'sudiy» asarlarida ko'proq o'z aksini topganligini ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» va boshqalarda G'aznaviylar davlati xususida tegishli ma'lumotlar uchraydi.

Somoniylar hukmronligi davridayoq sobiq turkiy qul (g'ulom) lardan tashkil topgan gvardiya saroy hayoti, umuman, mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlagan edi. Ushbu gvardiyaning boshlig'i hojib ham ahamiyatli lavozim egasi bo'lgan. Hojiblarning eng kattasi – Hojibi buzurg (ulug' hojib) bo'lib, u eng yuqori davlat amaldorlaridan biri bo'lgan.

Hojiblar ichida Alptegin alohida salohiyat egasi bo'lib, 35 yoshida-yoq Xuroson sipohsolori darajasiga ega bo'lib, qo'lida 2700 nafar harbiy askarlari bo'lgan. Keyinchalik u Abdulmalik I davrida (954–961) katta mavqe va ulkan er mulklar egasiga aylandi. Amir vafotidan so'ng

(961) Alptegin yangi amir Mansur I (961–976) bilan o‘zaro nizoga borib qolib, bir qator to‘qnashuvlardan so‘ng, 961-yili G‘azna va uning atrofidagi yerlarni egalladi. Alptegin o‘z tarbiyasi va homiyligiga olgan sobiq turkiy qullar orasida Sabuqtegin ham bo‘lgan. 963-yili Alptegin vafot etgach, G‘aznada Somoniylar noibi sifatida uni Piri, Ishoq, Bilgateginlar ketma-ket boshqarib kelishdi.

Sabuqtegin asli Sirdaryo bo‘ylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo‘lib, yoshligida asir olinib, so‘ngra qul qilib sotilgan edi. Somoniylar turkiy gvardiyasi boshlig‘i Alptegin uni o‘z qaramog‘iga olgan. Somoniylar davlatining turkiy askarlar qo‘shinida xizmat qilgan Sabuqtegin 977-yildan boshlab G‘azna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Bu vaqtga kelib Somoniylar sulolasi inqirozga yuz tutgan bo‘lib, Sabuqtegin rasman noib bo‘lsada, o‘zini aslida mustaqil tutardi. Shijoatkor sarkarda Sabuqtegin aynan Somoniylar amiri Nuh II (976–997) dushmanlariga qarshi kurashda yordam berib, «Nosiriddin ad-davla» (Davlat va din himoyachisi), o‘g‘li Mahmud esa «Sayf ad-Davla» (Davlat shamshiri) degan sharafti nomlarga sazovor bo‘lishadi.

Sabuqteginning ta‘siri mamlakat ichra tez orada shu qadar kuchayib ketdiki, uning qarshisida Nuh II taxtda rasman o‘tirgan aslida zail hukmdorga aylanib qoldi. Somoniy hukmdor Mansur II (997–999) va Mahmud G‘aznaviy o‘rtasida nisbatan yaqin munosabatlar o‘rnatilgan edi. Otasining o‘limidan so‘ng Mahmud akasi Ismoilni taxtdan tushirib, o‘zi hukmdorlik darajasini egalladi (998–1030).

999-yil Somoniylar amiri Mansurni o‘limidan so‘ng Buxoro taxtiga ukasi Abdulmalik II egalik qildi. Bundan norozi bo‘lgan Mahmud Xurosonga qo‘shin tortadi va uni butkul Somoniylar davlatidan ajratib oldi. Oradan ko‘p o‘tmay Somoniylar davlati Qoraxoniylar sulolasi qo‘liga o‘tib, oxirgi amir ham zindonband qilinadi. Shunday voqealarga boy 999-yili Bag‘dod xalifasi al-Qodirbillah Mahmud G‘aznaviyga «Yaminud-davla va aminul-milla» (Musulmon davlatining o‘ng qo‘li va millatning omonligi) degan faxriy unvon va Xuroson hokimligiga yorliq, bayroq va nog‘ora yuboradi. O‘z navbatida, Mahmud G‘aznaviy ham Abbosiylar xalifasini rasman tan olib, uni payg‘ambar avlodi sifatida qadrlaydi. Bu esa Mahmud G‘aznaviy davlatining to‘liq mustaqilligidan darak berar edi.

1001-yildagi Qoraxoniylar xoni Nasr Ilekxon bilan o‘zaro kelishuviga binoan Amudaryo chegara sarhad qilib belgilandi. 1002-yili esa

Mahmud Eronning Seyiston viloyatini qo‘lga kiritadi. 1006–1008-yillarda qoraxoniy Qodirxon Mahmud G‘aznaviy yo‘qligidan foydalanib, Xurosonga yurish qiladi. Bunday hol ikki bor takrorlanib, Mahmud bir ikkala holatda ham Qodirxon qo‘shinlarini tor-mor keltiradi va Xurosondan haydab chiqaradi. 1010–1011-yillarda G‘ur viloyatiga yurish qilib, uning hokimi ibn Suriyni asir oladi. Keyin G‘archistonni (Murov va Hirot oralig‘idagi hudud) egallab, podshoh Sharnni ham band qiladi. 1015-yilda esa hozirgi Afg‘onistonning chekka tog‘li hududi Hamovandni bosib oladi. 1002–1026-yillar mobaynida Mahmud G‘aznaviy Hindistonga 17 marotaba yurish qiladi. Shubhasiz, bu yurishlarda sulton ko‘plab boyliklarni qo‘lga kiritadi, o‘nlab shahar-qishloqlarni vayron qiladi. Birgina 1019-yilgi yurishda 350 ta fil, 57 mingta asir, behisob boyliklarni o‘lja sifatida qo‘lga kiritgan.

Mahmud G‘aznaviy xorazmshoh Ma‘mun ibn Ma‘munni (1009–1017) o‘ziga kuyov qilib olib, tez orada ta‘sirini Xorazmga ham o‘tkazish taraddudiga tushadi. Bu vaqtga kelib, Xorazm yuksak dehqonchilik madaniyatiga erishgan, musulmon dunyosida ilm-fan markazi, yuksak salohiyatli olimlar yurti sifatida ham dong taratgan edi.

Avvaliga G‘aznaviyning elchisi, keyin Sulton Mahmudning o‘zi Ma‘munni siquvga olib, undan qaramlikni talab qila boshlashadi. Bir tarafdin Mahmud G‘aznaviy, boshqa tarafdin atrofda ayonlari hamda zodagonlar tomonidan qattiq qistovga olingan xorazmshoh, 1017-yil buhorida saroy fitnasi qurboniga aylanadi. Natijada, Mahmud G‘aznaviy bu voqelikni bahona qilib katta qo‘shin bilan kelib, Hazorasp yonidagi jangda Xorazm qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi. Xorazmdan ko‘plab boyliklar bilan birga, fan va madaniyat arboblari ham G‘aznaga ko‘chirib keltiriladi. Ular orasida ulug‘ olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi. Xorazmga esa sultonning sobiq bosh hojibi Oltintosh noib etib tayinlanadi.

Qoraxoniylarning o‘zaro tafovutlaridan foydalangan Mahmud G‘aznaviy 1024-yili Amudaryo bo‘ylariga yurish qilib, Chag‘oniyon, Qobadiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o‘z davlati tarkibiga kiritadi. XI asr tarixchisi Gardiziy «Zaynul axbor» asarida Mahmud G‘aznaviy bilan Tamg‘achxon Qodir Qoraxoniyni yuzma-yuz uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Uchrashuv 1025-yili Samarqand Janubidagi bir joyda bo‘lib o‘tadi. Shundan so‘ng, Sulton Movarounnahr ishlariga yanada ko‘proq aralasha boshladi.

Shia mazhabidagi Buvahiylar sulolasi hukmronligiga chek qo'ygan sulton Mahmud G'aznaviy 1029-yili Ray va Jilobni ham o'z mulkiga qo'shib oladi. Natijada, Mahmud G'aznaviy musulmon Sharqidagi eng yirik va qudratli davlat sohibiga aylanadi. Albatta, Mahmud G'aznaviy o'z davrining farzandi bo'lib, murakkab va ziddiyatli vaziyatlar, qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan o'rta asrlarda hukmdorlik qilgan. Bu hol uning barcha sa'y-harakatlari, ichki va tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo'lgan.

G'aznaviylarning mashhur sultoni X asr oxirlari, XI asr boshlarida O'rta Sharqda yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-diniy ahvolni o'z holicha tahlil etishga harakat qiladi. Shu davrda musulmon olamida turli diniy oqim va mazhablar, har xil yo'nalishlar harakati kuchayib ketdi. Ular orasida ixtiloflar, diniy ayirmachilik kayfiyatidagi qarmatlar va, ayniqsa, shialikning o'ta so'l oqimi ismoiliylik ko'rinishida xavfli edi. Mazkur oqimlar tinch hayotga raxna solar, o'zaro qo'rquv va vahimani kuchaytirib, ko'plab begunoh kishilarga zarar yetkazar edi.

An'anaviy sunniy oqimiga qarshi turli diniy guruhlar ko'proq Hindiston bilan chegaradosh chekka viloyatlarda o'z faoliyatlarini kuchaytirib yuborishadi. Jumladan, Mo'lton (hozirgi Pokiston hududi) hokimi Abul Futuh Dovud ibn Nasr yangi mazhabga asos solib, o'z aholisini unga da'vat eta boshlaydi. Payg'ambar yo'li – sunniylikning hanafiya mazhabiga sodiq bo'lgan Sulton Mahmud G'aznaviy shu oqimlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradi. Shubhasiz, uning Hindistonni talon-toroj qilinishini bu bilan oqlab bo'lmaydi. Ammo, sabablarni ham ko'zdan qochirmaslik kerak. O'z davri farzandi bo'lgan sulton diniy fitnalarga qarshi kurashda Bag'dod xalifasi farmonlari, Imomi A'zam Abu Xanifa ko'rsatgan yo'l, shariat qonun-qoidalariga tayanar edi.

Mahmud G'aznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o'ljalarni ko'p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G'aznada ilk davlat madrasasi, mashhur jome masjidi, ulkan suv to'g'oni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G'azna tez orada Sharqning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Beruniy G'azna haqida gapirganda, bu shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar ko'pligini qayd etadi.

Sulton Balx va Nishopurda ham bir qator qurilish ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, sulton ilm-fan, madaniyat arboblari ham

homiylilik qilgan. Mahmud G'aznaviyning o'zi turkiy, arab, fors tillarini mukammal bilgan, she'riyatdan xabardor bo'lgan. Uning saroyida Farruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardeziy, Bayhaqiy va shu singari shoir, tarixchilar ham faoliyat ko'rsatishgan. Beruniyning eng sara asarlari ham G'aznada dunyoga kelgan. Beruniy Mahmud G'aznaviy vafotidan (1030) keyin ham G'aznada to umrining oxirigacha, 1048-yilga qadar yashab qoladi. U G'aznada rasadxona ochib, shogirdlariga dars beradi, unumli ijod qiladi. Mahmud G'aznaviy otasi Sabuqtegin yozib qoldirgan, «Ma'naviy ulug'vorlik bamisoli alanga va shamol, bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa, qiya yerdagi qum uyumiga o'xshash uning tubanlikka surilish xosiyati bor», degan nasihatiga ko'ra, ilm-fan sohasiga ham katta e'tibor bilan qaragan. Shunisi diqqatga sazovorki, sulton 1019-yili musulmon olamida ilk davlat madrasasini ochib, unga noyob qo'lyozmalarni to'platgan. Balx, Nishopur va boshqa shaharlarda ham turli inshootlar qurilgan.

Aslida Abul Qosim ismli fors shoiriga Firdavsiy taxallusini byergan ham Mahmud G'aznaviy hisoblanadi. Sulton avval Firdavsiyga ijobiy munosabatda bo'lgan. Lekin, shoir ijodi uchun munosib haq olmaganligini ro'kach qilib, berilgan 60 000 kumush dirhamni bir necha kishiga bo'lib tarqatish orqali hurmatsizlik ko'rsatgach, sulton bundan qattiq g'azablanadi va uni o'limga hukm qiladi. Ammo Firdavsiyning tavba-tazzarusidan keyin ko'ngli yumshab, hukmni bekor qiladi va shahardan chiqib kyetishni buyuradi. Shoir Tusga yo'l oladi.

Firdavsiy saldan keyin sultonni hajv tig'iga olgan baytlar yoza boshlaydi. Bu esa, Mahmud G'aznaviy nomining keyinchalik ham Firdavsiy ijodida salbiy ohangda tilga olinishiga zamin hozirlaydi. Umuman olganda, boshqa forsiyzabon shoirlar masalan, Abulhasan Farruxiy, Abdulmajid Sanoiy va boshqalar sulton saroyida samarali ijod qilishgan.

Sulton Mahmud G'aznaviylar davlatining ustuni edi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Ma'sud (1030–1041) shuhrat pog'onasini Saljuqiylarga topshirishga majbur bo'ldi. Mas'ud hukmronligi davrida Saljuqiylar ta'siri kuchaya bordi. 1040-yil mayida bo'lib o'tgan Dandanaqon jangidan so'ng Xuroson Saljuqiylar hukmiga o'tadi. Ma'sudning ukasi Muhammad 1041-yil yanvarida Ma'sudni qatl ettirdi. O'zi esa boryo'g'i 3 oy hokimiyatni egallab turdi. 1041-yil aprelidagi jangdan so'ng Ma'sudning o'g'li Mavdud taxtni egalladi. Sulton Mavdudning (1041–1050.) G'aznaviylar shuhratini qaytarish uchun sa'y-harakatlari



G'aznaviylar davriga oid tanga.

deyarli besamar tugadi. Tez orada G'aznaviylar davlati qo'li ostida Sharqiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning bir qismi qoldi, xolos. G'uriylar hukmdori G'iyosiddin Muhammad 1186-yili oxirgi sulton Xisrav Malikni Panjobda o'ldirib, butkul G'aznaviylar sulolasiga xotima beradi.

G'aznaviylar O'rta Sharq hududida yagona geosiyosiy maydonni birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar, shuningdek ular hukmronligi davrida ma'naviy hayotga tahdid soluvchi kuchlarga nisbatan chek qo'yildi, ilm-fan, adabiyot, shaharsozlik qurilishida ma'lum taraqqiyot yuz berdi.

Mahmud G'aznaviy X asr birinchi choragida musulmon Sharqi siyosat maydonida katta o'rin tutgan buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Har bir tarixiy shaxs kabi uning faoliyati ham ziddiyatli va qarama-qarshiliklardan xoli bo'lmagan. Ayniqsa, bu hol uning butun hukmronlik davrining asosiy mohiyatini tashkil etgan.

G'aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi Somoniylar, Qoraxoniylar davridagi boshqaruvga yaqin bo'lgan. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohda hojiblik xizmati alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Hojiblikning bu davrda tarixchi Bayhaqiy ta'kidlagan quyidagi shakllari bo'lgan: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat hojiblar orasida, balki butun mamlakat hayotida katta mavqega ega bo'lgan. Masalan, Mahmud G'aznaviydan so'ng bevosita hokimiyat ishlarini qo'lga olgan ulug' hojib Ali Qarib ismli shaxs bo'lgan. Rasmiy marosimlarda, turli tadbirlarda ulug' hojib hukmdorga eng yaqin joyda turgan. Janglarda ham unga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, hukmdor markaziy, sipohsolor o'ng qanoz, ulug' hojib esa chap qanotga boshchilik qilgan.

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (hukmdor shaxsiy hujjatlari bilan bog'liq ishlarga bosh), pardador (maxfiy xizmatlarni bajaruvchi), martabador (o'rta darajadagi amaldor), farrosh (kichik xizmatchi), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlovchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'rni bo'lgan. Devonlar (vazirliklar) tabiiyki, ijroiya idoralari bo'lib, ularning manbalarda besh-tasining nomi keltiriladi: vazir devoni, ya'ni bosh va-

ir devoni, harbiy ishlar devoni, diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlar devoni, moliya devoni, xat-xabar (pochta) devoni. Shuningdek, mushriflik (davlat nazorati), muxtasiblik xizmatlari ham bo'lgan. Viloyat boshlig'ini voliy deb atashgan, u hukmdor tomonidan tayinlanar edi. Viloyatdagi ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini esa rais deb atashgan. Shahar miqyosida shihna, qutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat yuritishgan.

G'aznaviylar, xususan Mahmud G'aznaviy davrida kuchli qo'shin yuzaga kelgan. Bosh qo'mondon-sipohsolor mansabiga sulolaning eng ishonchli kishisi tayin etilgan. Masalan, Mahmud G'aznaviy davrida bu mansabga Muhammad Yusuf tayinlangan. Yuqori harbiy lashkarboshilar harhang deyilib, ular xayl (bir necha o'n otliq)larga boshchilik qilishgan. Harbiylar o'z qozilik, xat-xabar xizmatlariga ega bo'lishgan. Shaxsan dargohda saralangan kuchli gvardiya ham alohida tarzda mavjud bo'lgan.

G'aznaviylar davrida ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari ancha rivoj topdi. Shaharlarda hunarmandchilik sohalari, qurilish, binokorlik, ganchkorlik va boshqalar taraqqiy etdi. Qishloq xo'jaligi avval boshidagi inqirozdan so'ng yana qaddini rostab ola boshladi, bozorlarda turli mahsulotlar turi ko'paydi va hokazo.

Saljuqiylar tarixi xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida al-Movardiyning «Al-ahkom as-sultoniya val-valoyot ad-diniya» («Sultonchilik ahkomi va diniy boshqaruvlar»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Sadriddin Ali Husayniyning «Zubdat at-tavorix», «Tarixi Salojaqa» Zahiriddin Nishopuriyning «Saljuqiynoma», noma'lum muallifning «Hudud ul-olan», Mas'udiyning «Muruj az-zahab», Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Ma'sudiy», Abu Said Gardeziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asimning «Al-Komil fit-tarix» asarlarini alohida ta'kidlash joiz.

XX asr tarixshunosligida saljuqiylar masalasi yuzasidan A. Lempton, K. Kaen, G. Xorst, N.B. Kyuner I. Kafas o'g'li, S. Len-Pul, K. Bosvort, B. Zaxoder va boshqalar tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Saljuqiylar davlati xususidagi fundamental asar turkman tarixchisi S. Agajanovga tegishli bo'lib, yuqorida qo'yilgan masala yuzasidan muallif tomonidan e'lon qilingan adabiyotlarda to'laqonli ravishda o'z aksini topgan.

Saljuqiylar kelib chiqishi bo'yicha turkiy o'g'uz qavmiga tegishli bo'lib, Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi tarzda ha-

yot kechirishardi. O'g'uz qabilalari bir necha urug'larga bo'lingan edi. Ushbu urug'lardan biri – qiniq urug'i bo'lib, uning sardori – Saljuq ibn Do'kak ismli kishi bo'lgan. Tarixchilar, xususan Ibn al-Asir Saljuqni iste'dodli, o'z fikr-mulohazasiga ega rahbar sifatida ta'riflagan. Ular ma'lum sabablarga ko'ra 925-yili Jand viloyatiga kelib o'tmashib, so'ngra islom dinini qabul qilishadi. Bu yerda boshqa ko'chmanchi turkiy qavmlar bilan turli darajadagi kurashlar bo'lib o'tdi.

Saljuqning Muso, Yunus, Mikoil va Isroil ismli o'g'illari bo'lgan. Isroil manbalarda Arslon nomi bilan keltiriladi, Dovud esa Chag'ri nomi bilan ataladi. Tarixiy manbalarning xabariga ko'ra Saljuq Janda 102 yoshda vafot etib, o'sha yerga dafn etilgan. Mikoil ham o'zaro kurashlarning birida halok bo'lib, uning o'g'illari To'g'ul va Dovudlar Buxorodan 12 farsah uzoqlikdagi yerlarga kelib o'tmashadi. Arslonxon (Isroil) Qoraxoniylar xizmatiga o'tib katta mavqega ega bo'lgan, Alpteginga Movarounnahrni olib berishda yordam byergan. Qoraxoniylarning Amudaryodan Janubga o'tishlariga qarshi harakat boshlagan Mahmud G'aznaviy saljuqiylarning kuch-quvvati, harbiy salohiyatini guvohi bo'ldi. U saljuqiylardan bo'lgan Arslon ibn Saljuqni qo'lga oldi. U 7 yil hibsda bo'lib 1032-yili vafot etdi. Shundan so'ng Saljuqiylarga To'g'ul va Dovud boshchilik qila boshlashdi.

Shu voqeadan so'ng Mahmud G'aznaviy 1025-yili 4000 oiladan iborat saljuqiylarga Amudaryodan kechib o'tib, Saraxs, Farova, Obivard atroflaridagi yerlarga kelib o'tmashishga ruxsat berdi. Saljuqiylarning bir qismi Isfahon va Kirmonga kyetishlari ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. 1029-yili Mahmud G'aznaviy ularga qarshi kurash olib bordi. Saljuqiylar avval Mahmud G'aznaviy, so'ngra uning o'g'li Ma'sudning soliq siyosatiga qarshi chiqqa boshladilar. Bu paytda Xorazmda ham vaziyat keskinlashdi. G'aznaviylarga qaram bo'lgan Oltuntosh vafotidan so'ng uning o'g'li Xorun ibn Oltuntosh Xorazm hokimi etib tayinlangan edi. Xorun qoraxoniylar bilan til biriktirgan holda, 1030-yili Xurosonga yurish qildi. Ma'sud Xorunni yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi hamda qoraxoniylar bilan diplomatik kelishuvni amalga oshirdi. 1035-yilga kelib saljuqiylarning Xurosonda navbatdagi norozilik isyonlari boshlandi. Isyonlar oqibatida ko'plab nomaqbul ishlar, talonchilik harakatlari ham bo'lib o'tib, bu haqli tarzda oddiy aholi noroziligiga olib keldi. 1038–1039-yillarda Ma'sud G'aznaviy Balxdan Saraxs tomon qo'shin tortib, saljuqiylarning o'sha yerdagi qismlarini tor-mor keltirdi.

Ma'suddan uzoqroqda bo'lgan To'g'ulbek esa Nishopur atroflarini egallab, katta o'ljani qo'lga kiritdi. Saljuqiylarning To'g'ulbek va Chag'ribek Dovud boshchiligidagi qo'shinlari Xurosonning turli hududlarida o'z mavqelarini oshirdilar. 1040-yil bahorida Saraxs va Marv oralig'idagi sahroda joylashgan Dandanakon nomli kichik qal'a yonidagi jang G'aznaviylar sultoni Ma'sud G'aznaviyning (1030–1041) mag'lubiyati bilan tugadi.

Ma'sud G'aznaviy qolgan-qutgan qo'shinini olib tezlik bilan orqaga chekinishga majbur bo'ladi. Jang maydonining o'ziga taxt olib chiqilib, To'g'ulbek yangi yuzaga kelgan saljuqiylar davlatining birinchi hukmdori deb e'lon qilindi (1040–1063). Ma'sud G'aznaviy Xuroson va Movarounnahr aholisi ichida uni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p bo'lmasligini anglagan holda Hindiston tomonidan qo'shin yig'ishga harakat qilmoqchi bo'ladi. Shu yo'nalishda o'z ukasi Muhammadni tutqinlikdan ozod qilib, o'zi bilan safdosh qilish rejasini chippakka chiqdi. 1041-yili Muhammad va uning tarafdorlari tomonidan Ma'sud o'ldirildi. Ma'sudning o'g'li Mavdud bu voqeadan xabardor bo'lgach, katta qo'shin bilan Dinur (Fathobod) yonidagi jangda amakisi Muhammadni mag'lubiyatga uchratdi. Mavdud garchi Termiz va Balxni qo'lga ushlab qolgan bo'lsa-da, lekin u yuborgan qo'shin ham saljuqiylardan mag'lub bo'ldi.

Saljuqiylar raxnamosi To'g'ulbek (1040–1063) boshchiligidagi qo'shin tez orada Xurosonning katta qismi, Xorazm, Dehiston, Gurgonni qo'lga kiritdi. 1042-yili To'g'ulbek otliqlari Shimoliy Erondagi Ray viloyatini qo'lga kiritishdi. Saljuqiy otliqlar Ozarbayjon, Fors, Iroq yerlariga tez-tez hujum uyushtirib turdilar. To'g'ulbek qo'shini 1055-yili Bag'dodga kirib keldi. Bag'doddagi abbosiylar xalifasi al-Qayum (1031–1075) To'g'ulbek hukmini tan olgan holda, uni «sulton» deb e'lon qildi. To'g'ulbek qo'shinlari Kirmon va Forsni egallab, Kavkazda Vizantiya imperiyasiga qaqshatqich zarba berdi. Tez orada Xorazm, Xuroson, Eron, Iroq va Kavkazning bir qismini o'z ichiga olgan Saljuqiylar davlati yuzaga keldi. To'g'ulbekning kuchli markazlashgan davlatni yuzaga keltirish, mamlakatda o'zaro parokandalikni tugatish, turli ayirmachi diniy guruhlarga qarshi kurashini aholining katta qismi, xususan xalifaning o'zi ham qo'llab-quvvatlar edi.

To'g'ulbek vafotidan so'ng taxtga uning jiyani Muhammad Alp-Arslon o'tirdi (1063–1072). Alp-Arslon taxtga o'tirgach, uni tan olishni xohlamagan ba'zi saljuqiy qarindoshlariga qarshi kurash olib bordi. Alp-

Arslonning amakisi Faxr al-Mulk Hirotda o'zini mustaqil deb e'lon qiladi. Alp-Arslon katta qo'shin bilan Hirotni egallashga muvaffaq bo'ladi. Faxr al-Mulk uni yagona va qonuniy sulton sifatida tan oldi. Shundan so'ng kuchli harbiy lashkarboshi bo'lgan Alp-Arslon Chag'oniyonga yurish qiladi. Chag'oniyon hokimi Muso jangda asir olindi. 1065-yili Alp-Arslon Jayhun (Amudaryo)dan o'tib, Jand va Sabronga yurishni amalga oshirdi. Jand ham uning hukmini tan oldi. Shu tariqa davlat hududi yanada kengaydi. Bosib olingan yerlarda odatda mahalliy hokimlar, sulolalar hukmiga deyarli chek qo'yilgan. Ular o'z aholisidan yillik boj solig'i to'lashar, oliy hukmdor sifatida saljuqiylar sultonini tan olishar edi. Sulton ko'p holda istilo qilingan yerlarni o'z qarindoshurug'lari, taniqli harbiy boshliqlarga bo'lib bera boshladi.

Alp-Arslon keyingi harbiy harakatlarni davom ettirib, 1071-yili Kichik Osiyodagi Mantsikert qal'asi yonida Vizantiya imperatori Roman IV Diogenga (1067–1071) hal qiluvchi zarba berdi. Imperator butun qo'shini bilan Alp-Arslonga asir tushdi. Mantsikert yonidagi jang Dandanaqon (1040) jangidan so'ng saljuqiylar tomondan amalga oshirilgan ikkinchi yirik harbiy operatsiya bo'ldi. Bu jang hosilasi o'laroq saljuqiylarning Old Osiyoga kirib kelishlariga keng yo'l ochildi. Alp-Arslon Movarounnahrda harbiy yurish vaqtida 1072-yili mahalliy qal'a boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan og'ir yaralandi. Asirlikdagi Yusufning qahramonona xatti-harakatiga darhol chek qo'yilib, o'zi o'sha zahotiy oq saljuqiy askarlar tomonidan o'ldirildi. Og'ir yaralangan sulton Alp-Arslon ham tezda vafot etdi. Sulton Marvga dafn etildi.

Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, Alp-Arslon hayotlik chog'idayoq 1066-yili Eron Shimolidagi Radkon (Radakon) degan joyda saroy ayonlari oldida o'g'li Malikshohni taxt vorisi deya e'lon qilgan edi. Jaloliddin Malikshoh nomi bilan taxtga o'tirgan yangi sulton hukmronligi ropparosa yigirma yil davom etdi (1072–1092). Uning hukmronligi saljuqiylar hukmronligining eng gullab-yashnagan davri bo'ldi. Sulton Jaloliddin Malikshoh avval qoraxoniylardan Termizni qaytarib oldi. Qoraxoniylar sulton ustunligini tan oldilar. 1089-yili saljuqiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh qoraxoniylar xoni Ahmadxondan norozi guruhlar bilan kelishgan holda Movarounnahrda yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egalladi. Shundan so'ng sulton Qashg'ar tomonga yurish qila turib, Farg'onaning O'zgand shahriga yetib keldi. Sultonning harbiy yurishidan cho'chigan Qashg'ar hokimi uning oliy hukmronligini tan

olganligi haqida chopar jo'natdi. Keyinchalik Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olon bois shahar ikkinchi marotaba mahv etildi.

Jaloliddin Malikshoh davrida saljuqiylar davlatining chegaralari Sharqiy Turkistondan O'rta Yer dengiziga qadar cho'zilib ketdi. Ta'kidlash joizki, bu ulkan hududdagi yerlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni boshqarish uchun malakali mutaxassislar kerak bo'lardi. Shunday bir vaziyatda Movarounnahr va Xuroson madaniy qatlamlaridan chiqqan o'qimishli mahalliy xalq vakillarini davlat ishlariga jalb etish boshlandi. Shunday kishilardan biri asli Tusdan bo'lgan Abu Ali ibn Ali ibn Ishoq bo'lib, u deyarli 30-yil davomida (1063–1092) Alp-Arslon, Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida bo'lgan. Uning yuksak salohiyati, aqlu-zakovatiga yuqori baho berib, sulton Malikshoh vaziriga «Nizomulmulk» («Davlat nizomi, qonun-qoidasi») faxriy taxallusini berdi. Nizomulmulk o'zining mashhur «Siyosatnoma» asarida davlat boshqaruvi, siyosat tamoyillari haqida so'z yuritgan.¹

Davlatni markazlashtirish, o'zaro parokandalik va ayirmachilikka qarshi kurash, xo'jalik va madaniy hayotni yuksaltirishda Nizomulmulkning hissasi yuksak darajada bo'lgan. Nizomulmulk markazlashgan, qudratli davlat uchun kerak bo'ladigan amaldorlarni tegishli qonun-qoidalar uslubida tarbiyalashda qator shaharlarda «Nizomiya» madrasalarini tashkil etdi. U an'anaviylik tarafdori bo'lib, ijtimoiy-ma'naviy hayotda ismoiliylik diniy oqimiga qarshi turgan.² Sulton Jaloliddin Malikshoh o'limidan so'ng (1092), o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar boshlanib ketdi. Bu kurashda sultonning yosh o'g'li Berkiyuruq (1094–1105) g'olib bo'ldi. Keyinchalik ham nizolar davom etib, XII boshlarida saljuqiylar davlati amalda ikki qismga bo'linib ketdi. Movarounnahr va Xuroson kirgan Sharqiy saljuqiylar qismida Malikshohning o'g'li Sanjarning ta'siri ortib bordi. 1097-yildan Xuroson hokimi bo'lgan Sanjar oliy hukmdorga rasman bo'ysunsa-da, amalda mustaqil harakatlar olib bordi. 1099-yil u Toharistonni, 1102-yil Samarqandni qo'lga oldi. Termiz yonida qoraxoniylar xoni Qodirxon

¹ Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari 1997-yili o'zbek tiliga tarjima qilingan.

² Nizomulmulk tomonidan olib borilayotgan siyosiy yo'l ma'lum davlat amaldorlariga maqbul emas edi. Turli fitna-fasodlar bois Nizomulmulk 1092-yil iste'foga chiqib, hajga yo'l olgan paytida ismoiliy josus tomonidan o'ldirildi.

qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, Movarounnahr taxtiga boshqa qoraxoniylar vakili, o'z jiyani Arslonxonni o'tkazishga muvaffaq bo'ldi.

1104-yili G'azna qo'lga kiritildi. G'aznaviylardan taxtga o'tkazilgan Bahromshoh har yili Sanjarga besh ming dinor boj solig'i to'lash majburiyatini oldi. Oliy sulton G'iyosiddin Muhammad I (Muhammad Topar) vafotidan keyin boshlangan o'zaro kurashlarda Sanjar g'olib bo'ldi.

Taxtga Sulton Muiziddin Sanjar (1118–1157) nomi bilan o'tirgan yangi hukmdor Sharqiy va G'arbiy saljuqiylarni birlashtirdi. O'z g'alabasidan manfaatdor tarzda Mozandaron, Damovand, Qumis, Damg'on, Ray yerlarini ham egalladi. Uning hukmdorlik rutbasini Seyiston, Xorazm, G'azna, Movarounnahr yerlari ham tan oldi. Sanjarning sultonlik hokimiyatini olishda xorazmshoh Qutbiddin Muhammad katta ko'mak ko'rsatdi. Garchi sulton Sanjar barcha saljuqiylarning oliy hukmdori sanalib, uning nomi ramziy tarzda xutbada, tangalarda qayd etilsa-da, lekin Iroq, Kichik Osiyo, Janubiy Kavkazda uni rasman tan olishar, aslida bu yerlarda mustaqil saljuqiy hokimlar hukmronlik qilishardi. Sulton Sanjar qo'lida uzoq vaqt Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G'azna, Movarounnahr qaram bo'lib keldi. Sanjarni uzoq hukmronligi davrida o'z davri kishilik jamiyati, muarrixlar «Malik al-mashriq», «buyuk sulton», «sultonlar sultoni», «ulug' shahanshoh» nisbalari bilan ulug'lashgan. Sulton Sanjar o'z poytaxti sifatida Marv shahrini tanlagan.

Ta'kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o'z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. Shuning uchun ham, markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola, vakillarining toj-taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o'lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo'lgan edi. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib (1118–1157) Saljuqiylar davlatining G'arbiy Iroq qismida uning ta'siri pasayib qoladi. Mamlakatning Sharqiy qismi – Eron, Afg'oniston, Xorazm va Movarounnahrda sultonning ta'siri bir muncha kuchli edi. Ammo, 1141-yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, Qoraxoniylar Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari bilan qoraxitoylar o'rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangda Sulton Sanjar qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo'ldan kiyetib, sultonning mavqei ancha pasayib ketdi.

Saljuqiylarning mag'lubiyatidan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylar-

ning poytaxti Marvni bosib oldi va 1142-yilda Nishopurga yurish qildi. Lekin, Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqardi va Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Sulton Sanjarning harakatlari qaramay, Saljuqiylar davlati o'zining avv. qudratini yo'qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi o'g'uz qabilalari berdi. 1153-yilda ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uning o'zini asir oldilar. O'g'uzlar umoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-toroj qilib, o't qo'yishdi. Sulton Sanjar 1156-yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo'lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi. Sulton Sanjar vafoti bilan (1157) saljuqiylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi o'z poyoniga etdi.

Saljuqiylar 1157-yildan – 1194-yilgacha faqat G'arbiy Eron va Iroqda hukmronlik qilishgan. A. Ziyo tadqiqotlariga ko'ra, Saljuqiylar davlat boshqaruvi o'ziga xos edi. Davlat boshlig'i, oliy hukmdor saljuqiylar xonadoni vakili bo'lib Sulton ul-a'zam unvoniga ega bo'lgan. Ilqarigi sulolalarda bo'lgani kabi, sulton nomiga xutba o'qilib, tangalar zarb etilgan. Mol-mulk, yer-suv taqsimlash davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilib turish, amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilish, yangi qal'alar, shaharlar, hashamatli inshootlar qurishga boshchilik qilish kabilar sultonning zimmasida bo'lgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega edi. Manbalarda bosh vazir-ra'is ur-ruaso (raislarning boshlig'i), sa'id ur-ruaso (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimi dargoh va devonga bo'lingan bo'lib dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:

Ulug' hojib – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor.

Amiri horis – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor.

Salohdor – saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa, oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug'ullanuvchi amaldor.

Xos vakil – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor.

Jangdor – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor. Undan tashqari, oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlanishiga mas'ul), sahing, miroxo'r, tashtdor kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo'lingan. Sulolaviy devonlar oliy hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu xonadonga tegishli bo'lgan mol-mulk, yer-suv, xazina kabilarning boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlar quyidagilar bo'lgan:

Devoni tug'ro – bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ham shu devonning vazifasi edi;

Devoni istifo (moliya devoni) – davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar, ularni alohida ro'yxatga olish bilan shug'ullangan. Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog'ida bo'lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilishgan;

Devoni ishrof (davlat nazorati) – moliya-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, sulolaga tegishli yer-suvlar, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozor mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

Devoni arz (harbiy vazirlik) – lashkarga mo'ljallangan maosh va ta'minot, harbiylarning ro'yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta'minot, harbiylar ko'rigini tashkil etish kabi vazifalarni bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa, Sulton Sanjar hukmronligi davrida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o'rin egallashgan. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko'pchiligi turli urug' va qabilalardan (o'g'uz, turkman, xalaj, chig'il va boshq.) chiqqan kishilardan bo'lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o'z ta'sirini Sulton Sanjar boshqarayotgan hokimiyatga o'tkazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qilishgan. Harbiy sarkardalarning mavqei Sulton Sanjarning Qatvon cho'lidagi mag'lubiyatidan so'ng yanada kuchayib ketgan edi.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliylar) ham o'z devonlariga ega bo'lishgan. Boliylarni oliy hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Boliylar butun viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalarga boshchilik qilishgan. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoliyat ko'rsatgan. Tumanning va shaharlar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki sinfga bo'lgan.

4. Xorazmshohlar – Anushtaginiylar davlati.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti tarixida qadimiy Xorazm vohasi o'ziga xos o'rinni egallaydi. Unda kechgan siyosiy jarayonlar ko'p holda butun mintaqadagi holatga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Iqlim sharoiti nisbatan noqulay bo'lgan vohada asrlar davomida mazkur hududda yashovchi zahmatkash va tanti, shijoatli va mehnatsevar aholi qo'li bilan qator suv inshootlari, qal'a va shaharlar barpo etilganligi, boy madaniy va ma'naviy meros vujudga kelganligini alohida ta'kidlash lozim.

Xorazm eli hukmdori – Xorazmshoh unvoniga o'z vaqtida bir qator sulolalar mansub bo'lishgan. Jumladan, 305–995-yillarda Afrig'iylar, 995–1017-yillarda Ma'muniylar, 1017–1034-yillarda G'aznaviylar noibi bo'lmish Oltuntosh avlodlari shular jumlasidandir. Abu Rayhon Beruniy xorazmshohlar unvoniga birinchi sazovor bo'lgan Afrig'iylarni siyovushlarning 22 avlodi bo'lgan Afrig'ga borib taqaladi degan edi. Afrig'iy-Xorazmshohlar eramizning 305-yilidan to 995-yilgacha Xorazmda hukmronlik qilishgan.

X asrda Xorazm Somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Xorazmshohlar esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida hukmronliklarini davom ettirishgan. Somoniylar davlati inqirozga yuz tutib, 990–992-yildagi Qoraxoniylar hujumi natijasida Afrig'iylar sulolasi vakili Abu Abdulloh Muhammad hukmronlikni o'z qo'lga olib, Kot (hozirgi Beruniy) shahrini o'z qarorgohi deb e'lon qildi. Xorazm tez orada Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'linib ketdi. Shimoliy Xorazm poytaxti – Gurganj, Janubniki esa – Kot shaharlari deb e'tirof etildi. Bu ikkala shahar ham o'z davrining yirik savdo-iqtisodiy markazlari bo'lib hisoblanardi.

992-yili ikkala tomon o'rtasida bo'lib o'tgan janglarda Shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Ma'mun g'alaba qozondi hamda Xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganj (hozirgi ko'hna Urganch)

ni poytaxt deb e'lon qildi. Ma'mun ibn Muhammad (992–997), Ali ibn Ma'mun (997–1009) davlat qudratini mustahkamlab, harbiy kuch-qudratni oshirishga katta ahamiyat berdi. Ushbu davlatni yon-atrofdagi davlatlar, hatto Kiyev Rusi ham tan olgan edi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hatto knyaz Bladimir Xorazmga o'z vakillarini yuborgan ekan. Ma'muniylar o'z hududlarini ham kengaytirishga muvaffaq bo'ldi, Volgabo'yi, Sirdaryo, Kaspiy oralig'idagi yerlarni o'z hukmronligi ostiga olishdi. Ma'muniylar mamlakatda tartib va osoyishtalik o'rnatib, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdi, ilm-fan, madaniyat vakillariga homiylik qilishdi. Abul Abbas Ma'mun (1009–1017) davrida davlat ichki va tashqi siyosatidagi ijobiy harakatlar davom ettirildi. Xususan, uning hukmronligi davrida Xorazmda «Xorazm Ma'mun akademiyasi» nomi bilan dong taratgan ilmiy markaz tashkil qilingan. Qurilish, obodonchilik ishlariga katta e'tibor berilgan.

Aynan Anushtaginiylar (1097–1231) davridagina mazkur unvon mavqei o'zining baland cho'qqisiga chiqib, mazkur sulolani o'z davrining eng buyuk va nufuzli saltanatiga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlati tarixiga oid bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida quyidagilar o'z ko'lamiga ko'ra alohida o'rin egallaydi. Ibn al-Asirning (1160–1234) «Al-komil fi-tarix» («Mufassal tarix»), Rashididdin Fayzulloh al-Hamadoniyning (1247–1318) jahon tarixiga bag'ishlangan «Jome ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi»), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning katta ahamiyat kasb etuvchi «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati»), Olovuddin Otamalik Juvayniyning (1226–1283) «Tarixi Jahonkushoy» («Jahongir tarixi»), Hamidulloh Qazviniyning (1281-y. tug'.) «Tarixi go'zida» («Saylangan tarix») Abul Fidoning (1273–1257) «Muxtasar tarix al-bashar» («Bashariyat qisqacha tarixi»), Sharofiddin Abdulloh Bassofning «Tarixi Bassof», Minhajiddin Juzjoniyning «Taboqati Nosiriy» («Nosirga atalgan jadvallar») asarlari shular jumlasiga kiradi.

Xorazmshoh – Anushtaginlar davlati tarixi XX asr tarixshunosligida ham chuqur o'rganilganligini ta'kidlash lozim. Rus olimlaridan B. B. Bartold, S. P. Tolstov, A. Ya. Yakubovskiy, S. Bolin va boshqalar yuqorida ta'kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e'tibor byergan holda o'z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib berishgan. Shubhasiz, xorazmshohlar tarixi xususidagi fundamental asar bu Sharqshunos olim

Z. Bunyodov qalamiga mansub «Anushtagin xorazmshohlar davlati» kitobi hisoblanadi. Muallif o'z asarida xorazmshohlar davlatining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, madaniyat masalalarini mukammal tarzda yoritib beradi.

Ushbu asarni o'zbek kitobxonlari 1998-yildagi tarjima asnosida o'z ana tillarida o'qishga muyassar bo'ldilar¹. Mustaqillik yillarida mavzuga oid adabiyotlar ichiga Azamat Ziyoning 2000-yili chop etilgan «O'zbek davlatchiligi tarixi» asarini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur adabiyotda muallif o'zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlatining tutgan o'rni va rolini manbalar tahlili asosida ko'rib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Mavzuga oid masalalarning ma'lum jihatlari qator xorijiy olimlar asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ular orasida K. Bosvort, Ibrohim Qafas o'g'li, J. A. Boyl, K. K. Balkar, R. Krausset, D. Martin, R. Maxapandita, E. Knoblich, O. Tonariy, G. Brokgelman H. Shpuler, A. Xartmann, F. Daftariy, J. Kolbas, D. Siyoqiy. D. Timoxin va boshqalarning asarlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Xorazmshoh – Anushtaginiylar sulolasining asoschisi Anushtagin tarixchilardan Rashididdin, Hofizi Abrularning yozishlariga qaraganda o'g'uzlarning turkiy «bekdili» urug'iga mansub bo'lib, yoshligida qul qilib sotilgan. Uni saljuqiy harbiy amirlaridan Izziddin O'nar Bilgitagin sotib olgan. Sulton Jaloliddin Malikshoh I (1072–1092) davrida Anushtagin saroyda ishonchli kishilar safidan joy olib, tez orada tashtdorlik mansabini egallagan. Eng ishonchli kishilarga taqdim etiluvchi ushbu mansab egasi tez orada sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Keyinchalik u Xorazm mutasarrufi mansabiga tayinlanib, unga Xorazm shixnasi (qal'a boshlig'i) unvoni beriladi. Sulton Rukniddin Berkiyoruq (1094–1104) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Dodbek Habashiy ibn Oltuntosh (1097-yili vafot etgan) Anushtagining xizmatlarini inobatga olgan holda uning o'g'li Qutbiddin Muhammadni Xorazm hokimi etib tayinlab, unga «Xorazmshoh» unvonini beradi. Aynan shu yildan sulola boshlani uning tarixi boshlanadi.

Qutbiddin Muhammad (1097–1127) otasi hayotlik chog'idayoq Marvda o'qib, ta'lim olgan, qator dunyoviy va diniy ilmlardan boxabar ma'rifatli shaxs bo'lgan. Tarixiy manbalar uni qobiliyatli rahbar sifatida

¹ Kitobning yana bir tarjimasi prof. H. Voltaboyev tomonidan 2012-yili tarjima qilindi. Qarang: Ziyu Bunyodov. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar. – Toshkent: «Mumtoz soz», 2012.

ma'rifat ahliga homiylik qilganligini alohida ta'kidlab o'tishgan. Ahli Xorazmda «O'z fuqarolariga adolatli» hukmdorning obro'si baland edi. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarning hokimiyati uchun kurashlarida faol qatnashgan. Jumladan, 1100-yili sulton Jaloliddin Malikshoh I ning o'g'li Sanjar tomonidan Xuroson hududlarini egallashda unga qarshi isyonni bostirishda ishtirok etdi. Shuningdek, u 1118-yili Sanjar tomonida turib, uni sultonlik taxtiga o'tirishiga munosib hissasini qo'shdi. Mohir diplomatik xususiyatiga ega bo'lgan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad turli nizolarni bartaraf etishda ham faol ishtirok etar edi. Xususan, Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjarning (1118–1157) Samarqanddagi Qoraxoniylar xoni Muhammad Arslonxonga (1102–1130) qarshi harakatida Qutbiddin Muhammad vositachiligida ushbu nizo tinch yo'l bilan hal etildi. Bu esa Xorazmshohning o'z davrida qanchalik nufuzi baland bo'lganligidan darak beradi.

O'zi boshqarib turgan hudud uchun qanchalik mas'ul ekanligini his qilgan xorazmshoh ko'chmanchi qabilalarning hujumini bartaraf etishga ham muvaffaq bo'lgan edi. Tarixiy yodgorliklarda Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadni «Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Mu'in Amiralmo'minin» («Dunyo va din Qutbi, g'alabalar otasi, Mo'minlar amiri – xalifa yordamchisi») unvoni bilan atashgani ham uning yuqori obro'li davlat arbobi bo'lganligini ayon etadi. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad 30 yil davomida Xorazmda uzluksiz hukmronlik qildi. Garchi u to vafotiga qadar (1127) Saljuqiylar, xususan sulton Sanjarga sadoqat bilan hizmat qilgan bo'lsa-da, Xorazm eli manfaatlar uchun imkon qadar harakat qilganligini tarixiy manbalar to'liq tasdiqlaydi. Uning sadoqatli xizmatini e'tirof etgan Sulton Sanjar, xorazmshoh vafotidan so'ng hokimlik kursisini hech ikkilanmay uning o'g'li 29 yoshli Al-Malik Abu Muzaffar Olovuddin Jaloliddin – Otsizga (1127–1156) topshirdi.

Otsiz otasi singari saljuqiylar poytaxti Marvda ta'lim olgan, ilm ahlini qadrlovchi hukmdor bo'lgan. U ulamo va olimlarga homiylik qilgan, o'zi ham forsiyda ruboiylar yozar, ko'plab shoirlarning baytlarini ham yoddan bilardi. Tarixiy manbalar Otsizni o'z aholisiga g'amxo'r, adolatli, xalq hurmatiga sazovor, uning hukmronlik davri asosan osoyishtalikda o'tganligini ta'kidlashgan.

Bag'dod xalifasi al-Mustarshid (1118–1135) tomonidan 1133-yili Asli jasur sarkarda bo'lgan Otsiz, Saljuqiylarga xizmati davrida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi, jang-u jadallarda g'olib bo'ldi. Sal-

juqiylar sultoni ham uning dovyurakligi va jasurligini qadrlar edi. Ikkinchi tomondan esa Otsizning o'sib borayotgan obro'-e'tibori sulton hokimiyatiga raxna solishidan Sulton Sanjar ham xavfsirar edi.

Otsiz nomiga elchining jo'natilishi asnosida sulton Sanjarga qarshi turash masalasining ko'tarilishi, o'zaro keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu holat, o'z navbatida, xalifalik tomonidan Xorazmshoh Otsizning yuqori obro'-etiborga molik hukmdor sifatida tan olinganligi ham bildirar edi. O'zining o'n yillik hukmronligi mobaynida Otsiz Xorazmni ichki va tashqi jahatdan mustahkamlashga katta e'tibor berdi. Yetarlicha kuch to'plab, o'z hududini mustahkamlab olgan xorazmshoh endilikda qaramlikdan qutulish vaqti etdi deb hisoblagan holda ichki va tashqi siyosatda mustaqil harakat qila boshladi. Sulton Sanjar itoatiga bo'ysunmagan holda Jand va Mang'ishloq yerlariga yurish uyushtirib, bu hududlarni o'z davlati tarkibiga kiritdi. Bu itoatsizlik esa, o'z navbatida, Sulton Sanjarning 1138-yili oktabrida Xorazm tomoniga harbiy yurish qilishiga sabab bo'ldi. Sulton Sanjar shu yo'l bilan boshqa qaram sulolalarga ham tobelikdan chiqish uchun jazolanish muqarrarligini ko'rsatmoqchi edi.

Saljuqiylar bilan bo'lgan jangda Xorazmshoh o'n ming nafar jangchisini yo'qotdi. Jangda Saljuqiylar tomonidan o'ldirilganlar orasida xorazmshohning o'g'li Otliq ham bor edi. Sulton Sanjar xorazmshoh Otsiz ustidan qozonilgan g'alaba xususida o'sha davr taomiliga muvofiq barcha tobe o'lka va viloyatlarga fathnomalar jo'natib, Xorazmga yurishini o'z holicha oqlab ko'rsatishga harakat qildi.

Otsiz mag'lubiyatidan so'ng Sulton Sanjar tomonidan Xorazm uning jiyani Sulaymonshohga iqto sifatida berildi. Oradan hech qancha o'tmay, 1139-yilning fevralida Otsiz Xorazm aholisining qo'llab-quvvatlashi hamda ko'magi bilan hukmronlikni qaytarib oldi. Shundan so'ng deyarli mustaqil ravishda vohada hukmronlik qilib, o'z xatti-harakatlarida Saljuqiylar sultoniga hisob bermadi. Jumladan, u Bag'dod xalifasi al-Muqtafiy (1136–1160) bilan elchilik munosabatini o'rnatib, o'zini Xorazm va unga qo'shib olingan hududlar hukmdori sifatida tan olishni so'radi. Xalifalik tomonidan Otsiz mustaqil hukmdor sifatida tan olinib, unga xalifa al-Muqtafiy tomonidan «sulton» oliy martabasi berilganligi xususida farmon yetib keldi. Otsiz esa mustaqil hukmdorlik ramzi sifatida 1141-yildan o'z nomi bilan oltin tangalar zarb eta boshladi.

Mazkur tarixiy davr o'z murakkablik jihati bilan ham izohlanishini ta'kidlash joiz. Bu, avvalo, Markaziy Osiyo hududlariga bostirib kirgan, keyinchalik yarim asrdan ziyod vaqt davomida mazkur hudud siyosiy jarayonlarida faol qatnashgan qoraxitoylar nomi bilan bog'liqdir.

Asli kelib chiqishi Xitoyning Shimoli-G'arbiy qismlaridan bo'lgan ko'p sonli kidan qabilalari XII asr boshlaridan G'arbga qarab yurishlarini amalga oshira boshlashdi. Tarixchi Ibn al-Asirning «Al-komil fi-t-tarix» asarida yozilishicha, ularning hukmdorining unvoni «go'rxon» bo'lib, go'rxon as-Sini (ya'ni, «Xitoy tomonidan kelgan», degan ma'noda) 1128-yildayoq Qashg'ar chegaralariga qadar kelib, uning hokimi Saljuqiylarga qaram Ahmad ibn al-Hasan bilan to'qnashgan. Tez orada qoraxitoylar markazi Balasog'un bo'lgan Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida o'z hukmronliklarini o'rnatishdi. Shu yerdan turib ular endilikda Movarounnahrda saljuqiylarga qaram G'arbiy Qoraxoniylar hukmronligiga ham tahdid qila boshladilar. Musulmon tarixchilari mazkur sulolani «qoraxitoylar» nomi bilan ataganliklari bois ham shu nom ostida ular tarix sahifalaridan joy olishdi.

Qoraxitoylar tez orada qirg'izlar va uyg'urlarni ham o'zlariga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. 1137-yili qoraxitoylar Movarounnahrda bostirib kirib, Xo'jand yonida qoraxitoylar xoni Mahmud ibn Arslonni mag'lub etishdi. Mahmud Samarqandga shoshib chekinib, mudofaa choralarini ko'rdi. Tarixchi Ibn al-Asirning yozishicha, «bu voqea Movarounnahr aholisiga salbiy ta'sir etib, ular qo'rqinch va tahlikada tong otgandan oqshomga qadar yetib kelishi mumkin bo'lgan falokatni kutar edilar». Qoraxoniylar xoni Mahmud saljuqiylar Sultoni Sanjarga qaram bo'lib, unga sadoqat bilan xizmat ko'rsatardi. Shu bois ham, u o'z muvaffaqiyatsizligidan afsus chekib, Sulton Sanjarga yordam so'rab murojaat qildi. Sulton qoraxitoylarga qarshi urushga olti oy davomida tayyorgarlik ko'rdi. Urushga sultonga qaram barcha hududlar: Seyiston, G'ur, G'azna, Mozandaron va boshqa hokimliklar jalb qilindi. Ibn al-Asirning yozishicha sulton Sanjar 100.000 kishilik qo'shin to'plashga muvaffaq bo'lgan.

Xitoy manbalarining ta'kidlashicha, qoraxitoylarning ham 100.000 nafar qo'shini bo'lganligi ta'kidlanadi. Sulton Sanjar bilan go'rxon o'rtasidagi elchilar almashuvi esa vaziyatni battar chigallashtirib yubordi. Hal qiluvchi jang 1141-yilning 2-sentabr kuni Samarqand yonidagi Qatvon dashtida ro'y berdi. Sulton Sanjar qo'shini butkul mag'lub

bo'lib, uning o'zi arang jang maydonidan chiqib ketdi. Qoraxitoylar tez orada butun Movarounnahrni egalladilar. Ko'chmanchi qoraxitoylar o'z oldilariga Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligini yo'q qilishni maqsad qilib qo'yishmagan. Qoraxitoylar ularga qaram-vassal sulola sifatida saqlanib qolishining o'zi yetarli edi. Qoraxoniylar tez orada markazi Balasog'un bo'lgan o'z davlatlariga jo'nab kyetishdi. Movarounnahrda olinadigan har yilgi o'lpon ularni qoniqtirar, aksariyat holda o'lka ichki ishlariga aralashmas edilar. Tarixchi Ibn al-Asir qoraxitoylar go'rxoni alohida olingan yerlarni o'z yaqinlariga bo'lib berishga qarshi bo'lganini ham ta'kidlab o'tadi.

Qoraxitoylar bilan bo'lgan jangda Sulton Sanjarning yengilishi, uning eski shon-shuhrati va obro'siga ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sulton keyinchalik ham Movarounnahrda o'z hukmini qayta tiklashga harakat ham qilmadi. Mazkur holat xorazmshoh Otsizga ham qo'l keldi. U 1141-yilning oktabrida Sulton Sanjarga qarshi bosh ko'tardi. Avval Saraxs, so'ngra poytaxt Marvni ham egallashga muvaffaq bo'ldi. Oltin Marvdan sulton xazinasi bilan birga ko'plab ilm-fan vakillarini ham Xorazmga olib ketdi. Bu esa xorazmshohning o'z hududini ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirish niyati borligini ko'rsatardi. Shundan so'ng Otsiz Xurosonning asosiy shaharlaridan biri bo'lgan Nishopur va boshqa shahar, qishloqlarni qo'lga kiritdi. Uning Nishopur shahri aholisiga yo'llagan nomasida Xurosonga o'z yurishlarini Sulton Sanjarning bir yoqlamalik, nohaq siyosati oqibatidan deya ta'kidladi.

Uzoqni ko'ra bilgan Otsiz sultonga qarshi kurashida qoraxitoylarning harbiy kuch-qudratini esdan chiqarmadi. Qoraxitoylar bilan tuzilgan bitimga ko'ra xorazmshoh har yili ularga 30.000 oltin dinor to'lash majburiyatini oldi.

Sulton Sanjar xorazmshoh Otsizning mustaqil xatti-harakatlari uning davlat asoslariga tahdid sola boshlaganligini e'tirof etgan holda, qoraxitoylardan olgan zarbasidan o'ziga kela boshlagach, sobiq vassaliga qarshi hujumga tayyorgarlik ko'rdi. Marvga qaytib kelib, qo'shinni jangga jam eta boshladi. Sulton Sanjarning Xorazmga ikkinchi yurishi natijasida poytaxt aholisi mardonavor o'z ona shaharlarini himoya qildilar.

Kuchlar notengligini bilgan hamda aholini talon-toroj, poytaxtni vayronagarchilikdan asrab qolish maqsadida Otsiz Sulton Sanjarga bo'yin egib, sulh tuzishga qaror qildi. Sulton Sanjar Otsizning musta-

qil davlat tuzish tomon harakatlari yana davom etishini anglagan holda uning har bir sa'y-harakatlarini diqqat bilan kuzatib bordi, shu maqsadda o'z nomidan atoqli shoir, adib Sobir Termiziyini Gurganjga vakil sifatida jo'natdi.

Xorazmshoh Otsiz 1145-yilning oktabrida Sirdaryoning Orolga yaqin hududi Jandni beruxsat ravishda, deyarli jangsiz egalladi. Mazkur hudud Xorazm davlatining bir qismi deb e'lon qilindi.

Tabiiyki, Otsizning mazkur xatti-harakati Sulton Sanjar tomonidan salbiy tarzda qabul qilindi. Otsizning «isyonkorona» deb hisoblangan harakatlari uchun jazolanishi lozim degan qaror bilan Sulton 1147-yil noyabrida xorazmshohga qarshi o'zining uchinchi harbiy yurishini boshladi. Xorazm qal'alari, jumladan Hazorasp ikki oy davomida qamal qilindi. Gurganj yurishi boshlangan vaqtida Otsiz darvesh Ohuposh vositachiligida sulh bitimini tuzish taklifini so'radi. Ta'kidlash joizki, xorazmshoh yana kuchlar notengligini bilgan, qolaversa o'lkani ortiqcha qon to'kish va xonavayronlikdan saqlab qolmoqchi bo'lgan. Tarixchi Otamalik Juvayniy bu borada quyidagilarni yozib qoldirgan edi: o'zaro sulh shartnomasiga ko'ra xorazmshoh Otsiz sulton Sanjarga tobelik bildirib, o'rta asrlar odatiga ko'ra uning oyog'i ostidagi yerni o'pib, ta'zim etishi shart edi. Lekin, xorazmshoh bu kabi tobelik urfini bajarmadi. Sulton Sanjar huzuridagi «mulozimatga (xizmatga) keldi va otidan tushmagan holda Sultonga salom berdi. Bu ham yetmagandek, xorazmshoh sulton bilan uchrashuv joyini birinchi bo'lib tark etdi. Sulton Sanjar Otsizning bu «beodobligidan» jahli chiqsa ham, yaqinda o'zi unga shafqat muruvvat qilgani uchun ahdini o'zgartiradi. Sulton bunga norozilik bildirmay, Marvga qaytib ketdi».

Yuqoridagi tarixiy mulohaza xorazmshoh Otsizning mardonavor xulq-atvorini yana bir karra namoyon etgan edi. Garchi Otsiz Sulton Sanjarga yana bir karra o'z tobeligini bildirsa-da, yangi yuzaga kelgan siyosat maydonida Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlati o'rin o'layotganligini o'z harakatlari ila isbot qilgan edi.

Siyosat maydonida kuchlar nisbatan o'zgardi, bir paytlar qudratli bo'lgan saljuqiylar saltanati umri poyoniga yetib borayotgan edi. Shunday bir murakkab vaziyatda 1153-yilgi o'g'uzlar g'alayoni saltanatga hal qiluvchi zarba bo'lib xizmat qildi. Sultonning soliq borasidagi siyosatidan norozi o'g'uzlarning uyushgan harbiy kuchlari bilan sulton qo'shini o'rtasida 1153-yilning aprelida Balx yaqinida bo'lgan jang

sulton harbiy kuchlarning mag'lubiyati bilan tugadi. Qaqshatqich jangda sulton harbiy lashkarlarini katta qismi qirib tashlandi, ko'plab nuftali amirlar o'ldirildi. Marv shahri ayovsiz talon-toroj qilindi. Marv, so'ngra Nishopurda amalga oshirilgan xunrezliklarda ko'plab taniqli olim, shoir, ulamolalar halok bo'lishdi.

Isyon natijasida bir paytlar o'z davrining qudratli hukmdori bo'lgan Sulton Sanjarning o'zi ham asir olindi. Bunday bir vaziyatda xorazmshoh Otsiz saltanat uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olish, qolaversa shu yo'l bilan hududni kengaytirib, davlatni mustahkamlash maqsadida Amudaryoning yuqori oqimidagi Omul qal'asini egallashga harakat qildi. Shu bois, imkon topib, asirga tushgan sultonga chopar yo'lladi.

Asirlikdagi kekxa Sulton Sanjar o'z siyosiy tajribasi hamda mavjud ahvolidan kelib chiqqan holda Omul qal'asini olmoqchi bo'lib chopar jo'natgan Otsizga quyidagi javobni yuboradi: «Men senga faqat Omul emas, boshqa juda ko'p qal'alarni ham beraman, faqat shu shart bilan-ki, bizni qutqarish uchun o'g'ling El-Arslon boshchiligida bu yoqqa lashkar yuborasan».

Xorazmshoh Otsiz o'zining asosiy maqsadi sifatida davlatini tamomila qaramlikdan chiqarish, saljuqiylar hukmronligini tugatish deb hisoblar edi. Lekin, o'g'uz qabilalarining kuchaya borishi, saltanatda yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, o'zaro boshboshdoqlik Otsizning bu xavfga qarshi turishiga sabab bo'ldi. Shu bois ham, xorazmshoh Otsiz Seyiston hukmdori Tojiddin Abul Fazlga, G'ur podshohi Olovuddin Husaynga, Mozandaron maligi (hokimi) Abul-fath Rustamga maktublar jo'natib, barchani o'zaro notinchliklarni tugatib, Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarib, o'g'uzlar solayotgan xavfga chek qo'yishga da'vat etdi. Shunday bir paytda saljuqiylar taxtiga Sanjarning jiyani Rukniddin Mahmudxon o'tirdi. O'zaro nizo-parokandalik kuchayib ketmasligi uchun Otsiz yangi sultonga o'z xayrixohligini bildirdi.

Saljuqiylarning yangi hukmdori sulton Mahmudxon xorazmshoh Otsizning mintaqada tutgan mavqeini tushungan holda «o'g'uzlar isyoni»ga qarshi kurashda undan harbiy yordam so'radi. Xorazmshoh Otsiz 1156-yilning aprel oyida katta o'g'li El-Arslon bilan isyonni bostirish hamda Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarish maqsadida o'z qo'shiniga boshchilik qilgan holda Xurosonning Shahrison degan joyiga qadar yetib keldi. U yon-atrofdagi hokimliklarga murojaat etib,

birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirishga da'vat etdi. Shunday bir vaqtda Sulton Sanjarning o'g'uzlar asirligidan qochishi vaziyatni bir muncha o'zgartirib yubordi. Otsiz sulton Sanjarga maktub jo'natib, uning ozodlikka chiqishi bilan tabrikladi hamda unga o'z sadoqatini izhor etdi. Xorazmshohning o'g'uz qabila boshliqlariga isyonga chek qo'yish haqida qilgan murojaatlari hamda Sulton Sanjarning asirlikdan qochishi o'g'uzlar harakatining nisbatan pasayishiga olib keldi. Asirlikdan qutulgan Sulton Sanjar esa ma'lum vaqt Termizda bo'ldi.

Xorazmshoh Otsiz Xurosonning Habushon mavzeida turgan vaqtida og'ir dardga chalilib qoldi va 1156-yilning 30 iyul kuni 61 yoshida olamdan ko'z yumdi. Otsiz vafotidan keyin bo'lgan hokimiyat uchun sa'y-harakatlarda uning katta o'g'li El-Arsloning qo'li g'olib keldi (1156–1172). El-Arslon 1156-yilning 22-avgust kuni Xorazm taxtiga o'tirdi. Taxtga o'tirgan yangi hukmdor o'z otasini siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Shu bois, Janub – Xuroson hududiga katta e'tibor berdi. O'z hokimiyatini mustahkamlash, nizo-parokandachilikni oldini olish hamda davr taomiliga muvofiq sulton Sanjarga o'z itoatini bildirib, noma jo'natdi. 1156-yil oktabrda El-Arslon rasman «Xorazmshoh» deya e'tirof qilindi. O'rta Sharq saljuqiylar saltanati bir necha qismlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati faqat Sulton Sanjarni oliy hukmdor sifatida tan olar edi. Sulton Sanjar asirlik paytida sultonlik taxtiga o'tirgan uning jiyani Mahmudxonni ko'pchilik saljuqiy amirlar, harbiy sarkardalar oliy hukmdor sifatida tan olmasdilar. Shunday bir vaziyatda saljuqiylarning buyuk Sultoni Sanjar 1157-yilning 9-mayida vafot etdi. Sulton Sanjar ta'siri ostida bo'lgan Movarounnahrda saljuqiylar hukmronligi barham topdi. Xorazmshoh El-Arslonning yangi sulton Mahmudxonga bo'lgan munosabatida ham o'zgarish yuz berdi.

Odatda xorazmshohlar saljuqiy sultonlariga murojaatlarida o'zlarini «banda», ya'ni «qaram», «qulingiz» deya murojaat etgan bo'lsalar, endilikda El-Arslon ularga nisbatan o'z maktublarida «muxlis» (samimiy do'st) atamasini ishlata boshladi. Bu bilan Xorazmshoh o'zining bundan buyon saljuqiylar hukmida emasligini ham ta'kidladi. Sulton Sanjar vafotidan keyin saljuqiylar ichida o'zaro nizo va parokandalik yanada kuchaydi. Vaziyatni keskinlashuvidan Bag'dod xalifalari ham manfaatdor bo'lib qolishga urinar edilar. Xurosonda ham ahvol keskinlashdi. Saljuqiylardan Oybek, al-Aziziy, Oytegin, Oy Abo kabi eng ta'sirli va kuchli amirlar Xuroson siyosiy hayotida muhim rol o'ynay

boshladilar. O'g'uzlar esa hamon Sharqiy Xurosonni egallab turishardi. Hokimiyat masalasida o'zaro nizolashayotgan ko'plab amirlar endilikda mintaqada katta mavqega ega bo'layotgan xorazmshoh El-Arslondan himoya istab murojaat qila boshladilar. El-Arslon ham Xuroson mulk-lari uchun kurashga tortildi. Tez orada Xurosondagi Jurjon va Dehiston hududlari El-Arslon ta'sir doirasiga o'tdi.

Sobiq saljuqiylar amiri Oy Abo bilan Iroq saljuqiylari o'rasidagi o'zaro nizo va kurashlar bir necha yilga cho'zilib ketdi. 1167-yili Xorazmshoh tomonidan Bayhaq, Sabzavor, so'ngra katta ahamiyatga molik Nishopur shahri egallandi. Nishopurning egallanishi xorazmshohlar va saljuqiylar o'rtasidagi munosabatni tamomila uzilishiga sabab bo'ldi. Xorazm qo'shini Iroq saljuqiylariga zarba berib, Ozarbayjonga qadar kirib bordi. El-Arslon qoraxitoylardan aziyat chekkan qarluqlarga yordam bera turib, Movarounnahr ishlariga ham aralasha boshladi. U qoraxitoy va turkman qo'shinlarini yengib qarluqlarni Samarqand va Buxoro atroflaridagi azaliy erlariga qaytardi. Qoraxitoylarga masalaning bu tariqa yechimi manzur bo'lmadi. Qoraxitoylar hukmdori o'z vassali bo'lgan Samarqand hukmdori qoraxoniy Qilich Tamg'ochxonga (Abul Muzaffar Ma'sud) «Qarluqlarni Samarqand va Buxoro viloyatlaridan Qashg'arga ko'chirma qilishga» farmon berdi. Qarluqlarning bir qismi xorazmshoh El-Arslon hamda otasi Otsiz davrida bir necha yillardan buyon qoraxitoylarga boj-xiroj to'lab turar, qarluqlarga bo'lgan munosabat bir vaqtning o'zida qoraxitoylarga qarshi kurashda ularni o'ziga ittifoqchi deb hisoblashini anglatar edi.

Ayyorbek boshchiligidagi qarluqlarning bir qismi Xorazmshoh saltanatidan panohtopdi. Bu esa, o'z navbatida, Xorazmshohlar davlati bilan qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatni keskinlashtirib yubordi. 1171-yili qoraxitoylar qo'shini Amudaryodan o'tib Xorazm yerlariga bostirib kirdi. Davlat xavfsizligi, kuchlar notengligini chamalab ko'rgan El-Arslon suv to'g'onlarini ochib, poytaxt Gurganj yaqinidagi yerlarni suvga bostirishga farmon berdi, o'zi esa Omul qo'rg'oni tomon chekindi. Qoraxitoylar bilan jangda xorazmshoh xastaligi tufayli qatnasha olmadi. Jangda qoraxitoylar g'olib kelib, qarluqlar sardori Ayyorbekni asirga oldilar. Kasalligi kuchaya borgan El-Arslon Gurganjga qaytib keldi va 1172-yilning 17-mart kuni vafot etdi. Xorazmshoh El-Arslon otasi kabi davlat mustaqilligiga to'la erishish, uning hududlarini kengaytirishni o'z

hukmdorligining asosiy maqsadi deya qaragan edi. Uning hukmdorligi davrida xorazmshohlar davlati Xuroson yerlari hisobiga ma'lum darajada kengaydi, xorazmshoh bilan esa ko'pchilik hukmdorlar kelishib ish tutishga majbur bo'lishdi. El-Arslon Bag'dod xalifaligi bilan munosabatlarni muttasil ravishda ijobiy ruhda olib borishga harakat qildi. Shu bilan birga, hali ushbu davlat qaraxitoylarga boj to'lar, bu esa to'liq siyosiy mustaqillik uchun katta g'ov bo'lib turar edi.

Xorazmshoh El-Arslon o'z vafoti arafasida katta o'g'li Olovuddin Takish Jand viloyatida bo'lgani bois, kichik o'g'il Sultonshoh Mahmudni valiahd etib tayinlagan edi. El-Arslon vafotidan keyin xorazmshohlar taxti uchun yuqorida nomi zikr etilgan aka-ukalar o'rtasida o'zaro kurash boshlanib ketdi. Sultonshohning o'z inisi Takishni zo'rlab huzuriga olib kelishga urinishlari hamda yolg'iz unigina yagona hukmdor deb tan olishga harakatlari samarasiz tugadi.

Ushbu voqealardan xabar topgan Takish Jandni darhol tark etib, yordam so'rab qaraxitoylar malikasi Chen Tiyonga (1164–1177) murojaat qildi. Takishning keyinchalik ham yillik o'lpon to'lab turishi xususidagi va'dasini olgan qaraxitoylar malikasi Fuma boshchiligidagi qo'shinni Xorazmga yubordi. Qoraxitoylar qo'shini kelayotganini eshitgan Sultonshoh tezda poytaxtni tark etib, Xurosonga chekindi. Olovuddin Takish 1172-yil 11-dekabr kuni rasman xorazmshohlar taxtiga o'tirdi. Takishni shijoatli, mohir sarkarda hamda kuchli davlat arbobi deb hisoblagan xalq ommasining katta qismi uni qo'llab-quvvatlab turardi. Biroq, asosiy kurashlar pallasi hali oldinda bo'lib, aka-ukalar o'rtasida toj-u taxt nizolari yigirma yilga cho'zilib kyetib, ko'plab qonli janglar, xonavayronchilik keltiruvchi urushlarga sabab bo'ladi. Sultonshoh va Takish o'rtasidagi kurashga avval Nishopur hokimi Oy Abo, so'ngra G'ur Sultoni G'iyosiddin, qaraxitoylar ham aralashdilar.

Hokimiyatni olishda Takishga yordam byergan qaraxitoylar endilikda istagan vaqtida «Xorazmdan xohlagancha o'lpon olish mumkin», deb o'ylab, turli nomaqbul ishlarini amalga oshira boshladilar. Qoraxitoylar Xorazmda hatto xorazm-



Gurganj. Hozirgi Ko'hna Urganch.

shoh Takishning hukmini ham tan olmay qo'ydidilar. Bu esa Takish tomonidan ularga qarshi tegishli choralar ko'rishga majbur qildi. Shu bilan qaraxitoylar bilan o'zaro munosabatlarga sovuqlik tushdi.

Qoraxitoylar bilan munosabati keskinlashgan Takishga qarshi harakat qilish mumkin deb hisoblagan Sultonshoh G'ur sultoni G'iyosiddindan harbiy ko'mak kuchi olishga erishdi. Ikkinchi tomondan Sultonshoh qaraxitoylarga murojaat qilib, Takishga qarshi kurashda yordam kuchi so'radi. Takish bilan munosabatlari buzilgan qaraxitoylar malikasi Sultonshoh tomonidan turib jang qilish uchun o'z qo'shinini Xorazmga jo'natdi.

Ushbu urushga Takish jiddiy tayyorgarlik ko'rdi, Gurganjga boradigan yo'llarni suvga bostirdi, qal'alarni mustahkamladi va hokuzo. Takish bilan jang qilishiga jur'at etolmagan qaraxitoylar sarkardasi Fuma Sultonshohning «Xorazm xalqi u tomonidaligi» haqidagi va'dalari puch ekanligini, aksariyat xorazmlik harbiylar, aholi Takishni qo'llayotganliklarini tushungan holda orqaga qaytib ketdi. Sultonshoh qaraxitoylardan bir qism qo'shin olishga erishib, ular yordamida Xuroson shaharlarini zabt etdi. Marv, Tus, Jom, Niso, Obivard shular jumlasidan edi. Xurosonda yuzaga kelgan vaziyat Takish davlati uchun xavf tug'dirar, shu bois ham u avval Sultonshohga qarshi emas, balki Xurosonda muhim ahamiyatga ega Nishopurni egallashga harakat qildi. Nishopur hokimi Sanjarshoh aslida butun hokimiyatni o'z yaziri Menglitagin qo'lga topshirgan bo'lib, bu vazir esa hokimiyatni o'z holicha boshqarar, viloyatda jabr-zulm, zo'ravonlik haddidan oshgan edi. Nishopurni tinchlik bilan o'z izmiga o'tkazishni lozim deb topgan Takishga Menglitagin xiyonatkorona yo'l tutdi. 1187-yil 27-may kuni 40 kunlik qamaldan so'ng Nishopur taslim bo'ldi. Xorazmshoh «shaharda adolat va rahm-shafqat gilamlarini yoydi, shaharni nafrat va zo'ravonlikdan tozaladi».

Jabr-zulm bilan tortib olingan barcha narsalar o'z egalariga qaytarildi. Nishopurga xorazmshohning o'g'li Nasriddin Malikshoh hokim etib tayinlandi. Garchi, Xurosonning anchagina qismi xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan bo'lsa-da, ammo Marv, Sabzavor va unga tutash yerlar hali ham Sultonshoh ixtiyorida edi. Sultonshoh o'z inisi Takishga nisbatan ancha kuchsizligini anglab etsa-da, lekin bir necha marotaba Takish chegaralari, Nishopurga talonchilik yurishlarini amalga oshirdi. Takish vayron bo'lgan Nishopur devorlarini tiklab,

o'z qo'shini bilan Kaspiy dengiz Janubiy sarhadlaridagi Mozandaron (Tabariston)ga yurish qildi.

Takish bir necha yillik kurashlarda o'zini Xorazmshohlar davlatining haqiqiy hukmdori ekanligini namoyon qildi. Xorazm va deyarli barcha Xuroson yerlari aslida Takish hukmi ostida bo'lib, uning obro'-e'tibori hamda harbiy qudratini xurosonlik amirlarning deyarli barchasi tan oldi. Bu hol bilan shubhasiz, Sultonshoh ham kelishishga majbur edi. 1188-yilning bahorida bir qator xurosonlik obro'-e'tiborli zotlar vositachiligida Sultonshoh va Takish o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Aksariyat amirlar Takish tomoniga o'tdilar. Tabiiyki, bunday vaziyatda deyarli qo'shinsiz qolgan, yon-atrofidagi tayanchlaridan mahrum bo'lgan Sultonshoh Takish tomonidan taqdim etilgan shartlarga so'zsiz bo'ysunishidan boshqa iloji yo'q edi. Sultonshohga Xurosondagi uch viloyat taqdim etildi. Mazkur bitimdan so'ng, 1189-yil 4-iyulda Xurosondagi Rodkon degan joyda rasman sulton maqomida Oloviddin Takishning taxtga o'tirish marosimi o'tkazildi.

Takishning Xurosondan poytaxt Gurganjga qaytib kyetishi bilan Sultonshoh yana o'z isyonkorona faoliyatini boshladi. U endilikda xorazmshohlar yuksalishidan xavfsirayotgan G'uriylar davlati, qoraxitoylar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga harakat qildi. Ular yordamida Xuroson yerlariga yurishlarni amalga oshirdi, Takish yo'q vaqtida hatto Gurganjni ham qamal qildi. Sulton Oloviddin Takish o'z isyonkor ukasini batamom bo'ysundirish maqsadida 1193-yilning bahorida yana Sultonshoh ustiga yurish boshladi. Ularni yana sulhga chorlab tashkil etilgan muzokaralar ham samarasiz bo'ldi. Bunday vaziyatda Sultonshohning ishongan so'nggi vakili Saraxs qal'asi mustahfizi (qal'a harbiy boshlig'i) Badriddin Chaqir sulton Takish tomoniga o'tib, qal'a kalitlari, Sultonshoh xazinasini xorazmshohga topshirdi. Mazkur voqea Sultonshohning kelajakda o'z davlatini yaratish xususidagi orzu-istaklarini chippakka chiqardi. Oradan ikki kun o'tgach, 1193-yil 19-sentabr kuni boshiga tushgan bu ko'rgulikni ko'tara olmagan Sultonshoh Mahmud vafot etdi. Shu tariqa aka-ukalar o'rtasida davom etgan yigirma yillik kurash o'z nihoyasiga etdi. Sultonshoh izmidagi barcha yerlar xorazmshoh ilkiga o'tdi.

Takish asosiy raqibini mag'lub etgach, 1193-yildan tashqi siyosat borasida dadil harakat qilishni boshladi. U, avvalo, o'z Shimoli-Sharqiy sarhadlarini mustahkamlash borasida Jand hududiga alohida e'tibor

berdi. Qoraxitoylar o'z vaqtida Takishdan tegishli javob olganliklari uchun ham o'zlari hujum uyushtirishga jazm qilolmay ko'chmanchi qo'choq qabilalarini xorazmshohlar davlatiga qarshi gij-gijlar edilar. Mazkur hududlar xavfsizligi borasida Takish Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi muhim istehkomlardan biri Barchinlig'kent, so'ngra Raboti To'g'on shaharlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Buxoroda o'z nomiga xutba o'qitirib, Movarounnahrda ham ta'sirini yoya boshladi.

Iroq saljuqiylari sultoni To'g'ul III bilan o'zaro shartnomaga muvofiq Shimoliy Erondagi Ray shahri xorazmshohlar davlati tarkibiga kirdi. Lekin, tez orada To'g'ul III shartnomani buzib, Rayni qayta egalladi. Shuningdek, u Bag'dod xalifasi ta'sir doirasidagi yerlarga ham hujum qila boshladi. Bunday vaziyatda xalifa an-Nosir (1180-1225) Takishdan yordam so'rab, To'g'ul III qo'li ostidagi yerlarni xorazmshohlarga iqto sifatida berilishi xususida o'z farmonini xorazmshohga jo'natdi. Saljuqiylarning o'zaro shartnomani buzganligi hamda xalifaning murojaati sulton Takishning Janubga yurishiga sabab bo'ldi. Takish huzuriga sulton To'g'ul III dan norozi bo'lgan qator harbiylar bosh egib keldilar. Takish ularni mehribonlik bilan qabul qilib, iltifot va yordam ko'rsatdi.

1194-yilning mart oyining boshlarida Sulton To'g'ul III xorazmshohlar qo'shiniga qarshi urush boshladi. Jangda Iroq saljuqiylarining so'nggi vakili To'g'ul III mag'lub bo'lib, xorazmshohlar qo'shini tomonidan o'ldirildi. Uning mag'lubiyatidan so'ng Takish Hamadon va unga tutash yerlarni qo'lga kiritdi. Sulton Olovuddin Takish tomonidan Iroq Ajaming egallanishidan, mazkur yerlarning bir qismi tegishidan umidvor bo'lgan xalifa an-Nosir norozi bo'ldi. Xorazmshoh Takishni xalifaga itoat etishi xususidagi elchilik sa'y-harakati esa samarasiz tugadi. Tez orada xorazmshoh Takish va xalifa an-Nosir o'rtasidagi munosabatlar tamomila uzildi. Xalifa an-Nosir Xorazmshohlar qo'li bilan o'z hududlarini kengaytirish, sulton Takishni o'ziga itoat ettirish xususidagi rejalari chippakka chiqdi. Aksincha, Takish tomonidan xalifa «Xorazmshoh hukmronligini tan olishi Bag'doddagi sulton saroyini Saljuqiylar zamonidagi holda tiklash» talab qilinganidan keyin vaziyat yanada keskin tus oldi. Tabiiyki, xalifa an-Nosir bu talabni keskin rad etdi.

Shu tariqa xorazmshohlar va Bag'dod xalifaligi o'rtasidagi o'zaro dushmanlik munosabatlari keyin ham davom etib, u mo'g'ullar istilosiga qadar davom etdi. Takishning Eron yerlaridan uzoqda bo'lishi

xalifa qo'shinlarini qo'l keldi. Tez orada xalifa qo'shini Iroq Ajami egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan yerlardan xalifaga qo'shini chiqib kyetishi to'g'risidagi talab xalifa an-Nosir tomonidan inobatga olinmadi. Shundan so'ng o'zaro munozarali hududlar bir necha marotaba qo'ldan qo'lga o'tdi. Xalifa qo'shinlari Shimoliy Eron dagi Ray viloyatini ham qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar.

Xorazmshoh Takish xalifa bilan o'zaro elchilik almashuvi, muzokaralar hech qanday ish bermasligini anglab etgan holda hamda o'z davlati manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bag'dod xalifaligiga qarshi qat'iy harakatlarni boshladi. 1196-yilda xalifa qo'shinlari tor-mor etilib, Hamadon, Ray, Isfahon va unga tutash yerlar yana Xorazmshohlar davlati ixtiyoriga o'tdi. Bag'dod xalifasi an-Nosir (1180–1225) Iroqi Ajami qanday qilib bo'lmasin qo'lga olish maqsadida Takishga qarshi avval shu yerlar hokimi Mayochuqni, so'ngra G'ur hukmdori G'iyosiddin al-G'uriyni qarshi qo'yishga harakat qildi. Xalifaning bu safargi xatti-harakatlari ham zoe ketgach, u Takish bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishga intildi. 1198-yili xorazmshoh Takish Xuroson, Turkiston va Iroqi Ajam yerlari sultoni ekanligi tan olingan farmon e'lon qilindi.

Shu tariqa xorazmshohning yuqorida nomi qayd etilgan hududlar mustaqil hukmdori ekanligi tasdiqlandi. O'zaro elchilik almashuvi, xususan sulton Takishning jiyani amir Sayfiddin boshchiligidagi xorazmshoh elchilarning Bag'dodga kelishi ushbu munosabatlarni mustahkamladi. Bu munosabatlar Takishning yuqori salohiyatli davlat arbobi hamda mohir diplomat bo'lganligini bir karra tasdiqladi. O'zaro nizolardan charchagan Kirmon¹ ahlining Takishga murojaati ham ijobiy tarzda o'z echimini topdi. 1198-yili Takish Kirmondagi nizo-fitnalarga chek qo'yib, mazkur hududni ham o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Takish o'z hukmronligining so'nggi yillarini Yaqin va O'rta Sharqda xavfsizlik va ma'naviyatga tahdid soluvchi ismoiliylar diniy guruhiga qarshi kurashda o'tkazdi. U Eronning Daylam viloyatida joylashgan ismoiliylarning ikkinchi muhim qal'asi Al-Qohira (Arslon Kushoni)ni qo'lga olishga muvaffaq bo'ldi.

Sulton Olovuddin Takish 1200-yilning 3 iyul kuni (hijriy yil hisobida 596-yil ramazon oyining 19-kuni) Xurosonning Shahriston degan joyida

¹ Kirmon – Eron Janubi-Sharqidagi tarixiy hudud.

vafot etdi. Uning jasadi poytaxt Gurganjga olib kelinib, o'zi tomonidan qurdirilgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn qilindi. Ta'kidlash joizki, o'rta asr mualliflari bir ovozdan xorazmshoh sulton Olovuddin Takishni o'z xalqiga adolatli hukmdor, odatdan tashqari qobiliyat sohibi, buyuk diplomat va kuchli lashkarboshi bo'lganligini qayd etishadi. Xorazmshoh musiqa va adabiyotni sevar, hozirjavob, gapga chechanligi bilan ajralib turar edi. O'z vaqtida davlatning Shimoliy chegaralari xavfsizligi ko'p holatda turkiy qipchoqlar ta'siriga bog'liq edi. Takish qipchoqlar bilan o'zaro ittifoqqa kirib, qipchoqlar xoni Jonkishining qizi bo'lgan Turkon xotunga uylanadi. Qipchoqlarning bayot urug'idan bo'lgan Turkon xotun bilan ko'plab turkiy qavmlar, harbiylar ham kirib kelishdi. Keyinchalik Turkon xotun ularning qudratli homiysiga aylandi, so'ngra esa davlatda turkiy-harbiy qatlam ham yuzaga keldi.

Tarixiy manbalar Turkon xotunni hokimiyatga intiluvchan, riyokor hamda qasoskor ayol bo'lganligini ta'kidlashadi. Uning tugal hosilasi esa keyinchalik sulton Muhammad (1200–1220) hukmronligi davrida to'liq namoyon bo'ldi.

Xorazmshoh Takish tomonidan qoldirib kyetilgan ulkan davlat uning vorisi Qutbiddin Muhammad tomonidan davom ettirildi. 1200-yil 3-avgust kuni (hijriy 596-yil shavvol oyining 20-kuni) poytaxt Gurganjda Xorazmshohlar davlatining yangi sultoni Qutbiddin Muhammad tantanali ravishda taxtga o'tirdi (1200–1220). Keyinchalik u otasining taxallusi Olovuddin nomini ham oldi. Xorazmshoh Olovuddin Qutbiddin Muhammad o'z hukmronligining dastlabki davridanoq ichki va tashqi siyosat qator muammolarga duch keldi. Mozandaron (Tabariston) da Husomiddin Ardasher Astrobodgacha yerlarni egallab, mazkur hududlardan xorazmlik qo'shinni haydab chiqardi. Ajami Iroqda ham vaziyat og'irlashib, mazkur hududlar ham yangi sulton qo'lidan chiqib kyetish ehtimoli kuchaydi. Xorazmshoh Muhammad bunday vaziyatda Xurosondagi ahvoli ham mushkullashishi mumkin deya hisoblab, ukasi Tojiddin Alishohni Ajami Iroq markazi Isfahondan chaqirib olib, uni Xuroson noibi etib tayinladi.

Tojiddin Alishohning Iroqdan ketishi bu yerdagi mahalliy hokimlarning ajralib kyetish xavfini kuchaytirib yubordi. Ular ichida, ayniqsa, Iziddin Ko'kcha xalifaning izni bilan qat'iy harakat boshladi. O'z vaqtida unga qarshi Shamsiddin Oytug'mish harakat qilib, tez orada butun Fors Iroqi hududlarini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Nishopurning

sobiq hokimi, o'zboshimchaligi bois lavozimidan olingan Hinduxon esa avval Marvda isyon ko'tarmoqchi bo'ladi, so'ngra esa G'ur sultoni huzuriga qochib, undan yordam so'radi. G'ur sulton G'iyosiddin G'uriy xorazmshohlar tushib qolgan mushkul vaziyatdan foydalanib qolish maqsadida Hinduxonga yordam berishga qaror qildi. Shu maqsadda u 1201-yilning fevral oyida katta qo'shin bilan Xurosonga yo'l oldi. Marvga Hinduxonni jazolash maqsadida xorazmshohning vakili Chaqir at-Turkiy jo'natilgan edi. Chaqir at-Turkiy Marvni G'uriylardan qattiq himoya qildi. Lekin, kuchlar notengligi, shaharni ortiqcha xonavayron bo'lishidan saqlab qolish maqsadida G'ur sultoniga taslim bo'ldi. Marv esa endilikda u G'ur sultoniga qaram Hinduxon qo'lga topshirildi. Tez orada G'uriylar qo'shini tomonidan Xurosonning Saraxs, Niso, Obivard, Tus shaharlari egallandi. Xurosonning ma'muriy markazi bo'lgan Nishopurda yuqorida ta'kidlanganidek, sulton Muhammad Xorazmshohning akasi Tojiddin Alishoh hokimlik qilar edi. Garchi xorazmshoh tomonidan Nishopurdan tezda chiqib kyetish haqida buyruq olgan bo'lsa-da, lekin Tojiddin Alishoh shaharni mardonavor himoya qildi. Ammo, G'iyosiddin G'uriy Nishopurni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Sulton G'iyosiddin G'uriy yangi istilo qilingan Xuroson shahar va viloyatlariga o'z noiblarini tayin etib, orqasiga qarab ketdi. O'tgan vaqt davomida xorazmshohlar o'zlari tushib qolgan og'ir siyosiy vaziyatdan chiqish yo'lida kuchli va katta qo'shin yig'ishga muvaffaq bo'ldilar. Xuroson erlariga yurish qilishdan avval xorazmshoh adolat yuzasidan G'ur sultoni G'iyosiddinga murojaat qilib, agarda xorazmshohlar davlati manfaatiga yana zid ish tutgudek bo'lsa, tegishli javob berishi muqarrar ekanligi xususida ogohlantirdi. G'ur sultoniga xorazmshoh Muhammad jumladan shunday deb yozgan edi: «... Biz hozir otamiz ta'ziralari tufayli mamlakat ishlarini tartibga solish bilan mashg'ul bo'lib, sizning ish-laringizga qarshilik qilolmagan edik. Endi biz zaif emasmiz va sizning mamlakingizni va boshqa viloyatlarni bosib olishga kuchimiz yetajak».

Bir necha yillardan beri G'urda hukmronlik qilayotgan sulton G'iyosiddin G'uriy shu vaqtga kelib ancha keksayib, kasalmand bo'lib qolgan edi. Xorazmshoh o'z murojaat xatida aynan sultonning shu holatiga ham urg'u byergan edi. O'z maktubiga javob kelishini ham kutmay xorazmshoh Muhammad 1201-yilning avgustida kutilmagan holda Hirotni qurshab oldi. Hirot 40 kun qamal qilinsa-da, uni ishg'ol etishning iloji bo'lmadi. Shu payt Hindistondan o'z qo'shini bilan

yetib kelgan G'iyosiddinning ukasi Shahobiddin G'uriy bilan bo'lgan o'zaro jang ikki tomonga ham katta talofat etkazdi. Shahobiddin G'uriy Xorazm yerlariga kirib kelish yo'lga to'siq qo'yish maqsadida Marvni daryosi ko'priklari buzib tashlandi. Shundan so'ng xorazmshoh Marv, Nishopur, Saraxs erlarini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi. 1203-yilning boshida G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy vafot etdi. G'uriylar o'rtasida toj-u taxt masalasida nizolar boshlandi.

Xorazmshohlar muvaffaqiyatidan g'azablangan Shahobiddin G'uriy qayta Xorazm tomon yurishga otlandi. Garchi yana suv to'g'onlari buzilib, o'tish yo'llarini suv bosgan bo'lsa-da, lekin G'uriylar yer qurishini bir oy kutib, Qorasuv anhuri bo'yida xorazmshohlar qo'shiniga zarba berdi, Shahobiddin boshchiligidagi g'uriylar qo'shini poytaxt Gurganjni qurshab oldi. Poytaxt aholisi o'z jonajon shaharlarini mardonavor himoya qilishga kirishdilar. Shahar mudofaasida xorazmlik mashhur ulamo Imom Shahobiddin al-Xivaqiy ta'limoti qarshilik harakatining ma'naviy quvvatiga aylanib, butun xalq ommasini dushmanga safarbar qildi. Al-Xivaqiy butun mol-mulkini mudofaa ishi uchun sarf etib, xayrli ishda boshqalarga o'mak bo'ldi. Turkon xotun mudofaa ishida faol qatnashib, uning sa'y-harakati bilan poytaxtda 70.000 nafar qurollangan mudofaachilar otryadlari tashkil etildi. Xorazmshoh esa mamlakatning turli qismlariga chopar jo'natib, piyoda va otliq askarlar yig'ishga buyurdi. Gurganjga hujum qilish uchun daryoni kesib o'tmoqchi bo'lgan Shahobiddin G'uriy qoraxitoylar qo'shiniga duch keldi.

Xorazmshohlarning murojaatiga ko'ra qoraxitoylar xoni Huyurxon tomonidan yuborilgan qo'shin ichida O'tror hokimi Tojiddin, Samarqanddagi qoraxoniylar xoni Usmonxon, qoraxitoylarga qarashli Taroz hokimi Tayangular bosh bo'lib, ular Andhudda Shahobiddin G'uriy qo'shiniga qaqshatqich zarba berdilar. Ushbu jang 1204-yilning oktabr oyi boshlarida bo'lib o'tdi. Shahobiddin G'uriy to'liq mag'lubiyatga uchradi, o'z mol-mulkini bitim asosida topshirib, o'z davlatiga qaytib kyetishga majbur bo'ldi. Shahobiddin G'uriy o'z davlatida parokandalik va nizolar oqimiga duch keldi. Bunday vaziyatda (1205-yil yanvar) ular xorazmshoh bilan tinchlik shartnomasini imzolab, Xurosonning bir qismini sulton Muhammad xorazmshohga qaytarib berdi. O'zaro nizo va parokandalikda qolgan G'uriylar davlati ichida vaziyat og'irlashib ketdi.

Shahobiddin G'uriy bu o'zaro kurashlar qurboniga aylanib, 1206-yilning martida o'ldirildi. Sultonning o'ldirilishi G'uriylar dav-

latining yemirilishidan darak berar edi. Tez orada G'uriylarga xizmat qilgan noib va amirlar turli hududlarda o'z hukmronliklarini o'rnata boshladilar. Shunday bir vaziyatda o'zini g'uriylarning yangi sultoni deb e'lon qilgan Mahmud qo'lga bir paytlar qudratli G'uriylarga bo'ysungan hududlarning bir qismi qoldi xolos. Sulton Muhammad xorazmshoh g'uriylar saltanati zaif holatga tushib qolganligidan foydalanib, tez orada Balx, Hirot, keyinroq Mozandaron, Seyistonni oldi. G'uriylar sultoni Mahmud xorazmshoh Muhammad talabiga ko'ra o'zini xorazmshohlar davlatining noibi deb e'lon qildi. U sulton Muhammad nomini xutbaga qo'shib o'qitib, uning nomidan tangalar zarb etdi, xorazmshohga o'z itoati ramzi sifatida bitta oq fil hamda o'z xazinasidan eng qimmatbaho buyumlarni jo'natdi. Shu tariqa sulton Muhammad xorazmshoh taxtga kelganidan so'ng yo'qotilgan yerlarning asosiy qismini qaytib qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Movarounnahrda shu davrga kelib ancha murakkab siyosiy ahvol yuzaga kela boshladi. Movarounnahrda oliy hukmronlikka da'vogar qoraxitoylar XII asrning 40-yillaridan buyon o'zlariga qarashli yerlardan muntazam ravishda boj solig'i undirib kelishar, har bir shaharda o'zlarining noiblarini qo'yib, jabr-zulmini kuchaytirib yuborgan edilar. Aholi qoraxitoylar talon-toroji va zo'ravonligidan charchagan edi. Samarqand va Buxorodagi hukmron qoraxoniylar xoni Usmon va Movarounnahrning nufuzli zotlari sulton Muhammad xorazmshohga murojaat qilib, qoraxitoylarga qarshi kurashda yordam so'rashdi. Qoraxoniylar xoni Usmonxon yordam evaziga soliqlarni xorazmshohga to'lab, uning nomini xutbaga qo'shib o'qishga, sulton nomidan tangalar zarb etishga va'da berdi. Bu esa Movarounnahr erlarini Xorazmshoh ilkiga o'tishini anglatar edi. Buxorodagi Malik Sanjar qo'zg'oloni bu holni biroz orqaga surdi.

1206-yili Buxoroda diniy unvondagi sadrlar hukmiga qarshi asli savdogarning o'g'li bo'lgan Sanjar isyon ko'tardi. O'zini hokim sifatida Malik Sanjar deb nomlagan qo'zg'olonchilar rahbari Buxorodagi «e'tiborli kishilar»ni haydab chiqarib, ularning mol-mulkini musodara etdi. Buxoro sadrlari unga qarshi kurashda xorazmshohdan yordam so'rashdi.

Shu davrdan boshlab Janubdagi muammolarni muvaffaqiyatli echgan xorazmshoh Muhammad qoraxoniylar murojaatiga muvofiq Movarounnahr ishlariga aralashishni boshladi. Sulton Muhammad Buxoroga yurish qilib, uni egalladi. Malik Sanjar isyoni bostirilib, o'zi

qo'lga olindi Movarounnahrning asosiy shaharlaridan biri – Buxoroning qo'lga olinishi sulton Muhammad xorazmshoh mavqeini yanada o'zlashtirishiga sabab bo'ldi. Qoraxoniylar o'zlarini xorazmshohlar vassaliga aylanganliklarini tan oldilar. Qoraxitoylar Movarounnahr hududlarini xorazmshohlar tassarufiga o'tishlaridan qat'iy norozilik asnosida bo'lajak urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rdilar. Xorazmshoh qo'shinining jon-jahdi bilan kurashiga qator xoinliklar salbiy ta'sir ko'rsatdi. Boshlangan jangda Qoraxitoylar xoni Huyurxon boshchiligidagi qo'shin qo'li ustun keldi. Jang Qoraxitoylar g'alabasi bilan tugab, xorazmshoh ham martlikka tushib qoldi. Xorazmshohning jangdan qaytmasligi ko'plab mish-mishlarga sabab bo'ldi. Taxtga sultonning akasi Tojiddin Alishoh o'tirdi. Sulton Muhammad xorazmshoh baxtli tasodif tufayli asirlikdan qutulishga muvaffaq bo'ldi. Qonuniy hukmdor taxtda yo'q vaqtda xiyonat ko'chasiga kirgan kishilar jazolandi, Tojiddin Alishoh esa Firuzko'nga qochib, jon saqladi. Keyinchalik sulton o'z akasi va unga joy byergan sulton noibi, sobiq G'ur sultoni Mahmud ham Gurganjga jo'natilib, qatl etildilar. Shu tariqa G'uriylarning qaram holatidagi saltanatiga ham butkul barham berildi.

O'zaro parokandalikka chek qo'ygan sulton Xorazmshoh Muhammad oldida shu vaqtdagi uning asosiy dushmani – qoraxitoylarga qarshi kurash endilikda asosiy maqsad bo'lib qoldi. Bu paytga kelib sulton mavqei shunchalik mustahkamlandiki, endilikda bir necha o'n yillardan buyon O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatib kelayotgan qoraxitoylarga hal qiluvchi zarba berish vaqti etgan edi.

Otsiz hukmronligi davridan boshlab har yili xorazmshohlar qoraxitoylarga tegishli o'lpon to'lab turishar edi. 1209-yili sulton Xorazmshoh Muhammad huzurida navbatdagi o'lpon haqi uchun kelgan qoraxitoylar elchisining surbetlik harakati sulton poymonasini to'ldirdi. Elchi qatl etilib, qoraxitoylarga qarshi jangga zudlik bilan tayyorgarlik ko'rildi. Butun saltanatda qoraxitoylar jabr zulmiga qarshi targ'ibot ishlari olib borildi. Qoraxitoylar tomonidan ezilib kelayotgan aholi uchun xorazmshohlar qo'shini xaloskorlar sifatida kutib olindi. Tez orada xorazmshoh qo'shini Sirdaryodan kechib o'tib, Ilamish dashtida Tayangu boshchiligidagi qoraxitoylar navkarlari bilan to'qnashdi. 1210-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Ilamish dashtidagi shafqatsiz jangda qoraxitoylar mag'lub bo'lishdi. Tayanguning o'zi ham asirga olindi. Butun Sirdaryo bo'ylaridagi yerlar, Farg'onaning O'zgan, O'tror va

unga tutash barcha erlari ham sulton davlati hududiga qo'shib olindi. Shu tariqa butun Movarounnahr o'lkasi sulton qo'liga o'tdi. Uning barcha shahar va qishloqlariga sulton o'z kishilarini hokim, shixna (komendant) lavozimlariga tayinladi.

Xorazmshoh Muhammad yuqorida ta'kidlanganidek, qoraxitoylarni mag'lub etganidan so'ng, qoraxoniylar xoni Usmonxon unga qaramlikni tan oldi. Sultonning qizi bo'lgan Xon Sulton unga turmushga chiqdi. Usmonxon sultonga kuyov bo'lgach, turkiylar odatiga ko'ra kelin xonadonida bir yil qolishi lozim edi. Samarqanddagi xorazmliklar shixnasi Do'st Abo Usmonxon yo'qligidan foydalanib, shaharda jabr-zulmini kuchaytirib, nojo'ya ishlarni amalga oshira boshladi. Usmonxon Samarqandga qaytib kelgach, xorazmshoh vakillari, xorazmlik amaldor, harbiylarni qirib tashlashga buyruq berdi. Sultonning qizi Xon Sulton qal'aga yashirilib, jon saqlashga muvaffaq bo'ldi. Usmonxon Xorazmshohlar qaramligidan voz kechib, qoraxitoylarga shaharni topshirishni ma'lum qilib, go'rxonga elchilar yubordi.

Sulton bundan qattiq g'azablanib, o'z qo'shini bilan Samarqand ustiga yurish qildi. Samarqand ahli shahar mudofaasida qatnashib, o'z shaharlarini juda mardonavor himoya qilishdi. Sulton qo'shini shaharni egallagach, uch kun davomida shahar ahli jazoga muftalo etildi. Natijada o'n mingga yaqin odam halok bo'ldi. Sultonning qizi Xon Sulton o'z eri Usmonxonni o'ldirishni talab qildi. Shundan so'ng qoraxoniylar xoni Usmonxon va uning barcha avlodlari qatl etildi. Qoraxoniylarga aloqador barcha kishilar oilalari bilan o'limga mahkum qilindi. Qoraxoniylar sulolasining umri shu tariqa 1212-yili o'z nihoyasiga etdi. Sultonga umri tugab borayotgan qoraxitoylarning Movarounnahr chegaralariga yurish qilishlarining oldini olish maqsadida 10.000 kishilik qo'shinni Isfijob (Sayram)ga yubordi. Naymanlar rahbari Qushlixon esa tez orada qoraxitoylar yerlarida hokimiyatni o'z qo'liga oldi.

Sulton shundan so'ng o'z e'tiborini yana Janubga Xuroson, Eron tomoniga qaratdi. Fors Iroqi (yoki Iroqi Ajam – hozirgi G'arbiy Eron erlari)da ichki vaziyat bir necha yillar davomida keskinlashib, o'zaro kurashlarda Ozarbayjon otabeklari, Bag'dod xalifaligi, turli harbiy noib, sarkardalar ishtirok etishdi. 1215-yil Iroqi Ajam (Fors Iroqi)da hokimiyatni olgan Sayfiddin O'g'ilmish (u bir necha yil xorazmshoh xizmatida bo'lgan edi) Sulton Muhammad xorazmshoh nomini xutbaga qo'shib o'qitdi. Natijada Fors Iroqi qayta sulton izmiga o'tdi.

Keyinchalik Eronning Kirmon viloyati ham qo'shib olindi. Shundan so'ng sulton qo'shini Hindiston va Eron oralig'idagi Mikron, so'ngra Jalolistonni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng xorazmlik qo'shin Arab dengizi bo'yidagi O'rmuz bo'g'oziga chiqib, uning hokimi Maqiqni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Tarixchi Ibn al-Abir xorazmshoh nomini hatto Arabiston yarim oroli Janubi-Sharqida joylashgan Ummonda ham tan olib, uning nomini «xutbaga qo'shib o'qitishgan» deb yozgan edi.

1216-yili G'azna, G'ur, Bomiyon yerlari qo'lga olinib, sulton Muhammad xorazmshoh davlati Sind daryosi bo'yicha chiqib, bevosita Hindiston bilan chegaradosh bo'lib qoldi. Avval boshida Fors Iroqi sulton qo'liga o'tganligiga jim qarab turgan Bag'dod xalifasi an-Nosir hamda Ozarbayjon otabegi¹ O'zbek tez orada mazkur hududlardan xorazmshoh vakilini siqib chiqarishga harakat qilishdi. Shu maqsad-da o'zaro ularning kelishuviga muvofiq Fors Iroqi (Iroqi Ajam)dagi xorazmshoh noibi Sayfiddin O'g'ilmish ismoiliylar rahbari Jaloliddin Hasan tomonidan yuborilgan josus tomonidan o'ldirildi. Ozarbayjon hokimi Otabek O'zbek Isfahonni, Otabek Sa'd ibn Zangi Ray, Qazvin, Huvor va Simnon erlarini egalladilar. Sulton Muhammad xorazmshoh bu voqeani eshitgach, 100.000 kishilik qo'shin bilan Iroqi Ajamga yurish boshladi. Ray yaqinida Fors Otabegi Sa'd ibn Zangining qo'shini to'liq mag'lub etildi, o'zi asir olindi. Ozarbayjon tog'liklariga chekingan Otabek O'zbek ham sulton tazyiqidan cho'chib, tez orada tobelikni qabul qildi. Shundan so'ng xorazmshoh Muhammad yerlari tarkibiga Arron, Ozarbayjon, Shirvon va hozirgi Dog'istonning Kaspiy bo'yidagi Darband yerlari ham qo'shib olindi. Sobiq Ozarbayjon Otabegi (hokimi) O'zbek itoatgo'ylik belgisi sifatida o'zi panoh topgan tog'li Farrozin qal'asini ham topshirdi.

Qo'shib olingan yerlarda sulton Muhammad xorazmshoh nomi xutbalarga qo'shib o'qitilib, uning nomidan tangalar zarb etildi. Shuningdek, sulton Muhammad xorazmshoh O'zbekning iltimosini inobatga olgan holda Gruziya qiroli Georgiy IV ga elchi yuborib, bundan buyon Otabek O'zbek yerlari unga qarashli ekanligi, shu bois Ozarbayjon erlariga «hujum qilishdan tiyilishi» haqida ogohlantirdi.

¹ Otabek O'zbek 1225-yilgacha Ozarbayjon hokimi bo'lib turdi. Uni Jaloliddin Manguberdi 1225-yil hokimiyatdan mahrum etgan.

1217-yilga kelib sulton Muhammad xorazmshoh davlati tarkibiga Fors Iroqi (Iroqi Ajam), Mozandaron, Arron, Ozarbayjon, Shirvon, Fom, Kirmon, Mikron, Mang'ishloq, Kesh, Seyiston, G'ur, G'azna, Bomiyon yerlari jumladan, 400 ga yaqin shaharlar kirdi. Iroqdan Hindistongacha, Orol dengizi atroflaridan Arab dengizi sohillarigacha bo'lgan yerlarda hukm surgan xorazmshoh Muhammad davlati XIII asr boshlaridagi Sharqning eng buyuk va qudratli davlatiga aylandi.

Sulton Samarqandni o'z poytaxti deya e'lon qilib, 1218-yil aynan shu shaharga kelib o'rnashdi. Ta'kidlash joizki, xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya – ikkihokimlik tuzumi yuzaga keldi. Garchi sulton Muhammad xorazmshoh mutlaq hukmdor, qudratli davlat egasi hisoblansa-da, aslida esa o'z onasi Turkon xotun izmiga to'liq bo'ysunardi. Ko'p holda sulton farmonlari onasi tomonidan bekor qilinar ham edi. Sulton onasiga qarshi hech qachon qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi an-Nasaviy quyidagicha izohlab uni ikki sababga bog'lab ko'rsatgan edi «birinchidan, onasining unga bo'lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligidan». Malika saltanat, moliya ishlarini shaxsan o'zi boshqarar, tegishli tarzda farmonlar berar, noib va amaldorlar tayin etilishini nazorat qilar va hokazo. Turkon xotun Jaloliddin Manguberdini emas, balki kenja Qutbiddin O'zlagshohni taxt vorisi etib tayinladi.

Chunki, O'zlagshohning onasi Turkon xotunning urug'idan edi. Turkon xotun boshqa urug'dan bo'lgan shahzoda Jaloliddinning onasi Oychechakni xush ko'rmas edi. Turkon xotun ko'rsatmasiga ko'ra vaqti-vaqti bilan asir olingan yoki garovda ushlab turilgan shaxslar, sobiq hokimlar qatl etib turilar edi. Xorazmshohlar davlati boshqaruv tartibida an'anaviy dargoh va devon tizimiga rioya qilinardi.

Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, uni vazir boshqargan. Vazir – mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo'lib, bevosita unga bo'ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va rayiat (fuqarolar) o'rtasida vositachilik qilgan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo'ysungan. Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

– ashob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig'i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo'shatgan; davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;

– davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta'minlanishini belgilagan;

– bo'xona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;

– sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba'zi paytlarda qo'shin jo'natib ularga boshchilik qilgan.

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi buzruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o'zining siyohdoni (dovot) va ma'lum xil movutdan o'tirilgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Vazir tashqariga chiqqan vaqtida uning oldida dastasi tilla bilan qoplangan to'rtta nayzalik kishi yurib borgan. Vazirlar aksariyat arab va fors tillarining bilimdonlari bo'lishgan. Qabul vaqtida vazir hukmdorning o'ng tomonida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Otsiz davrida paydo bo'lgan edi.

Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansab, lavozimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi:

Amiri shikor – sulton ovlarini tashkil etgan.

Amir ul-a'lam (a'lamdor) – sulton bayroqdori.

Qissador – hafta davornida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib, payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirar edi. U eng obro'li mansabdorlardan biri bo'lgan.

Tashtdor – sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'lida ko'plab qullar ham bo'lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo'lgan. Masalan, xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayoza keyinchalik ming otliq lashkar berilgan. Sulton unga malik (hokim) unvonini ham byergan.

Farrosh – sulton o'rni-to'shak saqlanadigan farroshxona boshlig'i bo'lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farroshga ko'plab o'rgatilgan qullar xizmat qilgan.

Choshnigir – dasturxon yozilgan vaqtida sulton taomlari xavfsizligi uchun javob berar edi.

Sharobdor – sulton sharobxonasining boshlig'i.

Xorazmshohlar ijroiya boshqaruvida tug'ro (insho) devoni rasmiy hujjat, yozishlarini tuzish bilan shug'ullangan.

Istifo devoni – moliya ishlari bilan, ishrof devoni – davlat nazorati tadbirlari bilan, devoni arz – harbiy masalalar, qo‘shinni qurol-aslaha bilan ta‘minlash, shaxsiy tarkibni nazorat qilish, harbiy ko‘riklar o‘tkazish, harbiylarga ajratilgan mulklar nazorati kabilar bilan shug‘ullangan.

Devoni xos – maxsus devon hisoblanib, sulolaga tegishli bo‘lgan yer-suv, mol-mulk, sulton xizmatidagilarga maosh berish bilan mashg‘ul bo‘lgan.

1211–1212-yillarda qoraxitoylarga qilingan yurishlarda Xorazmshoh Muhammad otliq askarlarining sonining o‘zi 400 ming bo‘lganligi ham alohida ta‘kidlangan. Shuningdek, Bag‘dod xalifaligiga qarshi yurishda ham 400 ming nafar suvoriy qatnashganligini harbiy devondagi qayd daftarlari ham tasdiqlaydi. Xorazmshohlar doimiy harbiy qismlardan tashqari shaxsiy muhofaza qo‘shini (xaras)ga ham ega bo‘lib, ular yollanma askarlar (mamluklar) dan tuzilgan edi. Xorazmshoh Muhammad shaxsiy qo‘shinida 10 ming nafar kishi bo‘lgan. Yuqorida ta‘kidlanganidek, eng oliy harbiy boshqaruv devon al-jaysh (harbiy ishlar devoni) hisoblangan.

Xorazmshohlar yangi istilo etilgan o‘lka va viloyat yerlarini amirlarga iqto sifatida taqsimlab berishgan. Ularga, o‘z navbatida, amiral umaro faxriy unvoni berilar edi. 10 ming kishilik suvoriylar guruhi-ga qo‘mondonlik qilgan kishilarga malik unvoni berilgan. Choparlarga chovush unvoni, ularning boshlig‘iga esa muqaddam chovushiya degan nomlar berilgan. Shuningdek, maxsus xufya va ayg‘oqchilar bo‘linmalari ham mavjud bo‘lgan. An‘naviy urush qurollaridan tashqari, palahmonlar (manjaniq) qamal qilish uskunlari (dabbabat), yuradigan minoralar (matarks), devor buzadigan moslamalar (jamalukat), hujum vaqtida ishlatiladigan narvonlar (salalim) ham bo‘lgan. Davlatda ko‘plab harbiy jihatdan mustahkam qal‘alar mavjud edi (Istahr, Ilol, Hurandiz, Qohira, Ustunavand, Ardahn va boshqalar). Qal‘alardagi garnizonlarga – musatahfizlar qo‘mondonlik qilishgan. Qo‘shindagi harbiy nozir – noziral jaysh bo‘lib, u harbiy devonxona boshlig‘ining nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Davlatda aholi tinchligi bilan shih-nalar o‘z odamlari bilan shug‘ullanishgan.

Shihna aholi ichida xavfsizlik masalalariga mas‘ul bo‘lgan. Urushdan avval xorazmshohlar albatta harbiy kengash chaqirishar, unga yirik harbiy sarkardalar, ulamolar, faqihlar, munajjimlar taklif etilar edi.

Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa, Takish va Muhammadlar davrida madaniy hayot ancha rivoj topdi. Ayniqsa, she‘riyat, adabiyot sohasi


jullab yashnadi. Ular orasida eng ko‘zga ko‘ringan olim va shoir Rashiddin Muhammad al-Umariy (1115–1182) bo‘lgan. U Botvot ta‘allusi bilan mashhur bo‘lib, uch hukmdor – Otsiz, El-Arslon, Takish saroylarida xizmat qilgan.

Xorazmshohlar davridagi atoqli shoirlardan yana biri al-Jandiy (G‘iyosiddin Abulmajd Muhammad ibn Hasan ibn Ibrohim)ni adabiyot ahli «eng go‘zal yozuvchi shoirlardan biri, she‘rlari ajoyibdir», deya ta‘riflashgan. Shuningdek, Adib al-Xorazmiy (1165-yilda vafot etgan), Umar Xorazmiy (1155-yilda vafot etgan), Ahmad Samarqandiy, Rustan Xorazmiy va boshqa shoirlar ham samarali ijod qilishgan.

Xorazmshohlar davlatida tibbiyot ilmi ham rivoj topgan edi. Masalan, al-Qo‘yiniy atoqli tabib bo‘lib, tibbiyotga oid qator asarlar yozgan. U o‘zini Umar Xayyomning shogirdi deb hisoblagan. U Xorazmshoh Otsizga atab «Kitob fil hikma» («Donishmandlik kitobi») asarini, ibn Xorogiy esa – tarix va falsafa bo‘yicha asarlarini yozgan. Salohiyatli olim sifatida Otsiz uni o‘z saroyiga chaqirib olgan. Jo‘g‘rofiya sohasida Najib Bakronning «Jahonnoma» nomli xarita va izohli asari e‘tiborga molik ishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Sharqshunos olim Z. Bunyodov Xorazmshohlar davlatining 50 ga yaqin mashhur shoir, olim, ulamolarining nomini sanab o‘tgan.

Sulton yangi madarasalar qurilishini odatda taniqli din arboblari-ga topshirgan. Masalan, Xurosondagi bir madrasa qurilishi – muftiy va imom Ali Balxiyga, Nishopurdagi madrasa qurilishi – muftiy va mud-daris imom Abduljabbor Kufiyga topshirilgan va hokazo. Bu davrda Buxoro yaqinidagi Dehqon degan joyda xalq kutubxonasi ham ochilgan edi.

Tarixiy manbalarda bundan tashqari birgina Xorazm vohasida 11 ta shahar mavjud bo‘lganligi ham qayd etiladi. Mamlakatdagi boshqa eng yirik shaharlar qatorida Buxoro va Samarqand ham tilga olinadi. Bir-gina Buxoro viloyatida 5 ta shahar, 50 ga yaqin qishloqlar mavjudligi vohaning boy salohiyatidan darak berar edi. Undan tashqari O‘rta Osi-yoning o‘zida xorazmshohlarga tegishli Kesh, Taroz, O‘tror, Xo‘jand, Termiz, Isfijob, O‘zgand, Nasaf, Banokat, Niso, Marv va boshqalar mamlakat hayotida katta rol o‘ynagan. Xorazmshohlarga tegishli boshqa hududlardagi Nishopur, Isfahon, Sheroz, Hamadon, G‘azna, Balx, Ray va boshqalar ham katta shaharlar sirasiga kirib, o‘z vaqtida madaniy o‘choqlar vazifasini ham o‘tagan.



**5. IX–XII asrlarda madaniy yuksalishning shart-sharoitlari.
O'rta Osiyolik buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga
rivojiga qo'shgan ulkan hissasi**

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo hududida yuz bergan Madaniy uyg'onish (renessans), uning tarixi, mazmun-mohiyati, shu davrda ijod qilgan buyuk alloma-yu ulamolar, ularning insoniyat ilm-fan, madaniyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi hamisha jahondagi tadqiqotchi, olimlar diqqat markazida turgan. Shu bois ham, bu xususida yozma manbalar juda ko'p.

XX asr tarixshunosligida ushbu masala bilan qator G'arb olimlari, xususan G. E. Grbnebaum, A. Mets, L. Daxiyat, F. Lot, U. Uott, K. Brokkelmann, B. Shpuler, K. Bosvort va boshqalar qator tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Shuningdek, rus va sovet olimlaridan

E. P. Tolstov, M. E. Masson, I. I. Umnyakov, B. A. Rozenfeld, P. G. Bulpakov, B. B. Bartold, I. Yu. Krachkovskiy, o'zbek olimlardan Ya. G'ulomov, I. Mo'minov, O. I. Islomov, U. Karimov, M. Xayrullayev, B. Ahmadov, A. O'rinboyev, A. Irisov, A. Nosirov, I. Nizomiddinov, A. Ahmadov, H. Hasanov, F. Sulaymonova, D. Yusupova, S. Karimova va boshqalar qo'yilgan masalaning turli jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ldilar. Buyuk allomalarning ibratli hayot faoliyati va ijodi, yurtimizdan yetishib chiqqan ulug' zotlarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi XXI asrga kelib ham ilm ahlini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Ming yilliklar davomida turli sivilizatsiya va madaniyatlar, jahon savdo yo'llari chorrahasida joylashgan o'lkamiz hududida o'ziga xos bebaho ma'anviy qadriyatlar va madaniyat mavjud bo'lgan. Ilg'or madaniyat, ilm-fan xalifalik hukmi davrida aynan yurtimiz hududida rivoj topgan bevosita Bag'dod xalifaligidagi musulmon uyg'onish davri, ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ulkan xalifalik hududlarida taraqqiyot darajasi turlicha o'lka va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida tegishli munosabatlarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotining ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bo'ldi. Bu esa xalifalik xalqlari madaniyatining yuqori taraqqiy etishiga ham turtki bo'ldi. Bu davrda metallurgiya, tog'-kon, to'quvchilikda yangiliklar tatbiq etildi, qog'oz, sopol, shisha ishlab chiqish, foydali qazilmalarni qazib olish, qishloq xo'jaligida sun'iy sug'orish, gidrotexnik inshootlardan foydalanish, irrigatsiya shaxobchalarini qurish, turli o'simliklarni ekib, ko'paytirish yo'lga qo'yildi. Hunarmandchilikning ko'plab sohalari rivojlanib, turli buyumlar soni va sifati o'sdi, ichki va tashqi savdo aloqalari juda rivojlandi.

Daryo va dengizlarda ham yangi savdo yo'llari yurishi boshlandi. Shu davrda yuzaga kelgan ko'plab afsona, rivoyat, hikoyat, jumladan, «Ming bir kecha» ertaklarida mazkur davr qahramonlari faoliyati adabiy talqinda, Sharqona lutf bilan bayon etilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi keng ko'lamli o'zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqarar ediki, buni faqat ilm-fan yechishga qodir bo'lgan. Xususan, tabiiy fanlar, matematika, astronomiya, geometriya katta inshootlarni qurish, kemasozlik, savdo-sotiq uchun zarur bo'lgan. Aholi joylashuvi, ko'payishi, shaharlarning taraqqiy topishi tibbiyot faniga ehtiyojni tug'dirgan bo'lsa, hunarmandchilik, tog'-kon sanoati uchun geologiya,

mineralogiya ilmidan boxabarlik taqozo qilingan. Taraqqiyot, shuningdek, al-kimyoni rivojiga keng yo'l ochadi. Ulkan xalifalik hududida arab tili nafaqat vosita tili, balki ilm-fan tiliga ham aylandi. Shu davrda yaratilgan aksariyat ilmiy adabiyotlar arab tilida bitilar edi. Abbosiy xalifalar (750–1258) davrida yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar yanada taraqqiy etdi, islom madaniyati, ilm-fan yuqori cho'qqisiga chiqdi. Xalifalik o'z davlat boshqaruvi, turmush-tarzi, urf-odat, madaniyat, me'morchilik sohalarida ko'proq Sharqiy hududlar, xususan Movarounnahrda namuna oldi, ko'p holatda Eron, Xuroson, Movarounnahr zaminidan chiqqan arboblardan xalifalik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynay boshladilar. Abbosiylar davrida yaratilgan ma'naviy boylikda ajdodlarimizning ulkan hissasi mavjud edi.

762-yili xalifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chdi. Tez orada Bag'dod xalifalik ilmiy markaziga aylandi. Abbosiy xalifalardan Xorun ar-Rashid (786–809), ayniqsa, al-Ma'mun (813–833) nafaqat ilm-fanga xayrixohlik bilan qarashdi, balki uning rivojiga homiylik ham qilishdi. Xorun ar-Rashid davrida Bag'dodda tashkil etilgan kutubxonada ko'plab noyob kitoblarni jam etilib, boshqa tillardagi adabiyotlarni tarjimonlar arab tiliga o'girishardi.

Al-Ma'mun (813–833) hukmronligi davrida ilm-fanga homiylik yanada kuchaydi. Tabobat, falsafa, astronomiya, matematika fanlariga oid yunon, suriya, sanskrit, pahlaviy, xorazm tillaridagi asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Xalifa al-Ma'munning Marvdagi dargohidagi aksariyat olimlar: Muhammad Muso al-Xorazmiy, Javhariy, Ahmad Farg'oni, al-Marvaziy, Ali al-Marvaziy va boshqalar keyingi ijodiy faoliyat yuritish uchun Bag'dodga taklif qildi. Shu tariqa xalifalik poytaxti Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») – «xalifa Ma'mun akademiyasi» tashkil topdi. Ilm markazida nemis tadqiqotchisi H. Zuter ta'kidlaganidek, olimlarning aksariyati Xuroson, Movarounnahr, Baqtriya, Farg'onadan bo'lgan.

Shu tariqa aksariyat bizning zamindan chiqqan olimlar qo'li bilan arab tilidagi ilm-fan yuzaga keldi. Yevropada keyinchalik katta xatoga yo'l qo'yilib, ularning barchasi «arab olimlari» deb atashgan edi. «Bayt ul-hikma»da yunon fani, Hind – sanskrit madaniyatini o'rganildi, tibbiyot, astronomiya, matematikaga oid adabiyotlar tarjima qilindi, ularning ba'zilariga sharh yozildi, zamonaviy algebra, geometriya, optika asoslari yaratildi, kimyo fani juda taraqqiy topdi. Akademiya nafaqat

tarjima va tahlil ishlari bilan, balki ilmiy asnodagi ekspeditsiyalarni ham uyushtirgan. Masalan, 830-yili al-Xorazmiy rahbarligida G'arbiy Hindiston, keyinchalik Vizantiyaga safarlar uyushtirilgan. Shu davrda nafaqat poytaxt Bag'dod balki Kat, Marv, Buxoro, Samarqand, Balx va boshqa O'rta Osiyo hududlaridagi shaharlarda ham ilm-fan keng taraqqiyot to'la boshlagan. Islom dini Qur'on va hadislardagi ta'limotda ilmga intilish, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham egallashga imkoniyatini namoyon qildi. Bu esa, o'z navbatida, oddiy aholi ichida ham xat-savod chiqarish, badiiy adabiyotdan boshlang'ich ma'lumot olish, islom diniga oid bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lish, afsona, rivoyat, doston, ertaklardagi qahramonlarni madh etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Natijada she'riyat, adabiyot yuksak darajada rivojlana bordi. Rasmiy doirada ilm-fan, ma'rifatni qo'llab-quvvatlash mazkur soha vakillari obro'-e'tiborini nihoyatda yuksak mavqega erishuviga sabab bo'ldi. Islom dinining birlashtiruvchi kuchi tufayli ilm-fan va madaniyat bobida ulkan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Aksariyat zamonaviy fanlarning poydevori ham aynan shu davrda qo'yildi.

Fanda «Uyg'onish davri» deb ataladigan davr G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV–XVI asrlardagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba «uyg'onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Bazari o'z asarlarida ishlatadi. «Uyg'onish», «uyg'onish davri» atamaları XIV–XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko'proq antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o'xshash madaniyatni qaytadan «tirilishi», «uyg'onishi» ma'nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo'llaniladigan bo'ldi. Shu ma'noda ko'pchilik tadqiqotchilarning IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarini ham «uyg'onish» davri atashi to'liq maqsadga muvofiqdir.

IX–XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalgan hududni fath etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay bo'ysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning

mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab uni mustahkamlashning garovi deb hisoblashadi. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda, hatto, o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Chegaralari borgan sari kengayib, ulkanlashib borayotgan xalifalik uchun ilm ahli suv va havodek zarur bo'lib qoldi.

821-yilda Xuroson va Movarounnahrning noibi etib tayinlangan Tohir ibn Husayn xalifalik o'ylaganidek siyosat yurgizmadi. U xalifa nomini xutba namozidan chiqarib tashlashga ko'rsatma berdi. Tohiriylar shunday qilib so'zda o'zlarini xalifalikning noibidek ko'rsatsalar-da, amalda mustaqil ish yuritish harakatini boshlab yuborishdi. Shunday qilib, mustaqil davlatlarning paydo bo'lish uchun zamin paydo bo'ldi.

873-yilda Tohiriylar hukmronligi o'rniga Safforiylar hukmronligi o'rnatildi. Bu, o'z navbatida, Movarounnahrni Xurosondan ajralib, o'z mustaqilligini tiklab olishi uchun asos bo'ldi. IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar qo'l ostiga o'tib, mustaqillikni yanada mustahkamlab oladi. Somoniylar sulolasining eng yirik vakillaridan biri bo'lmish Ismoil Somoniy kuchli davlat tuzishga harakat qiladi va bu ishni muvaffaqiyatli ravishda uddasidan chiqadi.

Movarounnahr deb ataladigan bu hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi.


Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, O'rta Osiyoda IX–XIII asr boshlarida Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surishdi. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'lishdi. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod-ajdodlarimiz bu davrga kelib ko'paya bordi. Bag'dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda «Bayt ul-hikma» – («Donishmandlar uyi») Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma'mun davrida (995–997.) «Donishmandlar uyi»-«Bayt ul-Hikma»-«Ma'mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm o'chog'larida Sharqning mashhur va ma'lum olim-u allomalari tahsil olishgan. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga etadi. G'oyatda o'tkir zehn egasi va noyob qobiliyat sohibi bo'lgan al-Xorazmiy yoshlik chog'idan boshlab aniq va tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqdi, arab, fors, hind va yunon tillarini egalladi, bu tillarda yozilgan kitoblarni qunt bilan o'qib, mutolaa qildi. U dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oldi va so'ngra o'sha davrning yirik ma'rifat markazlaridan biri bo'lgan Marv madrasasida o'qidi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach (813-y.) Muhammad al-Xorazmiy Muso al-Xorazmiyni o'zi bilan birga Bag'dodga olib ketadi va u yerda tashkil etilgan «Bayt ul-Hikma»ga boshliq etib tayinladi. Bag'dodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qiladi.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning «Al Jabr val muqobala» («Tenglamalar va qarshilantirish»), «Hisob al-Hind» («Hind hisobi»), «Kitab surat al-Arz» («Yer surati haqida kitob»), «Kitab at-Tarix» («Tarix kitobi»), «Kitab al-Amal Bil Usturlabat» («Usturlab bilan ishlash haqida kitob») kabi asarlari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasigina yetib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida «Aljabr va al-muqobala» kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida



**Muhammad ibn
Muso al-Xorazmiy.**



**Abul Abbas Ahmad
ibn Muhammad ibn
Nosir al-Fargʻoniy.**

birinchi boʻlib algebra faniga asos soldi. «Algebra» atamasi ushbu kitobning «al-jabr» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematikada «algoritim» atamasi shaklida oʻz ifodasini topdi. Uning «Al-jabr» asari asrlar davomida avlodlar qoʻlida yer oʻlchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va oʻlchov ishlarida dasturilamal boʻlib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini qayta-qayta ishlab, u asosda asarlar yozadilar. Xorazmiyning

arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan oʻnlik pozitsion hisoblash sistemasi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotida buyuk ahamiyat kasb etdi, algebrani mustaqil fan darajasiga koʻtardi. Olimning «Kitob at-Tarix» («Tarix kitobi»)da Xuroson, Kichik Osiyo va Movarounnahrning VIII–IX asrlar tarixiga oid qisqa va aniq maʼlumotlar oʻz ifodasini topgan. Xorazmiyning «Zij» («Astronomik jadval»), «Quyosh soati haqida risola» asarlari falakiyotshunoslik fanining rivojlanish taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Fargʻoniy 797–865-yillarida yashab ijod qilgan vatandoshimizdir. Ahmad Fargʻoniy oʻz asarlari bilan fan tarixida katta iz qoldirdi. U matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qildi. Ahmad Fargʻoniyning ijodiy faoliyati Bagʻdodda ulugʻ mutaffakir olim Al-Xorazmiy rahbarligidagi «Bayt-ul-Hikma» bilan bogʻliqdir. U arab atamashunosligini paydo boʻlishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshib, Bagʻdod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. Ahmad Fargʻoniyning kitoblari dunyoga maʼlum va mashhurdir. «Kitob fi Usul ilm an-Nujum» («Falakiyot ilmining usullari haqida kitob»), «Falakiyot risolasi», «Falak asarlari sababiyati», «Al-Majistiy», «Ilm-xayya», «Al Fargʻoniy jadvallari», «Usturlob bilan amal qilish haqida», «Oy erning ustida va ostida boʻlganida vaqtning aniqlash risolasi», «Yetti iqlim hisobi», «Usturlob yasash haqida kitob» asarlarining qoʻlyozmalari Angliya, Fransiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda.

Ahmad Fargʻoniyning bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari butun jahon fani va madaniyatiga ulkan va munosib hissa qoʻshdi. U 812-yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, erning dumaloq ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarni har xil vaqtda koʻrilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuza-tish mumkinligini izohlab berdi.

Ahmad Fargʻoniy yaratgan ilmiy kashfiyotlar natijalari qaysi fan sohasida boʻlishidan qatʼiy nazar gʻoyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal boʻlgan. XII asrdayoq olimning asarlari lotin tiliga tarjima qilinganligi va Yevropaga tarqalganligi bu fikrning isbotidir. Yevropaliklar Ahmad Fargʻoniyning «Al Fraganus» deb atashgan. Uning asarlari lotin, nemis, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobiy 873-yilda Forob (Oʻrtor) yaqinidagi Basij shaharchasida tavallud topgan va 951-yilda Damashqda vafot etgan.

Oʻrta Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq uygʻonish davrining eng koʻzga koʻringan arbobi, Sharq falsafasining otasi Forobiy avval Forob, Buxoro va Samarqandda bilim oldi va turli tillarni oʻrgandi. Bagʻdodga kelgach fanning turli sohalarini boʻyicha bilimlarini chuqurlashtirishda davom etdi. U ilmiy salohiyatini oshira borib, fanning deyarli barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asar yozdi. Forobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur boʻldi. U yozgan «Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Tirik mavjudot aʼzolari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al Madaniya» («Shaharlar ustida siyosat yurgizish»), «Fozil odamlar shahri», «Masalalar mohiyati», «Qonunlar haqida kitob», «Tafakkur yurgizish mazmuni haqida», «Mantiqqa kirish haqida kitob», «Falsafaning mohiyati haqida kitob» va boshqa asarlari buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy fanning nazariy va falsafiy tomonlarini yoritishga harakat qilgan. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy, tabiiy, ilmiy asarlariga,



**Abu Nasr
Muhammad
ibn Muhammad
Forobiy.**

Ptolemeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiyning ruh haqidagi psixologiyasiga oid, Galenning tibbiyot bo'yicha asarlari, Epikur. Zenon, Evklid risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidadagi o'zining qo'shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel «Birinch muallim» unvoniga sazovor bo'lsa, Forobiy donishmandligi, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasi uchun «Al-muallim as-Soniy – Ikkinchi muallim», «Sharq Aristoteli» degan mo'ttabar unvon oldi.

Forobiyning «Inson tanasining a'zolari haqida»gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag'ishlangan. «Astrologiyaning to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqida»gi risolasida astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlariga asoslangan faoliyatini, yolg'on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Olimning ko'p jildli «Musiqqa haqida katta kitob» asari musiqa ilmining katta bilimdoni, sozanda va ajoyib bastakor ham bo'lganligini tasdiqlaydi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo'lgan. O'rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Forobiyning ilm tasnifi bo'yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g'oyatda qimmatlidir. U «Ilmlarni kelib chiqishi haqida», «Ilmlarning tasnifi haqida» va boshqa risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi.

Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma'naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun muhim ijod manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (899–959) Buxoro yaqinidagi Narshax (hozirgi Vobkent tumanida) qishlog'ida 899-yilda tavallud topgan. Narshaxiyning ilmiy asarlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Uning faqat «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi») asari bizgacha yetib kelgan. Asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy», «Taxqiq ul-Viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarning turli nomlar bilan atalishiga ham sabablar bor. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan qismi, 1128-yilda Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi

yillarda ham Narshaxiyning asari bir necha tahrirlarga uchragan, ba'zi matnlari qisqartirilgan va so'nggi voqealar asosida to'ldirilgan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki Tabariy, Abu Hasan Nishopuriyning «Hazoiq ul-ulum», Ibrohimning «Axbar-i Muqanna» kabi asarlaridan foydalanib, uni to'ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, 1178–1179-yillardan 1220-yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

«Buxoro tarixi» asari o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kunda Somoniylar davri tarixi bo'yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'oloni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo'lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga qarshi chiqishini qoralagan.

Biz o'rganayotgan davr IX–XII asr fan va madaniyatining ravnaqini **Abu Rayhon Beruniy** siz (973–1048) tasavvur qilish mumkin emas. U o'z zamonasining barcha fanlari – fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo'lgan. U 362 xijriy yili (973) Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug'ildi. O'sha davrda Kat shahri Xorazmshohlar – Afrig'iy-lar sulolasining poytaxti bo'lib, O'rta Osiyoning Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan bog'lab turuvchi savdo va madaniy markazlaridan biri edi. Afsuski, Beruniyning zamondoshi Ibn Sinonikiga o'xshagan tarjimai holi bizgacha yetib kelmagan. Shuning uchun, u boshlang'ich ta'limini kimdan, qachon olganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, bir narsa aniqki, u yoshligidanoq ilm-fanga juda ham qiziqqan, qobiliyatli, mehnatkash bo'lgan.

U o'z ona tili xorazm tilidan tashqari yana bir qancha tillarni – so'g'diy, fors, hind, yunon va qadimgi yahudiy tillarni ham o'rgangan. U Hindistonda bo'lar ekan, tez orada nafaqat Hindiston tarixi, ma-



Abu Rayhon Beruniy.

daniyati, hatto sanskrit tilini ham o'rganadi. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasining eng ko'zga ko'ringan faol ishtirokchilaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Beruniy Urganchda yashagan davrda Ibn Sino bilan yozishma olib borgan. Bizgacha ularning savol-javoblaridan 18 tasi yetib kelgan. Bu yozishmalar Beruniyning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan qanchalik qiziqqanligidan guvohlik beradi. Savol-javoblarning mazmunida Aristotelning aql bilan his etish orqali chiqargan xulosalariga Beruniy o'zining tuzatish va tajriba orqali aniqlagan xulosalarini qarshi qo'ygan. Ibn Sino esa Aristotelni himoya qilgani ma'lum bo'ladi.

Beruniy Xorazmda yashagan vaqtda hali juda yosh bo'lishiga qaramay, Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi asboblari ixtiro qilgan. Beruniy 22 yoshida o'zi tug'ilib o'sgan vatanni tashlab kyetishga majbur bo'ladi va avval Rayga, keyin Jurjonga keladi. Bu yerda mashhur tabib, astronom, faylasuf Abu Saxl Iso al-Masihiy bilan tanishadi va undan ta'lim oladi. Beruniy o'zining mashhur asarlaridan biri bo'lgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini Jurjonda yoza boshlagan.

Tarixdan ma'lumki, 1017-yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib oladi va Beruniy ham Xorazmshoh saroyidagi bir qancha olimlar qatori G'azna shahriga olib ketadi. Beruniy G'azna shahrida 1017-yildan to 1048-yilgacha hayot kechirgani ma'lum. Bu yillar Beruniy hayotida o'ziga xos davr bo'ladi. Bir tomondan g'urbatda yashagan bo'lsa, ikkinchi tomondan ilmiy faoliyatda juda ham mahsuldor davri bo'ladi. Beruniy faoliyatini o'rganuvchi olimlarning fikricha, bunday hol, ya'ni davlat ishlariga aralashmagan, siyosiy faoliyatdan chetlashgan olim o'zining butun bo'sh vaqtini ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflaydi.

Beruniy tabiat fanlarining rivojiga bebaho hissa qo'shgan olimdir. U o'zining ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi haqida fikr yuritganda Ptolemey fikriga suyansa ham, amalda yerning harakati haqida Ptolemey tartibiga zid keluvchi fikrlarni bayon qiladi. U «Geodeziya» asarida geotsentrizm bilan bog'liq bo'lgan ba'zi nazariyalarning to'g'riligiga shubha bilan qaraganligini ochiqdan-ochiq bayon etadi. Bu bilan u dunyoning geliotsentristik tuzilishi haqidagi nazariyani yaratishga hissa qo'shganlardan biri hisoblanadi.

Beruniy 1030-yilda «Hindiston» nomi bilan mashhur bo'lgan eng yirik asarini yozadi. U asar juda katta ahamiyatiga ega bo'lgan asar bo'lib, bu haqda juda ko'p G'arb va Sharq olimlari o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishgan. Beruniyning bu asari ustida 20-yil ish olib borgan E. Zaxau uning arabcha tanqidiy teksti bilan inglizcha tarjimasini 1888-yilda Londonda nashr ettiradi. Ana shu olim «hindshunoslikda Beruniyga teng qeladigan biror olim na undan oldin va na undan keyin bo'lganligini bilmaymiz» – degan edi. Yirik arabshunos olim R. Rozen «Hindiston» asari qadimgi va o'rta asr G'arb va Sharq adabiyotida «misli ko'rilmagan» – deb baholaydi. Hind olimlaridan Hamid Rizo esa «O'rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri Hind madaniyatining chigal masalalarini ilmiy ruhda tushunish bo'yicha Abu Rayxon Beruniy erishgan yutuqlariga erisha olmadi. Beruniyning «Hindiston» asari klassik namuna bo'lib qolishi bilan birga o'z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga tortig'idir» – degan edi. Abu Rayhon Beruniy 1048-yili G'aznada vafot etib, o'sha yerda dafn etilgan.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog'ida tavallud topgan. Otasi ziyoli, o'qigan, bilimdon kishi bo'lib asli Balxdan bo'lgan. Ibn Sino o'sha davr ziyolilar oilasida hukm surgan turmush-tarzi tizimi bo'yicha «Qur'oni karim»ni yoshlik chog'idan yod o'la boshlaydi. Bu bilan kifoyalanib qolmasdan otasi unga falsafa, hind hisobi kabi sohalarni ham o'qita boshlaydi. Hatto Abu Abdulloh an-Nashali degan kishini o'g'liga murabbiy qilib oladi. U o'spirinlik yillarida, 16 yoshida shunchalik chuqur shug'ullanganki, hatto biron-bir kecha ham to'yib uxlamagan ekan. Fan asoslari bilan bunday shug'ullanish, ko'p vaqtlar davomida amalga oshirgan mashaqqatli mehnat tez orada o'z samarasini beradi, u 17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqara boshlaydi. Mukofot sifatida saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga sazovor bo'ladi.

Ibn Sino ham o'sha davrda Xorazmda fan va madaniyat homiysi sifatida nom chiqargan Ma'mun (999–1016) saroyiga boradi. U yerda o'sha davr mashhur olim, faylasuflari Abusaxl Masihiy, tabib Abul Xayr Xommar, qomusiy olim sifatida butun dunyoda tan olingan Abu



Abu Ali ibn Sino.

Rayhon Beruniy va boshqa mashhur olimlar bor edi. Ammo, olimning tinch ijodi bu yerda ham ko'pga cho'zilmaydi. Xorazmni Mahmud G'aznaviy egallagach u Hamadonga jo'naydi. O'sha davrda Hamadon hukmdori Shams ad-Davla degan kishi bo'lib, u kasal bo'lib qoladi. Ibn Sino Buxoro amirini davolaganidek uni ham tuzatib yuboradi va evaziga vazir etib tayinlanadi. O'sha davr saroy fisq-u fasodlari tufayli u zindonga tashlanadi. Isfahon hukmdori Alouddavla Hamadonni bosib olgach, u zindondan ozod qilinadi.

Ibn Sinoning zamondoshi, uning shogirdi Juzjoniyning yozishicha u jismoniy jihatdan juda baquvvat bo'lgan. Biroq, shaharma-shahar darbadarlikda yurish, yuqorida qayd etganimizdek, kechalari uxlamasdan uzluksiz ishlash va ta'qib ostiga olishlar olimning salomatligiga qattiq ta'sir ko'rsatadi va 1037-yilning iyun oyida 57 yoshida vafot etadi. Bu buyuk allomaning qabri Hamadonda joylashgan.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedik olim bo'lib, o'z davrining deyarli barcha fanlari bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd qilingan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan.

Ibn Sinoning tog'larni paydo bo'lishi to'g'risidagi ajoyib fikrlari, minereologiya va geologiya fanlariga qo'shgan hissasi juda salmoqlidir. Jumladan, u minerallarni to'rt guruhga bo'lib, ularning original klassifikatsiyasini taklif etadi. Bu klassifikatsiya to'rtinchi asrgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Olimning mineralogiya sohasidagi ishlari-ning muhimligi ta'kidlanib, 1956-yilda O'zbekistonda topilgan mineral «Avitsenit» deb atalgan.

Ibn Sino botanika masalalari bilan ham ko'p shug'ullangan. Chunki, tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o'simliklardan olinadi. Mashhur shved botanigi Karl Linney (1707–1778) Ibn Sinoning botanika sohasidagi xizmatlarini ta'kidlab, tropik mamlakatlarda dengiz suvida ham o'suvchi va doimo yashil holda qoladigan bir daraxtni Avitsenna deb atadi. Ham G'arbda, ham Sharqda «Avitsenna» va «Shayxur-Rayis» nomi bilan shuhrat qozongan bobokalonimiz haqiqatan ham mustaqil O'zbekiston yoshlari qalbida o'z tarixi va bobokalonlari bilan faxrlanish his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (960–1041) taxminan 960-yilda Samarqand yaqinida joylashgan Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Shuning

uchun ham, shoirning taxallusi shu tug'ilgan qishlog'ining nomidan kelib chiqib Rudakiy deb nomlanadi.

Rudakiyning tarjimai holiga bag'ishlangan barcha manbalarda uni lambag'al oiladan ekanligi, yoshligidayoq musiqa asboblarini yaxshi bilishini va ashula aytishni sevganligi qayd etiladi. Yosh shoirning o'zi she'rlar yozishi va musiqaga bo'lgan bunday muhabbati tez orada uni mashhur qilib yuboradi. Bu davrda she'riyat, ayniqsa, saroy she'riyati, qasidanavislik, ya'ni shaxsga madhiya o'qib, ko'klarga ko'tarib maqtash keng avj olgan edi. Qasidanavislikdan asosiy maqsad, uning mohiyati maqtov kimning shaxsiga qaratilgan bo'lsa, o'sha kishini shaxsni ulug'lashtirish bo'lgan. Rudakiy esa ma'lumotlarga qaraganda, qasida to'qishga usta bo'lgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, uning homoniylar saroyiga taklif qilishadi. U davrda hokimiyat tepasida Nasr ibn Ahmad turardi. Shu davrdan boshlab, uning hayotida saroy davri boshlanadi. Saroy hayoti o'zining o'ta murakkabligi bilan ajralib turgan, fisq-u fasodlarga to'la bo'lgan. Rudakiy qarigan vaqtida saroydan quviladi va qolgan umrini o'zining ona qishlog'ida faqirlikda o'tkazadi. Saroydan quvilayotgan paytda uning ko'ziga mil tortib, ko'r qilinadi.

Rudakiy fors-tojik she'riyatining asoschilaridan biri hisoblanadi. XI asr shoiri Rashidiyning aytishicha, Rudakiyning bir mln. uch yuz ming bayt she'ri borligi hisoblab chiqilgan. Ammo bizgacha ming bayt, ikki qismda ellik ruboiy, she'rlar, doston va boshqalar yetib kelgan, xolos. Bu asarlarda shoir do'stlik, muhabbat, yaxshilik qilish, bironing dilini og'ritmaslik kabi ulug' insoniy fazilatlarini ulug'laydi. Doimo ezgulik qilishga chorlaydi.

Rudakiyning she'riyati hayot lazzati, hayotning o'zi ustod ekanligi, undan ko'p narsalarni bilib, o'rganib olish mumkinligini ta'kidlaydi va shunday qilish lozim ekanligini uqtirishga harakat qiladi. Hayot ta'limi butunlay boshqacha ta'lim ekanligini, uni ba'zida shirin, ba'zida achchiq ekanligini ko'rsatadi. Bunday ta'limni hech bir o'qituvchi bera olmasligini uqtiradi:

Har bir kishi olmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgata olmas hech bir muallim.

Bizgacha Rudakiy qalamiga mansub «Kalila va Dimna», «Davroni oftob», «Sindnoma» kabi poemalardan parchalar yetib kelgan. Rudakiyning asarlari haqida gap yuritar ekanmiz, uning tili sodda, keng xalq

ommasiga juda ham tushunarli bo'lganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham, u keng xalq ommasi orqali shuhrat topgan. Uning asarlari hozirgi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Mahmud Koshg'ariy faoliyati bilan bevosita shug'ullanuvchi olimlarning fikricha bu zot 1029–1038-yillar orasida Qashg'arda tug'ilgan. U o'ziga to'q, ziyoli oiladan bo'lib, Qashg'arda yaxshi bilim oladi. Hatto u Buxoro va Nishopur shaharlarida o'z bilimlarini kengaytirib katta-katta olimlar bilan suhbatda bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy yashab ijod etgan yillar Qoraxoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Mahmud Koshg'ariy juda ko'p safarlarda bo'ladi va o'zining asarlari uchun boy ma'lumotlar to'playdi. Ko'p yillik izlanishlar natijasida «Devon-u lug'otit turk» va «Javohir-nahv» «Turk tili sintaksisi asoslari» asarlarini yozadi. Ming afsuslar bo'lsinki, oxirgi asar hanuzgacha topilmagan. Mahmud Koshg'ariyni butun ilm olamiga tanitgan asari uning «Devon-u lug'otit turk» asaridir. Bu kitob arab tilida yozilgan. Unda olim ko'p yillar davomida turkiy qabilalar orasida olib borilgan kuzatishlar asosida turkiy tillarni qiyosiy va tarixiy usullar bilan tahlil qilgan va bu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Olimlarning fikricha, muallif ushbu tadqiqotida juda ko'p so'zlarning etimologiyasini ham juda aniq va to'g'ri izohlab byergan.

Asar ikki qism (muqaddima va lug'at)dan iborat. Olim asarga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ham ilova qiladi. Bu hol asarning qimmatini yanada oshiradi. Xarita doira shaklida chizilgan bo'lib, unda mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va hokazolar nomlari yozilgan. Xaritada yozilmay qolgan nomlar esa asar matnida berilgan. Xarita, asosan, hozirgi Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Mahmud Koshg'ariyning o'zi bu haqda shunday yozgan: «Rumdan Mochingacha bo'lgan... shaharlar o'rmini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim».

Asarda turli urug'-qabilalardan qipchoq, o'g'iz, tatar, yamak, basmil, yabonu, qay, boshqirt, qirg'iz, uyg'ur, jamil, taru, ichroq, tuxsi, yag'mo, chigil, tangut, tabg'och, shuningdek, fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Asarda bulardan tashqari bir necha turkiy tildagi hikmatli so'zlar berilgan.

Mahmud Koshg'ariyning bu asarida O'rta Osiyo hududidagi bir qancha shaharlar nomlarining kelib chiqishi masalalari ham alohida

ko'rsatilgan. Kitobda turkiy yozuv to'g'risida aniq ma'lumotlar berilib, 18 harfdan iborat turk (uyg'ur) alifbosi ham ko'rsatib o'tilgan.

Mahmud Koshg'ariyning bu kitobi dunyo xalqlarining juda ham ko'p tillariga tarjima qilingan. Asarning bunchalik katta ahamiyatga ega bo'lishi muallifning hayotni yaxshi bilganligi, turli bilimlarni puxta o'zlashtirganligi va asarni hayot tajribasiga asoslanib yozganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham asar o'z ilmiy qimmatini bugungi kunda ham yo'qotgani yo'q.

Qoraxoniylar davrida yashagan yana bir o'z davrining atoqli shoiri, donishmand va davlat arbobi **Yusuf Xos Hojibdir** (XI asr). Uning tarjimai holi, tug'ilgan yili va hayoti to'g'risida yozilgan biron-bir asar saqlanib qolmagan. U Qoraxoniylar sulolasining poytaxti Balasog'unda tug'ilgan va shu yerda ijod etgan. Hozirgi kunda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» – «Baxt-saodatga boshlovchi bilim» deb nomlangan didaktik, badiiy-falsafiy asari bizgacha yetib kelgan bo'lib, boshqa asarlari ma'lum emas. Shoirning o'zi bu ishga roppa-rosa 18 oy sarflagan va unga juda ham puxta tayyorgarlik ko'rgan.

Asar nasriy muqaddimadan so'ng 77 baytdan iborat bo'lgan she'riy muqaddima bilan boshlanib, 73 bobning mundarijasi beriladi. Boshlang'ich boblar o'sha davr an'alariga binoan boshlanib, Alloh va payg'ambar, islom dinining foydasi va dunyoviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ilmiy masalalar bilan tugallanadi.

Asar shunchalik ko'p qamrovliki, unda ko'tarilgan masalalarni oddiy sanab o'tishning o'zi ham bir necha sahifalarni tashkil etadi:

Masalan: Yetti sayyora va o'n ikki burj.

Inson farzandlarining qadri bilim va tafakkurda.

Tilning fazilat va manfaatlari.

Kitob egasining uzri.

Bilim va aql-idrokning farqi to'g'risida.

Bahad madhi.

Oy to'ldining baxt haqidagi hikoyasi.

Ana shu sanab o'tilganlardan ham ko'rinib turibdiki, asarda shoir inson masalasini ajratib oladi. Insonning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi o'rni, vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi.

«Qutadg'u bilig» asarida bilim haqida alohida bob bo'lib, unda bilimdan hech bir ziyon bo'lmasligi, u kishilarga faqat foyda keltirishi mumkinligi, kishilarga bilim qadr-qimmat, hurmat va ehtirom keltirishi

mumkinligi aytib o'tiladi. Shuningdek, asarda markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan nizolarga chek qo'yish kabi o'sha davr uchun juda katta ahamiyatga molik bo'lgan masalalarga ham alohida e'tibor beriladi. Shu bilan birga, davlatni idora etish yo'llari, buning uchun beklar bu yo'lda o'z atrofiga bilimdon, aqlli odamlarni to'plashi lozim ekanligini alohida ta'kidlaydi. El-yurtni boshqarish asosida ikki narsa yotadi deb ko'rsatgan shoir. Biri adolat ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi, ulardan marhamatni ayamaslikdir. Yuqorida qayd qilinganidek, shoirning bu asari dunyo jamoatchiligi tomonidan yaxshi qabul qilingan eng yaxshi asarlar qatoridan o'rin olgan.

6. Xorazm Ma'mun akademiyasining ilm-fan taraqqiyotidagi o'рни.

Ilmiy markaz tuzish, fan taraqqiyotiga xizmat qilish, uning samaralaridan foydalanishga intilish an'anasi X asr oxiri XI asrning boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan Ma'muniylar (995–1017) sulolasi davrida ham davom ettirildi va yanada yuqori pog'onaga ko'rsatildi.

995-yil Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad ibn Iroq Afrig'iylar sulolasiga barham beradi. Kat shahrini bosib oladi va poytaxtni Gurganchga ko'chirib, o'zini xorazmshoh deb e'lon qiladi. Uning vorisi Ali ibn Ma'muning taklifi bilan 1004–1005-yillarda Abu Nasr ibn Iroq, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Al Ho'jandiy, kimyogar olim Abdu Malik as-Solibiy kabi o'z davrining o'nlab buyuk olimlari Gurganch shahriga to'planishadi. Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganchda «Dor-ul hikma va maorif» (ba'zi manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllandi.

Bu yerda ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan. Hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan.

XVIII–XX asr tarixchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligini isbotladi. Unga shartli ravishda «Xorazm Ma'mun akademiyasi» deb nom berildi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi jahon ilmiy tafakkuri, madaniy va ma'naviy taraqqiyotining benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida bunday an'analar qadimiy il-

mlarga egadir. Aflotun Akademiyasi «bog' suhbatlari» – olimlarning turli mavzular bo'yicha bahs-munozaralari shaklida amal qilgan bo'lsa, keyingi davrlardagi ilmiy markazlar olimlarning doimiy ish olib boruvchi uyushmalariga aylangan.

Ushbu tarixiy an'analar Islom davrida yangi sifat darajasiga etdi. Bag'dodda Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid davrida tashkil topgan «Bayt-ul hikma» Sharqning eng buyuk allomalarini shu jumladan, O'rta Osiyolik olimlarni o'z atrofiga to'plagan edi. «Bayt-ul hikma» o'z davri fan tarakkiyotini yuksak darajaga yetkazibgina qolmay, mumtoz yunon-rim antik davri fanining yoyilishiga ham xizmat qildi.

X asr oxiri – XI asr boshlariga kelib Arab xalifaligi siyosiy hokimiyatida tanazzuliy holatlar kuzatilgan bir vaziyatda an'anaviy davlatchilik zanjiri uzoq asrlar davomida uzilmay kelgan Xorazm birmuncha barqaror rivojlanish pallasida edi. Xususan, Afrig'iylardan hokimiyatni olgan Ma'muniylar davri boryo'g'i 22 yilni tashkil etsa-da, ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarida o'ziga xos jo'shqin davr bo'ldi. Ayni shu qisqa davrning 1004–1017-yillari orasida shakllanib, tez sur'atlar bilan rivojlangan «**Bayt-ul hikma**» – «Majlisi ulamo» Sharqona «akademiyachilik»da misli ko'rilmagan ilmiy salohiyatni ishga soldi. Bu hodisa ajdodlarimiz ilmiy dunyoqarash an'alarining kuchli ildizlaridan dalolat edi. Asrlar osha to'plangan ilmiy tajribalar, Bag'dod «Bayt-ul hikma»si an'analari tarix taqozosi bilan Xorazm tuprog'ida yanada yuksak pog'onaga ko'tarildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi jahoniy, umumbashariy ahamiyatga ega ulkan ilmiy meros qoldirishga erishdi.

Xiva shaxrining 2500-yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalarida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov Xorazmdagi Ma'mun akademiyasini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdi va 1997-yil 11-noyabrda imzo chekkan farmoniga binoan Xiva shahrida Ma'mun akademiyasi qayta tashkil qilindi. Bu voqea o'zbek xalqi madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. O'zbekistonning taklifi va tashabbusi bilan YUNESKO tomonidan Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashda ishtirok etish haqida qabul qilingan qaror hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shunga muvofiq qarori asosida 2006-yil 2-noyabr kuni Xiva shahrida yubiley tantanalari va xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.

Ma'mun ibn Muhammad (992–997) hamda Ali ibn Ma'mun (997–1009) davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab, uning har-

biy qudratini oshirishdi. Endi qo'shni bo'lgan, Xurosonda yaqinda tashkil topgan G'azna podsholigi, arab xalifaligi, Kiyev Rusi ham uni tan olar edi. Xorazm boshqa davlatlar siyosatiga ham faol ishtirok etadigan bo'ldi. Hatto Kiyev knyazi Bladimir Xorazmga o'z vakillarini yuborganligi haqida ma'lumotlar bor. Ma'muniylar mamlakat hududini ham ancha kengaytirishga muvaffaq bo'ldilar, endi Xorazm Sirdaryo, Kaspiy (Xozor) dengizi, Bolgabo'yi oraliqlarini o'z ichiga olgan edi.

Chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarning o'sishi, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishi o'lkada ilm-fan, madaniyatning yuksalishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xorazmliklar uzoq o'lkalarga borib savdo qilishlari natijasida o'zga xalqlar madaniy hayoti bilan tanishish imkoniga ega bo'lishgan. Xorazmda osoyishtalik va tinchlik qo'shni mamlakatlar olimlari, shoir-u san'atkorlarini o'ziga tortar edi.

997-yil boshida xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad vafot etib, taxtga Abu-l-Xasan ibn Ma'mun o'tirgach, Beruniy Xorazmga qaytib keladi. Lekin Gurganchga kelmay, eski poytaxt Katga keladi. Yangi xorazmshoh bu payt yaqin qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi aloqalar o'rnatib, Gurganchga olimlar va adiblarni to'play boshlagan edi. Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun bilimdonligi va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan mashhur edi. U hukmronlik qilgan davrda Gurganch Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Ali ibn Ma'mun saroyidagi olim-u ulamolarga ijodiy faoliyat uchun ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Beruniy 998-yil oxirida qandaydir sabablarga ko'ra Kaspiyning Janubi-Sharqidagi Gurgon shahriga Qobus ibn Bashmgir Ziyoriy (978–1012) saroyiga boradi. U Katga qaytib kelib, keng ko'lamda ilmiy ishlar olib boradi, 995–997-yillar orasida uzilib qolgan kuzatishlarini to'ldiradi va davom ettiradi, Ibn Sino bilan falsafiy yozishmada bo'ladi. Alloma Gurgonda to 1004-yilga qadar muqim turadi. Bu yillar u chuqur ilmiy izlanishlar, astronomik kuzatishlar olib boradi va ancha ilgari Xorazmda boshlagan yirik ilmiy asari «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya an al-qurun al-xomiya»)ni yozib tugatadi. Bu orada Gurganchda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun saroyida olim va adiblarning katta guruhi to'plangan edi. 1005-yili u yerga Buxorodan Abu Ali ibn Sino keladi.

O'z tarjimai holida Abu Ali ibn Sino quyidagilarni yozgan edi: «...keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Gurganch tomonga ko'chishimga to'g'ri keldi. U yerda ilmni sevuvchi Abu-l-Hasan as-Saxriy vazir edi. U erning amiri huzuriga kirdik. Amir Ali ibn Ma'mun edi. Men uchun, menga o'xshaganlarga beriladigan miqdorda oylik tayin qilishdi».

Beruniyning Gurganchga kelishi bilan xorazmshoh saroyida to'plangan olimlar davrasi to'ladi. O'sha 1004-yilni shartli ravishda Xorazmda Ma'muniylar ilmiy to'garagining yoki hozirgi ibora bilan aytganda Ma'mun akademiyasining to'la shakllangan davri deyish mumkin. Ma'mun akademiyasida to'plangan olimlar ro'yxati bizgacha yetib kelmagan va ularning tarkibi haqida biz faqat taxminlar qilishimiz mumkin. Lekin Abu Mansur as-Saolibiyning guvohligicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan.

X asr oxiri – XI asr boshlarida Gurganch notinchliklardan holi bo'lib, u yerda ilm fidoiylari uchun etarli sharoit mavjud edi. Shaharda o'z vaqtida Abdushukur Balxiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Nasr Forobiy kabi IX–X asrlarning ulug' allomalari ijod qilishgan. Ma'rifatparvarligi, ilm ahliga e'tibori bilan mashhur bo'lgan Ma'mun ibn Ma'mun ham o'z saroyidagi olimlarga izzat-hurmat ko'rsatib, ularning ijodiy yutuqlariga katga qiziqish bilan qaragan.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasi («Majlisi ulamo») da Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Said ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Mujavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Ahmad Muhammad as-Saxriy, Zaynuddin Jurjoniy, Abulkarim Zirg'aliy, Abu Abdulloh al-Vazir, Abul Hasan Ma'mun, Abu Muhammad Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamadiy, Abu Azoq ibn Baxnom, al-Kosiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulla an-Naysaburiy al-Xorazmiy, al-Xamdakiy, Ixmad Mas'uriy, Abu Muhammad Rakkoshiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suxayl al-Xorazmiy va boshqa olimlar matematika, astronomiya, astrologiya, ruyoiyot, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta'lim-tarbiya, kimyo, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan sohalari bilan shug'ullanib, bu ilmlarning kelajakdagi taraqqiyotiga zamin hozirladilar.

7. IX–XII asrlarda islom dini va soʻfiylik. Buyuk muhaddis va dinshunos olimlar.

IX–XII asrlarda islom dini Oʻrta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol oʻynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil boʻlgan davlatlarning paydo boʻlishi va rivojlanishi davri boʻlgan boʻlsa, islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib jahon dini darajasiga koʻtariladi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. Arab tili davlat tili darajasiga koʻtariladi. Azaldan savodli boʻlgan, madaniyat darajasi yuqori darajaga koʻtarilgan xalq tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur oʻrganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi.

Xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qora-xoniylar, Saljuqiylar va Gʻaznaviylar, Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga, uning taʼlimotiga, tarixiy ahkomlariga eʼtibor bir necha bor kuchaya boshlaydi. Shaharlarda masjidlaru madrasalar qurilishiga eʼtibor berila boshladi. Masalan, manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasa Kovushdoʻzlar timi yaqinida barpo qilinadi. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus «Faqihlar madrasasi» degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurdirilgan. Bunday bilim maskanlarida Qurʼoni karim, Hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal oʻrganilgan. Oʻsha davr shaharlari orasida islom dini taʼlimotini chuqur targʻib qilishda Buxoro shahri alohida oʻrinni egallaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasayu, maktablarning borligi bu yerda etuk ilohiyot fani namoyandalarini yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab «Qubbatul islom» – «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topa boshlaydi.

Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqara boshlaydi va xalq ommasini itoatda ushlab turish uchun qurol vositasi rolini ham bajaradi.

Bu davrda islom taʼlimotiga bebaho hissa qoʻshgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi koʻplab ulamolar yetishib chiqishdi. Ular shu kunga qadar Hadis ilmining eng koʻzga koʻringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga koʻtarilgan zotlardir.

Imom Buxoriy (809–870) Buxoroda tugʻilib, shu yerda birinchi bilimlarni oladi. Soʻngra bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bagʻdod, Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Manbalardan bizga maʼlumki, Imom Buxoriy islom dini masalalariga bagʻishlangan 20 ga yaqin asar yozgan. Shu kitoblar orasida Buxoriyning butun dunyoga mashhur qilgan asari «Al-Jomeʼ as-Sahih» (talabonchli toʻplam)dir. Bu asar 160 qismdan iborat boʻlib, 3450 bobni oʻz ichiga oladi. Unda 7275 ta haq hadis mujassam boʻlgan. Buxoriy hadislarni toʻplash va bayon etishda uni haqiqiylikiga asosiy eʼtibor bergan, uni haqiqatga yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va shu asosda hadislarni klassifikatsiya qilgan olimdir. Uning diqqat-markazida fanning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning maʼnaviy yuksalishi, fozilligi, donoligi, yaxshi va yomonni ajrata olishi turadi. Umrining oxirida u oʻz Vatanga qaytib keladi va Samarqand yaqinida vafot etadi. Mustaqillik yillarida bu ulugʻ bobokalonimiz ruhini shod etib, uning vafot etgan joyida ulkan majmua-bino barpo qilindi. Hozirda bu joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarini, balki butun musulmon dunyosi ahlini ziyoratgoh joyiga aylangan.

Imom at-Termiziy (824–892) Termizdan uncha uzoq boʻlmagan Bugʻ qishlogʻida tugʻilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda koʻp shaharlarida boʻlib, oʻz bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari «Jome at-Termiziy» yoki «Sunan at-Termiziy»dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur hadislar toʻplamidan biridir.

Islom dinining mamlakatda asosiy din sifatida tan olinishi, boshqa dinlarning oyoq-osti qilinishi, bu davrda mehnatkash omma turmush-tarzinining ogʻirlashuvi ular orasida ularni yupatishga, ularning ruhini yengil qilishga yordam beruvchi gʻoyani qidirishga majbur qila boshladi. Bu gʻoya tasavvuf gʻoyasi boʻldi.

Tasavvuf, yaʼni soʻfiylik islom dini asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim boʻlib, poklangan, zohid, taqvodorlik maʼnosini anglatadi. Uning asosida bu dunyo lazzatlaridan voz kechish orqali Allohga yetish, uni bilish, u bilan birlashish yoʻlini qidirish yotadi. Soʻfiylik, Qurʼon va shariat talablarini albatta soʻzsiz bajarish, oʻzini xudoning quli deb bilish kabilar, oʻz hohishi bilan poklanib, Allohga, ruhiy maʼnaviylikka

singish orqali erishishga asoslanadi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi.

Tasavvufda ruhni kamolotga, uning so'nggi maqsadi Allohga erishuv yo'llari to'rt bosqichdan iborat: birinchi bosqich – ShARIAT deb ataladi, unda, avvalambor, shariatning barcha talablarini bajarish va unga bo'ysunish talab etiladi. Ikkinchi bosqich – TARIQAT deb ataladi. Unda murid o'z shaxsi istaklaridan voz kechib, o'zini pir ixtiyoriga topshirishi kerak. Uchinchi bosqich – MA'RIFAT bo'lib, unda so'fiylar koinotning birligi xudoda mujassam bo'lishini, yaxshilik va yomonlikning nisbatini aql bilan emas, qalb orqali anglab olishlari kerak bo'ladi. To'rtinchi bosqich – HAQIQATdir. Bunda so'fiy shaxs sifatida tugab, xudoga – mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, Allohga singib kyetishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma'lum davomli vaqtni talab etgan. Maxsus ruhiy jismoniy harakat, faoliyat, sig'inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshirilgan.

Tasavvufning ijtimoiy asosini shaharlardagi hunarmandlar, mayda savdogarlar tashkil qilgan. IX–X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movarounnahrda esa tasavvuf ta'limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O'zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida **Yusuf Hamadoniy ta'limoti** muhim rol o'ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, Yusuf Hamadoniy 1043–1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Imom G'azzoliy kabi buyuk allomalarni tarbiyalab voyaga etkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. Yusuf Hamadoniy umrining katta qismini O'rta Osiyoda o'tkazgan. U hunarmandchilik-kosibchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, uning ta'limoti asosan hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan. Yusuf Hamadoniy so'fiylik ilmi bo'yicha ko'plab shogirdlar tayyorladi. U Buxoroda maxsus xonaqo qurdirib, o'sha yerda shogirdlarga dars byergan. Hamadoniy ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib yetishgan ekan. Hamadoniy ta'limotidan O'rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi – Yassaviylik va Naqshbandiylik kelib chiqadi.

O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so'fiylik oqimi **Yassaviylikdir**. Bu oqimga 1105-yilda Yassa (Turkiston) shahrida tug'ilgan **Ahmad Yassaviy** asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yu-

sof Hamadoniydan ta'lim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug'ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy ta'limotining asoslari turkiy tilda yozilgan «Devoni hikmat» asarida bayon etilgan. U o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlar orasida so'fiylik ta'limotini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlarda bo'lganidek, o'ziga xos qoidalari bor. Ular: 1. Murid hech kimsani o'z shayxidan afzal ko'rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog'i lozim. 2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayxining barcha rumuz va ishoralarini mukammal angalay olsin. 3. Shayxining barcha ahvoli (so'zlari) va a'folari (ishlari)ga murid sodiq bo'lib, unga mutlaqo mute va mutaqid bo'lmog'i lozim. 4. Murid o'z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chaqqonlik bilan sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog'i lozim. 5. Murid o'z so'ziga sodiq, va'dasiga rosih bo'lib, o'z murshidi ko'nglida hech qanday shak-shubha tug'dirmasligi zarur. 6. Murid o'z va'dasiga vafodor va so'zida ustivor bo'lishi kerak. 7. Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulknini, butun bor-yo'g'ini o'z shayxiga nisori (baxshida) etmoq uchun doimo tayyor bo'lmog'i kerak. 8. Murid o'z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo'lib, uning ifshosini (oshkor etishni) hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak. 9. Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog'i, uning mushkulotini oson qilmog'i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog'i shart. 10. Murid Alloh visoli uchun o'z shayxi yo'lida butun moli va jonini nisori etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashamog'i shart.

Ahmad Yassaviyning fikricha **shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat** bo'la olmaydi. Ular doimo bir-birini to'ldiradi. Bu yo'l kamolot yo'li bo'lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi **Abduxoliq G'ijduvoniy** bo'lgan. Yassaviy bilan G'ijduvoniy shu darajada iqtidorli shogirdlardan bo'lishganki, keyinchalik ulardan bir «Yassaviya», ikkinchisi «Naqshbandiya» tariqatining asoschilari bo'lib yetishishdi. Xoja Abduxoliqning tarjimai holi, tug'ilgan va vafot etgan sanalari aniq. U 1103-yilda G'ijduvonda tug'ilib, 1179-yilda o'z vatanida vafot etadi. Xoja Abduxoliqqa dastlabki savodni o'z tug'ilgan yurtida Imom Sadridin beradi. Keyinchalik o'qishni Buxoroda davom ettirib, yuqorida

qayd qilinganidek, Yusuf Hamadoniya shogird tushadi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ustoz va shogirdning bir-birlariga hurmati, mehr-oqibati shu darajada bo'lgan ediki, ular birgalikda Sharqning fan va madaniyat o'choqlaridan bo'lgan Samarqand, Buxoro, Marv, Isfahon, Balx singari shaharlarga borishgan ekan va u yerlarda tasavvuf sohasidagi o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirgan ekan.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni Sharq falsafa tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) halqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i meros bo'lib qolgan bo'lsa, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning «Risolayi Sohibiya» «Risolayi Shayx buyuk Hazrati Abu Yusuf Hamadoni» kabi asarlar meros bo'lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o'rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ'ib qilinmagan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustozidan ko'p narsalarni o'rganar ekan, o'zi ham ko'p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba'zi masalalarda o'z yo'lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish usuli bo'yicha «Zikri Xufiya», «Zikri dil» amalini targ'ib qila boshlagan. Xoja Abdulxoliqning ustozlari Yusuf Hamadoni o'sha vaqtda o'z sahobalari bilan «Aloniya» zikr tushish amalini bajargan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni yuqorida qayd qilinganidek, «Xojagon» (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir.

Najmiddin Kubro (1145–1221) – tasavvuf ta'limotining O'rta Osiyodagi yirik vakillaridan biri. So'fiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. U 1145-yilda Urganchda tug'ilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Ko'hna Urganchga qaytib, o'z ta'limotini rivojlantirib, shu yerda yangi so'fiylik oqimiga asos soladi. U «Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol» («Jamolining muattarligi va kamolotning egalari»), «As-usul al-ashara» («O'nta qonun va qoidalar») nomli qator risola va asarlar yozib, o'z ta'limotini takomillashtirishga erishdi. Kubroviya tariqatining asosini 10 tadan iborat qonun-qoidalar tashkil etadi. Ularga asosan «tavba», «zuhd» («mol-dunyodan voz kechish»), «tavakkal» («Alloh yo'lida»), «qanoat», «uzlat», «doimiy zikr», «tavajjuz», «sabr», «muroqaba» («kamolot topish») va «rizo» (xalqqa yetishish) kabi qoidalar kiradi. Kubroviya tariqati Yassaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta'limotda vatanga, xalqqa bo'lgan muhab-

bat g'oyasi nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir sharoitda ham xalq bilan birga bo'lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligini da'vat qilinadi. O'z g'oyasiga sodiq Najmiddin Kubro vatan himoyasi yo'lida shahid bo'ldi va jasorat namunasini o'z qur'ondlariga ko'rsata oldi. Shariat ahnomlari, musulmon huquqi haqida Burhoniddin Marg'inoniyning XII asrda yozilgan «Hidoya» asari katta o'rin tutdi.

Buyuk fiqhshunos olim Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg'oni al-Rishtoniy al-Marg'inoniy (1123–1197) 1123-yilning 23 sentabrida Farg'ona vodiysining Rishton shaharchasida tavallud topgan. 13-yil davomida Marg'ilonda yashab, ilk tahsilni shu yerda olgan. Qur'oni karim, hadis, fiqh ilmlarini chuqur va mukammal o'rganganligi va bu borada o'z davrining etuk peshvosi bo'lgani bois Burhoniddin, ya'ni «din ishoti», «din dalili» ismi bilan mashhur bo'lgan. Burhoniddin Marg'inoniy keyinchalik Samarqandda o'z tahsilini davom ettirib, bilim doirasini kengaytirgan. O'z davrining yetuk fiqh olimlaridan saboqlar olib, madrasada o'qigan. Hadis ilmi, Qur'oni karim tafsirlarini mukammal bilimdoni bo'lib nom chiqargan. Ayniqsa, fiqh-musulmon huquqi bo'yicha yetuk olim sifatida tan olingan. 1149-yili haj safariga borib, yo'l-yo'lakay o'z bilim doirasini kengaytirgan. Hanafiya mazhabi bo'yicha asosiy huquqiy qo'llanma «Hidoya» – eng aniq va mukammal asar sifatida musulmon olamida keng shuhrat qozondi. Ushbu asarni al-Marg'inoniy 1178-yili Samarqandda yozib tugatgan. «Hidoya» 4 ta katta qism, 57 ta kitobdan iborat. Har bir kitob islom huquqining tegishli masalasiga bag'ishlangan. Mashhur fiqhshunos olimning bizgacha 4 nafar asari yetib kelgan, xolos. U olijanob insoniy fazilatlariga ega, kamtarin va xokisor zot bo'lgan. O'zining «Kitob al-mashoyix» asarida 40 nafar ulamo, olimlarni o'ziga ustoz deb ko'rsatadi. Allomaning qator salohiyatli shogirdlari bo'lgan.

Burhoniddin Marg'inoniy musulmon dunyosiga buyuk fiqhshunos olim sifatida tanilib, uning «Hidoya» asari bir necha asrlar davomida jamiyatda huquqiy normativlarni o'rganishda katta rol o'ynagan. Mustaqillik yillarida Burhoniddin al-Marg'inoniyning ilmiy merosi qayta o'rganilishi boshlandi, «Hidoya» asari nashr qilindi. Mustaqillik yillarida buyuk fiqhshunos olim, ulug' vatandoshimiz xotirasiga ulkan chtirom ko'rsatilgan holda 2000-yil mamlakatimizda uning 910-yilligi keng nishonlandi.

Mashhur din arbobi, kalom va fiqh ilmining bilimdoni, faylasuf, «moturudiy» ta'limoti asoschisi **Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy al-Moturudiy as-Samarqandiy – Imom al-Moturudiy** (870–944) 870-yili Samarqand yaqinidagi Moturud degan joyda tavallud topgan. Avval shu yerda, keyinchalik o'z tahsilini Samarqandda olgan. Hayot faoliyati asosan Samarqandda o'tgan. Samarqandda ko'plab ko'zga ko'ringan ulamo, olimlari saboq olib, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Nasr ibn Yahyo al-Balxiy, al-Fadllarni o'ziga ustoz deb bilgan.

Imom al-Moturudiy ko'p shogirdlarni tayyorlagan. Ular orasida Abul Hasan ar-Rustag'faniy, Ishoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdul-Karim al-Pazdaviy kabi mashhur dinshunos olimlarni ham ko'rsatish mumkin. Al-Moturudiy hanafiylik ta'limotiga suyangan holda, davr talabidan kelib chiqib, uni rivojlantirdi va islom dini e'tiqodiy asoslarini qayta ishlab chiqdi. Shu bilan u Movarounnahr islom ilohiyot maktabining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Al-Moturudiyning bizgacha juda oz, asosan, «Kitob al-tavhid» asari yetib kelgan. Imom al-Moturudiyning ulug'lab «Imom al-mutakallim» deb atashgan. Alisher Navoiy unga «Sulton al-muizzin», ya'ni «faxriy olimlar sultoni» deb yuqori baho byergan.

Al-Moturudiy 944-yili vafot etib, Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Uning qabri ustidagi maqbara sovetlarning dinga qarshi siyosati vaqtida XX asr 30-yillarida buzilib, vayron etildi. Istiqlol sharofati ila ushbu allomaning pok nomi tiklandi. O'zbekiston hukumatining qarori bilan allomaning 1130 yilligi 2000-yili mamlakatimizda keng nishonlandi, shu munosabat bilan qator tadbirlar, xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Allomaning qabri ustida yangi me'moriy inshoot – muhtasham maqbara barpo etildi.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan ta'limot bo'lib, o'rta asrning xalqparvar adib va mashoyxlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma'rifat tarqatishga intilgan.

8. Me'morchilik va san'at.

IX–XII asrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyat-

ning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko'plab qurila boshladi.

Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallardi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Buxoroda qurilgan Imom Somoniy qabri ustiga pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. Shu bilan birga, bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan.

IX–X asr me'morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablargacha bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirrilgan g'ishtlar, o'yama ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi Chorustun, Shahristondagi Childuxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Somoniylar davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o'rganilgan.

Somoniylar davrida me'morchilik o'z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. O'rta Osiyo me'morlari bu davrda shunday

Savol va topshiriqlar

1. IX-XII asrlarda mavjud bo'lgan davlatlar tarixi haqidagi asosiy yozma manbalarni izohlab bering.
2. VIII asr oxiri IX boshlarida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat qanday edi?
3. Abdullohning suv taqsimoti haqidagi qonuni haqida nima deya olasiz?
4. Somoniylar davridagi devonlar faoliyatini qanday izohlaysiz?
5. Qoraxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot qanday kechgan?
6. Mahmud G'aznaviy siyosiy faoliyatini qanday baholaysiz?
7. «Siyosatnoma» asari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
8. Xorazmshoh – Anushteginiylar xalqaro munosabatlari qanday kechgan?

5-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.
3. Bosfort K. E. Musulmon sulolalari. – Toshkent, 2008.
4. Buniyodov Z. M. Xorazmshoh – Anushtaginlar davlati (1097–1231). – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2012.
5. Buyuk siymolar, allomalar. – Toshkent: Meros (uch kitob), 1996, 1998.
6. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: «G'afur G'ulom nashriyoti», 1993.
7. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: «Adolat», 1997.
8. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshkent: «Abdulla Qodiriy», 1994.
9. Shoniyozov K. Sh. O'zbek xalqining shakllanishi jarayoni. – Toshkent: «Sharq», 2001.
10. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. I-jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
11. Eshov B. J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.

5-mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – mard va jasur ajdodimiz.

Reja:

1. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.
2. Movarounnahrda mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi.
3. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni.
4. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvol.
5. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

1. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.

Ushbu mavzu yuzasidan bir qator tarixiy manbalar mavjud. Jumladan, ular orasida Xitoy solnomalaridan «Yuan-shi», «Shen u tsin chjen lu», Szyu «Tan-shu», o'rta asr Sharqi mualliflaridan Ibn al-Asir, an-Nasaviy, Juvayniy, Rashiddin, Abul Fido, Ibn Bibi asarlari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, XIII asr I-yarmi voqeligining shaxsan guvohi bo'lmish tarixchi Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning arab tilida yozilgan «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti») asari XIII asr birinchi yarmida ro'y bergan siyosiy jarayonlar, voqeliklarning batafsil ma'lumoti bilan alohida ajralib turadi.

XX asr tarixshunosligida mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq voqelik va jarayonlar G'arbda M. Persheron, R. Krausset, A. Makkenzi, D. Martin, J. Dyupon, X. Lamba, L. Gambis, P. Rachnevskiy, J. A. Boyl, rus va sovet tarixchilaridan B. B. Bartold, L. L. Biktorova, B. Ya. Bladimirtsev, I. P. Petrushevskiy, N. S. Munkuev, Z. M. Buniyodov, E. I. Kichanov va boshqalar tomonidan chop etilgan turli xarakterdagi adabiyotlarda o'z aksini topgan. Shu bilan bir vaqtda, pokistonlik olim X. Xon, Iroq olimi al-Ubid, turkiyalik I. Kafes o'g'li, eronlik D. Siyoqiy, iordaniyalik E. A. Latif, hind olimi R. Mahapandita va boshqalar asarlarida mo'g'ul istilosining Sharqdagi holati, Jaloliddin Manguberding ozodlik kurashi ko'proq darajada aks etgan.

Mustaqillik yillarida nomi unut bo'lgan ko'plab buyuk tarixiy siymolarning nomlari qayta tiklanib, tarixiy adolat qaror topdi. Bu esa o'rta asr tarixini yanada chuqur o'rganishga imkoniyat yaratdi. Istiqlol yillarida chop etilgan darslik va adabiyotlarda mazkur davr voqealigi to'liq o'z aksini topa boshladi. Jumladan, o'zbek olimlaridan B. Ahmedov, A. Ahmedov, A. Muhammadjonov va boshqalar masalaning turli qirralarini yoritib berdilar. Mustaqillik yillarida an-Nasaviyning mashhur asari hamda tarixchi olim Z. M. Bunyodovning kitoblari o'zbek tiliga o'girilib, keng kitobxonlar ommasiga havola etildi. 1998-yili Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida esa mavzuni ko'plab o'rganilmagan qirralari ma'lum qilindi.

Mo'g'ullar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular menu (menva) nomi ostida Xitoyning Tan sulolasi (618–908) solnomasida ilk bora tilga olinadi. Ta'kidlash joizki, mo'g'ul atamasi haligacha o'zining ilmiy isbotiga ega emas. Ular Oltoy va Janubiy Sibirdagi turkiy qabilalarga yaqin va qondosh bo'lganliklari ehtimoldan xoli emas. Bu xususda olimlar turli fikrlarni bildiradilar. Mo'g'ul etnogenezi ham murakkab masala bo'lib, har holda elat sifatida ular XIII asrda yuzaga kelgan bo'lishi kerak. X–XI asrlarda esa asli Amur daryosi bo'ylarida yashagan 16 ta urug'-aymoqlarga bo'lingan tatan (tatar)larning tarkibiy qismi sifatida ularning bir urug'idan alohida, moxe (mo'g'ul) qabilasi vujudga kelgan deyiladi. Bu qabila tezda kuchayib 1135–39-yillarda Xitoyga qator yurishlarni amalga oshirishadi. Hatto Xitoy imperatorlari 1147-yili mo'g'ullar bilan ittifoq tuzishga ham majbur bo'lishadi.

XII asr o'rtalariga kelib Baykal ko'li atrofi, hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko'pchiligi mo'g'ullar raxnamosi Yesugy bahodir ta'siriga o'ta boshlaydilar. Lekin, unga qarshi turgan tatar, markit qabilalarni bo'ysundirish osonlik bilan kechmaydi. Yesugyni tatarlar ziyofat paytida xiyonatkorona o'ldirishgandan so'ng, uning o'g'li bo'lmish Temuchinning ta'siri mo'g'ullar ichida ko'tarila boshlaydi. Temuchin (1155–1227) (mo'g'ulcha, temir ustasi) – kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda bo'lib, parokanda qabilalarni turli yo'llar bilan o'z qo'li ostida mustahkam birlashtirgan shaxs edi¹. 1186-yilda u boshqa bir mo'g'ul sarkardasi Jamuxa yordami-

¹ Temuchin (Chingizxon) tavalludi sanasi yuzasidan hozirda turli qarashlar ham mavjud. Shartli ravishda 1155-yil qabul qilingan.

da o'zining eski raqibi markitlarni bo'ysundiradi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu g'alabadan so'ng mo'g'ul no'yon (harbiy boshliqlar)lari va markitlari uni olqishlab, mo'g'ul hukmdori-xon deb e'lon qilishgan. XIII asr boshida esa yana bir boshqa kuchli qabila tatarlar ustidan ham g'alaba qozoniladi. Temuchin 1203-yili kerayitlarning xoni O'ngxonni mag'lub etib, qo'ng'iroq va naymanlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi.

Mo'g'ullarni birlashtirish chog'ida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Unga ko'ra mo'g'ul qabilalari mingliklarga bo'lingan bo'lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to'g'ri kelar edi. Okruglar tepasiga sadoqatli kishilar qo'yilar edi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli va o'ta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ularni boshqarishni esa, avvalo, o'z o'g'illari – Jo'chi, Chig'atoy, O'gedey, Tuli, nufuzli xotini Burte-fujen, safdoshlari Subutoy, Jebelarga topshirdi. O'z hokimiyatini to'liq mustahkamlab olgach Temuchin 1206-yili mo'g'ullarning umum qurultoyi (qurultoy xalq xohishi – mo'g'ulcha) ni chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo'g'ul hukmdori – xon deb tantanali e'lon qilinib, unga bosh shaman Teb-Tangriy «Chingizxon» degan faxriy nom beradi. Chingiz so'zi tarixchi Rashididdinning yozishicha, «kuchli», «buyuk» degan ma'noni anglatadi.

Qurultoyda odat bo'yicha Chingizxon o'z tug'i-bayrog'ini ko'tardi, 10 ta lavozim joriy etib uni o'z yaqinlariga taqdim etadi. Sahrodagi Qoraqurum shahrini markaziy poytaxt deb belgiladi. O'z qo'li ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo'lib, ularga aniq vazifalarni bo'lib berdi. Ularga Boorgu, Muxali, Nayaa mas'ul bo'lishdi. U o'z qo'shinlarini ham isloh etdi. Butun Mo'g'uliston 95 ta harbiy-ma'muriy birlikka bo'lindi. Yangi mo'g'ul davlati – Eke Mo'ng'ol ulus (buyuk mo'g'ul davlati) deb atala boshlandi.

Qurultoydan avvalroq 1203-yildayoq hali bir tizimga ega bo'lmagan qonunlar to'plami vujudga kelib, u o'z ichiga yorliqlar (buyruqlar), yasoq (qonunlar), bilik (nasihat)larni olgan edi. «Yasoq» bizgacha to'liq yetib kelmagan bo'lib, u turli ko'rinishlarda, manbalarda qayd etiladi. «Yasoq» o'z ichiga quyidagilarni kiritgan: xalqaro, shaxsiy, savdo va sud huquqlari. Chingizxon tayin etgan davlat bosh hakami Shiki Xutuxuga «Yasoq»qa qarab ish tutishni qat'iy belgilab byergan edi. «Yasoq» qonunlari mo'g'ullarning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda qattiq

ohangda, patriarxal harbiy tuzumni o'zida aks ettirgan ravishda tuzilgan edi. «Yasoq» qonunlarining asosiy yo'nalishlari quyidagicha bo'lgan:

1. Hukmdor (xon) «Yasoq»qa qat'iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilishi, amal qilmagudek bo'lsa xonni umrbod qamash mumkin bo'ladi.

2. Chingizxon mo'g'ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to'la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi.

3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo'lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim.

4. Jazolash darajasi sifatida o'lim jazosini eng ko'p miqdorda qo'llash.

5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul rahm-shafqat qilmaslik.

Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshiktan) 9000 kishigacha yetkazdi. Uning a'zolari har 3 kunda navbatchilik qilar, ularning ishini shaxsan xonning o'zi nazorat qilar edi. 1204-yili uyg'ur alifbosi mo'g'ul yozuvi uchun qabul qilindi. Shuningdek, mustaqil davlat belgisi bo'lgan muhr (tang'a), hamda taqvim qabul qilindi. Chingizxon 1209-yilda tang'utlarni, 1211-yilda uyg'urlarni, 1215-yilda esa Shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda o'ziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Sin sulolasi tugatilib, juda katta o'lja olindi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy mahorat va urushning yangi usullari qo'llanildi. Madaniy jihatdan ancha qoloq bo'lgan mo'g'ullar ko'p jihatdan uyg'ur va musulmon ahli tajribasidan keng foydalanishdi. Sharqiy uyg'urlarning boshlig'i Ediqut (Saodatbek) Chingizxonning do'sti va maslahatchisi, sobiq naymanlar xoni Tayanxonning muhrdori uyg'ur Tatatunga esa mo'g'ullarni savodga o'rgatar edi. Musulmon savdogarlarini zehni, tadbirkorligiga Chingizxon doimo yuqori baho byergan edi. Shu bilan birga, ulardan ko'pincha ayg'oqchilar sifatida ham foydalanar edi.

Xitoyni zabt etgan Chingizxon shu bilan kifoya etib qolmasligi aniq bo'lgan. Movarounnahrning badavlat savdo ahli, o'lkamizning behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy binolar, qolaversa qadimiy yurtimizning fayz-u tarovati mo'g'ullarni anchadan beri o'ziga jalb qilayotganligi ma'lum edi. Musulmon mamlakatlarining behisob boyliklari to'g'risidagi afsona-rivoyatlarni eshitib, tekin o'lja va boyish istagida bo'lgan mo'g'ul harbiy zodagonlari Chingizxon boshchiligida zimdan harbiy yurish qilish istagida turar

qililar. Chingizxon davlati G'arbda Qipchoq cho'llari, qoraxitoylarning to'chmunchi G'arbiy Lyao (Si Lyao) va Xorazmshoh-Anushtageniylar davlati bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi. Shubhasiz, uning G'arbdagi eng yirik va kuchli qo'shnisi hamda raqibi buyuk Xorazmshoh-Anushtageniylar davlati (1097–1231) hisoblanar edi.

1215-yili Dashti qipchoq yurishida Xorazmshoh qo'shinlari mo'g'ullarning Jo'chi boshchiligidagi harbiy qo'shiniga duch keladi. Mo'g'ullar bu yerlarda Chingizxonning buyrug'iga ko'ra markit qabilalariga zarba berish uchun yurish qilgan edilar. O'zaro to'qnashuvdan so'ng mo'g'ullar Chingizxondan Xorazmshohlar davlatiga nisbatan yurish qilish xususida hech qanday ko'rsatma olmaganliklari uchun orqaga chekindilar. Juzjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan kharqda joylashgan davlatlar qiziqtirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham bo'lganligi aniq edi. Lekin, Xitoy Chingizxon tomonidan o'sha yili olinganligini eshitgan sulton bu holni tasdiqlatish va qolaversa Chingizxon davlati xususida aniq ma'lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan bo'lgan taniqli zot Bahovuddin Roziyni o'z elchisi sifatida xon huzuriga jo'natadi.

Bahovuddin Roziy boshchiligidagi elchilik guruhini Chingizxon Pekinda qabul qilib, ularga ijobiy munosabatda bo'ladi. Xorazm davlati elchilariga Chingizxon o'zaro ikki davlat o'rtasida tinchlik va do'stlik hukmronlik qilishi lozimligini uqtirib, o'zini «Sharq hukmdori», Xorazmshoh Muhammadni «G'arb yerlarning egasi» deb ta'kidlaydi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish nojoiz ekanligini anglagan Xorazmshoh o'z diqqat-e'tiborini yana Janub hamda G'arb yerlariga qaratadi.

1217-yili Bag'dod xalifasi an-Nosir (1180–1225) sultonning Bag'dodni unga topshirishi va uning nomini xutbaga qo'shib o'qishini qat'iy rad etgach, Muhammad Xorazmshoh katta kishilik qo'shin bilan abbosiylar xalifaligiga yurishni boshlab yuboradi. Xorazmshohlar tangalari va xutbalardan xalifa nomi chiqarib tashlanadi. Sulton farmoniga ko'ra termizlik shayx A'lamulk at-Termiziy xalifa etib tayinlanadi. Sultonning yuqoridagi xatti-harakatlari ko'pchilik ulamolar tomonidan ma'qullanmaydi. Ular sultonga xalifa ustiga harbiy yurish qilish, islom dunyosida xorazmshohga nisbatan salbiy munosabat keltirib chiqarishini tushuntirmoqchi bo'ladilar. Ulamolar noroziligini hisobga olmagan sulton ularning ko'pchiligini jazoga tortadi.

Abbosiyalar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan so'ng, 1218-yili Muhammad Xorazmshoh o'zining yangi poytaxti deb e'lon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi va xutba, tangalardan esa xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. O'sha yili Muhammad xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga jo'natadi. Sultonga mo'ljallangan qimmatbaho sovg'alar ichida Chingizxon o'lja olgan tuya o'rkachidek keluvchi oltin bo'lagi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, uning safdoshlari, buxorolik savdogar Ali Xo'ja va o'trorlik Yusuf Qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar.

Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanligi, uni qudratli podshoh sifatida tan olib «o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida» ko'rishini bayon etishadi. Chingizxon o'z nomasida kuch-qudrati zafarini ko'rsatish ma'nosida Xitoy va qo'shni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib o'tadi. Elchilar nomasi shubhasiz sultonga ma'qul bo'lmaydi. Ayniqsa, mo'g'ul davlatining xonini, uni o'zining «o'g'li» qatorida ko'rish, bu Sharq ustamonligida qaram qilish yoki o'z homiyligiga olish degan ma'noni anglatishni sulton yaxshi tushunadi. Elchilarga sulton javobi ma'lum emas, lekin o'sha tunda u o'z yoniga Mahmud Yalavochni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib, maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyuradi. O'z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an-Nasaviyning yozishicha, «sulton eshitishni xohlagan» ma'lumotni aytib, sulton taklifiga ko'nadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg'a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, to'plangan ma'lumotlardan mamnun bo'ladi. Zero Yalavoch soxta «josus» rolini o'ynab, bor haqiqatni Chingizxonga etkazgan edi. O'sha yiliyoq, ya'ni 1218-yili, Chingizxon sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va o'zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. O'z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang'ut va

boshqa davlatlardan o'lja olingan, Janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to'ldirgan edi. Karvon bilan, shuningdek Chingizxon elchisi, mo'g'ullardan bo'lgan Uxuna ham bo'lib, u Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fohligiga da'vo qilayotgan Chingizxon nomidan buyruqnamo ohangda yozilgan bo'lib, unda jumladan, «... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishini buyuramiz...» deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq-oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoqi bilan ekanligidan dalolat berardi.

Ushbu karvonda asli movarounnahrlik bo'lgan Umarxo'ja O'troriy, hammol Merokiy, Faxruddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda o'rda elchilari bor edi. Karvon Urganch (Gurganj) tomon yo'l olgan edi. Lekin, xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror erlariga kirib kirishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inalxon (Inolchiq, uning forsiy taxallusi G'oyirxon edi) Turkon xotuning yaqin qarindoshi, xorazmshohga yaqin shaxs bo'lgan. Inalxon, arab tarixchisi Ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanib, xorazmshoh ushbu savdo mollari pulini o'ziga oladi. Ba'zi tarixiy manbalarda esa Inalxon garchi karvonni to'xtatish buyrug'ini olgan bo'lsa ham, o'z holicha uni qirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo'lganda ham xorazmshohlar qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'yib, elchilarni qirg'in-barot qildirishdi.

O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon Ibn Kafrojiy Bug'roni ikki mulozim bilan xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O'tror fojasining aybdori Inalxonni tutib mo'g'ullar qo'liga topshirishini, elchilar o'limining sabablarini keskin tarzda so'raydi. Mo'g'ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun «O'tror hokimini Chingizxon qo'liga topshirish kerak», degan taklifni ko'targan shahzoda Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug'i bilan elchi bo'lgan Ibn Kafrojiy Bug'ro o'ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo'ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo'g'ullar bilan ertami-kechmi, urush bo'lishini yaxshi anglagan, qolaversa, mamlakatda mo'g'ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo'lganda sulton

ham Chingizxonga shu yo'sinda dag'dag'ali javob berishga qaror qildi. Tarixchi Rashiddin o'zining «Jome at-tavorix» asarida yozishicha xorazmshohning ushbu dag'dag'asi va qilmishi «Chingizxonning yuragiga shunday ta'sir qildi-ki, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Nafrat o'ti bilan yonib u bir o'zi tepalikka ko'tarildi, bo'yniga belbog'ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qildi. Uch kungacha yig'lab xudoga nola qilib yordam so'radi...»

Chingizxon islom olamining dushmani bo'lib qolmaslik uchun shunday yo'l tutdi-ki, urush boshlanishiga rasman xorazmshoh sababchi bo'lib qoldi, o'zini esa «olijanob xaloskor» deb hisobladi. Aslida esa urush bo'lishini u har jihatdan xohlar, barcha harakatlarini urush boshlashi uchun safarbar qilgan edi. Albatta, xorazmshoh ham katta xatoga yo'l qo'ygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi faqat sulton Muhammad xorazmshoh bo'lmaganligini, urush boshlanishiga har ikkala tomon ham sababchi bo'lganligini tarixiy voqealiklar tahlili orqali bilib olish mumkin.

Mo'g'ullar xorazmshoh ustiga harbiy yurish qilishdan avval, xonning buyrug'iga ko'ra harbiy sarkarda Jebe Yettisuv va Qashg'ar ustiga 1218-yil harbiy yurishlar qilib, Kuchluk davlatini tor-mor keltirdi. Musulmonlarni doimo ta'qib etib kelgan Kuchlukka qarshi bosh ko'targan Sharqiy Turkiston aholisi Jebeni naymanlar zulmidan ozod etuvchi «xaloskor» deb qabul qildi. Zero, Jebe musulmonlar uchun din erkinligi kafolatlanishini e'lon qilib, mo'g'ullar hukmronligini mustahkamlagan edi. Shunday qilib, mo'g'ullar O'rta Osiyoga harbiy yurish qilishdan avval zaxira kuchlarini mustahkamlab, Talas vodiysigacha bo'lgan yerlarni o'z imperiyalari tarkibiga qo'shib oldilar. Shu tariqa Chingizxon davlati bevosita xorazmshohlar bilan chegaradosh bo'lib qoldi.

XIII asr boshlaridan Xorazmshoh Anushtageniylar davlati yuqorida ta'kidlanganidek, o'z hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning salohiyati, madaniyati, xo'jalik hayotining yuqori saviyada bo'lganligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. O'zining ko'proq qang'li-qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo'shiniga ega edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra umumiy qo'shinining soni 400.000 ga qadar yetib, bu mo'g'ullar qo'shiniga nisbatan ikki baravar ortiq edi. Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya-devonlar tizimida boshqarilar, dav-

lat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (dattardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi.

Hokimlar ko'p holda o'z bilganicha ish tutishar, soliqlar to'plashning ham aniq tizimi yo'q edi. Hashar yo'li bilan biron-bir yo'l, ko'prik, qal'a va boshqa inshootlarni qurish (suhra giriftan) keng tarqalgan edi. Davlat ahvoli tang bo'lganda ko'p holda iqtadorlarga ishonch qolmas edi. Ayrim viloyat hokimlari shaxsan Turkon xotunga bo'ysunib, o'z bilganlaricha ish tutishardi. Sulton Muhammadning validasi Turkon xotunning qo'shin oliy sarkardalari bo'lgan qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, o'zi shu qabilaga mansub bo'lganligi uchun ularni hamisha qo'llab-quvvatlab turardi. Sarkardalar, qo'shin boshliqlari, vazirlar, hokimlar ko'p holda uning ijozati va ko'rsatmasi bilan tayin etilar, ular ham o'z navbatida, avvalo Turkon xotunga bo'ysunishardi. Turkon xotun boshqa turkiy qabiladan bo'lgan kelini Oychechak va uning o'g'li, nabirasi Jaloliddinni yoqtirmas, ular o'rtasida ixtilof kuchli edi. Xorazmshoh «farzandlik mehri va hokimiyatga olib kelgan shaxs» sifatida onasini so'zini ikki qilmas, hamisha uning fikrlariga xohlaxoxlamasa qo'shilar edi. Xorazmshohning onasi Turkon xotun aslida davlatdagi birinchi darajali shaxs hisoblanar, uning shiori «e'tasamtu Billohi Bahda» (ya'ni, «yolg'iz Allohdan panoh so'rayman») muhriga yozilgan bo'lib, hukmdor farmoniga shu muhri bilan u birinchi imzo qo'ysa, uning farmoni vojib hisoblanar edi. Turkon xotun amri bilan taxt vorisi etib o'z qavmidan bo'lgan nevarasi O'zloqshoh tayin etilgan.

Muhammad Xorazmshoh qo'shini soni garchi son jihatdan ko'pchilikni tashkil etsa-da, bu qo'shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo'lmagan, salohiyati ancha past, ko'proq Janubliklardan olingan yollanma qo'shin edi. O'z navbatida, bu qo'shin vatan mudofaasi uchun emas, balki ko'proq istilo, talon-toroj, o'lja olish uchun mo'ljallangan qo'shin edi. Haqiqatda xorazmshoh kuchli, o'ziga munosib keluvchi raqib bilan kurash olib borgan yo'q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek, o'z harbiy mahoratiga noxolis tarzda yuqori baho berishiga olib kelgan edi.

Joylarda noib va hokimlik lavozimidagi amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan ko'pincha zo'raonlik, tazyiq ila munosabatda bo'lar, bu esa

xorazmshohlar davlatiga nisbatan aholining noroziligiga sabab bo'lar edi. Soliqlar miqdori bir me'yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha og'ir edi.

Chingizxon o'zining rivojlangan tizimga asoslangan ayg'oqchilar tarmog'i orqali xorazmshohlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar edi. Shuningdek, u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori salohiyatga ega Movarounnahr ahlini osonlikcha bo'ysundirib bo'lmasligini ham yaxshi bilib, bo'lajak mahorabaga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. O'tror voqeasidan avvalroq Chingizxon qo'shinlarining Yettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib qo'ygan edi. Garchi Xorazmshoh katta qo'shinga ega bo'lsa-da, o'zaro ixtiloflar, sarkardalarga nisbatan ishonchsizlik, o'z atrofidan xavfsirash xorazmshoh qo'shinining zaiflashuvi, harbiy intizomning pasayishiga olib kelgan edi.

2. Movarounnahrda mo'g'ul bosqinining amalga oshirilishi.

Chingizxon 1219-yili o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshoh-Anushtageniyar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo'yida o'tkazib, sentabr oyida chegaradan o'tadi. Chingizxonga uyg'ur ediquti (xon) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig'noqteginlar ham o'z qo'shini bilan kelib qo'shilishdi. Chegaradan o'tgan Chingizxon o'z qo'shini bilan Janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqinida to'plab uni 4 qismga bo'ldi.

Chig'atoy va O'qtoy qo'shinining bir qismi bilan O'tromni qamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo'chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi besh ming chog'li qo'shinga Uloq no'yon va Suketu cherbi bosh bo'lib O'trotdan Janubga yurish, Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon o'zi bosh bo'lgan to'rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon – Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l oldi.

Shunday qilib, mo'g'ul bosqini boshlangach Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarga zarba berish xususida Urganchda (Gurganj) harbiy kengash chaqiradi. Unda ko'zga ko'ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etishadi. Asli Xivalik mashhur

likshunos hamda davlat arbobi Shahobiddin al-Xivaqiy bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'l bosib kelayotgan mo'g'ul qo'shiniga chegara bo'yidayoq hal qiluvchi zarba berish to'g'risida yagona va harbiy jihatdan haq fikrni bildirdi. Shahzoda Jaloliddin ham aslida shu fikrga qo'shilgan edi. Lekin, Xorazmshoh o'z sarkardalariga, ayniqsa, qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan qarar, katta qo'shinni bir joyga to'plashdan, qo'shin yig'ilganda esa o'zini taxtdan ag'darib tashlashlari mumkin ekanligidan cho'chir edi. Shuning uchun, sulton va uning onasi tazyiqi bilan kengash mudofaa usuliga o'tishni ma'qul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (qal'a) va viloyatlardan iborat bo'lgan davlatda qo'shin katta jangga kirib, vatan sharafini himoya qilish o'rniga shahar va qal'alarga bo'lib tashlandi. Ba'zi markaziy shaharlar, jumladan «Buxoro va Samarqand mudofaasini mustahkamlash zarur», degan fikrga kelindi xolos. Ammo, bu mudofaa tizimi ham qoniqarli darajada tashkil etilmadi.

Chegaradagi O'tror mustahkam shahar qal'a bo'lib, mo'g'ullarga olti oy davomida mardonavor qarshilik ko'rsatdi. O'tror hokimi Inalxon (G'oyirxon) qo'lida 20.000 chog'li suvoriy bo'lib, xorazmshoh unga yordam tariqasida 50.000 kishilik «lashkari birun»ni ham yuborgan edi.

Qamal davomida qo'shimcha tarzda yana Qoracha Hojib boshchiligidagi 10.000 kishilik otryad ham yuborildi. O'tror hokimi jasur va mard sarkarda Inalxon unga mahorat bilan boshchilik qilar edi. Ammo, ayrim zotlarning xiyonatkorligi tufayli, mo'g'ullar shaharga yorib kirdilar. Besh oylik qamaldan so'ng Inalxon deyarli bir oy davomida o'z otryadi bilan shahar qal'asida qarshilikni davom ettirdi. Oxir-oqibatda Inalxon deyarli bir o'zi qolib, qal'a tomiga chiqib, qo'lga tushgan narsasi bilan mo'g'ullarga hujum qilgan. Mard sarkardani mo'g'ullar tiriklayin qo'lga tushirib, Samarqandga Chingizxon huzuriga yuborishgan. Chingizxon esa manbalarning yozishiga ko'ra, «kumushni eritib o'z huzurida sarkardaning quloq va ko'ziga quyishni buyurgan». Inalxon shu tariqa vahshiyona ravishda o'ldirilgan. O'tror shahri o'z jasarati evaziga mo'g'ullar tomonidan butkul buzib tashlandi.

Buxoro yo'nalishida ketayotgan Chingizxonga esa Zarnuq (Zerinh) va Nur qal'alari jangsiz taslim bo'ladi. Chingizxon 1220-yilning fevral oyi boshlarida (ba'zi adabiyotlarda 7-fevralda deyiladi), Sharqdagi islom dini gumbazi, «butun musulmon shaharlari onasi» nomini olgan «islomiy ilmlar markazi» Buxoro yaqinida paydo bo'ldi. Uch kunlik

shahar qamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 kishilik shahar garnizoni va 20.000 kishilik «lashkari birun» mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar ixtiyoriddin Qo'shlu, Inanchxon O'g'ulhojib, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, mo'g'ullardan qochib o'tgan uyg'ur sarkardasi Ko'kxon (Go'rxon) bosh edilar.

Sarkardalardan Inanchxon bazo'r Amudaryodan o'tib qutulishga muvaffaq bo'ladi, Hamid Pura Qoraxitoy mardonavor jangda halok bo'ldi, qolgan-qutgan harbiylar esa Buxoroga qaytib chekinishga majbur bo'lishadi. Ahli Buxoro o'z himoyachilaridan ayrilgandan so'ng, shahar ahlining jonini salomat saqlab qolish niyatida shaharliklar maslahatlashib, Buxoro qozisi Badriddin qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuborishadi. 1220-yili 10 fevral kuni mo'g'ullar Buxoroga kirib keladi. Buxoroga kirib kelgan Chingizxonning xatti-harakatlari xususida Rashididdin shunday deb yozgan edi: «Chingizxon otda masjidi jome oldiga kelib to'xtadi va shaharning kazo-kazolarini o'z huzuriga chaqirtirdi. Mo'g'ullar shahar omborxonalarini ochib, g'allalarni tashib olishdi. Qur'on nusxalari saqlanadigan sandiqlarni otlarga oxur qildilar, masjidlarga meshlarda sharob keltirib joylab qo'yishdi, shahar hofizlari va o'yinchilarini chorlab, raqsga tushirishdi. Oqsuyaklar, ulamolalar va shayxlar otboqarlar o'rnida otlarni qo'riqlash uchun otxonalarda turar va o'sha qabila kelishlarini, amr-farmonlarini bajo keltirish bilan mashg'ul edi».

Aksariyat shaharliklar o'z qarshiliklarini davom ettirishdilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo'g'ul askarlariga qarshi hujumlar uyushtirishdi. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Ko'kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Arkni egalash uchun qilingan mo'g'ullar xatti-harakatlari zoe ketdi. Qal'adagi chuqurliklar odam va hayvon o'liklari bilan to'lib ketdi. Ko'kxon va u boshchiligidagi mudofaachilar qahramonona halok bo'lganlaridan so'nggina ark egallandi. Buxoroliklar qarshiligi mo'g'ullarni qattiq g'azablantirdi. Bu jasorat evaziga mo'g'ullar shahar ahlidan 30000 chog'li kishini qirib tashlashdi. Kelib chiqishidan qat'iy nazar qolgan aholi qullikka mahkum etildi. Ma'rifatli, nozik ta'b, madaniyatli va ilmi Buxoro ahli istilochilar tomonidan zulm va tahqirlanish girdobiga tortildi.

Buxorodan so'ng Chingizxon Samarqand shahri tomon yo'l oldi. 1220-yil mart oyi boshida u Samarqandga yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egalashga alohida ahamiyat berdi. Shaharda 110.000 kishilik harbiy garnizon (undan 60.000 tasi turkiy, 50.000 forsiylar edi.), 20 ta harbiy dlmiga o'rgatilgan fil ham mavjud edi. Sulton Muhammadning tog'asi To'g'ayxon shahar noibi bo'lib, shahar mudofaaga bir muncha tayyor ham edi.

Shahar oziq-ovqat zaxirasi, mudofaa istehkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik qamalga ham chidashi mumkin edi. O'z qarorgohini mo'g'ullar bosqini boshlanishi bilanoq sarosimada Balxga ko'chirgan sulton Muhammad ham Samarqand mudofaasiga umid ko'zi bilan boqar edi.

Chingizxonning o'zi shahar tashqarisidagi Ko'ksaroy qo'rg'onidan turib shahar qamaliga boshchilik qildi. 1220-yilning mart oyining boshlarida shahar qattiq qamal qilinib, to'xtovsiz hujum boshlandi. Qamalning uchinchi kunidan boshlab unga Chingizxonning shaxsan o'zi boshchilik qila boshlaydi. Qamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliqlari «keyingi qarshilik maqsadga muvofiq emas va ommaviy qirg'in bo'lishini oldini olish kerak», degan maqsadda mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qilishadi. Shahar qozisi va shayxulislom boshchiligidagi Chingizxon huzuriga Samarqand ahli nomidan elchilar tashrif buyurishadi. Mo'g'ullar Samarqand bosh suv inshooti – «Jo'yi arziz» – «Qo'rg'oshin novasi»ni buzib tashlab, shaharni tashnalik girdobiga giriftor qilishdi. Shahar istehkomi buzib tashlandi. 20 000 chog'li shahar mudofaachilari suv toshqini bois taslim bo'lishga majbur bo'lishdi. Taxminan 1000 nafarli mudofaachilar esa, sulton tomonidan 1211–1214-yillarda qurilgan Jome – masjidiga kirib, dushmanga zarba bera boshlashdi. Mo'g'ullar masjidga o't qo'yib, mudofaachilarni tirik o'limga mahkum etildi. Shahar qozisi va shayxulislom vakolati bilan tashqariga olib chiqib kyetilgan 50.000 nafar kishidan boshqa barcha aholi qatlamlari behad talon-toroj qilindi. 30.000 nafar hunarmand ahli Chingizxon qarindosh-urug'lariga taqsim qilib berildi. Tirik qolgan shahar ahliga 200.000 dinor o'lpon majburiyati yuklatildi. Samarqandda jami aholining faqat ¼ qismigina tirik qoldi. Mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketgan sobiq shahar

noibi To'g'ayxon tez orada o'zining 30.000 kishisi bilan Chingizxon buyrug'iga ko'ra qirib tashlandi.

Taslim bo'lgan shaharda mo'g'ullar qilgan talon-torojliklar tufayli «sayqali ro'yi zamin ast» deb ulug'langan, Sharqning buyuk shaharlaridan biri hisoblangan, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti huvillab qolib, yer bilan yakson qilindi.

Sulton Muhammad xorazmshohning mas'uliyatsizligi, harbiy boshliqlarning o'zaro ittifoqda bo'lmaganligi, xalq, mamlakat taqdirini o'z holiga tashlab qo'yishi oqibatida bu dahshatli voqea sodir bo'lgan edi. Bu vaqtda sulton Muhammad xorazmshoh Janubda, Balxdagi o'z qarorgohida turib, voqelikni befarq kuzatuvchi sifatida harakatsiz turar edi. Mo'g'ullar kirib kelayotgan vaqtdayoq unga Iroqqa qarab chekinishni ba'zi amaldorlar maslahat berishgan edi. Xurosondagi ko'pgina sargardonliklardan so'ng sulton Kaspiy dengizining Janubidagi Ashuradi oroliga borib o'mashadi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan ezilgan sobiq hukmdor bu yerda plevrit (o'pka qobig'iga suv yig'ilishi) kasaliga chalinib, o'g'illarini o'z yoniga chorlaydi. Sulton qilgan gunohlariga iqror bo'lgan holda ushbu orolda xorlik va azob-uqubat bilan 1220-yilning dekabr oyida vafot etdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng, Jaloliddin otasining murdasini tog'liq Ardahn qal'asiga olib borib dafn etadi. Ardahn mo'g'ullar tomonidan zabt etilgandan so'ng, o'z vaqtida sultonni tiriklayin qo'lga tushira olmagan alamzada mo'g'ullar uning murdasini kavlab olib, O'gedeyga (O'ktoy) yuborishgan. O'gedey esa uning murdasini yoqib yuborishni hamda kulini ko'kka sovurishni buyurgan. Shuningdek, xorazmshohlarning o'z vaqtida sulton tomonidan Ardahnga yashirilgan eng qimmatbaho 10 ta sandiqqa joylangan javohirlari ham mo'g'ullar qo'lga o'lja bo'lib tushgan edi.

Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi boshchiligidagi mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi yerlarni egalashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi qamaldan so'ng Sig'noq va Borchilig'kent shaharlarini egallab, so'ng mustahkam qal'a hisoblangan Xo'jandga hujum boshlashadi. Mo'g'ullar 20.000 nafar qo'shin va 50.000 ming chog'li asirga tushgan hasharchilarni Xo'jand atrofiga yig'ishadi. Xo'jand hokimi Temur Malik asli turkiy sarkardalardan bo'lib, xorazmshohlar davlatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo'lgan shaxs edi. Mo'g'ullarga qarshi tura olish mum-

kin emasligini sezgan Temur Malik (malik-hokim ma'nosida) taxminan 1000 nafar askari bilan Xo'janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo'jazgina orolida joylashib oladi. Qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu orolga mo'g'ullar o'qlari, palaxmon toshlari yetib bormas edi. Temur Malikning buyrug'iga ko'ra 12 ta qayiq yasatilib, o'q o'tmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi.

Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada tushish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, bor oziq-ovqat zaxirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Mo'g'ullar ikki sohil bo'ylab Temur Malik kemalariga to'xtovsiz hujumni uyushtirishardi. Hatto Banokat bo'yida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib qo'yishadi. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar yetib kelishadi. Mo'g'ul sarkardasi Ulus ldi Borchilig'kent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) o'rnatib, qayiqarni bir-biriga tutashtirib, jasur sarkarda yo'lini to'sadi. Uzoq janglardan so'ng Temur Malik Urganchga yetib keladi va Urganch himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinroq, uzoq sargardonliklardan so'ng sarkarda Temur Malik o'z yurtiga darvesh sifatida kelib, qahramonona ravishda mo'g'ul harbiylari qo'lida halok bo'ladi.

Chingizxon 1220-yilning yozini Movarounnahr Janubida o'tkazmoqchi bo'ldi. Chunki, u Janub shaharlarini egallashga shaxsan bosh qo'shgan edi. Zero, Janubda hali bosqinchilar qadami yetmagan bir qator boy viloyat va shaharlar mavjud edi. Avval u Nahshabga bostirib bordi. Shaharliklar mo'g'ullarning mislsiz zo'ravonlik va bosqinidan yaxshi xabardor edilar. Nahshab ahli dahshatga tushib, shaharni mo'g'ullarga ixtiyoriy topshiradilar. Shunday bo'lsa ham shahardan katta o'lpon undiriladi.

Chingizxon yozni Nahshabda o'tkazib, 1220-yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz hokimi Faxriddin habash mo'g'ullar bosqiniga mardonavor turib javob berishga qaror qildi. Mudofaaning o'n birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-toroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib, qirib tashlandi. Movarounnahrning asosiy qismlari – Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Buxoro vohasi, Shosh va Farg'ona vodiysi egalangach, Chingizxon endilikda o'zining asosiy e'tiborini xorazmshohlar

davlatining markazi Xorazm o'lkasiga qaratdi. Bu yurishga o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'ktoy (Ugedey)larni mas'ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon Sharqining eng katta shahri bo'lgan, madaniyat, savdo gullab-yashnagan boy-badavlat qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi. Ushbu yurish 1221-yilning boshida boshlandi.

1221-yilning boshida «sulton» deb e'lon qilingan Jaloliddin va shahzodalar Oqshoh, O'zloqshohlar bilan Urganchga keladi. Lekin Urganchdagi siyosiy vaziyat, sobiq Jand noibi Qutlug'xonning unga qarshi suiqasdi, qipchoq sarkardalarining xoinona o'zlarini tutishlari, Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo'lish fikridan qaytaradi. Qipchoqlar uni hokimiyat tepasiga kelishini xohlashmasdi. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bo'lmasligi aniq bo'lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so'ng Jaloliddin Temur Malik bilan birgalikda 300 ta kishi bilan shaharni tark etib Xurosonga yo'l oladi. Uning ortidan esa, tez orada Oqshoh va O'zloqshohlar ham yo'l olishadi. Jaloliddinning faoliyatini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq bo'lgani uchun keyingi bobda bu buyuk shaxs faoliyati to'g'risida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Urganchda esa shahardagi qipchoq sarkardalari – O'g'ul Hojib, Erbuqa pahlavon, Ali Darug'iyini va boshqalar Turkon xotunning jiyanini yosh Xumorteginni «sulton» deb e'lon qilishadi. Turkon xotunning o'zi Mozandarondagi Ilol qal'asiga kelib o'rinish, o'z hayoti va boyliklarini saqlash taraddudiga tushadi. Qal'ada suvsizlikdan sillasi qurigan sobiq malika mo'g'ullarga asirga tushib, xorazmshohlar xazinasi ular qo'lga topshirdi. Keyinchalik Qoraqurumda cho'ri bo'lgan Turkon xotun 1233-yili xor-u zorlikda vafot etadi.

Xumortegin layoqatsiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, qo'rqqoq shaxs edi. Urganchga Chingizxonning o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'gedey, taniqli mo'g'ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun no'yon, Qozon no'yon va boshqalar o'z harbiy kuchlari bilan yetib kelishadi. Xorazm Jo'chi boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, u shaharni tinchlik bilan mo'g'ullarga topshirishni talab etadi. Lekin, nima bo'lganda ham shaharning jasur himoyachilari mudofaaga qat'iy tayyorgarlik ko'rib jonajon shaharlarini mo'g'ullarga berishdan qat'iy ravishda bosh tortishadi. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod mo'g'ullar qo'shini bilan o'rab olish boshlandi. Shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o'rnatiladi. Mo'g'ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishadilar. Afsuski, yangi «sulton» shahar mudofaasiga bosh bo'la olmadi.

1221-yili boshidan boshlangan Urganch qamali deyarli 7 oy davom etadi. Shahar ahli mo'g'ullarning qurol-yarog'i, palahmon toshlarni otuvchi manjaniqlari, zambaraklardan cho'chimay, mardonavor kurashga kirishadi. Nayza va kamon o'qlaridan qo'rqmay, shahar devorlarining buzilgan erlarini qayta tiklay boshlaydilar. Bir guruh urganchlik harbiy navkarlar shahardan deyarli bir farsah uzoqlikdagi Bog'i-Xurram degan joyda mo'g'ullarga zarba berishga harakat qilib, qahramonona jang qilishadi. Lekin, Juvayniyning yozishiga ko'ra, jangda qo'shin va qurol jihatidan ustun bo'lgan mo'g'ullar shu yerlik tinch aholi, jangchilar bilan birgalikda 100.000 dan ziyod aholini qirib tashlaydi. Sulton zobitlarining boshlig'i Faridun G'uriy o'zining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor tarzda shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo'ldi. Lekin, qo'rqqoq va zaif «sulton» Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, o'z hayotini saqlab qolish maqsadida xiyonatkorona ravishda mo'g'ullarga taslim bo'ldi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlaydi. Tarixchilardan an-Nasaviy, Juvayniylarning yozishlariga ko'ra Urganch aholisi, har bir ko'cha, mavzeni jonjahdlari bilan himoya qilishgan. Ko'prik ustidagi jangda shaharliklar 3000 nafardan ziyod mo'g'ul askarlarini qirib tashlashga ham muvaffaq bo'lishadi.

Shahardagi janglarda xorazmlik mashhur alloma, faylasuf va olim, «Kubroviya» tariqatining asoschisi Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xeva'iy (1145–1221) ham faol qatnashdi. O'ziga «Yo Vatan, yo sharofatli o'lim» degan g'oyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx mo'g'ullarning taslim bo'lish haqidagi takliflarini rad etib, o'zining behisob shogird, do'stu-yoron, muxlis-u safdoshlar bilan shahar ichki mudofaasida ishtirok etadi. Uning jangovar chaqirig'iga muvofiq har bir qarich yerni shaharliklar qahramonona tarzda, bir tomchi qonlari qolguncha himoya qilishadi. Najmiddin Kubro qahramonona tarzda jang qilib, o'lim oldidan mo'g'ul navkariga tashlanib uni avval halok qilib, so'ngra o'zi shahid bo'ladi.

Shahar mudofaasi cho'zilib, hatto Chingizxonning o'g'illari Jo'chi va Chig'atoy o'rtasida ham ixtilof chiqib, shaharni egallash boshqa bir o'g'il – Ugedeyga topshirildi. Behisob qon to'kilib, bundan so'nggi himoya befovdaligini sezgan shaharliklarning tirik qolganlar jonini omon saqlab qolish maqsadida taslim bo'lishdan o'zga choralari qolmaydi. Shahardan 100.000 dan ko'proq hunarmandlar ajratib

olinib, Mo'g'ulistonga jo'natiladi. Shahar ahli dashtga haydab chiqarilib, bolalar va ayollar bo'lib olinadi. «Ortiqcha» asirlar haqoratli o'limga muhtalo etiladi. Juvayniyning yozishicha, har bir mo'g'ul askariga shaharliklardan 24 ta o'ldirilgan askar to'g'ri kelgan ekan. Qolgan barcha narsalar beayov talon-toroj qilindi. Shahar qo'lga olinganidan so'ng uning asosiy qismi buzilib, xonavayron bo'lgan edi. Shundan keyin ham mo'g'ullar Amudaryo to'g'onini buzib, shaharni suvga bostirishadi.

Urganch qamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221-yilning bahorida o'zining e'tiborini Amudaryodan Janubdagi yirik savdo yo'llari ustida joylashgan boy madaniy markazlar bo'lgan Balx, Hirot, G'azna, Qandahor, Nishopur va boshqalarga qaratdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etdi. Balx aholisini esa qirib tashladi. Ba'zi bir Janublik xorazmshoh noiblari, jumladan Amin-al mulk ham mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona ravishda o'tib kyetishdi.

Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida qator qal'a, shaharlar qattiq janglar bilan ishg'ol qilindi (Bamiyon, G'azna, Qandahor, Gardiz, Baliyon va boshqalar.) Mo'g'ullarning Janubdagi oxirgi egallagan shahri Hindistonning Shimoliy-G'arbidagi Mo'ltan bo'lib qoldi (1222-yil).

Manbalarda «Jahon sultonlari poytaxti» va «Insoniyat buyuk farzandlari beshigi» nomini olgan Urganch (Gurganj), Sharqdagi «Islom tayanchi» Buxoro, qadimiy Afrosiyob vatani Samarqand, masjidlarining soni (1200 taga etgan) bilan mashhur «Qubbatul islom» Balx, o'z madrasalari bilan dong'i ketgan Marv, o'zining nozikta'b ilmi kishilari bilan ma'lum Nishopur va ko'plab mashhur shaharlar talon-toroj etilib, vayron qilindi. Mo'g'ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba'zi shaharlar, masalan, O'tror, Sig'noq, Borchilig'kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dashtu-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160–1244) mo'g'ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: «Ular (ya'ni mo'g'ullar) hech kimga shafqat qilishmadi, aksincha xotinlar, bolalar, erkaklarni o'ldirishdi, tug'ilmagan go'daklarni nobud qilishdi... Bu musibat to'liqlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojiasi umumiy bo'lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga yo'yildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg'ar va Balasog'un kabi viloyatlarni, Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, qirg'in qilib, talon-toroj qilib egalladi.

Tuturlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirishmadi ketayotib hamma o'zni vayron etishdi. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar o'zlariga yoqmagan barcha narsalarga o't qo'yidilar».

3. Jaloliddin Manguberdi – Vatan qahramoni.

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda, mardlik timsoli bo'lmish Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. O'rta asr musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va munshiysi bo'lgan an-Nasaviy uni Mankburni (ya'ni, mank «belgi»), «xol» degan, «xoldor burunli» degan ma'noni anglatgan) nomi bilan atashgan.

Istiqlol sharofati bilan ozodlik va erk kurashchisi bo'lgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding tarixiy nomi qayta tiklandi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimovning «Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberding betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir», – degan ta'rifi qo'yilgan mavzu mohiyatini to'liq o'zida mujassam etadi.

Jaloliddin og'ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgan o'z joni-mulkini asrash yo'lga tushgan, sulton mamlakatni o'z holiga tashlab qo'yan, o'zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir og'ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo'g'ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta o'g'il bo'lsa-da, buvisi Turkon xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon xotun urug'idan bo'lgan



**Jaloliddin
Manguberdi.**

boshqa bir shahzoda Qutbiddin O'zloqshoh valiahd deb e'lon qilingan edi.

Taomilga ko'ra shahzodalarga hududlar mulk etib bo'lib berilgan edi, jumladan G'azna, Bamiyon, al-G'ur, Bo'st, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh yerlar esa Jaloliddinga berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muhabbat bilan qarar, uning jasurligini qadrlar va o'zidan uzoqlashib ketmasligini xohlar edi. Shuning uchun ham, unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shahobiddin Alp al-Haraviyni, noib (o'rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi. Mo'g'ullar ta'qibidan hayiqib, ma'lum vaqt Xurosonda sargardon bo'lgan Muhammad xorazmshoh plevrit (o'pkaga suv yig'ilish) kasali bilan og'rib, taxminan 1220-yilning oxirlarida (hijriy 617-y.) quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etdi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni «taxt vorisi» deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshirdi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Urganchga (Gurganj) keladi. Tez orada unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar ham kelib qo'shiladi. Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-u xurramlik va katta umid bilan kutib oladi.

Lekin, inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha poytaxtni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson erlaridagi Niso qo'rg'oni atrofiga yetib keladi. Chingizxon sulton o'g'illarining Xorazmga qaytganliklaridan xabar topgach, agarda ular Xurosonga chekinmoqchi bo'lsalar, ularga qarshi chiqadi degan maqsadda o'z qo'shinidan Xurosonning har yeriga pistirmalar qo'yadi. Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300 ta askarlari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini zarbaga uchratadi. Mo'g'ullar batamom mag'lub etiladi. Ushbu g'alaba mo'g'ullarning «afsonaviy qudrati» haqidagi mish-mishlarga chek qo'yadi. Jaloliddin obro'si ko'tarilib, xalq ommasida g'alabaga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi.

Shunday bir vaziyatda Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan

ular ham Xurosonga kyetishadi. Mo'g'ullarning kichik otryadi ustidan g'alaba qozonib, bu g'alabaga juda katta e'tibor berib yuborishadi. Shundan so'ng ayshi-ishratga berilib, Xurosonning Habushan shahri yaqinida mo'g'ullarga qarshi navbatdagi kurashda qo'lga tushib, qatl etilishadi. Mo'g'ullar qatl etilgan shahzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda ma'lum bir vaqt Xurosonda olib yurishadi. Jaloliddinning yana bir inisi, Iroq yerlarining noibi Rukniddin G'ursanjiy (manbalar unga «aql-zakovat va ko'rkamlikda tengi yo'q» deb ta'rif berishgan) Eronning Ustunavand qal'asida 6 oy mo'g'ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda halok bo'ladi. Jaloliddinning boshqa bir ukasi, bir vaqtlar Kirmon, Makron va Kesh yerlari noibi G'iyosiddin Pirshoh Eronning Kirmon viloyatida muqim qolib, o'zini «sulton» deb e'lon qiladi. Keyinchalik G'iyosiddin Pirshoh Jaloliddinga Eron yerlaridagi kurashlarida birmuncha yordam beradi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga yetib keladi. Bir oy davomida mo'g'ullarga qarshi kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo'shin yig'ish xususida murojaat qiladi. Mo'g'ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bo'lganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Hirot oralig'ida) tumandagi al-Qohira qal'asiga kelib o'rnamashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib, hokimlar uning atrofida jipslasha olisholmaydi. Hali yetarli kuchga ega bo'lmagan Jaloliddin qal'ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, G'azna tomon yo'l oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo'shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin G'aznaga etmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo'lgan Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qilishadi. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora «piyoda yoyandozlar»ni mo'g'ullarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Inglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, o'zlarining Kress yonidagi mashhur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar mag'lub etilib, Jaloliddin g'olib bo'ladi va u G'azna tomon yo'l oladi.

U 1221-yilning fevralida G'aznaga kirib keladi. Manbalarda qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni juda katta tantana bilan kutib oladi. Shahar xuddi hayit bayramidek shod-u xurramlikka to'ladi. G'aznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin O'g'roq al-Xalajiy, Balx hokimi A'zam Malik, afg'on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari al-Hasan

qarluq o'z qo'shinlari bilan qo'shiladi. Jami qo'shinning soni tarixchilarning xabariga ko'ra 90–130 ming kishi atrofida bo'lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va mo'g'ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g'azablanib, no'yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi peshqadam guruhi Chorikordan Shimolroqdagi Baliyon qo'rg'onini qamal qilishni boshlagan edi.

Jaloliddin bir hamladayoq mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullarning 1000 dan ziyod kishisi halok bo'ladi. Ko'plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashiddin bu jangga yuqori baho byergan edilar. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221-yilning kuzida Shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvon dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Birlashgan qo'shinga shaxsan Jaloliddinning o'zi lashkarboshilik qilib, o'ng qanotga Amin Malik, chap qanotga Sayfiddin O'g'roq boshchilik qilishadi. Mo'g'ullar jon-jahdlari bilan kurashga kirishadi. Hatto Shiki Xutuxuning buyrug'i bilan Jaloliddin qo'shiniga xavf tug'dirish maqsadida har bir mo'g'ul askari orqasiga namatdan yasalgan soxta qo'g'irchoq – tulup ham o'tkazib qo'yishadi. Parvon jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qolgan-qutgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga zo'rg'a qochishga ulguradi.

Parvon yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson ahli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha mo'g'ullarning «ilohiy», «yengilmas» kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap-so'zlarga, afsonalarga batamom chek qo'yildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi ko'tarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh ko'targan aholi esa mo'g'ullarni shahardan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mo'g'ullar bosib olgan erlar uchun qanchalik xavf tug'dirishini yaxshi anglab etgan edi. Shu sababdan ham, shaxsan o'zi Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga bosh bo'lib, Janub tomon yo'l oldi.

Jaloliddin qo'shini Parvon jangidan so'ng katta o'ljani qo'lga kiritgan edi. Ushbu o'ljaning taqsimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki

sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin O'g'roq o'rtasida ixtilof chiqadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin O'g'roq va undan keyin boshqalar ham qo'shundan ajrab chiqib kyetishadi. Jaloliddinning qo'shini nisbatan kamayib, uning o'zi tang bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan sarkardalarga qayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risidagi murojaatlari zoe ketdi. Jaloliddin tchuk og'rig'i kasaliga duchor bo'lib turgan paytida mo'g'ullarning peshqadam guruhi Gardezga (G'aznadan 50 km. Sharqda joylashgan shahar) o'mashganligidan xabardor bo'ladi. Jaloliddin xastaligiga qaramasdan Gardezdagi mo'g'ul askarlariga to'satdan zarba berib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bo'lmasin mag'lub etish va uni qo'lga tushirish ilinjida bo'lgan Chingizxon uni izma-iz ta'qib etib keladi. Jaloliddinni ta'qib etib kelayotgan mo'g'ullarga ayniqsa Bamiyon qal'asi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Bamiyon qamali vaqtida Chig'atoyning o'g'li, Chingizxonning suyukli nabirasi Mutulk halok bo'ladi. Bundan darg'azab bo'lgan Chingizxon qal'adan bironta o'lja, bironta odamni asirlikka olmay, barcha qal'a ahlini qirib tashlashni buyuradi. Yer bilan yakson qilingan sobiq Bamiyon qal'asi keyinchalik mo'g'ullar tomonidan «Mo'baliq» (ya'ni, ahmoqona shahar) nomini oladi.

Nihoyat, 1221-yilning 25-noyabr, payshanba kuni (hijriy 618-yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlandi. Bir qator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalari ko'rsatdi. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshladi. Jaloliddinning taxminan 7–8 yoshli o'g'li Chingizxon otryadi qo'lga tushib qolib, o'ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar ham halok bo'lishadi. Chingizxon qanday qilib bo'lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq berdi. Jaloliddin esa uni qo'lga olishga intilayotgan mo'g'ul qo'shini qo'rslovini faqat shaxsiy bahodirligi tufayli yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga yetib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo bo'yida uni onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar kutib turishar edi. Shundoq

ham bu jangdan ruhan va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular «... bizni o'ldiring va mash'um asirlikdan qutqaring» deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho'ktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O'zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi qirg'og'i – Hindiston tomonga suzib o'tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasligi, uning jasorati va mardligiga, metindek irodasiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda, Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarata «Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan hali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi!» – deydi va uning orqasida ta'qib etishni taqiqlaydi. Sind daryosi bo'yidagi jangdan so'ng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo'shinidan o'z vaqtida ajrab ketgan sarkardalar qal'alarini qo'lga olib, ularni yo'q qilish bilan band bo'lgan.

Rashididdinning yozishiga ko'ra, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston qirg'og'ida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik qolganlar ham ma'naviy-ruhiy ham og'ir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda Shatra deb atalgan hududdagi mahalliy hind rojalaridan biri 40.000 chog'li otryadi bilan daryoning bu betiga suzib o'tgan xorazmliklarni qirib tashlash uchun yetib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona xatti-harakati tufayli roja o'ldirilib, qo'shin orqaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshoh askarlarining ruhi ham ko'tarilib, tez orada Jaloliddin o'z atrofiga 3 ming kishilik askarni yig'ishga muvaffaq bo'ladi. Og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmay, qaddi bukilmagan sarkarda Hindistonga o'tgach, Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishg'ol qila boshlaydi. Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211–1236) va Sind, Uchcha, Mo'ltan, Lohur va Peshovar hokimi bo'lgan Nosiriddin Qubacha (1205–1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirlarigacha bo'lib, xorazmshohlarning azaliy mulki bo'lgan Iroq va Eronni o'z izmiga kiritish, mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida yo'lga otlanadi. O'z o'rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O'zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229-yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib,

so'ngra Jaloliddin huzuriga Iroqqa qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida elkadosh bo'lib xizmat qiladi. 1224-yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bo'lgan ukasi G'iyosiddin Pirshohdan yordam tariqasida 4.000 kishilik qo'shin oladi. U o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashib, mustaqil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfahonga tashrifini xalq katta ommasi katta tantana bilan kutib oladi.

Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi G'iyosiddin Pirshoh, Bag'dod xalifalari az-Zohir (1225–1226), so'ngra al-Muntasir (1226–1242), Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mo'g'ullar qasosi, qolaversa Jaloliddinning hokimiyati kuchayib kyetishidan cho'chigan ko'pchilik musulmon hokim, hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni xohlashmaydi. Bag'dod xalifaligi, ismoiliylar hokimi Muhammad III (1221–1255)lar esa mo'g'ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochiqdan-ochiq kurashishga bel bog'lashadi. Malika Rusudana va uning vaziri Avak bilan o'zaro ittifoq xususidagi takliflari zoe ketgandan so'ng 1226-yil fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston qattiq jang ila egallanib, bu yerda ko'plab kurashlar bo'lib o'tadi. Bosh ko'targan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228-yil egallandi.

Bir vaqtning o'zida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh ko'targan xiyonatkor Barak Hojibga va ismoiliylarga ham qarshi kurash olib borishga ham to'g'ri keladi. Shuningdek, ahamiyatli hisoblangan Ararat tog'liklari etaklarida joylashgan Xilat qal'asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik ko'rsatadi. 1227-yili oxirlarida mo'g'ullarning Eronga kirib kelishi niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi qat'iy jangga kirishga tayyorgarlik ko'radi. Mo'g'ullarning o'sha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona tarzda jazolanadi. 1228-yil 25-avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari bilan Isfahon yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Garchi jang vaqtida ukasi G'iyosiddin Pirshoh xoinlik qilib, o'z qo'shini bilan Luristonga chekingan bo'lsa-da, Jaloliddin qat'iy ravishda, bu holatga e'tibor qilmay, shiddatli kurash olib boradi. Manbalarning so'zlashicha, hatto mo'g'ul no'yonining o'zi «Sen haqiqatdan ham o'z davrining erkak o'g'loni ekansan», – deb uning jasoratiga tan byergan ekan. Jaloliddin bu jangda butkul g'oliblikni

qo'lga kiritadi. U sakkiz kun mobaynida Erondagi mo'g'ullarni izma-iz ta'qib etib, ularni mamlakatdan haydab chiqardi.

Jaloliddin erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfahonga kirib kelgach, xalq uni g'olib sulton sifatida shod-u xurramlik bilan kutib oladi. Jaloliddinning zafarli g'alabasi ovozi butun islom olamiga keng tarqaldi. O'sha yili hatto mo'g'ullarning buyuk xoni bo'lgan O'geley Jaloliddinning mo'g'ullar ilkiga tushib qolgan egachisi Xonsulton orqali unga maktub yuborib, u bilan sulh tuzish niyati borligini ham bayon qiladi. Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni javobsiz qoldiradi. 1229-yili jangda xiyonat qilgan ukasi G'iyosiddinni Jaloliddin avf etadi, biroq tez orada yana fitnachilar domiga tushib qolgan G'iyosiddinning o'zi uning qurboniga aylanib, Baraq hojib tomonidan o'ldiriladi. Bundan voqif bo'lgan Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda osoyishtalik o'rnatdi.

Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubhasiz u ham ushbu davrning farzandi edi. U qo'shinlarining ko'plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik, zo'ravonlik qilishlariga gohida ko'z yumdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gurjiston ahlida salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga, noroziliklarning paydo bo'lishiga ham olib kelgan. Harbiy yurishlar vaqtida ba'zi amaldorlar, xususan vazir al-Jandiyning riyokorligi Jaloliddinning obro'-e'tiboriga ancha zahmat etkazdi. Qaltis va tahlikali vaziyatga qaramay sulton Jaloliddin ichki hayotidagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga jazm qildi. O'z riyokorligini va mansabini suiste'mol qilganligi bilan nom chiqargan, Jaloliddin yo'q davrlarida xazinani talon-toroj qilgan vazir al-Jandiy jazolanadi. Jaloliddin o'z mansablarini suiste'mol qilgan, bu tufayli xalqqa ko'p jabr-zulm keltirgan boshqa amaldorlar faoliyatini taftish qilib, ularni ham jazoga tortadi. Tabrizga tashrif buyurgan sulton barcha arzchilarning arzi-dodini tinglab, choralar ko'radi. Xalq ommasiga xayrixohlik nuqtai-nazaridan Tabrizni uch yil soliqlardan ozod qiladi. Doimiy jang harakatlarida bo'lishiga qaramay Isfahonda otasiga atab madrasa qurishni boshlaydi, ancha vaqt qamal qilingan Xilat qal'asini qayta tiklashga buyruq beradi va hokazo.

Lekin nima bo'lganda ham Jaloliddin Manguberdi o'zining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida saqladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining qo'llab-quvvatlashlariga umid bog'lagan edi. Lekin ko'p holda yuqoridagi

ma'lum sabablarga ko'ra ular bilan umumiy til topa ish imkoni bo'lmadi. O'z vaqtida turk, arab, musulmon hokimlari uning hokimiyati Yaqin Sharqda kuchayib kyetishidan xavfsirashar, Jaloliddin bilan ittifoq tuzishni xohlashmas edi. Ularning ba'zilari hatto mo'g'ullar bilan ochiqdan-ochiq yaqinlashish tarafdori edilar. Ayniqsa, Xilat qal'asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da'vogar hokimlarning izzat-mafsimi toptagan edi. Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo'lsa-da, har holda hech bo'lmaganda uni ma'lum turkiy hukmdorlar qo'llaydi deb yanglishgan edi.

1230-yil 10-avgustida Ko'niya sultoni, Xims hokimi, Halab hokimi, Mayafariqin hokimi va Baynas hokimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni mag'lub etadi. Ismoililar esa butkul xoinlik yo'lini tutib Jaloliddinning mag'lubiyati to'g'risida mo'g'ullarga yashirin noma ham yuborishadi. Jaloliddin mag'lubiyatidan foydalangan mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mug'on, Shirkabutdagi qo'shin yig'ishi mumkin bo'lgan joylariga qo'qqisdan zarba berishadi. 1231-yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kudratlarini unutilib, yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin, uning taklifi javobsiz qolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal'asi hokimi uni o'z oldiga chorlaydi. U Iroqqa borib, mo'g'ul istilochilariga qarshi Vatan ozodligi yo'lida yana qo'shin to'plamoqchi bo'ladi.

Shunda Amida yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qililib qolishdi (1231-yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishadi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajrab, Mayafariqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog'iga keladi. Ushbu tog'liq qishloqda u kurdlar qo'lga tushadi. O'zini «sulton» deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazm etishmaydi. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga kurdlarga mukofot va'da qilinadi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan horib-tolgan Jaloliddinni boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyi 17–20-sanalari oralig'ida ro'y beradi. Ertasi kuni sulton buyumlarni sotib yurgan kurd xususida Mayafariqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda u qishloqqa o'z sarkardasi Shahobiddin G'oziyini yuboradi. Shahobiddin G'oziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklarini barini o'ldiradi va qishloqqa o't qo'yib yuboradi. Muarrix an-Nasaviy buni eshitib shaxsan Mayafariqinga o'zi keladi. Jaloliddinning tog'asi, vazir O'turxon

uning jasadini tanib, qattiq iztirobga tushdi. Jaloliddin Manguberding murdasi Mayafariqinga dafn etilib, mo'g'ullar kirib kelgudek bo'lsa, haqoratlanmasin degan maqsadda qabri yer bilan tekislab yuboriladi.

Jaloliddinning ashaddiy dushmani Damashq hokimi al-Malik al-Ashrafga sulton halokati xususida xabar yetkazib suyunchi so'ralganlarida, u qayg'uga botib: «Sizlar uning o'limi bilan mening qutlamoqchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchig'ini tatib ko'rasizlar. Alloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati islom olamiga mo'g'ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan Ya'juj va Ma'jujlar o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshohdek odam yo'qdir», – deb javob byergan edi. Ibn Bosil esa uni «mo'g'ullar va musulmonlar orasidagi istehkom bo'lgan» deb ta'riflagan edi. Jaloliddinning o'limidan so'ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo'lib ketdi. «Jaloliddin tirik», «Jaloliddin qaytib kelayapti» degan ovozlar uzoq vaqtgacha mo'g'ullarni tahlikaga solib kelgan. Sulton Jaloliddin nomi bilan bog'liq har qanday ma'lumot, voqelikni mo'g'ullar sinchkovlik bilan tekshirishgan. O'zini «men Jaloliddinman» deb nomlagan turli shaxslar mo'g'ullarga qarshi ko'p holatda isyon va qo'zg'olonlarga boshchilik qilishgan (masalan, 1236-yili Eronning Ustundorida ko'tarilgan qo'zg'olon, 1255-yili Amudaryo bo'yidagi voqealar va hokazo).

O'rta asr musulmon tarixchilari o'z asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan edi. Jaloliddin Manguberдини shaxsan hilgan tarixchi an-Nasaviy u to'g'risida shunday ta'rif byergan edi:

«U turkiy bo'lib, qora mag'iz yuzli, burni oldida qora xoli bor o'rta bo'yli yigit edi. Fors tilida ham bemalol so'zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q, sherlar ichida arslon, otliqlar ichida eng jasuri edi... Qisqa so'zli, hech qachon so'kinmagan, yomon so'zlarni o'ziga ep ko'rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o'zini sipo tutar, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo'yar edi xolos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U o'z fuqarolarini dardini yengillashtirishga harakat qilgan, shuni xohlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l byergan. O'zini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflarni yoqtirmagan, faqat «sulton» deya murojaat qilishlarini so'ragan. Uning farmonlarida yolg'iz so'z: «Yordam yolg'iz Alloh dandir!» degan shior bo'lgan».

Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turki-

ya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarida uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilganligi, 1998-yil Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ta'kidlanganidek, sarkardaning «insoniyatga ozodlik yo'lida kurashning, yurtni istibdod va zulmdan qutqarishning yorqin namunasi» sifatida bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirganligidan darak beradi.

Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni qaror toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998-yil 24-sentabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib o'tildi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik o'rnatildi, O'zbekiston Respublikasi FA Tarix va Sharqshunoslik institutlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir qator oliy o'quv yurtlari, turli jamg'armalar mutaxassislari tomonidan ko'plab risolalar chop etildi, mohir rassom T. Quryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, «Jaloliddin Manguberdi – Vatan, yurt himoyachisi» mavzuyida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi.

1999-yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga mahobatli haykal o'rnatilinishi, «Fanim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan. Vatan deya halok bo'lgan» milliy qahramonimizga xalqimizning buyuk ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi.

4. Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvol.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi mashhur suv bilan shaharni ta'minlovchi – Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta'minlaydigan yagona to'g'onlarning ham-

masi Chingizxon buyrug'iga ko'ra buzib tashlandi. Jumladan Balx va uning atroflari olti oy mobaynida suv ofatini boshdan kechirdi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar ahlining barchasi ona shaharlarini yo tark etishdi yoki qirib tashlandi. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me'morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug'orma dehqonchilikni shu o'lkaga kelib ko'rishdi.

Bosqindan so'ng Sharqqa dong'i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to'qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish va boshqalar barham topdi. Bohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab, dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashhur savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyandalari xor-zor etildi. Tirik qolgan aholi vayronalarga, zulm va zo'ravonlikka, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o'g'il ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan erlar mulk qilib berilgan edi. Chingizxon o'limi arafasida (1227-yil avgust) esa boshqa o'g'illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus etib bo'lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan erlar Jo'chiga, Oltoy tog'larining Janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'il Chig'atoyga, Xitoy va Mo'g'uliston voris bo'lgan uchinchi o'g'il O'gedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo'lib berildi.



Rashiddinning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari, o'z navbatida, barlos, jaloyir, qovchin va orlot qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshohning yozishicha qavchinlar Amudaryo Shimoli, Buxoroning Sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg'oniston Shimolida joylashishgan. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o'z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko'rar edi. Mo'g'ullar ko'chmanchi xalq bo'lgani uchun boshqaruv tizimini yaxshi tushunishmasdi. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo'g'ullar xizmatida andhadan beri faoliyat ko'rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo'jand shahrida joylashdi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo'lib, manbalarning xabariga ko'ra uning boyligi shunchalik ko'p bo'lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan soliqni oldindan to'lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi mo'g'ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug'alar-harbiy ma'murlar hamda bir muncha mo'g'ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o'ta boshladilar.

O'z navbatida, o'lkada o'zlarining tayanch vositasi bo'lishlariga harakat qilgan mo'g'ullar ham bu toifadagi kishilarni qo'llab-quvvatlay boshlashdi. Mo'g'ul xonlari (viloyat hokimlari xon, oliy hukmdor esa qoon yoki xoqon deb yuritilgan) va mahalliy zodagon, yer egalari-ning zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. O'lpon-u soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig'ib olinadigan turli to'lov-u yig'imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib ketdi. Yangi er solig'ining nomi – «kalon» deyilib, u hosilning o'ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so'ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq – «qopchur» ta'sis etilgan. Unga ko'ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to'lanar edi. (Bu soliq asosan mo'g'ullar turmush-tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). «Yasoq»qa ko'ra davlat xazinasi uchun «shulen» deb nom olgan oziq-ovqat solig'i joriy qilingan.

Mazkur soliqqa ko'ra har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so'ngi aholidan zo'ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og'ir bo'lgan. Ularning o'z yurtlarida tirik qolganlariga mahalliy xonlarning mulki sifatida muomala qilinar edi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo'lgan Xubilay qo'noning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko'kteniga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi. 1246-yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat qullarcha munosabatda bo'lingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar – «**korxon**» nomini olgan bo'lib, u yerdagi hunarmandlar esa qul darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi «tamg'a» deb atalgan. Mo'g'ullar shuningdek, batamom huquqsiz qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan erlar mo'g'ulcha «**suyurg'ol**» nomini olgan. Suyurg'ol hajmi jihatidan (uning tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) iqtodan farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy erlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyorida yerdagi yerlar) yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa **muzoriylar** deb yuritilgan.

Buyuk xoqon hisoblangan O'gedey (1229–1241) davridayoq mo'g'ullar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush), yoki jez, yog'och taxtalardan ishlangan bo'lib unga no'yonning muhri qo'yilar edi. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar, shu jumladan elchilar, soliq yig'uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig'im, to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko'plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga ham haqli edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar «**yom**» (**jom**) deyilib, ularning xizmati

va xarajati mahalliy aholi bo'ynida edi. Bu bekatlar bo'ylab davlat ishlarini bo'yicha ko'plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o'tib, ularga xalq tekinga xizmat qilib, ularni ta'minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab xoqon farmoniga ko'ra har bir yomning aloqa xizmati va harakati ikkita tuman aholisiga yuklatildi. «Yomlar bo'yidagi aholida toqat va majol ham qolmagan edi», – deb yozgan edi tarixchi Rashiddin.

Mahalliy aholi-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan qat'iy nazar, umumhashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo'g'ullarning ichki xo'jalik hayotni, savdo-sotiq tolasini bir oz jonlantirish borasidagi chiqargan past qiymatli tangalari aholi ichida o'z o'rnini topmadi. Aksincha, zo'rlik-po'pisaga qaramay, 1232-yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi barham topdi, savdo-sotiq ayriboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg'ona, Shosh, Termiz va boshqa viloyatlarda mo'g'ul istilosidan so'ng pul zarb etish o'z-o'zidan tugagan edi. Natijada, tez orada butun Movarounnahrda pul muomalasi butkul izdan chiqdi.

Mislsiz jabr-zulm, aholining xo'rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod o'sishi, mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik, ayniqsa, 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg'olonida o'z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo'zg'oloni 1238-yil Buxorodan uch farsah (taxminan 18–21 km) uzoqlikdagi Tarob qishlog'ida boshlandi. Bu qo'zg'olonda mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og'irlashgan hunarmand, dehqon va kambag'al aholi, ayniqsa, faol qatnashadi. Qo'zg'olonga esa asli Tarob qishlog'idan bo'lgan g'alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Mahmud Tarobiy avval o'z qishlog'ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. O'z atrofiga yig'ilgan qo'zg'olonchilarga murojaat etib: «Ey haq toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro'yi zaminni tangridan qo'rqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o'q-yoymi, kaltakmi, qo'lga olsin. Qo'ldan kelganча tangridan qo'rqmaydiganlardan birontasini ham tirik qo'ymaslik lozim», – degan so'zlar bilan ozodlik kurashiga xalqni da'vat etadi. Shu paytda Sherozdan kelgan harbiy anjomlar ortilgan karvon

qo'zg'olonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Qo'zg'olon kuch qudrati oshib borayotganligini, xalq qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib borayotganligini ko'rgan mo'g'ul no'yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam so'rashga majbur bo'lishadi. Mahmud Tarobiy o'zining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi.

Buxorolik aqoid (diniy ilm) olimi, mashhur shayx Shamsiddin Mahbubiy ham qo'liga qurol olib, o'z safdoshlari bilan qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi.

Tarixchi Juvayniy Mahmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi: «u akobir, boy-badavlat kishilarni haqorat qildi, sharmandasini chiqardi, o'ldirtirdi, ularning bir qismi esa undan qochib qutuldi. U oddiy xalqqa va darbadarlarga aksincha iltifot va marhamat ko'rsatdi». Darhaqiqat Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan qochgan mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panoh topgan edilar. Bu yerda ular ma'lum kuch to'plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlashdi. Bundan xabardor bo'lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'liga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o'rtadagi qattiq jangdan so'ng istilochilar yengilib, orqaga chekinishadi.

Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni to Karmanagacha quvib bordilar. Ushbu jangda mo'g'ullardan 10.000 kishi qirib tashlandi. Lekin, bu zafarli jangda qo'zg'olonchilar rahbarlari Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiy halok bo'lishadi. Qo'zg'olonchilar endilikda halok bo'lgan Mahmud Tarobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylashdi. Lekin, bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari yo'q, xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa, qo'zg'olonning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Oradan bir hafta o'tmay mo'g'ullarning Elduz no'yon va Chag'an qo'ri boshchiligidagi yangi qo'shini qo'zg'olonni bostirish uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan ziyod jangchi halok bo'ldi.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik qo'zg'oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. U, avvalo, istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo'zg'oloni mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shafqatsiz tuzum o'rnatmasinlar, xalq hamisha o'z ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan cho'chimasligini

tanomon qildi. Mo'g'ullar bu qo'zg'olondan so'ng bosqoqlar tomonidan yig'iladigan soliq va o'lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Mahmud Tarobiy qo'zg'olonidan keyin Chig'atoy qo'zg'olonni bostirishda sustkashlik qilgan degan maqsadda Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtirib, uni Movarounnahrdan chiqartirib yubordi. Tez orada xoqon uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib jo'natadi. Bundan so'ng Movarounnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o'g'li Ma'sudbek tayin etiladi. U o'limiga qadar (1289) shu lavozimni egallab turadi.

XIII asrning ikkinchi choraklaridan boshlab, mo'g'ullarning ichida ham endilikda ma'lum siyosiy nizolar, parokandaliklar kelib chiqa boshlaydi. 1241-yilga kelib bosib olingan Rossiya, Bolgabo'yi, Ural va boshqa yerlarda Oltin O'rda davlati tashkil topadi. Mo'g'ullar 1256-yili Xulagu boshchiligidagi Eron, Kurdiston, Iroq va Yaqin Sharqning boshqa yerlariga hujum qilishadi. Mo'g'ul xonlari o'rtasida oliy hukmdorlik uchun kurash avj oladi. Ayniqsa, buyuk xoqon Guyukxonning (1246–1249) o'limidan so'ng bu kurash keskin kuchayadi. 1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo'llab-quvvatlashlari bilan Tuli-ning to'ng'ich o'g'li Munqa (1251–1259) ulug' xon sifatida saylanadi. U dastlab Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo'lib oladi. Keyinchalik Munqaning o'limidan so'ng Chig'atoyning nevarasi Olg'uxon (1261–1266) Oltin O'rdaga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi.

XIII asrning 60–70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo'g'ul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movarounnahrdagi Chig'atoylar, Oltin O'rda deyarli mustaqil qismlariga bo'linib ketgan edi. Har bir ulus xoni o'zini tamomila mustaqil sanab, payti kelganda qo'shni uluslarga o'lja uchun hujum ham qilib turishardi.

Ba'zi no'yon, xonlar, harbiy ma'murlarning kichik qismi, ularga ergashgan mahalliy zodagonlar, savdogarlar, ulamolar va boshqalar o'troq hayotga o'tish, markaziy hokimiyatni kuchaytirib, savdo-sotiqni rivojlantirish tarafdorlari edi. Dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy manbai bo'lishi mumkin edi. Buning uchun esa shahar va qishloqlarni tiklash, ekinzorlarni o'zaro payhon etishga chek qo'yish, soliqlarni tartibga tushirish, shaharlar rivoji, savdo, hunarmandchilikka homiylik qilish darkor edi. Yuqorida ta'kidlangan madaniy-lashishga xayrixohlar safiga Munqaxon (1251–1259) va Chig'atoy

noibi, xoqonning yaqin maslahatchisi Ma'sudbek (1238–1289) ham kirardi. Munqaxon shubhasiz tadbirli va zehnli Movarounnahr noibi Ma'sudbekning ta'siri ostida ba'zi bir ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Butun mo'g'ullar imperiyasida soliqlar bir xil tarzda undirilmas edi. Masalan, Xitoyning Shimoli, Movarounnahrda badavlat kishi 10 dinor, kambag'al 1 dinor to'lasa, Xurosonda badavlat kishi 7 dinor, kambag'al esa 1 dinor to'lar edi va hokazo. Munqaxon soliq va hashar ishlarni tartibga solish borasida maxsus farmon-yorliq chiqardi. Unga ko'ra, Chingizxon o'limidan so'ng berilgan payza va yorliqlar bekor etildi, yomlar bo'ylab aloqa vositasi uchun ajratiladigan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot-ulov talab etish, yomlar uchun belgilangan otlarda shaxsiy maqsadda foydalanish taqiqlab qo'yildi. Munqaxoning qonunlashtirib qo'ygan chora-tadbirlari aholini behisob soliq va yig'inlardan ozod etib, ularning tinchlik-osoyishtaligini birmuncha ta'minladi, shahar hayotining, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga qisman imkon yaratib berdi. Bu islohotlar natijasida mamlakatning ayniqsa Shimoli-Sharqiy hududlari, jumladan Farg'ona vodiysida xo'jalik, iqtisodiy hayotda jonlanish sodir bo'la boshlaydi.

Ayniqsa, xo'jalik-iqtisodiy hayotni bir me'yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig'atoy ulusi noibi Ma'sudbekning xizmati va islohotlari katta o'rin tutgan. Ma'sudbekning mo'g'ul qoonlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o'tkazilishga imkon ham byergan edi. 1271-yili mo'g'ullarning madaniy, o'troq hayot tarafdorlari madadi, hamda Talas qurultoyi (1269) qarorlariga tayanib, Ma'sudbek yangi pul (moliyaviy) islohoti o'tkazishga kirishdi. Unga ko'ra, har qanday shaxs o'ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etishi mumkin edi. Avval boshida qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarda bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Garchi atrofdagi islohotlarga qarshi mo'g'ul harbiylari Erondan, Yettisuvdan Movarounnahrda vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi kurashlarni amalga oshirib tursalar-da, lekin islohotlar borishiga to'sqinlik qila olmadilar. Ma'sudbek 1273–1276-yillari qayta talangan Buxoroning tiklanishiga o'zi bosh qosh bo'ldi. 1282–83-yillarda Buxorodagi

zarbxonalar to'laqonli ishlashga kirishdi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borayotgan Farg'ona vodiysida esa Chig'atoy xoni Duvaxon (1291–1306) davrida qadimgi manzilgoh o'rnida Andijon shahriga asos solindi.

XIV asrning 1-yarmiga kelib, Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlashuv jarayoni kuchayib, mo'g'ul zodagonlarining katta qismi savdo doiralari bilan yaqinlashib, islom madaniyati ta'siriga berilishi kuchayib bordi. Movarounnahr madaniy o'lkasi bilan yaqin aloqa o'rnatib, o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri Kebekxon (1309, 1318–1326) bo'ldi. U butunlay Movarounnahrda ko'chib kelib, o'z qarorgohini Nasaf shahri yonida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy o'rnida yangi Qarshi shahri yuzga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma'muriy tuzilishini qayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ikki xil: ma'muriy va moliyaviy islohot o'tkazdi. Ma'muriy islohotga ko'ra mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar-maliklar, sadrlarning o'rinlari turkiy-mo'g'ul urug' boshliqlari qo'lga o'tdi. Noiblik esa merosiy bo'lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o'zining ijobiy samarasini berdi.

Ma'sudbek davrida pul islohoti amalga oshirilgan bo'lsa-da, Kebekxon uni takomillashtirmoqchi bo'ldi. Jumladan, u Xulaguiylar va Oltin O'rda tangalari namunasida ikki xil pul: yirik kumush tanga-«dinar» va mayda kumush tanga «dirham»lar zarb ettiradi.

Dinor (2 misqol, 8 gr. atroflarida) 6 ta dirhamdan iborat bo'lib qoldi. Kebek nomidan tangalar asosan Buxoro va Samarqandda zarb etilar edi. Shuningdek, O'tror zarbxonasi ham faol ishlay boshladi.

Kebekxonning islohotlari anchadan beri o'troq hayot, mahalliy aholi madaniyati bilan yaqinlashuviga qarshi bo'lgan guruhlarining ham faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Kebekxonning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326–1334) akasining siyosatini davom ettirib, o'troq hayot an'analarni qattiq turib himoya qiladi. XIV asr mashhur sayyohi Ibn Battuta o'zining «Sayohatnoma» asarida Tarmashirin faoliyatiga ijobiy baho byergan. U islom dinini qabul qilib, Chig'atoy ulusining rasmiy diniga aylantirdi. Tarmashirin siyosatidan norozi bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ul zodagonlari isyon ko'tarib, 1334-yilda uni o'ldirishdi. Tarmashirindan so'ng hokimiyat tepasida bo'lgan Changshi (1334), Bo'zan (1334–1338), Eson-Temur (1338–1342), Muhammad (1342–1343)lar

davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'lganligi yo'q. Aksincha, mahalliy qabilalar hokimiyati, urug' boshliqlarining ta'siri bu paytga kelib yanada kuchayib, Chig'atoy hokimiyatining qudrati pasaya boshlaydi.

XIV asrning 40-yillariga kelib, Yettisuvda Dug'lot amirligining yuzaga kelishi, amalda Chig'atoy ulusining tarqab kyetishidan, o'rniga Movarounnahr amirligi yuzaga kelganligidan dalolat berar edi. Chig'atoy xonlarining so'nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343–1346) markaziy xon hokimiyati kuch-qudrati ta'sirini ko'tarib, ichki siyosatda Kebekxon-Tarmashirin yo'lini tutishga harakat qildi. U ko'chmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib, Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib Zanjirsaroy qal'asini ham barpo etgan edi. Qozag'on boshchiligidagi bir guruh ko'chmanchi, talonchilik siyosati tarafdorlari 1346-yili fitna natijasida Qozonxonni o'ldirishga muvaffaq bo'lishadi.

Qozag'on amir unvonini olib, davlat boshqaruvini o'z qo'lga oldi. Movarounnahr Qozag'on davridayoq bir necha yarim mustaqil qismlarga bo'lib ketgan edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik avj olib, o'zaro nizolar yanada kuchaygan edi. Kesh (Shahrisabz) atrofidagi yerlar Hoji Barlos boshchiligidagi barlos urug'iga, Xo'jand Boyazid Jaloyiriyga qaram bo'lib qoldi, Balx va uning atrofidagi yerlar Qozag'onning nevarasi amir Husaynga tobe bo'ldi, Shiburg'on esa Muhammadxo'ja Apverdi qo'lga o'tib ketdi. Bundan tashqari, Buxoroda diniy ulamolardan iborat-sadrlar, Xuttalonda mahalliy hokimlardan bo'lgan Kayxusrav, Termizda – sayidlar, Badaxshonda o'zboshimcha mahalliy shohlar hokimiyatni qo'lga olishdi.

5. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmidagi madaniy hayot.

XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning birinchi yarmidagi xo'jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo, shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo'g'ul zodagonlarining ba'zilar qurilish ishlariga homiylik qila boshlashdi.

Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorligi, koshinpazlik, me'moriy xattotlik qayta tiklandi. Movarounnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar qad ko'tara boshladi. Shu davrlarda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kungacha yetib kelgan.

Jumladan, Buxorodagi Sayfiddin Boharziy maqbarasini birinchilardan barpo etilgan me'moriy bino sifatida ko'rish mumkin. Taniqli busorolik shayx Sayfiddin Boharziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo'lib, u 1258-yili olamdan o'tgan edi. Uning qabri ustida tez orada katta maqbara va honaqo barpo etildi. 1333-yili Buxoroda bo'lgan arab sayyohi ibn Battuta ushbu maqbaraga yuqori baho byergan edi. Shuningdek, mana shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Qusam ibn Abbos maqbarasi ziyoratxonasi, Xo'ja Ahmad maqbarasi, Ko'hna Urganch (Gurganj)dagi Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbarasi, masjid va ikkita baland minoralar (minoraning hozirgacha saqlangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi XX asr boshlarida qulab tushgan), Xo'janddagi Duvaxon maqbarasi (keyinchalik vayron bo'lgan) va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin. Qarshidagi buzilib ketgan saroy, Ma'sudbek hukmronligi davrida (1238–1289) Buxoroda barpo etilgan «Ma'sudiya», «Xoniya» madrasalari va boshqalar to'g'risida manbalarda ma'lumot berib o'tiladi.

Mazkur davr binokorligi va me'morchiligida pishiq g'isht, koshin, parchin, me'moriy o'ymakor g'ishtlar hamda ganch va ohak, pista ko'mir, qumlardan tayyorlangan maxsus qorishmalar kabi qurilish mahsulotlaridan ham binolarni qurishda hamda ularni me'moriy jihatdan bezashda keng foydalaniladi. Hashamatli binolarning aksariyati esa bir yoki ikki gumbazli, toq-u ravoqli va peshtoqli bo'lgan. Naqshinkor g'isht, koshinlar, kitoba (lavha) bilan naqsh berish an'analari davom ettirilgan. Shuningdek, naqshlarning turli-tuman, guldor bo'lishi, o'ymakor amaliy san'at qayta tiklanganligidan ham darak berar edi. Kulolchilik, misgarlik, zargarlikda ham naqsh bilan ishlov berish holati avj oladi.

Shubhasiz, Chingiz O'rdalarining bosqini Movarounnahr va Xuroson ilm fan, adabiyot o'choqlariga katta zarba bo'lib tushadi. XIII asr – XIV asr oxirlariga qadar mo'g'ullar qadami etmagan yoxud ularning ta'siri kam bo'lgan Dehli sultonligi, Janubiy Eron, Kichik Osiyo, qisman Suriya va Misrda ilm-fan, ma'rifat, adabiyot taraqqiy eta

boshlagan edi. Faqatgina XIV asr oxiri – XV asr boshlariga kelibgina ma'rifat, madaniyat o'choqlari yana Movarounnahr va Xurosonga ko'chadi.

XIII asr – XIV asrning ikkinchi yarmida fors-tojik adabiyotida ayniqsa, Jaloliddin Rumi (1207–1272), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1219–1293), Amir Xusrav Dehlaviylarning (1253–1325) o'rni va mavqei ko'tarilib, ular jahon adabiyoti olamiga keng tanilishadi. Asli Balx shahridan bo'lgan Rumi 14 yoshida o'z oilasi bilan mo'g'ul bosqinidan qochib Kichik Osiyoning Ko'niya sultonligiga borib qoladi. Ko'niya, Halab, Damashqda tahsil olib, buyuk tasavvuf ilmi shoiri va faylasufi bo'lib taniladi. U she'riyatda so'fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, o'zining 36 ming baytdan iborat «Masnaviyi-ma'naviy» degan dostonini yaratadi. Sa'diy esa o'zining «G'uliston» va «Bo'ston» asarlari, g'azallari, axloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozonadi. Uning asarlarida ona Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehr-muhabbat g'oyalari hamisha barq urib turadi. U o'z asarlarida kishilarni o'zaro hamjihatlik va totuvlikka, hukmdorlarni adolat va insofga chaqirib, salbiy xususiyatlarni qoralab chiqadi. Sa'diy o'z umrini ona shahri Sherozda tugatadi.

Xusrav Dehlaviy Hindistonning Shimoliga mo'g'ul bosqinidan qochib borgan asli Kesh (Shahrisabz)lik kishilar xonadonida dunyoga keladi. U Dehlida sulton saroyida yashab, o'zining ajoyib «Xamsa» dostonini, Hindistonda hozirgacha mashhur «Xizrxon va Duvalra»ni, «Miftah al-futuh» (G'oliblik kaliti) «Nuh sipehr» (Falakning to'qqiz gumbazi) kabi asarlarni yozadi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham rivoj topa boshlaydi. Bu davrda asli G'ur viloyatidan bo'lgan Abu Umar Minhajiddin Juzjoniyning 1260-yil yozilgan «Tabaqoti Nosiriy» (Nosirga atalgan tabaqalar), Oloviddin Ota Malik Juvayniyning «Tarixi jahongo'shaiy» (Jahon fotihi tarixi), Fayzulloh Rashiddin Hamadoniyning «Jome at-tavorix» (Tarixlarning jamlanishi) Shahobiddin an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» (sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham jahon yuzini ko'rdi.

Bu asarlar, o'z navbatida, mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrni o'rganish bobida birinchi darajali manbalar hisoblanadi. Bu paytda shuningdek, islom, axloq-odob va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshladi. Xorazmdagi bu adabiyotning bir vakili

mashhur faylasuf shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud (1247–1326) hisoblanadi. U nafaqat shoir, mutafakkir bo'libgina qolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda ham yelkasi yerga tegmagan kurashchi polvon ham edi. Xuddi shu ma'noda «Pahlavon» taxallusi unga haqli ravishda berilgan. Xalq ichida esa uni yana behad saxovatli, bag'rikeng, adolatli inson sifatida hurmati katta edi. Uning insonga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarini ulug'lovchi ruboiylari xalq orasida keng tarqalgan edi. U inson aql-zakovati, axloqiy kamoloti va axloqiy pokligini qadrlaydi.

Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs, bu nomi bizga hali yaxshi tanish bo'lmagan Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziydir. U XIII asrning oxiri – XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgini «Qissayi Rabg'uziy» (Qissasul anbiyo) asari yetib kelgan. Bu asarda muallif o'zini «Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiriddin» deb tanishtiradi. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklikdan biri bo'lgan Nosiriddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra hijriy 709 (milodiy 1309–1310) yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo'lib, payg'ambarlar (Dovud, Sulaymon, Muhammad) haqidagi qissalar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, axloqiy asardir. Ushbu asar xalq, baxshi va oqinlar orasida hamisha mashhur bo'lib kelgan. Asarda bayon etilgan axloqiy fazilatlar, ta'lim-tarbiya, ma'rifat xususida fikrlar hozirgi kunga qadar o'zining dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan.

Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda, tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Tasavvuf ilmining mashhur namoyandasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband (Sayid Muhammad ibn Jaloliddin, 1318–1389) – avvalo o'z mehnati bilan halol kun ko'rish g'oyasini yoqlaydi. Uning «Dil ba yoru, dast ba kor» (ya'ni, qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'ling mehnatda bo'lsin) degan shiori keyinchalik juda mashhur bo'ladi. Uning nomi xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lib kyetib, Buxoro yaqinidagi qabri musulmonlar ziyoratgohlaridan biriga aylanib qolgan edi.

Mustaqillik sharofati bilan Bahouddin Naqshband siymosiga ham munosib hurmat va ehtirom ko'rsatildi. Xususan, o'tgan buyuk zotlar mang-u orom topgan joylarda, jumladan Bahouddin Nakshband qabrida ham yodgorlik majmuasi barpo etildi. Hozirda ushbu majmua muqaddas qadamjoy ziyoratchilar oyog'i arimaydigan ziyoratgohlar safidan joy olgan.

Tayanch soʻzlar

Sulton, malik, xos hojib, dorugʻa, moʻgʻul, moʻgʻul istilosi, jang, kamal, jangovar harakat, qopchur, shulen, yom, yasoq, bosqoq, suyurgʻol, mayon, mulk, Movarounnahr, Xorazm, Kirmon, Sind, Xuroson, Eron, Chigʻatoy ulusi, qipchoq, qangʻli, sadr, ustozdor, barot.

Savol va topshiriqlar

1. Xorazmshoh – Anushteginiylar davlati tarkibiga qaysi hududlar, qachon, qay usulda kirganligini izohlab bering.
2. Xorazmshoh – Anushteginiylar davlati manbashunosligi haqida gapirib bering.
3. Sirdaryo boʻyi va Xurosonda moʻgʻul bosqini qanday kechgan?
4. Xorazmshohlar xonadoni aʼzolari taqdiri haqida soʻzlab bering.
5. XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asr birinchi yarmi Chigʻatoy ulusi siyosiy tarixi qanday kechgan?
6. Chigʻatoy ulusi davridagi xoʻjalik hayot holati xususida soʻzlab bering.
7. Chigʻatoy ulusi davrida madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu boʻyicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097–1231). – Toshkent: «Mumtoz soʻz», 2012.
2. Shahobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberding hayot faoliyati. – Toshkent, 1999.
3. Saidov Sh. Sulton Jaloliddin Manguberdi davlati va jangovar harakatlar xaritasi. – Toshkent, 2000.
4. Егоров В.А. Историческая география Золотой Орды в XIII–XIV вв. – М.: «Наука», 1985.
5. Oʻzbekiston tarixi. Prof. R. H. Murtazayevning umumiy tahriri ostida. Toshkent, 2005.
6. Ivanov M. Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur. – Toshkent: «Xazina», 1994.
7. История таджикского народа. Кол.-в авторов. Т.И. – Душанбе, 1998.
8. Eshov B. Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.
9. Sagdullayev A. S. va boshq. Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: «Akademiya», 2000.
10. Eshov B. J., Odilov A. A. Oʻzbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.

Reja:

1. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari.
2. «Temur tuzuklari» – muhim tarixiy manba.
3. Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
4. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.
5. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniy hayot.

1. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari.

Sohibqiron shaxsiga boʻlgan munosabat davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida koʻplab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996-yil – «Amir Temur yili» deb eʼlon qilindi, «Amir Temur xalqaro jamgʻarmasi» tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, «Amir Temur» ordeni taʼsis etildi, YuNESKO tashabbusi bilan 1996-yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman boʻlib oʻtdi, Amir Temur va Temuriylar davriga oid koʻplab tarixiy manbalar tarjima qilindi va hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi olimlar ham oʻz munosib hissalarini qoʻshib kelishmoqda. A. Oʻrinboyev, B. Ahmedov, D. Yusupova, U. Uvatov, A. Muhammadjonov, A. Ahmedov, O. Boʻriyev va boshqa koʻplab olimlar tomonidan tarixiy manbalar tarjima qilindi, eʼtiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi: A. Ziyo, H. Boboyev, S. Xidirov, Sh. Oʻljayeva, D. Obidjonova, X. Fayziev, B. Usmonov, O. Rahmatullaeva kabi koʻplab tadqiqotchilar esa oʻz izlanishlarida mavzu bilan bogʻliq koʻplab tarixiy va huquqiy jihatlarni ochib berishga muvaffaq boʻldilar.

Amir Temur va Temuriylar tarixi nafaqat respublikamizda, balki jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham katta qiziqish bilan oʻrganib kelinmoqda. Amir Temur haqida K. Marlou 1588-yili tarixiy pyesa, mashhur nemis bastakori G. Gendel 1724-yili opera, amerikalik adib

E. Po 1827-yili she'riy poema yaratgan. XX asr tarixshunosligida R. Grosse, L. Keren, E. Rose, X. Xukxem, F. Mants, G. Glombek, A. Deraga, K. Enoki, E. Manau, M. Rossati va boshqalarning tadqiqot ishlarini katta shuhrat qozongan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2000-yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 1500 tani tashkil etgan. 2006-yili Amir Temurning xalqaro miqyosda nishonlangan 670-yillik tavallud yoshi arafasida taniqli fransuz olimi L. Keren Parijda fransuz tilida «Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat» nomli tadqiqotni amalga oshirdi.

Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 9 aprelda (hijriy 736, sha'bon oyining 25-kunida) Keshga qarashli Xo'ja Ilg'or (hozirgi Yakkabog' tumani) qishlog'ida barlos beklaridan biri Amir Tarag'ay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Temurning onasi Takinaxotun Keshning obro'li bekalaridan biri bo'lgan.

Temurning bolaligi va o'spirinlik yillari Keshda o'tdi. Ibn Arabshoh, Ryui Gonzales de Klavixo va boshqa tarixchilar 1360-yilga qadar uning hayotini ayrim ma'lumotlar bilan izohlashgan. XIV asrning 50-60-yillariga kelib Chig'atoy ulusi hududlarida o'zaro parokandalik va o'zboshimchalik hukm surar edi. Chig'atoy xoni Temurshoh zo'rg'a ikki yilga yaqin (1358-1359) hukmronlik qildi. Shundan so'ng o'zlarini anchadan beri mustaqil tutayotgan bekliliklar rasman shu darajaga da'vogar bo'lib chiqqa boshladilar.

1360-1361-yillarda Mo'g'uliston hukmdori xoqon To'g'luq Temur Movarounnahrning ichki hayotiga raxna sola boshlaydi. Uning bosqinchilik tadbirlari Movarounnahr hukmdorlariga ma'lum bo'lganidan keyin, ular sarosimaga tushib qolishgan. Shular qatoriga Kesh amiri Hoji Barlosni ham kiritish mumkin. To'g'luq Temur Xo'jandni ishg'ol etish niyatida Sirdaryodan o'tganidan so'ng, Movarounnahr amirlari va Hoji Barlos qo'rquvdan o'z jonlarini xalos etish uchun Amudaryodan o'tib Xurosonga kyetib qoldilar. Temur o'z hududini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilish maqsadida To'g'luq Temur xizmatiga o'tdi. Temur unga Kesh va uning atrofidagi yerlarni boshqarishni topshirdi.

1360-1370-yillarda Movarounnahr siyosiy hayotida Amir Temur bilan bir qatorda ta'sir o'tkazgan shaxslardan yana biri Amir Qozag'onning nabirasi Amir Husayn edi. Balx va uning atrofidagi

yer-mulkklar uning tasarrufida edi. 1361-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib ikkala hokim birlashgan holda, mo'g'ul xonlariga qaradlik ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. Vaqti kelib, Movarounnahrni boshqarishni Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxo'jaga topshirdi. Mustaqil bo'lishga harakat qilib yurgan Temur yangi hukmdorga itoat etmadi. Uning oqibatida yangi ziddiyat yuzaga chiqdi. Amir Husayn bilan Amir Temurning bir-birlari bilan yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlar 1361-1365-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Temur ma'lum qiyinchiliklarni ham boshidan kechiradi.

Temur hayotida ro'y byergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362-yilda Seyistonda bo'lib o'tgan. Amir Temur jang vaqtida o'ng qo'lini tirsagidan va o'ng oyog'idan kamon o'qi tepishidan qattiq jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib yuradi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari Amir Temurni hasad bilan «Temurlang» deb atashgan.

Tug'luq Temur o'limidan so'ng, 1363-yilda Movarounnahr tuprog'idan haydalgan mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja yangidan katta lashkar bilan avv. mulklarini egallab olish maqsadida Movarounnahr tomon harakat qila boshlaydi. Mo'g'ul xoni ayniqsa o'zining raqiblariga nisbatan qahrli kayfiyatda ekanligi ham ma'lum edi. 1363-1364-yillarda Temur va Husayn mo'g'ullarni uch marotaba mag'lubiyatga uchratishdi. Temur va Amir Husayn bo'lg'usi qaqshatqich to'qnashuvga imkon boricha harbiy kuchlarni yig'ishdi. Tarixda «Loy jangi» nomi bilan kirgan mazkur jang Chinoz bilan Toshkent o'rtasida 1365-yilning 22-may kuni bo'lgan. Temur va Amir Husayn Chirchiq daryosi bo'yidagi bu jangda mag'lubiyatga uchragan. Mazkur mag'lubiyat sabablaridan biri Amir Husaynning sust va layoqatsizlik bilan harakat qilishi bo'ldi.

Qayta urinish behuda ekanligini anglab yetgan Amir Temur jang maydonini tark etib, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqand tomon qaytib ketgan. Temur so'ngra Kesh tomonga yo'l oldi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu paytda Movarounnahrning bosh amiri Husayn edi. Biror qarorga kelish esa uning irodasiga bog'liq bo'lgan. Shu sababli Temur ham uning ko'rsatmasi va ko'p hollarda Husaynning roziligi bilan ish tutishga majbur edi. Samarqand shahri, qolaversa, butun Movarounnahr o'z holiga tashlab qo'yildi. Mo'g'ul xoni chalgidan qutulish samarqandliklarning o'ziga bog'liq edi. Bu sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o'z qo'llariga olishdi.

Sarbadorlar mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish yo'lida o'zlarini qurbon qilishga tayyor edilar.¹ Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Eronda ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo'lib, 50-60-yillarda Movarounnahrda ham yoyildi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilari va zulm o'tkazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

Xurosondagi singari Samarqandda ham bu harakat qatnashchilarining ijtimoiy tarkibi aynan bir xil bo'lgan. Hunarmandlar, do'kondorlar ayrim madrasa mudarrisleri va talabalar mazkur harakatga faol qo'shildilar. Ilyosxo'ja to'g'ridan-to'g'ri Samarqandga tomon yo'l oldi. Shahar jome masjidiga yig'ilgan aholi oldida sarbadorlarning bo'lajak rahbarlaridan biri bo'lgan, madrasa mudarrisi Mavlnozoda so'z olib, shaharning har bir a'zosi katta miqdorda soliq va to'lov yig'ib, uni o'z bilganicha sarf etib yurgan hukmdorning shaharni o'z holiga tashlab qo'yganligini uqtirib o'tadi.

Mudofaa rahbarligiga Mavlnozoda qatoriga Xo'rdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy ham qo'shildilar. Mudofaa tashkil etilganligidan xabarsiz mo'g'ullar hukmdorsiz shaharni himoyasiz deb o'ylashardi. Ularning asosiy qo'shinlari shaharga kiraverishdagi bosh ko'chadan hujum qilishadi. Xavf-xatardan shubhasi bo'lmagan bosqinchilar Mavlnozoda kamonchilari bilan pistirmada turgan joyga yaqinlashganlarida to'satdan kamon o'qlariga duch kelishadi. Shahar mudofaachilari mo'g'ullarga uch tarafdin hujum qildilar. Birinchi hamladayoq shaharni egallaymiz deb o'ylab, bostirib kirgan mo'g'ullar katta talofat ko'rib, orqaga chekinishga majbur bo'lishadi.

Samarqandliklarning ishlab chiqqan harbiy rejasini puxta chiqdi va o'z samarasini berdi. Bir necha hujum samarasiz tugagach, mo'g'ullar shahar atrofini qurshab olib, uzoq vaqt qamal qilish rejasini o'ylab chiqishdi. Lekin, lashkar safida yuqumli kasallik tarqaldi. Buni ot vabosi (o'lati) deb atashadi. O'lat oqibatida Ilyosxo'ja qo'shinlariga mansub otlarning katta qismi qirilib ketdi. Ilyosxo'ja katta yo'qotishlar bilan dastlab Samarqandni, keyin esa Movarounnahrni tashlab kyetishga majbur bo'ldi.

Shu paytda Keshda bo'lgan Temur bu xabarni Amudaryo bo'ylarida bo'lgan Amir Husaynga yetkazdi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yetib kelishadi va sarbadorlar rahbarlarini o'z huzurlariga chor-

¹ *Sarbador* – forsha «boshini dorga tikkan», degan ma'noni anglatad

lashadi. Uchrashuv Samarqanddagi Konigul degan joyda bo'ldi. Bu yerda sarbadorlarning rahbarlari bilan kelishmovchilik yuz beradi va ular qatl etiladi. Temurning iltimosi bilan faqat Mavlnozoda omon qoldirilib, Xurosonga jo'natiladi. Sarbadorlar harakati bostirilgandan ko'ng, Amir Husayn va Temur o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga Amir Husaynning sarbadorlarga nisbatan adolatsizligi ham bir qadar sabab bo'lgan edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Amir Husayn tanlagan yo'l parokandalik va bosh-boshdoqlik sari yetaklar, Temur esa buni yaxshi anglab etgan edi. Amir Husaynning ochko'z va makkor siyosati ko'pchilik harbiylar, qabila boshliqlarining noroziligiga sabab bo'ldi. Husayn ko'plab amirlardan katta o'lja, pul talab qila boshladi, siquvlar amalga oshirila boshlandi. Temur o'z safdoshlariga to'lovlarda yordam berdi, ularning qarzarlarini to'lashda, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, hatto o'z xotinini taqinchoqlarini ham ayamagan. Temurning saxovati va olijanobligi ko'plab amirlarning unga bo'lgan hurmatini oshirdi. Aksincha Amir Husaynning obro'-e'tibori tobora pasaya boshladi.

1366–1370-yillar oralig'ida Amir Temur o'z e'tiborini ichki ishlariga qaratdi. Amir Husayn turli fitna-fasodlar yo'liga o'tib, Temurga qarshi zimdan kurash boshladi. Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi ziddiyatlar 1370-yilda Husaynning o'ldirilishi va Amir Temurning taxtga o'tirishi bilan yakunlandi. Movarounnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo'lgan Suyurg'otmish (1370–1388) qo'lga o'tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temur qo'lida qoldi hamda u Kesh shahridan Samarqandga ko'chib, uni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Mazkur davrga kelib Amir Temur dono va irodali hukmdor, uzoqni ko'zlovchi davlat arbobi ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Murakkab va ziddiyatli davrda Amir Temur Movarounnahrda birlashtirish siyosatini boshlagan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida turgan erlarni o'ziga bo'ysundirib, itoat ettirdi. Farg'ona, Shosh viloyatlarini o'z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo'lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O'rdaga qarashli yerlarni egallashda u bu yerlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi.

Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movarounnahrda kiritishga intildi. 1372-yilda Husayn So'fi Amir Temurga boj to'lamasdan, buning ustiga Sohibqiron tomonidan yuborilgan elchiga shunday javob berdi:

«Men mamlakatni qilich bilan fath etganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin».

O'sha yili Amir Temur Xorazmga qo'shin tortib keladi. Urganchga borish uchun Qiyot shahri orqali o'tish kerak edi, bu shahar bir oz qarshilik ko'rsatgandan keyin Temur qo'shini tomonidan ishg'ol qilinadi. Qiyotning qo'ldan kyetishi Husayn So'figa kuchli ta'sir ko'rsatdi. U Amir Temur bilan yarashishga, uni talablarini bajarishga rozi bo'ladi. Lekin, ayrim hokimlar Amir Temurning tezda baland martabaga erishishini ko'rolmay, Husaynni unga qarshi gij-gijlay boshladilar. Husayn ularning yordamiga ishonib, Amir Temurga qarshi chiqadi, ammo u tomonidan tor-mor etiladi. Shundan so'ng Husayn Urganch qal'asiga berkinadi va tezda vafot etadi. Uning o'rniga akasi Yusuf So'fi (1372) hokimiyatga keladi va Amir Temur bilan yarash shartnomasi tuzadi. Lekin, u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketganidan keyin Qiyot shahrini bosib oladi va unga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik harakatlariga o'tadi. Shundan so'ng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qilishga majbur bo'ladi. (1373–1374). Ammo bu harbiy to'qnashuv gacha bormaydi, chunki Yusuf Amir Temurga tavba qilib yarash shartlarini so'zsiz bajarishga va'da beradi. Bu ikkinchi yurish natijasida Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

1374-yildan keyin Amir Temur Xorazmga uch marotaba yurish qildi. Buning sababi Oltin O'rda xoni To'xtamishning Xorazmga da'vosi tufayli edi.

1387–1388-yillarda To'xtamish, Amir Temurning Movarounnahrda yo'qligidan foydalanib, Xorazmga hujum qildi. Xorazm hokimi bo'lgan Sulaymon So'fini Amir Temurga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga undadi. Sulaymon So'fi bunga rozi bo'ldi. Bu voqealar Amir Temurni 1388-yili Xorazmga yana yurishga majbur etdi. Temur Urganchni ishg'ol qildi va so'fiylar sulolasini tugatdi. Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari, Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo'liga o'tdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda «uch yillik» (1386–1388) «besh yillik» (1392–1396) «yetti yillik» (1399–1405) urushlar deb nom olgan. Temur 1381-yilda Hirotga yurish qiladi. Bu davrda Hirotni kurdlar sulolasi boshqarar edi. Ularning hukmdori G'iyosiddin Pir

Ali Temurga qattiq qarshilik ko'rsatmadi. Lekin, 1383-yilda Hirotga qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirildi va kurdlar sulolasi qulashi bilan sarbadorlarning so'nggi hokimi bo'lgan Ali Muayyod ixtiyoriy suratda o'z yerlari va hokimiyatini Temurga topshirdi. XIV asrning 80-yillari o'rtasiga kelib butun Xuroson Amir Temur ixtiyoriga o'tdi. «Uch yillik» urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzurum va Ban qal'asini egalladi.

Amir Temur Jo'chi ulusi tarkibiga bir vaqtlar kirgan Oq O'rda va Oltin O'rda hamda Mo'g'uliston hokimlari bilan bir necha yillar davomida kurash olib borishiga to'g'ri keldi. Mazkur kurashdan ko'zlangan asosiy maqsad avvalo, mamlakat Shimoliy qismlarini ko'chmanchi to'dalar hujumidan muhofaza etish, Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan yerlarni zaiflashtirgan holda o'z saltanati ta'sir doirasiga olish bo'lgan. Amir Temur Mo'g'ulistonga qarshi kurashi o'n to'qqiz yil (1371–1390) davom etib, bu kurashda u avval Anqo to'ra, so'ngra Qamariddin singari xonlarni mag'lub etdi. Shu tariqa mo'g'ul xonlarning Sirdaryo bo'yolari, Farg'ona vodiysiga solgan xavf-xatarlariga chek qo'yildi. Jo'chi ulusidagi pirokandalik davrida Oq O'rda xoni Mang'ishloq hokimi To'yxo'ja o'g'lonni o'ldirdi. To'yxo'janing o'g'li To'xtamish o'z hayoti xavfsizligini o'ylab, Samarqandga, Amir Temur huzuriga qochib keldi. Amir Temur unga muruvvat ko'rsatib, davlat manfaatlarini o'ylagan holda hokimiyatni olish yo'lida yordam berdi.

To'xtamish o'z raqiblaridan uch marotaba mag'lubiyatga uchrashda, har gal Amir Temur uni oyoqqa turg'izishga yordam berdi. Oq O'rda xoni Urusxon Temurga qarshi jang qilishga botina olmadi. Urusxon vafotidan so'ng Amir Temur To'xtamishga 1376-yili taxtni uzil-kesil egallashiga yordam berdi. Shimolda To'xtamishning taxtga chiqishi Amir Temur saltanati xavf-u xatardan saqlanishga yordam berishi, qolaversa ishonchli ittifoqchi yuzaga kelishidan sohibqironning o'zi ham shubhasiz, manfaatdor edi. Lekin To'xtamishxon berilgan yordam, ko'rsatilgan muruvvatni tezda unutdi. Ikkala o'rdani birlashtirib olgach, talonchilik va jabr zulmni kuchaytirdi. Rim, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz xalqlari uning zulmidan qattiq aziyat cheka boshlashdi. To'xtamishxon 1385-yil Temurga qarashli Ozarbayjonni egallashga harakat qildi.

1388-yil yanvarida Amir Temurning qaytishini kutgan dushman orqaga qayta boshladi. Amir Temur amirlari Husayn, Shayx Ali

Bahodir va boshqalarga dushmanni daf qilishni topshirdi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib unga katta talofat yetkazishdi. To'xtamish 1388-yil oxirida Amir Temurga qarshi qayta hujum boshladi. Amir Temur esa urushga tayyorlanish uchun Sagoron (Kattaqo'rg'on)da qarorgohini tikib, qo'shinlarini jangovar holatga keltirdi. Amir Temur dushmanning orqa tarafidan hujum qilish uchun Qo'ng'i o'g'lon, Temur Qutlug' o'g'lon, Shayx Ali Bahodir qo'mondonligidagi qo'shinlarni yuboradi. Hujum muvaffaqiyatli bo'ldi. Dushman tor-mor etilib, To'xtamish zo'rg'a qochib qutuldi.

1393–1394-yili Amir Temur Sheki (Ozarbayjonning Shimoliy qismi)da turgan paytda To'xtamish Kavkazorti viloyatlariga hujum qildi. Amir Temur Shekidan chiqib Qura daryosi bo'ylab yurdi. Oltin o'rdaliklar Amir Temur qo'shinlari kelayotganini eshitib, chekinishga majbur bo'lishdi. 1395-yil aprelida Terek daryosi bo'yida Amir Temur va To'xtamish o'rtasida urush harakatlari yana boshlanib ketdi. Jangning asosiy qismi o'ng qanotda bo'ldi. Amir Temur zaxira qo'shin bilan jangga kirdi va dushmanni chekinishga majbur qildi. To'xtamish uchinchi jangdan keyin hokimiyatdan ajraldi.

To'xtamish qo'shinining Terek daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda Saroy Berkaning xaroba qilinishi O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi. Shundan keyin u o'zini o'nglay olmadi. Oltin O'rdaga berilgan qaqshatqich zarba Rusni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lishiga ijobiy ta'sir etdi.

Amir Temurning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlardagi bilan ketma-ket borganligini urush voqealari ko'rsatib turadi. Amir Temur Ozarbayjonga bir necha marotaba hujum qilib bordi va 1387-yilda uni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Armaniston va Gruziyani 1392-yilda bo'ysundiradi. Temurning uzoq Hindistonga yurishi 1399-yilda tamomlandi.

1400-yilda Amir Temur qo'shinlari turk sultoni Boyazid Yildirim va Misr sultoni Faraj bilan kurash olib borishdi. 1402-yili 20-iyulda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to'qnashdi va uni tor-mor etdi. Usmoniylar mag'lubiyati Yevropa xalqlari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Turkular Yevropaga o'z hujumlarini 50 yil orqaga surdilar.

Amir Temur o'z qo'shinlari bilan 1404-yilning oxirida Xitoyga qarab yo'lga chiqadi. O'sha yili qish O'rta Osiyo tarixida eng qahraton qishlaridan biri bo'lgan. Sirdaryoning suvi 1 metrga muzlagan, askar-

lardan ko'pini quloq-burunlari, qo'l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar oyining o'rtalarida O'trorda to'xtashga qaror qilishadi va bu yerda 18-fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etdi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qildi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o'lka kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Amir Temur qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo'l-yo'riqlarni o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. Armiyaning yuragi va qo'mondonlik o'zagini barlos urug'i vakillari tashkil etardi. Shu davr voqealarining shohidi bo'lganlarning guvohlik berishicha barloslar harbiy ishga nihoyatda chidamli, yoydan o'q uzishga juda usta, o'z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo'lishgan.

Amir Temur ichki va tashqi savdo taraqqiyotiga katta ahamiyat berdi. Uning sa'y-harakati bois Buyuk ipak yo'li tarmog'i Movarounnahrqa qaytdi, savdo yo'llari xavfsizligiga, Sharq va G'arb savdo munosabatlariga katta e'tibor bilan qaraldi. Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi mulohazalar e'tiborga sazovordir: «Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring, biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtigingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak!» Shubhasiz, buyuk Temurning yuqoridagi mulohazalari XXI asrdagi yangicha tartibdagi savdo-iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin egallaydi.

Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida shunday deb yozgan edi: «...Uning adolati-yu siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atroflarigacha, Bobul Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalar-u beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollarini

keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandur». 1404-yili Temur saltanatida bo'lgan Rui Gonsales de Klavixo ham savdo-sotiq munosabatlarining yuqori darajada taraqqiy etganligini, savdo ahliga ko'rsatilayotgan muruvvat, xavfsizlik choralari, Movarounnahr bozorlarining serhashamligini alohida qayd etgan edi.

Amir Temur XIV asrdayoq «Kuch – adolatda» shiorini davlat siyosati mavqei darajasiga olib chiqdi. Umri davomida sohibqiron bu shiorni o'ziga dasturulamal qilib oldi. Temur davlatidagi bu axloqiy-ma'naviy mezon hamma davrlar uchun e'tiborli bo'lib, hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Amir Temur harbiy san'at, soliq siyosati, raiyatga munosabatda, o'z davlat boshqaruvi tizimida, qo'l ostidagilarga munosabatda ham ushbu tamoyilga qat'iy amal qildi.

Amir Temur o'z hukmronligi davrida mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko'rinishlariga yo'l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik-xotirjamlik, xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda sohibqiron, «... saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim», deya qayd qilgan edi. Amir Temur qurilish, obodonchilik ishlariga ulkan e'tibor bilan qaradi.


Mo'g'ul istibdodidan meros bo'lgan xonavayronchilikka chek qo'ydi. Uning tashabbusi ila Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Shayx Zayniddin bobo maqbarasi, shahar yaqinida Zangi ota maqbarasi, Shahrisabzda Oqsaroy, Samarqandda Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohi Zindadagi qator maqbaralar, shaharda saroy va istehkom, karvonsaroylar, hammomlar, ko'priklar, honaqolar, ko'chalar, shahar yaqinidagi bog'lar va boshqalar barpo etildi. Bu xususida Sohibqiron «Agar qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing», deya ta'kidlagan edi. Amir Temur sa'y-harakati bilan mamlakatda ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Bu esa keyingi temuriylar hukmronligi davrida yaqqol o'zini namoyon qildi.

Amir Temur barpo etgan davlat, o'zining eng rivojlangan davrida juda ulkan hududni o'z ichiga olgan bo'lib, O'rta Osiyodan tashqari,

Iran, Ozarbayjon, Iroq va Afg'onistonni qamrab olgan. U bu davlatni o'g'illari, nabiralari va xos amirlari yordamida idora qildi. Buning uchun u saltanatni suyurg'ol mulklarga, ya'ni uluslarga bo'ldi.

Masalan, Mahmud G'aznaviyning toj-u taxti, ya'ni Afg'onistonni Temur to'ng'ich o'g'li Jahongirga, uning vafotidan (1376) keyin esa Jahongirning o'g'li Pirmuhammadga berdi. Xurosonda Shohruh hokimlik qildi. Hulokuxonning toj-u taxti, ya'ni Iroq va Ozarbayjon Temurning boshqa o'g'li – Mironshohga berildi, Farg'ona bo'lsa Umarshayx va uning avlodlarining mulki edi. Garchi suyurg'ol mulklarining egalari soliq to'plash va ma'muriy boshqaruvda mustaqil bo'lsalar-da, Temur va uning vazirlari idora qilgan markaziy hukumatga bo'ysunishardi.

Amir Temur davridagi davlat boshqaruvi



Markaziy davlat ma'muriyatini yettita vazir boshqargan. Ularning birinchisi vaziri a'zam bo'lib, uning vazifasi oliy hukmdorni mamlatkat va raiyat ahvoli haqida o'z vaqtida xabardor qilib turishdan iborat bo'ldi. Ikkinchisi (vaziri tavochi) harbiy ishlar, uchinchisi turli sabablar, asosan urush oqibatida egasiz qolgan mol-mulklar, sayyohlar va ziyoratchilar ishlari bo'yicha mutasaddilik qilgan. To'rtinchisi hukmdorning saroyiga oid blgan ishlar bilan shug'ullangan. Yana uch vazir sarhad viloyatlariga tegishli ishlarni boshqargan. Yetti vazirning barchasi devonbegiga bo'ysungan.

Markaziy hokimiyat idoralarida, ulus hokimiyatlari devonlaridagi kabi, vazirlardan boshqa turli tabaqadagi amaldorlar bo'lgan. Bular, masalan, shayxulislom, qozi ul-quzzot (oliy sudya), qoziyi ahdas (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi sudya), qozi askar (harbiy sudya), sadri a'zam (oliy sadr, vaqf mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'rib chiquvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyruqlarini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlash majburiyati yuklatilgan amaldor), mutahassil (soliq va o'lpon yig'uvchi), tavochi (asosan qo'shirlarni to'plash ishiga ma'sul oliy amaldor), qorovulbegi, kutvol (qal'a komendanti), muhtasib (shariat qoidalari ijrosi hamda bozorlarda narx-navo, tarozilar to'g'riligini tekshiruvchi mansabdor), voqeanavis (kundalik voqealarni yozib boruvchi), munshiy (shaxsiy kotib) va boshqalar.

Karvon yo'llarida sardobasi bo'lgan maxsus bekatlar qurilgan, uni harbiy narozatchi qo'riqlagan.

Manbalarda Temur saroyida mavjud bo'lgan qabul marosimi haqida ham ma'lumot saqlanib qolgan. Jumladan, taxtning o'ng tomonida sayyidlar, qozilar, ulamolar, shayxlar o'tirgan. Chap tomonda esa amir ul-umaro, beklarbegi, qo'shin amirlari, no'yonlar, ulus, tuman, qo'shin boshliqlarining joyi bo'lgan. Taxtning old tomonida devonbegi va vazirlar o'tirishgan. Taxt orqasida, uning o'ng tomonida o'g'lonlar va bahodirlar, chap tomonida esa qoruvulbegilar o'tirishgan. Taxtning qarshisida qorovul amirlari, etagida esa ichkilar, yasovuli xos turgan. Taxtning o'ng va chap yonida dodxohlar turishgan.

Temur va temuriylar davlati xalqaro maydonida ham shuhrat qozongan. Temur davlati bilan Sharq (Mo'g'uliston, Xitoy, Misr) va Yevropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya va boshq.) o'rtasidagi yozishmalarga qaraganda, diplomatik, siyosiy va savdo

aloqlari rivojlagan. Ular, ayniqsa XIV asrning 80–90-yillari va XV asr boshida Turkiyaning kuchayishi munosabati bilan birmuncha jonlandi. Ma'lumki, 1389-yil Turkiya yevropaliklarning birlashgan qurolli kuchlarini Serbiyadagi Kosovo maydonida tor-mor qilgan va natijada Serbiya mustaqillikdan ajrab, Turkiyaning vassaliga aylangan. 1393-yili Turkiya Bulg'oriya, Basaxiya, Makedoniya, Fessaliyani bosib oldi. 1396-yili esa turk armiyasi Nikopol (Bolgariya) va musulmonlarga qarshi salb yurishi e'lon qilgan Vengriya qiroli Sigizmund boshchiligidagi G'arbiy Yevropaning eng sara qo'shinlarini butunlay tor-mor etdi. Boyazid armiyasi o'sha paytda Vizantiya poytaxti Konstantinopolni qaram qildi.

Xullas, Turkiya tomonidan nafaqat Vizantiya uchun, balki butun Yevropa uchun ham real xavf-xatar tug'ilgan edi. Shuning uchun Yevropaning Vizantiya, Italiya, Ispaniya va boshqa davlatlaridan Turkiyaga qarshi kurashda yordam so'rab Temur saroyiga elchi serqatnov bo'lib qolishgan. Bularning barchasi Temur va Boyazidning, ya'ni ikki qudratli turk davlatining to'qnashuvini yanada tezlashtirdi, bu esa Yevropaga qo'l kelar edi.

2. «Temur tuzuklari» – muhim tarixiy manba.

Amir Temur va uning davri xususida zamondoshlari G'iyosiddin Alining «Ro'znomayi g'azovoti Hinduston», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdining «Zafarnoma», Ibn Arabshohning «Temur tarixi» va boshqalarning qimmatli asarlari mavjuddir. Lekin, buyuk jahongir hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida shubhasiz «Temur tuzuklari» alohida ahamiyat kasb etadi.

«Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Boqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomlari bilan atalgan ushbu asar qimmatli tarixiy manba bo'lib, jahondagi mashhur kutubxonalardan joy olgan. «Temur tuzuklari» ikki qismdan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib unda sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtayi nazari bayon etiladi.

Asar Amir Temur tomonidan yozdirilgan bo'lib, avval eski o'zbek (chig'atoy yoki turkiy) tilida bayon etilgan. Bir qator Sharqshunoslar – Ch. Ryyu, G. Ete, Ch. A. Stori, N. D. Mikluxo-Maklay va boshqalarning fikricha, uning bir qo'lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja'far poshshoning kutubxonasida saqlangan. «Tuzukot»ni ilk bora fors tiliga tarjima qil-

gan Mir Abu Tolib Husayniy at-Turbatiyning yozishiga qaraganda, u o'z haj safarida mazkur asarni uchratganligini va o'zi bilan olganligini ta'kidlaydi. U Arabistondan kelgach, asarni forscha tarjimasini boburiy podshoh Shoh Jahonga (1628–1657) taqdim etadi. Shoh Jahon tarixni yaxshi bilgan ilmiy shaxs bo'lganligi uchun avvalo asarni o'zi ko'rib chiqib, unda ba'zi noaniqlar va g'alizliklarni topadi. Podshoh undagi noaniqliklarni tuzatish va tahrir etishni Dakan viloyati qozikaloni, iste'dodli adib Muhammad Afzal Buxoriyga (vafoti 1651/1652) topshiradi. Bu xususida hindistonlik tarixchi Abdulhamid Lohuriy (1654-yilda vafot etgan) o'zining «Podshonoma» asarida ham qayd etib o'tgan.

Mazkur asar XVIII asrdan boshlab mashhur bo'lib kiytib, 1783-yili Angliyada, 1785 va 1891-yilda Hindistonda, 1868-yili Eronda chop etildi. Shundan fransuz (1787), ingliz (1830), urdu (1845) tillariga ham tarjima qilingan. Eronda qayta 1963-yilda yana bir bora chop etilgan.

«Temur tuzuklari» o'zbek tiliga 1857-yilda Xivada Muhammad Yusuf Rojiiy tomonidan ilk bora qisqartirib tarjima qilingan. Asarni Mir Abu Tolib Husayniy at-Turbatiy matniga muvofiq o'zbekcha to'la tarjimasini mashhur arbob va adib Alixon to'ra Sog'uniiy tomonidan Toshkentda 1967-yili amalga oshirilgan. Bu tarjima mustabid davr mafkurasi tazyig'iga uchrab, nashr etilishi yarim yo'lda qolib ketdi. Nihoyat, 1990-yili Bombayda chop etilgan forscha matndan o'zbek tiliga yana bir tarjima (Sog'uniiy tarjimasini hisobga olgan holda) amalga oshirildi. Uni o'zbek Sharqshunosi Habibullo Karomatov amalga oshirib, kitob holida avval 1991-yili nashr etildi. Rus tiliga «Tuzukot» 1894-yili N.P. Ostroumov tomonidan tarjima qilingan. 1968-yilda undan faksimil nashr amalga oshirilib, unga akademik I. Mo'minovning qisqacha kirish so'zi ilova qilindi. Avval boshida asar Amir Temur tomonidan yozdirilgani xususida qayd qilingan edi. Ko'pgina Sharq manbalari va muarrixlari buni o'z asarlarida ta'kidlashadi. Masalan, Shamsiddin Somiyning qomusida shunday deyiladi: «Amir Temur «Tuzukot» deb yuritiladigan qonunlar majmuasini yozdi. Unda o'zining hayot yo'lini bayon qildi». Sharafiddin Ali Yazdiy esa (1454-yilda vafot etgan) e'tiborga loyiq ma'lumot keltirgan: «On hazrat o'zining hayoti va turmushi tarziga doir asosiy voqealarni o'z ichiga olgan turkiy va forsiyda alohida bir manzuma tuzdilar» Nizomiddin Shomiiy ham

«Zafarnoma»da shuni ta'kidlaydi. Shuningdek, taniqli Sharqshunos M. Sharmua (1793–1869) va rus harbiy tarixchisi M. I. Ivanin (1801–1874) «Tuzukot»ning haqiqiy muallifi Amir Temur bo'lgani haqida fikr bildirishadi. Amir Temurning 660-yillik tavalludi tantanalari arafasida 1996-yil «Tuzukot» o'zbek, ingliz, fransuz tillarida chop etildi.

«Temur tuzuklari» 2011-yili o'zbek tilida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning «Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi» deb nomlagan so'zboshi bilan yuqori sifatda, qayta nashrdan chiqdi.

«Temur tuzuklari» – hukmdorlarning turmush-tarzi va axloq-odob normalarini belgilovchi risola hamdir. O'z vaqtida ko'pgina hukmdorlar, masalan, Hindistonda boburiy Shoh Jahon (1628–1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821–1842), Buxoro amiri Abdulahadxon (1885–1910) va boshqalar «Tuzukot»dan maxsus parchalar ko'chirtirib, ulardan bevosita o'z faoliyatlarida foydalanishgan.

«Tuzukot» ikki qismdan iboratdir. Birinchi qismda jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan mashhur davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342–1405-yil 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritish, tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga kiritish, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon (1376–1395), turk sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402)ga qarshi va nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Gurjiston va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism Amir Temurning nomidan aytilgan o'ziga xos vasiyat va pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalariining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi. «Tuzukot» yozish asli xitoy va turk-mo'g'ul hukmdor, xonlaridan rasm bo'lib qolgan odat edi. Masalan, turk xoqonlardan qolgan «Qonunnoma», Chingizxondan qolgan «Bilik», Xondamir (1474–1535) yozgan «Qonuni Humoyun», Ubaydullaxon (1533–1539) topshirig'i bilan yozilgan «Suluk – al mulk» («Podsholarga yo'l-yo'riqlar») ular jumlasidandir.

«**Temur tuzuklari**» o'z ichiga hayot tajribasi va sinovi boshidan o'tgan, bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoiy shaxs, buyuk davlat arbobining o'y-fikrlari, mushohada va kechinmalarni o'z ichiga jo qilgan. «Tuzukot»da mazkur mulohazalar aniq-ravon tarzda, ixcham bayon etilgan. Sohibqironning «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur», degan ko'rsatmasi XXI asr siyosat maydoni uchun, muammolarni hamjihatlikda yechishga da'vat tarzida ko'rsatish mumkin. «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir» degan fikrlari hozirda ham ijtimoiy hayotda dolzarb ahamiyat kasb etsa, «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar» degan iborasi odamni hamisha o'z aql-zakovati, ilm-ma'rifat asnosida hayot kechirishga chaqiradi. Amir Temurning «Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-ikrom ko'rsatdim», degan so'zi uning ichki ma'naviyati boyligidan darak beradi.

XXI asr barkamol avlodini tarbiyalashda, ularning ma'naviy olamini boyitishda «Tuzuklar» shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan «Temur tuzuklari»ni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan ofitser va askarlarimizga chuqur va har tomonlama targ'ib etish kun tartibiga qo'yildi.

3. Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Sohibqiron Amir Temur Xitoyga qilinayotgan harbiy yurish vaqtida qattiq og'rib, 1405-yil 18-fevral kechasi O'tror hokimi Berdibekning saroyida vafot etadi. O'z davrining mohir tabiblari va ularning sardori bo'lgan taniqli tabib Fayzulloh Tabriziyning davo-korlari buyuk hukmdor tanasidagi og'irlikka davo bo'la olmadi. Qazosiga qadar ixtiyori o'zida bo'lgan Sohibqiron Amir Temur o'ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldirdi. Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat (jami o'z ichiga 27 ta o'lka va viloyatlarni jam etgan) garchi Temurning mahorati va kuch-qudrati ila mustahkam turgan bo'lsa-da, lekin u ichki jihatdan siyosiy ancha zaif, umumiyqisodiy asosga ega bo'lmagan edi. O'g'illar, nabiralarga mamlakatni qism-qismlarga bo'lib berilganligi va suyurg'ol tartibi ham Amir Temur davlati parokandaligini kuchaytirar edi. Amir Temur jasadi

Samarqandda dafn etilishi va motam marosimlari tugamasdanoq, toj-ubaxt uchun shahzodalar o'rtasida o'zaro kurash kuchayib ketdi.

Kobul va Shimoliy Hind mulklarning hokimi bo'lgan Pirmuhammadni ko'pchilik taxt egasi sifatida ko'rishni xohlamas ham edi. Uning ustiga u ancha uzoqda bo'lib, Samarqandga tezlik bilan yetib kelish uchun imkoni ham yo'q edi. Amir Temur vafotidan so'ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlanib, g'alayonli vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Sekin-ajab Temur kuch-qudrati bilan barpo etilgan buyuk saltanatga putur yeta boshladi. Fosih Havofiy Temurdan so'ng tirik qolgan uning o'g'li va nabiralarni sanab, jami ularning soni 36 taga yetishini ta'kidlagan edi. Ayniqsa ular orasida Shohrux (1377–1447) va uning o'g'li Ulug'bek (1394–1449) alohida hurmat bilan tilga olib o'tilgan. Shu davr muarrixlari taxt egaligiga ko'proq Shohruxni ma'qul ko'rib, uning insoniy sifatlariga yuqori baho berar edilar. Shohrux taxt egasi bo'lishidan avvalroq ham o'zining oqil va ilmli, zukko va taqvodorlik sifatleri bilan hurmat qozongan edi. Shuningdek, bu vaqtda Temurning boshqa bir o'g'li Mironshoh (1366–1408) ham hayot bo'lib, u ham asosiy taxt davog'arlaridan biri hisoblanar edi.

Temurning sadoqatli amirlaridan ko'pchiligi, jumladan Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ham toju taxt Shohrux Mirzoga tegishi tarafdori edilar. Shunday bir vaqtda Mironshoh Mirzoning o'g'li, Shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384–1409) shoshilinch ravishda, o'zining ming chog'li askari bilan 1405-yilning 18-mart kuni Samarqandni egallaydi va o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qiladi. Hatto u Pirmuhammadga tegishli Amudaryoning o'ng betidagi yerlarni ham o'z tasarrufida deb e'lon qiladi. Avval boshda uni qo'llagan Movarounnahr amirlari, harbiy sarkardalar ko'p o'tmay undan ixloslari qayta boshlaydi. Xalil Sulton va ayniqsa uning xotini Shodimulk poytaxtda ko'plab nojoiz ishlarga izn berishadi, Temur davridayoq nufuzli bo'lgan ba'zi amaldor, zodagonlar mulklarini tortib ola boshlashadi. Davlat xazinasi o'z holicha sovurila boshlanib, hokimiyatga ko'plab nomaqbul kishilar kela boshlaydi. Shohrux bilan birinchi o'zaro nizodan so'ng Xalil Sulton garchi uning oliy hukmdorlik huquqini tan olsa-da, Movarounnahr uning ixtiyorida qolajagini ma'lum qiladi. Xalil Sultonni Iroq tomonidan boshqa bir kuch otasi Mironshoh Mirzo ham qo'llab-quvvatlaydi. Siyosiy kaltabinlik yo'lini tutgan Xalil

Sultondan norozilik tobora kuchaya boshlaydi. Farg'ona hokimi Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi bosh ko'taradi. Shohruxning sadoqatli kishisi bo'lgan Shayx Nuriddin O'tror hokimi, o'z ukasi Berdibek bilan birga boshqa bir isyon ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo'ylarida o'z akasiga qarshi bosh ko'taradi. Xorazm esa Oltin O'rdalik taniqli sarkarda Amir Idiku o'zbek tomonidan ishg'ol etiladi.

1405–1406-yillarda Xalil Sultonning Shohrux, Pirmuhammad qo'shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to'qnashuvi sodir bo'ladi. Butun Temur saltanati o'zaro toj-u taxt kurashlari domiga tortiladi. Yagona hisoblangan saltanat Shohrux boshqarayotgan Xuroson, Balxdan to Hind yerlarigacha bo'lgan hududga hokim Pirmuhammad, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo'lgan Mironshoh va uning avlodlari (Umar Mirzo, Abu Bakr) yerlariga bo'linib ketdi. Movarounnahr Xalil Sultonga rasman qarashli deb hisoblansa-da, Turkiston, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, Farg'onada esa Amir Xudoydod hukmronlik qilishar edi. Barcha temuriylarni saltanatning yuragi bo'lgan Movarounnahrga egallash istagi tark etmas edi.

Movarounnahr hokimi Xalil Sultonning o'z holicha ish tutishi, temuriy zodagon, amirlarning kamsitilishi, musulmon ulamolari, jumladan naqshbandiya tariqatining taniqli shayxi Muhammad Porsoning tahqirlanishi muxolif kuchlarning dushmanligini kuchaytirib yubordi. Shu vaqtning o'zida o'zaro fitna va g'alayonlarning navbatdagi qurbonlari ham paydo bo'ladi. 1407-yil 22-fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o'zining vaziri Pirali Toz tomonidan suiqasd natijasida o'ldiriladi. (Keyinchalik o'zini Pirmuhammadning «qasoskori» deb e'lon qilgan Shohrux Pirali Tozni Hirotda qatl etdi). 1408-yil 22-aprelda esa qoraqo'yunli turkmanlar bilan jangda hokimiyat uchun boshqa bir da'vogar Mironshoh Qora Yusuf tomonidan Ozarbayjon va Iroq uchun bo'lgan jangda o'ldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqadi.¹

1409-yil boshida esa siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Amir Xudoydod shu vaqtda Xalil Sultonni Samarqand yonidagi Sheroz qishlog'ida mag'lubiyatga uchratib, uning o'zini asirlikka oldi. Xuroson

¹ Шохрух Мирзо хукмронлиги даврида Озарбайжон расман яна салтанат таркибига кайгарилади.

hokimi Shohrux esa o'ziga qarashli bo'lgan Mozandaron va Mashhad-da, so'ngra uning ilkiga o'tgan Seyiston va Kirmonda o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. So'ngra butun e'tiborini Movarounnahrga qaratadi. Sheroz jangidan bir oz avval Shohrux Xalil Sultonga Movarounnahr taxti uchun jang qilish xususida yorliq ham yuborgan edi. Shohrux saltanat markazidagi bedodliklarga bundan buyon befarq bo'la olmasligini e'lon qildi. 1409-yil 25-aprelda u Amudaryodan o'tib Samarqand tomon jadal yo'l oladi. Xalil Sultonni qo'lga olgan Amir Xudoydod qo'shinlarini Shohrux yuborgan harbiy qism tor-mor etib, Xalil Sultonni asirlikdan ozod qilishadi. Olijanob insoniylik sifatlariga ega bo'lgan temuriy Shohrux Mirzo o'zaro gina-kudratlarni unutib, uni yaxshi kutib oladi. Amir Xudoydod esa mamlakatdan qochib ketadi. 1409-yilning dekabriga qadar Shohrux Mirzo Movarounnahrda tinchlik osoyishtalik o'rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdorlariga qarshi keskin choralar ko'radi, izdan chiqqan xo'jalik hayot, savdo-sotiqni tiklaydi.

Temuriylar saltanatining taqdiri oydinlashib, Xuroson hokimi bo'lgan Shohrux Mirzo (1405–1409) temuriylar davlatining oliy hukmdori (1409–1447) sifatida e'tirof etildi. Tarixda esa Shohruxning deyarli 40 yillik barqaror hukmronlik davri boshlandi. O'zaro nizo va fitnalardan, iqtisodiy, savdo munosabatlarini chippakka chiqargan vayronagarchilik urushlardan charchagan xalq, markazlashgan kuchli davlat sari intilayotgan Shohrux Mirzoning xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlar edi. Chunki, faqatgina kuchli, markazlashgan davlatgina o'zaro osoyishtalik, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin edi.

Temuriylar saltanati tarixida Shohrux Mirzoning (1377–1447) o'ziga xos o'rni va roli mavjudligini alohida ta'kidlash joiz. Shohrux Mirzo nomi bilan bog'liq tadqiqot ishi ilk bora mustaqillik yillarida, X. Fayziyevning nomzodlik dissertatsiyasida o'z aksini topdi.

Shohrux Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, u 1377-yili tavalud topgan edi. Uning onasi Tag'oy Turkon og'o turkiy qoraxitoy urug'idan bo'lib, kelib chiqishi bo'yicha o'rtahol xonadon vakilasi bo'lgan. Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida Shohruxning siyosiy faoliyati 1397-yili, uning Xuroson hokimi etib tayinlanishidan boshlanganligini ta'kidlaydi. Shohrux Temur davlati o'zagini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, u deyarli barcha o'lka, viloyat noiblarini o'z lavozimlaridan chetlashtirib, o'ziga ishonchli hisoblagan

qarindosh-urug'larini bu lavozimlarga qo'ya boshlaydi. Jumladan, Balx va Badaxshon – Ibrohim Sultonga, Sheroz-Suyurg'atmishga, Kobul va Qandahor – Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi – Boysunqur Mirzoga, G'arbiy Eron hamda Iroqi Ajamning bir qismi – Sulton Muhammadga, Fors viloyati – Abdullo Mirzolarga suyurg'ol tarzida bo'lib beriladi.

Shu yo'l bilan Shohrux boshqaruv tizimi qulay va ixcham bo'ladi deb o'ylagan edi. Lekin, keyinchalik ishonchli qondoshlar ichidan ham isyonkor no'iblar chiqadi. Xususan, Shohruxning nevarasi Sulton Muhammad Eron no'ibi etib tayinlangach, markazga bo'ysunishdan bo'yin tovlay boshlaydi. So'nggi marotaba Shohrux isyonkor nevarasini o'limidan sal avval (1446), Eronga yurish qilib, uning jazosini berishga majbur bo'lgan edi.

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Xitoy, Hindiston, Misr, Usmoniylar davlati bilan diplomatik va savdo aloqalarini yangi darajada mustahkam munosabatlar tarzida o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Shohrux 1419-yili Amir Shodixo'ja boshchiligidagi 500 nafar elchilik guruhini Xitoyga jo'natadi. Shohruxning amaldori diplomat va tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy 1441–1444-yillarda Hindistonga elchi bo'lib borgan. Abdurazzoq Samarqandiy markaziy va Janubiy Hindistondagi bir qator davlat, shaharlarda bo'ldi. Bu xususda u «Matla as-sa'dayn va majma al-bahrayn» nomli asarida barcha safar xotiralarini yozib qoldirgan. Hindistondagi Dehli sultonligi, Kalikut, Bijayanagar, Bengal, Janpur va boshqalar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Shuningdek, bu davrda Misr va Suriyada hukmronlik qilayotgan mamluklar davlati, Old Osiyodagi Usmoniylar davlati bilan ham o'zaro do'stona munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Tarixchi Hofizi Abru «Zubdat at-tavorix» asarida Shohruxning Misr podshosiga elchi yuborib, 1444–1445-yillari Shayx Nuriddin Murshidiy boshchiligida Makkaga Ka'ba ustiga yopinchig' – «ka'bapo'sh» jo'natganligini qayd etadi.

Shohrux davlatida Movarounnahr qismining alohida o'rni bo'lgan. Davlatning markaziy poytaxti Hirot shahri hisoblansada, Movarounnahrning markazi Temur poytaxti – qadimiy Samarqand shahri hisoblanar edi. Movarounnahr yerlarining boshqaruvi esa Ulug'bek qo'lga topshirilgan bo'lib, u umrining oxiriga qadar (1449), 40-yil mobaynida bu yerlarni boshqarib keldi.

Buyuk olim, davlat arbobi hamda madaniyat homiysi Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) Sohibqiron Amir Temurning nevarasi, Shohrux Mirzoning katta o'g'li bo'lib, u 1394-yili 22-mart kuni Temurning «besh yillik» harbiy yurishlari vaqtida Iroqning Sultoniya shahrida tavallud topgan edi. U Sohibqiron saroyida Amir Temurning katta xotini malika Saroymulkxonim va onasi Gavharshodbegim tarbiyasida katta bo'ldi. U Sohibqironning boshqa avlodlari kabi an'anaga muvofiq hamma harbiy yurish, xattiharakatlar, saroy hayotida ishtirok etadi. Bobosi tomonidan nevaralar, jumladan yosh Ulug'bek ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berilar, shu nuqtayi nazardan 3-4 yoshlaridan u qissaxon Hamza ibn Ali (Shayx Ozoriy) tarbiyasida bo'ladi. Undan ilk saboqlarni, xat-savod, hisob-kitobni o'rganadi. Keyinchalik esa unga otaliq etib tayinlangan amir Shohmalikdan davlat boshqaruvi tartib-qoidalarini haqida ko'nikmalarga ega bo'ladi. Mirzo Ulug'bek Muhammad Sultonning qizi O'gabegimga uylanishi bois ham bobosi singari «ko'ragon» («xonning kuyovi») unvonga sazovor bo'ladi. Chunki, O'gabegim ona tomonidan nasl-u nasabi Chingizxonga borib taqalar edi. Shohrux dastlab o'g'li Ulug'bekka Xurosondagi Andxo'y bilan Shibirg'onni idora qilishni buyurdi. 1406/1407-yili Xurosonning Tus, Habushon, Kalot, Bovard, Niso, Yozir, Sabzavor, Nishopur kabi hududlarini ham idora kalitini Ulug'bekka topshirdi. Keyinchalik Dehiston va Astrobod ham unga qo'shib berildi. Bu haqda «On hazrat Mirzo Ulug'bekni yangidan Xuroson va Mozandaron hukmdorligiga tayin qildi» – deb yozgan edi Abdurazzoq Samarqandiy.

1409-yili Movarounnahr qo'lga olingandan so'ng, Shohrux Ulug'bekni shu o'lkaning no'ibi etib tayinlaydi. 15 yoshli o'smir davlat boshqaruvi ishlari uchun yosh ekanligi hisobga olinib, taniqli amir Muboriziddin Shohmalikni unga otaliq etib tayinlab, boshqaruv ishlari amalda otaliqning qo'lida mujassamlashadi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matla as-sa'dayn va majma al-bahrayn» asarida yuqoridagi holatni shunday tasvirlagan edi: «Hazrat xoqoni sa'id (Shohrux) Movarounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohati-yu dil quvvati, ko'z nuri-u din ko'makchisi Mirzo



Mirzo Ulug'bek

Ulug'bek ko'ragonga bag'ishladi». Temurshunos olim O. Bo'riyev ta'kidlaganidek, hududni katta o'g'ilga berilishi haqli ravishda Ulug'bekka ko'rsatilgan alohida mehr va iltifotning belgisi edi.

Movarounnahrlik amirlarning ba'zilar Ulug'bek va Shohmalik hokimiyatlarini tan olishni istashmaydi. Jumladan, 1410-yilda qayta bosh ko'targan Shayx Nuriddin g'alayoni faqatgina Shohrux Mirzoning aralashuvi tufayli bostirilib, noiblik o'rni Ulug'bekning o'ziga qoldiriladi. Isyon bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, jumladan Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram va boshqa yerlar yana temuriylar ilkiga o'tib, u yerlar idorasi ham Mirzo Ulug'bek zimmasiga o'tadi. 1411-yili Movarounnahrda ancha muxolif kuchlariga ega bo'lgan va Ulug'bekning mustaqil xatti-harakatlariga to'sqinlik qilayotgan Muboriziddin Shohmalik Shohrux bilan birga Hirotda qaytib ketadi. Ulug'bek Mirzo esa shu yildan boshlab Movarounnahrning «yagona va qonuniy sultoni» sifatida hokimiyatni boshqaradi.

Shohrux va uning o'g'li Ulug'bek o'z siyosatlarining ustuvor yo'nalishlari etib avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash deb bilishdi. Shohrux 1413-yili Eronni o'z qo'li ostiga oladi. O'sha yili Shohrux qo'shini yordamida Ulug'bek Oltin O'rda xonlari ixtiyoridagi Xorazmni tortib oladi. Bu kurashda faol ishtirok etgan Shohmalik Xorazm noibi etib tayinlanadi. Ulug'bek 1414–1415-yillarda o'z amakivachchasi amirzoda Ahmad (Amirak Ahmad) hukmron bo'lib turgan Farg'onani egallaydi. Shuningdek, uning Qoshg'arga nisbatan siyosati ham muvaffaqiyatli tarzda hal bo'ladi. Avval boshda sobiq Farg'ona hokimi Ahmad¹ Qoshg'ardan panoh topgan edi. Lekin, temuriylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikni lozim deb hisoblagan Qoshg'ar hokimi Shayx Ali To'g'ay Ulug'bek bilan o'zaro muzokaralar olib boradi. Natijada, 1416-yili u «Buyuk amirning ruhi, himoyasiga» o'tish istagini bildirib, Qoshg'arni Ulug'bek yuborgan vakillar Siddiq va Alilar qo'lga topshiradi.

Ulug'bek Shimoldagi qo'shnilari bo'lgan Dashti Qipchoq va Mo'g'ulistondagi ichki siyosiy ahvol barqarorligi va u yerlarda o'ziga ittifoqchi bo'lgan kishilarni hokimiyat tepasida bo'lishini istar edi. Shu sababdan ham uning aralashuvi hamda harbiy ko'magi

¹ Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Amirak Ahmadni Shohrux vaziyatni yumshatish maqsadida Hirotda chaqirib oldi. 1416-yili fitnada ayblangan Amirak Ahmad Makkaga jo'natiladi.

bilan Dashti Qipchoqda O'rusxonning nabirasi shahzoda Baroqxon hokimiyat tepasiga keldi. Mo'g'ulistonda esa Ulug'bekning yordami bilan Shermuhammadxon raqibi Baisxonni yengib Mo'g'uliston taxtini egallaydi. Ulug'bek bu xonlar orqali Shimolda va Sharqda o'z ta'sirini o'tkazishga va o'ziga ishonchli ittifoqchilarga ega bo'lishini ko'zlagan edi. Avval Shermuhammadxon Movarounnahr ichki ishlariga aralashishga harakat qilib, o'z valine'matiga nisbatan nohaq munosabatda bo'la boshlaydi. 1424-yili noyabr oyida Shohruxning rizoligi bilan Ulug'bek Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Uning asosiy kuchlari 1425-yil o'ta bahorida Chu daryosidan o'tib, Issiqko'l yaqinida mo'g'ullarni tormor keltiradi.

Bu xususda Ulug'bek tomonidan Jizzaxning Ilono'tti darasida lavha ham yozdiriladi. Tez orada Shimoldan yana boshqa bir xavf paydo bo'ldi. Ulug'bek yordami bilan avval Dashti Qipchoq, so'ngra Oltin O'rda hokimiyatini qo'lga olgan Baroqxon Movarounnahr sultoni muruvvatini yoddan chiqardi. U Sirdaryo bo'yidagi yerlar va shaharlarni (O'tror, Sabron, Sig'noq) talab, u yerlarga o'z da'vosi bilan chiqadi. 1427-yilning boshida Ulug'bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurishga otlanadi. Bu yurishda Ulug'bek qo'shini mag'lubiyatga uchrab, o'zi Toshkentga chekinadi. Dashti qipchoqliklar bilan bo'lgan jang mag'lubiyati Ulug'bekka shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, u otasining o'limigacha shaxsan o'zi harbiy qo'shinga bosh bo'lib, yurishlarni boshqa amalga oshirmaydi. Mo'g'ullar qo'shini ko'p yerlarni xonavayron qilib, talon-toroj qilib, orqaga qaytib kyetishadi. Keyinchalik ham bu holat davom etdi. Dashti Qipchoq xoni Abulxayrxon ham (1428–1468) ko'pincha chegaralarni buzib, talonchilik bilan shug'ullanar edi. Ularning 1431–1435-yillardagi Xorazmga yurishlariga Shohrux va Ulug'beklar tomonidan chek qo'yilib, chegaralar xavfsizligi ta'minlandi.

1428-yili Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movarounnahr ichki iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynadi. Zamondosh tarixchilar, jumladan Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham bir muncha pasaytirilgan.

Shohruxning keksayishi bilan toj-u taxt uchun zimdan paydo bo'lgan nizolar ham faollasha boradi. Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim (1457) siyosiy ishlarga faol aralasha borib, nevarasi Alouddavlani taxt vorisi sifatida ko'rishni istar edi.

Shohruxning yana bir hayot bo'lgan o'g'li Muhammad Jo'ki (1402-1444) ham o'zini taxt egasi sifatida ko'rishga haqli deb hisoblar edi. Toj-u taxt uchun zimdan boshlangan kurash 1444-yili Shohrux og'u xasta bo'lib qolganda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shohrux xastalikdan tuzalib, 1446-yilning so'ngida o'zining oxirgi harbiy yurishini amalga oshiradi. Fors va Iroqi Ajamda uning nevarasi Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Hamadon va Isfahonni bosib oladi. Garchi Shohrux isyonni bostirib, qo'zg'olonchilarni jazolasa-da, lekin yana xastalanib 1447-yil 12-martda Eron Shimolidagi Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruxning o'limi Xuroson va Movarounnahrda o'zaro temuriy shahzodalar o'rtasida toj-u taxt uchun kurashni boshlab yubordi. Mamlakat yana sarosima, tahluka, beqarorlik domiga tortildi. Shariat va urf-odatga ko'ra o'z-o'zidan oliy hukmdorlik yagona voris Mirzo Ulug'bek qo'liga o'tishi kerak edi. Lekin Boysunqur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Ulug'bekka qarshi harbiy harakatni boshlab yuborishadi. Xuroson Alouddavla qo'liga, Mozandaron va Jurjon Abulqosim Bobur ixtiyoriga o'tadi. Sulton Muhammad esa G'arbiy Eron va Forsda o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qiladi. Muhammad Jo'kning o'g'li Abu Bakr esa Balx, Shibirg'on, Qunduz, Bag'lonni bosib oladi. Mamlakatning talon-toroj, parokanda bo'lishini oldini olish maqsadida Mirzo Ulug'bek muammolarni tinch-muzokara yo'li bilan yechmoqchi bo'ladi. Jumladan, u Alouddavla bilan o'zaro muzokaralarni boshlaydi. Alouddavla Ulug'bekning o'g'li Abdullatifni asir olib, uni Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. Ulug'bek yuborgan vakil sadr Nizomiddin Mirak Mahmud, Movarounnahr sultonining Hirotga yurish niyati yo'q ekanligi va bu da'vodan u voz kechishini bildiradi. Ikki o'rtadagi chegara Murg'ob vohasi deb belgilanib, Abdullatifga Balx hokimligi beriladi.

Lekin, hech qancha o'tmasdan Abdullatif va Alouddavla o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashadi. Abdullatifning o'z holicha Hirotga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U otasi Ulug'bekka yordam so'rab murojaat qiladi. 1448-yil bahorida Ulug'bek va Abdullatifning to'g'son ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotidan 14 farsah uzoqlikdagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo'shinini tor-mor keltiradi. Alouddavla jang maydonidan qochadi. Hirot deyarli jangsiz egallanadi. Mashhadgacha bo'lgan yerlarni Ulug'bek, Astrobodgacha bo'lgan yerlarni Abdullatif o'z ixtiyorlariga olishdi. Ulug'bek bu harbiy yurishni uzoq davom

atira olmas edi. Chunki, Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchilarning talonchilik yurishlari bu paytga kelib, tez-tez amalga oshib turar, mamlakatga Sharqdan mo'g'ullar xavf solib turishardi. Qolaversa, hukmdor poytaxtni uzoq vaqt egasiz qoldirishi mumkin emas edi.

Tarnob jangi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa-da, lekin g'alaba Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatiflar o'rtasida munosabatlarning soyuqlashuviga ham olib keldi. Mirzo Ulug'bek bu g'alabani ko'proq boshqa bir o'g'li Abdulaziz nomi bilan bog'lar, g'alaba yorliqlarida Abdullatif nomi Abdulazizdan so'ng tilga olinar edi. Abdullatif garchi Hirot taxtiga o'tirsa-da, lekin Shohrux xazinasi sulton ixtiyoriga o'tadi. Garchi bu Ulug'bek tomonidan ma'lum bir nohaqlik deb hisoblansa-da, lekin Ulug'bek bundan buyon asosiy poytaxt Samarqand, Xuroson davlatining bir bo'lagi degan g'oyani shu xatti-harakati bilan anglatmoqchi bo'ladi. O'ta hokimiyatparast va shu'ratparast, mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun shuning o'zi otasiga qarshi bosh ko'tarish uchun katta bahona edi. Abdullatif Hirotida 15 kuncha hukmronlik qilib, so'ng Amudaryodan o'tib, Movarounnahrda ke'ldi. Bu paytda Abulqosim Bobur qo'shini esa Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Mirzo Ulug'bek farmoni bilan Abdullatif yana Balxga noib etib tayinlandi. Balxda Abdullatifning otasiga qarshi xatti-harakatlari kuchayib, o'z holicha xorijiy savdogarlardan olinadigan «tamg'a» solig'ini bekor qiladi. Bu soliq esa o'z navbatida davlat daromadining asosiy man'alaridan biri edi. Otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o'z atrofiga yig'ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Ulug'bekka qarshi yashirin til biriktiradi. Bu paytda Mirzo Ulug'bek davlatining siyosiy ahvoli ham ancha murakkab tarzda turar edi. Mirzo Ulug'bekka Abulxayrxon boshchiligidagi dasht qo'shinlariga qarshi kurashishga to'g'ri keldi. Samarqand noibi etib qoldirilgan o'g'li Abdulaziz «amirlar xonadoniga tazyiq o'tkazyapti.» deb ovoza tarqalib, bundan amirlarning noroziligi kuchayib ketdi. Mirzo Ulug'bekning murakkab ahvolda qolganidan foydalangan Dashti Qipchoq xoni Abulxayrxon Movarounnahrda talonchilik yurishlarini amalga oshirdi. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek turkmanlarning Yorali boshchiligidagi isyonini, temuriy shahzodalardan Abusaidning Samarqand atrofidagi xatti-harakatlarini ham bostirishga to'g'ri keladi. Davlat yaxlitligi, temuriylar birligini saqlash maqsadida Ulug'bek Abdulazizni o'zi bilan birga olib, makkor o'g'li Abdullatifga qarshi kurashga o'tlanadi. Abdullatif esa otasining og'ir ahvolidan foydalanib, tezda

ochiq isyon yo'liga o'tdi. U Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Kesh, Hisorni qiyinchiliksiz egallaydi.

1449-yilning oktabr oyi boshida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'ida Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatif o'rtalaridagi jang. Mirzo Ulug'bek mag'lubiyati bilan tugaydi. Mag'lub bo'lgan Mirzo Ulug'bek poytaxt Samarqand tomon yo'l oldi. Lekin, xiyonat yo'liga o'tgan, Samarqandda hokim etib qoldirilgan Mironshoh qavchin uni shaharga kiritmay, darvozalarni berkitib qo'yishga buyruq berdi. Shuningdek, Shohruhiya qal'asi qutvoli Ibrohim mamluk ham uni qal'aga qo'ymaydi. Shundan so'ng Ulug'bek keyingi xatti-harakatlari foydasiz ekanligini anglab, Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ldi. Mirzo Ulug'bek toj-u taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga kyetishga izn so'raydi. Abdullatif hajga ruxsat berib, Amir Muhammad Xusravni unga hamroh qilib jo'nataadi. Lekin, oradan hech qancha o'tmasdan, shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, ulamolarning yashirin fatvosi bilan Abdullatif o'z otasining o'limini uyushtiradi. O'z davrining mashhur hukmdori va zabardast olimi Mirzo Ulug'bek 1449-yilning 27-oktabrida Samarqand yaqinida fojiali tarzda o'ldiriladi. Oradan 2-3 kun o'tmasdan Abdulaziz va Ulug'bekning sadoqatli to'rt nafar amiri ham qatl etiladi.

Roppa-rosa qirq yil (1409–1449) davom etgan, manbalar tili bilan aytganda «temuriylar saltanatining yorqin gavhari» Mirzo Ulug'bek hukmronligi shu tariqa o'z poyoniga yetadi. Bu davr keskin, murakkab kurashlar sahnasida o'tsa-da, biroq Mirzo Ulug'bek o'z davlatini mustahkamlash, birlikni saqlash, iqtisodiy barqarorlikni yuzaga keltirish, madaniy hayotni yuksaltirish borasidagi xizmatlari temuriylar tarixida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. G'arbda Mirzo Ulug'bek ilmiy merosi XVII asrdan boshlab o'rganila boshlandi. 1643-yili Oksford universiteti professori Jon Grivs (Iogann Gravius) o'z tadqiqot ishini Ulug'bek «Zij»iga bag'ishlagan. Bu ilk nashrdan so'ng Oksford universitetida, Yevropaning boshqa ilm-fan markazlarida qator ishlar nashr etildi. 1693-yili mashhur polyak astronomik Yan Geveliyning lotin tilidagi «Astronomiya darakchisi» kitobi chop etildi. Unda Ulug'bek faoliyatiga yuqori baho berilgan holda ikkita gravyura kiritilgan. Astronomiya ilohiysi Uraniya haykalining ikki tarafida eng mashhur astronomlar qatorida Mirzo Ulug'bek ham tasvirlangan.

Ulug'bekning «Zij»i 1725-yili Grinvich observatoriyasining birinchi direktori D. Fleystidning «Osmon tarixi» kitobida eng mashhur jadvallar

qatorida o'z aksini topgan. Ingliz Sharqshunosi A. Sediyo (1808–1875) 1839–1853-yillarda «Zij»ni fors va fransuz tillarida nashr qildi. XX asr boshlarida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosi xususida AQSh va Yevropada qator asarlar nashr qilindi. Sankt-Peterburg observatoriyasining asoschisi, adli Fransiyadan taklif etilgan astronom J.N. Delil (1688–1768) Rossiyada Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishni boshlab berdi. Bu ishni keyinchalik rus Sharqshunoslari N. Beryozin, B. B. Bartold va boshqalar davom ettirishdi. 1908–1909-yillari Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi xarobalarining ochilishi unga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi.

XX asr tarixshunoslik fani Mirzo Ulug'bekni nafaqat buyuk olim, balki barcha tavofutlardan qat'iy nazar, umumbashariy taraqqiyot g'oyalari ko'tarib chiqqan musulmon olamidagi yagona hukmdor sifatida e'tirof qildi. Nemis olimi N. Meller (1749–1874) tashabbusi bilan Oylagi kraterlardan biriga Ulug'bek nomi berilgan.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosini o'rganish, buyuk olim, madaniyat homiysiga ehtirom ko'rsatish davlat siyosati maqomiga ko'tarildi. 1994-yili YuNESKOning qarori bilan Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi yubiley yili deb e'lon qilindi. Respublikadagi qator muassasa, tashkilot, maydon, ko'chalarga Mirzo Ulug'bek nomi berildi. Xususan, Toshkentdagi tumanlardan biri, FA Astronomiya instituti, FA Yadro fizikasi instituti joylashgan posyolka, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqalar shular jumlasidandir. Toshkentda va Samarqandda Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq yodgorliklar qayta ta'mirlandi, Ulug'bek muzeyi butkul yangi qiyofa kasb etdi. Buyuk ajdodimizga o'z yurtida ko'rsatilgan ehtirom avlodlarining ulkan e'tiboridan darak berishi 2009-yili Samarqandda ushbu zotga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham alohida qayd etildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bois Mirzo Ulug'bek monumental majmuasi zamonaviy tarzda tarixiylik bilan uyg'unlashgan holda yangicha ko'rinish kasb etdi.

4. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.

O'zaro toj-u taxt uchun kurash Abdullatifni razillik botqog'iga botirib, uni o'z otasining qotiliga aylantirdi. Garchi u taxt egasi bo'lsa-da, xalq uni «padarkush» (otasining qotili) sifatida la'natlar,

Mirzo Ulugʻbek tarafdorlari unga dushmanlik koʻzi bilan qarar edi. Bunday bir paytda Abdullatif xurofotchi din ahillari, darveshlar guruhi bilan ham yaqinlashishga harakat qildi. Biroq, qotil padarkush taxtda uzoq oʻtira olgani yoʻq. 1450-yilning 8-mayida, shahar xandagʻi yonida, Bogʻinavdan nariroqda unga qarshi suiqasd qilinib, oʻldiriladi. Bu xususda soʻz yuritgan tarixchi Mirxond fitnachilar tap tortmasdan harakat qilib, «uning kesilgan boshini Registondagi Ulugʻbek oʻzi qurdirgan madrasa peshtogʻiga namoyishkorona tarzda ilib qoʻyadilar», deb taʼriflagan edi. Bu qotillikdan soʻng, tezda Samarqand taxtiga temuriylardan biri Mirzo Ulugʻbekning jiyani hamda kuyovi Mirzo Abdullo (1450–1451) oʻtiradi. Buxoroda esa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abu Said qoʻliga oʻtadi. Mirzo Abdullo oʻzining bir yillik hukmronlik davrida mamlakatda barqarorlikni tiklashga, Mirzo Ulugʻbekning madaniy sohadagi ishlarini davom ettirishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. U taxt uchun daʼvogarlar Alouddavla va Abu Saidlar bilan kurash olib borib, Samarqandga qarshi yurish qilgan Abu Said qoʻshinini tor-mor keltiradi. Abu Said Sirdaryo ortiga qochib, Dashti Qipchoq oʻzbeklari xoni Abulxayrxondan (1428–1468) taxtni egallash uchun yordam soʻrab murojaat qiladi. 1451-yili yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlogʻidagi qattiq jangda Mirzo Abdullo oʻldirilib, taxt Sulton Abu Said Mirzo (1451–1469) qoʻliga oʻtadi. Temuriylar davlatining Xuroson yerlari Shohruxning boshqa bir nevarasi, Boysunqurning oʻgʻli Abulqosim Bobur qoʻlida saqlanib qolib, u to vafoti (1457) ga qadar Hirot taxtini boshqarib turadi.

Bu vaqtga kelib oʻzaro siyosiy tarqoqlik yanada avj oladi. Birgina Xurosonning oʻzi oʻndan ortiq qismga boʻlinib ketadi. Jumladan, Xurosonning Sabzavor va Astrobod oraligʻidagi yerlari Mirzo Jahonshohga, Balx Abusaidga, Hirot Mirzo Sulton Ibrohimga, Mirzo Shomahmudga Tus, Alouddavlagga Obivard qalʼasi tegishli edi va hokazo. Oʻzaro taxt uchun muttasil kurashlar mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta zarar yetkazib, inqiroziy holatlarga sabab boʻla boshladi. Abulqosim Bobur Xurosonni oʻz qoʻli ostida birlashtirishga, Shohrux davlatidagi madaniy hayotni tiklash yoʻlida saʼy-harakat olib bordi. Shu bilan birga Abulqosim Bobur Temuriylar saltanatini birlashtirishga, oʻzaro fitna, oʻzboshimchaliklarga chek qoʻyishga harakat qildi. Lekin, 1454-yili uning Samarqandga yurishi muvaffaqiyatsiz tu-

gab, 40 kunlik shahar qamalidan keyin u yana orqaga qaytishga majbur boʻlgan edi.

1457-yili Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgandan soʻng, Hirot taxti, Xuroson yerlari uchun kurash yana avj oldi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said Mirzo 1457-yili Xurosonga yurish qilib Hirotni egallaydi. Shu tariqa Abu Said temuriylar davlatining ikkala qismini birlashtirishga muvaffaq boʻladi. Sulton Abu Said Mirzoning (1451–1469) hukmronlik davrida davlat hududlari kengayib, uning chegaralari Sharqiy Turkistondan to Troqqacha, Sirdaryodan to Hindiston chegaralarigacha boʻlgan yerlarni oʻz ichiga oldi. Hirot taxtiga daʼvogarlardan biri Umarshayxning evarasi, yosh temuriy shahzoda Sulton Husayn (1438–1506) Abulqosim Bobur vafotidan (1457) keyin Xuroson mulki uchun oʻz harakatlarini boshlab yuborgan edi. U XV asrning 60-yillaridan katta harbiy otryadga bosh boʻlib, 1461–1464-yillarda Hirot, Obivard, Niso, Mashhad va Xorazmda hokimiyat uchun goh muvaffaqiyatli, goho muvaffaqiyatsiz kurashlarni olib bordi.

1469-yili erta bahorda temuriylarga avvaldan tegishli boʻlgan Gʻarbiy Eron yerlarini qaytarib olish maqsadida Sulton Abu Said oqqoʻyunlu turkmanlariga qarshi yurishni boshlaydi. Biroq, oqqoʻyunlular hokimi Uzun Hasan (1453–1478) tomonidan Ozarbayjonning Mugʻon dashtida jang vaqtida oʻldiriladi. Abu Saidning oʻgʻillari Sulton Husayn bilan toj-u taxt uchun kurashishga botina olmay, Movarounnahrqa qaytib kyetishadi. Sulton Husayn esa 1469-yil 24-martda tantanali ravishda Hirotga kirib keladi. Natijada temuriylar saltanati yana ikki qism: Xuroson va Movarounnahrqa boʻlinib ketadi. Movarounnahr esa ketma-ket sulton Abu Saidning oʻgʻillari Sulton Ahmad (1469–1494), Sulton Mahmud (1494–1496), Sulton Boysungʻur Mirzo (1496–1497) hamda Mahmudning oʻgʻli Sulton Ali Mirzo (1498–1501)lar tomonidan mustaqil ravishda boshqarildi. Lekin koʻp holda, ayniqsa Sulton Ahmadning davlat boshqaruvidagi kaltabin, uquvsiz va sustkashligi, Sulton Mahmud va Sulton Ali Mirzolarning davlat ishlarining oʻz holiga tashlab, ayshishratga mukkalardan ketganligi bois ushbu hukmdorlar davrida oʻzaro tarqoqlik yanada kuchayadi. Ayrim viloyat noiblari, amirlarning taʼsiri oʻsib, koʻpincha ular mustaqil faoliyat yoʻliga oʻtib ola boshlaydilar. Xalq ommasi esa oʻzaro kurashlardan jabr chekishar, savdo-sotiq va dehqonchilik rivoji orqaga ketgan edi. Siyosiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy



**Sulton Husayn Boyqaro
(1469–1503)**

munosabatlarda ruhoniylarning, ayniqsa soʻfiylarning taʼsiri yanada kuchayadi. Xususan, shu davrning koʻzga koʻringan diniy arbobi Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490), mamlakatda taʼsirli shaxsga aylanib, oʻzaro kurash nizolar vaqtida mamlakat tinchligini saqlash yoʻlida bir necha marotaba bu kurashlarni toʻxtatib qolishga muvaffaq boʻldi. El-yurt tinchligi, osoyishtaligi yoʻlidagi uning faoliyati, albatta eʼtiborga sazovordir.

Temuriylar davlatining Janubida ahvol oʻzgacha edi. Sulton Husayn (Boyqaro) (1469–1506) davlati oʻz tarkibiga Xorazm, Xuroson, Eronning bir qismini olgan boʻlib, u temuriylar tarixida oxirgi yirik

davlat arboblardan biri boʻlib qoldi. Uning deyarli 40 yillik hukmronlik davri ham oʻzaro kurashlardan xoli boʻlmas-da, lekin mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuksak darajada saqlanib qoldi. Mamlakat obodligi, farovonligi, iqtisodiy hayotning bir meʼyorda kechishi, fan-madaniyatning yuksalishida oʻz davrining tadbirli va oqil hukmdori Sulton Husaynning roli nihoyatda katta boʻldi.

Sulton Husayn temuriylarning Xuroson qismidagi mulklarida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, fitna va oʻzboshimchalikka chek qoʻyish, meʼmorchilik va obodonchilikka katta eʼtibor koʻrsatish, ilm ahli va madaniyat arboblari xayrixohlik koʻrsatish va homiylik qilishi temuriylar hukmronligi vaqtida oʻziga xos ijobiy iz qoldirdi.

1499-yildan boshlab Oʻrta Osiyoga oʻz yurishlarini boshlagan Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) temuriylar ichidagi ichki nizo va noittifoqlikdan foydalanib, Movarounnahrni nisbatan istilochilik harakatlarini boshladi. Temuriy shahzodalardan, shu vaqtdagi yagona movarounnahrlik iqtidorli va harbiy sarkardalik mahoratiga ega boʻlgan, keyinchalik buyuk shoir va davlat arbobi darajasiga chiqqan Zahiriddin Muhammad Boburning saʼyi-harakatlari ham oʻzining tegishli natijasini bermadi. 1505–1506-yillarga kelib Shayboniyxon Xorazm va Movarounnahrni toʻliq egallaydi. Shayboniyxon qarsi kurashish uchun yoʻlga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn

(1469–1506) 1506-yilning bahorida vafot etadi. Sulton Husaynning vorislari oʻrtasida toj-utaxt uchun kurash avj olib, natijada hokimiyat ikkita shahzodaga – Badiuzzamon Mirzo bilan Muzaffar Mirzolarga oʻtadi.

Qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon 1507-yili shahzodalarni tor-mor etib, qattiq janglardan soʻng poytaxt Hirot va butun Xurosonni oʻz qoʻli ostiga oladi.

Shunday qilib, deyarli bir yarim asr davom etgan shon-shavkatli Temuriylar saltanati oʻz nihoyasiga yetadi. Temuriylarning oxirgi zabardast vakili Zahiriddin Muhammad Bobur 1525-yilgi Panipat jangidan soʻng Shimoliy Hindistonni egallashga muvaffaq boʻladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda deyarli uch asr mobaynida hukmronlik qilib, koʻp holda temuriylarning shon-shuhratini bu yerda tiklashga muvaffaq boʻladilar.

XX asr oxirlari – XXI asr boshlarida Bobur ilmiy merosi va tarixini yanada chuqur oʻrganish borasida ish yuritayotgan xalqaro «Bobur» ekspeditsiyasi bu yoʻnalishda koʻplab samarali ishlarni amalga oshirdi.

5. Temuriylar hukmronligi (1405–1506) davrida ilm-fan va madaniy hayot

Garchi XV asr boshidan ichki nizolar, oʻzaro kurashlar mamlakat ichki hayotiga salbiy taʼsir oʻtkazgan boʻlsa-da, lekin temuriy hukmdorlardan Shohrux Mirzo (1405–1447), Mirzo Ulugʻbek (1409–1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469–1506), qisman Sulton Abu Said (1451–1469) davrlarida ichki osoyishtalik, maʼrifat va madaniyatga katta eʼtibor berilishi tufayli ilm-u fan va madaniyat sohasi yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning maʼrifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oldi.

Bu vaqtda nafaqat poytaxt Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olim-u fuzalo, shoir-u meʼmorlar, bastakor-u naqqoshlar guruhlari toʻplana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroh ham oʻziga xos madaniy markazlar rolini oʻynay boshlaydi. Tarixda maʼrifatparvar va oqilligi bilan nom



**Zahiriddin
Muhammad Bobur
(1483–1530)**

chiqargan Shohrux (1405–1447) davrida asriy ilm-fan, madaniyat, an'analarini qayta jonlana boshlagan edi.

Shohrux Hirot, Balx shaharlarini qayta tikladi, Chingizxon yurishi vaqtida vayron bo'lgan Marv shahri qayta barpo etildi, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirilib, shahar suv bilan ta'minlandi. Xurosonning barcha shaharlarida obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor berildi, qator madaniy-ma'naviy xaraktyerdagi imoratlar qurildi. Shohruxning o'g'illari Mirzo Boysunqur Hirotida, Ibrohim Sulton Sherozda ilm-fan, ma'rifat yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishdi. Shohruxning xotini Gavharshodbegim Hirotida barpo etgan me'moriy majmuasi hozirda shaharning eng diqqatga sazovor joyi hisoblanadi.

Hirotidagi eng gavjum joylardan biri Shohruxning o'g'li Boysunqur tashkil etgan «Kitobxona» nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining eng sara kitoblari qayta ko'chirilar, sotib olinar va sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiylik natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati ayniqsa o'z rivojini maromiga yetkazdi. Mirak naqqosh boshchiligidagi Sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan edi.

Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydilar. Masalan, Shohrux davrida yashagan taniqli zodagon Hoji Arslon tarxon o'zining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan edi. Lekin, har holda hukmdorlar ichida ilm-fan, ma'rifat va madaniyatga yetarli homiylik qilgan shaxs – bu o'zi ham buyuk olim bo'lgan Mirzo Ulug'bek hisoblanadi.

Mirzo Ulug'bek uning zamondoshlari, muarrixlarning xabar berishlaricha, Sharq mutafakkirlari, ular orqali yunon mumtoz ilmiy asarlaridan xabardor bo'lgan. Mirzo Ulug'bek zamondoshi G'iyosiddin Koshiyning yozishiga ko'ra, Mirzo Ulug'bek o'ta zukko va juda ilmli shaxs bo'lib, Qur'oni karimni yod bilgan, arab va fors tillarini yaxshi bilib, tafsir va hadis ilmi bobida bilimdon inson, fikh, mantiq, adabiyot, musiqa, riyoziyot va falakiyot ilmlarini chuqur bilgan qomusiy olim bo'lgan. Mirzo Ulug'bek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlik darajasini birgalikda olib bordi. U Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoro, 1420-yili Samarqandda, 1433-yillarda G'ijduvonda madrasalar barpo etdi. Samarqandning obodonchilik ishlariga bosh-

qosh bo'lib, Go'ri Amir, Shohizinda me'moriy majmualarini oxiriga yetkazadi. Shohi Zinda majmuasida masjid, peshtoq, chortoq quriladi. Mirzo Ulug'bek davrida Registon maydoni shakllandi, unga Ulug'bek madrasasidan tashqari xonaqoh, karvonsaroy, o'ymakor yog'ochlar bilan bezalgan Muqatta masjid bino etildi.



Samarqand. Registon maydoni.

Shuningdek, Ko'kaldosh jome masjidi ham qurib bitkazildi. Ushbu me'moriy binolardan faqat Ulug'bek madrasasi asrlar silkinishlariga dosh berib, majmuadan yagona yodgorlik bo'lib qoldi. Shuningdek, Samarqandda barpo etilgan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, Chilustun (qirq ustun) va Chinnixona saroylari o'zlarining me'moriy qurilishi kompozitsiyalari bilan ajralib turgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur Chilustun va Chinnixona saroylarining ko'rkam va juda muhtasham bo'lganligini ta'kidlab o'tgan edi. Mirzo Ulug'bek boshqa shaharlardagi me'moriy obidalar qurilishi masalasiga ham e'tibor bilan qaragan. Ular orasida Shahrisabzdagi Ko'k gumbaz masjidi o'zining hashamatlilik bilan ajralib turadi. Bu yerdagi Gumbazi Sayidon yodgorligi qayta tiklandi.

Hadisi sharifdagi «Ilm olmakka intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz» degan ibora Buxoro madrasasi peshtoqiga shior sifatida o'yib yozdirib qo'yiladi. Xususan, u Samarqandga o'z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan.

Uning sa'yi-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan ziyod olimlari Samarqandga yig'ilishdi. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviylar va boshqa taniqli zotlar ham bor edi. 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganda, unda 100 dan ziyod talaba o'qigan, madrasada 50 tadan ko'proq talabalar uchun maxsus hujralar mavjud bo'lgan. Zayniddin Bosifiyning yozishicha, 1420-yili Samarqand madrasasi ochilganida unda 90 tadan ko'p olim qatnashgan. Ilk ma'ruzani Mavlono Hafoviy o'qigan. Keyinchalik o'z zamonining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror va boshqalar ham Samarqand madrasalarida tahsil olishgan.

Shuningdek, Samarqandda bu davrda bir necha boshqa madrasalar ham bo'lib (Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin va boshqalar) u yerlarda ham salohiyatli olimlar dars berishar edi. 1424–1429-yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. Rasadxona o'sha davrning noyob inshootlaridan bo'lib, u doira shaklida barpo etilgan, imoratning aylanasi 47 m, balandligi 31 m dan iborat uch qavatli bino bo'lgan. Binoning ichi bir necha xona, aylana zal, maxsus tekshirish xonalaridan iborat bo'lib, u yerlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan.

Rasadxona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezalgan bo'lib, xalq ichida shuning uchun «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topgan edi. Samoni kuzatish va o'rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o'lchov asbobi – ulkan sekstant o'rnatilgan. Bu sekstant, o'z navbatida, Sharqdagi eng katta astronomik asbob o'lchovi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo'jandiy, usta Ibrohim) qo'li bilan ko'plab zaruriy astronomik o'lchov asboblari ham yasaldi va o'rnatildi. Rasadxona qoshida, shuningdek o'n besh ming jilddan iborat kitob saqlanadigan boy kutubxona ham bo'lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan yer-chorbog'lar Bog'imaydon va Chinnixona nomi bilan shuhrat topdi. Ulug'bek Samarqandda o'ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug'bek bilan bir qatorda o'z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug'bekning shogirdi o'z davrining «Ptolemey»i nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi (Alouddin ibn Muhammad) va boshqalar yelkama-elka turib ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Rasadxonadagi tadqiqotlar natijasida 1018 ta yulduzning o'rni va holati (koordinatlari) aniqlanib, astronomik jadvali tuzildi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning joylashuvi Samarqand kenglik koordinatlari bilan belgilab chiqildi. Matematika fani sohasida Ulug'bek maktabi yaratgan – o'nlik darajali algebra tenglama yechilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlangan.

Shu jihatdan buyuk olimning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar 1437-yil yozib tugatilgan bo'lsa-da, olim umrining oxiriga qadar unga yangi natijalarni kiritib borgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, unda keng muqaddima va 1018 ta yulduzlarning o'rni berilgan. Undan tashqari Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asari va musiqaga bag'ishlangan beshta risolasi ham mavjuddir. Ulug'bekning o'ta salohiyatli olim bo'lganligini uning zamondoshlari G'iyosiddin Jamshid, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar ham e'tirof etishgan. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy (1441–1501) bu xususda:

Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek,

deb unga o'z ta'rifini byergan edi.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi jahon ilm-fan olamida hamisha yuqori baholanganligini, hozirda ham uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqa farq qilinganligini 1996-yil YuNESKOning bosh kotibi Federiko Mayor Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimov bilan bo'lgan muloqotda faxr bilan ta'kidlagan. Ulug'bek davridagi madaniy markaz keyinchalik «Ulug'bek akademiyasi» nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Bolter (1694–1778) tomonidan



e'tirof etilgan edi. Ajdodlarimiz tarixida 1004-yilda tuzilgan Ma'mun akademiyasidan so'ng, Ulug'bek akademiyasi O'rta Osiyo tarixida ikkinchi akademiya sifatida yuzaga keldi.

Mirzo Ulug'bekning vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonga, jumladan uning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) (1469–1506) va ayniqsa buyuk shoir va mutafakkir, g'azal mulking sultoni Mir Alisher Navoiyning (1441–1501) roli nihoyatda beqiyos bo'ldi. Ma'rifatli hukmdor bo'lmish Sulton Husayn (Boyqaro) butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylanadi. Uning o'zi «Husayniy» taxallusi ostida g'azallar yozgan. Bizning kunlarga ha uning she'riy «Devon»i va nasriy «Risola» asarlari yetib kelgan. Ta'kidlash joizki, Sulton Husayn (Boyqaro) hayrixohligi va homiyligi madaniy yuksalishga katta turtki bo'lgan.

Buyuk mutaffakir va davlat arbobi, o'zbek adabiyoti asoschisi Alisher Navoiy 1441-yili Hirotida taniqli barlos bahodiri G'iyosiddin xonadonida dunyoga kelgan. U yoshligidanoq nihoyatda zakovatli va zehni bola bo'lgan. Uning besh yoshida yozgan g'azaliga taniqli o'zbek shoiri Lutfiy o'z vaqtida katta baho byergan edi. Yoshligidanoq u temuriy shahzoda Sulton Husayn bilan do'st bo'lib, keyinchalik ular Xuroson hokimi Abulqosim Bobur (1451–1457) xizmatida birga bo'lishgan. Husaynning xizmat davrida Alisher Navoiy Mashhad va Hirot madrasalarida tahsil ko'radi. Keyinchalik Movarounnahr hokimi Sulton Abu Said zayiqi bilan Samarqandga kyetishga majbur bo'lib, u yerda ikki yilcha turib, o'z bilimini yanada takomillashtiradi. 1469-yili Xuroson taxti Sulton Husaynga tekkandan so'ng, uning taklifi bilan Alisher Navoiy Hirotga kelib, avval muhrdorlik so'ngra vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining vazirlik lavozimini egallagan vaqtida (1472–1476) mamlakatda imkon boricha osoyishtalik va adolat o'rnatishga harakat qiladi. Uning xatti-harakatlari natijasida shaharlar yuksaldi, suv chiqarilib, ko'pgina yerlar obod qilindi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yanada rivojlandi. Navoiy ilm-fan, ma'rifat va madaniyat ahliga shaxsan o'zi homiylilik ko'rsatdi. El-yurt farovonligini o'ylagan Navoiy o'z daromadlarining aksariyat qismini xayriya ishlariga sarflaydi. Shaxsan uning mablag'lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 9 ta hammom va boshqalar qurildi. Shuningdek, Navoiy butun Xurosonda 12 tadan ziyod

ahamiyatli bo'lgan va ta'mirlanishga muhtoj masjid, minora, rabot va boshqalarni ta'mir etib o'z holiga qaytaradi. Alisher Navoiy homiyligi ostida Sharq miniatyurasi maktabining etuk namoyandasi «Sharq Ramoli» nomini olgan Kamoliddin Behzod, taniqli tabiblar Abdulhay Muniy, Darvish Ali, xattotlardan – Sulton Ali Mashhadiy, musiqachilardan – Husayn Uddiy, shoir va tarixchilardan – Sohib Doro, Muhammad Nizomiy, Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Husayn Boiz Koshifiy, Mirxond, Zayniddin Bosifiy, Muiniddin Muhammad Isfizoriy va boshqalar yetishib chiqishdi. Alisher Navoiy ilk bora o'zga shoirlardan farqli ravishda turkiy tilda 1483–1485-yillarda beshta dostonidan iborat «Xamsa» asarini yozdi.

Tayanch so'zlar

Amir, dargoh, devon, vazir, ulus, dorug'a, qutvol, arzbegi, tavochi, Chig'atoy ulusi, xon, Xuroson, Movarounnahr, saltanat, tuzuklar, tumman, cherik, javong'or, barong'or, sulton, sarbador, raiyat, sipoh, Mo'g'uliston.

Savol va topshiriqlar

1. Chig'atoy ulusida XIV asrning birinchi yarmida kechgan jarayonlar hamda uning inqirozi sabablarini qayd eting.
2. Movarounnahrda kuchli va markazlashgan davlat barpo etishda Amir Temurning tarixiy xizmatlarini ko'rsatib bering.
3. Amir Temur harbiy san'ati xususida nimalarni bilasiz?
4. «Temur tuzuklari» tarixshunosligini gapirib bering.
5. «Kuch adolatda» – shiorini izohlang.
6. Amir Temur saltanati to'g'risidagi qaysi tarixiy manbalarni bilasiz?
7. «Temur tuzuklari» – tarixiy manba sifatida deganda nimani tushunasiz?
8. Klavixo kundaligida Amir Temur davlati qanday tavsiflangan?
9. Amir Temur davlati xalqaro aloqalarini gapirib bering.
10. Istiqlo' yillarida Amir Temurga ko'rsatilgan hurmat va e'tibor nimalarda o'z ifodasini topgan?

7-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: «O'zbekiston», 1996.
2. Abduraimov M. Temur va To'xtamish. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2000.
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.

4. Ahmedov A. Ulug'bek. – Toshkent, 1994.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: «Sharq», 1997.
6. O'zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida – Toshkent, 2005.
7. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. Arab tilidan tarjima, kirish so'zi va izohlar muallifi Ubaydulla Uvatov. – Toshkent: «Mehnat», 1992.
8. Abdurahmonov A. Ulug'bek akademiyasi. – Toshkent, 1993.
- Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. – Toshkent «Fan», 1996.
9. Sagdullayev A. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.
10. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: «Sharq», 1996.
11. Temur tuzuklari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2011.
12. Amir Temur o'g'itlari. – Toshkent: «Navro'z», 1992.
13. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: «Sharq», 1997.
14. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla as-sa'dayn va majma al-bahrayn. – Toshkent: «O'zbekiston», 2008.
15. O'ljayeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: «Fan», 2005.
16. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.

8-mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib kyetishi, uning sabablari va oqibatlari.

Reja:

1. Shayboniylar davlati. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Ashtarxoniylar sulolasi davrida O'rta Osiyo.
3. Buxoro amirligi. Mang'itlar sulolasi.
4. Qo'qon xonligi. Minglar sulolasi.
5. Xiva xonligi. Inoqlar va qo'ng'irotlar.

1. Shayboniylar davlati

Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrning boshi – XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid ko'pdan ko'p yozma manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Ular avvalo, mahalliy tarixnavislik maktablari vakillarining asarlari, qolaversa, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchilar, sayyohlar, zobitlarning ma'lumotlaridan iborat. Ushbu manbalar yuqoridagi davr tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik – madaniy hayot hamda siyosiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ular orasida quyidagilarni alohida sanab o'tish maqsadga muvofiqdir: Boburning «Boburnoma», Muhammad Solihning «Shayboniy-noma», Mulla Shodining «Fathnoma», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnoma Buxoro», Zayniddin Bosifiyning «Badoye ul-vaqoe», Hofiz Tanish Buxoroniyning «Abdullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Xoja Samandar Termiziyning «Dastur ul-muluk», Mirza Badi devonning «Majma al-arkam», Mir Muhammad Salimning «Silsilat as-salotin», Abdurahmon Davlatning «Tarixi Abulfayzxoniy», Mulla Bafo Karmanagiy va Olimbekning «Tuhfat al-xoniy», Abulg'oziyning «Shajarai turk», Niyozmuhammad Xo'qandiyning «Tarixi Shohruhiy», Muhammad Hakimxonning «Muntaxib at-tavorix», Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol», Ahmad Donishning «Mang'it amirlari tarixi» kabi asarlardir.

XVI–XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid manbalar ma'lumotlarini ilmiy muomalaga kiritishda ko'plab Sharqshunos, tarixchi va huquqshunos olimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu yo'nalishda

B. Abdullayev, B. Ahmedov, S. Azimjonova, M. Abduraimov, Y. G'ulomov, U. Karimov, R. Muqminova, A. Muhammadjonov, R. Nabiyev, A. O'rinboyev, A. Ziyo, H. Bobobekov, Sh. Vohidov, R. Xoliqova, M. Yo'ldoshev, H. Boboyev, A. Saidov, Z. Muqimov, I. Saidahmedovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, XIV asr boshlariga kelib, 1236-yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O'rda davlati ikki qismga bo'linib ketadi va uning Sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topadi. Ayrim tarixiy manbalarda bu hududlar «O'zbeklar mamlakati» deb ham eslatiladi. XV asrning o'rtalariga kelib Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Movarounnahrda o'zaro kurashlardan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olishga erishdi.

Manbalarning (Mulla Shodi, «Fathnoma») ma'lumot berishicha 864 hijriy (1459–1460) yilda Abulxayrxonning katta o'g'li Shohbudog' vafot etadi. Undan qolgan sakkiz yoshli Muhammad va besh yoshli Mahmud uyg'ur Boyshayx ko'kaldosh tarbiyasiga beriladi. Shohbudog'ning katta o'g'li Muhammad Shohbaxt keyinchalik Shayboniylar davlatiga asos soladi. Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon iste'dodli shoir va sarkarda, zamonasining o'qimishli va bilimdon kishilaridan bo'lgan.

XV asrning so'nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlar avj olgan edi. Ko'pgina mulklar va viloyatlar, xususan Farg'ona, Hisor, Samarqand bilan Buxoro, Toshkent, Xorazm o'zlarini mustaqil hisoblab, ko'p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borishardi. Shuning uchun ham Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Shayboniyxon esa temuriylar hukmronligiga barham berish uchun bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi.

Temuriylar o'rtasidagi sulolaviy urushlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta rol o'ynadilar. 1485-yilda Toshkent hokimiyatini mashhur diniy arbob Xoja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo'lsa, uning vafotidan so'ng o'g'li Mahmudxon (1487–1503) Toshkent taxtini egallaydi.

Mahmudxon temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqini umid qilgan bo'lsa-da, niyatiga yeta olmadi. 1494-yilda Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo vafot etgach, temuriylar o'rtasidagi nizolar yanada kuchayib ketdi. Bundan foydalangan Shayboniyxon 1497 va 1499-yillarda Samarqandga hujum uyushtirib, uni ikki marta qamal qildi.

1500-yilda Andijon hokimi Bobur Mirzo Samarqandga yurish qildi. Ammo, Shayboniyxon undan oldinroq harakat qilib Samarqandni egalladi. Boburning Samarqandni egallash borasidagi harakatlari zo'ra ketdi. Bunga qadar Shayboniyxon Buxoroni ham qo'lga kiritgan edi.

Shundan so'ng Shayboniyxon 1503-yil bahorida asosiy qo'shinlari bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib Toshkent viloyatidagi Shohruhiya va boshqa ko'pgina qal'alarni bosib olishga erishadi. Farg'onadagi Arxian qal'asi yonida bo'lgan shafqatsiz jangda Mahmudxon halok bo'ladi va Toshkentda qoldirilgan uning o'g'li Muhammad Sulton Shayboniyxon qo'shinlari yaqinlashishi bilan Toshkentdan qochib ketadi. Toshkentga mustahkam o'rtnashib olgan Shayboniyxon qo'shinlarining katta qismi uning ukasi Mahmud Sulton boshchiligida Xorazmga yurish boshladilar. Kat va Buldumsoz qal'alarini egallagan Mahmud Sulton bu hududlardagi bir qism aholini majburan Buxoroga ko'chirishga buyruq beradi. 1505-yilda o'n oylik qamaldan so'ng shayboniylar Urganch shahrini egallashadi.

Shayboniyxonning o'zi katta qo'shni bilan 1504-yilda Hisor viloyatiga yurish qildi. Buning natijasida Hisor viloyati barcha tog'li tumanlari bilan birga Shayboniyxon ixtiyoriga o'tdi va Qunduz, Tolqon, Badaxshon hamda Balx ishg'ol etildi.

Shayboniyxonning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi raqiblaridan biri Dashti Qipchoqdagi qozoq sultonlari edi. XVI asrning boshlarida qozoq sultonlari Shayboniyxonning Janubga qilgan harbiy yurishlaridan foydalanib Movarounnahrda bir necha marta bosqinchilik



Muhammad Shayboniyxon
(1500–1510)

urushlari uyushtirishadi, Buxoro va Samarqandni talon-toroj qilib, aholini asir qilib olib kyetishadi. 1509-yilda Shayboniyxon qozoq sultonlari Jonish Sulton, Burunduqxon va Qosim Sultonlarga qattiq zarbalar berib, buning natijasida Sig'noq, Yassi, Savron shaharlarini qo'lga kiritadi hamda Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ta'mirlashga buyruq beradi.

Shayboniyxon 1509-yilning yozida Marvni egallashga muvaffaq bo'ldi. Uning bu davrga qadar bo'lgan yurishlari natijasida Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning katta qismi Shayboniyxlar qo'l ostida birlashtirildi. Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning kichik viloyatlariga yurish qiladi hamda Mashhad va Tus shaharlarini egallab, ulardagi muqaddas joylarni ziyorat qilib, ba'zi me'moriy inshootlarni ta'mirlashga buyruq beradi. Mashhad va Tus shaharlarini egallagan Shayboniyxon Erondagi Shoh Ismoil asos solgan Safaviylar davlatiga xavf soladi.

1510-yilda Erondan orqaga qaytgan Shayboniyxon uning izidan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan jangga kirishdi. Marv yaqinida bo'lib o'tgan bu jangda Shayboniyxonning kam sonli qo'shinlari¹ mag'lubiyatga uchradi hamda zamondoshlari tomonidan «Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon» deb ulug'langan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bu jangda halok bo'ldi.

Marv yaqinidagi g'alabadan so'ng Shoh Ismoil Shayboniyxlarga qarshi kurashda temuriy shahzoda Zahiriddin Bobur bilan ittifoqchilikni taklif etdi. Undan tashqari, Shayboniyxon o'limidan keyinroq o'zbek sultonlari orasida boshlangan kelishmovchiliklar davlatni zaiflashuviga olib keldi hamda shayboniyxlar keyingi janglarda mag'lubiyatga uchray boshladilar. Natijada, Xuroson va Xorazm qo'ldan boy berildi. Bobur 1511-yilda Shoh Ismoil qo'shinlari yordamida shayboniyxlar qo'l ostidagi Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi erlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo'lga kiritdi. Movarounnahrni butunlay qo'lga kiritish niyatida bo'lgan Boburga Safaviylarning tajribali sarkardasi Najmiddan Soniy boshchiligidagi o'n ikki ming qo'shini kelib qo'shildi.

¹ Ibn Ro'zbexonning ma'lumotlariga ko'ra, Shayboniyxon 1509-yilda qo'shinlarining asosiy qismini orqaga qaytarib yuborgan. Bu bilan u Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni saqlash hamda qozoq sultonlarining yangi bosqinlarini oldini olishni ko'zlagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning¹ talon-tarojlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) tufayli mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Bobur va eroniylarning birlashgan qo'shinlari bilan Shayboniyxlar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1512-yilning noyabrida G'ijduvon yaqinida bo'lib o'tadi. Mazkur jangda Shayboniyxonning jiyani, Sulton Mahmudning o'g'li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo'shnini tor-mor etildi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Movarounnahrda butunlay chiqib ketdi va Kobul hamda uning atroflarida o'z hukmronligini to'la mustahkamladi. 1526-yilning boshida Bobur Hindistonga yurish boshladi va u yerdagi Ibrohim Lo'diyning qo'shinlarini to'la tor-mor keltirib, yangi saltanat – Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Hindistonda 112 yil (1526–1858) hukmronlik qildi.

Muhammad Shayboniyxonning vafotidan so'ng davlatdagi markaziy hokimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniyxondan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysunishdi. Shayboniyxon vafotidan so'ng uning jiyani Sulton Mahmudning o'g'li Kuchkunchixon (1510–1530) taxtga o'tirdi. Aynan Kuchkunchixon davrida sultonlarning mustaqilligi kuchaya borib, ular orasida Buxoro mulki hukmdori Ubaydulla Sultonning obro'yi ancha buland edi. Kuchkunchixonidan keyingi hukmdor Abu Sa'id (1530–1533)ning qisqa hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o'rtasidagi nizolar yanada kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalana boshladi.

O'zaro urushlarga birmuncha barham berishga erishgan Ubaydulla Sulton 1512-yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1533-yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining oliy hukmdori etib saylanadi. Ubaydullaxon paytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chiradi. O'sha paytda Samarqand hukmdori bo'lgan Kuchkunchixonning o'g'li Abdulla Sulton ham Ubaydullaxon hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi.

XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zodagonlar va sulolalar o'rtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun o'zaro ku-

¹ Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan turk ko'chmanchilari XV asrning 2-yarmida "qizilboshlilar" deb atalgan. Bu harbiy ko'chmanchilar shia inomlari sharafiga boshlariga 12 qizil chiziqli salla o'rab yurishgan.

rashlar yana avj oldi. Hukmdor xonadoni vakillari o'rtasida ayniqsa Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchaydi. Bu davrda Samarqandda Kuchkunchixonning uchinchi o'g'li Abdullatifxon (1541–1552) Buxoroda esa Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540–1550) hukmronlik qilib har ikkalasi ham o'zini rasmiy xon deb hisoblar edi.

O'zaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning nabirasi Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan so'ng amaldagi hokimiyat Baroqxon (Navro'z Ahmadxon, 1551–1556) qo'liga o'tdi. Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlar hukmdori bo'lgan Navro'z Ahmadxon Buxoroda o'z hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir necha marta yurishlar qilib turdi.

1556-yilda Navro'z Ahmadxon vafot etgach Balx hukmdori Pirmuhammadxon (1556–1561) Buxoro taxtiga o'tiradi. Shunga qaramasdan 1556-yilda Axsi va Andijon mulki hukmdorlari Buxoroni egalashga harakat qilib ko'rishdi. Ammo, o'sha paytda juda katta nufuzga ega bo'lgan jo'ybor shayxi Xoja Islom tomonidan qo'llab-quvvatlangan shayboniy Iskandar Sultonning o'g'li Abdulla Sulton bunga yo'l qo'ymadi. Pirmuhammadxon Balxda qolib taxtni boshqarayotgan, uning nomiga xutba o'qitilib, tangalar zarb etilayotgan bo'lsa-da, 1557-yildan Buxoroda Abdulla Sulton hukmronlik qila boshlaydi.

Mustaqil mulklar va yirik zodagonlarning o'zaro urushlaridan ularning o'zlariga qarshi foydalangan Abdullaxon II asta-sekinlik bilan Movarounnahr va Xuroson yerlarini o'z hokimiyati ostiga birlashtira boshladi. Uning bu harakatlarini jo'ybor shayxlari Xoja Islom hamda uning o'g'li Xoja Sa'idlar faol qo'llab-quvvatlab turdilar. 1561-yilda Abdullaxon II Pirmuxammad bilan aloqalarni uzdi va otasi Iskandar Sultonni (1561–1583) xon deb e'lon qildi. Iskandar Sulton nomigagina xon bo'lib, mamlakatni boshqaruv ishlariga deyarli aralashmas, hokimiyat amalda Abdullaxon II qo'lida edi. 1583-yilda Iskandar Sulton vafot etgach Abdullaxon II rasmiy xon deb e'lon etildi.

Shayboniy hukmdorlari orasida Abdullaxon II o'zining qat'iyatligi, yaxshi siyosatchi va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turadi. U markazlashgan shayboniy davlatini tiklash maqsadida bebosh va o'zlarini mustaqil hisoblaydigan amirlar, sultonlar, mulklar hukmdorlari bilan tinimsiz kurash olib borishga majbur bo'ldi. Tinimsiz urushlar natijasida 1573-yilda Farg'ona, 1574-yilda Shahrisabz Qarshi, Hisor

viloyatlari, 1578-yilda Samarqand, 1582-yilda Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron, 1583-yilda Balx, 1584-yilda Badaxshon, 1588-yilda Hirot va uning atroflari, 1595-yilda Xorazm Abdullaxon II hokimiyati ostiga birlashtirildi. Tinimsiz urushlardan charchagan joylardagi mahalliy aholi ko'p hollarda Abdullaxon II ning markazlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlar edi.

Abdullaxon II uzoq yillik olib borilgan urushlardan so'ng butun Movarounnahr, Hisor, Xurosonning katta qismi, Xorazm va Turkistonni qo'lga kiritib Shayboniyxon tuzgan davlatni qayta tiklashga erishdi. Ammo, hududiy jihatdan juda katta bo'lgan bu davlat siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Bu davlatning kuch-qudrati hokimiyat tepasida turgan hukmdorning shaxsiy fazilatlariga suyanar hamda unda mustahkam davlatchilik tizimi yaratilmagan edi. Aynan shuning uchun ham 1598-yilda Abdullaxon II vafot etgach, oradan qisqa muddat o'tib qiyinchiliklar va jang-u jadallar natijasida tiklangan bu davlat inqirozga yuz tutdi, hamda hokimiyat tepasiga boshqa sulola vakillari keldilar.

XIV asrning boshlarida Movarounnahrning Muhammad Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi bu hududlarning xon urug'i vakillari bo'lgan o'zbek sultonlari tomonidan bo'lib olinishiga sabab bo'ldi. Ayrim hollarda Shayboniyxon ba'zi qabila boshliqlariga ma'lum mulklarni ham byergan. XVI asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro shayboniy davlatining ma'muriy-siyosiy markazi sifatida e'tirof etilganidan so'ng qonun kuchiga ega bo'lgan barcha hujjatlar Buxorodan chiqarilgan. Davlatdagi murakkab boshqaruv apparatini tashkil etgan ko'p sonli amaldorlar guruhi ham aynan Buxoroda markazlashgan.

Ma'muriy jihatdan Buxoro xonligi viloyatlar va tumanlarga bo'lingan. Mirza Devonning ma'lumot berishicha, Buxoro xonligi boshqaruvida o'ziga xos an'ana va qonunlar o'rnatilgan bo'lib, joylardagi yuqori mansabga ega bo'lgan zodagonlar davlat boshlig'i tomonidan hokimlikka ko'tarilgan.

Yirik hududlarda tashkil topgan shayboniy davlati xon tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligining somoniylardan temuriylargacha bo'lgan davrida qaror topgan davlat boshqaruvi qonun-qoidalari hamda xususiyatlari bilan birgalikda ko'chmanchilarga xos an'analar ham mavjud bo'lgan. Xon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, u o'z atrofida viloyat, tuman hokimlari hamda nufuzli qabila boshliqlarini birlashtirganidan so'ng mustaqil si-

yo'sat olib borgan. Ammo, ayrim viloyat hokimlari mavqei kuchayib markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan holatlar ham bo'lib turgan. Bunday holat ayniqsa Abdullaxon II davrida kuchaygan bo'lib, u bo'ysunmas hokimlarning barchasini zo'rlik bilan bo'ysundirgan edi.

Shayboniylar davlati boshqaruvida islomiy odat va shariat qonun-qoidalariga qattiq rioya qilingan. Davlatdagi oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladan eng ulug' yoshli shaxsga o'tish tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlanib qolgan bo'lsada, XVI asrning 40-yillaridan boshlab vorisiylikda otadan bolaga o'tish an'anasi kuchayadi hamda Abdullaxon II davrida aniq bir shaklga tushadi. Ammo, bu holat uzoq davom etmadi.

Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv hamda viloyatlar va tumanlardagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rinda turar edi. Tabiiyki, xon ular yordamida hamda bevosita ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan.

Ilgarigi sulolalar davrida bo'lgani kabi shayboniylar davrida ham eng oliy davlat idorasi – dargoh hisoblangan. Dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan hamda davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Shayboniylar davlat boshqaruvidagi muhim vazifalardan biri naqib hisoblangan. Naqiblik mansabi xon huzurida juda katta vakolatlarga ega bo'lib, naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Manbalarga ko'ra, rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat beradi. Harbiy yurishlarni uyushtirish, urushlarni davom ettirish yoki to'xtatish, raqib tomonning harbiy-strategik tomonlarini o'rganish kabi vazifalar ham naqibga yuklatilgan hamda xon uning maslahatlari bilan qaror qabul qilgan.

Shayboniylar davlatidagi muhim mansablardan yana biri otaliqdir. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan. Mazkur lavozim egasi shahzodaga otaliq qilib, otasining o'rnini bosadigan darajada tarbiya byergan. Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Davlat ishlarida ko'kaldosh (aynan ma'nosi – bir onadan sut emgan) mansabi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'kaldoshlar

davlat bilan do'stona va dushmanlik munosabatida bo'lganlar haqida ma'lumotlar to'plagan. Shuning uchun ham ko'kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, bu amaldagi kishilarning vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga fuqaroning munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'lgan. Ko'kaldoshlar yuqori mavqega ega bo'lib, badavlat kishilar bo'lgan. Toshkent va Huzoroda ko'kaldoshlar o'z mablag'lari hisobidan madrasa qurdirgani ma'lum.

Xon yasovuli lavozimidagi shaxslar sulola ichki munosabatlariga oid bo'ladigan tadbirlarni boshqarib turishgan. Chunonchi, oliy hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatilgan tartib asosida yo'lga qo'yish, xonning shahzodalarni qabul qilishi, ularning arzlari, iltimoslarini xonga yetkazish kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

Shayboniylar xonlari hayotida ovchilik muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham xon huzuridagi qushbegi yoki amiri shikor lavozimi ma'suliyatli hisoblangan. Amiri shikorning vazifasi xon va ulonlarning ovlarini uyushtirib turish bo'lgan.

Davlat dargohidagi xavfsizlikni ta'minlash, ichki tartib-qoidalar, keldi-kettidan xabardorlik eshikog'aboshi lavozimidagi shaxs zimmasida bo'lgan. Ushbu mansab chap eshikog'aboshi, o'ng eshikog'aboshi, eshikog'aboshi kabi lavozimlarga taqsilanib, bu xizmat vakillari urush paytlarida oliy hukmdorning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borishgan.

Umuman olganda, A. Ziyo tadqiqotlariga ko'ra, o'sha zamonlarga xos ravishda davlatning biror-bir xizmat idorasi, xizmat turi namoyandalari urush paytlarida o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri vazifalariga qo'shimcha ravishda harbiy faoliyat bilan ham shug'ullanib kelishgan. Bu holatni miroxo'r (oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta'minoti kabilarga mas'ul), shig'ovul (chet el elchilarini qabul qilish bo'yicha maxsus xizmat boshlig'i), qushbegi, chuhraboshi (maxsus harbiy qism boshlig'i), bakovul, dasturxonchi kabi xizmatlar faoliyati orqali ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ular o'z idoraviy vazifalaridan tashqari harbiy yumushlarni ham bajarib kelishgan.

Shayboniylar davlati boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, shayxlar va xojalarning ham mavqei katta bo'lgan. Eng kuchli hukmdorlar ham ulamolar bilan hisoblashishga majbur bo'lishgan. Xususan, XVI asrning o'rtalaridan boshlab jo'ybor shayxlar

ri oliy hukmdor taqdirini hal qilish darajasidagi mavqega ko'tarilishadi. Qishloqlarda katta-katta yerlarga, shaharlarda esa yirik ko'chmas mulklarga ega bo'lgan shayxlar yirik zodagonlar va amaldorlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishgan. Shayx-ul-islom ham jo'ybor shayxlari xonadonidan saylangan. Din peshvolari orasida shayx ul-islom, sadr, qozi kalon, multi kabi diniy mansablarning mavqei ancha yuqori bo'lgan.

Yer egaligi munosabatlari. Barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi shayboniylar davlatida ham hokimiyat masalasi, qo'shinlarning tuzilishi masalalarida odat huquqlari nisbatan ustunroq bo'lgan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, bu davrda Buxoro xonligida yer huquqi masalalarida davlatga qarashli yerlar, ushr erlari, xurri xoris yerlar, vaqf yerlari, xon va amaldorlarga tegishli yerlar, ko'chmanchi qabila va urug'larga tegishli erlar, suyurg'ol yerlari, tanho erlar hamda tarxonlik yerlari mavjud bo'lgan.

Iqto' atamasi XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab garchi muomaladan chiqib, o'z o'rnini turkiycha «suyurg'ol» atamasiga bo'shatib byergan bo'lsa-da, shayboniylar davri ayrim manbalari va hujjatlarida «iqto'» atamasini uchratish mumkin. Suyurg'ol shayboniylar davrida ham keng qo'llanilgan bo'lib, shahzodalar, yirik zodagonlar va nufuzli din peshvolariga ma'lum shart va imtiyozlar asosida berilgan yer mulki bo'lib, u nasldan naslga o'tgan. Suyurg'ol egasi davlatga to'lanadigan soliqlardan ozod qilingan bo'lib, o'z suyurg'olidan oladigan daromaddan o'z ixtiyoricha foydalangan. Bunday imtiyozli suyurg'ol «darubast suyurg'ol» deb atalgan.

Davlat yerlari dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga ijarasifatida berilgan. Darubast sifatida mulk va yer berish, Abdullaxon II davrida ayniqsa rivojlanib, u o'zining pirlari Xoja Islom va uning avlodlaridan Xoja Saa'dga hamda boshqa Jo'ybor xojalariga butun-butun bosib olingan viloyatlarni darubast sifatida hadya qilgan. Jo'ybor xojalarining Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda katta yer maydonlari bo'lib, bu mulklar meros tariqasida avloddan avlodga o'tgan va barcha soliqlardan ozod etilgan.

Shayboniylar davrida yer egaligining quyidagi asosiy turlari mavjud edi:

1. Mulki sultoniy yoki mulki mamlaka – davlatga qarashli yerlar bo'lib, bu yerlarni sotish, hadya etish, vaqfga berish faqat xonning ixtiyorida bo'lgan.

2. Mulki xolis yoki mulki xurri xolis-mu'lum shaxslarga tegishli bo'lib, hukmdor tomonidan davlat oldidagi xizmatlari uchun berilgan

shaxsiy yerlar (suyurg'ol, iqto', tarxon, tiul va boshq.) Bunday yerlar va ularning egalari daftardor tomonidan maxsus daftarga qayd etib borilgan.

3. Baqf yerlari-hukmdor yoki boshqa shahslar tomonidan diniy mansabalariga mulk qilib berilgan yerlar va sug'orish inshootlari. Bunday yerlardan kelgan daromadning asosiy qismi mutavallilar, qozilar va musulmon dindorlariga tushgan.

4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.

Shayboniylar davrida dehqonchilikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, avvalo, sug'orish tizimini tartibga keltirish uchun qator tadbirlar amalga oshirilgan. Shayboniixon davrida qarovsiz va lalmi yerlarni davlat mulkiga kiritib, bunday yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish, dehqonchilik qilishni xohlaganlarga har tomonlama yordam berish, ma'lum muddat soliqlardan ozod etish, yerdan olinadigan soliqlarni yig'ishdan mahalliy amaldorlarning o'z mansablarini suiiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ham tegishli tadbirlar amalga oshirilgan.

Soliq tizimi. Buxoro xonligi devonxonasida moliyaviy va soliq ishlari hisobi bo'yicha maxsus daftarlar mavjud bo'lib, ularda turli soliqlar, ijara to'lovlari, ma'lum mahsulotlar savdosidan tushgan daromadlar qayd etib borilgan. Ammo, ko'pgina sabablarga ko'ra, jumladan, xon xazinasining davlat xazinasidan ajratilmaganligi, ko'pchilik amaldorlarning o'zboshimchaligi, to'plangan o'lponlarni ijaraga berish, aholidan olinadigan soliqlarning to'satdan oshib kyetishi kabilar soliq tizimidagi tartibsizliklarni keltirib chiqarar edi. Bunday holatda o'lpon to'lovlarining qattiq o'rnatilgan me'yorlari mavjud bo'lmasdan, yagona umumdavlat soliq tizimi ko'pincha buzilib turgan.

Bu davrda soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyat) deb atalgan hamda ulardan turli soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan.

Avvalgi davrda bo'lgani kabi, shayboniylar davrida ham yerdan olinadigan soliq xiroj (mol) deb atalib, hosilning ma'tum qismi undirilgan. XVI–XVIII asr yozma manbalarda bu atama «mol», «moli-jihot», «mol va jihot», ko'proq «xiroj» sifatida tilga olinadi. Bu to'lovning miqdori sharoitga qarab 3/1, 4/1, 5/1, ayrim hollarda esa 2/1 qilib belgilangan. Mulki yerlaridan hosilning 10/1 miqdorida soliq undirilib u ushr deb atalgan. Xiroj asosan mahsulot sifatida undirilgan.

Shayboniylar davrida ijtimoiy tuzum

Oliy tabaqa	Harbiy-ma'muriy amaldorlar, viloyat hokimlari, qo'shin va qabila boshliqlar. Ular qo'lidagi mahalliy boshqaruv.
Umarolar	Xon va uning qarindoshlari, o'zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari (vaziri vuzaro)
Ulamolar	Yirik din arboblari, shayxlar, xojalar. Ham dunyoviy, ham diniy boshqaruvda ishtirok etganlar.
Fuzalo	Olimlar, shoirlar, san'atkorlar kabi ma'naviy-madaniy hayot namoyandasi bo'lgan tabaqalar.
Raiyat (fuqaro)	Do'kondorlar, hunarmandlar, dehqonlar va chorvadorlar, yollanib ishlovchi aholi yoki asosiy soliq to'lovchilar.
Qullar	Harbiy yurishlar paytida qo'lga tushirilgan asirlar. Ulardan saroyda, amaldorlar va ulamolar xo'jaligida foydalanilgan.

Xirojdan tashqari «doimiy», «qonuniy», va «favqulodda» kabi boj va o'lpon turlari mavjud bo'lib, ularning soni o'zaro urushlar va davlat markazlashuvi davrida yanada ko'paygan. Urush harakatlari davrida dehqonlar va hunarmandlardan olinadigan soliq «avarizot» deb atalib, u qisman pul bilan undirilgan.

Markaziy hokimiyat vakillari foydasiga ham maxsus soliqlar undirilgan. Misol uchun, dorug'alar foydasiga dorug'achi yoki dorug'alik degan soliq pul ko'rinishida to'langan. Afsuski, shayboniylar davrida pul ko'rinishida to'langan o'lpon va soliqlar haqida ma'lumotlar juda kam.

Bu davrda dehqonlar va shahar aholisi, ayniqsa hunarmandlar mehnat majburiyat (mardikor, qal'a, begor va boshq.)larini bajarishgan. Bu majburiyatlardan ozod etilganlar esa, ma'lum miqdorida pul to'laganlar. Mardikor – yirik boylarga qaram bo'lgan dehqonlar majburiyati bo'lib, sug'orish inshootlarini barpo etish, ta'mirlash hamda tozalash bilan bog'liq og'ir majburiyat bo'lgan. Bir necha yillab davom etadigan yangi kanallar qurilishida ming-minglab dehqonlar ishtirok etishgan. Oddiy aholiga shuningdek, qal'alar va shahar devorlarini tiklash va ta'mirlash majburiyati ham yuklatilgan bo'lib u, qal'a yoki xarji qal'a deb atalgan (Arain Buxoriy).

Shayboniylarning pul islohotlari. Shayboniylar davlatida turli vazndagi oltin, kumush, mis, mis va kumush aralashmasidagi tanga-chaqa-

lar muomalada bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikricha (E. A. Davidovich) oltin tangalar faqat Shayboniixon va Abdullaxon II davrlaridagina zarb etilgan. Bu davrda pul zarb etish hamda kumush va mis tangalarning muomalada bo'lishi bir-biri bilan bog'liq holda kechgan. Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, XVI asrdagi pul muomalasining asosini «tanga» «tangacha», «xoniy» deb atalgan kumush hamda «mis dinor» yoki «dinor» deb atalgan mis tangalar tashkil etgan. Eng kichik mis tangachalar «pul» yoki «qora pul» deb atalgan.

Muhammad Shayboniixon 1507-yilda Hirotni egallagach, bu yerdagi jon'e masjidida kengash chaqirib, pul islohoti haqidagi farmonini e'lon qiladi. Bu paytda Hirotdagi pul muomalasi chuqur inqirozga uchragan bo'lib, ushbu islohot Xurosondagi savdogar-zodagonlarni Shayboniixon tomoniga og'dirishi lozim edi. Yangi kumush tangachalarning vazni 5.2 g. bo'lib (ilgarigi temuriylar tangalari 4.8 g. bo'lgan) unga Shayboniixonning nomi va unvoni bitilgan. 1507-yilda bu islohot hali oxiriga yetmagan edi. 1510-yilda Shayboniixon vafot etgach, o'zaro urushlar va 1512–13-yillar qishi qattiq kelganligi markaziy Mavarounnahrda qimmatchilik va ocharchilikka olib keldi. Davlatdagi bu galgi islohot ancha og'ir va ko'p bosqichli bo'lib, bu safar umum-davlat miqyosidagi pul muomalasini bir me'yorga tushirish uchun o'n besh yil kerak bo'ldi. Faqat 1525-yilga kelib butun davlat bo'ylab bir xil tangalar zarb etish yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda har qanday shaxs o'zining metali yoki buyumlarini zarbxonaga eltib, belgilangan vazndagi kumush tangani erkin zarb ettirishi mumkin edi. Buning uchun xazinaga ma'lum miqdorda to'lov to'langan.

Shayboniylar o'tkazgan pul islohotlari orasida Abdullaxon II ning islohoti nisbatan muvaffaqiyatli bo'lib, bu islohot pul muomalasi inqiroziga barham berdi, kumushning davlat hududlaridan ko'plab chiqib kyetishini to'xtatdi, xususiy metalni yana zarbxonalarga jalb etdi. Ushbu islohot Abdullaxon II ichki siyosatining bir qismi bo'lib, tranzit, xalqaro va ichki shahar savdosining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Harbiy qurilish va boshqaruv. Shayboniylar davlatida, siyosatida, boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlari, qo'mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega edi. Barcha shayboniy hukmdorlari harbiy siyosatni Dashti Qipchoq o'zbeklarining an'analariga asoslanib olib borishgan hamda bu jarayonda zarur hollarda zudlik bilan to'planadigan ko'p sonli qo'shinlarga tayanishgan. Undan

tashqari shayboniylar ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, davlat sarhadlarini kengaytirish uchun qilinadigan yurishlarda qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog'lar, qo'shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga ham katta e'tibor qaratishgan.

Shayboniylar davlatida madaniy hayot. Islom dini. Avvalgi sulolalar davrida Movarounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlangan madaniy an'analar shayboniylar davrida ham davom etdi hamda boyitildi. Bu davrda madaniy hayotning ko'plab jabhalarida adabiyot, tarixnavislik, xattotlik, musiqa, epigrafika, me'morchilik, naqqoshlik, islom madaniyati kabilarda ayrim siyosiy hayotdagi inqiroz holatlariga qaramasdan rivojlanish jarayonlari kuzatiladi.

Adabiyotning turli janrlarida Muhammad Solih, Xoja Afsodiy, Bosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy, Nisoriy, Mushfiqiy, Naxliy, Mutrifiy kabilar barakali ijod qildilar. Bu davrdagi adabiyot namoyandalari Hindiston, Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Sharqiy Turkiston kabi qo'shni davlatlaridagi qalam ahli bilan ijodiy aloqada bo'ldilar.

Bu davrda hukmron sulola vakillari adabiyot rivojiga homiylik qilish bilan birga o'zlari ham ijod bilan shug'ullanishgan. Xususan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Do'st Muhammad Sulton (Navro'z Ahmadxonning o'g'li) kabilarning ayrim asarlari va g'azallari bizgacha saqlanib qolgan.

Bu davrda tarixnavislik sohasida ham ko'plab tarixiy asarlar yaratildi. Sulola asoschisi Shayboniyxon va uning vorislariga atab yozilgan Abdulloh Ibn Muhammad Ibn Ali Nasrullohiyning «Zubdat-al asar», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnoma Buxoro», Zayniddin Bosifiyning «Badoye ul vaqoe», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorixi go'zida», Nusratnoma» kabilar fikrimiz dalilidir.

Shayboniylar hukmdorlari me'morchilik sohasida ham qator ishlarni amalga oshirib, turli maqsadlarga mo'ljallangan qurilish ishlarini amalga oshirishgan. Me'morchilik inshootlari nafaqat hukmron sulola vakillari, balki xususiy mulkdorlar tomonidan ham bunyod etilgan. Misol uchun, Samarqanddagi Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said va Qulbobo Ko'kaldosh nomlari bilan bog'liq madrasalar, Samarqand yaqinidagi suv ayirg'ich, Buxoroda shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab,

Abdullaxon, Modarixon madrasalari, Toshkentdagi Baroqxon (hozirgi Xasti Imoni) va Ko'kaldosh madrasalari, Turkistonda Shayboniyxon masjidi, Karmanada Qosim Shayx masjidi, Balxda qal'a devorining ta'mirlanishi, Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari, Hirotda Ko'kaldosh madrasasi kabilar shular jumlasidandir.

Buxoro xonligidagi me'morchilik va shaharlar taraqqiyoti Abdullaxon II davrida ayniqsa yuksaldi. Hozirgi O'rta Osiyoning deyarli butun hududlarini o'z ichiga olgan davlatni barpo etish jarayonida Abdullaxon II juda ko'plab harbiy yurishlar olib borgan bo'lsa-da, mamlakatdagi iqtisodiyot, madaniyat, shaharlar taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratgan. Chunonchi, O'rta Osiyodagi XVI asrga oid me'morchilik obidalarining asosiy ko'pchilik qismi bu hukmdor davrida bunyod etilgan bo'lib, manbalarning ma'lumot berishicha, ularning soni 1000 dan oshadi.

Shayboniylar davri tarixiga xulosa qilib aytish mumkinki, bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda ko'plab ijobiy o'zgarishlar yuz berganligiga qaramasdan, o'rta asrlar tarixining boshqa davrlarida bo'lgani kabi, bu davrda ham o'zaro urushlar doimiy bo'lib turdi. Bu davrga kelib davlat boshqaruvida yana ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi an'analar ustunlik qila boshladi. Shunga qaramasdan bu davr O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ahamiyat ilm-fan va madaniyat, shaharsozlik hamda me'morchilik ravnaqi bilan izohlanadi.

2. Ashtarxoniylar sulolasi davrida O'rta Osiyo.

Siyosiy tarix. 1598-yilda Abdullaxon II vafot etgach taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tirdi. O'zaro urushlar natijasida u uzoq vaqt hokimiyatni boshqara olmay halok bo'ldi. Taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II o'tirib, u ham uzoq vaqt hukmronlik qila olmadi.

Abdullaxon II vafotidan keyin markaziy hokimiyatning inqirozi va mamlakatdagi tartibsizliklardan Buxoro xonligining ichki va tashqi raqiblari zudlik bilan foydalanishga urinishdi. Pirmuhammadxon bu raqiblar qurshovlarini bartaraf qilishga ojizlik qildi. Ana shunday sharoitda yangi sulola E. A. Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi.

Ashtarxoniylar chingiziylar avlodidan bo'lib, XV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxan (Hoji Tarxon)da hukmronlik qilish-

gan. XVI asr o'rtalarida Astraxan Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach, sulola hukmdori Yormuhammad Sulton o'z yaqinlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xukmdori Iskandar Sulton Yormuhammad hamda uning oila a'zolarini yaxshi kutib olib, ular bilan do'stona munosabatda bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay Yormuhammadning o'g'li Jonimuhammad (Jonibek Sulton) Iskandarxonning qizi Zuhrobegimga uylandi. Shu tariqa Yormuhammad va uning avlodlari Shayboniylar saroyida katta mavqega ega bo'la boshladilar. Jonibek Sulton va Zuhrobegimdan uch o'g'il – Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad tug'ildi. Baqti kelib Dinmuhammad Xurosondagi viloyatlarning biri Obivardda, Boqimuhammad esa Samarqandda hokim etib tayinlanadi.

Boshboshdoqliklar va o'zaro urushlarga chek qo'yish maqsadida 1601-yilda buxorolik bir guruh yirik zodagonlar Jonibek Sultonni Buxoro hukmdori taxtiga taklif etishadi. Jonibek Sulton katta o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechdi. Obivard hokimi Dinmuhammad esa Buxoroga kelishda qizilboshlilar bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ldi. Shundan so'ng Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li Boqimuhammad hokimiyatga taklif etildi. Bu paytda Samarqand hokimi bo'lgan Boqimuhammad Bog'i shamol atroflarida Pirmuhammad II qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib Buxoro taxtiga o'tirdi (1601–1605). Shu tariqa Mavorunnahrda tarixiy manbalarda Ashtarxoniylar (Astraxan yoki Hoji Tarxonlik hukmdorlar) yoki Joniylar (Jonibek sulton nomidan) deb nom olgan va bir yarim asr hokimiyat tepasida bo'lgan sulola hukmronligi davri boshlandi.

Ilk davrda pul muomalasidagi tangalar Jonibek Sulton nomidan zarb etilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyatni Boqimuhammad boshqardi. U mamlakatdagi tarqoqlikka barham berishga harakat qilib, avvalo Xorazmni mamlakatga qo'shib oldi. 1602-yilda Balxni qo'lga kiritib Boqimuhammadxon uni ukasi Valimuhammadga hadya qilib, Andxud, Shibirg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon va Hisorni ham Buxoroga bo'ysundirdi. Boqimuhammadxon mamlakat ichki ishlariga ham alohida e'tibor qaratib, davlat boshqaruvini tartibga solishga harakat qildi. 1605-yilda Boqimuhammadxon vafot etgach, taxtga uning ukasi, Balx hokimi Valimuhammad (1605–1611) o'tiradi.

Valimuhammadxon hukmronligi davrida ham Balx va Hirot uchun kurashlar davom etdi. Bu kurashlarda Balimuhammadxonning

qo'li baland kelgan bo'lsa-da, u 1607-yilda Eron shohi Abbos I bilan tush shartnomasi imzoladi. Buning natijasida Xuroson butunlay Safaviylar qo'lga o'tib ketdi. 1611-yilning oktabrida Samarqand atrofidagi Imomqulixon bilan bo'lgan to'qnashuvda Balimuhammadxon halok bo'ldi. Ashtarxoniylar taxtiga Boqimuhammadning o'g'li Imomqulixon (1611–1642) o'tiradi.

Bu davrga kelib mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaligi haddidan oshib, bu holat ayniqsa o'troq aholi turmush-tarziga salbiy ta'sir etardi. Imomqulixon o'zboshimcha hokimlar harakatini susaytirishga muvaffaq bo'ldi. Imomqulixon Xorazm va Xurosonni qayta qo'lga kiritishga olmagan bo'lsa-da, Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar, qalmiqlar va boshqa ko'plab ko'chmanchilarga qarshi kurash olib bordi.

Imomqulixon davrida xon hokimiyatining mavqei oshib, ichki vaziyat, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik yaxshilandi. Muhammad Yusuf (ibn Hoji Baqo) ning «Tarixi Muqumxoniy» asarida berilishicha, «Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo'riqchi bilan bozorlar-u mahallalarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy ahvolidan xabardor bo'lib turardi». Umrining ohirida ko'zi ojiz bo'lib qolgan Imomqulixon 1642-yilda Makkaga haj safariga jo'nab 1644-yilda Madinada vafot etadi.

Imomqulixonidan so'ng taxtga uning ukasi Nodirmuhammad (1642–1645) o'tirdi. Nodirmuhammad xon bo'lguniga qadar Balx hokimi bo'lib, uzoq vaqt taxtni boshqara olmadi. U hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatdagi ahvol tezda o'zgarib ketdi. Chunki, xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan zodagonlarga yaqinlasholmay, ular bilan til topisha olmadi. Bunday sharoitda oradan ko'p vaqt o'tmay vaziyat keskin o'zgardi. Saroydagi lavozimlardan ozod etilgan amaldorlarning noroziligi kuchayib turgan bir paytda, mamlakat hududlariga Shimoldan ko'chmanchilar hujumlari boshlandi. Nodirmuhammadxon ko'chmanchilarga qarshi kurashga o'g'li Abdulazizxon boshchiligidagi qo'shinni jo'natadi. Oliy hukmdordan norozi bo'lgan bir guruh amaldorlar 1645-yilning aprelida Uchtepa atrofidagi Yangisaroy degan joyda Nodirmuhammadning katta o'g'li Abdulaziz Sultonni

xon deb e'lon qiladilar. Bu paytda Qarshi dashtlarida ov qilib yurgan Nodirmuhammadxon bu xabarni eshitib Balxga qochadi.

Abdulazizxon hukmronligi davri (1645–1681) o'zaro kurashlar bilan boshlandi. Balxda o'rnashib olgan Nodirmuhammad qolgan o'g'illariga va yangi xondan norozi bo'lgan Buxoro amirlariga tayanib Abdulazizxon hokimiyatini tortib olishga urindi, ammo buning uddasidan chiqa olmadi. Shundan so'ng Nodirmuhammadxon hind hukmdori boburiy shahzoda Shoh Jahondan yordam so'radi. Bundan foydalangan boburiylar Balx va Badaxshonni egallab, bu hududlarda ikki yil hukmronlik qilishadi. Nodirmuhammad esa Eron shohi huzuriga qochib ketdi. 1647-yil oktabrda Abdulazizxon Balxga hujum qilib uni boburiylardan tortib oldi. Nodirmuhammad esa 1651-yilda haj safariga chiqib yo'lida vafot etdi.

Abdulazizxon davrida mamlakatda notinchliklar hukm surdi. Ayniqsa, Balxda hukmronlik qilayotgan Subhonquli Sulton bilan Abdulazizxon o'rtasidagi kurash keskinlashdi. Abdulazizxon Balxni Buxoroga bo'ysundirishga bir necha marta uringan (1652–1657) bo'lsa-da, Subhonquli Sultonni mag'lub eta olmadi.

1681-yilda Abdulazizxon taxtni ukasi Subhonquli Sultonga topshirib, o'zi haj safariga jo'naydi. Subhonqulixon (1681–1702) hukmronligi yillarida ham mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat o'zgarmadi. Yangi hukmdorning hokimiyat tepasiga kelishi Buxoro va Xiva munosabatlarini ham yumshatmadi.

Subhonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon (1702–1711) mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlikni tugatishga hamda markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdori bo'ldi. Uning Samarqand, Hisor, Termiz va Shahrisabzga qilgan yurishlari natijasiz tugagan bo'lsada, uzoq qamaldan so'ng Balxni egallashga muvaffaq bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishicha Ubaydullaxon Balxni egallagach, qo'shindagi otlar va tuyalar dehqonlar ekinlarini payxon qilmasliklari haqida buyruq beradi. Bu bilan u o'ziga soliq to'lovchi aholi manfaatini ko'zlagan va oddiy aholini o'ziga og'dirishga harakat qilgan.

Ubaydullaxon mustaqil amirlarning iqtisodiy qudratiga zarba berish, davlat xazinasini boyitish, hamda mamlakat moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida 1708-yilda pul islohotini o'tkazdi. Bu islohotga ko'ra, xazinada mavjud kumush tangalar eritilib, har biridan to'rtta kumush

tanga qayta zarb qilindi. Qiymati past bo'lgan yangi tangalar eski tangalar bilan bir xil muomalada bo'lishi e'lon qilindi. Ammo, zarb etilgan past qiymatli tangalar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopib qo'yildi. Natijada, aholining noroziligi kuchayib, Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon katta qiyinchilik bilan bastirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi ahvol yaxshilanmadi va 1711-yilda Ubaydullaxon fitnaning qurboni bo'ldi.

Ubaydullaxonning o'limidan so'ng mamlakatda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Alohida viloyatlarning harbiy-siyosiy qudrati orta borib Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx, Shahrisabz va Badaxshon hokimlari o'zlarini mutlaqo mustaqil hisoblashgan. Mana shunday sharoitda Buxoro taxtiga 16 yoshli Abulfayzxon (1711–1747) o'tkazildi. Ayrim manbalar Abulfayzxon taxtga o'tirgan paytdayoq Ubaydullaxonning siyosatini davom ettirishga harakat qilganligini tasdiqlasa-da, uning atrofidagi amirlar bu harakatlarga keskin qarshi chiqishdi. Har tomonlama mavqeiga ega bo'lgan amirlar Abulfayzxon o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar va oxir-oqibatda Abulfayzxon qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi.

Mamlakatdagi turli hukmdorlar o'rtasidagi siyosiy tarqoqlik avj olgan bir sharoitda mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Hakimbiy hokimiyatni egallashga harakat boshladi. Saroydagi otaliq mansabida bo'lgan Hakimbiyning qo'liga hokimiyat o'tishiga ko'pgina amirlar qarshi chiqdilar.

Buxoro xonligidagi parokandalik qo'shni Eron hududlarida Nodirshoh (1736–1747) asos solgan Afshoriylar davlati uchun ham nihoyatda qo'l keldi. O'z yerlarini kengaytirib Eron va Afg'onistonda o'z mavqeini mustahkamlab olgan Nodirshoh Buxoro xonligi hududlariga harakat qila boshladi. 1740-yilda Nodirshohning o'zi katta qo'shin bilan Buxoro xonligi ustiga yurish boshladi. Nodirshoh Chorjuy atroflaridan Amudaryoni kechib o'tgan paytida Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy uning huzuriga borib o'z xizmatini taklif qildi va Nodirshoh Rahimbiy mang'itni o'z xizmatiga oldi. Muhammad Rahimbiy 1740-yildan boshlab Eronga vassal bo'lgan Abulfayzxon saroyida katta mavqeiga ega bo'lib, 1747-yilda Abulfayzxoniga fitna uyushtirilib, o'ldirilguniga qadar va undan so'ng, oxirgi ashtarxoniyalar Abdulmo'min (1747–1751), Ubaydullaxon II (1751–1754) va Sherg'ozixon (1754–1756)lar davrida ham amaldagi hokimiyat Rahimbiy qo'lida edi. Mu-

hammad Rahimbiy 1756-yil dekabrda rasman Buxoro xoni deb eʼlon qilindi. Hokimiyat mangʻitlar sulolasi qoʻliga oʻtdi, shu davrdan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb atala boshlandi.

Davlat tizimi va maʼmuriy boshqaruv. Ashtarxoniylarning davlat tizimi va maʼmuriy boshqaruv oʻz tuzilishi hamda mazmun-mohiyatiga koʻra, Shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning maʼlumot berishicha XVII–XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Shuningdek, shayboniylar davrida boʻlgani kabi ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida oʻtroq turmush-tarzi anʼanalari bilan birga ayrim yarim koʻchmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan.

Bu davrda ham **xon** rasman oliy hokimiyat boshligʻi boʻlib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bogʻliq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbaga qoʻshib oʻqilardi. Ammo, amaldagi boshqaruvda koʻpgina ashtarxoniy hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega boʻlgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qoʻlida qoʻgʻirchoq edilar. Bu davrda markaziy davlat boshqaruv saroy amaldorlari qoʻlida toʻplangan boʻlsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida boʻlgan.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, yasovul, inoq, qurchi, harbiy qozi, harbiy mufti, eshik ogʻaboshi, mirzaboshi, saroy kutubxonasi boshligʻi, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud boʻlgani maʼlum. Shu bilan birga ularning ayrimlarida sifatiiy oʻzgarishlar yuz berganini ham taʼkidlash lozimdir.

A. Ziyo tadqiqotlariga koʻra, otaliqning vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bogʻliq boʻlsa, ashtarxoniylar davrida, ayniqsa Abdulazizxondan boshlab, otaliqning markazdagi mavqei kuchaya boshladi. Masalan, Abdulazizxon Buxoro taxtiga chiqqach poytaxtdagi otaliq vazifasini oʻsha paytda eng kuchli mavqega ega boʻlgan Yalangtoʻshbiyga taklif qilgan. Otaliqning mavqei Subqonqulixon davrida ham baland boʻlib, eng muhim harbiy ishlar otaliqqa yuklatilgan.

Ashtarxoniylar, xususan Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlarida qoʻshbegi lavozimidagi amaldorlarning ham mavqei oʻsgan. Aniqrogʻi

shu mansabdagi shaxsning mavqei koʻtarilishi bilan u egallab turgan lavozimning ham ahamiyati yuksalgan.

Bu davrda Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx boʻlib, uni taxt vorisi boshqarar edi. Rasmiy darajadagi davlat boshqaruv ikki bosqichli boʻlib – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga boʻysunishi belgilangan yillik soliqlarni toʻplab xon xazinasiga yuborib turishi, xon farmoniga koʻra, harbiy yurishlarda oʻz qoʻshinlari bilan qatnashishdan iborat boʻlgan, xolos. Koʻp hollarda oʻzlarini markaziy hokimiyatdan mustaqil deb hisoblagan viloyat amirlari va hokimlari ham oʻz boshqaruv tizimiga va harbiy kuchlariga ega boʻlgan.

Bu davrdagi boshqaruvda dunyoviy lavozimdagi amaldorlar bilan bir qatorda diniy lavozimdagi amaldorlarning ham mavqei baland boʻlgan. Boshqaruv tizimida yirik din peshvolari **xojalar** va diniy mansab egalari boʻlgan shayxulislom, sadr, qozi kalon va boshqalar katta ahamiyatga ega boʻlishgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqirib ketdi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka boʻysunuvchi oltita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, Oʻratepa, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Fargʻona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan boʻlsa-da, Abulfayzxon davriga kelib Xiva (viloyati) va Qoʻqon xonliklari alohida davlat edi.

Qishloq xoʻjaligi va agrar munosabatlar. Ashtarxoniylar davrida ham davom etgan siyosiy parokandalik, urushlar va oʻzaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi boʻlgan qishloq xoʻjaligiga ham taʼsir etmasdan qolmadi. XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Fargʻona vodiysidagi dehqonlarning oʻz yerlaridan qochib kyetishi holatlari haqida ham maʼlumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va oʻlponlarni oʻz vaqtida va doimiy yigʻib olish uchun ham mamlakat iqtisodiyotini koʻtarishga harakat qilsalar-da, bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVII asrning boshlariga kelib koʻplab sugʻoriladigan yerlar joʻybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga koʻra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin boʻlmasa-da, boy amaldor va ruhoniy yer egalari sugʻorish kanallarining xoʻjayinlari edilar. XVI asr 80-yillarining oxirlarida Xiva hukmdorlarining koʻplab hujumlari natijasida kelib chiqqan suv taʼminotining buzilishi Ashtarxoniylar dav-

latidagi ko'pgina viloyatlarda, ayniqsa, Samarqand, Qarshi, Farg'ona viloyatlarida ocharchilikka sabab bo'ldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlari davrida mamlakatning asosiy boyligi hisoblangan yerni taqsimlash rasman oliy hukmdor izmida bo'lsa-da, amalda ko'plab davlat yerlari yirik amaldorlar va din peshvolari qo'lida edi. Ayniqsa, XVIII asrdan boshlab, yarim ko'chmanchi qabilalar boshliqlari bo'lgan amirlar va beklarning hokimiyati kuchayib, ular amalda yirik hududlarning xo'jayinlari edilar.

Shayboniylar davrida bo'lgani kabi ashtarxoniy davrida ham davlat erlari mamlakai devon, mamlakai podshohi, zamini mamla, mamlakai sultoni, mamlaka kabi nomlar bilan atalgan. Oliy hukmdor yerni sotish, hadya etish yoki vaqf mulkiga o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Shartli yer egalari suyurg'ol, iqta, tanho, tiul kabi nomlar bilan atalgan.

Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi so'nggi o'rta asrlar davrida ham jamiyat hayotidagi shaharlarning roli aslo pasaymagan. Savdo-sotik va hunarmandchilik asosan shaharlarda markazlashgan bo'lib, fan va madaniyat ham shu yerda taraqqiy etgan. Yirik iqtisodiy, siyosiy-ma'muriy va madaniy markazlar bo'lgan Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlari Movarounnahrning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Toshkentda va uning atroflarida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to'xtashlari uchun karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Shuningdek, karvonsaroylar Chirchiq daryosi bo'ylab ketuvchi tog' yo'li bo'ylarida ham qad ko'targan. Toshkentning keng dasht hududlari chegarasidagi vohada joylashganligi bu davrda ham shahar xo'jaligining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, manbalar ko'chmanchilarning ko'plab hujumlar uyushtirganliklari haqida ham ma'lumotlar berishadi. Shu bilan birga Toshkentning himoya devorlari ko'p martalab shahar aholisining himoyasini ta'minlaganligi haqida ham ma'lumotlar bor.

Shayboniylar davridayoq poytaxtga aylantirilgan Buxoro shahri ham yirik harbiy-siyosiy, ma'muriy va madaniy markazlardan bo'lib, ashtarxoniy hukmdorlarning qarorgohi shu yerda joylashgan edi.

Bu davrda hunarmandchilikning asosiy markazlari shaharlar bo'lib kelgan bo'lsa-da, o'zaro iqtisodiy munosabatlarning zaiflashuvi hamda natural xo'jalikning rivojlanishi sababli eng kerakli hunarmandchilik mahsulotlari yetishtirish ko'pgina yirik qishloqlarda ham rivojlana boshlaydi. Mamlakatning hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji asosan mahalliy hu-

narmandlar mahsulotlari hisobiga qondirilardi. Bu davrda to'qimachilik va u bilan bog'lik hunarmandchilik turlari rivojlanishda davom etadi.

Ilm-fan va madaniyat. Me'morchilik. O'tgan davrlarda bo'lgani kabi Ashtarxoniy davrida ham ko'p tarmoqli ilm-fan me'morchilik va amaliy san'at, madaniyat taraqqiyoti davom etdi. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar ilgari asrlar an'analari asosida taraqqiy yetib, bir qator davrga mos yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar rivoji ayniqsa adabiyot, tarixnavislik, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlarida sezilarli bo'lganligini ta'kidlashadi.

Bu davrda o'rta asrlardagi an'anaviy tarixnavislik davom ettirilib ko'pgina tarixiy adabiyotlar yaratildi. Chunonchi, Mahmud ibn Balining XVI asr oxiri XVII asr boshlaridagi Xuroson va Movarounnahr tarixiga oid «Bahr al-asror» asari, Muhammad Yusuf Munshiyning Balx hokimi Muqimxonga atab yozilgan «Tarixi Muqimxoniy» asari, Xoja Samandar Termiziyning «Dastur al mulk» badiiy-tarixiy asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Bafu Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon To'le'ning «Tarixi Abulfayzxon» kabi tarixiy asarlarini aytib o'tish lozim. Bu asarlarning aksariyatida xon hokimiyatini uning shaxsini ulug'lash bilan birga o'sha davr jamiyatidagi inqirozli holatlar siyosiy tarqoqlik va o'zaro urushlar natijasi ekanligi to'g'ri anglanib, bunday holatlarga bahram berishning asosiy chorasi hokimiyatni markazlashtirish hamda uni adolatli boshqarishdir, degan fikrlar ham ilgari surilgan.

Ashtarxoniy davlatida adabiyot ayniqsa Subxonqulixon davrida ancha ravnaq topdi. Bu davrda ijod qilgan shoirlar orasida Turdi Farog'iy faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. O'zbeklarning yuz urug'idan bo'lgan bu shoir Abdulazizxon davrida katta nufuzga ega bo'lib, saroy doiralari yaqin bo'lgan. Turdi Farog'iyning bizga qadar to'rt yuz misradan ortiq she'rlari yetib kelgan bo'lib, ularda oddiy mehnatkash xalq ahvoriga achinish, amaldorlar zulmini qoralash, o'zaro tinch-totuvlik va ahillikka chaqirish g'oyalari ustunlik qiladi.

XVII–XVIII asrlarda Buxoroda to'rtta yirik tazkira yartiladi. Bular – Mutribiyning «Tazkirat ash-shuaro», Maliho Samarqandiyning «Muzakkir al ashob», Mulla Sodiq Samarqandiyning «Riyoz ash-shuaro», Nurmuhhammad Nasafiyning «Masxan an-musannifin» tazkiralari. Birgina Mutribiyning tazkirasida uch yuz yigirmadan ziyod shoirlar haqida ma'lumotlar bor. Bu davrda Sayido Nasafiy Qarshida tikuvchilik qilib, ijod qilgan bo'lsa, Samarqandlik ijodkorlar G'ofur Samarqandiy

attorlik, Masiho temirchilik, Manzur Samarqandiy kosiblik, Fitrat Samarqandiy zardo'zlik bilan shug'ullanishgan.

Yalangto'shbiy tomonidan qurilgan ikkinchi inshoot Tillakori madrasasi ham ashtarxoniylar davridagi me'morchilikning nodir namunalardan hisoblanadi. Bu madrasa bezatilishida juda ko'p oltin ishlatilganligi bois ham «Tillakori» («oltin qadalgan») deb nomlangan. U o'z vaqtida juma masjidi vazifasini ham bajargan. Yalangto'shbiy qurdirgan ushbu ikkita inshoot Samarqanddagi Registon maydonining yaxlit me'moriy ansambli bo'lib shakllanadi. Shuningdek, bu davrda Samarqand atrofida Nazr devonbegi madrasasi, Xoja Ahror qabri oldida madrasa, shahardagi Qozi Soqiy madrasasi, Samarqand va Buxoro yo'lida ko'plab sardobalar bunyod etiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixidagi Ashtarxoniylar davri (1601–1756) boshboshdoklik, o'zaro kurashlar, mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunmasligi davri bo'lib, A. Ziyo ta'biri bilan aytganda, siyosiy beqarorlik taxminan yuz yil o'tib sulola inqirozi hamda davlatning uchga bo'linishi bilan tugadi. Tashqi aloqalar asosan qo'shni hududlar bilan cheklanib qolib, mamlakat jahon texnikaviy taraqqiyotida ro'y berayotgan ko'pgina yangiliklardan chetda qoldi. Shunga qaramasdan madaniy hayotning ba'zi sohalarida (me'morchilik, tarixnavislik, adabiy muhit, islom huquqi) taraqqiyot jarayonlari kuzatiladi.

3. Buxoro amirligi. Mang'itlar sulolasi.

Siyosiy tarix. So'nggi ashtarxoniylardan bo'lgan Abdulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashganligidan foydalangan o'zbek urug'lari turli viloyatlarda hokimiyatga qarshi isyon va g'alayonlar ko'tarishib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qila boshladilar. Ular orasida ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan, mang'it urug'i boshliqlardan biri Muhammad Hakimbiy otaliq (1743-yilda vafot etgan) hamda uning o'g'li Muhammad Rahimbiyning harakatlari ayniqsa keskin edi.

Buxoroda bo'lib o'tayotgan tartibsizliklardan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1745-yilda Muhammad Rahimbiy rahbarligida Buxoroga katta qo'shin jo'natdi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda viziyaatni yumshatish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Miyonqol va Shahrisabzdagi qo'zg'olonlar bostirildi. Muhammad Rahimbiy davlat apparati tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi.

U deyarli barcha yirik davlat mansablariga o'zining yaqin qarindoshlari va maslakdoshlarini qo'yib, ularning yordamiga tayanib poytaxtda o'z mavqecini mustahkamlab oldi. 1746-yilda Nodirshoh o'ldirilgach, oradan ko'p o'tmay Abdulfayzxon ham o'ldirildi. Taxtga o'tirgan Abdulmo'min ham 1748-yilda o'ldirildi. Uning o'miga nihoyatda yosh bo'lgan Ubaydulla Sulton nomigagina taxtga o'tqazildi. 1756-yilga kelib o'zbeklarning to'rt urug'i-mang'it, xitoy-qipchoq, bahrin saroylarning yirik amaldorlari, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon (1756–1758) taxtga o'tirdi va mang'itlar sulolasi hukmronligini boshlab berdi. Davlat esa amirlik deb atala boshlandi.

Muhammad Rahimxon markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. U yirik mulkdorlarni davlatni boshqaruv ishlariga aralashtirmay, mustaqil siyosat yurgizdi. Bu hukmdor Miyonqol, Nurota, Urgut, Kobadiyon, Boysun kabi markaziy hokimiyatni tan olmagan viloyatlarga yurishlar qilib, ularni bo'ysundirishga erishdi. Uning davrida Zarafshonning yuqori oqimi, Jizzax, Zomin yana Buxoroga qo'shib olindi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida juda katta hududni birlashtirgan mang'itlarning markaziy davlat tizimini barpo etdi. 1758-yilga kelib Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelib uning hokimiyatini tan olganliklarini bildirishadi.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng uning balog'atga etmagan nabirasi Fozilto'ra taxtga o'tqazilib, hokimiyat aslida Muhammad Rahimxonning tog'asi Doniyolbiy otaliq (1758–1785) qo'lga o'tdi. Doniyolbiyning hukmronligi davri markaziy hokimiyatning zaiflashuvi bilan izohlanadi. U taxtga o'tirgan dastlabki paytdayoq markazlashgan davlat siyosatiga qarshi g'alayonlar va qo'zg'olonlar ko'tarildi. Miyonqol vohasi, Shahrisabz va Kitob, Sherobod va Boysun, Hisor viloyatlarida katta-katta xalq g'alayonlari va chiqishlar boshlab ketdi. Shundan so'ng Doniyolbiy qo'zg'olonlarga qarshi qo'shin jo'natdi va Buxoro shahri aholisining yordami bilan qo'zg'olon bostirildi. Isyonchi amirlarning ko'pchiligi qatl etildi.

Oradan ko'p o'tmasdan yuz urug'larining boshlig'i Fozilbiy bosh ko'tardi. Doniyolbiy qiyinchilik bilan bo'lsa-da bu qo'zg'olonni ham bostirdi. Tartibsizliklar oqibatida mamlakatning iqtisodiy ahvoli ham nochor holatga tushib qoldi. Natijada, 1784-yilda poytaxt Buxoroda ham qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, Doniyolbiy 1785-yilda taxtni o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi.

Shohmurod taxtga o'tirganidan so'ng «amir» unvoni bilan hokimiyatni boshqaradi (1785–1800). U o'z hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi rivojiga alohida e'tibor berdi. Tarixda «Amiri ma'sum» («Gunohsiz amir») nomi bilan qolgan Shohmurod o'z davrida markaziy hokimiyatni nisbatan mustahkamlashga erishdi. Uning hukmronligi davrida mamlakatni rivojlantirishga yo'naltirilgan to'rtta muhim islohot – moliya, sud, ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazildi. Avvalo, 1758-yildan boshlab, amirlikda to'la holatda (aralashmalarsiz) kumushdan iborat bo'lgan kumush tangalar, oldingilaridan o'zining qiymati, sifati va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar zarb etila boshlandi. U davlat zarbxonalarida aholining o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltindan bir xil o'lchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishga keng ruxsat berdi.

Amir Shohmurod adliya sohasida o'tkazgan islohoti bilan mamlakatda sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Shuningdek, soliqlarning tartibga solinishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishi, mahalliy amaldorlar ustidan nazorat o'rnatilishi – savdo-sotiq va hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining yuksalishiga sharoit yaratib byergan edi.

Shohmurod o'zi idora etib turgan markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash sohasida ham ma'lum ishlarni amalga oshirdi. Amir Shohmurod 1800-yilda vafot etganidan so'ng uning o'g'li amir Haydar (1800–1826) valiahd sifatida taxtga o'tirdi. Otasi davrida Qarshining hokimi bo'lgan amir Haydar oq kigizga o'tqizilib xon etib ko'tariladi. Ammo, Haydar xon unvonini emas, balki «amir al-mo'minin» unvonini oldi. Manbalarga ko'ra, xutba amir Haydar nomiga o'qilgan bo'lsa-da, tangalar amir Haydar, amir Shohmurod va Doniyolbiy nomlaridan zarb etilgan.

Otasining siyosatini davom ettirishga harakat qilgan amir Haydar o'z hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining butunligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi hududlari, Shahrisabz, Miyonqol yerlarini qo'lda saqlab qolish uchun kurashlar olib bordi. O'ratepani vaqtincha o'ziga bo'sundirishga erishdi.

Amir Haydar davrida Xiva xonlari amirlik hududlariga tez-tez talonchilik urushlari qilib turishdi. 1806-yilda amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashishga chaqirdi hamda ularni mag'lubiyatga uchratib, amirlik hududlaridan haydab chiqarishga erishdi. Bu voqealardan so'ng Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida urush-

lar boshlanib ketdi. Qo'qon xoni Olimxon 1807, 1810-yillarda O'ratepaga hujumlar qilib, katta o'ljalarni Qo'qonga olib ketdi. Bunday hujumlar Qo'qon xoni tomonidan Jizzax va Zominga ham uyushtirilib turildi.


Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari katta xarajatlarni talab etganligi bois, amir Haydar qo'shimcha soliqlar yig'ish haqida farmon berdi. Bu esa mehnatkash aholi ahvolini yanada og'irlashishga va amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarga olib keldi. Mana shunday qo'zg'olonlar 1821–1825-yillarda Miyonqol, Samarqand va Urgutda bo'lib o'tdi. Amir Haydar bu qo'zg'olonlarni katta qiyinchiliklar bilan, qo'zg'olonchilarga katta va'dalar berish evaziga bostirishga erishdi. Shahrisabz va Marv vohasi uchun ham Amir Haydar urushlar olib borishga majbur bo'ldi.

O'z davrida Amir Haydar qo'shni Afg'on davlati hukmdori Shujo' al-mulk Durroney bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan bo'lsa-da, Qo'qon va Xiva davlatlari bilan Buxoro davlati o'rtasidagi munosabatlar keskin edi.

Amir Haydar 1826-yilda vafot etganidan so'ng uning ikkita katta o'g'illari amir Husayn (ikki yarim oy) va amir Umar (to'rt oy) qisqa muddat taxtga o'tirib, o'z ukalari Nasrullo tomonidan o'ldiriladi. Shundan so'ng taxtga amir Haydarning uchinchi o'g'li Nasrullo o'tirdi. Amir Nasrulloning hukmronlik davri (1826–1860) avvalo, Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodagonlarning boshboshdoqliklariga barham berish bilan izohlanadi. Amir Nasrullo hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiqqo'llik siyosatini olib bordi. O'zining berahmlik siyosati tufayli amir Nasrullo «qassob amir» degan nomga sazovor bo'lgan edi.

Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan bo'ysunmas mahalliy hokimlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Bu borada Shahrisabz Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Shuning uchun ham amirning siyosatidan norozi bo'lgan ko'plab amaldorlar Shahrisabzga qochib panoj topishgan. Amir Nasrullo 1832-yilda Shahrisabzga qarshi urush boshlab, 32 marta yurishdan so'ng 1552-yilda Shahrisabz va Kitobni bo'sundirishga erishadi.

Amir Nasrullo Qo'qon va Xiva xonlari bilan ham urushlar olib bordi. U 1842-yilda Qo'qonga yurish qilib uni egalladi. Ammo, bu paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoro chegaralariga hujum qilganligini eshitgach, Qo'qonga o'z noibini qoldirib orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Amir Nasrullo o'z qo'shinlari bilan Xivaga yurish qilib, Hazoraspmi qamal qildi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab qaytib kyetishga majbur bo'ldi.



Amir Nasrullo o'z hukmronligi davrida O'ratepa va Xo'jand uchun Qo'qon xoni bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qo'ldan qo'lga o'tib ko'pgina vayronagarchiliklar kelib chiqdi, talon-tarojlik avj oldi.

Manbalarga ko'ra, Qo'qondan Keshgacha bo'lgan barcha mamlakatlarni bo'ysundirgan amir Nasrullo Buxoroning amaldagi oxirgi mustaqil hukmdori bo'lib qoldi. Amir Nasrullodan so'ng taxtga uning o'g'li amir Muzaffar (1860–1885) o'tirdi. U mang'itlar sulolasidan bo'lgan to'rtinchi amir bo'lib, uning 25-yillik hukmronlik davrida juda ko'p voqealar sodir bo'ldiki, ulardan eng ayanchlisi – Buxoro amirligining Rossiya imperatori vassaliga aylanishidir.

Amir Muzaffar o'z hukmronligining dastlabki yillarida ulamolarga deyarli e'tibor bermadi, ular bilan biror-bir masala yuzasidan maslahat ham qilmadi. Ammo, 1868-yilda amir ruslardan mag'lubiyatga uchragach, ulamolarga yon berishga majbur bo'ldi. Chunki, ulamolarning mahalliy aholini ruslarga qarshi kurashishga da'vat etishgandi. Lekin fursat qo'ldan boy berilgan edi. Ulamolarning xalqni ko'tarishi ham, amirning o'g'li Katta To'ra (Abdumalik), Kitob va Shahrisabz beklarining sa'y-harakatlari ham besamar ketdi. Zirabuloq yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan amir Muzaffar ruslar tomonidan tuzilgan shartnomaga imzo chekishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra amir O'ratepa, Jizzax, Zarafshon vohasi hududlaridan mahrum bo'ldi, rus hukumatiga 125 ming tillo miqdorda tovon to'laydigan bo'ldi hamda Buxoroning Rossiyaga vassalligini tan oldi.

Amir Muzaffar hukmronligi davrida amirlik hududlari ancha qisqardi. Bunga avvalo rus bosqini sabab bo'lgan bo'lsa, katta qiyinchilik bilan bo'ysundirilgan Shahrisabz va Kitob beklilari yana Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortdilar. Undan tashqari, ruslarga to'langan katta tovon evaziga amirlik xazinasini bo'shab qoldi. Amir o'z xazinasini to'ldirish uchun qozilar va raislarga aholidan turli xil yig'imlar yig'ishga ruxsat berdi. Chunki, bu yig'imlarning katta qismi turli xil sovg'alar va in'omlar tariqasida xazinaga kelib tushardi.

Amir Muzaffar o'g'li Abdulahadni taxt merosxo'ri deb e'lon qildi va o'sha yili uni Rossiya imperatori Aleksandr Aleksandrovichning taxtga o'tirish marosimi tantanasiga qatnashish uchun Moskvaga jo'natdi. Podsho Aleksandr III ga Buxoro yulduzi ordeni topshirildi va Abdulahad haqiqiy taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdiqlandi. 1883-yilda esa amir Muzaffar Rossiya imperiyasining I-darajali Muqaddas Anna ordeni bilan taqdirlandi. Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, bu mukofotni Buxoroga imperiyaning nufuzli amaldorlaridan biri – general-mayor, knyaz Bitgenshteyn boshchiligidagi maxsus elchilar guruhi olib kelgan.

Amir Muzaffar 1885-yil 31-oktabrda kasallik tufayli vafot etadi. Uning o'g'li amir Sayyid Abdulahad 1885–1910-yillar Buxoro amirligi taxtini boshqardi. Abdulahad o'n to'rt yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Rus sayyohlarining ma'lumotlariga ko'ra u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885-yil 4-noyabrda amir Muzaffarni Buxoro arkida oq kigizga o'tirg'izib, taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tdi.

Amir Abdulahad sayohat qilishni yaxshi ko'rgan. U turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburug, Kiyev, Odessa, Ekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bog'chasaroy kabi shaharlarda bo'lgan. Amir har yili Kavkazda, Qrim yoki Yaltada dam olgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, o'lim hukmi va eng dahshatli jazo – Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulahad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo'llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi.

Abdulahad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida e'tibor byergan. Yoshlik chog'idayoq bo'lajak amir o'z garnizonida harbiy mashqlar o'tkazib, Karmana qal'asini yaxshi harbiy holatda tutgan. 1895-yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik ham amir Abdulahad o'z qo'shinini harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan.

Amir Abdulaziz 1910-yil 22-dekabrda buyrak kasalidan vafot etgach 1911-yil yanvarda uning ikkinchi o'g'li Sayyid Mir Olim taxtga o'tiradi. Olimxon 1893–1896-yillarda Peterburgda ta'lim olgan. Undan so'ng avval Nasaf viloyatiga, keyin esa Karmanaga hokimlik qilgan. 1911–1920-yillar Buxoro taxtini boshqargan amir Olimxon Buxoroda sovet hukumati o'rnatilgach Afg'onistonga chiqib ketdi va 1944-yil Kobulda vafot etdi.

Amirlikning hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi. O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqeiga ega bo'lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga ko'ra, XVIII asrning o'rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari o'z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Bobkent, G'ijduvon, Qorako'l, Bag'oz tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qololgan edilar. Xo'jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G'uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning o'ng sohilidagi Balx, Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirg'onlar ham Buxoroga vassal bo'lishiga qaramay unga itoat etmay qo'yishgandi. Siyosiy parokandalikning asosiy

sababi – so'nggi ashtarxoniylar davridagi o'zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeining o'sishi edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70–80-yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan Buxoro va Samarqand o'z navbatida tumanlarga bo'lingan edi. Viloyat hukmdorlari hokim deb atalgan. Keyinchalik viloyat o'rniga bekliliklar paydo bo'lgach ularning hukmdorlari bek deb atalgan. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklilik mavjud bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko'paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln. dan ziyod, 50-yillariga kelib taxminan 2,5 mln. dan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqanda shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashuvi

Hududlar (vodiy va vohalar)	Istiqomat qiluvchi aholi soni (taxminan)	Foiz hisobida
Zarafshon vohasida	700.000	31.8
Qashqadaryo vohasida	500.000	22.2
Qizilqum va Yaksuv bo'vidagi vohalarda	225.000	12.0
Amudaryo bo'yidagi vohalarda (Surxonning quyilishidan to Chorjo'ygacha)	300.000	14.0
Qolgan hududlarda	430.000	20.0
Butun amirlik bo'vicha	2.155.000	100.0

Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi

Etnik guruhlar	Jami aholiga nisbatan foiz hisobida	Aholi soni
Turkiy xalqlar	85.0	1.830.254
Eroniy xalqlar	12.0	258.389
Boshqa elatlar	3.0	64.597
Jami	100.0	2.153.240

Shuningdek, amirlik hududida hindlar, eroniylar, yahudiylar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilishgan.

Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar, jumladan hindlar va yahudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to'la huquqqa ega emas edilar va ular alohida mavzelerde yashashgan. Amirlikda o'troq aholidan tashqari tog'oldi va dasht hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan.

Davlat boshqaruvi tizimi. Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'itlar sulolasining vakillari hukmronlik qilishadi. Sulola hukmronligining asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy biroz muddat (1747-yildan keyin) Abdulfayzxonning o'g'illariga otaliq bo'lgan bo'lib, 1756-yilda sayidlar, xo'jalar va ruhoniylar tomonidan Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Rahimbiy xon unvonini olmasdan o'zini «noib ul-hukumat» («hokim o'rinbosari») deb bilgan. Doniyolbiy otaliq ham xonlikka da'vo qilmay avval Fozilto'rani, keyin esa Abdulg'oziy (1758–1784) xon deb e'lon qilib, o'zi ularga noib hisoblangan. Shohmurod 1785-yilda Buxoroda «amir» unvoni bilan taxtga o'tiradi.

Buxoro mamlakati 28 ta viloyat (bog'ot)ga bo'linar edi. Eng katta viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlar edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako'l, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo'rg'on, Boljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz, Ro'shon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmeton va Maschohlar kirar edi. Baliahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi.

Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda ko'rib chiqilgan hamda hal etilgan. Bosh qarorgoh hisoblangan Arkda amir va uning oilasidan

tashqari qo'shbegi, shig'ovul, to'pchiboshi, mirzaboshi kabi saroy amaldorlari o'z oilalari va xizmatkorlari bilan yashagan.

Zaruratga qarab mamlakat poytaxtida amir boshchiligida Davlat Kengashi chaqirilib turilgan. An'anaga ko'ra, lavozimlariga qarab 5 tadan 20 tagacha amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengashda mamlakat hayotiga doir eng muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Amirlikning poytaxti Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Viloyat beklari nisbatan kichik hududiy bo'linmalar amlok mulklar hisoblanib, ularning boshqaruvchilari amaldor deb atalgan.

Mansablar, unvonlar va amallar. Avvalo, ta'kidlash lozimki, mansablar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan unvon, mansab hamda amallarga oid ma'lumotlar juda chalkash, ko'p hollarda bir-birini inkor etadi. So'nggi yillarda Sh. Bohidov va R. Xoliqovalar o'z tadqiqotlarida ushbu masalalarga aniqlik kiritishga harakat qilishgan. Quyida ularning tadqiqotlariga asoslanib amirlikdagi mansablar va unvonlar haqida so'z yuritimiz.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo mang'it urug'i vakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga hamda ulamolarga berilgan bo'lib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo'shbegi va devonbegilar bo'lgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Bu davrda qo'shbegi yoki qo'shbegiyi bolo eng oliy saroy mansabi hisoblanib uning mavqei juda baland bo'lgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha amirning eng yaqin odami bo'lgan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri devonbegi bo'lib, bu mansabdor yozir vakolatlariga ega edi. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlariga javob byergan.

Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o'rin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo'lib, ular shahar mirshabboshisiga bo'ysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga boshqa barcha shaharlar mirshabboshilari bo'ysungan. Mang'itlar davrida Buxoroda qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda «chor hokim», ya'ni, «to'rt hokim» deb yuritilgan.

Amirlikning boshqaruv tizimida bosh rais alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu amal yarim diniy, yarim targ'ibotchi usulida edi. Amirlikda bosh rais odatda eshon rais yoki rais-ush shariat deb atalgan bo'lib unga barcha mahalliy raislar bo'ysungan. Eshon rais qozikalondan keyin turadigan amaldor bo'lib, uning mahkamasiga vaqtincha o'rinbosarlik qiluvchi xalifa, noib, mulozimlar, mirzalar, miroxo'rbohi, tergovchi, shahar mirobi kabilar kirgan.

Amir saroyida ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo'lgan mirshab va uning qo'l ostidagilar, suv ta'minotiga javobgar bo'lgan mirob va uning qo'l ostida ishlaydiganlar kirgan. Mirshab qo'l ostida yasovulboshi, devonbeqi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, shabgard (**kechki qorovul**), **farroshboshi** kabilar bo'lgan. Mirob tasarrufida esa mahram, mirzalar, bakovullar, miroxo'rlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari faoliyat yuritishgan.

Yer egaligi munosabatlari. Dehqonchilik va chorvachilik. O'rta Osiyoning barcha hududlarida bo'lgan kabi Buxoro amirligida ham agrar munosabatlar, ya'ni, yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Manbalarga ko'ra amirlikda yer egaligining quyidagi to'rtta turi: davlatga tegishli yerlar (mulki sultoniy); xususiy yerlar (mulk); diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud bo'lgan. Arxiv manbalarida amlak yerlar, amlaki sultoniy, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojii, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish taqiqlangan bo'lsa-da, bunga doimo ham amal qilinmagan. Davlat yerlari bo'sh yotgan yerlar (qamishzorlar, toshloq, to'qayzor, tog'oldi)ni o'zlashtirish hisobiga ko'paytirib turilgan. Bunday erlarni o'zlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilib, keyin belgilangan tartibda soliq to'lashgan.

Amirlikda mavjud bo'lgan yana bir yer egalligi shakli mulk (xususiy) yerlar bo'lib, bu yer egaligi shakli qo'zg'almas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo'lgan.

An'anaga ko'ra, vaqf yerlari asosan diniy muassasalar – masjidlar, mozorlar, xonaqo, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib, u yer egaligining

alohida shaklini tashkil etgan. Ushbu erlardan tushgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli asosan vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan bo'lib, u vaqf hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf erlarini sotish, bunday erlardan soliq olish taqiqlangan bo'lsa-da, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganligini ko'rsatadi.

Amirlikda XIX asrning boshidan boshlab Rossiyaga ko'p miqdorda paxta sotilishi natijasida paxtachilikka e'tibor kuchaytirilgan. Rus manbalariga ko'ra, Buxoro amirligining «Qashqadaryo vohasi, Surxondaryo vohasida, Yakkabog', Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtiriladi. O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro paxtasi alohida diqqatga sazovor bo'lib, u ancha qimmat turadi».

Amirlikda mavjud bo'lgan cho'l va dasht hududlari, tog' va tog'oldi adirlari mahsuldor chorvachilik uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Amirlikning cho'l hududlarida, jumladan Buxoro va Qarshi hududlarida qorako'l teri yetishtirishga ixtisoslashgan qo'ychilik taraqqiy etgan. Chorvachilikda tuyachilikka ham alohida e'tibor berilgan. Og'ir va olis yo'llar hamda suvsizlikka chidamli bo'lgan og'ir yuk ko'taruvchi tuyalardan karvon savdosida, tegirmonlarda, yog' chiqarishda kam hollarda yer haydashda foydalanilgan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun o'rta asrlarda mavjud bo'lganidek, amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari (kasaba, sexga ega bo'lganlar) uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog'liq edi. Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, amirlikning hunarmandchiligi sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xomashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Amirlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo'jalik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan

edi. Amirlik iqtisodiyotining metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. Shahrisabz, Urgut, Nurota, Boysun, Sherobod kabi tog'li tumanlardan ma'danlar qazib olingan bo'lib, ulardagi konlardan foydalanish ba'zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Dehnov, Nurota va boshqalar asosiy savdo markazlari edi. Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud bo'lgan pul muomalasining o'rni katta edi. Xususan, mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatilgan bo'lib, muomalada asosan uch turdagi – tillo, tanga (**kumush**) va pul (**mis**) mavjud edi. Shahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va to'lovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan.

Buxoro amirligida qo'shni davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Qashg'ar va ayniqsa Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlari muhim o'rin tutgan edi.

Savdo karvonlari Kobul va Hindistonga ham borib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan. Hindistondan qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar, xushbo'y giyohlar, kashmir matolari keltirilgan. Amirlik savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Xitoy bilan savdo aloqalari Qo'qon xonligi orqali olib borilgan bo'lib, Xitoyga paxta, qorako'l teri, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berilgan. O'z navbatida Xitoydan ko'plab ipak matolari va chinni buyumlar keltirilgan.

Soliqlar. Buxoro amirligida eng asosiy soliq bu yerdan olinadigan xiroj solig'i edi. Bu soliq amlokdor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda hosilga qarab belgilangan. Hajmi esa hosilning uchdan, to'rtidan ayrim hollarda beshdan bir qismi ko'rinishida bo'lgan. Dehqonlar amlokdor uchun o'n botmon yerdan yarim pud kafsan solig'ini, dorug'alar uchun kafsani dorug'a (hosilning kam hajmdagi ma'lum qismi) ham to'lashgan. Undan tashqari amir dalalarni aylanganda, harbiy xarajatlar paytida ham qo'shimcha soliq va to'lovlar olingan.

Amirlikdagi yana muhim soliqlardan biri – zakot edi. Zakot davlatning mol-mulkdan oladigan solig'i bo'lib, mol-mulk narxining qirqdan bir hajmida undirilgan.

Urushlar davrida favqulodda soliq – jul undirilgan. Undan tashqari savdo-sotiqdan dalloli, boshqa viloyatlar va davlatlardan olib o'tilayotgan mahsulotlar uchun boj, daryodan mahsulotni qayiqda olib o'tgani uchun suv puli, bozordagi savdo joyi uchun puli taxtajoy, bir julf omoch tortadigan ot yoki ho'kiz uchun yaksara (bir botmon g'alla), omoch tortadigan bitta ot yoki ho'kiz uchun nimsara (yarim botmon g'alla) kabi soliqlar olingan.

Amirlikdagi madaniy hayot. XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaladi. Boshlang'ich ta'lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo'lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur'onning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Madrasalarda o'qitish ilgarigi davrlarda bo'lganidek uch boqichda, 1) past qadam; 2) miyona (o'rta) qadam; 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa talabalari diniy bilim bo'lgan Qur'oni karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, handasa (matematika) kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olishgan. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta'limga asosiy e'tibor qaratilib, dunyoviy ta'lim berish nisbatan orqada qolgan edi.

Amirlikning madaniy hayotida xattotlik ham muhim o'rin egallagan edi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda xattotlik maktablari mavjud edi. O'z kasbining ustasi bo'lgan mohir xattotlar davlat va xo'jalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va ko'chirishda, me'moriy inshootlarga turli yozuvlar (Qur'oni karim oyatlari, hadislar, hikmatlar)ni chiroyli naqshlar tarzida bitishda mashhur bo'lishgan.

Bu davrda amirlikning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, G'uzor, Katta qo'rg'on, Dehnov kabi ko'plab shaharlarida masjid va madrasalar bunyod etilgan.

Xullas, O'zbekiston davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi davlatining ham o'z o'rni va mavqei bo'lib, mang'itlar hukmronligi davrida

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib o'tdi. Ammo, mamlakat iqtisodiy jihatdan qudratli va siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Ko'p hollardagi iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik, o'zaro nizolar XIX asrning ikkinchi yarmida davlatning katta hududlarini Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi. Buxoro amirlari 1920-yilga qadar Rossiyaga vassal holatda taxtni egallab turishdi.

4. Qo'qon xonligi. Minglar sulolasi.

Siyosiy tarix. XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan ming urug'i asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz byergan tushkunlik, Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi hamda 1704-yilda Chodak xo'jalarining isyon ko'tarib, Farg'onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg'onaning Shimoli va Shimoli-G'arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo'jalar qo'l ostida bo'lsa-da, ular mustaqil davlatga asos sola olishmadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669–1670-yillarda tug'ilgan Shohruxbiy ibn Ashur Muhammad (1709–1721) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710-yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Shunday bo'lsa-da, Shohruxbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruxbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan.

Shohruxbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721–1733) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724-yilda Andijonni, 1725-yilda Xo'jandni, 1726-yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

1733–1750-yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruxbiy asosiy e'tiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oldi. Shu bilan birga u 1741–1745-yillardagi qalmoqlar (jung'orlar)ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo u taxtga to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753-yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida ushlab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755–1769) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759–1760-yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruxbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsa-da u atigi olti oy hukmdorlik qildi.

1770-yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1770–1801) o'tiradi. Norbutabiy markaziy hikimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng, bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799-yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

Norbutabiydan so'ng uning o'g'li Olimxon (1801–1810) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada, Qo'qon xonligining siyosiy mavqei oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib borishi

bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari «biy» va «bek» unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lishsa, Olimxon davridan boshlab (1805) hukmdorlar rasman «xon» deb yuritila boshlandi.

O'z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o'ziga yangi viloyatlarni, jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Qisqa muddat O'ratepani ham egaladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshlashdi. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810-yilda Olimxon Toshkentdan Qo'qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o'g'li Shohruxbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o'ldiriladi.

Manbalarga ko'ra, Umarxon (1810–1822) hukmdorligi davrida yirik er egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun-qoidalar o'rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818-yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan «amir al-muslimin» unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo'ladi.

Muhammad Hakimxon ma'lumotlariga ko'ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallashadi.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo'qon xonligining O'rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o'zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O'z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo'natilganligi ma'lum.

1822-yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammadalixon (Madalixon, 1822–1842) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg'izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo'shib olinadi hamda Ko'lob,

Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan olishadi.

Manbalarga ko'ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826–1831-yillar davomida Qashg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda yetmish ming uyg'ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko'chirib keltirdi. Natijada din peshvolari Muhammadalixonga «G'oziy» («din homiysi», «din yo'lida kurashuvchi») unvonini berishadi.

1840-yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo'lgan Haqquli mingboshining tufnatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo'lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo'lib, asosiy vaqtini haramida o'tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruv ishlarida suiiste'molliklardan umumiy noroziliklar, boshlanib, xonni ag'darish uchun fitna tayyorlana boshlandi.

Lekin o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi yetmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrullo noma yozib, undan yordam so'rashdi. Qo'qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842-yil aprelda Qo'qonni bosib oldi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi.

Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodxoh Mang'itni qoldiradi. Ammo, Ibrohim dodxohning Qo'qon xalqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib kyetishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etishadi. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etishadi hamda Sheralixon (1842–1845) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lishdi.

Qo'qonda bo'lgan voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842-yilning kuzida yana Qo'qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kuli boqmad. Muhammadalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo'qonga keladi va qo'qonliklarni

taslim bo'lishga ko'ndirish o'miga bir tan-bir jon bo'lib amir Nasrulloqa qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan amir Nasrullo o'ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotganligi hamda xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Buxoroliklarning kyetishi bilan Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Sheralixon keksa odam bo'lib oqko'ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o'z qo'llariga olishdi. Ammo, 1845-yilda Buxoroda bo'lgan Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda o'n bir kun xon bo'lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lgan mingboshi Musulmonquli bu voqeadan xabardor bo'lgach Sheralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o'tqazadi (1845–1853, 1863, 1865–1875). o'n olti yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o'zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch – o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.

1852-yilga kelib, Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o'troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashishdi. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853-yilda qatl etib, uning tarafdorlarini yo'q qilgani bilan taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og'irlashib, u faol tashqi siyosatdan ham ancha orqada qoldi. 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo'lgan o'g'li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, o'zini xon deb e'lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg'iz boshchiligida yangidan tiklangan ko'chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a'zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863-yil 25-fevralda uni o'ldirishdi. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqazildi. Lekin, qo'shin boshliqlari va saroydagi ko'pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtga o'tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

Bu payda Mallaxon o'limini eshitgan Xudoyorxon Amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi

Qanoatshoh yordamida qo'shin yig'ib, 1863-yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo'qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo'shini bilan Xo'jandga keladi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo'jandga keladi. Xudoyorxon Qo'qonga hujum qilishni rejalashtirayotgan paytda, ya'ni, 1863-yilning 5-mayida shahar aholisi unga Shimoliy darvozalarni ochib berishdi. Natijada, Qo'qonda qirg'in boshlanib, Shohmurodxon o'z tarafdorlari bilan Marg'ilonga qochdi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863) taxtni qo'lga kiritdi.

Ammo, xonlikdagi qirg'iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo'zg'olon ko'tarib, To'raqo'rg'onga hujum qilishdi. Ular, hatto Toshkent atroflaridagi qabila boshliqlariga noma yuborib madad berishni so'rashdi. Oqibatda Toshkent atrofida qozoqlar qo'zg'olon ko'tarib, Toshkentni qamal qildilar. Xudoyorxon tomondan yuborilgan qo'shinlar bu isyonlarni bostirishga muvaffaq bo'lishdi. Ammo, mag'lubiyatga uchragan qirg'iz-qipchoq boshliqlari taxt uchun kurashni davom ettirdilar. Xususan, Shodmonxo'ja, Said Mahmudxonto'ra, Aliqulilar Sulton Saidxon boshchiligida Marg'ilon tomondan kelib Andijonni bosib olishdi va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O'sh, Poytug' mavzellarini talon-toroj qilishdi. 1863-yil 26-aprelda Sulton Saidxonning qo'shini Mingtutga kelib, Qo'qonni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg'iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga kyetib, Qo'rag'ulcha darasida himoyaga o'tdi. Qattiq kurashlardan so'ng 1863-yilning 24-iyulida Sulton Saidxon Qo'qon taxtini (1863–1865) egalladi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochdi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo'l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan chor Rossiyasi qo'shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib oldi. 1865-yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal'asini egallashdi. Uzoq qamaldan so'ng 17-iyunda Toshkent egallandi.

Qo'qondagi sarosimaliklardan foydalangan Xudoyorxon 1865-yilning yozida amir qo'shinlari yordamida so'nggi marta Qo'qon taxtini qo'lga kiritdi. Shundan so'ng u amirning talablariga boshqa itoat etmay qo'ydi. Xudoyorxon 1867-yil yanvar oyida Rossiya bilan savdo bitimini, 1868-yil 13-fevralda Qo'qon va Rossiya shartnomasini imzoladi. Xudoyorxon 1868–1873-yillar oralig'ida Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilash maqsadida Toshkentga ko'plab sovg'a-salomlar yubordi.

Shuningdek, Rossiya savdogarlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Natijada, Qo'qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi.

Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873-yilgacha davom etgan bo'lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg'iz-qipqoqlarning qayta bosh ko'tarishi natijasida bu yerlarda o'zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi. Xususan, 1873-yilda Po'latxon (asli ismi Mulla Ishaq Hasan o'g'li) qirg'izlar tomonidan xon qilib ko'tarilib, u boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Saroydagi nufuzli amaldorlardan biri Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag'darish va uning o'g'li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o'tqazish maqsadida Po'latxon bilan til biriktirdi va O'rdada isyon ko'tardi. Sayid Nasriddinbek Abdurahmon oftobachi ko'magida xon deb (1875–1876) e'lon qilindi. Xudoyorxon Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechib, avval, Xo'jandga, undan Toshkentga qochdi.

Nasriddinbekning hokimiyat tepasiga kelishi ham mamlakatdagi siyosiy vaziyatning keskinligini bartaraf eta olmadi. Buni tushunib yetgan Abdurahmon oftobachi xonlik aholisini Rossiyaga qarshi kurashga safarbar qilmoqchi bo'ldi. Ammo ruslarning qattiq qarshiligiga duch kelib Mahram yaqinidagi jangda ulardan yengildi. Po'latxon ham ruslarga qarshi kurashish maqsadida Qo'qonga hujum qilmoqchi bo'lib turgan vaqtda, ya'ni, 1875-yil 25-sentabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo'qonga yoyilib aholi yana isyon ko'tardi va O'rdaga hujum qildi. Nasriddinxon taxtni tashlab Xo'jandga qochdi. Marg'ilonda Rossiya imperiyasi askarlariga qarshi aholini safarbar qilayotgan Po'latxon qo'shiniga shaharliklar, madrasa talabalari va ko'chmanchi aholi vakillari kelib qo'shildi. Ularga qo'zg'olon vaqtida bosqinchilar bilan hamkorlik qilgan kishilar va xon oilasi vakillarini qatl etish buyurildi.

Bu paytda Namanganda bo'lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig'iga asosan 1876-yil fevralida Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Abdurahmon oftobachi va Po'latxon qo'lga olindi. Abdurahmon oftobachi Rossiyaning Ekaterinoslav guberniyasiga, Nasriddinxon esa Bladimir nuberniyasiga surgun qilindi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150-yildan ko'proq hukm surgan Qo'qon xonligi tugatilib, hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o'miga Farg'ona viloyati tashkil etildi.

Ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholisi. XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki – viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan yuritiladi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamallari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817-yilda O'ratepa bosib olinadi.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy-hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Qo'qon honligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalarda turli ma'lumotlar keltiriladi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 mln., XIX asrning o'rtalarida 1,5–2 mln., XIX asrning ikkinchi yarmida 3 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 mln. ga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Davlat boshqaruvi. Mansablar va unvonlar. O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruxbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar hukmronligida qisman islohot qilgan davlat

boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning hukmda edi.

Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo'riq yerlar, ko'l-u anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo'lib, bu saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo'linar edi. Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

– **Amir ul-umaro** – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlarni berilgan shaxs bo'lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;

– **Amirlashkar** – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan;

– **Mingboshi** – ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan;

– **Botirboshi** – **botir**, bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan;

– **Qo'shbegi** – harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi.

– **Boli yoki voliy (noib, muovin)** – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy-ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

– **Qal'abon yoki kutvol** – Qo'qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a va istehkomlarining hokimi bo'lib, shu hududlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo'lgan.

– **Qo'rboshi** – qo'rxona ya'ni aslahaxona boshlig'i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo'lgan.

– **Yofar** – soqchilar boshlig'i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo'lgan.

– **To'pchiboshi** – to'pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig'i.

– **To'qsabo** – o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy guruhning boshlig'i.

– **Ponsadboshi** – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.

– **Yuzboshi** – yuz kishilik harbiy dasta boshlig'i.

– **Panjohboshi** – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig'i.

– **Dahboshi** – o'n kishilik harbiy guruh boshlig'i.

– **Qorovulbegi** – soqchilar va qorovullar boshlig'i.

Qo'qon xonligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

– **Otaliq** – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o'tirganidan so'ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallashgan.

– **Beklarbegi** – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba'zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

– **Biy** – turkiy qabilalarning boshliqlari.

– **Devonbegi** – xon devonining boshlig'i, Qo'qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti Qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo'lgan.

– **Xazinachi** – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs.

– **Inoq** – xonning xos va sirdosh mulozimi.

– **Eshikog'asi yoki chehraog'asi** – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig'i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo'ymaslikka javobgar shaxs.

– **Parvonachi** – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

– **Dodxoh** – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

– **Dasturxonchi** – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

– **Saroy qorovulbegisi** – xon oʻrdasining soqchilariga boshliq boʻlgan saroy amaldori.

– **Tunqator** – tun boʻyi uygʻoq boʻladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qoʻriqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

– **Oftobachi** – xonning xos mulozimlaridan boʻlib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

– **Sharbatdor** – eng oliy va faxriy unvonlardan boʻlib, xonning xos majlislari va safarlarida xizmatda boʻlgan.

– **Hidoyatchi** – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovgʻalarni qabul qilib olib, xon nazaridan oʻtkazuvchi amaldor.

– **Shigʻovul** – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga koʻra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng boʻlgan.

– **Sarkor** – saroydagi xon amaldorlarining boshligʻi. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlari-ga ham boshchilik qilgan.

– **Qushbegi (miri shikor)** – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbегining ovchi itlari, lochin va burgutlari boʻlib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar boʻlgan.

– **Salomogʻasi** – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.

– **Kitobdor** – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.

– **Risolachi** – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun masʼul boʻlgan saroy amaldori.

– **Jamʻogʻa** – xonning suhbat, qabuli hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

– **Jarchi** – xalq yigʻiladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) eʼlon qiladigan shaxs.

– **Chopquchi** – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar qilich) yasab, qoʻrchi vazifasini ham bajargan.

– **Shotir** – xon rikobi oldida yuradigan xizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni taʼzimga chorlab turgan.

– **Udaychi** – xon rikobi oldida yurib, uning shaʼniga baland ovoz bilan maqtovli soʻzlar va hamdu sanolar aytib boruvchi xizmatchi.

Yuqoridagi amal va mansab egalari oʻz xizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qoʻy, gʻalla koʻrinishida) olishgan. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan.

Butun oʻrta asrlar musulmon davlatlarida boʻlgani kabi Qoʻqon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega boʻlgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, taʼlim-tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Qoʻqon xonligida quyidagi diniy va qozixonona mansab, unvon hamda amallari mavjud boʻlgan:

– **Shayx ul-islom** – dindorlarning eng oliy unvoni boʻlib, 1818-yilda Umarxon tomonidan joriy etilgan.

– **Xoja kalon** – fikh olimi (huquqshunos) ning faxriy unvoni.

– **Xalifa** – oʻrinbosar. Qoʻqondagi naqshbandiya, qalandariya, yasaviya taraqqiyotlarining rahbarlari.

– **Aʼlam** – faqih, olim hamda shariat qonun-qoidalarining bilimdoni.

– **Oxund** – bilimli va madrasada oʻqiydigan kishi.

– **Sudur** – vaqf mulklarining daromadlari hamda hisob-kitobiga javobgar mansabdor.

– **Oʻroq** – vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga masʼul shaxs, Oʻroq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.

– **Mudarris** – madrasada taʼlim beruvchi ustoz.

– **Imom va imom xatib** – masjid imomi hamda juma namozlarida xutba oʻqib xizmat qiladigan imom.

– **Muazzin** – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.

– **Qozi ul** – quzzot – qozilar qozisi (adliya vaziri).

– **Qozi kalon** – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.

– **Qozii askar** – qoʻshin qozisi.

– **Tarakachi** – meros qolgan mol-mulklarni merosxoʻrlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.

Xonlikda dehqonchilik ekinlarining aksariyati Oʻrta Osiyo xonliklariga xos boʻlib, gʻallachilik, bogʻdorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik yaxshi rivojlangan. Donli ekinlardan makkajoʻxori yetishtirish keng tarqalgan boʻlib, u shahar va qishloqlarda kambagʻallarning asosiy isteʼmol mahsuloti hisoblangan. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga katta eʼtibor berila boshlangan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to'rtta turi mavjud bo'lib ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlar – yer egalarning xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amloq yerlari – xonga qarashli yerlar – o'rmonlar, to'qaylar, yo'l-u ko'priklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga byerilgan yerlar (suyurg'ol). 4. Baqf yerlari – diniy muassalar, ya'ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Manbalarga ko'ra, amloq xon ixtiyorida yer bo'lib, u «zami-ni xos», deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga o'z hisobidan ishlov berib, sug'organ. Olgan hosilidan esa xonga soliq to'lagan va bu soliq miqdori xiroj¹ dan ko'proq bo'lgan.

Manbalarga ko'ra, shariat qonun-qoidalarida asosida joriy etilgan asosiy soliqlar – xiroj, ushr va zakot hisoblangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekiladigan yerlardan olinadigan soliq – xiroj deb atalgan. Bu soliq hosilning beshdan bir qismini tashkil etib, 5 qop g'allaning bir qop miqdorida undirilgan. Soliqning bir qismi mahsulot, bir qismi esa pul bilan to'langan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Qo'qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa ko'plab shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik, kosibchilik va boshqalar bilan shug'ullanishgan. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko'rinishga ega bo'lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar mavjud bo'lgan. Hunarmandlar o'z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirgan mohir ustalari bo'lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san'at darajasiga ko'tarishgan.

Xonlikning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning taraqqiyoti bir xil bo'lgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish o'zining ayrim xususiyatlari, ya'ni, mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to'quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo'lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsulot bilan dong taratgan.

Hunarmandlar va kosiblar savdo orqali yaqin aloqada bo'lishgan. Hunarmandlar aksariyat hollarda o'z mahsulotlarini o'zlari sotishgan. Dehqon va chorvadorlar esa, haftaning muayyan kunlari o'z mollarini

¹ Xiroj – hosilning 1/5 dan 1/8 qismigacha tashkil etgan.

bozorga olib chiqishgan. Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. Narx-navo xonlikdagi tinchlik-osoyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab o'zgarib turgan.

Me'morchilik va amaliy san'at. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi natijasida iqtisodiyotning birmuncha jonlanishi madaniy hayotga ta'sir etmay qolmadi. Mamlakat poytaxti Qo'qon va boshqa shaharlarda bir qator me'morchilik obidalari, yo'llar, ko'priklar, hammomlar qurildi, amaliy va xattotlik san'ati rivoj topdi. XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Murodbek, Sulton Sayidxon, harbiy boshliqlardan Musulmonquli, Aliquli, Xolmuhammad mingboshilar va zamonasining ilg'or, ma'rifatli kishilari tomonidan me'moriy obidalar qurdirildi, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Me'morchilikda asosiy e'tibor madrasalar, masjidlar, xonaqolar, darvesh va qalandarlar uchun takyaxonalar, qorixonalar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, bozor rastalari barpo etish ishlariga qaratilgan.

Me'morchilik imoratlarining markazi Qo'qon shahri edi. 1842-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda 15 ta madrasa mavjud bo'lib, eng ko'zga ko'ringanlari Hakim to'ra, Mohlar oyim, Muhammadalixon, Norbo'tabek, Jomiy, Oliy, Sulton Murodbek, Xo'ja dodxoh, Ming oyim madarasalari bo'lgan. Shahar markazi Chorsuda to'rtta yirik madrasa qad ko'targan. Ushbu madrasalarning 38 tadan 108 tagacha hujrasi bo'lgan.

Ilm-fan. Tarixnavislik. So'nggi o'rta asrlarga kelib O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlaridagi ilm-fan, ta'lim va ma'rifat sohalarida diniy ta'limotlar hukmronlik qila boshladi. Boshlang'ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilgan. Diniy fanlarni o'qitish madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlar taraqqiyotida bir muncha turg'unlik kuzatiladi. Madaniy hayotda yuzaga kelgan bunday vaziyat Qo'qon xonligidagi ilm-fanning ahvoliga, ayniqsa, bu soha rivojining biryoqlamlik xususiyatiga sabab bo'lgan edi.

Umuman olganda, xonlikda aniq va tabiiy fanlar o'z rivojida davr talablaridan orqada qolib ketgan bo'lsa-da, ijtimoiy-gumanitar fanlardan

tarix va tarixnavislik, adabiyot ko'proq rivojlandi. Qo'qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar she'riy yoki qisman she'riy uslub yo'lida yozilganligi bilan ajralib turadi. Garchi bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarda maqtov, balandparvoz gaplar, hukmdor shaxsini ulug'lash kabi xususiyatlar ko'zga tashlansa-da, bu asarlar o'z davrining mahsuli sifatida, o'sha davr haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalar sifatida juda qimmatlidir.

Bular qatoriga Niyoz Muhammad Xo'qandiyning «Tarixi Shohruxiy», Mirza Olim ibn Mirza Raxim Toshkandiyning «Ansab-ul salotin va tavorix ul-xavoqin», Otabek Fozil o'g'lining «Mufassal tarixi Farg'ona», Akmal Shermuhammad Xo'qandiyning «Amirnoma», Fazliy Farg'oniyning «Umarnoma», Mirzo Qalandar Mushrifning «Shohnomai Nusratpayom», Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix», Mullo Avaz Muhammadning «Tarixi jahonnamoyi», Tohiri Xo'jandiyning «G'aroyibi sipoh» kabi ko'plab tarixiy asarlarni kiritish mumkin.

Qo'qon adabiy muhiti. Qo'qon xonligi madaniy hayotida adabiyotning o'rnini ayniqsa yuqori edi. Shuning uchun adabiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi xonlikda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'ldi.

Iste'dodli shoir va shoirlar, yozuvchilar, ya'ni o'z ilmining ustalari tomonidan shakllangan Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos xususiyati – uning vakillari ikki yo'nalishda ijod qilganliklaridadir. Birinchi yo'nalishga mansub ijodkorlar saroy shoirlari bo'lib, ularning asarlarida boy tabaqa vakillari madh etilgan. Ikkinchi yo'nalish vakillarining asarlarida esa xalqning orzu-umidlari, intilishlari, dard-u hasratlari o'z ifodasini topgan. Har ikkala yo'nalish vakillarining umumiy jihati ham mavjud bo'lib, bu ularning asarlarida Vatan timsoli, unga muhabbat hissining ilgari surilganligidir.

Qo'qon adabiy muhitining vakillari va asarlaridan Amiriy taxalusi bilan falsafiy va lirik g'azallar bitgan Umarxonni, Fazliy va Mushrif tomonidan yozilgan «Majmuat ush-shuaro» («Shoirlar to'plami») tazkirasini, Huvaydoning «Devoni Huvaydo», «Rohati dil» asarlarini, G'ulxaniy va Maxmur asarlarini, Muhammad Yunus Toib, Muhsiniy, Nasimiy, Xo'qandiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar otin, Dilshod, Zebuniso kabi ko'plab shoir va shoirlarni keltirish mumkin.



Nodirabegim



Uvaysiy

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qo'qon xonligi nihoyatda murakkab, siyosiy kurashlar avj olgan bir davrda vujudga kelib, shakllandi. Chunki, xonlik tashkil topgan davr O'rta Osiyoda buyuk imperiyalar davri o'tib, mahalliy yo'l boshchi sulola vakillari turli yo'llar bilan hokimiyatni qo'lga olib, qabilaviy konfederatsiya asosida davlat tuza boshlagan davrga to'g'ri keldi. Urushlar va o'zaro kurashlarga boy bo'lgan Qo'qon xonligi davlat boshqaruv shakliga ko'ra mutlaq monarxiya bo'lib, mamlakatda mulkdor tabaqalar, yetakchi urug'lar (ming, qipchoq, qirg'iz, saroy)larning zodagonlari, ruhoniylar, ayniqsa sayyidlar va xo'jalar yuksak maqomga ega edilar.

XIX asr o'rtalaridagi siyosiy boshboshdoqlik, o'zaro urush va nizolar mamlakat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, Qo'qon xonligi hayotining barcha sohalarida tushkunlik davri boshlanadi. Bundan unumli foydalangan Rossiya imperiyasi «o'z chegaralarida» tinchlikni o'rnatish bahonasida xonlik hududlarini bosib oldi va uning o'rniga 1876-yilda Farg'ona viloyati tashkil topdi. Shunga qaramasdan, Qo'qon xonligi mintaqadagi yirik davlatlardan biri sifatida o'ziga xosliklarga ega bo'lib, O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi.

5. Xiva xonligi. Inoqlar va qo'ng'irotlar.

Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi. 1510-yilda Shayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm hududi Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510–1512-yillarda Xorazmni Eron shohi-

ning noiblari idora qildilar. Ammo 1512-yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi xalq harakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko'hna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XV asrda o'zbek xonlardan bo'lgan Mustafaxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar.

1512-yilda Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx Ota avlodlari ko'chmanchi o'zbeklarning Berka sulton avlodidan bo'lgan Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtiga taklif qilishdi. Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniylarni mamlakat hududlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning Janubiy qismi, Eronning Shimolidagi Seraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi. Ammo, o'zbek sultonlari va shahzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Ushbu kurashlardan foydalangan Buxoro hukmdori shayboniy Ubaydullaxon 1537–1538-yillarda, qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Ubaydullaxonning hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Ubaydullaxon zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning vorislari boshchiligida buxoroliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishdi. Ubaydullaxon 1538-yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Hazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. O'zaro kurashlar va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'lgan edi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Hojixon (Hoji Muhammadxon, 1558–1593, 1598–1602) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz barham berilib tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Sug'orish va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sodiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib, tashqi savdo hamda munosabatlar rivoj topdi. Hojixon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga¹ ko'chiriladi. Bunga asosiy sabab birinchidan, Amudaryo o'zaning o'zgarib Kaspiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda si-

¹ Xivaning poytaxtga aylanganligi sanasi to'g'risida – 1556-yil, 1598-yil, 1602–1621-yil, 1611–1612-yil, 1610–1612-yil, 1557–1603-yil. kabi fikrlar mavjud.

yo'siy va iqtisodiy mavqei ancha kuchayib, asosiy savdo markaziga aylanishi yana bir sabab edi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi.

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II Shayboniylar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'lib Xorazm hududlarini yana Shayboniylar tasarrufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurishlardan so'ng 1593-yilda Xorazm yana Shayboniylar qo'liga o'tdi. Abdullaxondan mag'lubiyatga uchragan Hojixon Xivani tashlab bir guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos saroyidan panohtopdi. 1598-yilda Abdullaxon II vafot etganidan so'ng Hojixon shoh Abbosdan ruxsat olib Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o'ziga olib Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazoraspni Isfandiyor Sultonga berdi. 1600-yilda Hojixon Urganch va Vazir qal'alari boshqarishini Turkiyadan kelgan o'g'illariga topshirib, o'zi Xivada kichik o'g'li Arab Muhammadxon bilan qoladi. 1601-yilda Hojixon 83 yoshida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Arab Muhammadxon (1602–1623) o'tirdi.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toj-u taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605-yilda nayman urug'i va killari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav Sultonni taxtga o'tkazishni rejalashtiradilar. Ammo, bu fitna oshkor bo'lib, Xusrav Sulton qatl etiriladi. Oradan ikki yil o'tgach, uyg'ur oqsoqollarining maslahati bilan Solih Sulton degan kimsa taxtga davogar bo'ladi, bu isyon ham bostirilib, Solih Sulton o'ldirildi.

1616-yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o'g'illari ham qo'shilishdi. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abdulg'oz, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg'on Sulton ismli yetti nafar o'g'li bor edi. Isfandiyor Hazoraspda, Abdulg'oziy Sulton Katda, Habash bilan Elbars sultonlar Vazir va Urganch hokimlari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining har biri taxtga davogar edi. Ayniqsa, Habash sulton bilan Elbars sultonlarning harakatlari keskin edi. Ota-bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib oxir-oqibatda qonli urushga aylandi. 1621-yilda Toshli Yorilish arig'i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon va uning o'g'illari Habash hamda Elbars sulton qo'shinlari o'rtasida jang bo'ldi. Isfandiyor va Abdulg'oziy sultonlar otasi tomondan turib kurashgan bo'lsalar-da, bu jangda Arab Muhammadxon yengildi. Arab Muhammadxon avval

ko'zlari ko'r qilinib Xivaga jo'natildi. 1623-yilda esa Qum qa'lasida yaqinida Arab Muhammadxon xotinlari, yosh o'g'illari va ikkita nabirasi bilan o'g'illari Habash va Elbars sulton tomonidan o'ldirildi. Isfandiyor Eronga (garchi unga Makkaga borishga ruhsat byergan bo'lsa-da), Abdulg'oziy esa Buxoroga qochib, jon saqlashdi. 1623-yilda otasining qatl etirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulxon tog'laridan, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug'laridan qo'shin to'plab Urganchga yurish boshladi. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash – Elbars qo'shinlari o'rtasida 23 kun davom etgan jangda birlashgan aka-ukalar qo'shinlari Isfandiyor qo'shini tomonidan tor-mor etildi. Elbars qo'lga olinib qatl etildi. Habash Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlardan najot so'radi. Ammo, u bu yerdan boshpana topolmadi va navkarlari bilan qo'lga olinib, Isfandiyorxonga topshirildi hamda ularning barchasi qatl etildi.

1623–1643-yillar davomida Xiva xonligi taxtini Isfandiyorxon boshqardi. O'zining yigirma yillik davlat boshqaruvini Isfandiyorxon turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Xonlikning yuqori lavozimlariga turkmanlar tayinlanib, ularga katta imtiyozlar berildi. Natijada o'zbek urug'larning Isfandiyorxon siyosatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Isfandiyorxon taxtga o'tirgan yiliyoq nayman urug'lari ni qirg'in-barot qildi. Xonlikdagi o'zbek urug'lari uch bo'lakka bo'linib, biri – Mang'it, biri – Qozoqlar yurti va yana biri Movarunnahrga ko'chib ketdi. Oradan ko'p o'tmasdan o'z yurtiga qaytib kelgan o'zbeklar Isfandiyorxon tomonidan qilichdan o'tkazildi.

Isfandiyorxon xonligi davrida ham Xorazmda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilmadi. Toj-u taxt uchun kurashlar ilgari davrlardagidek davom etdi. Xonlikdagi siyosiy hokimiyatni turkmanlar qo'lga berib qo'ygan Isfandiyorxondan norozi bo'lgan kuchlar uni taxtdan chetlatish rejalarini tuzishdi. Bu kuchlarga xoning ukasi Abulg'oziy boshchilik qildi. Shuningdek, Amudaryoning Orolga qo'yilish joyida (Orolbo'yi)da istiqomat qilgan o'zbeklar (bu yerda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy mavqega ega edilar)ning xonlikning siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib bordi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 1643-yilda Orolbo'yi o'zbeklari Abulg'oziy sultonni (1643–1663) xon qilib ko'tarishdi. Xorazm davlat-hiligi tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abdulg'ozixon otasi Arab Muhammad taxtdan ketgach o'zi taxtga o'tirgunga qadar

uzoq yillar (yigirma yildan ko'proq) muhojirlikda yashashga majbur bo'lgan edi. Va nihoyat 1643-yilda Urganchga qaytib, Orolbo'yi o'zbeklari yordamida Xiva taxtiga o'tiradi.

Bu paytda xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urg'ularining boshliqlari qo'yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma'lumot berishicha, Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqei ortib bordi hamda ularning 360 nafar vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi.

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abulg'ozixon tarixchi, tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Taxminan 1657-yilda Abdulg'oziy tabobatga oid «Manafi' ul-inson» («Insonga foydali narsalar») nomli asarini yozgan bo'lsa, 1658–1664-yillarda «Shajarai turk» nomli tarixiy asarlarini yaratdi.

Abulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxon (1663–1687)ga topshirdi va oradan olti oy o'tib vafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqei va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi. Lekin 1687-yilda saroy ayonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687–1688) o'tkaziladi. Afsuski yangi hukmdorning xonlik faoliyati uzoq davom etmadi. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, siyosatda bilimdon va xalqqa adolatli xon sifatida obro' orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon¹ shahid etdi. Ammo, Arangxonning (1689–1690) hukmronligi ham uzoq davom etmadi. 1690-yilda u Orol o'zbeklari bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

Arangxon vafotidan so'ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z odami Shohniyozni (1690–1707) o'tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoroga vassal davlatga aylantirdi. Shuning uchun ham Shohniyoz garchi o'zini xon deb e'lon qilgan bo'lsa-da, o'z faoliyati davomida Buxoro ta'siridan qutulolmadi.

Shohniyoz Buxoro ta'siridan qutulish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 1703-yilda Rossiya hukmdori Pyotr I ga maktub yo'llaydi. Bu maktubda Xiva xonligini Rossiyaga qo'shib olish

¹ Ayrim adabiyotlarda Emakxon yoki Erangxon deb ham beriladi.

so'ralgan edi. Pyotr I ning Xivani Rossiya tarkibiga qo'shilganligi haqidagi yorlig'i 1707-yilda Xivaning yangi hukmdori Arab Muhammadga (1707–1715) topshiriladi. Ammo Xivada siyosiy kurashlar avj olib turgan sharoitda ushbu yorliq hech kimning e'tiborini tortmadi. Umuman, Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Arangxon davridan to Sherg'ozixon davriga qadar Xivada o'nlab hukmdorlar almashishgan.

Sherg'ozixon (1715–1728)ning hukmronligi davri siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Uning hukmronligi o'zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Bu paytga kelib, Orolbo'yi o'zbeklari orasida ham siyosiy vaziyat keskinlashib ketgan edi.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Rossiya hukmron doiralari O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlashgan edi. Rossiya hukmdori Pyotr I ning 1717-yilda Xivaga uyushtirgan Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo Sherg'ozixonning hiyla ishlatishi natijasida olti ming kishidan iborat bu ekspeditsiya bir kechada qirib tashlandi. Shunga qaramasdan to O'rta Osiyo bosib olinmagunicha Chor Rossiyasi hukumatining bunday harakatlari davom etdi.

O'zaro ichki kurashlar, shahzodalarning o'zaro mojaralari, ko'plab yig'iladigan soliqlar xonlikdagi iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib yubordi. Natijada, 1728-yil Xivada hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu yerda xonning zulmiga qarshi qullar bosh ko'tarishgandi. Oqibatda Sherg'ozixon va uning yaqin mulozimlari o'ldirildi.

Sherg'ozixon o'limidan keyin taxtga o'tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728–1740) davrida ichki kurashlar davom etib, qo'shni hududlarga ko'plab talonchilik yurishlari uyushtirilib turishi natijasida Xiva xonligining harbiy qudrati zaiflashib bordi. Bu vaziyatdan unumli foydalangan. Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Xiva xonligiga hujum boshladi. Dastavval Hazorasp yonida Xiva qo'shinlari bilan eroniylar o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Xiva qo'shinlari yengilib, Hazorasp qal'asiga chekindi. Eroniylar Hazorasp qal'asini uzoq muddat qamal qilib uni egallay olmagach, Xonqa qal'asiga hujum qilishdi. Bu paytda vaziyat o'zgarib, Elbarsxonga madad berib turgan mang'it beklari Nodirshoh tomonga o'tib kyetishdi. Oqibatda Elbarsxon yengildi va qo'lga olinib, Nodirshoh tomonidan qatl etildi.

Elbarsxonning mag'lubiyatidan so'ng qozoqlarning kichik juz qabilasi boshlig'i, rus fuqaroligini qabul qilgan Abulxayrxonni Xiva taxtiga o'tqazishdi. Abulxayrxon sulh tuzish uchun Nodirshohga noma yubordi, rad javobini oldi. Oradan qisqa vaqt o'tib, Nodirshoh Xivaga ikkinchi marta yurish qildi va uni egalladi. Abulxayrxon esa qozoq dashtlarga qochib ketdi. Bu yerga Nodirshoh Mang'it beklaridan bo'lgan Ortiqbek va Xo'rzodbeklarni noib etib tayinladi. Ammo, Orolbo'yi o'zbeklari Nodirshohga itoat etishdan bosh tortib, Abulxayrxonning o'g'li Nuralini o'zlariga xon qilib ko'tardilar. 1741-yilda Xivada eroniyarlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, Nodirshohning noiblari o'ldirildi, askarlari ham qirib tashlandi. Xivaga Nuralixon xon qilib o'tqazdirildi. Ammo, Nuralixonning xon sifatida siyosiy ta'siri deyarli yo'q edi.

1741-yilda Nodirshoh o'g'li Nasrullo boshchiligidagi yana Xivaga yurish qilib Nuralixon va uning tarafdorlarini Xivadan haydab yubordi. Taxtga esa Elbarsxonning o'g'li Abdulg'ozii II xon qilib o'tqazildi. Ammo uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi. 1746-yilda Xivada Mang'it inoqlari tomonidan uyushtirilgan fitnada Abdulg'ozii II o'ldirildi. Shundan so'ng Nodirshohning roziligi bilan 1747-yilda qozoq sultoni Abulxayrning ukasi Taibxon (Kaipxon, 1747–1757) taxtga o'tqazildi. Manbalarda Taibxonning nihoyatda zolim hukmdor bo'lganligi eslatiladi. U Xiva taxtiga o'tirgach avvalo, hokimiyatini inoqlar ta'siridan xalos qilish maqsadida Mang'it inoqlaridan bo'lgan Huzurbekni tarafdorlari bilan qatl ettirdi. Davlatdagi yirik mansablar esa qozoq beklariga bo'lib berildi. Taibxon aholiga nisbatan jabr-zulmini kuchaytirib, 1756-yilda Xiva aholisidan 40 ming tanga qo'shimcha soliq yig'ib oldi. Bu esa Xivada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Taibxon taxtni tashlab qozoq dashtlarga qochib ketdi. Hokimiyatni esa qisqa muddat uning ukasi Abdullaxon egalladi.

Xivadagi ichki nizolardan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimiy Xivani o'z ta'siriga o'tkazish harakatini boshladi. Shu maqsadda o'z odami Temur G'ozixon (1757–1763)ni Xiva taxtiga o'tqazdi. Temur G'ozixon ham Xivada etarli darajada siyosiy barqarorlik o'rnatgan bo'lsa-da, uning hukmronligi davridan boshlab xonlikda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan inoqlarning mavqei ortib bordi. Temur G'ozixon bir necha yil hukmronlik qilib, saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng Xiva hokimiyati qozoq sultoni Tavkaxon (1763) qo'lga o'tdi. Biroq oradan ko'p o'tmasdan u

ham taxtdan mahrum bo'ldi. 1763-yilda inoq Muhammad Amin amalda Xivadagi oliy darajadagi hukmdorga aylandi.

Xiva qo'ng'irotlari sulolasining siyosiy tarixi. 1763-yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'irotni urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804-yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shaxsni xon qilib e'lon qilishdi. Qo'ng'irotni sulolasi hukmdorlaridan Muhammad Amin inoq (1763–1790) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. Yangi xon shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770-yilda turkmanlar hujumini, 1782-yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukmronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizolari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790–1804) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804-yilda Xiva taxtiga o'tirib, soxta xon Abdulg'ozni V ni haydab yubordi va o'zini rasmiy xon (1804–1806) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotni sulolasi hukmronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1806-yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I (1806–1825) markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga etkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat'iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Dushmanlariga, markazdan qochuvchi kuchlarga nihoyatda beshafqat bo'lgan Muhammad Rahimxon I o'z atrofiga o'zbek, turkman,

qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to'plab, ularga amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e'tibor berilib, Shayxulislom Kengashning a'zosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining xalq orasidagi mavqei hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tartibga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlarni amalga oshirdi. Juda qiyinchilik bilan bo'lsa-da, 1811-yilda Orol-Qo'ng'irotni tobe ettirildi. 1812–1813-yillarda Sirdaryo bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo'shin yuborilib, ular Xiva xoniga bo'ysundirildi. Shundan so'ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakati boshlandi. Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammad Rahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825–1842) va nabirasi Rahimqulixon (1842–1845) davrida ham davom etdi. Olloqulixon 1842-yilda vafot etgach taxtga uning o'g'li Rahimqulixon o'tirdi. Taxtni egallagan yangi xon ham Janubiy Turkmaniston yerlariga hujum boshladi. U shuningdek Hazorasni qamal qildi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu orada Rahimqulixon Chorjo'yni qamal qilib, uning atrofidagi qishloqlarni taladi. Rahimqulixon Xuroson uchun bo'lgan janglarning birida halok bo'lgach taxtga uning ukasi Muhammad Aminxon (1845–1855) o'tirdi.

Muhammad Aminxon hukmronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib qatl etishdi. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Aminxon Marv va Seraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan, faqatgina 1854-yilda Marv qo'zg'oloni qiyinchilik bilan bostiriladi. 1855-yil Seraxs ostonasida turkmanlar bilan Xiva lashkarlari o'rtasida bo'lgan jangda Xiva

qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali halok bo'lishadi.

1855-yil Said Abdullaxon (besh yarim oy – 1855-yil 20 mart – 27 avgust) Xiva taxtiga o'tirdi. Ammo, bir guruh saroy amaldorlari Said Abdullaxonni tan olmasdan unga qarshi fitna uyushtirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o'rnatishdi hamda ularni isyonga chorlashdi. Yovmutlar isyon ko'tarib G'ozovot va Ilonli atroflarida qishloqlarni talay boshlashdi. Said Abdullaxon Xivadagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtirokchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xiva qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yovmutlar mag'lubiyatga uchrab dasht ichkarisiga chekingan bo'lsalar-da, avgustning oxirida yovmutlar Xiva navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) to'satdan tunda hujum qilishdi. Bu hujumda Xiva navkarlari mag'lubiyatga uchrab, Said Abdullaxon o'ldirildi.

Bu voqeadan keyin saroydagi vazir Muhammad Yoqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayid Abdullaxonning o'n yetti yashar ukasi Qutlug' Murodni xon qilib ko'tarishdi, Yoqub mehtar va Ibrohim qo'shbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edi. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug' Murodxonga bo'ysunmagan turkman yovmutlari Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar Jorliq To'rani o'zlariga xon deb e'lon qilishdi. Qutlug' Murodxon ularning isyonlarini qiyinchilik bilan bostirdi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi (to'rt yarim oy). Qutlug' Murodxon o'z ukasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatilib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o'ldirildi.

Qutlug' Murodxon o'limidan so'ng Xiva taxtiga Sayid Muhammadxon (1856–1864) xon qilib ko'tarildi. U hokimiyatga kelgan paytda xonlikda siyosiy vaziyat keskinlashgan, iqtisodiy ahvol nihoyatda og'ir bo'lib, ko'pchilik viloyatlarda ocharchilik hukm surgan, yuqumli kasalliklar tarqalgan edi. Vaziyatni to'g'ri baholay olgan Sayid Muhammadxon yuz berayotgan isyonlarni tinch yo'l bilan hal qilish, tinchlikni qaror toptirish, iqtisodiyotni tiklash choralarini ko'rdi. Ammo xonlikdagi ichki notinchlik to'xtamadi. Xonlikda faqat o'zbek urug'larigina emas balki, yarim ko'chmanchi va chorvador aholi bo'lgan turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlar og'ir soliqlar va turli to'lov hamda majburiyatlarga tortilganligi bois xonlikning turli shahar va viloyatlarida noroziliklar, isyonlar bo'lib turdi.

Sayid Muhammadxon 1864-yil 10-sentabrda kasallanib vafot etgach taxtga uning o'g'li Sayid Muhammadxon Rahimxon II (1864–1910) o'tirdi. Soniy va Feruz nomlari bilan ham ma'lum bo'lgan bu hukmdor Xiva xonlari orasida eng adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan.

Uning zamondoshlari bo'lgan Ogahiy va Bayoniylar asarlarida Sayid Muhammadxon Rahimxon II (Feruz) faoliyatida adolatparvarlik va haqgo'ylik, qattiqqo'llik va talabchanlik bilan, ma'rifatparvarlik esa tashabbuskorlik bilan uyg'unlashib ketganligi haqida ma'lumot berishadi.

Zamonaviy Xorazm tarixchilari Sayid Muhammadxon Rahimxon II hukmronligini ikki bosqichga ajratishadi. Birinchi bosqich – 1864–1873-yillar, xon hukmronligining dastlabki o'n yilligi bo'lib, bu davrda Muhammadxon Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni qaror toptirish, qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik, fan va madaniyatni yuksaltirish yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ikkinchi bosqich – 1873-yil avgustdan 1910-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1873-yilda Xiva general Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari tomonidan bosib olingach, tuzilgan sulhga binoan Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi. Bu davrda Muhammadxon Rahimxon II ning faoliyati Rossiya hukumati tomonidan qat'iy cheklandi va nazorat ostiga olindi. Shunga qaramasdan xon o'zining adolatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini davom ettirdi.

Muhammadxon Rahimxon II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Sayid Isfandiyor (1910–1918) o'tirdi. Isfandiyorxon xonlik davrini yangiliklardan boshladi. Uning farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan to'lab kelayotgan soliqlarning bir necha turi qisqartirildi. General-mayor unvoniga ega bo'lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus hukumatiga tobe edi. Uning davrida xonlikda bir qancha qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Xon bu qo'zg'olonlarni ruslar yordamida bostirdi. 1918-yil 1-oktabrda turkman Qurbon Muhammad Sardor (Junaidxon)ning buyrug'i bilan Isfandiyorxon o'ldirildi. Hokimiyatni Junaidxon o'z qo'liga oldi. Ammo, u Xiva taxtiga o'tira olmas edi. Shu bois ham Isfandiyorxonning ukasi Said Abdullaxon (1918–1920) nomigagina xon qilib ko'tarildi. 1920-yil 2-fevralda Xivaga kirib kelgan qizil armiya qo'shinlari Junaidxon lashkarlarini tor-mor etib, hokimiyatni sovetlarga topshirdi.

Xiva xonligining hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi. Xonlikning aniq chegaralari haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki, xonlik paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab siyosiy vaziyat va harbiy harakatlarga qarab davlat chegaralari doimiy ravishda o'zgarib turgan. XIX asrga kelib xonlik tarkibiga turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning qo'shilishi natijasida davlat sarhadlari ancha kengaydi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI–XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy hududlar bekklik deb atalgan. Manbalarga ko'ra, bu davrda xonlikda 16 ta bekklik va 2 ta noiblik mavjud edi.

Umuman olganda, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.

Xiva xonligining o'troq dehqonchilik vohalarida asosan o'zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining katta ko'pchiligini tashkil etishgan. Xonlikda, shuningdek turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, kam miqdorda tojiklar, yahudiylar, hindlar, eroniylar, ruslar, armanlar, nemislar ham yashashgan. Xiva xonligidagi aholining umumiy soni haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Arxiv manbalarini chuqur o'rgangan olim M. Yo'ldoshev XIX asr o'rtalarida xonlikda 800 mingga yaqin odam istiqomat qilganligi haqida ma'lumot beradi.

Xon saroyidagi unvon va mansablar. Unvonlar orasida eng kattasi inoq edi. Odatda inoqlar eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda ular xonning yaqin maslahatchilari bo'lishgan.

Otaliq – urug' oqsoqoli. Inoq boshliq to'pa (guruh) ga birlashgan urug' boshlig'i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug'ning boshlig'i hisoblanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga beriladigan unvon edi.

Amir ul-umaro – Amirlarning amiri, Xiva xonligida XIX asrning o'rtalarida ta'sis etilgan.

Qo'shbegi – Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajargan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan.

Mehtar – katta, ulug' degan ma'noni beradi. Mehtar saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub ayonlardan tayinlangan.

Beklarbegi – Qoraqalpoq va ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'riligini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

Bek – XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida beklar ancha katta rol o'ynashgan. Bek – xon va davlat arboblarning qarindoshlariga, farzandlariga beriladigan faxriy unvondir.

Parvonachi – xon saroyidagi oliy vazirlardan biri. Parvonachi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin bo'lgan. U arz-u shikoyatlarni xonning huzuriga olib kirib, javobini qaytargan. Shuningdek, parvonachi xonning formonlarini saroy ayonlariga yetkazib turgan.

Eshikoqosi – saroy darvozalarini qo'riqlash ishlarini boshqargan. Oybolta uning mansab alomati bo'lgan. Hukmdor saroyda bo'lgan vaqtda eshikoqosi uni qo'riqlash bilan shug'ullangan.

Mahram – ishonchli xizmatkor, sidqidildan xizmat qiluvchi saroy ichkarisidagi xodim ma'nolarini anglatadi. Mahramlar xonga yaqin kishilar hisoblangan. Davlat boshqaruvida ular bevosita xonning maslahatchilari bo'lishgan. Mahramlar xonning oromxonasiga kirish huquqiga ega bo'lishgan.

Xonlikdagi diniy hamda qozixona unvonlari. – Xivada davlatni boshqarish bo'yicha islom dini mafkuraviy asosni tashkil etgan. Qonunlar shariat tartib va yo'riqlari asosida amal qilgan.

Shayx ul-islom – xonlikdagi eng yuqori martabali kishi edi. U diniy marosimlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan. Marosimlar paytida shayx ul-islom xonning o'ng tomonida o'tirish huquqiga ega bo'lgan.

Qozi ul-quzot (qozi kalon) – musulmon huquqi va qonunlar bajarilishini shariat asosida nazorat qilgan. Qozi kalon poytaxtda o'z devoni va mahkamasiga ega bo'lgan. Viloyat markazlarida ham viloyat qozisi bo'lgan. Ular mahkamalarining nomi Dor ul-qazo deb atalgan.

Mufti – qozilarning huquqshunoslari hisoblangan. Ular biror ish ko'rilayotgan paytda ishtirok etishlari, hukmona tuzishlari va hukmlarning to'g'riligini tasdiqlash uchun hujjatlarga muhrlarini bosishlari

lozim edi. Xivada bosh mufti yettita bo'lib, barcha muftilarning xon yonida o'rni bor edi. Lashkarda o'zining mufti lashkari xizmat qilgan.

Yer egaligi va dehqonchilik. Butun O'rta Osiyo hududida bo'lgani kabi Xiva xonligida ham yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: davlatga qarashli erlar yoki podsholik yerlari; xususiy shaxslarga qarashli yerlar; diniy muassasalarga qarashli yerlar yoki vaqf yerlari.

Podsholik yerlari bevosita davlatga, xonga tegishli bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Davlat erlariga doimiy sug'oriladigan ekinbop yerlardan tashqari tashlandiq yerlar, qumlik, adirlar va yaylovlar, ko'l va to'qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari bosib olingan hududlar, xonga qarshi mulkdorlarning musodara qilingan yerlari, yangi yerlarning o'zlashtirilishi hisobiga ham kengayib borgan. Davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bevatan (yersizlar)larga foydalanish uchun bo'lib berilgan.

Xonlikda donli ekinlardan bug'doy yetishtirish nisbatan keng rivojlangan bo'lib, bug'doy Pitnakdan Shohabbozgacha bo'lgan hududlarda ayniqsa ko'p ekilgan. Paxta yetishtirish asosan Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa, Shohabbozda rivojlangan. Paxta chigitidan yog' olinib, tolasi mahalliy hunarmandlar ehtiyoji va tashqi bozorga chiqarilgan. Suv ko'p talab qilmaydigan (Hazorasp, Qo'ng'iroq, Toshhovuz, Ilonli, Fazovat, Mang'it va Gurlan) kunjut, no'xat, mosh, arpa va boshqa ekinlar ekilgan. Sabzavot – poliz ekinlari ko'plab, yetishtirilgan. Xorazm qovunlari qo'shni hududlarda ham mashhur bo'lgan. Bog'dorchilik ham ancha taraqqiy etgan. Ammo, ipakchilik kam miqdorda rivojlangan.

Xonlikning o'troq dehqonchilik tumanlarida chorvachilik yaxshi rivoj topmagan. Vohalarida yirik hayvonlar dehqonchilikda (yer haydash, hosilni yanchish, suv chiqarish va boshq.) foydalanish, go'sht va sut mahsuloti uchungina boqilgan. Xonlik aholisining go'shtga bo'lgan talabini ko'chmanchi turkman va qozoq qabilalari qondirishgan. Ko'chmanchilar qo'y, yilqi, tuya yetishtirib aholining go'sht, sut, teri, jun bilan to'la ta'minlab turgan.

Soliq siyosati. Xiva xonligida qo'shni davlatlarda bo'lgani kabi xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi soliqlar mavjud bo'lgan. Xonlikdagi yarim o'troq va chorvador aholi ham davlat xazinasiga belgilangan miqdorda xiroj va zakot to'lashgan. Chorvador aholi xon xazinasiga zakot solig'i to'lagan. XIX asr boshlariga qadar bu soliq natura ko'rinishida, 40 bosh chorva hisobidan bir bosh undirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda zakotni

undirishga o'tilgan. Endilikda chorvadorlar yirik chorva uchun 40 bosh chorvadan 5 tillo, mayda chorvaning har 40 boshiga 10 abbos (10 abbos – 25 kumush tanga) miqdorida soliq to'laganlar.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Shaharlar. Xorazm hunarmandchiligi ixtisoslashgan bo'lishiga qaramay, yarim ko'chmanchi xo'jaliklarda uy hunarmandchiligi ustunlik qilgan. Hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biri to'qimachilik edi. Ko'chmanchi aholining turli matolarga bo'lgan talabi va qisman tashqi bozor uchun mahsulot yetkazib beruvchi to'qimachilik sanoati rivojini taqozo etgan. Xonlikda ipak, yarim ipak va paxta matolar ishlab chiqarilgan. Matolar asosan qo'lda tayyorlangan.

Undan tashqari xonlikda kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik duradgorlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari ham rivojlangan. Manbalar shahar va qishloqlarda er haydaydigan moslama tayyorlovchilar (pazachi), ot abzali tayyorlovchilar (kuchanchi), misgarlar, zargarlar, pichoqchilar, telpakdo'zlar, qulfgarlar, juvozchilar, shamchilar kabilar haqida ma'lumotlar beradi.

Xiva xonligi savdogarlari qo'shni Buxoro va Qo'qon xonliklari, shuningdek Xitoy, Eron, Afg'oniston, Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borishgan. Bu davlatlarga Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan birga mahalliy mahsulotlar (zargarlik buyumlari, gilamlar, otlar) ham olib borilgan. Chet davlatlardan asosan turli matolar, metall, ziravorlar, bo'yoqlar, fil suyagi, shakar (qand) kabi mahsulotlar keltirilgan.

Madaniy hayot. Me'morchilik. Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotida bo'lib o'tgan voqealar madaniy hayotga ta'sir etmasdan qolmadi. Shunga qaramasdan xonlikdagi madaniyat o'ziga xos yo'nalishlarda davom etdi. Madaniy hayot ravnaqi ta'lim-tarbiya, adabiyot, tarixnavislik, me'morchilik va amaliy san'at kabilarda kuzatiladi.

Butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi, Xiva xonligida ham asosiy ilm o'chog'lari boshlang'ich maktablar va madrasalar edi. Boshlang'ich maktab, ya'ni, quyi ta'limda o'qish-yozishni o'rganib, xat-savod chiqargan o'smirlar poytaxt Xivadagi hamda Buxorodagi madrasalarda o'qib ta'lim olishgan. Manbalarga ko'ra, XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 130 ta madrasa bo'lgan. Faqat Xivaning o'zida 22 ta madrasa bo'lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg'ozixon, Rahmonberdiy, Olloqulixon, Xoja Mahram, Fozilbek,

Davlat Qorako'z, Bekniyoz devonbegi madrasalari alohida nufuzga ega edi.

Xorazm adabiy muhitida ilg'or g'oyalarni targ'ib etgan shoirlardan biri Nurmuhammad G'arib Andalib (1710–1770) edi. Klassik poeziyaning turli janrlarida ijod qilgan Andalibning «Said Baqqos», «Zaynul arab», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» kabi dostonlari mashhurdir.

Xivada ijod etgan shoirlar ichida Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) alohida o'ringa ega. Tarixchi, tarjimon va shoir bo'lgan Ogahiyning 1832-yilda tuzilgan «Ta'vizul oshiqon» («Oshiqlar tumori») devonidagi g'azallari ayniqsa mashhurdir. Bu davrda, shuningdek Pahlavon Ravnag, Muhammad Niyoz Nishotiy, Muhammad Xokisor, Tabibiy, Munis, Komil Xorazmiy, Komdon, Murodiy kabi shoirlarning ijodi rivoj topdi. XVII–XVIII asrlarda «Go'r o'g'li» majmuasi dostonlari rivojlantirildi, «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sayyod va Hamro», «Sanobar», «Yusufbek va Ahmadbek», «Bahrom va Dilorom» kabi dostonlarning folklor va xalq og'zaki ijodidagi ko'rinishlari taraqqiy etdi.

Bu davrda tarixnavislikdagi ilgorigi an'analar saqlanib qoldi. Tarixiy asarlar orasida Abulg'ozining «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» («Turkmanlar shajarasi») o'zbek tilida bitilgan muhim tarixiy asarlar hisoblanadi. Tarixnavislik an'alarini keyinchalik Munis, Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi tarixnavislar davom ettirishdi.

XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxonning buyrug'i bilan Shermuhammad Munis (1778–1829) «Firdavs ul-iqbol» («Baxt-u saodat jannati») asarini yaratdi. Xiva xonligining XVIII–XIX asrlar tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi bu asarni keyinroq Olloqulixon topshirig'i bilan Munisning jiyani Ogahiy davom ettirdi va 1872-yilgacha bo'lgan voqealar bilan boyitdi. Shuningdek, Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar orasida Bayoniy (1859–1923)ning «Shajarai Xorazmshohiy» asari ham qimmatli hisoblanadi.

Xorazm O'rta Osiyoda o'ziga xos uslublarga boy bo'lgan me'morchilik maktabiga ega voha hisoblanadi. Bu hududda paydo bo'lgan me'moriy inshootlar nafis bezaklari, jimjimador naqshlari bilan Xorazm me'morchilik maktabining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi. XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligida ko'plab inshootlar bunyod etildi. Ayniqsa, xonlikning poytaxtlari Urganch va Xiva shaharlarida ko'plab

saroylar, masjid va madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar, yopiq bozorlar qurilgan. Xivadagi me'moriy yodgorliklar asosan Ichan (ichki) qal'ada bunyod etilgan. Xonning yozgi qarorgohi bo'lgan Dishan (tashqi) qal'a ham nodir me'morchilik namunasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XVI–XX asrning boshlarida mavjud bo'lgan Xiva xonligi – O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixida, iqtisodiy va madaniy hayotda o'z o'rniga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotining mintaqa hududlaridagi o'ziga xos tomonlari o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Uning tarixi O'zbekiston tarixining ajralmas qismidir.

Tayanch so'zlar

Xon, otaliq, amir, Movarounnahr, Dashti Qipchoq, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang'it, qo'ng'iroq, ming, devonbegi, qozikalon, qo'shbegi, qipchoq, mulk, Buxoro, Xiva, Qo'qon, inoq, munshiy, ko'kaldosh, Balx, majhul mulk, to'lg'ama, Dashti Qipchoq, dargoh, devon.

Savol va topshiriqlar

1. Dashti Qipchoq va Movarounnahr o'rtasida XV asr oxirlari XVI asr boshida kechgan munosabatlarining etnik shakllanish jarayoniga ta'sirini tushuntirib bering.
2. Shayboniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi tizimida kechgan jarayonlar nimalardan iborat bo'lgan?
3. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri me'morchiligi xususida gapirib bering.
4. Ashtarxoniylar siyosiy tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyati nimada edi?
6. XVIII asr oxirlari – XIX asr boshida Xiva xonligidagi siyosiy holat qanday bo'lgan?
7. O'zbek xonliklarining XVIII–XIX asr I-yarmida Rossiya bilan kechgan o'zaro munosabatlari haqida ma'lumot bering.
8. XVII–XIX asr tarixshunoslik maktabi vakillari faoliyatlarini izohlab bering.

8-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – Toshkent: «Yangi asr avlodi». 2006.
2. Muqimov Z. Shayboniy davlati va huquqi. – Toshkent: «Adolat», 2007.
3. Бабаджонов Б. М. Кокандское ханство: власт, политика, религия. – Ташкент-Токио: «Янги нашр». 2010.
4. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: «Fan». 1996.
5. Xorazm tarixi. 1-jild. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir M. Matniyozov. – Urganch, 1997.
6. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal egaligi va davlat tuzilishi. – Toshkent, 1959.
7. История Узбекистана. Колл-в. авторов. – Ташкент, 1993.
8. Sagdullayev A. va bosh. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: «Akademiya», 2000.
9. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: «Akademiya», 2006.
10. Eshov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
11. Sagdullayev A., Aminov B., Yakubov B. Qashqadaryo tarixidan lavhalar. – Qarshi: «Nasaf», 1997.
12. Xoliqova R. Rossiya – Buxoro: tarix chorrahasida. – Toshkent: «O'qituvchi», 2005.

9-mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.

Reja:

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishining siyosiy va iqtisodiy sabablari.
2. Xonliklarni bosib olish amalga oshirilgan harbiy harakatlar. Turkiston general-gubernatorligi.
3. Qo'qon xonligining tugatilishi. Farg'ona viloyati.
4. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining hududlariga bosqinchilik yurishlari. Amirlikning qaram davlatga aylantirilishi. Abdulmalik to'ra (Katta to'ra) boshchiligidagi ozodlik harakati.
5. Xiva xonligining qaram davlatga aylantirilishi.
6. Rossiya imperiyasining mustamlaka boshqaruv usuli. Turkistonni Rossiyaning sanoat o'lkasiga aylantirilishi. Agrar siyosat.
7. O'lkada milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Rossiya imperiyasining xonliklar hududlariga dastlabki harbiy harakatlar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyaning Turkiston o'lkasiga uyushtirgan bosqinchilik yurishlari, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, milliy-ozodlik harakatlari, umuman, imperiya bosqinining maqsad-mohiyati va oqibatlari haqidagi manbalar – qo'lyozma asarlar, esdaliklar, xotiralar, hujjatlar va arxiv ma'lumotlari majmui katta hajmi tashkil etadi. Afsuski, sovet davrida ularning barchasi bir yoqlama tadqiq etilib, masalaning mohiyatiga xolisona baho berilmadi.

Mavzu bo'yicha ko'plab tarixiy asarlar mavjud bo'lib, ularning eng muhimlari quyidagilardir: Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotin mang'itiya», Muhammad Attor Xo'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Ibratning «Farg'ona tarixi», Yusuf Bayoniyning «Shajari Xorazmshohiy», Hakim Ma'sumxonning «Muntaxib ut-tavorix», Muhammad Sodiq

Munshiyning «Qoʻqon xonligi tarixi», «Tarixi Manzum», Aziz Margʻiloniyning «Tarixi Aziziy», Ahmad Donishning «Mangʻit amirlari tarixi», Muhammad Fozilbekning «Mukammali tarixi Fargʻona» asarlari va hokazo.

Oʻtgan asrning 20-yillarida G. I. Safarov, P.G. Galuzo, A. Z. Balidiy va boshqa kabi mualliflarning tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati oʻz aksini topdi. Ushbu mavzuni tadqiq etish, oʻrganish XX asrning 20-yillaridan boshlangan boʻlishiga qaramay, mustaqillik yillarida Rossiya imperiyasining Turkiston oʻlkasini bosib olishi hamda oʻlkada olib borilgan mustamlakachilik siyosat ilmiy va haqqoniy tarzda yoritilmoqda.

XIX asrning yarmiga kelib Oʻrta Osiyoda uch xonlik oʻrtasidagi toʻxtovsiz urushlar, kelishmovchilik va nizolar, turli norozilik harakatlari xonliklardagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy vaziyatni ogʻirlashtirib yuborgan edi.

Rossiyaning xonliklar hududlariga dastlabki harakatlari masalasi-ga kelsak, XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya podsholigi oʻz hududlarini kengaytira borib Qozon, Ashtarxon (Astraxan) va Sibir xonliklarini bosib oldi. Shundan soʻng rus podsholarining Oʻrta Osiyo hududlariga qiziqishi yanada kuchaya boshladi. Podsho hukumati bu hududlar haqida maʼlumot toʻplash uchun 1558-yil aprelida «Moskva savdo kompaniyasi» vakili Antoni Jenkinsonni Richard va Robert Jonsonlar bilan birgalikda 1589-yil sentabrigacha, 1620-yilda Ivan Xoxlovni, 1669-yilda B. A. Pazuxin va S. I. Pazuxinlarni, 1675-yilda B. A. Daudov boshchiligidagi elchilarni Buxoro, Xiva, Samarqand, Urganch va Balxga joʻnatgan edi. Bu elchilarning asosiy maqsadlari Oʻrta Osiyo xonliklari va unga qoʻshni boʻlgan hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va harbiy ahvoli, xalqaro aloqalari haqida maʼlumotlar toʻplashdan iborat edi.

Ammo Oʻrta Osiyo hududlarini bosib olish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri amaliy harakatlar XVIII asr boshlarida, yaʼni, Pyotr I hukmronligi davrida boshlandi. Mangʻishloqlik turkman savdogari Xoʻja Nafas orqali Amudaryo sohili oltin qumlariga boyligi haqida xabarni eshitgan Pyotr I 1717-yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini 3000 dan ortiq qoʻshin bilan Xiva xonligiga joʻnatdi. Bu ekspeditsiya muvaffaqiyatli chiqmay, uning qoʻshinlari Xiva xoni Shergʻozixon tomonidan qirib tashlanadi.

Shundan soʻng Pyotr I 1721-yilda Florio Beneveni boshchiligidagi elchilarni Buxoroga joʻnatadi. Italiyalik Rossiya josusi F. Beneveniga elchilik niqobidagi oʻz safari chogʻida iqtisodiy va geografik ahamiyatga molik yerlarni buxoroliklarga sezdirmasdan eslab qolish, Kaspiyga quyiladigan daryolar va mavjud kemalar, shaharlar va istehkomlar haqida maʼlumotlar toʻplash topshirilgan edi. F. Beneveni Buxoroda uch yildan ortiq yashab Buxoro va Xiva xonligining ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyot, tabiiy boyliklari haqida maʼlumotlar toʻplab 1725-yilda Rossiyaga qaytadi.

XVIII asrning birinchi choragida koʻchmanchi qozoqlar Ural daryosi va Kaspiy dengizidan Xiva xonligi chegarasigacha boʻlgan hudud-da Katta, Oʻrta va Kichik juzga boʻlingan holda yashar edilar. Qozoq sultonlari oʻrtasidagi urushlar ustiga, qalmoqlarning hujumlari qoʻshilib, oʻzaro qonli toʻqnashuvlar boʻlib turgan. Undan tashqari 1723-yilgi ocharchilik qozoqlarni qiyin ahvolga solib qoʻydi. Oʻzaro urushlardan charchagan qozoq sultoni Abulxayrxon 1730-yilda Rossiyaga murojjaat qilib, qozoqlarni Rossiya himoyasiga olishini soʻradi. XVIII asrning birinchi yarmida Shimoldagi koʻchmanchi qozoqlar Rossiya imperiyasi tobeligiga olindi. Rossiya hukumati oʻzbek xonliklarini bosib olish maqsadida butun XVIII asr mobaynida qozoq juzlari yashab turgan hududlarda 150 ga yaqin katta va kichik qalʼalar qurdirib, platsdarm sifatidagi yangi shaharlarga (Omsk, Semipalatinsk, Ust-Kamenogorsk, Orenburg va boshq.) asos soldilar.

XIX asr boshlariga kelib Yevropaning baʼzi davlatlari oʻrtasida harbiy-siyosiy vaziyat keskinlashib ketganligi bois, 1806–1812-yillarda rus-turk, 1808–1809-yillarda rus-shved, 1805–1813-yillarda rus-fors, 1805–1812 rus-fransuz urushlari boʻlib oʻtdi. Buning natijasida Rossiya hukumatining oʻzbek xonliklariga boʻlgan eʼtibori kamaydi. Nikolay I (1825–1855) rus taxtiga oʻtirgach vaziyat yana oʻzgardi. Qozoq dash-tlaridagi harbiy istehkomlar vositasida Rossiya imperiyasi Xiva xonligi hududlariga yaqinlashib kela boshladi.

Rossiyaning oʻzbek xonliklariga nisbatan siyosatini izchil amalga oshirish tarafdorlaridan biri boʻlgan Orenburg general-gubernatori B. A. Perovskiy podsho Nikolay I farmoniga koʻra 1839-yilda 5 mingdan ziyod qurollangan qoʻshin bilan Xiva xonligi ustiga yurish boshladi. Ammo yoʻldagi ogʻir shart-sharoitlar rus qoʻshinlarining ahvolini qiyinlashtirdi. 1840-yilning boshlarida Xiva chegaralariga

yetib kelgan Perovskiy qo'shinlari Xiva xoni Olloqulixonning o'zbek, qozoq va turkmanlardan iborat birlashgan qo'shinlari tomonidan tortor etildi.

1853–1856-yilgi Qrim urushida Rossiya imperiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Yevropaning yetakchi davlatlari Angliya va Fransiya Rossiyani Yaqin va O'rta Sharq hududlaridan siqib chiqarishga muvaffaq bo'lishdi. XIX asrning o'rtalarida jahonning yirik davlatlari o'rtasida yangi mustamlakalar uchun kurash qizib ketgan bir sharoitda Rossiya imperiyasi ham bu kurashlardan chetda qolmadi. Shu jihatdan bu davrda Angliya va Rossiya manfaatlari O'rta Osiyoda to'qnashdi. Rossiya imperiyasi hukumati Angliyaning Turkiston va Kaspiy dengizining Sharqiy tomonlarini egallab olishidan xavfsirayotgandi. Chunki, Angliya Afg'oniston va Hindiston orqali o'zbek xonliklari bilan savdosotiq va diplomatik aloqalar olib borardi. Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni bosib olishga urinayotgan Rossiyaga qarshi birlashtirish hamda O'rta Osiyo bozorlarini egallash edi.

Bu masalalarning Rossiyadagi hukmron doiralari o'rtasida ham atroflicha tahlil qilinishi natijasida Rossiya imperiyasining qudratini yanada kuchaytirish uchun keng ko'lamdagi iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish zaruriyati tug'ildi. Bu islohotlar Yevropadagi rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rganish, iqtisodiy qoloqlikka katta ta'sir etib kelayotgan krepostnoylik tuzumini bekor qilish, sanoatni rivojlantirib, uni xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash zaruriyati bilan bog'lanib ketdi.

Bunday sharoitda Rossiya uchun ham xomashyo manbalari hamda raqobatsiz yangi bozorlar nihoyatda zarur edi. O'sha davrda Rossiya sanoatining eng rivojlangan sohasi to'qimachilik bo'lganini hisobga oladigan bo'lsak, bu sohani xomashyo bilan ta'minlash uchun Rossiyaning o'zida hech qanday sharoit yoki imkoniyat bo'lmagan. Undan tashqari, nisbatan rivojlanayotgan to'qimachilik sanoatini Amerikadan sotib olinayotgan qimmat paxta bilan ta'minlash oson emas edi. O'zining mustaqil xomashyo bazasiga ega bo'lish Rossiya uchun asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi.

O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy jihatdan zaifligini bilgan, o'zlarining harbiy jihatdan ustunligiga to'la ishongan Rossiya imperiyasi ma'murlari bu hududni bosib olmasdan ancha oldinroq paxta yetishtirishni rivojlantirish, paxtaning serhosil navlarini yaratish bilan

hog'liq ko'plab rejalarni ishlab chiqishgandi. Chunki, Turkiston paxtasi Amerikadan keltiriladigan paxtaga nisbatan arzon edi.

Qator arxiv hujjatlari ma'lumotlariga tadqiqotlarga ko'ra (N. Musayev), Rossiyada O'rta Osiyoning oltin konlari haqidagi xabarlar shunchalik ko'p tarqalgan ediki, rus bosqini davrida Rossiya armiyasini qo'shinlari bilan birga yer osti boyliklarini o'rganuvchi ko'plab mutaxassislar ham o'lkaga kirib keldilar. Ular orasida Xludov, Pervushin kabi yirik sanoatchilar ham bor ediki, dastlabki kirib kelgan davridayoq ular oltin konlarini izlashga kirishib kyetishadi. Ta'kidlash joizki, yer osti va yer ustidagi boyliklari haqidagi ma'lumotlar o'z vaqtida Turkistonni bosib olish rejasini amalga oshirishni yanada tezlashtirgan edi.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishini tezlashtirishga olib kelgan sabablardan yana biri – Rossiya bilan Angliya o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar bo'ldi. XIX asr ikkinchi yarmining boshlarida O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish maqsadida Rossiya tomonidan olib borilayotgan siyosat Angliyaning bu borada uzoqni ko'zlab tuzgan rejalarga jiddiy xavf solar edi.

2. Xonliklarni bosib olish uchun amalga oshirilgan harbiy harakatlar. Turkiston general-gubernatorligi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Pyotr I davridayoq Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarini zabt etish g'oyalari paydo bo'lgan edi. XIX asrning boshlaridan boshlab imperiya ma'murlari bu g'oyani amalga oshirish borasida dastlabki harakatlarini boshlashgandi. Ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishni tezlashtirgan bir nechta sabablar bor ediki, ular quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Rossiya yengil sanoatini doimiy ravishda ta'minlab turuvchi arzon xomashyo bazasining O'rta Osiyoda mavjudligi;
2. Qrim urushi (1853–1856) tufayli Qora dengiz portlarining Rossiya qo'lidan kyetishi hamda uning o'rmini O'rta Osiyo xonliklarini egalash hisobiga to'ldirish, O'rta Osiyo orqali Eron, Afg'oniston, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda Angliyaning ta'sirini yo'qotib, bu davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatish.
3. Rossiya Yevropa bozorlari bilan raqobat qila olmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallashi lozim edi.

4. Rossiyada o'tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini ko'chirib keltirish va ularni yer bilan ta'minlash kerak edi.

Rossiya imperiyasining harbiy harakatlari arafasida Qo'qon xonligida ijtimoiy-siyosiy holat murakkab ahvolda edi. Bu holatga shunday izoh berish mumkinki, birinchidan, xonlikdagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi qipchoqlar hokimiyatini tan olishmagan. Ikkinchidan, xonlik hokimiyatida yuqori mavqeni egallash va xonga ta'sir o'tkazish uchun qipchoqlar orasida o'zaro kurash borar edi. Uchinchidan esa, qipchoqlar o'troq aholiga nisbatan zo'ravonlik qilib, shaharlarga kirib kelishgan va aholining uy-joylari tortib olishgan. Ushbu sabablar tufayli Qo'qon xonligi aholisi rus bosqiniga qarshi kurashda yetarli darajada birlasha olmadilar.

Shunga qaramasdan, Qo'qon xoni Sulton Sayidxon (1863–1865) va Amirilashkar Alimquli xonlikdagi barqarorlikni saqlash uchun ayrim choralar ko'rishga harakat qildilar. Xususan, xon qozoq biylariga murojaatnoma yo'llab, ularni ittifoqqa chaqirgan bo'lsa, Alimqulining buyrug'iga ko'ra, Nurmuhammad qushbegi Avliyootaga borib Talas daryosining yuqori oqimida istiqomat qiluvchi qirg'iz sardorlarini tashqi dushmanga qarshi kurashda hamkorlik qilishga chaqirdi. Ammo, bu harakatlarning barchasi zoye ketdi.

1860-yilning yozida Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga harbiy harakatlari jonlanib ketdi. Polkovnik Simmerman boshchiligidagi rus qo'shinlari avval To'qmoq, so'ngra esa Pishpak (Bishkek) qal'alarini kuch bilan egalladilar. 1864-yil may oyida Qo'qon xonligi hududlariga Sharq tomondan polkovnik Chernyayev, G'arb tomondan polkovnik Beryovkin boshchiligidagi imperiya qo'shinlari bostirib kiritildi. Chernyayev qo'shinlari Avliyoota shahrini qamal qilishdi. Shahar hokimi Niyoz Ali shaharni tashlab Turkiston tomonga qochib ketgan bo'lishiga qaramay, Avliyoota aholisi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ammo, harbiy texnika va kuchlar teng bo'lmaganligi tufayli engildi. Shahar egallangach, Chernyayev uni talon-taroj qilishga buyruq berdi. Beryovkin qo'shinlari esa Turkiston shahrini egallab, muqaddas Ahmad Yassaviy maqbarasini to'pga tutishdi.

Turkiston va Avliyoota shaharlari bosib olingach, Qo'qon xoni Sulton Sayidxon va Amirilashkar Alimquli Toshkentning Mingo'rik mavzesida katta kuchlarni to'plab, mashqlar o'tkazishdi. Bu orada rus qo'shinlari Chimkentga yurish boshladilar. Xonlik sarbozlari va

rus qo'shinlari bilan Chimkent uchun bo'lgan jang 1864-yil 14-iyul kuni saharda boshlandi. Manbalarga ko'ra, shafqatsiz bo'lgan ushbu jangda 12 mingga yaqin kishi halok bo'lib, shtabs-kapitan Meyer va polkovnik Lerx boshchiligidagi rus qo'shinlarining omon qolganlari Avliyoota va Turkiston tomon chekinishadi. G'alaba qozongan Amirilashkar Alimquliga rus qo'shinlari tomonidan sulh tuzish taklifi kiritiladi. Lashkarboshilar kengashida esa toshkentliklar ruslar bilan muzokara yuritishga qarshi chiqdilar va bu fikr ko'pchilik tomonidan quvvatlandi.

Chimkent mag'lubiyatidan qo'rqib ketgan rus ma'murlari, xususan, general Chernyayev, polkovnik Lerx va kapitan Meyerlar barcha kuchlarni Chimkent yaqinidagi Oqbuloqda to'plab, bu yerda ikki oy davomida talon qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishdi. Amirilashkar Alimquli ham Chimkentdagi g'alabasidan ruhanib, qo'ldan ketgan shaharlarni qaytarib olish chora-tadbirlarini ko'rdi. Ammo, Qo'qon xonligi hududlariga rus bosqini xavfi kuchayib borayotgan bir sharoitda Buxoro amiri Muzaffar qo'shinlari xonlik yerlariga bostirib kirganligi haqida xabar olindi. Ushbu vaziyatda Alimquli asosiy qo'shinni Qo'qonni Buxoro amirligi qo'shinlaridan himoya qilishga tashlashga majbur bo'lib, Angliyaning Hindistondagi vakolatxonasidan Turkiyadan yordam so'rab murojaat qildi. Afsuski, ulardan hech qanday yordamni ololmadi.

Bunday sharoitdan general Chernyayev unumli foydalandi. Ural va Orenburg kazaklari hamda to'pchilari bilan Sayramda birlashgan Chernyayev qo'shinlari 1864-yilning 14-sentabrida Chimkentga ikkinchi marta yurish boshladi. Bu paytda Amirilashkar Alimquli Xo'jand va O'ratepada Buxoro amiri qo'shinlariga qarshi jang qilayotgan edi. Chernyayev esa, bu safargi yurishi (22-sentabr) Chimkent shahrini egalladi.

Shundan keyin Chernyayev Toshkent yurishini boshlab, 1864-yil 1 oktabrda shaharning Sharqiy tomonidagi Darvishak qopqa degan joyga yetib keladi. Bu paytda Toshkent shahri 4 ta (Shayxontohur, Sebzor, Beshyog'och va Ko'kcha) katta dahaga bo'lingan bo'lib, 25 chaqirim qalin devor bilan o'rab olingan edi. Devor atrofida zovurlar bo'lib, ularga suv to'ldirilgan. Shahar aholisi dushman bosqinidan boxabar bo'lib, mudofaaga tayyorgarlik ko'rishgan edi.

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, 1864-yilning 2-oktabrida ertalabdan boshlab har ikkala tomondan to'plardan o'qlar uzilib, otishmalar boshlandi. Toshkent devori to'plardan o'qqa tutilganidan

keyin podpolkovnik Obux 2 rota askari va 4 ta to'pi bilan hujumga o'tib, devorning bir qismini teshishga erishdi. Rus askarlari podpolkovniklar Obux va Lerx boshchiligida shu joydan shaharga kirish uchun zovurni kechib o'tishga harakat qilishgan. Ammo, Toshkent mudofaachilarining mardonavor qarshiligi tufayli rus askarlarining bu harakati sindirildi. Rus qo'shinlari 72 ta zobit va askarlaridan ayrilib, Chimkentga chekishga majbur bo'lishdi. Podpolkovnik Obux ham og'ir yaralandi.

Bu g'alabadan ruhlangan Qo'qon xonligi lashkarlari amirilashkar Alimquli boshchiligida 1864-yilning noyabr oyida rus askarlarga qarshi hujum qilishdi. Toshkent atrofidagi Iqon qishlog'i yonida mayor Serov boshchiligidagi rus qo'shinlari bilan Alimquli qo'shinlari to'qnashdi. Bu jangda rus qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, ulardan 57 nafari o'ldirildi va 43 nafari yarador qilindi.

Bu mag'lubiyatlar rus mustamlakachi ma'murlarini qattiq tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham general Chernyayev 1864–1865-yilning qish mavsumini qattiq harbiy tayyorgarlik bilan o'tkazdi. Uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan harbiy kuchlar – qurol-yarog', yangi batalonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirildi.

1865-yilning bahorida Toshkentga rus qo'shinlarining Chernyayev boshchiligidagi ikkinchi hujumi boshlandi. Chernyayev 28-aprelda Chirchiq daryosi bo'yidagi Niyozbek qal'asini egalladi. Shundan so'ng, xoinlarning maslahati bilan Toshkent shahrini suv bilan ta'minlab turuvchi Bo'zsvu to'g'oni buzib tashlanib, Chirchiq daryosiga burib yuborildi. Ayni ekin-tikin pallasida shahar aholisi suvsiz qoldi.

E'tibor berish lozimki, bu paytga kelib rus bosqinchilariga xayrixoh bo'lgan xoin va sotqinlar ham paydo bo'ldi. Ulardan biri Abdurahmonbek Shodmon o'g'li bo'lib, u Chernyayevga Bo'zsvu to'g'onini buzishni maslahat byergan va ko'ngilli ravishda Rossiya imperiyasi xizmatiga o'tgan. Toshkent shahrining eng katta boylaridan biri Muhammad Soatboy ham unga qo'shilgan. U mashhur savdogar bo'lib, Petropavlovsk, Troitsk, Orenburg kabi shaharning savdo-sotiq doiralari bilan yaqin aloqada bo'lgan, Toshkentdagi iqtisodiy, siyosiy va harbiy vaziyat haqida Chernyayevga ma'lumotlar berib turgan. Xoinlardan yana biri Rossiya imperiyasi faxriy fuqarosi, «Avliyo Anna» oltin nishoni sohibi Saidzimboy Muhammad o'g'li edi.

Shunga qaramasdan, xonlik qo'shinlari ko'tarinki ruh bilan hujumga tayyorgarlik ko'rishgan. Alimquli katta qo'shin bilan Qo'qondan

Toshkentga yetib keladi. Mingo'rikda anjuman o'tkazilib, jang rejasi ishlab chiqiladi. May oyining boshlarida Toshkent uchun shiddatli janglar bo'lib, dastlab xonlik qo'shinlarining qo'li baland keladi. Ammo, shunday keyin qo'shin orasida parokandalik boshlanadi. 9-may kuni Salor arig'i bo'yida bo'lgan jangda Alimquli og'ir yarador bo'lib, «Toshkent fuqarolari asta-sekin orqaga qaytib, o'zlarini shahar ichiga olinlar, boshqa sarbozlar va mujohidlar esa urushni davom ettirsinlar», deya farmon beradi.

Amirilashkar Alimqulining yarador bo'lib safdan chiqqani mudofaachilarga qattiq ta'sir qiladi. Dushman bilan mardonavor jang qilgan xonlik qo'shinlari tartib bilan Salor arig'i tomon chekinishadi. Ammo, mudofaachilarning ayrim guruhlari, xususan, Alimquliga xusumati bo'lgan qipchoqlar, qirg'izlar va andijonliklar umuman jang maydonini tark etib, Qo'qonga kyetib qolishadi.

Yaralangan Alimqulining vafot etishi tufayli ham mudofaachilar orasida sarosimalik boshlanadi. Buning natijasida shahar himoyachilarining qarshiligi sindirilib, 15-iyun kuni Toshkent shahri Chernyayev qo'shinlari tomonidan zabt etiladi. Muhammad Solihxo'ja o'zining «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent 40 kundan ziyod qamal qilinganligi, shahar aholisi ona shaharlarini mardonavor mudofaa qilganligini ta'kidlagan. 1865-yil 17-iyunda esa, yana qon to'kilishini oldini olish maqsadida ikki tomonlama muzokaralar boshlanadi. Chernyayev Toshkent shahrining Hakimxo'ja qozikalon, Abdurahmon eshon, domla Solihbek Oxun singari nufuzli va obro'li kishilari bilan muzokara o'tkazib, «Toshkent shahri aholisi o'z ixtiyori bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shildi», degan soxta ahdnomani to'ldirishga majbur qiladi. Ular bunga rozi bo'lmaganliklari tufayli jazolanishadi.

Soxta ahdnomani to'ldirish esa, Abdusattor Qoraboshi o'g'liga topshiriladi. Besh nusxada tuzilgan ahdnomaga shahar «katta»larining barchasiga majburiy ravishda qo'l qo'ydirilib, muhr bostiriladi hamda bir nusxani Chernyayevga, to'rt nusxasi esa to'rt daha boshliqlariga beriladi. Bu ahdnoma tufayli bosqinchilik siyosati yurgizib Angliya kabi kuchli davlat bilan urush olib borishga majbur bo'lib qolishdan cho'chigan Rossiya imperiyasi hukumati xalqaro jamoatchilik nazarida o'z xatti-harakatlarini oqlashga urinadi. Chunonchi, ahdnomadani nusxalar ko'chirilib, 1865-yilda Rossiyaning Turkiyadagi elchisi qilib tayinlangan N. Ignatev orqali Istanbulga jo'natiladi va shahar ko'chalariga

yopishtirib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, Toshkent bosib olingach, bu shahar Rossiya imperiyasining Turkiston masalasiga daxldor barcha siyosiy masalalarni hal qiladigan imperiya qarorgohiga aylanib boradi. Toshkent shahri bosib olinganidan so'ng, 1865-yilda bosib olingan hududlarda markazi Toshkent shahri bo'lgan Turkiston viloyati tashkil qilinadi.

1866-yili podsho Aleksandr II tomonidan Toshkentning Rossiya tasarrufiga olinganligi rasman e'lon qilindi. Rossiya imperiyasiga bundan tashqari, keyinchalik ham o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun mustahkam ma'muriy tuzum zarur edi. Aynan shuning uchun ham bu masalani zudlik bilan hal etish borasida imperiya harbiy vaziri Mil-yutin boshchiligida komissiya tashkil etiladi. Mazkur komissiyaga Orenburg general-gubernatori N. Krijanovskiy tomonidan Toshkentni Orenburgga bo'ysundirish haqidagi taklifi kiritilgan edi. Ammo, O'rta Osiyoni o'zining xomashyo bazasiga aylantirishni rejalashtirgan Rossiya imperiya hukmron doiralari uchun bu taklif to'g'ri kelmas, Toshkent mustamlakachilarning bu boradagi markaziga aylanishi lozim edi. Aynan shuning uchun ham N. Krijanovskiyning bu taklifi rad etilib, 1867-yil 14-iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Birinchi general-gubernator etib K. P.fon Kaufman tayinlandi. Markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati, markazi Berniy (Almati) bo'lgan Yettisuv viloyatlari mazkur general-gubernatorlik tarkibiga kiritildi.

3. Qo'qon xonligining tugatilishi. Farg'ona viloyati.

Rossiya imperiyasining Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi shaharlarni bosib olishi busiz ham ichki ziddiyatlarga to'la bo'lgan Qo'qon xonligiga nihoyatda qattiq zarba bo'ldi. Chunki, Qo'qon xonligining hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib qolgan edi. Chegaralar qisqarilganligi tufayli xazinaga tushadigan daromad kamayib ketdi. Qo'qon xoni Xudoyorxon xazinani to'ldirish uchun soliqlarni keskin oshirib yubordi. Bundan tashqari, u rus ma'muriyatiga xayrixoh hukmdor edi.

Buning natijasi o'laroq, 1868-yil 13-fevralda Xudoyorxon Turkiston general-gubernatorligi bilan xonlik o'rtasida tuzilgan sharmandali shartnomani imzoladi. Imperiya hukumatining tazyiqlari bilan asosan rus savdogarlarining manfaatlarini ko'zlab tuzilgan bu shartnoma xonlik aholisida norozilik uyg'otdi. Chunki, bu kelishuvga ko'ra, rus

savdogarlari Qo'qon xonligidagi barcha shaharlar va qishloqlarda istagan karvonsaroyga ega bo'lish hamda savdo agentliklari tuzish huquqiga ega bo'lgani holda Qo'qon xonligi savdogarlari faqat Turkiston general-gubernatorligi hududidagi shahar va qishloqlarda, ya'ni o'z yurtlarida shunday imtiyozlarga ega bo'ldilar.

Mazkur shartnoma amalda Qo'qon xonligini Rossiyaga qaram qilib ko'ydi. Xudoyorxon esa bu holatga e'tibor ham bermadi. Imperiya hukumati Xudoyorxonning bu itoatkorligini «munosib» taqdirladi. Chunonchi Xudoyorxon Rossiya imperiyasining ordeni bilan mukofotlanib, unga «Aslzoda» degan faxriy unvon berildi.

1873–1876-yillarda Qo'qon xonligidagi ichki ziddiyatlarga barham berish, ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish bahonasida Rossiya harbiy qo'shinlari xonlik hududlariga kiritiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, «Qo'qon ichki siyosiy adovatlar, xalq isyonlari va qo'zg'olonlari bilan larzaga kelgan bo'lib, imperiya qo'shinlarining kirib kelishi natijasida amalda o'z siyosiy maqomidan mahrum etildi».

Ma'lumki, 1873–1876-yillarda Qo'qon xonligi Po'latxon (Mulla Ishaq Hasan o'g'li) boshchiligidagi qo'zg'olonlar girdobida qolgan edi. Bunday vaziyatda xonlikdagi nufuzli amaldorlardan biri bo'lgan Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag'darish va uning o'g'li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o'tkazish maqsadida Po'latxon bilan til biriktiradi va xon o'rtasida isyon ko'taradi. Vaziyatdan qo'rqib ketgan Xudoyorxon Xo'jandga qochdi va Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechdi.

Xudoyorxon 1875-yil iyul oyining oxirlarida Xo'jandga kelib, bu yerda 10 kun istiqomat qilgach, avgust oyining boshlarida uni Turkiston general-gubernatori Toshkentga chaqirdi. Bu haqda «Туркестанские ведомости»da berilgan xabar shunday yakunlanadi: «...Sobiq Qo'qon xoniga Xo'janddan Toshkentga ko'chib kelish taklif etildi». General-gubernator Kaufman esa uning boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Keyinchalik Xudoyorxon surgunlikdan qochib Makkaga haj safari qiladi.

Qo'qonning yangi xoni Nasriddinxon taxtga o'tirgan kunlariyoq Turkiston general-gubernatorligi bilan go'yo yaxshi aloqalarni o'rnatish maqsadida fon Kufman nomiga xat yo'lladi. Bu xatda rus hukumati bilan do'stona munosabat o'rnatish aytilgan bo'lsa-da, Nasriddinxon amalda Rossiya hukumatining bosqiniga qarshi kuch to'play boshlagan

edi. Shuningdek, yangi xon Buxoro amirligi, Toshkentdagi nufuzli kishilarga, xususan Sayidazimboyga ham maktub yo'llab rus bosqinchilariga qarshi kurashda birlashishga chaqirdi. Ammo, Buxoro amiri ham, Sayidazimboy ham Nasriddinxondan olgan maktublarini Kaufmanga topshirib, o'zlarining rus mustamlakachilariga sodiqliklarini ko'rsatishdi.

O'z navbatida general-gubernator fon Kaufman ham Nasriddinxonga maktub yo'llab (1875-yil 4-avgust), uning xonligini tan olish uchun og'ir shartlar (1868-yili bitimni tan olish, rus savdogarlari kreditlarini tiklash, elchilardan tortib olingan mulklarni qidirib topish, tovon puli, Xudoyorxon uchun nafaqa va boshq.) qo'ydi. Kaufman ushbu yo'llangan maktubiga javobini kutib o'tirmasdan Rossiya imperiyasining harbiy vaziriga 1875-yilning 6-avgustida xabar berib, undan agar Qo'qon xonligi hukumati Rossiya bilan do'stlik aloqalarini o'rnatma olmasa, xonlik hududlarini egallab imperiya tarkibiga qo'shib olishga ruxsat so'raydi.

Nasriddinxonning taxtga o'tirishi xonlikdagi siyosiy vaziyatning keskinligini bartaraf eta olmadi. Buni tushunib yetgan Abdurahmon oftobachi vujudga kelgan vaziyatni yumshatish uchun xonlik aholisini rus bosqinchilariga qarshi safarbar qilishga harakat qildi. Ammo, fon Kaufman ham 1875-yil 18-avgust kuni Toshkentdan Xo'jandga yetib kelib, rus qo'shinlarini shu yerda birlashtira boshladi. Zamonaviy adabiyotlarda berilishicha, «Kaufman va Skobelev 16 rota piyoda askar, bitta sapyor rotasi, 20 ta to'p, 900 o'tliq askar bilan jangga shay bo'lib turishdi».

1875-yilning 22-avgustida Xo'janddan Qo'qon yo'li bo'ylab joylashgan Mahram qal'asi (Sirdaryo bo'yida) yonida rus qo'shinlari bilan Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi xonlik qo'shinlari o'rtasida shiddatli jang bo'ldi. Har ikkala tomondan ham ko'plab qurbonlar berilgan ushbu jangda Abdurahmon oftobachining qo'shinlari tor-mor etilib, uning o'zi Marg'ilon yaqinidagi Karpil mavzesiga qochib ketdi.

Nasriddinxon Rossiya imperiyasi qo'shinlari va boshliqlarini Qo'qonda kutib olib, Rossiya imperiyasi hukumatini tan oldi. Nasriddinxon Marg'ilon hokimi Sulton Murodbek zimmasiga ruslar bilan bo'lgan urush jarimasi – 40 ming tilla tovon pulini yig'ib berish vazifasini yukladi. Sulton Murodbek Andijon va O'sh aholisidan ham jarima undira boshladi. Natijada xonlikning Sharqiy hududlarida yashaydigan aholi Rossiya imperiyasi hukumatining ushbu siyosatiga qarshi isyon ko'tardi.

Bu orada ya'ni, 1875-yil 26-avgustda fon Kaufman rus qo'shinlari bilan Mahramdan chiqib, Qo'qon tomonga yurdi, yo'lda ularni Nasriddinxonning elchilari maktub va sovg'alar bilan kutib oldilar. Kaufman Qo'qon atrofida harbiy lager qurib, shu yerdan Qo'qon shahar bo'ylab rus qo'shinlarini namoyishkorona dag'dag'a bilan olib o'tgach, harbiy lagyerga qaytishida Nasriddinxonning o'zi unga hamroh bo'ldi.

Po'latxon ham imperiya bosqinchilariga qarshi kurashish maqsadida katta kuch to'plab, Qo'qonga hujum qilmoqchi bo'lib turgan paytda, ya'ni, 1875-yil 25-sentabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo'qonga yoyilib, aholi yana isyon ko'tardi va xon o'rdasiga hujum qildi. Natijada chorasiz qolgan Nasriddinxon Xo'jandga qochdi.

H. Bobobekovning arxiv manbalari orqali ma'lumot berishicha, bu bitimga ko'ra, Qo'qon xoni o'zini Rossiya imperiyasining «xizmatkori» deb tan oladi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar o'rnatmaslikka va'da beradi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yerlar Rossiya saltanati ixtiyoriga o'tadi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan olti yuz ming rubl hajmidagi ketgan xarajatni to'lash Qo'qon xonligi zimmasiga yuklatiladi. Shuningdek, bitimda 1875-yil 1-noyabrdan boshlab Qo'qon xonligi Rossiya xazinasiga har yili 500 ming rubl, Abdurahmon Oftobachini qo'llab-quvvatlaganlari uchun marg'ilonliklarga 125 ming tilla hajmida tovon to'lash majburiyati belgilanib, 60 ming tilloni 1875-yil 21-oktabrgacha, qolgan 65 mingini esa, 1876-yil 21-oktabrgacha to'lashga ijozat berildi.

1875-yil 26-sentabrda Namanganga kelgan Kaufmanga Andijon shahrida va unga yaqin bo'lgan joylarda Po'latxon va Abdurahmon Oftobachi boshchiligida katta qo'shin to'planganligi haqida xabar yetib bordi. Tayyorlanayotgan qo'zg'olondan xavfsiragan Kaufman zudlik bilan general Trotskiy boshchiligidagi 1400 kishilik qo'shinni 4 ta raketa otish moslamasi va 8 ta zambarak bilan Andijonga jo'natdi. 1-oktabrda general Trotskiy Andijonga hujum qilish haqida buyruq berdi. Har ikki o'rtada kuchli janglar bo'lib, 2 soat davom etgan bu janglardan so'ng rus qo'shinlari shahar markaziga joylashgan o'rdani qurshovga olib, hokim saroyini bosib oldi.

Abdurahmon Oftobachi va Po'latxon bu orada shahar va qishloqlarga o'z odamlarini nomalar bilan jo'natib, aholini rus bosqinchilariga qarshi

kurash uchun birlashishga, Nasriddinxonni taxtdan ag'darishga chaqiridilar. 9-oktabrda Qo'qonda qo'zg'olonlar boshlanib ketganligi tufayli Nasriddinxon poytaxtdan qochib ketdi.

General Skobelev boshchiligidagi qo'shinlar 1875-yil 23-oktabrda Baliqchi va To'raqo'rg'onni egallab, 27-oktabrda Namanganni 26 ta to'p bilan o'qqa tutadilar. Qo'zg'olonchilar tor-mor etilib, ko'plab aholi haloq bo'ldi.

1876-yilning boshlarida Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus buyrug'i asosida general Skobelev Qo'qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Imperiya bosqinchilari xonlikning shahar va qishloqlariga yetib keldilar. Nasriddinxon qarshilik ko'rsata olmay taslim bo'ldi. 8-fevralda rus qo'shinlari Qo'qon shahriga kirdilar.

Skobelevning hiylasi va xoinlar yordami bilan Abdurahmon Oftobachi hamda Po'latxon Asaka va Andijon oralig'ida qo'lga olindilar. Po'latxonni qo'lga olishda yordam byergan xoinlar imperiya tomonidan mukofotlanishdi. Po'latxon esa, 1876-yil 1-martida Marg'ilonda dorga osildi.

Shu tariqa, qattiq qarshiliklar va og'ir janglardan so'ng 1876-yil 19-fevralda 150-yildan ziyodroq hukm surgan Qo'qon xonligi butunlay bosib olinib, tugatildi. Uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etilib, Skobelev yangi viloyatga harbiy gubernator etib tayinlandi. Qo'qon xonligiga qarashli yerlar Farg'ona viloyati tarkibiga kiritilib, faqat uning bir qismi Xo'jand uyezdi bo'lib Samarqand viloyatiga qo'shildi.

Rus bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashda ishtirok etgan Abdurahmon Oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav, imperiyaga xayrixoh bo'lgan Nasriddinxon esa Vladimir guberniyasiga surgun qilindi. Qo'qon shahrida olib borilgan harbiy harakatlar davomida xonlikning shayxulislomi va qozikaloni Skobelev tomonidan asir olindi. Kaufmanning muvaqqat general-gubernator T. Kolpakovskiyga yuborgan telegrammasida, «ularni hech qanday lavozimga qo'ymasdan yo'q qilib yuborilsa, yaxshi bo'ladi», degan taklif kiritgani tufayli ularning ikkalasi ham Bologodsk guberniyasiga surgun qilindi.

Tarixiy manbalar tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya mustamlakachilari Qo'qon xonligini bosib olishda ayovsiz choralarni qo'llashgan. Xususan, qarshilik ko'rsatgan qishloqlar yondirilgan, bosqinchilarga qarshi kurash olib borayotganlarga qo'shib ko'plab tinch aholi ham bir boshdan jazolangan.

Bosib olish paytida qarshilik ko'rsatgan shaxslarga yordam byergan, ularni yashirgan, uyiga kiritishgan ham jazodan chetda qolmagan. Harbiy harakatlar vaqtida o'z uyi, mol-mulkini tashlab boshqa joylarga kyetib qolganlar belgilangan muddatda qaytib kelmasa, ularning uy-joyi va mol-mulki musodara qilingan. Harbiy harakatlar paytida ko'rilgan choralar imperiya bosqinchilarining Qo'qon xonligi hukumati bilan emas, balki xalq bilan urush olib borganligini isbotlaydi.

Ko'plab jazo choralari ko'rilgan bo'lishiga qaramay, Farg'ona viloyati tashkil topganidan keyin ham rus bosqinchilariga qarshi xalq harakati davom etdi. Xususan, Oloy o'lkasining hukmdori, «Oloy malikasi» nomi bilan shuhrat qozonib, dodxoh unvoniga sazovor bo'lgan Qurbonjon Mamat qizi va uning tarafdorlari 1876-yilning oxirlariga qadar kurashni davom ettirishdi. Harbiy gubernator general Skobelevning shaxsan o'zi Qurbonjon dodxoh bilan uchrashib, muzokaralar olib borishga majbur bo'lgan.

4. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Abdulmalik to'ra (Katta to'ra) boshchiligidagi ozodlik harakati.

Toshkent istilosidan so'ng tez orada Buxoro-Rossiya o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. 1865-yil sentabr oyining boshlarida rus qo'shinlari Pistol Kors boshchiligidagi 4 ta rota piyoda, 100 ta kazak va 4 ta yengil zambaraklar bilan Chirchiq daryosidan o'tib, muhim aholi punktlari bo'lgan Piskent va To'ytepa hamda uning atrofidagi erlarni egallaydi. Chirchiq orti yerlaridagi yangi tayinlangan amir noibi Rustambek esa to'qnashuvdan so'ng chekinishga majbur bo'ldi.

1865-yil sentabrda Orenburg general-gubernatori N. Krijanovskiy shaharni «mustaqil mulk» deb e'lon qiladi va bu bilan na Qo'qon xonligi va na Buxoro amirligiga Toshkentga tegishli da'vosi bo'lishi mumkin emasligini namoyish etmoqchi bo'ladi.

Chernyayev Toshkent olinganidan so'ng 9 kun o'tgach, o'lkadagi barcha buxorolik savdogarlarni hibsga olgan edi. Iyul oyida esa Chernyayevning talabiga ko'ra N. Krijanovskiy Orenburg va boshqa shaharlarda buxorolik savdogarlarni hibsga olishdi. Sankt-Peterburg yo'lidagi buxorolik elchilar esa N. Krijanovskiy buyrug'iga ko'ra Kazalinskda to'xtatildi. Rossiya imperiyasi o'zining xatti-harakatlari ortidan Buxoro amirligi bilan munosabatlarni ataylab keskinlashtirib, uni har-

biy mojaroga jalb qilmoqchi bo'ldi. Aslida esa 1865-yildayoq Buxoroga qarshi harbiy harakatlar jarayoni boshlangan edi.

Amirning imperiya bosqiniga qarshi, davlat mustaqilligi uchun tegishli tarzda kurash olib bormayotganligi hamda ikkiyoqlama siyosati haqli ravishda Buxoro ahlining noroziligiga sabab bo'la boshladi. Poytaxtda yig'ilgan xalq ommasi amir saroyini kurshab olib, uni toshbo'ron qildi. Hukmdor faoliyatidan norozilik shu qadar kuchayib ketdiki, hatto qo'shbegi amirning Buxoroni vaqtincha tark etilishni so'rashga majbur bo'ldi.

1866-yil 1-fevralda Chernyayevning Jizzaxga qilgan mag'lubiyatli harbiy yurishi oliy darajadagi imperiya ma'murlarini ham tashvishga solib qo'ydi. Shu bois 1866-yil 27 martda uning o'rniga harbiy gubernator etib general D. Romanovskiy tayinlandi.

Buxoroda ham bu vaqtga kelib ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlasha bordi. Amirning sustkashligi, vatanparvar kuchlarni o'z atrofiga jalb qila olmayotganligi birinchi navbatda ziyolilar, ruhoniylar, madrasa ulamo, toliblari noroziligiga sabab bo'la boshladi.

Ikkala tomon uchun ham yaqin orada urush boshlanishi ayon bo'lib qolgan edi. Amirlikda vatanparvar, ozodlik kuchlari harakati avj ola boshladi. Nihoyat, amir tomonidan yig'ilgan qo'shin 1866-yil may oyi boshida Chinoz va Xo'jand oralig'idagi Oqjar (uni Sassiqlik deb ham atalgan) mavzeidagi Yerjarga yetib keladi. Mahalliy mualliflar Yerjar bo'yidagi jangni «Maydalulg'un» yoki «Maydayulg'un» jangi deb ham nomlashgan edi. Amir Muzaffar bo'lgusi jang maydonidan 1 farsah (6-8 km) naridagi qarorgohiga kelib joylashdi.

Amirlik qo'shinidagi ichki parokandalik, jang qilish uslubining qoloqligi, qurol-yarog' bilan yomon ta'minlashganlik, bu borada imperiya qo'shinining ustunligi va boshqalar jang natijasini hal qildi. Yerjar jangi Rossiya imperiyasi foydasiga hal bo'ldi. Yerjar jangi bundan avval Jizzax ostonasida zarbaga uchragan Rossiya imperiyasi qo'shinining ruhini ko'tarib yubordi. Imperiya hukumati bu jangdan o'z rizoligini bildirib, hatto imperatorning o'zi bu xususda maxsus tabrik telegrammasini jo'natdi.

Romanovskiy amir orqasidan ta'qib etish fikridan voz kechib, Sirdaryo bo'yidagi muhim aholi punkti hisoblangan, qadimiy Xo'jand shahrini 1866-yil 24-mayda va 28-mayda esa Xo'janddan Janubda joylashgan Buxoroga qarashli Nov qo'rg'onini ham zabt etdi.

Shunday qilib, Xo'jand va Novning egallanishi Qo'qon xonligi va Buxoro amirlikini bir-biridan ajratib qo'ydi. Amir Muzaffar Yerjar jangidan so'ng garovda turgan imperiya elchilari va savdogarlarini ozod qilib, ular 1866-yil 2-iyunda Abdulg'afforbek kuzatuv ostida Toshkentga yetib kelishdi. Bunga javoban imperiya hukumati ham Kazalinskda garovda turgan Najmiddinxo'ja boshchiligidagi buxorolik elchilarni ham vatanlariga qaytarishdi.

1866-yil 23-sentabrda harbiy harakatlar davom ettirilib, polkovnik Borontsov-Dashkov boshchiligidagi harbiy qism amirlik hududiga bostirib kirdi. O'ratepa 1866-yil 2-oktabrda zabt qilinib, shahar talon-toloj etildi va katta o'ljalari qo'lga olinadi. O'ratepadan Jizzaxga yo'l olgan imperiya qo'shini yo'l-yo'lakay Zominni egallab, Jizzax istilosi uchun yo'l oldi. 1866-yil 11-oktabrda general N. Krijanovskiy boshchiligidagi qo'shin Jizzax qamaliga kirishdi. Shaharga boradigan suv yo'llari berkitilib, imperiya qo'shini Samarqand va O'ratepa darvozalaridan hujumga kirishdi. Jizzax qamali bir hafta davom etdi. Shahar mudofaachilari, vatanparvar kuchlar shaharni astoydil himoya qilishdi.

Jizzax 18-oktabrda egallandi. Shubhasiz, Jizzax mag'lubiyati amirga ham qattiq ta'sir etdi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Rossiya imperiyasi o'z oldiga amirlikni butkul bosib olish rejasini ham qo'ymagan, buning uchun na xalqaro ahvol, na ichki iqtisodiy holat, harbiy zaxiralar bunga yo'l bermas, undan tashqari amirlikda tobora kuchayotgan qarshilik harakati Rossiya imperiyasini ham tinchlik sulhini tezroq imzolashni taqozo etar edi. Og'ir iqtisodiy va siyosiy ahvolda qolgan hamda harbiy jihatdan qoloq, xalq ichida o'zining kaltabin siyosati tufayli obro'si tobora tushib borayotgan amir hukumati ham sulhga muhtoj edi.

1867-yilning kuzidan to 1868-yilning bahoriga qadar Buxoro-Rossiya munosabatlarida keskinlik saqlanib turgan bo'lsa-da, lekin sezilarli o'zgarishlar bo'lgani yo'q. Imperiya ma'muriyati bu paytda asosan general-gubernatorlik faoliyatini tashkil etish bilan mashg'ul bo'lib, xonlikka qarshi harbiy yurish na iqtisodiy, na harbiy zaxiralarsiz bo'lmasligini tushungan edi. Undan tashqari amirlik Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda ma'lum harbiy kuchlarga ega bo'lib, Buxoroda Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi kayfiyat umumxalq noroziligiga aylangandi. O'rta Osiyoning ob-havosi, iqlimi imperiya harbiylarini toliqtirgan, askarlar ichida turli kasalliklar ko'paygan edi.

1868-yil 18-aprelda Kaufman Toshkentdan Jizzax tomonga yo'lga chiqib, 19 aprel kuni Sirdaryoning chap qirg'og'iga o'tdi. Xoinlik yo'lga o'tgan afg'on Iskandarxon ham shu yerda imperiya askarlariga kelib qo'shiladi. Jizzaxda 25 rota, 700 nafar kazak, 16 to'p, jami 3500 kishilik imperiya qo'shiniga ega bo'lgan general-gubernator K. P. fon Kaufman shu yerdan turib Samarqand ahliga murojaat bilan chiqadi. Ushbu murojaatda (u 1868-yil 22-aprelda bayon etilgan edi) amir «yaxshi niyatdagi» imperiya harbiy ma'muriyatini tushunmaslikda va qolaversa barcha «gunoh»larda uni ayblab, Buxoroga qarshi harbiy yurish qilayotganligini ochiqdan-ochiq aytadi.

1868-yil 1-mayda Samarqand yonidagi Cho'ponota tepaliklarida buxorolik askarlar, xalq ko'ngillilari hamda imperiya qo'shinlari o'rtasida jang boshlandi. Amirning kaltabin siyosatidan, shahar hokimi Sherali-inoqning zulmidan charchagan ahli Samarqand 1868-yil 2-mayda qozikalon boshchiligidagi vakillar tomonidan majburan Kaufmanga taslim bo'ladi. Sharqning qadimiy va go'zal shahri, sohibqiron poytaxti imperiya qo'shini qo'lga o'tganligi xususida general-gubernator darhol imperatorga telegramma yuboradi.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1868-yil 1-iyunda Zirabuloqda bo'lib o'tdi. Zirabuloqdagi mag'lubiyatdan so'ng, xalq noroziligi yanada avj olinishidan cho'chigan amir, Qizilqum tomonga yo'l oladi. Amir mag'lubiyatidan norozi omma Darvozmazor yoniga to'planishdi. Bir vaqtning o'zida 1868-yil 2-iyunda Abdulmalik to'ra boshchiligidagi vatanparvar kuchlar hamda Samarqand ahli birlikda istilochiligiga qarshi bosh ko'taradilar. Deyarli bir hafta davom etgan qo'zg'olon, 8-iyunda general-gubernator K. Kaufman tomonidan shafqatsiz tarzda bostirilib, qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadi. Shahar esa imperiya qo'shinlariga talonchilik uchun beriladi.

Samarqand qo'zg'olonining shafqatsiz bostirilishi esa amirni keyingi harbiy harakatlar befoyda, sulhdan boshqa Buxoro hukmdorining iloji yo'qligini yana bir karra tasdiqlagan edi. Shu bois Karmanada chaqirilgan kengash urushni to'xtatish xususidagi amir fikrini ma'qullaydi. Amir barcha qo'shinni va qurol-yarog'larni «oq podshohga topshirishni va undan Makkaga hajga kyetishga ruxsat berishni» so'raydi. Shuningdek u «o'limim yaqin va taqdirim xalq qo'lida», – deb taqdirga tan byergan edi. 1868-yil 12-iyunda amir vakillari Miroxur Musabekov va Tursun hojilar amirning taslim

bo'lganligi hamda sulh tuzishga tayyor ekanligini bildirishi uchun general-gubernator Kaufman huzuriga kelishdi.

General-gubernator amir elchilariga amirlikni tugatish uning rejalari kirmasligini, Buxoro bilan «do'stona munosabatlar»ni o'rnatish niyatida ekanligini hamda o'zi olib borgan kurashlari amirning «aybi» tufayli bo'lib, u «tinchlik uchun»gina kurash olib borganligi to'g'risidagi soxta, balandparvoz gaplarni aytadi. Kaufmanning tahqirli sulh shartnomasi xususidagi talabiga javoban amir 1868-yil 20-iyunda imperiya ma'muriyati yuborgan sulh matnini imzolashi, o'z so'zlarini isboti sifatida talab qilingan 125.000 tillaning bir qismi – 10.000 tillani o'z elchilari Mulla Yahyoxo'ja, Miroxur Musabekov va Fozil muftiy-lar orqali jo'natayotganligini yozib yuboradi. 1868-yil 23-iyunda amir sulh shartnomasiga imzo chekdi. Unga ko'ra amirlik o'z mustaqilligini yo'qotib, Rossiya imperiyasi vassaligini tan oldi. Imperiya tomonidan egallagan yerlar – O'ratepa, Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga kirganligi tan olindi. Sulh shartiga ko'ra amir 500.000 imperiya rubli (125.000 Buxoro tillasi) miqdorida tovon pulini to'lashga rozi bo'ldi. Shartlarga ko'ra amir imperiya fuqarolariga erkin savdo qilish, savdo agentliklarini tashkil etish, boj soliqlarini kamaytirish, imperiya fuqarolarining haq-huquqlari hamda mol-mulkleri xavfsizligini ta'minlashga doir majburiyatlarni o'z bo'yniga oldi. Sulh natijasida Buxoro amirligi Zarafshon vohasining asosiy qismi va strategik muhim hisoblangan yerlaridan mahrum bo'ldi. Asosiy irrigatsiya shaxobchalari, hosildor yerlar imperiya ixtiyoriga o'tib ketdi. Amirlikni suvsiz qoldirish, qurg'oqchilikka mahkum etish ehtimoli mustamlakachi harbiy ma'muriyat qo'lga o'tdi.

1868-yil 24-iyunda rasman Buxoro amirligi bilan urush tugaganligi e'lon qilindi. Bosib olingan yerlardan general-mayor Abramov boshchiligida Zarafshon okrugi tashkil etildi. U o'z navbatida 2 qismga: Kattaqo'rg'on va Samarqand bo'limlariga bo'linib, ularga podpolkovnik Karganov va starshina Serovlar boshliq etib tayinlanishdi.

Abdulmalik to'ra (Katta to'ra) boshchiligidagi ozodlik harakati.

Buxoro amirligidagi birinchi xalq-ozodlik kurashi rahbari, Rossiya imperiyasi istilosiga qarshi turib, Buxoro xalqi ozodlik kurashi yo'l boshchisiga aylangan Abdulmalik (Katta to'ra) amir Sayid Mu-



Abdulmalik to'ra.
(1848–1909)

zaffaridning (1823–1885) to'ng'ich o'g'li, taxt valiahdi bo'lib, 1848-yili Buxoroda tavallud topgan edi.

Taxt vorislarini merosxo'r unvoniga teng bo'lgan Katta to'ra faxriy nomi bilan nomlash odat bo'lgan. Odatda «to'ra» so'zini xon o'g'il-lari nomiga, shahzodalar ismiga qo'shib aytish hurmat darajasi hisoblangan. Shu bois ham Abdulmalik to'ra «Katta to'ra» nomi bilan ham (ya'ni katta o'g'il, merosxo'r ma'nosida) tarixda iz qoldirgan.

Abdulmalik (Katta to'ra) ni Buxoro-Rossiya munosabatlari keskinlashgan bir vaqtda, otasi tomonidan avval Karmana, so'ngra G'uzorga (taxm. –1864-yili) hokim (bek) etib tayinlanadi. Tez orada nafaqat beklklarda, balki poytaxt Buxoroda ham urushlar natijasida iqtisodiy ahvol ancha mushkullashdi. Amir Muzaffar shunday bir murakkab ichki siyosiy vaziyatda, rus qo'shinlari ketma-ket Buxoro yerlarini zabt etayotgan bir paytda, o'zining birinchi darajali shahri, qkadimiy Samarqand mudofaasini tashkil etish va mustahkamlashga katta e'tibor bera boshladi.

Chunki, Jizzaxdan keyingi marra bosqinchilar uchun Samarqand ekanligi barcha uchun ayon edi. Shuning uchun ham amir Samarqandda taxt vorisi bo'lishini ma'qul deb topdi. Taxt vorisi – G'uzor begi bo'lgan Abdulmalik to'ra, Hisor hokimi Rahmonqul parvonachi, Miyonkol qo'shini, buxorolik navkarlar bilan birgalikda Samarqand mudofaasini tashkil etish uchun qoldirildi.

Bu voqea taxminan 1866-yil oktabr oyi oxirlariga to'g'ri keldi. Samarqandda Abdulmalik to'ra 1867-yilning o'rtalariga (yoki oxirlariga) qadar bo'lgan. Abdulmalik to'ra Samarqandda uzoq tura olgani yo'q. Holbuki u shahzoda hamda katta o'g'il sifatida amirlikning faxri hisoblanmish bu shaharda qolishi, istilochilarga qarshi mudofaani ham tashkil etishga hiss'a qo'shishi mumkin edi. Amirlikka qarashli Samarqandda bu vaqtda Sherali inoq nomli shaxs hokim edi. Sherali inoqning mazhabparastligi, xalqqa zulmi-zo'ravonligi oshib ketganligidan bezgan shahar ahli, uning ustidan shikoyat bilan amirga murojaat etadi.

Amir shikoyatga quloq ham tutmay, aksincha samarqandlik shikoyatchilarni o'zlarini jazolaydi. Amir tomonidan qo'llab-

quvvatlangan Sherali inoq shikoyatchilardan ayovsiz qasos ola boshlaydi.

Sherali inoq to'rani shahardan jo'natib yuborganidan keyingina o'z holicha ish tutishi mumkinligini yaxshi bilar edi. Shu tariqa, Sherali inoq shahar ahliga xayrihohlik kayfiyatida bo'lgan, Rossiya imperiyasi bosqini va mustamlakachiligiga qarshi faol kurash tarafdori bo'lgan Abdulmalik to'raning vatanparvarlik his-tuyg'ularini «fitnachi» va «isyonchi» degan tamg'alar bilan izohlab amirga chaquv xatlari yubora boshladi.

Samarqand hokimiga katta umid bog'lagan amir bu holatni anglamay, g'azab ustida o'g'lini Samarqanddan chaqirtirib olib, qayta G'uzor bekligiga jo'natib yubordi. Chunki, amirning o'zi ham Katta to'ra Samarqandni markaz qilib olib hukmdorga qarshi kurash olib borishi mumkin degan, xavotirda bo'lgan. O'z o'g'lining mustaqillik va ozodlik kayfiyatini toj-u taxt uchun kurash uchun deb yo'yanligi, katta to'raning nafsoniyatiga qattiq tekkan va bu uning keyingi faoliyatida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Amirning noshudlik bilan olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, Rossiya imperiyasi qo'shinining tobora davlat ichiga kirib borayotganligi, ketma-ket muvaffakiyatsizliklar davlat inqirozini yanada chuqurlashtirib yubordi. Bunday bir siyosiy vaziyatda yurt mustaqilligi va ozodligi kayfiyatidagi vatanparvar kuchlar esa endilikda yosh bo'lsa-da, obro'li va tadbirli shahzoda Abdulmalik (Katta to'ra) to'ra atrofida jiplashishni maqsadga muvofiq deb hisoblay boshladilar.

Abdulmalik (Katta to'ra) to'ra G'uzorga qaytib kelganidan so'ng o'z atrofida vatanparvar kuchlarni jamlay boshlaydi. Bu jarayonda amirlikning katta ta'sirga ega bo'lgan beklklari Shahrisabz hokimi Hakimbiy va Kitob hokimi Jo'rabeklar ham amir faoliyatidan norozi bo'lgan holda Katta to'raga elchi yuborishdi. Ular endilikda to'raga umid bog'lab, Vatan ozodligi yo'lida ittifoq bo'lib harakat qilishga ahd qilishgandi. Nihoyat qo'shin bilan Samarqandni bosqinchilar qo'lidan ozod qilish va mamlakat hududiy yaxlitligini tiklash maqsadida Katta to'ra Samarqand tomon yo'l oladi. Ularga Shahrisabz yo'lida uning hokimi Hakimbiy, Kitob hokimi Jo'rabek boshchiligidagi ko'pchiligini kenegas urug'i vaqillari tashkil etuvchi qo'shin kelib qo'shildi.

1868-yil 1-iyunda tarixga «Samarqand qo'zg'oloni» nomi bilan kirgan to'ra qo'shini hamkorligida shahar ahlining Rossiya imperiyasiga

qarshi bir haftalik ozodlik qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Amirning o'z shaxsiy manfaati, toj-u taxtni Vatan taqdiri, xalq manfaatidan ustun qo'yishi natijasida davlat kelajagi uchun olib borilgan ozodlik kurashi parokandaga uchraydi. 3-iyunda ma'lum sababga ko'ra shahrisabzliklar jo'nab ketgan bo'lishsa-da, to'ra ozchilik qo'shin bilan hujumga o'tdi. Lekin, endi bu qo'shin oldingidek kuchli va uyushgan qo'shin emas edi. 4-iyundan Kaufman to – 8-iyunga kelgunga qadar asosan samarqandlik aholining o'zi bu ozodlik qo'zg'olonida ishtirok etdi.

Shaharga katta harbiy kuch bilan kirib kelgan general Kaufman bir-varakayiga shaharni o'qqa tutishga buyurdi. Shahar bozori va do'konlar yoqib yuborildi. Qo'zg'olonida faol ishtirok etganlar qattiq jazolandi. Ularning bir qismi o'limga, qolgani surgunga hukm qilindi. Shahar ahli va to'ra qo'shini orasidagi birlikning yo'qolishi, ommaning asosiy qismi quolsiz bo'lib, qurol-yarog'ning yetishmasligi, shahrisabzlik qo'shinining orqaga chekinishi, o'zaro parokanda tarzda ish tutish – bularning hammasi qo'zg'olonning muvaffaqiyatsiz tugashiga sabab bo'lgan edi.

Abdulmalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakati avval boshda shu tarzda boshlanib amirning podsho Rossiyasi bilan sulh tuzgunga qadar shu tariqa davom etgan edi. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida tuzilgan sulhdan (1868-y. 23-iyun) keyingi ichki siyosiy ahvol xususida manba va adabiyotlarda, afsuski juda kam va umumiy tarzda yondashiladi.

Abdulmalik to'ra ma'lum bir vaqtda otasi bilan ixtilofni unutilib, istilochilarga qarshi birgalikda kurash olib bormoqchi, harbiy kuchlarning bo'linib kyetishiga yo'l qo'ymaslik uchun muzokaralar orqali harakat ham qilmoqchi bo'lgan ko'rinadi. Amir esa xalq ichida obro'-e'tibori pasayib, undan norozilik o'sib borayotganligidan xavotirga tushgan holda ozodlik kurashi boshlanganligidanoq (1868-yil bahori) vatanparvar kuchlarni garchi tan olishni xohlamasada, ular bilan muzokaralar yuritishga majbur bo'lgan edi. Shu yo'l orqali u o'z hokimiyatini xavfsizlantirmoqchi, ittifoqchi kuchlarni parokanda qilib, ulardan o'z maqsadida foydalanmoqchi ham edi.

Lekin yuqoridagilardan yaxshi ma'lumki, amir aksincha ittifoqchilar o'rtasiga parokandalik va xiyonat urug'ini sochgan, toj-u taxtni davlat kelajagi, xalq, yurt manfaatidan yuqori qo'yan edi. Muzokaralarning besamar cho'zilishi amir Muzaffarning vaqtdan yutishiga hamda bir oz

«qaddini rostlab» olishga imkon byergan edi. Turkistondagi mustamlaka hukumati boshlig'i K.P. fon Kaufman amir Muzaffar hukumati-ga yon bosib «to'qnashuvlar sodir bo'lishi ehtimoli bor vaqtida, amir foydasiga diversiya uyushtirib, Qoratepa yoki Urgut, yoki Jom, yoki Jom ortiga o'z vaqtida harakat qilishni, lekin harbiy to'qnashuvlardan o'zini tiyib turish», lozimligini buyuradi.

Shunday qilib, joylarda mustamlakachilar tomonidan bosib olingan erlarni qaytarib olish, istilochilarni mamlakatdan haydab chiqarish, sulhni bekor etish, amirni hokimiyatdan olib tashlashga doir norozilik harakatlari avj olib, butun amirlik ozodlik kurashi domiga tortiladi. Amirning ahvoli nihoyatda tang, to'ra tarafdorlari har soatda poytaxtga kirib, hokimiyatni qo'lga olishlari mumkin edi. Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ittifoqchi vatanparvar kuchlar amirlikdagi barcha tabaqa va xalq, elatlar qo'llab-quvvatlashi natijasida o'lkada siyosiy vaziyatni o'zgartirib yuborish arafasida edilar. Sodiq (Siddiq to'ra) Karmana va G'ijduvonda turib bu yerlarni boshqarish uchun to'radan beklik yorlig'ini olgan, amirga Shimoldan turib xavf solar, Janubda Abdulmalik to'raning 14 ming sonli qo'shini Chiroqchini egallab, butun amirlik Janubini o'z ixtiyoriga olgan edi. Amir ittifoqchi kuchlar qurshovida qolgan, imperiya qo'shinidan ochiq-oydin yordam so'rash uchun xalq noroziligining yanada o'sib kyetishidan xavfsirar edi. Agarda rus qo'shini aralashmasa, poytaxtni qiyinchiliksiz egallash yuqorida qayd etilganidek, ittifoqchi kuchlar uchun bemalol bo'lib qolgan edi. Rossiya mustamlakachi harbiy ma'muriyati o'zlari uchun vaziyatni bunday tarzda o'zgarayotganligi natijasida darhol ikkita muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorga kelishdi.

Birinchiidan, amir Muzaffarni Buxoro taxtida saqlab qolish va uning hokimiyatini mustahkamlash Rossiya mustamlakachi ma'muriyati siyosatining muhim strategik vazifasi deb topildi. Ikkinchiidan esa Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ittifoqchi vatanparvar kuchlarni harbiy aralashuv yo'li bilan butkul tor-mor keltirish lozim deb hisoblandi.

General Abramov bu vaqtga kelib har qanday yo'l bilan bo'lsa ham to'ra boshchiligidagi ozodlik harakatini siqib qo'yishga, aholining unga bo'lgan ishonchini so'ndirishga, Katta to'rani boshi berk kuchaga kiritib qo'yishga jon-jahdi bilan harakat qildi. «Butkul anarxiya» holatiga kelib qolgan poytaxtdagi amir Muzaffar hukumati general Abramovning harakati tufayligina o'z pozitsiyasini mustahkamlay boshladi.

1868-yil sentabr oyining oxirlariga kelib xonlik ichida va uning chegaradosh hududlarida vaziyat og'ir holda saqlanib turar edi. Ochiqdan-ochiq Buxoro amirligi hududiga bostirib kirishga hatto poytaxtdagi Rossiya imperiyasi rasmiy ma'murlarining ko'pchiligi ham qarshi bo'lib, bu hol xalqaro maydonda rus tashqi siyosati nufuziga putur yetkazar, Angliya bilan shunday ham tarang bo'lgan munosabatlarni yanada keskinlashtirar edi.

Bu paytda Katta to'raning ta'siri kuchayib, Buxorodan Qarshiga boruvchi asosiy yo'l ustidan o'z nazoratini o'rnatgan edi. Mustamlakachilar xatti-harakatlari bu safar ham deyarli natijasiz tugagan edi. Chunki, to'rani siquvga solib qo'yish rejasi aksil natija bilan tugab, amirning o'zi poytaxt Buxoroda siyosiy qamalda qolgan edi. O'tayotgan vaqt faqat Katta to'ra foydasiga xizmat qilayotganligini nafaqat rus qo'mondonligi, balki butkul aholi uchun ham sir bo'lmay qoldi. Shunday sharoitda, 1868-yil 19-oktabr kuni general Abramov 8 rota, 6 ta zambarak, 250 nafar kazak, bir necha raketa qurilmasi bilan Qarshi tomonga, Abdulmalik to'ra boshchiligidagi xalq-ozodlik kurashini bostirish uchun harbiy yurishni boshlaydi.

To'raning taxminan 40.000 nafar qo'shini va ko'ngillilar, Qarshidan 10 verst naridagi Chortoqda yig'ilib, jangga shay bo'lib turgan edi. Lekin, imperiya qo'shinining harbiy jihatdan ustunligi bois g'alaba ular tomonida bo'ldi. To'ra avval Yortepaga, so'ngra Toshqo'rg'on qal'asiga chekindi.

Abdulmalik to'ra keyinchalik Xiva xonligiga jo'nab ketdi. Muhammad Rahimxon II unga xonlikda qolishni tavsiya qildi. Abdulmalik to'ra bir muncha vaqt xonlikda bo'lib, Afg'onistonga o'tib ketdi. So'ngra bir necha vaqt Sharq mamlakatlarida bo'ldi. Sharqiy Turkistonda yuzaga kelgan Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek uni xizmatga chaqirdi. Katta to'ra 1877-yilgacha bu davlatda bosh lashkarboshi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Ushbu davlat xitoyliklar tomonidan tor-mor etilgach, to'ra Hindistonga ketdi. Abdulmalik to'ra 1909-yil 61 yoshida Hindistonda Peshavor shahrida vafot etdi.

Murakkab va ziddiyatli davr farzandi bo'lgan Abdulmalik to'ra faoliyati tabiiyki, xato va kamchiliklardan xoli bo'lmagan. Amirlikdagi siyosiy tanglik, amirning harbiy va siyosiy kaltabinligi, amir qo'shinlarining harbiy layoqatsizligi, rus armiyasining harbiy darajada yuqori turganligi, Abdulmalik to'raning siyosiy tajribasizligi, uning urug' boshliqlari va harbiy sarkardalar ta'sir doirasidan ko'p ham chiqa

almasligi, o'zboshimchalik holatlariga vaqtida chek qo'yimaslik, qurol-yarog'ning yetishmasligi, harbiy tayyorgarlik darajasining pastligi — xalq ozodlik kurashining birinchi davri muvaffaqiyatsizligiga olib keldi. Albatta, turli siyosiy kuchlar gohida bu harakatdan turli maqsadlarda, jumladan keyinchalik hokimiyat masalasida o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda foydalanishga harakat qilgan edilar.

5. Xiva xonligining qaram davlatga aylantirilishi.

Rossiya Imperiyasi doiralari Turkiston general-gubernatorligini o'zining O'rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilo rejasini Xiva xonligini to'la bo'ysundirishga qaratishdi. Xiva xonligi mustaqilligi bilan mustamlakachilarga jiddiy xavf solib turar edi. U ming yillardan buyon davom etib kelayotgan qadim Xorazm davlati timsoli sifatida ham Rossiya imperiyasi uchun xavfli ko'rindi. Rossiya imperiyasi o'z tasarrufidagi qozoqlarni ozodlik kurashiga rag'batlantirib turgan Xiva xonligi ekanligini ham yaxshi bilardi. Qozoqlarning milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan Kenesari Qosimov Xivadan doimo madad olib, o'n yil davomida Rossiyani bezovta qilib kelayotganligini ham unutmadi. Masalaning siyosiy tomonidan tashqari, imperiya butun Turkiston o'lkasidagi tijorat ishlarini ham batamom o'z qo'lga olishni maqsad qilib qo'ygan edi. Kaspiy dengizining Sharqiy sohillaridan Turkiston shaharlariga olib boruvchi barcha savdo yo'llari esa Xiva xonligi hududlaridan o'tar edi.

1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligidagi Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilindi. Generallar rejasiga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar Sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibli ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa G'arbdan va Shimoli-G'arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi.

Qurol-yarog' va harbiy texnika jihatdan ustun bo'lgan Turkiston qo'shini tomonidan boshlangan yurishlar davomida Xorazmning ko'hna qal'asi Hazorasp hamda uning atrofidagi hududlar egallandi. Bu qal'ani qo'mondon Kaufman o'ziga qarorgoh qilib, ichkariga siljish uchun tayanch punkt qildi. Imperiya qo'shini yo'lda uchragan har bir shahar va qishloqni talab, qirg'in barot uyushtirishdi. 1873-yil 29-may kuni imperiya harbiylarining asosiy kuchlari Xiva ostonasida paydo bo'ldi.

Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay, muzokaralar boshlash haqida o'z vakillarini fon Kaufman huzuriga jo'natdi. Ammo general-gubernator Kaufman xonning taklifini oqibatsiz qoldirib, hujumga kirishdi.

Xiva xonining sulh haqidagi navbatdagi taklifi rad etilgach, qo'shimcha kuch to'plash uchun shahardan chiqib, turkman yovmut aholining o'tovlari sari yo'l oldi. Afsuski, shunday qaltis bir paytda xonning oilasi va yaqin qarindoshlari dushmanga qarshi yakdil bo'lish o'rniga, bo'linish yana mudhish tarzda qayta takrorlandi. Xonning inisi va uning yaqinlari dushmanga qarshi birlashib kurashish o'rniga, u bilan kelishish yo'liga o'tib olishdi.

1873-yil 29 mayda Xorazm saltanati poytaxti Xiva ishg'ol etildi. Shaharga g'olibona kirib kelgan Turkiston, Orenburg, Kavkaz qo'shinlari talon-tarojga kirishishdi. Xon saroyida oliy hukmdorlarning taxti, bebaho oltin-kumush buyumlari, turli-tuman qimmatli matolar va nodir qo'lyozma asarlar Peterburgga, podshoh saroyiga o'lja sifatida olib ketildi. O'lja sifatida olingan behisob boyliklar generallar, zobitlar va askarlar o'rtasida taqsimlab olindi. Bosqinchilar avvaldan puxta ishlab chiqilgan reja bo'yicha Xorazmning moddiy va madaniy boyliklarni talon-taroj qilishga kirishdilar. Muhammad Rahimxon Xivaga qaytib kelguncha bosqinchilar saroyini talab, barcha qimmatbaho buyumlarni, 300 ta qo'lyozma asarni Peterburgga jo'natishdi.

1873-yil 12-avgust Gandimiyon qishlog'ida fon Kaufman sulh shartnomalarini Muhammad Rahimxon diqqatiga havola qildi. Bunga ko'ra, Amudaryoning o'ng qirg'oqlari bo'ylab suzishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Rus savdogarlari xonlik hududida erkin savdo qilish, Amudaryoning chap qirg'og'idagi savdo omborlari qurish huquqini olishdi. Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanib, xonlik zimmasiga 2.000.000 so'mlik tovon to'lash majburiyati yuklandi. Rossiya fuqarolariga xonlikda ko'chmas mulk sotib olishga ruxsat berildi.

5. Rossiya imperiyasining o'lkadagi mustamlakachilik siyosati. Mustamlaka boshqaruv usuli. Turkistonni Rossiyaning sanoat o'lkasiga aylantirilishi.

Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatish va boshqarish hamda mustamlakachilarning manfaatlarini himoya qiladigan mustahkam boshqaruv tartiblarini joriy etish uchun

barcha chora-tadbirlarni ko'rishdi. Chunki, boshqaruv tizimi Rossiya imperiya hukumati uchun muhim ahamiyat kasb etib, bosib olingan joylarda mustamlakachilik siyosatini olib borishda asosiy tayanch hisoblangan.

Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turgan. Rossiya hukumatining Turkiston o'lkasi uchun 1865–1916-yillar oralig'ida ishlab chiqqan hamda amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihalari (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916-yillar)da va ularning moddalaridagi adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgarishlarda ana shu holat o'z aksini topgan.

Toshkent shahri bosib olinganidan so'ng 1864–1865-yillarda bosib olingan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida (1865) harbiylashgan ma'muriy boshqaruv tartiblariga asoslangan Turkiston viloyati tashkil etilib, unga general-mayor M.G. Chernyayev gubernator etib tayinlanadi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda «Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom» qabul qilinib, unga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyati harbiy gubernator qo'lida bo'limlarga bo'linib, ularni bo'lim boshliqlari boshqargan. Bo'lim boshlig'i bir vaqtning o'zida bo'lim harbiy komendanti ham hisoblangan. Bo'lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi va rus amaldorlaridan tayinlangan boshqaruvchilar bo'ysungan. Shuningdek, bu «Nizom»ga ko'ra, Turkiston viloyati gubernatori, «biy, oqsoqol, rais va qozi lavozimidagi tub joy aholi vakillarini egallab turgan lavozimiga tasdiqlash, bo'shatish, almashtirish vakolatiga ega bo'lgan».

Shu o'rinda qayd etish joizki, Turkiston viloyatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida bo'lishi vaqt o'tishi bilan turli muammolarni keltirib chiqargan edi. Shuning uchun ham Turkiston viloyatining uzoqda joylashganligi, viloyat ma'muriyati vakillari sonining kamchiligi general-gubernatorlik bilan bog'lanishga, uning ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi imperiya hukmron doiralari o'rtasida Turkiston viloyatini Orenburg general-gubernatorligidan alohida ajratish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi. 1867-yilda Peterburgda Turkiston boshqaruvi bo'yicha tayyorlangan «Nizom» loyihasi maxsus komissiya tomonidan muhokama qilinib, unda Orenburg general-gubernatorligidan alohida bo'lgan

Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. 1867-yil 11-aprelda Aleksandr II tomonidan komissiya taklifi ma'qullanib, 11 iyulda Janubiy Qozog'iston va O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi to'g'risida farmon e'lon qilinadi. 14-iyulda birinchi general-gubernator qilib K. P. fon Kaufman tayinlanadi.

Yangi tashkil etilgan ushbu ma'muriy birlik dastavval 2 ta – Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o'z ichiga olgan edi. Imperiya hukumatining 1867-yilgi manifestiga ko'ra, Kaufmanga «o'lkani boshqarish uchun kerakli va zarur deb hisoblangan barcha tadbirlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi berilib, siyosiy, chegaraviy va savdo ishlarini hal qilish, qo'shni mamlakatlarga ularning Rossiya bilan o'zaro aloqalariga tegishli muzokaralar olib borish va bitimlar imzolash, o'zaro kelishuvga erishish va qarorlar qabul qilish uchun ishonchli vakillarni jo'natishda cheklanmagan vakolatlar berildi».

1867-yilgi «Nizom» loyihasida Turkiston o'lkasining Rossiya harbiy vazirligi tarkibida bo'lishi, o'lka harbiy hokimiyat orqali boshqarilishi, general-gubernator o'lkada joylashgan qo'shinga qo'mondonlik qilishi, boshqaruvning quyi bo'g'iniga yerlik aholi vakillari saylov orqali saylanishi, o'lka boshqaruvini Rossiya imperiyasidagi mavjud boshqaruv tizimiga yaqinlashtirib, keyinchalik o'lkani imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish, o'lkaning ma'muriy – hududiy bo'linishida esa imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqib ish tutilishi ko'rsatib o'tilgan.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblangani uchun ham boshqaruv sohasida dastlab katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan quyi boshqaruv organlari, soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning dastlab saqlanib qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining turmush-tarziga katta o'zgarishlar kiritish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Undan tashqari, yangi bosib olingan erlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan o'z odamlari bo'lmaganligi, mahalliy sharoitni to'liq bilmaslik kabilar ham an'anaviy boshqaruv tizimini ma'lum muddat saqlab qolishga majbur qilgan.

Rossiya imperatori tomonidan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom» 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan bo'lsa-da, ma'muriy tizim bo'yicha e'tirozlar davom etdi. Ammo, imperator Turkiston o'lkasida sobiq general-gubernatorlik boshqaruvining asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda unga ba'zi o'zgarishlar kiritdi. Ummuman olganda, Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirilib, o'zgartirilib turildi. Chunki, podsho Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruv tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy boshqaruvi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olganidan so'ng bu hududlarda ko'p asrlardan buyon shakllanib, mavjud bo'lib kelgan, o'troq va ko'chmanchi aholining diniy hamda mahalliy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan boshqaruv tizimi o'rniga imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv tartiblari o'rnatiladi. Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimi markaziy, viloyat, uezd (tuman), uchastka (volost), shahar, qishloq va ovul boshqaruvi shakllaridan iborat edi. General-gubernatorlik dastlabki tashkil etilgan paytda ikkita – markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo va markazi Berniy (Olmaota) bo'lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat bo'lgan. Sirdaryo viloyati hududiga asosan ilgari Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan erlar va Qo'qon xonligining bosib olingan Shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Alatau okrugi hududlari hamda Turkiston viloyatining bir qismidan iborat hududlarda tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyati ma'muriy jihatdan Kazalinsk, Perovsk, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Toshkent, Xo'jand, Jizzax uездlariga bo'lingan bo'lsa, Yettisuv viloyati Sergiopol, Kopal, Berniy, Issiqko'l va To'qmoq uyezdlariga bo'lingan. Rossiya hukumati yangidan bosib olingan erlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shimcha ma'muriy-hududiy birlik tashkil etib borgan. Jumladan, 1868-yilda Buxoro amirligiga qarashli bosib olingan erlarda markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi, Xiva xonligiga qarashli yerlarni bosib olish hisobiga 1874-yilda markazi Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) bo'lgan Amudaryo bo'limi, 1876-yilda Qo'qon xonligi hududlarida markazi Yangi Marg'ilon (Skobelev, Farg'ona) bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil etilgan edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy-hududiy jihatdan Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyatlari hamda Amudaryo bo'limidan iborat edi. Viloyatlar uyezdlarga bo'lingan bo'lib, ular quyidagilar edi: **Sirdaryo viloyati** – Avliyoota, Kazalinsk, Qurama, Perovsk, Turkiston, Chimkent; Toshkent shahri markaz sifatida general-gubernatorga bo'ysungan; Amudaryo bo'limi ham Sirdaryo tarkibida bo'lgan; **Yettisuv viloyati** – Berniy, Kopal, Jarkent, Lepsin, Pishpek, Prjevalsk, To'qmoq; **Farg'ona viloyati** – Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh, Chust va Chimyon; **Samarqand viloyati** – Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax; **Kaspiyorti (Zakaspiy) viloyati** – Mang'ishloq, Krasnovodsk, Ashxobod, Tajan va Marv uyezdlari.

Rossiya imperiyasi ma'murlari o'zlarining Turkistondagi mustamlakachilikka asoslangan maqsadlarini keng qo'lamda amalga oshirish uchun o'lkani ruslashtirish siyosatiga alohida e'tibor berishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda ochilgan davlat muassasalari, sudlar, banklar va boshqa tashkilotlarda ish yuritish faqat rus tilida olib borilgan. Mahalliy aholi (asosan boylar, savdogarlar, qozilar va oqsoqollar)ning bolalarini rus tiliga o'rgatish uchun rus-tuzem maktablari ochilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad imperiya ma'muriyatiga sadoqatli amaldorlarni tayyorlash va kelajakda «siyosiy ahamiyatga ega bo'lmagan boshqaruv ishlarigagina mahalliy aholini jalb qilishdan» iborat edi.

XIX asrning oxirlariga kelib Turkiston general-gubernatorligining umumiy maydoni 1.738.918 kv.km.ni tashkil etgan. 1897-yilgi birinchi Butunrossiya aholini ro'yxatga olishning to'la bo'lmagan ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligining beshta viloyati aholisi quyidagicha edi:

Kaspiy bo'yi viloyati – 383 ming kishi.

Samarqand viloyati – 860 ming kishi.

Sirdaryo viloyati – 1.478 ming kishi.

Farg'ona viloyati – 1.572 ming kishi.

Yettisuv viloyati – 988 ming kishi.

Jami – 5.281 ming kishi.

Rossiya imperiyasi statistika boshqarmasining 1914-yilda to'plagan ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 6.492.604 kishidan iborat bo'lgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Turkiston general-

gubernatorligining uchta viloyati (Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona)da aholi zich yashagan.

Turkiston aholisining umumiy miqdorida o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, turkmanlar va qoraqalpoqlar ko'pchilikni tashkil etgan. Foiz hisobida ular quyidagicha bo'lgan:

O'zbeklar	35,7
qozoqlar va qirg'izlar	44,66
Turkmanlar	4,98
Tojiklar	6,73
Qoraqalpoqlar	2,26
Ruslar	3,75
boshqa xalqlar	2,15

O'lkadagi rus, ukrain va belorus aholisining soni 1897-yilda 197.240 kishi bo'lgan bo'lsa, 1911-yilda ularning soni 406.607 kishiga yetgan. Bundan tashqari, Turkiston aholisining etnik tarkibini tatarlar, boshqirdlar, gruzinlar, armanlar, latishlar, litvaliklar, polyaklar, qoshg'arliklar, uyg'urlar, taranchilar, forslar, hindlar, kurdlar, afg'onlar kabilar ham to'ldirishgan.

Turkiston general-gubernatorligining qishloq joylarida mahalliy aholining 86 foizi, mahalliy bo'lmagan aholining 17 foizi yashagan bo'lsa, shaharlarda mahalliy aholining 14 foizi mahalliy bo'lmagan aholining esa 83 foizi yashagan. Shahar aholisining ulushi Toshkent, Qo'qon, Berniy, Andijon, Samarqand, Marg'ilon kabi yirik savdosoat va ma'muriy-siyosiy markazlarda nisbatan yuqori bo'lgan.

Turkiston o'lkasida rusiyzabon aholiga ko'plab imtiyozlar berilgan bo'lib, bunday imtiyozlar mahalliy aholiga tegishli bo'lmagan. Rus mustamlakachilik tartiblari, idora uslubi va ruslashtirish siyosatidan norozilik quyi ma'muriyat saylovlarida ochiqdan-ochiq siyosiy chiqishlar shaklida namoyon bo'ldi. Mustamlaka sharoitidagi milliy va sinfiy tengsizlik hamda rus ishchilarining imtiyozlari va ularning mahalliy ishchilardan keskin farqlanuvchi hukmron mavqei, imperiyaning ruslashtirish siyosati, ko'chirib keltirilgan rus aholisiga mahalliy aholi yerlarining bo'lib berilishi milliy-ozodlik harakatlariga sabab bo'lgan edi.

Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi.

Rossiya imperiyaning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati asosan o'lkani imperiyaning tobora rivojlanib borayotgan sanoati xomashyo bazasiga va tayyor mahsulotlarni sotish bozoriga aylantirishga qaratilgan bo'lib, maqsad esa, Turkistonni sanoat o'lkasiga aylantirish edi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruv usullarini joriy etgach, o'lkada bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu holat birinchi navbatda o'lka xalq xo'jaligining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashgan tarmoqlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Xususan, rus sanoati mahsulotlarining ko'plab kirib kelishi o'lkadagi yarim natural xo'jalik yuritishga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlariga zarba berdi. Ammo, imperiya ma'murlari olib borayotgan mustamlakachilik siyosati Turkistonda to'laqonli kapitalistik sanoat ishlab chiqarish vujudga keltirishga imkoniyat bermasdi. Shunga qaramasdan o'lkada dastlabki zavod va fabrikalar faoliyat yurita boshladi.

N. Musayev tadqiqotlariga ko'ra, Turkiston o'lkasida sanoat korxonalarini vujudga kelishi va tadrijiy rivojlanish tarixini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr – XIX asrning 60–90-yillarini o'z ichiga olib, bu davrda dastlabki kapitalistik korxonalar vujudga keldi. Ikkinchi davr – XX asrning boshlarini o'z ichiga olib, bu davrda sanoat ishlab chiqarishi birmuncha rivojlandi. Birinchi davrda sanoat korxonalarini ozchilikni tashkil qilib, ular mayda va kam quvvatli bo'lsa, ikkinchi davrda korxonalar ko'payib va yiriklashib borgan bo'lib, ularning yirik va quvvatliroq bo'lganlari rus burjuaziyasiga tegishli bo'lgan.

Turkiston shaharlarida ruslar yashaydigan «yangi qism»larning paydo bo'lishi bilan g'isht zavodlari mahsulotlariga bo'lgan talab oshib bordi. Natijada g'isht zavodlariga ega bo'lgan mahalliy boylar yevropacha usulda pishiq g'isht tayyorlab, yangi shaharlarning g'ishtga bo'lgan ehtiyojini qondira boshlashdi. Mehnati og'ir, daromadi kam, texnologiyasi sodda bo'lgan g'isht zavodlari asosan mahalliy boylarga tegishli edi.

Imperiya mustamlakachilari Turkiston o'lkasini bosib olayotgan davrda bu yerda xavfli vaziyatlar bo'lib turishiga qaramasdan zavod va fabrikalar qurish harakati to'xtamadi. Xususan, 1867–1872-yillarda

Turkistonda yettita ipak kalavalash fabrikasi ishga tushirilgan. Shularidan biri 1867-yilda Xo'jandda ishga tushirilgan Xludov fabrikasi bo'lib, unda dastlab 23 ta ipak o'raydigan dastgoh (stanok) o'rnatilgan bo'lsa, 1869-yilda ularning soni 53 ta edi. Bu dastgohlarda ustalar nazorati ostida 200 ta mahalliy o'smirlar mehnat qilishib, kuniga 33 tiyindan ish haqi olishgan.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Rossiya imperiyasi ma'murlarining iqtisodiy siyosati o'lkada yirik sanoat korxonalarini qurishga qarshi qaratilgan edi. Chunki, o'lkada mahalliy ishchilarning ko'payishi imperiyaning mustamlakachilik siyosati uchun juda xavfli edi. Rossiya imperiya ataylab o'lkada sanoatning, birinchi navbatda og'ir sanoatning rivojlanishiga yo'l bermadi. O'rta Osiyo rus kapitalistlarining zavod va fabrikalarining xomashyo bazasi sifatida kuch bilan ushlab turildi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachi hukumati sanoat rivojiga to'sqinlik qilishga qanchalik urinmasin, o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni butunlay to'xtata olmadi. Aksincha, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasi ishlab turgan va yangi qurilayotgan zavod-fabrikalar, hunarmandchilik korxonalarining soni jihatidan Rossiyaning ayrim markaziy rayonlaridan ilgari ketdi.

Turkiston o'lkasini bosib olish uchun olib borilgan bosqinchilik urushlari tufayli o'lkada paxta yetishtirish keskin kamayib ketgan edi. Turkiston paxtasining Rossiya to'qimachilik sanoati uchun katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushungan fon Kaufman 1868-yilda Amerika paxta navlarini yetishtirishga ko'rsatma berdi. Bu paxta navlarini iqlimlashtirish samarali natijalar berib, undan mahalliy g'ozaga nisbatan sifatli va uzun tola olina boshlandi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab Turkistonda paxta ekiladigan yerlar kengayib bordi. Ammo, o'lkada yetishtirilayotgan paxta miqdorining ko'paytirilishiga qaramasdan, u Rossiya to'qimachilik sanoatining 1/5 qismi ehtiyojlarini ham qondira olmas edi.

Paxtaga bo'lgan talabning tobora ortib borishi mahalliy boylardan tashqari yirik rus sanoatchilarini ham o'ziga jalb qildi. XIX asrning oxirlariga kelib yirik rus sanoatchilari o'lkada paxtaga ixtisoslashgan xo'jaliklar tuza boshladilar. Rossiyaning savdo-sanoat burjuaziyasi o'lkada paxtachilikni muntazam rivojlantirib borishga harakat qildi. Shuningdek, Buxoro va Xiva xonliklarida ham paxta yetishtirishga e'tibor kuchaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, xonliklarda yetishtirilgan pax-

ta tolasining sifati Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarinikiga nisbatan ancha yaxshi bo'lgan. «Farg'ona viloyatida paxta, sholi yetishtirish ancha rivojlangan bo'lsa-da, biroq, sifati jihatidan Buxoro, ayniqsa, Xiva mahsulotlariga nisbatan keyinda turadi». Ayni paytda, Buxoro amirligi uchun O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi, Xiva xonligi uchun Amudaryo – Orol dengizi suv yo'lining ochilishi paxtani chetga sotish imkoniyatlarini yanada kengaytirgan edi.

Paxtachilik sanoati qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga nisbatan ko'p mehnat va xarajat talab qilsa-da, undan keladigan foyda nisbatan yuqori edi. Aynan shuning uchun ham imperiya ma'murlari paxta yetishtirishga e'tiborni kuchaytirganliklari quyidagi jadvalda ham ko'rinadi:

Yillar	Paxta maydon (desyatina hisobida)	Olingan hosil (pud hisobida)
1887	61 300	10 000
1893	136 300	—
1895	—	3 273 300
1899	300 000	5 757 900
1903	—	7 000 000
1907	—	8 227 000
1908	—	10 870 000
1910	380 000	13 588 000
1911	425 200	12 997 000
1912	430 000	14 000 000

Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati o'lka aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O'lkaning rus savdo-sanoat burjuaziyasi xomashyo bazasiga aylantirilishi natijasida quyidagi jarayonlar sodir bo'ldi:

Jahon bozorida paxta narxining oshib borishi natijasida Turkistonda paxta yetishtirish va uni chetga tashib kyetish kuchaydi.

Paxtachilikning nisbatan syerdaromad sohaga aylantirilishi, uning o'lka qishloq xo'jaligidan boshqa ekinlarni (ayniqsa, Farg'ona vodiysida) siqib chiqarilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda, paxta yakkahokimligi uchun

zamin yaratilib, o'lka aholisining don va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ehtiyojini kuchaytirdi.

Yetishtirilayotgan paxtaning miqdori va sifatiga e'tibor kuchayib, mahalliy navlar o'rninga Amerika paxtasi navlari ko'plab ekila boshlandi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga kapitalistik bozor munosabatlarining kirib kelishi qishloq aholisi o'rtasida ijtimoiy tabaqalanishni tezlashtirdi. Yerlar bir guruh mulkdorlar qo'lida to'planib, o'z yerlaridan ajratilgan dehqonlarning katta qismi yollanma ishchilarga aylanishdi.

Qishloq xo'jaligiga tovar – pul munosabatlarining kirib kelishi tufayli mahsulot yetishtiruvchilarning katta qismi bozor munosabatlariga tortilishdi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, rus savdo-sanoat burjuaziyasi bilan bir qatorda mahalliy ishbiarmonlar, uddaburon hunarmandlar ham sanoatga kirib kelishdi. Ayniqsa, paxta tozalash, ko'nchilik, ipak yigirish, aroq-vino zavodlari tez ko'payib bordi. Sanoat ishlab chiqarishning shakllanishiga shaharlarning kengayishi, ijtimoiy tabaqalanishning kengayib, arzon ishchi kuchining ko'payishi katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo, o'lkadagi sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari rus va chet el burjuaziyasi vakillari qo'lida edi.

Agrar siyosat. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan agrar siyosatida Rossiyadagi «ortiqcha aholini ko'chirish» siyosatiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1886-yilgi «Nizom»da o'lkaga ko'chib keluvchilarga 10 tanobdan kam bo'lmagan yer ajratish belgilangan bo'lib, «bo'sh davlat yerlariga» birinchi navbatda xizmatdan bo'shagan zaxiradagi zobitlar, quyi unvondagi harbiy xizmatchilar joylashtirilishi alohida ko'rsatilgan. Zamonaviy adabiyotlarda berilishicha, Rossiya imperiyasi Turkistonda olib borgan agrar munosabatlarda quyidagi siyosatni yuritdi:

1. O'lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O'troq hududlarda yer undan amalda foydalanayotganlarga birlashtirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarni hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjatlariga – vasiqalariga tayanmay, aksincha, yerdan amalda kim foydalanayotganiga qarab ish tutish lozimligi haqida ko'rsatma berildi.

3. Ko'p hollarda vaqf yerlari avv. tarzida qoldirildi. Ammo, ayrim hollarda vaqf yerlarini davlat o'z ixtiyoriga olishi ham mumkinligi belgilandi.

4. Ilgari imtiyozga ega bo'lgan shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat erlari deb ataldi va dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma'lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida rus aholisiga yer ajratish taqiqlandi.

6. Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish man etildi. Bu taqiq 90-yillar oxiriga qadar o'z kuchini saqladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda qayd etish kerakki imperiya hukumati yer masalasiga ham alohida e'tibor berib, mahalliy aholining yerga bo'lgan huquqlari qayta ko'rib chiqqan hamda u Rossiya hukumati manfaatlariga moslashtirilgan. O'rta Osiyoda yashayotgan ko'chmanchi xalqlar ixtiyoridagi yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi va yana o'z egalariiga cheklanmagan muddatga ijaraga berildi.

Tadqiqotlarga ko'ra, 1889-yil 13-iyuldagi Qonun ko'chib kelgan ruslarga imtiyozlar va moddiy yordam berishni belgilab berdi. 1892-yildan boshlab esa, Rossiyadan o'zboshimcha ko'chib kelgan minglab «kelgindilar»ga ma'muriyat nazorati bilan kelganlar qatori ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari mumkinligi joriy qilindi. Natijada rusiyabon aholining ko'chib kelishi ommaviy tus olib, XX asr boshida rus kelgindilarining soni 175 mingdan oshib ketdi. Turkiston aholisining atigi 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakachilari qo'liga esa, ekin ekiladigan hosildor yerlarning 60 foizi berib qo'yilgan edi. Ko'chirib keltirilgan rus aholisi katta imtiyozlarga, mahalliy aholiga nisbatan ko'proq yerlarga ega bo'lib, ulardan ma'lum muddat soliqlar ham olinmagan. Imperiya ma'muriyati har qanday qilib bo'lsa ham unumdor yerlarni rus dehqonlariga ajratib berishga harakat qildi. Shuningdek, yer soliqlari oshirilib, mahalliy aholi o'z yerlarini sotishga majbur etildi. Bunday yerlar ham ko'chib kelgan rus aholisiga berildi. Bularning natijasida ko'chib kelgan rus dehqonlari ko'p daromad olib, ishlab chiqarishning texnikaviy vositalarini ham ancha yaxshilab olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mahalliy aholi yerlarining tortib olinishi, yerlarning mulkdorlar qo'lida to'planishi shahar va qishloqlar aholisining ijtimoiy qatlam va

tabaqalarga ajralib kyetishiga olib keldi. Ular yirik yer egalari, shakllanib kelayotgan qishloq burjuaziyasi, o'rta hol va kambag'al dehqonlar, chorikorlar va mardikorlarga bo'lina boshladilar.

7. O'lkada milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.

Milliy-ozodlik harakatlari. Turkiston o'lkasida imperiya ma'murlarining mustamlaka siyosatiga qarshi harakatlar (turli ko'rinish va miqyoslarda) Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olayotgan paytlardayoq boshlangan bo'lsa-da, ular shafqatsizlarcha bostirilib borildi. 1873–1876-yillar Qo'qon xonligidagi Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'ulondan so'ng o'lkaning bir qancha hududlarida xalq ommasining norozilik harakatlari bo'lib o'tdi.

Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi hozirgi O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalarining tog'li hududlarida «Oloy malikasi» nomi bilan mashhur bo'lgan Qurbonjon dodxoh 1876-yilning oxiriga qadar bosqinchilarga qarshi kurashib kelgan. Uning qo'shinlariga qarshi yuborilgan general Skobelev boshliq rus qo'shinlari qo'zg'olonchilarga qarshi harakatlarda yengilganligi bois, mustamlakachi ma'murlar Qurbonjon dodxoh bilan sulh tuzishga majbur bo'lishadi. Ana shunday harakatlardan yana biri 1878-yilda Mingtepa (Andijon) da Yetimxon boshchiligidagi bo'lib o'tgan isyondir. Bu isyondan so'ng Farg'ona viloyati general-gubernatori viloyatdagi mahalliy aholidan g'ayriqonuniy soliq undiruvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo'lgan. 1885–90-yillarda Andijonning Qo'rg'ontepa uyezdida Darveshxon to'ra boshchiligidagi xalq harakatlari bo'lib o'tadi. Ammo, bu harakatlar rus ma'murlari tomonidan shafqatsizlarcha bostiriladi.

«Babo isyoni» nomini olgan 1892-yilgi Toshkent qo'zg'oloni XIX asr oxiridagi muhim harakatlardan biri bo'ldi. Bu qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda o'lkada vabo kasali tarqalishini oldini olish uchun bo'lgan harakat deb ta'riflangan bo'lsa-da, aslida bu qo'zg'olon Rossiya imperiyasining o'lkadagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan bo'lib, mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik kurashining bir bosqichi edi.

1898-yil may oyida Andijonda mustamlakachi ma'murlarning zulmiga qarshi yana bir ozodlik harakati bo'lib o'tadi. Andijonning Mingtepa qishlog'ida boshlangan bu qo'zg'olon tarixda «Andijon qo'zg'oloni» deb nom olgan bo'lib, unga Muhammadali Eshon – «Dukchi Eshon»

boshchilik qiladi. Mustamlakachilar qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirib, uning rahbarini dorga osgan bo'lsalarda, Farg'ona vodiysining Asaka, Quva, Shahrixon, O'sh, Marg'ilon kabi shahar va qishloqlarida norozilik harakatlari keng yoyildi. Ammo, rus qo'shinlari barcha harakatlarni vahshiylarcha bostirishdi.

XX asrning boshlariga kelib o'lkadagi xalq harakatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, 1900–1903-yildagi iqtisodiy inqirozlar o'lkadagi mahalliy aholining ahvoriga salbiy ta'sir etishi dehqonlarning ommaviy noroziliklariga sabab bo'ldi. Ana shunday norozilik harakatlardan biri 1904–1907-yillarda Samarqand viloyatida bo'lib o'tdi. Bu harakatga rus mustamlakachilari orasida «Namoz o'g'ri», xalq orasida «Namoz botir» deb nom olgan Namoz Pirimqulov boshchilik qilgan. Bu harakat Samarqand viloyatining Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax va Xo'jand uyezdlarida keng tarqalib, general-gubernator mahkamasi Namoz botir operatsiyasi uchun maxsus qo'shimcha mablag' ajratganligi bu harakat rus ma'murlarini ancha tashvishga solganligidan dalolat beradi.

Birinchi jahon urushining iqtisodiy asoratlari mehnatkash aholi bo'ynida og'ir yuk bo'lib turgan vaqtda 1916-yil 25-iyunda Nikolay II ning «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonlarida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida» farmoni (mardikorlikka olish) e'lon qilindi. Ushbu farmonga ko'ra Sibir, O'rta Osiyo, Qozog'iston va Kavkazorti xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan 400 ming kishi safarbar qilinishi rejalashtirilgan edi.

Turkiston general-gubernatoriga ushbu farmonni zudlik bilan amalga oshirilish buyurilib, erkak aholini yig'ish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Natijada, 1916-yilning 4-iyulida savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan Xo'jand shahrida, undan keyin Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Toshkent, Qo'qon, Andijon uyezdlarida norozilik harakatlari avj oldi. Bu harakatlarning eng yirigi Jizzaxda bo'lib o'tdi. Tarixda «Jizzax qo'zg'oloni» deb nom olgan bu harakatga Nazirxo'ja Eshon boshchilik qilgan. Dahshatli tus olgan ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun Turkiston general-gubernatori Jizzaxga ikki yarim ming kishilik jazo otryadini yubordi. Ayovsiz qirg'inlar evaziga qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi.

Xullas, Rossiya imperiyasi mustamlakachilari O'rta Osiyo hududlarini bosib olganlaridan so'ng ular zulmiga qarshi norozilik harakatlari doimiy davom etib turdi. Milliy-ozodlik harakatlari dastavval mahalliy xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi tengsizlik va adolatsizlikka qarshi stixiyali noroziligi sifatida shakllanib bordi. Keyinroq esa, bunday harakatlar imperiya mustamlakachiligiga butunlay barham berish, yangi mustaqil Turkiston davlatini barpo etish g'oyalari bilan bog'landiki, bunday g'oyalarning shakllanishi va yoyilishida jadidlar alohida jonbozlik ko'rsatgan edilar.

Jadidchilik harakati. Jadidchilik harakati masalalari bo'yicha turli yillarda D. Alimova, B. Qosimov, S. Xolboev, Sh. Rizayev, U. Dolimov kabi olimlar tadqiqot olib borishgan. «Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, taraqqiyparvar milliy ziyolilar tarixda «jadid» degan nomga musharraf bo'lishdi. Jadidchilik deb nomlangan bu harakatning paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki muhit hamda tushqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq bo'ldi.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralinig (1851–1914) hissasi behad katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillardayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan «Tarjimon» (1883–1914) gazetasi, «Rossiya musulmonligi» (1881), «Ovrupa madaniyatiga bir nazar muvozzini» (1885) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun yozgan darslik va qo'llanmalari Turkistonga tez kirib keldi.

Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo'ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va bu maktabga «Muzaffariya» degan nomni beradi. Jadidchilik g'oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab tarqalib, shu asrning 90 – XX asrning boshlari oralig'ida muntazam ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakat sifatida shakllandi. Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha Islom dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish «Savtiya» (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topishidan boshlandi. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtiradi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o'tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy – dunyoviy ilmlarni o'rgandi. Jadid maktablarida Qur'oni karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o'qitila boshlandi.

Jadid maktablari to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning yetti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda jadid maktabida o'qituvchi, masjidlarda imom bo'lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlash malakasiga ega bo'lishgan. Bunday yetti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo'qon, Samarqand kabi yirik shaharlarda ham ochiladi.

Jadid maktablari pullik edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, ellik tiyindan bir yarim so'mgacha pul to'lashgan. Bu o'rinda har ota-ona o'zlarining boylik va kambag'allik darajalarini shariat asosida belgilab pul berishadi. 35 foizgacha kambag'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitilgan. O'ziga to'q oilalar esa o'z xohishi bilan uch so'mdan va undan ham ko'p pul byergan. Bulardan tashqari jadidlarning o'zlari tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag' bilan ta'minlab turgan.

Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qilishadi. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini tashkil etib, omma orasida katta obro' qozondilar. Jadid maktablari qat'iy nizom, dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo'lib, jadidlar o'quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo'yishni joriy etishdi. O'quvchilar sinfdan sinfga o'tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirishgan.

Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratishdi. Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqori Abdurashidxonovning «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tajvid» (Qur'onni qiroat bilan o'qish usuliga oid qo'llanma), «Havoyiji diniya» (Shariat qonunlari to'plami), «Yor yuzi», «Usuli hisob», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islom», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», Mahmudxo'ja Behbudiyning «Qisqacha umumiy geografiya», «Bolalar maktubi»,

«Islomning qisqacha tarixi», «Amaliyoti islom», «Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» va boshqalar shular jumlasidandir.

Jadidlar oliy ta'limning asosi-universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, M. Behbudiy, U. Asadullaxo'jayev va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini o'z asar va maqolalarida keng targ'ibot-tashviqot qiladilar.

Oliy ta'limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o'qitildi, xorijga yoshlar o'qishga yuborildi. Dunyoviy hozirgi zamon oliy o'quv yurti – universitetga asos solishga jadidlar faqat 1918-yilda Musulmon xalq dorulfununini tashkil etish bilan muvaffaq bo'lishdi.

Umuman, jadidlar juda qisqa vaqt ichida butunlay yangi ya'ni, jadid xalq maorifi tizimi ya'ni, hozirgi zamon xalq maorifi tizimiga asos solishdi.

Jadidchilik harakatining ikkinchi bir muhim faoliyati milliy matbuot va jurnalistikasiga asos solish bo'ldi. Toshkentda Ismoil Obidiy «Taraqqiy» (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov «Xurshid» (1906), Abdulla Avloniy «Shuhrat» (1907), Saidkarim Saidazinboyev «Tujjor» (1907), Ahmadjon Bektemirov «Osio» (1908), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev «Sadoi Turkiston» (1914–1915) gazetalarini, shuningdek Abdurahmon Sodik o'g'li (Sayyoh) «Al-Isloh» (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda esa Muhmudxo'ja Behbudiy «Samarqand» ruscha (1913) gazetasi va «Oyna» (1913–1915) jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov «Sadoi Farg'ona» (1914) gazetalarini chiqardi. Bu gazeta va jurnallar doimo maxfiy politsiya «oxranka»ning ayg'oqchilari kuzatuvini, ta'qibi ostida bo'ldi.

Jadid matbuoti 1917-yil fevralda rus podshosi taxtdan ag'darilgach, yanada rivojlandi. Juda qisqa vaqt oralig'ida fevraldan oktabrgacha Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov «Najot» (1917-y. mart), A. Battol «Sho'roi islom» (1917-y. may), Abdulla Avloniy «Turon» (1917 y.), Ahmad Zaki Balidiy va Munavvarqori Abdurashidxonov «Kengash» (1917-yil iyun), «Ulug' Turkiston» (1917-y.), Qo'qonda Bo'lat Soliyev «El bayrog'i» (1917-y. sentabr) gazetalarini, H. H. Niyoziy «Kengash», Ashu-



Abdulla Avloniy.



**Abdulla Qodiriy –
o'zbek adabiyotida
roman janrining
asoschisi.**

rali Zohiriy «Yurt» (1917-yil iyun) jurnallarini, Samarqandda esa Shohmuhammadzoda «Hurriyat» (1917-yil aprel) gazetalarini chop etishdi.

Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g'oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ'ibot qilishni to'g'ri yo'lga qo'yadilar.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblari ham tarbiyaladi. Jadidshunos taniqli olim professor Bega-

li Qosimovning ta'kidlashicha, ularning 1905–1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg'in faoliyat ko'rsatganlari saksondan ortiq bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919), Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864–1927), Vasliy Samarqandiy (1869–1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931), Abdulla Avloniy (1878–1934), To'lagan Xo'jamiyrov-Tavallo (1882–1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884–1934), Avaz O'tar o'g'li (1884–1919), Muhammadsharif So'fizoda (1869–1937), Abdurauf Fitrat (1886–1938), Sadridin Ayniy (1878–1954), Abdulvohid Burxonov (1875–1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897–1938) va boshqalar shular jumlasidandir.

Mutaxassislarning aniqlashicha, 1917-yil oktabr to'ntarilishigacha dramaturgiya sohasida o'ttizdan ortiq drama, tragediya, komediya asarlari yozilgan va ularning ko'pchiligi teatrlarda sahnalashtirilgan. O'zbek jadid dramaturgiyasi va teatriga ilk bor asos solgan Mahmudxo'ja Behbudiy bo'ldi. Uning «Padarkush» dramasi birinchi bor 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatrida qo'yilishi juda katta madaniy-ma'rifiy voqea bo'ldi. Bu kun o'zbek teatriga asos solingan sana sifatida tarixga kirdi.

Har qanday harakatda bo'lgani kabi bu harakat ham o'z iqtisodiy asosiga ega. Uning iqtisodiy ta'minot manbaini madaniy-ma'rifiy xayriya

jamiyatlari, boy-badavlat kishilar tomonidan savob olish va millat nufuzini ko'tarish uchun berilgan beminnat ehsonlar tashkil etdi. Jadidchilik va jadidlar asosan o'rta hol musulmon ziyolilari hamda dunyo ko'rgan ilg'or ruhdagi savdogarlardan iborat bo'ldi. Toshkentlik Saidkarim Saidazimboy o'g'li, turkistonlik Saidnosir Mirjalilov (taniqli yozuvchi Oybekning qaynotasi), andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev va boshqa boylar jadidchilik harakati rivojlanishiga katta iqtisodiy hissa qo'shdilar.

Toshkentda 1909-yilda «Ko'mak», 1913-yilda «Dorilu ojizin», Buxoroda 1910-yilda «Tarbiyai atfol» xayriya jamiyatlari tashkil etildi. Ularning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborishdan iborat bo'ldi.

«Ko'mak»ning ta'sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo'jayev va Toshxo'ja Tuyuqboyevlar bo'ldi. Bu va «Tarbiyai atfol»ning yordamida 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta turkistonlik iqtidorlik yoshlar Istanbulda o'qiganligi haqida ma'lumot bor.

Toshkentda Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar 1911-yilda tashkil etgan ko'p tarmoqli «Turon» nomli jamiyat sovet hokimiyatining dastlabki yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida teatr truppa-si (1913), «Turon» nomli kutubxona va nashriyot (1913) ham tashkil etildi. Bular butun Turkiston bo'ylab ma'rifat va ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob chop etish va bosmaxona ishlari rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Qo'qonda «Fayrat» (1913), Samarqandda «Zarafshon», To'raqo'rg'onda (Namangan viloyati) «Kutubxonai Ishoqiya» (1908) nomli kutubxonalar tashkil topadi. Shuningdek, jadid bosmaxonasi va kitob do'konlari ancha keng tarmoq otdi.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi tomonidan o'lka hududlari bosib olinganidan so'ng, bu davrdagi mustamlakachilik siyosati O'rta Osiyo davlatlarining hayoti, siyosati, iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzumi va davlatchiligidagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'ldi:

Rossiya imperiyasining harbiy istilosi oqibatida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari zabt etildi.

Hokimiyatning mustamlakachilikka asoslangan tuzilmasini o'rnatilishi oqibatida Qo'qon xonligi butunlay tugatildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi yarim mustamlakaga aylandi.

Imperiyaning iqtisodiy va siyosiy hukmronligini mustahkamlashga xizmat qiladigan qonunchilik tashkilotlari paydo bo'lib, Rossiya savdo, sanoat va moliya kapitali hukmronligi o'rnatildi.

O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi mahsulot ayirboshlashni kengaytirish, mustamlakachilik munosabatlarini mustahkamlash hamda mintaqaning iqtisodiy tuzilmasida aniq o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi oqibatida o'lka Rossiyaning arzon xomashyo bazasiga aylantirildi.

Mintaqa xalqlarining milliy-ma'naviy manfaatlari hamda qadriyatlarini poymol etildi, ularning hatto, eng oddiy haq-huquqlariga ham mensimaslik kayfiyati bilan qaralib, ular ommaviy ravishda asoratga solindi.

Tayanch so'zlar

Turkiston, Rossiya imperiyasi, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, mustamlaka, general-gubernatorlik, ozodlik harakati, boshqaruv, harbiy, sanoat, agrar, ko'chirish siyosati, milliy-ozodlik, jadidchilik, uyezd, volost, davlat, podsho, дума, qo'zg'olon, bek.

Savol va topshiriqlar

1. XIX asrga oid qanday tarixiy manbalarni bilasiz?
2. Mustamlaka davri bo'yicha tarixchi mutaxassislarni qaysi asarlarni bilasiz?
3. XIX asr birinchi yarmidagi o'zbek xonliklari xususida nimalarni bilasiz?
4. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini istilo etilishining sabablarini aytib bering.
5. Toshkent mudofaasi haqida so'zlab bering.
6. Buxoro-Rossiya o'rtasidagi asosiy harbiy urushlar haqida ma'lumot bering.
7. Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ozodlik harakatining mohiyati qanday bo'lgan?
8. Qo'qon xonligi taqdiri qanday kechdi?
9. Xiva xonligining vassallikka aylanishi sabablari nimada edi?
10. Mustamlaka «harbiy-xalq boshqaruvi» nimani anglatadi?
11. Rossiya imperiyasi iqtisodiy siyosatining mohiyatini izohlab bering.
12. XIX asr oxirlari – XX asr boshlaridagi asosiy milliy-ozodlik harakatlari, ularning maqsadi va oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?

13. Ko'chirish siyosati nima?

14. Mustamlaka Turkistondagi madaniy-ma'rifiy hayot xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?

15. Jadidchilik harakati va uning maqsad-mohiyati haqida nima deya olasiz?

9-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustabid tuzumning O'zbekiston boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. I qism. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
3. Tillaboyev S. Turkiston o'lkasining boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki (Farg'ona viloyati misolida). – Toshkent: «Fan», 2008.
4. Yunusova X. Toshkentda 1892-yilgi xalq qo'zg'oloni. Sariog'och, 1998.
5. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev U. Vatan tarixi. (XVI–XX asr boshlari). Ikkinchi kitob. – Toshkent: «Sharq», 2010.
7. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2003.
8. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Akademiya», 2010.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Birinchi kitob. – Toshkent: «Sharq», 2000.
10. Musaev N. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixidan (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari). – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2011.
11. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentning «Yangi shahar» qismi tarixi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2004.
12. A. Odilov. Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ozodlik harakati tarixi. – Toshkent, 2006.

10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosati

Reja:

1. 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobining Turkistonga ta'siri. O'lkada sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati. Turkiston ASSRning tashkil etilishi. «Harbiy kommunizm siyosati» va uning mohiyati.
2. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.
3. Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
4. XX asrning 20-yillarida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) va uning mohiyati. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati. O'zbekistonda «Madaniy inqilob» va uning oqibatlari.
5. XX asr 20-yillari ikkinchi yarmi – 30-yillardagi siyosiy qatag'onlar.
6. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston.

1. 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobining Turkistonga ta'siri. O'lkada sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati. Turkiston SSRning tashkil etilishi. «Harbiy kommunizm siyosati» va uning mohiyati.

XX asr tarixi sovet davlati boshqaruvining qat'iy nazorati, ziddiyatli va murakkabligi bilan tarixda o'ziga xos o'rin egalladi. Mustaqillik yillarida sovet davlati va uning fojeali sahifalarini o'rganish borasida muayyan ijobiy siljishlar yuz berdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilgari soxtalashtirib kelingan muhim tarixiy voqealar qatorida sovet hokimiyatining quloqlashtirish, jamoalashtirish, qatag'on siyosati, bolsheviklarga qarshi qaratilgan kurashlar tarixi, XX asr 20-30-yillarida sovetlarning Turkistonni milliy jihatdan parchalanib tashlash, o'lkaning milliy davlatchilik yo'lidagi harakatlarni yo'q qilish, O'zbekistonni markazning xomashyo yetkazib beruvchi bazasiga aylantirish, o'lkadagi markazlashtirish siyosati, sovet boshqaruvining shakllanish bosqichlari hamda unga qarshi istiqloqlilik harakatlarini milliy istiqloq mafkurasi

ruhida xolisona o'rganilib, ilmiy monografiyalar, maqola, qo'llanma va darsliklar nashr etildi.

XX asr boshlarida o'sha paytda Rossiya hukmron doiralari bilan muxolifatda bo'lgan va liberal-demokratik o'zgarishlar harakatida bo'lgan kuchlarning yanada faollashuviga imkoniyat yaratildi. Qaram o'lkalardagi nochor vaziyat, urush maydonlaridagi ulkan yo'qotishlar, Rossiyaning markaziy rayonlaridagi iqtisodiy tanglik 1917-yilga kelib butun Rossiya imperiyasini inqilobiy-siyosiy jarayonlar domiga tortilishiga sabab bo'lgan edi. Eng muhimi esa, inqilobiy o'zgarishlarni aholining deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari qo'llab-quvvatlashardi. Natijada, 1917-yil 28 fevralda inqilobiy kuchlarning kurashi natijasi o'laroq Rossiyadagi mutlaq monarxiya hukmronligi ag'darib tashlandi.

28-fevral imperiya poytaxti Petrogradagi voqealar inqilobiy Petropavlovsk qal'asi va Qishki saroyini bosib olish va imperiya hukumati vazirlarini qamoqqa olish bilan yakun topdi. Ishchilarning ish tashlashlari va umumshahar namoyishlar uyushtirishlar, soldatlarning qo'zg'olon ko'targan aholi bilan birlashuvi natijasida mirshablar bilan qonli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Ag'darib tashlangan hukumat o'rniga ko'ppartiyaviylik asosidagi ikki hokimiyatchilik-demokratik diktatura va sovetlar diktaturasining qo'shilishi tufayli yuzaga kelgan Muvaqqat hukumat tuzildi.

Turkiston mahalliy xalqlarining inqilobiy o'zgarishlarga qo'shilishi bir xil kechmagan, o'lkaning hozirgi kuni va kelajagiga turlicha qaraydigan xilma-xil kuchlar mavjud bo'lib, ular ikki muqobil oqim – o'ng va so'llarga ajratilgan. Feodal-diniy mafkura vakillari bo'lgan o'nglar mahalliy ma'muriyatda mansabga ega bo'lgan hamda tegishli imtiyozlardan foydalangan amaldorlar, feodallar va ruhoniylar yirik mulkdorlarning manfaatlarini ifoda etishardi. O'nglar imperiya hokimiyati davrida mustamlakachi ma'muriyat siyosatini to'la-to'kis quvvatlaganliklari bois, muvaqqat hukumatning imperiya institutlarini saqlashga qaratilgan tadbirlarini qo'llab-quvvatlash tarafdorlari bo'lishgan.

So'l oqim esa, ijtimoiy tuzumning tubdan o'zgarishidan, mustamlaka siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarni tugatishdan o'ta manfaatdor bo'lgan ijtimoiy guruh va qatlamlar manfaatlarini o'zida aks ettirgan edi. So'l oqim siyosiy jihatdan ancha tabaqalashgan bo'lib, avvalo, hokimiyatdan chetlatilgan, imperiyaning bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatidan noroziligini ochiq aytadigan feodal-diniy qatlamlarni o'z ichiga olgan.

Ular fevral inqilobigacha bo'lgan davrda qurolli qo'zg'olon yo'li bilan ozodlik va mamlakat mustaqilligiga erishish, xon hokimiyati va sharoit qonunlari, mulkdorlar va musulmon ruhoniylarining yo'qotilgan imtiyozlarini tiklash, o'lka xalq ommasini yevropacha madaniyat va axloq ta'siridan saqlash g'oyasini ilgari surishdi. So'llar harakatidagi boshqa yo'nalishda radikal kayfiyatdagi milliy ishchi, dehqon, hunarmand va boshqa mehnatkashlar ham bor edi.

Imperiya markazidagi voqealar, F. Kerenskiy boshchiligidagi yangi hokimiyat tuzumini barpo etish, dastlabki e'lon qilingan qonun hujjatlarini Rossiya mustabid tuzumining ko'p asrlik hukmronligi bilan aloqani uzib, demokratiya, ijtimoiy adolat yo'liga kirayotganini butun dunyoga ma'lum qildi. Mamlakat aholisining ko'pchiligi, uning mustamlakalaridagi juda ko'p xalqlari, turli sinflari, qatlamlari, ijtimoiy harakatlari inqilobni qo'llab-quvvatladilar. O'z turmushini demokratik asosda qayta qurish, o'z davlatini idora qilishda bevosita ishtirok etish istagi ularning ijtimoiy ijodkorligini faollashtirdi. Ammo, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat boshqacha edi.

Dastlabki paytlardayoq o'lka xalqining keng qatlami faolligi, siyosiy ongi va dunyoqarashi o'sib, ular yangi inqilobiy g'oyalar atrofida birlasha boshladilar. Rossiyadagi siyosiy kuchlar, o'lkadagi yevropalik ishchilar hamda 1917-yilning bahor oylarida mardikorlikdan qaytganlar bu jarayonga katta ta'sir ko'rsatishdi. Ammo, shu bilan birgalikda o'lkadagi mavjud siyosiy kuchlar o'rtasida ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar kuchayib bordi.

Fevral inqilobidan keyingi davrda «Sho'roi Islomiya», «Turk adami markaziyat» partiyasi, «Alash o'rda» kabilar musulmonlarning eng ko'zga ko'ringan tashkilotlari bo'lib, «Musulmon mehnatkashlari ittifoqi» – «Ittifoq» mahalliy aholi siyosiy kuchlarning joylashuvida alohida o'rin tutgan edi. Asosan xizmatdan bo'shatilgan front orti ishchilaridan iborat bo'lgan bu tashkilot yevropalashgan Sovetlar ta'sirida bo'lib, o'zining mustaqil siyosiy dasturini ilgari surmadi.

Inqilobning dastlabki kunlaridanoq ishchi va soldat deputatlarining Petrograd soveti tashabbusi bilan zo'ravonlik asosida ishchi deputatlari Sovetlari va soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshlandi. Chunonchi, 1917-yil 2-mart kuni O'rta Osiyo Bosh temir yo'l ustaxonasi ishchilarining namoyishida Turkistonda birinchi ishchi deputatlari Soveti tuzildi. 3 martda ishchi deputatlarining Toshkent soveti, 4 martda esa soldat

deputatlari Soveti tashkil etildi. Mart oyining oxirlarida bu ikkala Sovet birlashtirildi.

Milliy demokratiya vakillari tuzilayotgan tashkilotlar va ijroiya qo'mitalarida mahalliy aholi vakillarining bo'lishini ta'minlashga erishish maqsadida mart oyining boshidan boshlab kurash olib borishdi. Bu holat o'lkadagi jadidlar faoliyatida ayniqsa to'la namoyon bo'ldi.

1917-yilning bahori Turkiston o'lkasi musulmon aholisining siyosiy jihatdan uyg'onishda, avj olayotgan demokratik jarayonlarga boshchilik qilish istagi bo'lgan yangi kuchlarning siyosiy maydonga chiqishida burlish nuqtasi bo'lgan. Bu jarayonda jadidlar asosiy tashabbusni o'z qo'llariga olib, paydo bo'layotgan milliy-demokratik kuchlarning o'zagi bo'lishdi. Jadidlar bu vazifani bajarishga o'zlarining ilgari faoliyatlarini davomidayoq tayyorgarlik ko'rgandi.

Fevral inqilobidan keyin jadidlarning faollashuvi avj olib, ular o'lka tub xalqlarining taraqqiyoti va mustaqilligi to'g'risidagi g'oyalarini o'lkadagi demokratik inqilob bilan bog'lab, o'zlari e'lon qilgan printsiplarni amalga oshirishga faol kirishishdi. O'lkada avj olib borayotgan demokratik jarayonlarda mahalliy xalqlar siyosiy manfaatlarining ustuvorligini himoya qilish inqilobning dastlabki kunlaridanoq siyosiy maydonda jadidlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu holat mahalliy hokimiyat tuzilmalarini shakllantirish chog'ida ancha to'liq namoyon bo'ldi.

Bu o'rinda jadidlarning milliy davlatchilik haqidagi g'oyalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy – demokratik davlat barpo etish jadidlarning asosiy ustuvor g'oyalaridan biri edi.

1917-yilning boshlariga kelgan davrda jadidlar harakatining asosiy g'oya va maqsadlarini umumlashtirgan holda quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Turkiston o'lkasini o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish.
2. Shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish.
3. Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash.
4. Buxoro amirligi va Xiva xonligida, konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish.
5. Barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Turkistonda milliy davlatchilikni tiklash va uni amalga oshirishda yirik taraqqiyparvarlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Munavvar Qorilar ayniqsa muhim rol o'ynashgan. Aslini olganda, Behbudiy va boshqa taraqqiyparvar jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy muxtoriyat g'oyasi Turkiston o'lkasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligiga intilish edi. Aynan shuning uchun ham 1917-yil bahori va kuzida (keyinchalik ham) demokratik Rossiya ma'murlari milliy muxtoriyat g'oyasiga qarshi jon-jahdlari bilan kurashgan edilar.

Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Cho'lpon, Munavvar Qori kabi ko'plab taraqqiyparvar jadidlarning asarlarida ular milliy g'oyasining asosi – Turkistondagi barcha mahalliy xalqlarni birlashtirishdan iborat. Arimo, ularga muxolif kuchlar ham bor ediki, fevral inqilobidan keyin kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari o'zlarining muxoliflari sanalgan ayrim johil ulamolarning noto'g'ri qarashlarini asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilishgan.

«Qadimchilar» deb nom olgan ruhoniylarning konservativ guruhi jadidlarni «kofirlik»da, islom dinidan qaytganlikda ayblashgan edi. Vaholanki, jadid taraqqiyparvarlarining aksariyati kechagi islom ulamolari bo'lib, ular islom dinini buzish uchun emas, balki unga kirib qolgan ayrim bid'at va xurofotlardan islom dinini tozalash islohotlarni tadrijiy ravishda amalga oshirish uchun kurashga ahd qilishganda.

Yosh xivaliklar, Yosh buxoroliklar, Taraqqiyparvarlar (ular arxiv hujjatlarida yosh sartlar deb ham atalgan) partiyalari, Turk Adami Markaziyat (Federalist) firqasi, «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi ulamo», «Turon», «Ittifoqi musulimin» va boshqa tashkilotlarning dasturlarida mustaqil davlatchilik masalalariga alohida e'tibor berilgan edi. Bu holat jadidchilikning ma'rifatdan siyosatga tomon yo'l tutganligini bildiribgina qolmasdan, balki jamiyatni tubdan o'zgartirish, yurt mustaqilligini qo'lga kiritish uchun kurash boshlanganligini ham anglatar edi.

1917-yil 17–20-sentabr kunlari Toshkentda «Sho'roi Ulamo» va «Xaloyiq» jamiyatlari tashabbusi bilan turkistonlik va qozoq musulmonlarining syezdi bo'lib o'tdi. Syezdi «Sho'roi Islomiya» va «Turon» jamiyatlarini tugatib, ular o'rniga yagona «Ittifoqi musulimin» siyosiy partiyasini tuzish haqida qaror qabul qildi. Ushbu qarorda

«Sho'roi Islomiya», «Turon», «Sho'roi Ulamo» – barchasi xalq jamiyatlari bo'lib, birgalikda yagona kuch sifatida ish ko'rish vaqti kelgani alohida ta'kidlandi.

Xullas, oktabr to'ntarishiga qadar Turkiston jamiyatining siyosiy maydonida ikkita muqobil kuch va ularning namoyandalari shakllanib bo'lgan edi. Ulardan birinchisi o'lkada demokratik ruhdagi Turkiston muxtoriyatini tashkil etish tarafdorlari bo'lgan o'lkaning ilg'or ziyolilari va demokratik kayfiyatdagi ulamolari bo'lsa, ikkinchisi, birinchi kuchlar g'oyalarini butunlay inkor etib, «Butun hokimiyat sovetlarga!» shiorini ilgari surgan hamda hokimiyatni zo'rlik bilan egallab olib, unga mutlaq hukmronlik qilmoqchi bo'lgan bolsheviklar edi.

Ma'lumki, 1917-yil 25 oktabrda (yangi sana bilan 7-noyabrda) B. I. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradga Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni zo'rvonlik bilan egallashdi. 28-oktabr ertalab soat oltida Toshkent Bosh temir yo'l ustaxonalarining kuchlik gudogi bilan bu yerda oktabr to'ntarishi boshlandi. To'rt kun davom etgan qurolli harakatga asosan yevropalik qurollangan ishchilardan iborat bir necha ming kishi ishtirok etgan edi. Qurolli to'ntarish natijasida 1-noyabrda butun hokimiyat Toshsovet qo'lga o'tdi. Shu kuniyoq Toshsovet Toshkent temir yo'l liniyasi orqali o'lkadagi barcha sovetlarga quyidagi telegrammani yubordi: «Sovet butun hokimiyatni qabul qildi. Hokimiyatni o'z qo'lingizga olingiz!».

15–22 noyabr kunlari Toshkentda O'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III syezdi bo'lib o'tdi. Bu syezdda 15 kishidan iborat hukumat – Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) tuzildi. Unda 8 ta o'rin so'l eserlarga, 7 ta o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga (yevropa aholi vakillarining kichik bir guruhi) berilib, hukumat tarkibiga mahalliy aholi orasidan birorta ham vakil kiritilmadi. Turkistondagi sovet hukumatining birinchi boshlig'i (raisi) lavozimini F. Kolesov egalladi.

Turkistonda hokimiyat bolsheviklar qo'lga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatining barcha bo'g'inlari tugatilib, ularning o'rniga avvalo, jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi. Turkiston XKS 1917-yil 28-noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'limlarini tuzish haqida qaror qabul qildi. Bu yangi bo'limlar sovet tuzumi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki ongli chiqishlarni bostirishda faol ishtirok etishdi.

Turkiston XKS 1917-yil oxirlarida o'z qarori bilan «Sho'roi Islomiya» va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Tarqatib yuborilgan tashkilotlarning yetakchilari keyinchalik Turkiston muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari istiqlolchilik harakatlariga g'oyaviy rahnamolik qilishdi. «Sho'roi Ulamo»ning Toshkent sho'basi faqat 1918-yil 13-mayda yopildi.

Turkiston XKS o'z faoliyatining birinchi kunlaridan boshlab sovet siyosatini amalga oshirishga, Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini mustahkamlashga qattiq va astoydil kirishdi. Barcha mahalliy sovetlarga zudlik bilan qizil gvardiya tuzishga kirishish taklif qilindi. O'lka komissarligi takibida bo'lgan va boshqaruvda asosiy rol o'ynaydigan harbiy, tashqi savdo, shuningdek pochta, telegraf va temir yo'llar boshqaruvi masalalari butunlay Rossiyadagi tegishli idoralarga berib qo'yilishi oqibatida Turkiston XKS ijrochi organga aylanib qoldi. Markazdan yuborilgan barcha ma'sul xodimlar, turli komissiya va tashkilotlar o'z siyosatlarini qo'g'irchoq organga aylantirilgan o'lka XKS orqali yuritdilar.

Turkiston muxtoriyati va uning faoliyati. Turkiston ASSRning tashkil etilishi. «Harbiy kommunizm siyosati» va uning mohiyati.

Siyosiy partiyalar tuzilishi, ular tomonidan dasturiy hujjatlar qabul qilinishi Turkistonda milliy harakatning keng quloq yoyganidan dalolat berardi. Biroq yuqorida ko'rsatib o'tilganidek oktabr to'ntarishi oqibatida 1917-yil oktabr-noyabr oylarida Turkiston o'lkasida, xususan, Toshkent va Qo'qonda yuz bergan voqealar milliy-ozodlik harakatini kuchayib kyetishiga sabab bo'ldi.

1917-yil 26–28-noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy ishining butun tafsilotlarini jadidlar o'sha davr gazetalari tarix uchun muhrlab qo'yishdi. Mustafo Cho'qay qurultoyi ochar ekan, Rossiya va Turkistonning siyosiy va iqtisodiy ahvoli xususida qisqacha ma'lumot beradi. Uning aytishicha, «Markazda yuz berayotgan voqealar, chekka o'lkalarda hokimiyat masalasini mustaqil muhokama etuvini taqozo qilur. Oktabr xunrezligini boshdan kechirgan Rossiya va Turkiston o'z taqdirlari haqida o'zlari mulohaza yuritmoqlari lozim».

Ma'lumki, musulmonlarning ushbu nufuzli qurultoyi va unda qabul qilingan qarorlar o'n yillar davomida millatchilar guruhining yig'inidan e'lon qilingan «burjua muxtoriyati» deb noto'g'ri talqin qilib kelindi. Hujjatlar esa ushbu holning aksi bo'lganligini isbotlaydi. Masalan, Turkiston jadidlarining taniqli namoyandasi Behbudiy o'z ma'ruzasida qurultoyning Turkiston xalqlari tarixida ulkan ijobiy, tarixiy hodisa va burilish davri ekanligini ta'kidlab, «Qurultoyimiz qabul qilayotgan qarorlar shuning uchun ham ahamiyatliki, unda Turkiston aholisining yevropalik vakillari ham ishtirok etmoqdalar», deydi. Behbudiy va Obidjon Mahmudov qurultoy hay'atida musulmonlar bilan bir qatorda boshqa milliy guruhlarining ham vakillari bo'lishini yoqlab chiqdilar.

Turkistonni boshqarish shakli uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e'lon qilinishi o'lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqan va unga mos tushishini uqtirishdi. Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma qo'llab-quvvatladi.

Qurultoyda 1917-yil 27-noyabr kuni qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi. Shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi». Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi.

28-noyabr (yangi hisob bilan 11-dekabr)da tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kuni yig'ilishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qiladi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan sakkizkishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmyedov – Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Cho'qay – tashqi ishlar vaziri, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev) – harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agaev – yer va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov –

oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O'rozayev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, Solomon Abramovich Gertsfeld – moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Muhammadjon Tinishboyev iste'foga chiqqach, Mustafu Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishadi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rta malakali huquqshunos ekanligi muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Qurultoyda 28-noyabr kuni Turkiston Millat Majlisi ochilishi to'g'risidagi qaror ham tasdiqlandi. Millat Majlisi 54 nafar a'zodan iborat bo'lib qurultoy qaroriga binoan «36 nafar musulmonlar va 18 nafar g'ayri musulmonlardan saylanadur. 36 musulmon vakillari Turkistonning 5 viloyatidan bo'lib: Farg'ona – 10 nafar, Samarqand – 5 nafar, Sirdaryo – 9 nafar, Yettisuv – 6 nafar, Zakaspiy – 2 nafar; 4 nafar esa butun Turkiston shahar dumalari tarafidan tayin bo'lurlar». 18 nafar o'rin esa o'lkaning yevropalik tashkilot va fuqarolariga, jumladan, temir yo'lchilar ittifoqi, ishchi va sodat deputatlari soveti, sotsial demokratlar, dashnoqtsutyun (armanlar), yerlik yahudiylar, eserlar, ukrainlar, polyaklarning vakillari va boshqalarga berilishi ko'zda tutilgan edi. Demak, tashkil etilayotgan hukumat tarkibiga turli siyosiy va milliy guruhlar vakillarining qatnashuvi ko'zda tutildi. Demokratik ruhdagi milliy ziyolilar qurultoyda qabul qilingan dasturiy hujjatlarga o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan xalqchil va demokratik g'oyalarni kiritishdi.

Qurultoy tugagach, 1-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi.

Oradan ko'p o'tmay Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilindi, shuningdek yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. «El bayrog'i», «Birlik tug'i», «Свободный Туркестан», «Изvestiya Bremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana» kabi hukumat gazetolari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan «Ulug' Turkiston» gazetasi ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin berdi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O. Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi.

Shuningdek, Muxtoriyat hukumati milliy qo'shinni tashkil qilishga kirishdi. 1918-yil boshida bu qo'shin saflarida bir mingdan ortiq askar bo'lgan. Harbiy vazir Ubaydulla Xo'jayev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga etgan. Bundan tashqari Qo'qonda taxminan shuncha mirshablarni ham bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 mln. so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi. Chunki, gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo'shinlarining ta'minoti va hukumatning ichki xarajatlari uchun mablag' zarur edi. Shuningdek, hukumat a'zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Uning faoliyati faqat Qo'qonda yoxud Farg'ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yerli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Fitrat, Cho'lpon, Hamza muxtoriyat hukumatini alqab, o'tli she'rlar bitishdi. Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan 27-noyabr tunini «Milliy Laylatulqadrimiz» deb atadi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917-yil 13-dekabrda bo'lib o'tgan fojeali voqealar muhim o'rin tutadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi «Muxtor Turkiston uchun!» shiori ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdilar. Ammo Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan «tartib» o'rnatishga buyruq berishadi. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to'qnashuv qurboni bo'ldi.

Muxtor hukumatning xalq o'rtasidagi obro'-e'tibori va nufuzi bolsheviklarni tashvishga solib qo'ydi. 1918-yil 19–26-yanvar (yangi hisob bilan 1–8-fevral)da Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favqulodda IV-syezdida muxtoriyat masalasi asosiy o'rinda turdi. Syezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb hukumat a'zolarini qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqardi.

30-yanvar (yangi hisob bilan 12-fevral)da Turkiston XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning «Dashnoqtsutyun» partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham foydalandi. Ularga qarshi dastlabki jangda muxtoriyatning mil-

liy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho'kich, tayoq ko'targan xaloyiqning soni 10000 kishiga etdi. Shunga qaramay, quolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo'qon shahriga hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Shahar ustiga uch kun davomida to'plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muxtoriyat qo'shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash qo'rboshi boshchiligida shahardan chiqib ketdi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlarning qonli hujumlari oqibatida ag'darib tashlandi. Ammo Qo'qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o'ldirish avjiga chiqdi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10000 kishi o'ldirildi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi.

Hukumat boshlig'i Mustafo Cho'qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo'ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo'ldi. Ba'zilarini bolsheviklar qo'lga olishdi.

Nihoyat, 1918-yil 22-fevral (eski hisob bilan 9)da Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnoma»si Qo'qon ahli vakillari bilan imzolandi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rgan bo'lsa ham, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqloq uchun kurashga da'vat etdi. 1918-yilning erta bahorida avval Farg'ona vodiysida, so'ngra butun Turkistonda qurolli qarshilik harakati boshlandi. Ammo bu davrga kelib Turkiston Muxtoriyatini tor-mor etib, o'lkada yakka hukmron bo'lgan bolsheviklar Toshkentda sovetcha andozadagi avtonomiya (muxtoriyat)ni tashkil etishga kirishgan edilar.

1918-yil yanvar oyidayoq bolsheviklar Turkiston Muxtoriyatiga qarshi Turkiston avtonomiyasini tuzish masalasini ko'tarishgan edi. Bu muammo faqat Turkiston sovetlarining V-syezdida (1918-yil 20 aprel – 1-may) hal qilindi. Syezd Rossiya Sovet Sotsialistik Federatsiyasi tarkibida Turkiston Respublikasi (tarixiy adabiyotlarda Turkiston Avtonom Respublikasi)ni tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turkiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) va XKS saylandi. Ular tarkibiga ilk marta tub millatlarning vakillari kiritildi.

Shu yil 30-aprelda «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom»ni qabul qildi. Ushbu Nizomning dastlabki ikki moddasi quyidagicha ko'rinishda edi:

1. Turkiston o'lkasining hududi Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilinadi. Turkiston Respublikasining tarkibiga butun Turkiston mamlakatining Xiva va Buxorodan tashqari, hozirgi geografik chegarasi doirasidagi hamma hududi kiradi.

2. Turkiston Sovet Federativ Respublikasi avtonom tarzda boshqariladi va Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumatini tan oladi hamda o'z faoliyatini u bilan muvofiqlashtiradi.

Shuningdek, syezdda sanoat korxonalarini musodara (natsionalizatsiya) qilish va boshqa ayrim masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Shunday qilib, sovet Rossiyasi tarkibida qo'g'irchoq, markazga tobe Turkiston avtonom respublikasi tashkil qilindi.

Turkiston Respublikasi Sovetlarining favqulodda V syezdida (1918-yil 5–14-oktabr) da RSFSR Konstitutsiyasi andozasidagi Turkiston Sovet Respublikasi (TSR) Konstitutsiyasi qabul qilindi. Turkiston Sovetlarining IX syezdida (1920-yil 19-25-sentabr) TSRning nomi Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (TSSR) deb o'zgartirildi.

Ta'kidlash joizki, Oktabr to'ntarishidan so'ng, Rossiyada butun hokimiyat proletariat diktaturasi qo'lga o'tdi. Jamiyat turli-tuman guruhlarga parchalab tashlandi. Boshqacha qilib aytganda, davlat qurilishining har qanday shakli va demokratiyadan voz kechilib, zo'ravonlaracha boshqaruv uslubi o'rnatildi. Bunday holatda shunday g'oyat murakkab vaziyat yuzaga keldiki, undan chiqib kyetish maqsadida sovet hukumati harbiy chora-tadbirlar bilan birgalikda favqulodda iqtisodiy chora-tadbirlarni belgiladi va ularni amalga oshirishda o'ta markazlashgan yo'lni tanladi. Ular tanlangan bu yo'l Leninning tashabbusi bilan «Harbiy kommunizm» siyosati nomi ostida tarixga kirdi.

«Harbiy kommunizm» siyosati o'z mohiyatiga ko'ra, xalqqa qarshi qaratilgan bo'lib, bu siyosat faqat yirik sanoatnigina emas, balki o'rta va hatto mayda korxonalarini ham davlat qo'lida umumiy lashtirishni taqozo etardi. Aslini olganda bu davrdagi xo'jalik siyosati ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan siyosat bo'la olmas edi. Mohiyatan bu vazifa sovet hokimiyatini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, bunday holatda xalq xo'jaligiga nisbatan asosiy shior uni mustahkam tarzda tiklash emas, balki «ishlab chiqaruvchi kuchlarni qo'porib bo'lsa-da, tezda mahsulot olish»dan iborat bo'lgan.

O'z mohiyatiga ko'ra, Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot bo'lgan «harbiy kommunizm» siyosati o'lkada mavjud bo'lgan ma'lum tari-

xiy va mahalliy shart-sharoit hamda imkoniyatlarni, vaziyatni hisobga olmasdan amalga oshirila boshlandi. Turkiston bolsheviklari bu siyosatni amalga oshirish borasida Rossiyadagi nisbatan taraqqiy etgan mintaqalardan ham o'zib kyetishdi. Misol uchun, 1918-yilning o'rtalariga qadar bolsheviklar Rossiyada barcha korxonalarining 11 foizini davlat mulkiga aylantirgan bo'lsa, Turkistonda bu ko'rsatkich 45 foizni tashkil etgan edi. Bu jarayonda fabrika va zavod tipidagi barcha yirik va o'rta korxonalar, hunarmandchilik va yarim hunarmandchilik tipidagi mayda korxonalarining bir qismi deyarli hech qanday haq to'lanmasdan davlat ixtiyoriga olindi. Bolsheviklarning «harbiy kommunizm» siyosati natijasida o'lka dehqonlari og'ir ahvolda qolib, oziq-ovqat tanqisligi yuzaga keldi.

Haqiqatdan ham bu paytga kelib oziq-ovqat muammosi Turkiston Respublikasining eng muhim muammosiga aylangan edi. Sovet hukumati esa, mahalliy aholida mavjud bo'lgan g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tortib olish uchun qat'iy chora-tadbirlar belgiladi. 1918-yil 15-iyunda Turkistonda o'lka oziq-ovqat Direktoriyasi tashkil etilgan bo'lsa, «G'alla monopoliyasi to'g'risida», «Sinfy non payogi to'g'risida», «Turkiston Respublikasida oziq-ovqat siyosatini amalga oshirish yuzasidan oziq-ovqat komissariga favqulodda vakolatlar berish to'g'risida» degan dekretlar bilan 1919-yil 4-iyunda Turkistonda oziq-ovqat diktaturasi joriy etildi. Bu ko'rsatmalarning ijrosini ta'minlash jarayonida xalqning qo'lida mavjud bo'lgan g'alla va boshqa mahsulotlar yig'ib olindi.

«Harbiy kommunizm» siyosati shusiz ham Turkistonning o'ta mu-rakkab iqtisodiy ahvolini og'irlashtirib yubordi. Bu siyosat natijasida qishloq xo'jaligida ekin maydonlari keskin kamaydi. Misol uchun, ekin erlari 1915-yildagi 3 mln. 300 ming desyatinadan, 1920-yilda 1 mln. 200 ming desyatinaga qisqardi. O'rtacha paxta tolasini yetishtirish esa, 1915-yildagiga nisbatan 1921-yilda 5 foizga kamaygan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lgan chorvachilik, parrandachilik, ipakchilik, asalarichilik hamda bog'dorchilik sohalarida ham mahsulot yetishtirish kamayib ketgan edi.

1918-yil 20-noyabrda Turkiston respublikasida «Ocharchilikka qarshi kurash Markaziy komissiya»si tuzilib, keyinroq, och qolganlarga yordam uchun turli qo'mitalar tashkil etilib, syezd, qurultoy va boshqa yig'ilishlarda ko'p marta ko'rib chiqilgan va qarorlar qabul qilingan bo'lsa-da, biroq, bu harakatlar kutilgan natijalarni bermadi.

Xulosa tarzda ta'kidlash lozimki, sovet hokimiyatining «harbiy kommunizm» siyosati o'zbek xalqiga nisbatan g'ayriinsoniy siyosat ekanligini ko'rsatdi. Buning natijasi o'laroq, haqiqatda bolsheviklar tasavvuridagi harbiylashgan vaziyat vujudga keldiki, uning asosiy belgilari boshqaruvni mutlaq markazlashtirish va yalpi davlatlashtirish, xususiy mulkni bekor qilish, xo'jalik yuritishning musodara usullari, jazo choralari bilan mehnatga majbur qilish, bozor iqtisodiyoti tizimini barbod qilish, milliy va insonparvarlik qadriyatlarini markscha sinfny g'oyalar bilan zo'ravonlarcha almashtirishdan iborat edi. Bolsheviklarning ana shu siyosati hayotga joriy qilinishi oqibatida iqtisodiyotning halokatli inqirozi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi yuz berdiki, natijada sovet hokimiyatining yashashi gumon bo'lib qoldi. Yuzaga kelgan bu jiddiy vaziyat sovet davlati rahbariyatini bu iqtisodiy siyosatining mazmun va mohiyatini qaytadan ko'rib chiqishga majbur qilgan edi.

2. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat.

Turkistonda oktabr to'ntarishidan keyin sodir bo'lgan voqealar jarayoni shuni ko'rsatadiki, bolsheviklar o'ratgan sovet tuzumi o'lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyatni ham ravo ko'rmadi. Mustaqillik osonlikcha qo'lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo'lga qurol olib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi qurolli harakat boshlab yuborishdi. Biroq sovet tuzumi va kommunistik mafkura hukmronligi yillarida, ularga «bosmachi» deb nohaq tamg'a bosildi.

Bu harakat haqida so'z yuritilganda ta'kidlash lozimki, Q. Rajabov tadqiqotlariga ko'ra, 1918–1919-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrga tegishli arxiv hujjatlarida ham «bosmachi» so'zi uchramaydi. Bu hujjatlarda «qaroqchi» (razboymik), «shayka», juda bo'lmasa «bosqinchi» (bandit) iboralari qo'llanilgan. 1919-yilning o'rtalaridan boshlab avval ayrim rasmiy hujjatlarda, keyinchalik esa sovet vaqtli matbuotida «bosmachi» iborasini qo'llash boshlangan. «Bosmachi» va «bosmachilik» iboralari ozodlik harakatining mohiyatini pasaytirish, ajdodlarimizning bolsheviklar hukmronligiga qarshi olib borgan qonli kurashlarini xaspo'shlash uchun o'ylab topildi va «banditlik», «qaroqchilik» so'zlari bilan asossiz ravishda bir qatorga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, «bosmachi» yorlig'i yopishtirilgan ota-bobolarimizning muborak nomlari qayta tiklandi va ularning haqiqiy qiyofalari istiqloлчаilar sifatida namoyon bo'ldi.

Sovetlarga qarshi harakat «Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi» deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e'tirof qilinadi. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag'darib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo'lmaganida ham bu harakatning vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat sovet hokimiyatiga qarshi istiqloлча kurashining boshlanishini muqarrar qilib qo'ygan edi.

Birinchiidan, 1917-yilda sodir bo'lgan oktabr to'ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo'lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanoq o'ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

Ikkinchiidan, sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki davrda hokimiyatni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning milliy g'ururi, haq-huquqi inkor qilindi. Turkistonda bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan sovet tuzumi Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining yangi shakli ekanligi o'sha dastlabki kunlardanoq oshkor bo'lgan edi.

Uchinchiidan, yangi tuzum o'rnatilgan ilk kunlardanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatları, milliy qadriyatları toptaldi. Shariat asoslari va qozixonalar bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo'yildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tugatilishi bu harakatning butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi, xolos. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga o'tlanishdi. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqloлчаilik harakati 1918-yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, chori-korlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo'lgan. Turkiston Respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, unga asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi. Ularga shahar aholisining aksa-

riyat qismi: o'ziga to'q badavlat oilalarning vakillari, savdogarlar, islom dini arboblari hamda ba'zi boylar qo'shildi. Harakat qatnashchilari safida oq-qorani tushungan savodxon kishilar-ziyolilar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi va ular jadidlar orasidan ajralib chiqqan. Bir so'z bilan aytganda, ular safida xalqning barcha tabaqasiga mansub kishilar bor edi.

Dastlabki milliy harbiy harakatning tashkil topishi Kichik Ergash (taxminan 1885–1918) va Katta Ergash (taxminan 1880–1921)ning nomlari bilan bog'liqdir. 1918-yil 27 fevralda Qo'qon atrofidagi Bachqirda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'tardi. Qo'qon uyezdidagi harakatning dastlabki tayanch nuqtasi Bachqir edi. 1918-yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi.

Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li-Madaminbek (1892–1920) kurash boshladi. «O'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi», – deb tan olinadi 1918-yilga oid arxiv hujjatlarining birida. Farg'ona vodiysida 1918-yilning o'rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo'rboshilar o'z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15000 yigit bor edi.

Turkistondagi bu harakatning o'ziga xos milliy ko'rinishi va xususiyatlari mavjud bo'lgan. Bu xususiyatlar harakatdagi qo'rboshilar dastalari va guruhlari faoliyatida, ularning maqsad va istaklarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda islom shiariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlat barpo qilishdan tortib, to milliy demokratik tartibdagi mustaqil davlat tuzishgacha kabi g'oyalar mujassamlashgan edi.

Turkiston mintaqasidagi mazkur harakatning muhim xususiyati shundaki, bu harakatda maqsadlar va vazifalar qanday bo'lishidan qat'iy nazar boshdan oxirigacha bir ustuvor g'oya – Turkistonning milliy mustaqilligi yotadi. Bu harakat goh kuchayib, goh pasayib turishiga qaramay, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o'zgarib turishi va ikkilamchi manfaatlar o'rtada turganligi hamda obyektiv va subyektiv

omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lib qolaverdi.

Turkistondagi bu harakatning uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Qo'rboshilar harakatning harbiy rahbarlari bo'lib, ular o'z jangovarliklari bilan mashhur edilar. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Muhiddinbek, Islom Polvon, Yormat Maxsum, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek, Buxoroda Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Xorazmda Junaidxon kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalar-da, lekin Turkiston mintaqasidagi istiqloqlilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirleri esa fojiali tugadi.

Farg'ona vodiysidagi bu harakat 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqloqlilik safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Sentabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O'sh shaharlarini egallashdi. Ular 13-sentabrda Eski Marg'ilon shahrini sovetlardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar — Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo'shinning hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan 16 kishi va yevropaliklardan 8 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lish bilan bir qatorda Farg'ona vodiysidagi bu harakatning oliy bosh qo'mondoni ham etib saylandi.

1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo'l ostida 30000 ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglarni olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo'l ostida 20000, Katta Ergash qo'rboshida 8000 askar bo'lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatlarni yo'naltirib turdi.

Turkistondagi bu harakat 1920-yilning yozi va kuzida o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buxoro respublikalaridagi istiqloqlilik ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi kurashga o'tlanishdi. Kumush bayrog'ini vodiya Madaminbek o'rniga endi Shermuhammadbek ko'tardi. Shermuhammadbek Farg'ona vodiysidagi kurashchilarning oliy bosh qo'mondoni ham qilib saylandi. Shu davr hujjatlarning birining e'tiroficha, «Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bo'lsa, Shermuhammadbek shubhasiz eng xavflisi edi».

Turkistonda o'sha paytdagi beqaror vaziyatdan foydalangan ba'zi kimsalar talonchilik guruhlarini tuzib, xalqni talashgan. Ularni Turkiston mustaqilligi uchun qizil armiyaga qarshi hayot-mamot janglari olib borgan vatanparvarlar bilan chalkashtirmaslik lozim. Biroq kommunistik mafkura har ikki toifaga bir xil «bosmachilar» tamg'asini yopishtirgan.

Turkistondagi bu qurolli harakatning g'oyaviy raxnamolari yetarli darajada mavjud bo'lib, ular asosan jadidlar va islom ulamolari edi. Harakatga g'oyaviy rahbarlik qilish uchun jadidlar bilan ulamolar o'rtasida o'zaro raqobat mavjud bo'lgan.

Namanganlik Nosirxon to'ra Sayid Kamolxon to'ra o'g'li, Toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo'ja qozi o'g'li, Turkiston MIK raisining sobiq o'rinbosari To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Balidiy va boshqalar bu harakatning g'oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatining pirlari ko'p bo'lgan.

Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalaridagi jadidlarning bir qismi bu paytda sovet tashkilotlarida faoliyat ko'rsatishsa-da, milliy mustaqillik to'g'risidagi o'z g'oyalaridan voz kechishmagan edi. 1921-yil avgustda Buxoro shahrida Balidiy boshchiligida tuzilgan Turkiston milliy birligi tashkiloti butun Turkiston mintaqasidagi bu guruhlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz vazifasini bajardi. Bu davrda Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligida Toshkentda «Milliy Ittihod» va «Milliy Istiqloq» tashkilotlari mahfiy tashkil etilgan bo'lib, ular harakatning keyingi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, Turkiston ayollari uchun Vatan ozodligi va uning tinchligi muqaddas hisoblangan. Olib va yaqin tarixda bosqinchilarga qarshi xotin-qizlar ham necha bor jang maydonlarida ot surgan, vatanparvar kuchlarga boshchilik qilishgan. Hatto ayollardan maxsus bo'linmalar ham tuzilgan. Istiqlolchilar safida ayollar nafaqat oddiy jangchi, balki ayrim hollarda qo'rboshi sifatida jang qilishgan. Farg'ona vodiysida Shakarxon va Muhiddinbekning onasi singari o'zbek va qirg'iz ayollaridan yetishib chiqqan qo'rboshilar milliy istiqol kurashi tarixiga shonli sahifalar qo'shishdi. Karmanalik Nodira qiz esa Ibrohimbek qo'shinida maxsus ayollar guruhiga boshchilik qilib, Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi mardonavor kurashgan.

Farg'ona vodiysidagi vatanparvarlar qo'shiniga 1923–1924-yillarda oldin Islom Polvon (taxminan 1882–1923-yillarda), so'ng Yormat Maxsum (1929-yil halok bo'lgan) kabi qo'rboshilar rahbarlik qildilar. Bu paytda qo'rboshilarning kichik-kichik guruhlari jang harakatlarini olib borishdi. Farg'onada ularning soni 1923-yilda 350-400 atrofida edi. Lekin qo'rboshilar kurashning mazkur bosqichida turli sabab va mahalliy shart-sharoitlar natijasida doim ham bir-birlari bilan kelishib ish ko'rishmadi.

1920–1924-yillarda bu harakat Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro va Xorazmdagi milliy muxolifatning ozodlik kurashlari alohida o'ziga xos yo'nalish va xususiyatga ega bo'lib, o'ta murakkabligi va ziddiyatliliigi bilan Turkiston respublikasidagi qurolli harakatdan ajralib turadi. Bolsheviklar qizil armiya yordamida Buxoro amirligi va Xiva xonligini kuch bilan ag'darib, hokimiyatni Buxoroda asosan yosh buxoroliklardan, Xorazmda esa yosh xivaliklardan iborat demokratik kuchlar qo'liga berdi.

Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida yuzaga kelgan qurolli muxolifat shu boisdan ham bir yo'la ikki kuchga qarshi: birinchidan, bu davlatlar hududida joylashib olgan qizil armiya qismlariga qarshi, ikkinchidan esa bolsheviklar yordamida hokimiyatni egallab olgan jadidlarga qarshi muxoliflik urushini olib borishdi. Bu urushning Turkistondagi, xususan, Farg'ona vodiysidagi harakatdan farqi ham ana shunda namoyon bo'ladi.

Biroq Buxoro va Xorazm respublikalaridagi bu kurashga uning mohiyati va yo'nalishi nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, u ham umumiy sovetlarga qarshi harakatning o'ziga xos ko'rinishi edi. Shuning

uchun ham Buxorodagi bu harakat qisqa muddat ichida ommaviy tus olib hatto, Farg'ona vodiysidagi harakatga nisbatan ham kuchayib bordi. Fayzulla Xo'jayevning ta'kidlashicha, «Sharqiy Buxorodagi bosmachilik o'zining strategik mavqei jihatidan qaraganda Farg'ona bosmachilariga nisbatan kuchliroq edi».

Buxorodagi qo'rboshilar o'rtasida Ibrohimbek (1889–1932) alohida salmoqqa ega. U amirlik tuzumi ag'darib tashlangach, Sharqiy Buxorodagi qo'rboshilar guruhlariga umumiy rahbarlik qilib, bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi mustaqillik kurashini boshladi.

U o'z oldiga Buxoro tuprog'ini qizil askarlardan tozalab, ag'darib tashlangan amirlik tuzumini qayta tiklash va saltanatni sobiq amir Sayid Olimxon (1881–1944) qo'liga olib berishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Shuning uchun ham u kurashga kirgan dastlabki kunlardan sobiq Buxoro amiri tomondan moddiy va ma'naviy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlandi va rag'batlantirildi.

Ibrohimbek 1921-yil sentabrda bo'lgan Buxoro qo'rboshilarining qurultoyida «Islom lashkarboshisi» unvoniga sazovor bo'ldi va Buxorodagi barcha istiqolchilarning oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi. U qisqa muddat ichida o'n ming nafardan ortiq askar to'plab, Qorategin va Darvoz viloyatlarini qizil askarlar qo'lidan ozod qilishga muvaffaq bo'ldi.

1921-yil oktabrda Turkiyaning sobiq harbiy vaziri Anvar Posho (1881–1922) Buxoro shahriga kelib, biroz muddatdan so'ng mamlakatning Sharqiy qismiga jo' naydi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo'shiladi. 1922-yil mart oyida Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan tortib to Xorazm va Sharqiy Buxorogacha bo'lgan ulkan hududda Anvar Posho boshchiligida istiqolchi kuchlarning umumiy fronti tuzildi. Anvar Posho bilan Shermuhammadbek va Junaidxon o'rtasida doimiy ravishda o'zaro aloqalar bo'lib turgan. 1922-yil 15-aprelda Boysun atrofidagi Kofirun qishlog'ida bo'lgan Turkiston qo'rboshilarining qurultoyida Anvar Posho istiqolchilarning Oliy bosh qo'mondoni va siyosiy rah-



**Buxoro amirligining
so'nggi hukmdori –
Said Olimxon.
(1910–1920)**

hari qilib saylandi. 1922-yil 4-avgustda Anvar Posho Baljuvon yaqinida bo'lgan janglarning birida halok bo'ldi.

Xorazm respublikasida ham 1920-yil bahoridan boshlab qizil askarlarning talonchilik va zo'rvonliklariga qarshi harakat boshlandi. Qurolli kurashni turkmanlarning yovmut urug'i boshlig'i Qurbon Mamed Sardor-Junaidxon (1857–1938) boshchiligidagi guruhlar ko'p yillar davomida olib bordi. Uning qo'shini saflarida o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar ham ko'pchilik edi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20000 kishiga etkazdi.

O'zbek dehqonlari va hunarmandlaridan iborat guruhlarga Madrayimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qilishdi. Xususan, Ko'hna Urganch, Ilonli, Toshhovuz, Mang'it, Qo'shko'pir, Chimboy, Qo'ng'irotda va To'rtko'lda harakat qilgan o'nlab sardorlarning guruhlari qizil askarlarga jiddiy zarbalar berishdi. Junaidxon boshchiligidagi armiya hujumga o'tib, 1920-yil yozida Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Ilonli va Taxtani qayta egalladi, ko'plab qizil askarlarni asir oldi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktab yuborib, agar qizil armiya Xorazmdan chiqib ketmasa, asirlarni otib tashlashini bildirdi.

1921-yil yozida Qo'ng'irotda qo'zg'olon ko'tarildi. Bunday ommaviy ko'tarilishlar tez-tez takrorlanib turdi. Qishloq va shaharlar aholisi istiqloqlarga xayrixohlik bildirishdi. 1922–1923-yillarda Xorazmda olib borilgan jangovar harakatlar qizil armiya qo'mondonligini tang ahvolga solibgina qolmay, balki respublikadagi siyosiy muhitga ham jiddiy ta'sir qildi.

1924-yil 10-yanvardan boshlab Junaidxonning 15000 kishilik piyoda va otliqlardan iborat qo'shini Xiva shahrini qamal qilishga kirishdi. 16 yanvarda Xorazm respublikasida harbiy holat joriy qilindi.

Xorazm respublikasida sodir bo'layotgan voqealarning bunday jiddiy tus olishidan tashvishga tushgan RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi 1924-yil 6-yanvarda bu masalani maxsus muhokama qildi. Junaidxon boshchiligidagi istiqloqlarga qarshi kurashish uchun E. Berzin (rais), Gorodetskiy, Adinayev va Xidiraliyevdan iborat favqulodda komissiya tashkil qilindi va u Xorazm respublikasiga jo'natildi. Xorazmga zudlik bilan Rossiyadan qo'shimcha harbiy qismlar keltirildi. Natijada Junaidxon qo'shini qariyb bir oy davom etgan qamalni to'xtatib, orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Katta harbiy kuchni to'plagan qizil armiya

qismlari Junaidxon va boshqa vatanparvar kuchlarga qarshi hujumga o'tdi. Mart-aprel oylarida bo'lgan janglarda Junaidxonning piri bo'lgan O'g'ajon Eshon va boshqa qator sardorlar asir olindi.

Xorazm vohasida istiqloqlilik harakati ayrim guruhlar tomonidan 1935-yilgacha davom etdi. Harakat Sharqiy Buxoro va Farg'ona vodiysida ham ba'zi uzilishlar bilan yuqoridagi davrgacha mavjud bo'ldi. Turkiston mintaqasidagi qurolli harakat tarixiga yakun yab, bu harakatni keng xalq ommasi, birinchi navbatda dehqonlar va hunarmandlar qahr-g'azabi hamda noroziligining yuksak darajaga ko'tarilganligining ifodasi deb e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Bu harakatga aloqador bo'lgan umumiy xususiyat bosqinchi qizil armiyani, bolsheviklarni Vatanimiz hududidan olib chiqib kiyetish talabi edi. Bu talab butun harakat davomida ilgari surildi. Shunday qilib, qizil armiya bosqini va mustabid sovet rejimiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat 1935-yilga kelib butun Turkiston mintaqasida mag'lubiyatga uchradi.

Biroq vatanparvar bobolarimiz to'kkan qutlug' qon behuda ketmadi. Turkiston mintaqasidagi bu harakat O'zbekistonni mustaqillikka erishi-shi uchun bo'lgan kurashlari bosqichida muhim rol o'ynab, XX asrdagi Vatanimiz tarixining shonli sahifalarini tashkil qiladi. Zero, ona-Vatan mustaqilligi uchun bo'lgan janglarda shahid ketgan ota-bobolarimizning xotirasi hech qachon unutilmaydi.

3. Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hokimiyatining o'rnatilishi.

XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligida xon boshliq amaldorlar, ruhoniylar mamlakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avv. holatdagidek saqlanib qolgan edi. Imperiya hukmronligi ta'sirida ko'pgina yuqori mansablar (inoq, otaliq, biy) oldingidek iqtisodiy asosini yo'qotgan bo'lsa ham lekin, yuqori unvon sifatida mamlakat siyosiy hayotida katta ta'sirga ega edi.

Xiva xonligidagi asosiy shaharlarga Xiva, Urganch, Toshhovuz, Hazorasp, Pitnak va boshqalar kirgan. Xonlik hududi Rossiya bosqinidan keyin 62.236 kv. km bo'lib, u 20 ta bekklik va 2 ta noiblikdan iborat edi. Aholi aniq ro'yxatga olinmagan bo'lib, bu davrga oid manbalarda, u 600 mingdan 900 mingga qadar ko'rsatiladi. Ularning 60 foizdan ko'prog'ini o'zbeklar, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoq, qoraqalpoq, fors



**Xiva xoni Muhammad
Rahimxon II (Feruz)
(1864–1910)**

(eroniy), arab, rus va boshqa xalq vakillari tashkil etgan.

XX asr birinchi choragida butun Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi kabi Xiva xonligida ham xalq harakatining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari tashkil etdi. Turkiston va Buxorodan farqli o'laroq Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining shakllanishida, harakatning asosiy yo'nalishi hisoblangan maktab, maorif ishining taraqqiyotida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz),

Ular o'z hisoblaridan bir qancha maktablar ochishdi. Bobo Oxun Salimov do'sti Bekjon Rahmonov bilan bu maktablar uchun darslik kitoblarini ham yozishgan. Xonlikda jadidchilik harakatining shakllanishida Munis, Ogahiyar asos solgan va keyinchalik Bayoniy boshchiligida davom ettirilgan tarixchilik va tarjimonlik maktabining mavjudligi, tarix va o'tmishga e'tiborning kuchliligi ham katta rol o'ynagan.

Xorazmdagi jadidchilik harakatidan 1914-yil avgust oyida yosh xivaliklar tashkiloti tuzildi, unga rais qilib Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861–1936) saylangan. Yosh xivaliklar harakatida bu davrda qozikalon Bobo Oxun Salimov (1874–1929)ning ham o'rni bo'lakcha edi. Yosh xivaliklar dasturining asosini mavjud tuzum doirasida islohotlar o'tkazish, maktab-maorif ishini yaxshilash, xon hokimiyatini cheklash kabi masalalar tashkil qilardi.

Iqtisodiy qiyin sharoitda yashayotgan xonlik aholisining ahvoli boshlanib ketgan birinchi jahon urushi bois yanada og'irlashdi. Xonlik istibdodiga qarshi 1915–1916-yillarda turkmanlar Junaidxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tardilar. Turkman, o'zbek, qozoq aholisining mavjud tuzumga qarshi kurashini yosh xivaliklar partiyasi rahbarlari faol qo'llab-quvvatlashdi.

1917-yil fevral inqilobi paytida Xiva xoni Asfandiyorxon Qrimda dam olayotgan edi. Shuning uchun ham u Rossiya imperatorining taxtdan voz kechganini eshitgan zahoti xonlikka shoshildi. Asfandiyorxonni kutib olishga chiqqan davlat arboblari orasida Husaynbek Matmurodov,

Polvonniyoz Hoji Yusupovlar ham bordi. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o'z sovetlarini tashkil qilishgan edi. Ana shu sovetlarning faollaridan Latipov, Tiniyev va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq yosh xivaliklar 4-aprelda soldatlarning Muvaqqat hukumatga qasamyod qilishi uchun to'plangan tantanaga kishilarni yig'ib borib, soldatlardan Xiva xonini og'darib tashlashni so'rashdi. Garnizon boshlig'i xonni taxtdan olib tashlamaslik talabi bilan yosh xivaliklarga yordam berishga ruxsat berdi. 5-aprel kuni Asfandiyorxon rus soldatlari himoyasida saroyga kelib, xalq nomidan qo'yiladigan talab (manifest)ni imzolashga majbur bo'ldi.

Manifestga asosan xon hokimiyati qoshida qonun chiqaruvchi organ – majlis va nozirlar kengashi tashkil etildi. Majlisning birinchi yig'ini 1917-yil 26-aprelda bo'lib o'tdi. Unda majlis raisi etib Bobo Oxun Salimov, nozirlar kengashining raisi etib Husaynbek Matmurodov saylandi. Bu tashkil qilingan davlat organlari tarkibida yosh xivaliklarning a'zolari ko'pchilikni tashkil qilardi. Lekin, keyinchalik Asfandiyorxon Xiva garnizoni boshlig'i general Mirbadalov va Zaytsevlarning yordami bilan majlisdan yosh xivaliklarning a'zolarini siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Turli bahonalar bilan Husaynbek Matmurodov va bir qancha yosh xivaliklarni zindonga tashladi. Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon Yaqubov va boshqalar xonning ta'qibidan qutulish uchun To'rtko'l, Chorjo'y, Toshkent kabi shaharlarga qochib kyetishdi.

Bu paytda To'rtko'l va Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatilgan edi. Sovet hukumati orqali yosh xivaliklarning Asfandiyorxon, Zaytsev, Junaidxonlarga o'z hamfikrlarini zindondan ozod qilishni talab qilib, yuborgan bir qancha telegrammalari hech qanday natija byergani yo'q. Aksincha, oktabr to'ntarishidan keyin Xiva shahridan rus askarlari olib chiqib ketildi va Asfandiyorxon o'zining harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Bu 1916-yil qo'zg'olonidan keyin Eronga qochib ketgan Junaidxonning Xiva xonligiga qaytib kelishi va bu yyerda katta mavqega ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Chunki, mingdan ortiq qurollangan sarbozlarga ega bo'lgan Junaidxon bilan murosa qilmasdan Asfandiyorxon va uning atrofidagi ayonlar bundan keyin hokimiyatni saqlab qolishga tayanchlari yo'q edi. Shuning uchun ham Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim», ya'ni xonning lashkarboshisi qilib tayin-

ladi. Shu bilan o'zi Junaidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi. Xonlikdagi hokimiyat esa to'la ravishda Junaidxon qo'liga o'tdi. Toshkentga yetib kelgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq yosh xivaliklar 1918-yil bahorida sovet hokimiyatining faollaridan biri bo'lgan Yusuf Ibragimovning maslahati bilan o'zlari to'rt kishi bo'lishiga qaramasdan yosh xivaliklar partiyasining markaziy qo'mitasini tashkil qilishdi.

1918-yil oktabr oylariga kelganda yosh xivaliklar ta'siri bilan Junaidxon va Asfandiyorxon o'rtasiga nizo solindi va buning oqibatida Junaidxonning o'g'li Eshim tomonidan Asfandiyorxon pichoq urib o'ldirilgan. Uning o'rniga akasi Sayid Abdullaxon xon deb e'lon qilindi. Junaidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo'lgan davlatni saqlab qolishga harakat qildi. 1918-yil noyabr oyida Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junaidxon bir necha marotaba samarasiz urushlar olib bordi. 1919-yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junaidxon o'rtasida Taxta shartnomasi tuzildi. Unga Sovet hukumati tomonidan Xristoforov, Xiva xonligi tomonidan Junaidxon imzo chekishdi. Bu vaqtinchalik kelishuv bo'lib, unga ikkala tomon ham amal qilmadi.

Bu paytda To'rtko'lda mulla Jumaniyoz Sultonmurodov boshliq yosh xivaliklar partiyasining qo'mitasi tuzilgan bo'lib, ularning soni Xiva xonligi hududidan qochib o'tganlar hisobiga kundan kunga ko'payayotgan edi. Ularni sovet hukumati xivalik inqilobchilar deb, bolsheviklar partiyasi safiga qayd qilishgan. Mana shu yosh xivaliklarning talablari va turkman urug'lari orasida Qo'shmamedxon, G'ulomalixon kabi urug' sardorlarining Junaidxon bilan kelishmay qolganligi haqidagi xabarni hisobga olgan bolsheviklar Skalov rahbarligida 1919-yil 22-dekabrda mustaqil davlat Xiva xonligi hududiga bostirib kirishdi. 1920-yil 1-fevralda Junaidxon qo'shinlarini tor-mor qilgan qizil armiya Xiva shahriga kirib bordi. 2-fevral kuni so'nggi Xiva xoni Sayid Abdullaxon taxtdan voz kechdi.

Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov raisligida Muvaqqat inqilobiy qo'mita tashkil etildi. 1920-yil 26-30-aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tib, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va Polvonniyoz Hoji Yusupov raisligida Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzildi. Bu hukumat tarkibiga asosan yosh xivaliklar par-

tiyasining a'zolari kirgan bo'lib, ular mamlakatda demokratik tuzumni o'rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Lekin, XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmadi. Chunki, Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi.

XXSRning Konstitutsiyasida ham xususiy mulk e'tirof etilgan edi. Bu narsa o'sha paytdagi sovet hukumatining Xorazmdagi vakillari Skalov, Ioffe, Dubyanskiy, Shokirov va boshqalarga yoqmadi. Dubyanskiy va Shokirovlar 1920-yil avgust oyida Qo'shmamedxon va G'ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga, bu bilan mahalliy o'troq aholi va turkman chorvadorlari o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilishdi. G'ulomalixon qochib qutulgan bo'lsa ham Qo'shmamedxon va uning yigitlari qatl etildi. Bu fitna yosh xivaliklar hukumati zimmasiga yuklatildi. Natijada, 1921-yil 6-martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo'mita tuzildi va Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat a'zolari qamoqqa olindi. Polvonniyoz Hoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar qochib yashirinishga ulgurishdi.

XXSRda kommunistlar olib borgan siyosat mahalliy kadrlar, ziyolilar, umuman mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlarni yo'qotishga qaratilgan edi. Xorazm respublikasi mavjud bo'lgan atigi 5 yilga yaqin muddat ichida respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi va Xorazm MIK raislari o'n martadan o'zgartirilganligi fikrimizning yanqol isbotidir.

1920–1921-yillarda agrar sohada dastlabki o'zgarishlar amalga oshirilib, 10000 desyatina yer dehqonlarga bo'lib berildi. Bundan tashqari, ularga urug', dehqonchilik asboblari hamda ssuda (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5000 chorva mol sotildi. Eski sug'orish inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. Masalan, 1922-yil oxirigacha Xorazm dehqonlari Hazoraspdan Xo'jayligacha bo'lgan hududda 12 ta suv to'g'oni qurdilar. 1922-yilda chorakor va kambag'allarga yer bo'lib berish uchun davlat yer fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va qaytarib olinmaydigan ssudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta'sis etishga qaror qilindi. Bankka

3 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Xullas, 1921–1922-yillarda 400000 tanobdan ortiqroq yer kambag'al dehqonlarga bo'lib berildi.

Ta'kidlash joizki, XXSRda iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta'siri kuchliroq bo'lganligi uchun sinfiy yondashuv yaqqol namoyon bo'ldi. Soliqning og'ir yuki savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari zimmasiga to'g'ri keldi. 1923-yilga kelib 6 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta teri zavodi, 10 ta g'isht zavodi, yog' zavodi, bosmaxona, elektrostantsiya tiklandi. Qog'oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustuvor mavqeni egalladi.

Hukumat madaniy-ma'rifiy va sog'liqni saqlash ishlariga ham katta e'tibor qaratdi. 1920-yil bahorida respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshlandi. 1921-yil sentabrda Xivada ochilgan xalq dorulfununi respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Xorazm respublikasi tuzilgan dastlabki oylardan boshlab g'oyaviy-siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Yosh xivaliklar hukumati, demokratik kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlarini va qadriyatlarini e'zozlab ish olib bordi. Ammo Xivani bosib olish jarayonida kirib kelgan qizil armiya, uning qo'mondonlari, bolsheviklar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatishdi. Ular mahalliy sharoitni, xalq ommasi kayfiyati va qarashlarini nazar-pisand qilmay tezkorlik bilan inqilobiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xorazm kompartiyasi (1921-yil dekabrda tuzilgan) ularning yaqin yordamchisiga aylandi.

Xorazm respublikasida keyingi yillarda ham g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. 1923-yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullayev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko'rsatmalari asosida 1923-yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. 1923-yil oktabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya mamlakatni sotsialistik qurilish yo'lga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, 1923-yil kuzidan boshlab Xorazm respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga butunlay chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Bu holat 1924-yilning oxirigacha davom etdi.

1917-yil Buxoro amirligi ham muhim o'zgarishlar arafasida turardi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va undan o'sib chiqqan yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Yosh buxoroliklar 1910-yildayoq o'zlarini alohida tashkilot sifatida e'lon qilgan edi. Ular dastavval mavjud monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsion monarxiyani o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lishgan.

1917-yil 7-aprelda Buxoro amiri Sayid Olimxon mamlakatda islohotlar o'tkazish to'g'risida farmon chiqarsa ham amalda uni joriy qilmadi. Jadidlar Buxoro shahrida namoyish uyushtirganlaridan so'ng mamlakatda ularni yoppasiga ta'qib etish boshlandi.

Buxorodagi aprel voqealarining yakuni shu bo'ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Sayid Olimxon qozikalon Sharifjon Maxdumni lavozimidan bo'shatdi, g'azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo'jani olomon qilib o'ldirishdi. Nasrullobek qo'shbegining buyrug'i bilan yosh buxorolik jadidlarning mashhur namoyandasi Sadridin Ayniy va boshqalar 75 tayoq urib jazolanishdi. Islohotchilik harakatining bu bosqichi mana shunday salbiy natija bilan yakunlandi.

Oktabr to'ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston Respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlari-ga doimiy ravishda aralashib turdi.

Yosh buxoroliklar amirlik istibdodiga qarshi kurashni davom ettirdi. Partiya ichida turli guruhlarining borligi, qarashlarning xilma-xilligi tufayli yagona dastur tuzishga ehtiyoj tug'ildi. Markaziy qo'mita bu vazifani 1917-yil noyabrda Fitratga topshirdi. Fitrat tomonidan 1918-yil yanvarda yozilgan yosh buxoroliklar partiyasining dasturi Markaziy qo'mita tomonidan tasdiqlandi va islohot loyihasi sifatida e'lon qilindi. Unda Buxoroda konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta'minlash, madaniy taraqqiyotga erishish lozimligi, dehqonchilik va soliq tizimiga alohida e'tibor berildi.

Turkiston XKS Buxoro davlatiga g'animlik qilib, amir hukumatini kuch bilan ag'darishga urindi. Bolsheviklar shu maqsadda yosh buxorolik jadidlarni qo'llab-quvvatlashdi. 1918-yil mart oyida Turkiston

o'lkasi XKS raisi F. Kolesov qo'mondonligidagi qizil askarlar mamlakat poytaxti Buxoro shahriga hujum uyushtirishdi. Ularning hujumi muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun urinish to'xtamadi. Afsuski, amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinayotgan ushbu fursatda muxolifatdagi yosh buxoroliklar partiyasi arboblari bilan til topisha olmadi. U mamlakatga konstitutsion monarxiya va demokratik tartibotlarni o'rnatmoqchi bo'lgan jadidlar – yosh buxoroliklarni yo'qotish yo'lini tutdi. Fayzulla Xo'jayevning ta'kidlashicha, Kolesov voqeasidan keyin amir mamlakatda 3000 kishini qatl qilgan. Sadridin Ayniyning yozishicha faqat poytaxt – Eski Buxoro emas, balki G'ijduvon, Shofirkon, Bobkent, Qorako'l, Chorjo'y, Xatirchi, Karmana, Qarshi, Shahrisabz bekliliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayblanib, nohaq o'ldirildi. Buxorolik jadidlarning tirik qolgan vakillari Samarqand, Toshkent va Moskvaga jo'nab kyetishga majbur bo'lishdi.

Yosh buxoroliklarning bir qismi 1918-yilning kuzida Toshkentda Buxoro kompartiyasini tuzishdi. Fayzulla Xo'jayev Moskvada muhojirligi davrida (1918-yil oktabr) Turkiston Respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasi qoshida yosh buxoroliklar partiyasi bo'limini tashkil qildi. 1920-yil yanvarda Toshkentda Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tuzildi. Bolsheviklar yosh buxoroliklardan amirlik hokimiyatini ag'darishda foydalanishdi. Ular ham taktik maqsadlarni ko'zlagan holda bolsheviklarga yaqinlashishdi.

1920-yil 25-avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M. B. Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi. Keskin janglardan so'ng, 2 sentabrda Buxoro shahri bosib olinib, Sayid Olimxon hokimiyatdan ag'darib tashlandi. Qizil askarlar Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri, «Islom dinining gumbazi» va «sharif shahar» hisoblangan muqaddas Buxoroni vayron qildilar. Qadimiy Buxoro o't va harobalar ichida qoldi.

Shaharga kirgan qizil askarlar arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo'shbegi va boshqa amaldorlarning boyligini musodara qilishdi. Sentabr oyining boshida amirlik xazinasini va boshqa boyliklar ortilgan 2 eshelon yuk Samarqand va Toshkent orqali Moskvaga yo'l oldi. 1920-yil 14-sentabrda bo'lgan Xalq Nozirlar Sho'rosi, Revkom va Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat

Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi – Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati – 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi (raisi – Fayzulla Xo'jayev) tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy – tashqi ishlar (nozir – Fayzulla Xo'jayev), maorif (Qori Yo'ldosh Po'latov), doxiliya – ichki ishlar (Muxtor Sayidjonov), moliya (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), davlat nazorati (Najib Husayinov), favqulodda komissiya (Cheka raisi – Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukhammad Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin Shihobuddinov), yer-suv ishlari – dehqonchilik (Abdulqodir Muhitdinov), savdo va sanoat (Mirzo Muhitdin Mansurov) nozirliklari. Bu paytga kelib inqilobchilik ta'sirida bo'lgan yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari Buxoro kompartiyasi safiga kirishga majbur bo'lishgandi. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha paytda ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qilishgan.

1920-yil 6–8-oktabrda amirning yozgi saroyi – Sitorai Mohi xossada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. 1920-yil oktabr-noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o'rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini «qonuniy» asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

Buxoro hukumati oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri er-suv masalasini hal qilish edi. 1920-yil 30-sentabrda Buxoro Markaziy Revkomi «Yer to'g'risida»gi dekretni qabul qildi. Dekretga muvofiq, sobiq amir, uning qarindoshlari va amaldorlari qo'lidagi butun yer-mulk kambag'al va yersiz dehqonlarga berilishi kerak edi. Shuningdek, dekretga ko'ra, «xiroj», «amlok» va boshqa soliqlar bekor qilindi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, faqat Eski Buxoro tumanlari va Chorjo'y

bekligida sobiq amir va beklarga qarashli 10000 tanob yer musodara qililib, kambag'al dehqonlarga taqsimlab berildi.

Avval boshida Buxorodagi yangi tuzum va uning ijobiy chora-tadbirlarini aholi ma'qullab kutib oldi. Biroq yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan ko'rilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mol-mulkning musodara qilinishi, saroy ayonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi, amir xazinasining Moskvaga olib ketilishi, majburiy oziq-ovqat razvyorstkasi, uning qattiqqo'llik bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolarga nisbatan dushmanlik siyosati, respublika hududida turgan qizil armiya ta'minotining aholi zimmasiga yuklatilishi buning ustiga, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik faoliyati haqqoniy ravishda xalqning kuchli noroziligiga sabab bo'ldi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Buxoroda amir hokimiyati ag'darib tashlangan dastlabki haftalardayoq mamlakatning G'arbiy, markaziy va Sharqiy qismlarida qizil armiyaning bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zulmiga qarshi boshlangan qurolli qarshilik harakati avj olib ketdi.

Ayni paytda Buxoro hukumati ichida ham siyosiy bo'linish kuchaydi. Bir tarafdin, Buxoro kompartiyasi ichidagi so'l va o'ng kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkommissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi yosh mustaqil davlatning bosgan har bir qadamini syergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan F. Xo'jayev, U. Po'latxo'jayev, Otaulla Xo'jayev, Fitrat, Muinjon Aminov, Muxtor Sayidjonov, Sattor Xo'jayev, M. Mansurov, A. Muhitdinov va boshqalar hukumatda demokratik yo'l tutib, mo'tadil mavqeda turdilar. Ular BXSRRning amalda mustaqil bo'lishi, islohotlar o'tkazish zarurligini yoqlab chiqishdi.

1921-yil 18-23-sentabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhdagi BXSRR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o'z ifodasini topdi. BXSRR Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi.

Buxoro respublikasidagi iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Buxoro inqilobiy qo'mitasining 1921-yil 2-fevraldagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e'lon qildi. Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi xo'jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara qilindi. Sug'orish tizimi izdan chiqdi. Ekin maydonlari qisqarib chorva mollarining soni kamayib ketdi. Shu bilan bir vaqtda ko'plab ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. 1921-yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. BXSRR MIKning umumiy avf to'g'risidagi 1922-yil 25-may dekreti vaqflarni tugatishni to'xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko'rsatmalarini tiklash va boshqalarni e'lon qildi. O'sha yilning noyabr oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o'tish e'lon qilindi. Buxoro davlat banki tuzilib, «pul islohoti» amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi. Bu qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923-yili sug'oriladigan yerlar maydoni 1913-yildagi darajaga yaqinlashib qoldi. Temir yo'llar tiklanib, zavod va fabrikalar qaytadan ishga tushdi. Bu paytga kelib Buxoro respublikasida 19 ta korxonalar, 500 dan ortiq bozor ishlab turdi. Asosan 12000 savdogarlar mablag'idan iborat xususiy tarmoya mavjud edi.

Biroq Buxoro respublikasidagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923-yil 3-iyunda Buxoroga SSSR Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondoni S. S. Kamenev, Turkfront Inqilobiy harbiy kengashi raisi A. I. Kork, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o'zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidlashdi.

Oqibatda Buxoro hukumatida Turkistondan yuborilgan komissarlarning ta'siri tobora kuchayib bordi. Kommunistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan 14-avgustda bo'lgan Buxoro MIK favqulodda sessiyasida Konstitutsiya matniga o'zgartirish kiritishga ham muvaffaq bo'lishdi. 1923-yil 11-17-oktabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Konstitutsiyani o'zgartirish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi.

1924-yil 18-20-sentabrda bo'lib o'tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXSRR Buxoro Sovet Sotsialistik

Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi. BSSRning tuzilishi yuqoridan turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan hodisa edi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo'li inkor qilinib, sotsialistik yo'nalishi tanlandi. Markazdagi bolshevik rahbarlarining Buxoro va Xorazm respublikalarini sotsialistik respublikalarga aylantirishdan ko'zda tutgan asosiy maqsadi mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish, xalq ongiga kommunizm mafkurasini majburan singdirish edi. 1924-yil noyabr oyi oxirida xuddi Xorazm respublikasi singari Buxoro SSR ham tugatilib, uning hududi 1925-yilda tashkil etilgan O'zbekiston SSR (1929-yilgacha tarkibida Tojikiston ASSR ham bo'lgan) va Turkmaniston SSRga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining demokratik islohotlar tomon bosib o'tgan yo'li o'sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaralganda ham mashaqqatli bo'ldi. Buxoro va Xorazm respublikalari atigi 4, 5 yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga aylana boshlagan edi. Lekin, bu jarayonlar mustabid sovet tuzumi tomonidan sun'iy ravishda to'xtatib qo'yildi va nisbatan mustaqil bo'lgan bu davlatlarning mavjudligiga ham barham berildi.

4. XX asrning 20-yillarida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) va uning mohiyati. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati. O'zbekistonda «Madaniy inqilob» va uning oqibatlari.

XX asr 20-yillari tariximizga o'ta murakkab va ziddiyatli, turli ijtimoiy guruh va kuchlar siyosiy qarama-qarshiligi avj olgan, sovet tuzumi mustahkamlanayotgan, o'lkadagi ochlik, iqtisodiy tanglik, vayronaga aylangan sanoat, transport, qishloq xo'jaligini tiklash, ya'ni sho'rolarning «tinch sotsialistik qurilish» yo'liga o'tish davri bo'lib kirdi.

Markazdan farqli o'laroq, O'rta Osiyo Respublikalarining 20-yillardagi agrar siyosatida nisbatan keskin choralar ko'rilgan. 1920–1921-yillardagi yer-suv islohotining amalga oshirilishi yangi iqtisodiy siyosat (NEP) bilan birga olib borildi. Yangi iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan maqsad – mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonlarning manfaatini oshirish, uning yerga egalik qilishini ta'minlash, imtiyozli soliq olish va bozor iqtisodiyoti, tovar-pul munosabatlariga o'tish edi. Uning asosiy bo'g'inlarini oziq-ovqat razvyortkasining oziq-ovqat solig'i bi-

lan almashtirilishi, erkin savdo, sanoatda xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikning joriy qilinishi tashkil etdi.

Oziq-ovqat razvyortkasining soliq bilan almashtirilishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ko'paytirishning iqtisodiy rag'batlarini vujudga keltirdi hamda dehqon hosilning qat'iy belgilangan qismini topshirgach, unga o'z mehnati mahsulini o'zi istaganicha tasarruf etish huquqi berildi. Yangi iqtisodiy siyosat yo'lining o'ziga xos xususiyati – tovar-pul munosabatlarining jonlanishi, savdo va ayirboshlashda cheklashlardan ozod bo'lish edi. Erkin savdoning sog'lomlashuviga 1922–1924-yillarda o'tkazilgan pul islohoti ma'lum darajada yordam berdi. Muomalaga kursi oltinga tenglashtirilgan valyuta-chervonetsning chiqarilishi bozor rolining tiklanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda qayt etish kerakki, Markaz Turkiston o'lkasiga asosiy xomashyo bazasi sifatida qarab kelganligi bois, o'lka qishloq xo'jaligining bosh sohasi hisoblangan paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tiborini qaratgan. Xususan, Paxtachilikni tiklash va rivojlantirish ishlariga rahbarlik qilish uchun 1920-yilda Bosh Paxtachilik Qo'mitasi va paxta yetishtiruvchi respublikalarda unga bo'ysunuvchi paxtachilik qo'mitalari tuzildi.

Turkiston respublikasidagi barcha haydaladigan maydonlar, seleksiya stantsiyalari, irrigatsiya inshootlari, Paxtachilik qo'mitasi ixtiyoriga o'tkazildi. Bosh Paxtachilik qo'mitasi katta vakolatlarga, ya'ni, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari hisobiga chigit ekiladigan maydonlarni kengaytirish, paxta xarid narxlarini belgilash, markaziy davlat organlarining ruxsatisiz maxsus qaror qabul qilish huquqlariga ega edi. Paxtaning narxi hukumat tomonidan belgilanishi uning bu masalada yakka hokimligidan dalolat berar edi.

Turkiston respublikasida paxtachilikni rivojlantirish ishlarini sug'orish inshootlarini tiklamasdan amalga oshirib bo'lmasdi. Sug'orish ishlarini tiklashni tezroq amalga oshirish, dehqonchilik uchun yaroqli erlarni suv bilan ta'minlash va qishloq xo'jaligini, birinchi navbatda esa paxtachilikni rivojlantirish uchun suvdan to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida, 1921-yilning fevralida TASSRdagi barcha suvlarni respublika muhiti deb e'lon qilgan suv to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonunda, suvni taqsimlash odat (boy va ruhoniylarga beriladigan imtiyozlar) bo'yicha emas, balki, birinchi navbatda dehqonlar manfaatini ko'zlangan holda berilishi kerak deb aytilgan edi. 1921-yilning

noyabrida, aholining daromadlarini sug'orish ishlarini tiklashga safarbar qilish maqsadida suv solig'i joriy qilindi.

Shu yilda TASSRning sug'orma yer maydoni 1920-yildagi ko'rsatkichga qaraganda 300 ming desyatinaga ko'paygan edi. Paxta ekin maydonlari esa deyarli 100 ming desyatinaga ortdi.

Ittifoq hukumati avval boshdanoq yosh O'zbekiston Respublikasi rahbariyati oldiga «Sovet O'zbekiston»ini SSSRning asosiy paxta bazasiga aylantirish strategik vazifasini qo'ydi. «Oq oltin»ning aksariyat qismi, ya'ni 90%dan ko'prog'i «Sovetlar mamlakati»ning to'qimachilik markazlariga yuborildi. Masalan, 1922-yilning boshlarida Turkistondan markazga Krasnovodsk yo'nalishi bo'yicha 1150 vagon (63470 ta toy paxta), Orenburg yo'nalishi bo'yicha 1547 vagon (85030 ta toy paxta), hammasi bo'lib, 2697 vagon (148500 ta toy paxta) paxta tolasi jo'natilgan edi.

Paxta yakkahokimligini ta'minlash maqsadini amalga oshirilishi oqibatida qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, xususan, chorvachilik inqirozga uchradi, g'alla tayyorlash keskin kamayib ketdi. Hosildor yerlar miqdori kamaydi. Don, poliz ekinlarining hosildorligi qisqardi.

Yangi iqtisodiy siyosat tufayli qishloq xo'jaligida kooperativ va shirkatchilik harakati avj oldi. 1923-yilda Turkiston Respublikasida qishloq xo'jaligi va kredit kooperatsiyalar tizimi tashkiliy jihatdan tugal ravishda shakllandi deyish mumkin. Davlatning kooperativ qurilish siyosati ikki yo'nalishda olib borildi. Bir tomondan, kooperatsiya mayda tovar xo'jaligini sotsializmg'a jalb qilish vositasi, shaxsiy va jamoa manfaatlarining kelishuv shakli sifatida baholansa, ikkinchi tomondan kooperatsiyaga xususiy sektorni siqib chiqaruvchi ijtimoiy qurol deb qaraldi.

Markaz qishloq xo'jalik krediti – qishloq xo'jaligining asosiy sarmoyasini (mol-mulki, urug' fondi, qurilishlarni) tiklash uchun foydanish, bu resurslarni chorvachilikni, paxtachilikni, irrigatsiyani, bog'dorchilikni va uzumchilikni rivojlantirishga yordam ko'rsatishga yo'naltirdi. 1923-yilda Turkistonda 1169 ta kredit-kooperativ shirkati bo'lib, kreditdan foydalanadigan xo'jaliklar soni 28 mingta edi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sanoatga kontraktatsiya (shartnoma) asosida yetkazib berishda qishloq xo'jalik kooperativlari vositachilik qildi. Mayda tovar dehqon xo'jaligi rivojlana boshladi.

Biroq, har kimni ham kooperativga qabul qilishavermasdi. Sinfiy tanlov mavjud edi. Kambag'allarga ustivorlik berilardi. Aholining o'ziga to'q qatlamlariga nisbatan qat'iy talablar belgilangan edi. Masalan, «boy», «quloq»lar toifasidagi shaxslar birinchi to'lov sifatida o'rta hollar to'laydigan to'lov miqdoridan ikki barobar, kambag'allarnikidan esa o'n ikki barobar ko'p haq to'lashlari kerak bo'lgan. Kooperativlarga qabul qilishdagi bunday tabaqaviy yondashuv o'z navbatida, aksariyat qishloq ahli fuqarolik huquqlarining poymol etilishiga, ishbilarmon dehqonlarning iqtisodiy rivojlangan jamiyat qurish ishidan sun'iy begonalashtirilishiga olib keldi.

Sovet hukumati tomonidan o'lkada olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ushbu hududda mavjud bo'lgan mustaqil davlatlarning tugatilishi, ya'ni milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi bilan uzviy ravishda davom ettirildi.

Ta'kidlash joizki, Turkiston xalqlarining ildizi bir, degan g'oya avloddan avlodga o'tib, milliy yetakchilar, jamoat arboblari va milliy ziyolilar qarashlari hamda faoliyatlarida o'z aksini topib kelgan. Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib, o'rniga yangi tuzilmalarni vujudga keltirish markaz va o'lkadagi bolshevistik rahbarlar tashabbusi bo'ldi. 1920-yil boshidayoq Turkkommissiya Turkiston ASSRni bo'lib tashlab, milliy til belgisiga qarab muxtor respublikalar tashkil qilish masalasini qo'yg'an edi. Bu o'sha yili iyun oyida RKP(b)ning Turkistonga oid qabul qilgan hujjatlarida o'z aksini topdi. Lenin Turkistonning «O'zbekiya, Qirg'iziya, Turkmaniya»ga bo'lingan xaritasini tuzish kerakligini uqtirdi. Bu rejaning amalga oshishi qarshilik harakati tufayli bir oz kechikdi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash markaz va RKP(b) O'rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924-yilda qat'iylik bilan amalga oshirildi.

Shunday qilib, 1924-yil oxiri va 1925-yil boshlarida Turkiston ASSR, BSSR va XSSR tugatilib, ularning o'rnida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (1929-yilgacha O'zbekiston SSR tarkibida), Qora-Qirg'iz (Qirg'iziston) avtonom viloyati (RSFSR tarkibida), Qoraqalpoq avtonom viloyati (dastlab Qozog'iston ASSR tarkibida; 1930-yildan RSFSR tarkibida; 1932-yildan Qoraqalpog'iston ASSR; 1936-yildan u O'zbekiston SSR tarkibida) tashkil etildi. Qozog'iston ASSR esa 1920-yil avgustda RSFSR tarkibida tuzilgan edi. 1925-yil 13–17-fevralda Buxoroda bo'lgan O'zbekiston SSR Sovetlarining 1

qurultoyida «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya» qabul qilindi. Deklaratsiya O'zbekiston SSRning tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va uning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e'lon qildi.

Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va uning asoratli oqibatlari. O'zbekistonda «Madaniy inqilob» va uning oqibatlari.

O'zbekiston SSRda «agrar inqilob»ning strategiya va taktikasi O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi (1925-yil noyabr)da tasdiqlangan edi. Bu jarayon O'zSSR MIK ning «Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida» va «Yer-suv islohoti to'g'risida» dekretlari (1925-yil 2-dekabr) bilan boshlangan edi.

1925–1929-yillarda O'zSSRda yer-suv islohotining 2-bosqichi o'tkazildi. Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab 3 bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich 1925–1926-yillarda Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida bo'ldi. Ikkinchi bosqichda 1927-yil Zarafshon viloyati (Buxoro va O'rta Zarafshon okruglari)da yer-suv islohoti o'tkazildi. Uchinchi bosqich – 1928–1929-yillarda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm okruglarida islohot amalga oshirilgan edi. Qabul qilingan dekretlar asosida belgilanganidan ortiq yerlar, ish hayvonlari va mehnat qurollari tortib olindi. Boylar, yirik savdogarlar, ulamolar va boshqa mulkdorlarning erlari va butun mol-mulki musodara qilindi.

1929-yil kuzidan SSSRda qishloq xo'jaligini ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan kollektivlashtirish (jamoalashtirish)ga kiritilgan vaqtda O'zbekistonda ahvol ana shunday edi. BKP(b) MK Siyosiy byurosining «Yoppasiga jamoalashtirish to'g'risida»gi qarori va BKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining «Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida»gi ko'rsatmalari (1930-yil 26-yanvar) asosida O'zbekiston Kompartiyasi MK 1930-yil 17-fevralda «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qilindi. Bu ko'rsatmalarning ijrosini ta'minlash jarayonida O'zbekiston SSRda quloqlashtirish kompaniyasi ham 1930-yil fevraldan boshlab avj olgan.

Ayni paytda quloqlarni sinf sifatida tugatish 1930-yil 1-fevralda SSSR MIK va XKS qarorlarida ham rasman qonuniylashtirildi.

Quloqlarga qarshi kurashda ularning mol-mulklarini musodara etish va o'zlarini boshqa hududlarga surgun qilish uchun tegishli tashkilotlarga bunda respublikalardagi partiya tashkilotlariga tegishli huquqlar berildi.

Ta'kidlash joizki, respublikada kolxozlar (jamoat xo'jaliklari)ni tashkil qilish borasida juda katta xatolarga yo'l qo'yildi. Ayrim sovet xodimlari o'z vazifasini suiiste'mol qildi. Arxiv hujjatida keltirilishicha, O'rta Zarafshon okrugidagi Xatirchi rayonida 3 oyda faqat bitta kolxozning raisi 20 marta almashtirilgan. Bunday ahvol boshqa rayonlardagi o'nlab kolxozlarda ham uchrab turgan.

O'zbekistonda kolxozlar va sovxozlar (davlat xo'jaliklari) tashkil qilinishi davrida chorva mollarini umumlashtirish jarayonining boshlanishi bilan chorva mollarning miqdori keskin kamayib ketdi, ularning bozordagi narxi tushib ketdi. Chunki, aholi xonadonida mavjud bo'lgan chorva mollarini ko'p miqdorda oilaviy ehtiyoj uchun so'ya boshladi, ularni ommaviy sotish boshlandi. Bundan tashqari qo'shni Afg'oniston davlatiga chorva mollari ko'plab haydab o'tildi.

Kolxozlashtirish siyosatining oqibatlari o'zini ko'p kuttirmadi. SSSR hududida sovet tuzumiga qarshi ommaviy ravishda dehqonlar qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Bu qo'zg'olonlar bir vaqtda tashkiliy uyushgan holatda ko'tarilmagan bo'lsa ham u o'zining haqli talablariga ega bo'lgan, intizomli xalq noroziligi edi.

1930-yil kuzidan dehqonlarni jamoat xo'jaliklariga kirishga majburlash yana avj oldi. 1931-yil yoziga kelib, barcha dehqon xo'jaliklarining 56,7 foizi kolxozlarga birlashtirilgan edi. 1932-yil oxirida sovxozlar soni 62 taga etdi. Yakka xo'jaliklarga katta soliq solish bilan tazyiq o'tkazish davom etdi.

Kollektivlashtirish jarayonining avj olishi davri, ya'ni 1930–33-yillarda O'zbekistonda 5550 dehqon xo'jaligi a'zolari hibsga olinib, quloq qilindi va Ukraina, Sibir, Qozog'iston va boshqa joylarga zo'rlik bilan ko'chirildi. Lekin shuni ham ta'kidlash joizki, bunda nafaqat o'ziga to'q, mol-mulkka ega dehqonlar, balki o'rta hol, ayrim hollarda esa batarak xo'jaliklarga mansub kishilar ham «quloq» sifatida surgun qilindi.

Sovet davlatining bunday g'ayriinsoniy siyosatini amalga oshirishdan maqsadi, birinchidan, qishloqdagi o'ziga to'q kishilarning yer-suvi, mol-mulkini tortib olish, ikkinchidan, tortib olingan boylik va ishlab chiqarish vositalari hisobiga jamoat va davlat xo'jaliklarining dastlabki moddiy bazasini yaratish, uchinchidan, kambag'al dehqonlarning

bu xo'jaliklarga «o'z xohishlari» bilan kirishlariga erishish va ularning arzon mehnatidan foydalanish, to'rtinchidan, «quloq» bo'lib surgun qilingan kishilar yordamida masalan, Ukrainaning iqlimi O'zbekistonga yaqin zonasida paxtachilik sovxozlarini tashkil etish va pirovardida paxta yordamida SSSRning moddiy imkoniyatlarini yaxshilash edi. Umuman olganda, majburiy jamolashtirish siyosati qishloqning mustaqil rivojlanishini barbod qildi, qishloq ahli ongiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, dehqonlarning yerga egalik tuyg'usini yo'q qildi.

O'zbekistonda «Madaniy inqilob» va uning oqibatlari. XX asr 20–30-yillardagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat respublika ma'naviy-madaniy hayotida ham o'z aksini topdi. Sovet davlatining «madaniy inqilob» tadbiri jamiyatning barcha jabhalari qatorida ilm-fan, madaniyat, san'at, maorif, oliy ta'lim sohalarini ham o'z izmiga solgan edi. Ta'lim-tarbiyaning o'choqlari bo'lgan milliy maktablarga ham bu siyosat o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq an'anaviy ta'lim tizimini yo'q qilish avj oldirildi.

Davlat «proletariat diktaturasi»ning mavjud barcha kuchlaridan foydalanib, sovet siyosiy rahbariyati qisqa muddat ichida Turkistonda Rossiya imperiyasi o'rnatgan ta'lim tizimini tag-tomiri bilan yo'q qilishga erishdi. Bir vaqtning o'zida an'anaviy maktablarga nisbatan ham ma'muriy-repressiv hamda iqtisodiy choralar ko'rildi. Biroq, keng xalq ommasi an'anaviy maktab tarafdori bo'lib qolaverdi. Turkiston musulmonlariga o'zining mafkuraviy ta'sirini kengaytirish maqsadida, sovet «milliy» maktablari tarmog'ini tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Mustabid davlat muqobil o'quv maskanlari faoliyatining barcha imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. 1927-yil iyundagi O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi VI plenumi qarorlari boshlab byergan, din asoslarini yemirish bo'yicha yangidan avj olgan harakat eski maktabga etkazilgan asosiy zarba bo'ldi. Plenumning «Musulmon ruhoniylari va maktab to'g'risida»gi rezolyutsiyasida: «isloh qilingan maktablar zararli ekanligini hisobga olib, bundan buyon vaqf maktablarini isloh qilishga aslo yo'l qo'yilmasin, shu vaqtgacha isloh qilingan maktablarga kelganda esa shu rayonda yangi sovet maktablarini ochish, shuningdek isloh qilingan maktablarda diniy fanlarni o'qitishni hamda umuman ruhoniylar shaxslar o'qitilishini taqiqlash yo'li bilan ham ularni yopish uchun butun choralar ko'rilsin» deb ta'kidlangan edi.

Ayniqsa, 1927-yilning dekabrda BKP (b)ning XV syezdida qabul qilingan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish to'g'risidagi qarordan keyin maxsus ma'rifiy xayriya mulklari bo'lgan vaqf mulklari tugatilib, buning oqibatida an'anaviy maktablar ham iqtisodiy asosdan mahrum bo'lishdi. Ushbu choralar kamdek, ularga din-xurofot o'choqlari tang'asi yopishtirilib, o'n asrdan ortiq to'plangan an'anaviy qadriyatlar keraksiz, zararli, yangi tuzumning taraqqiyot etishiga to'siq bo'luvchi ijtimoiy institutlar sifatida izziz tugatib yuborildi. An'anaviy maktab va madrasa hamda jadid maktablarini yo'q qilish bilan birga sovet organlari mahalliy aholi farzandlari maktablariga ham jiddiy e'tibor berishmagan bo'lsa-da, sovet o'quv maskanlarini o'qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag' bilan ta'minlay olish imkoniyatlarini topa olishgan. Chunonchi, sovet ta'lim tizimiga mos o'qituvchi kadrlarning miqdoriy o'sishini ta'minlash keng yo'lga qo'yilib, 1917-yilning o'zidayoq Toshkent, Andijon, Samarqand, Qo'qonda dastlabki o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan edi. 1920-yillarning boshlariga kelib, mana shunday kurslar orqali 3 ming mahalliy millat va 802 ta evropalik o'qituvchi tayyorlangan edi.

Mana shunday sharoitda mahalliy ziyolilar zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimini yaratish, dunyoviy bilimlardan dars bera oladigan o'qituvchilar tayyorlash davr talabi ekanligini teran his etib, zamonaviy milliy universitet yaratish ishiga bel bog'lashdi. Milliy universitet haqida gap borar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoning birinchi universiteti hisoblangan hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti 1918-yil 12-mayda jadid ziyolilari tomonidan tashkil etilgan edi.

Ma'lumki, Oktabr to'ntarishidan so'ng sovetlar Sharq ayollarini ozodlikka chiqarish uchun kurash, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb qilish kampaniyasini avj oldirib yuborishdi. Ushbu jarayonning eng yuqori cho'qqisi 1927-yil bo'lib, u tarixga «Hujum» harakati nomi bilan kirdi. Ya'ni, sovet adabiyotlari talqinida bu eski turmush-tarziiga hujum qilish ma'nosini anglatardi. Hujumning oldiga qo'yilgan birinchi navbatdagi vazifalaridan biri bu – ko'p xotinlikni, balog'atga yetmagan qizlarni turmushga berishi va qalin pulini yo'q qilish edi.

Biroq sovetlar shiddatli tus byergan ushbu harakat asriy an'analarni hisobga olmagan qarorlar, ko'rsatmalar asosida olib borildi, ko'p hollarda zo'rlik ishlatildi. Qaysi viloyat, qaysi tumanda, shahar va

qishloqlarda qancha xotin-qizlar paranjisini tashlaganligi haqidagi ma'lumotlar muntazam talab qilina bordi.

Sharq ayollarining asrlar davomida muayyan urf-odatlar va shariat mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeini ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida favqulodda va shiddat bilan o'zgartirilishi ko'p to'qnashuvlar va qurbonlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan, 1928-yil 8-martda O'zbek davlat konsert va etnografiya guruhi ishtirokchisi To'paxon sahnaning o'zida o'ldiriladi, bir yildan so'ng esa Nurxon ismli aktrisa halok bo'ladi.

Shubhasiz, «Hujum» Sharq ayollariga birmuncha erkinlik, huquqlar berdi. Lekin, ushbu harakat bosqichma-bosqich, zo'ravonlik usullarini ishlatmasdan, o'ta noziklik bilan keng xalq omma ongini ushbu jarayonga tayyorlab amalga oshirilganda norasmiy nikohlar, ajralishlar, yolg'iz onalar, erkaklar bilan ayollar o'rtasida «tenglik» o'rnatilishi oqibatida ayollar o'zining Sharqona noziklik latofatini yo'qotib qo'ymagan bo'lar edi.

Kompartiyaning madaniy merosni inkor etish siyosati arab yozuvini lotin grafikasiga almashtirish haqidagi qarorida ham o'z aksini topdi. Buning sababini sovet hukumati «madaniy o'sishda texnik xususiyatga ega to'siqlardan biri bu qoloq transkripsiyadir» hamda «an'anaviy arabcha yozuv faqatgina diniy musulmon an'analari nuqtai nazaridangi-na qimmatlidir» deb uqtirib, arab yozuvining mavqeini pasaytirishga harakat qilishdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston kommunistlarining III - qurultoyi (1927-yil noyabr) «yangi lotin alifbosiga yanada shiddatliroq yo'l bilan o'tish kerak» deb ta'kidladi va 1929-yilda o'zbek yozuvi lotin grafikasiga o'zgartirildi. Chunki, O'rta Osiyoni arablar istilo qilgan VIII asrdan boshlab nafaqat diniy kitoblar, balki fanning barcha sohalarida o'n uch asr mobaynida yaratilgan yozma madaniyat yodgorliklari, o'lka aholisi amal qilib kelgan huquq manbalari ana shu yozuvda yaratilgan edi. Shu sababdan bu mahalliy xalqni nafaqat dinidan balki madaniyati, milliylikdan ajratib, sovet qolipiga majburan solish edi.

1940-yilda esa lotin grafikasining kirillitsa bilan shoshilinch almashirilishi, O'zbekiston aholisining bilim darajasining o'sishiga, o'zbek tilining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu holat savodsizlar sonining sun'iy o'sishini keltirib chiqardi. Lekin eng achinarlisi, ma'naviy hayot to'la ruslashtirilib, hamma joylarda o'zbek tili imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, mustabid tuzum sovetlarcha savodli shaxslarni shakllantirish, «savodsizlik»ni tugatish borasida shiddatli kurashni avj oldirib yubordi va 1920-yilning 17-sentabrida TASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish to'g'risida dekret qabul qilinadi. Unga muvofiq, 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan barcha fuqarolar o'qish va yozishni o'rganishlari shart bo'lgan. 1924-yilning boshida esa «Bitsin savodsizlik!» jamiyati vujudga keladi. Uning o'zagini o'qituvchilar, talabalar tashkil qilgan. Savodsizlikni tugatish bo'yicha ushbu jamiyat tomonidan dastlabki paytda 35 ta maktab ochilib, 10200 kishi o'z savodini chiqardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1937-yilga kelib, respublikamizda savodsizlik tugatilib, kamsavodli kishilar soni 2 mln. dan ziyod bo'lgan. Aholining sovetlar idrokidagi umumiy savodxonligi 67,8% ga yetgan edi.

Umuman aytganda, sovet sotsialistik davlatchiligi o'zbek xalqining tub ma'naviy, axloqiy qadriyatlariga mos kelmas edi. Tarbiyaviy ishlar ham milliy manfaatlarni aks ettirmas edi.

5. XX asr 20-yillari ikkinchi yarmi – 30-yillardagi siyosiy qatag'onlar.

1922-yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR qudratli unitar (qo'shma) davlat bo'lib, unda rasmiy federatsiya subyektlari suveren huquqlar va real mustaqillikdan mahrum edilar. O'zbekiston ham faqat nomigagina SSSR tarkibidagi suveren ruspublika hisoblangan, aslida esa ittifoqqa har tomonlama qaram edi. SSSRda qaror topgan boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi jamiyatning barcha sohalarini o'z maqsad va vazifalariga bo'ysundirgan, ijtimoiy-siyosiy hayot o'ta siyosiy-lashtirilib, o'zgacha fikrlashlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borilar edi.

XX asr 20-30-yillarida mustabid tuzumga qarshi fikr bildirganlarni ta'qib ostiga olish avj oldi. Ayni shu paytda «18 lar guruhi», «inog'omovchilik», «qosimovchilik» kabi siyosiy ishlar to'qib chiqarilgan edi.

O'zbekistondagi hukumat va partiya organlarining vakolatlari masalasi tadqiq etilganda o'n sakkizlar guruhining faoliyati va qismatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma'lumki, asosan hukumat a'zolari kirgan o'n sakkizlar guruhi a'zolari O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti siyosatiga qarshi chiqishgandi.

Jumladan, 1925-yil noyabrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan milliy rahbar xodimlardan 18 kishi (ular tarixiy adabiyotlarda «o'n sakkizlar guruhi» deb atalardi) 1925-yil 19-22-noyabrda Samarqandda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti plenumiga ularni ishdan bo'shatish haqida ariza bilan murojaat qiladi.

Ariza byerganlar bilan RKP(b) MK O'rta Osiyo birinchi kotibi I. A. Zelenskiy va Markazdan yubrilgan boshqa mas'ul xodimlar suhbatlashgan. Bu suhbat aslida tergov tusini olgan. Partiyaning ichki intizomiga qat'iy amal qilish, partiya saflarida hech qanday guruhbozlikka o'rin bo'lmasligi kabi talablar va turli tazyiqlardan so'ng 18 nafar kishidan 8 kishi (A. Hojiboyev, I. Xidiraliev, M. O'rinxo'jayev, O. Ashurov, H. Eshonov, A. Mukamilov, A. Zokirov, N. Shirinov) xato qilganliklarini «tan olib», arizadagi o'z imzolarini qaytarib olganliklari xususida ariza berishgan. Qolgan 10 nafar kishi (N. Qoriyev, A. Muzaffarov, M. Saidjonov, R. Rafiqov, B. Maqsumov, I. Bozorboyev, O. Maqsumov, M. Karimjonov, Z. Hasanov, R. Rahimboboyev) qaytadan ariza yozishib, ishlarini O'rta Osiyo byurosida ko'rib chiqishni talab qilishgan. RKP(b) Markaziy Kontrol Komissiyasi Prezidiumi a'zosi M. B. Kosarev, RKP(b) Markaziy Kontrol Komissiyasi a'zosi D. Manjara va O'rta Osiyo byurosi tashkiliy – taqsimlov bo'limi boshlig'i A. Zdobnovdan iborat maxsus komissiya 1925-yil 22-29-noyabrda ariza beruvchi har bir kishi bilan alohida savol-javob, aslida o'ziga xos so'roq o'tkazib, ariza yozishining sabablarini tekshirgan. Dekabr oyining boshlarida bu savol-javob yana takrorlangan.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti V plenumida (1925-yil 22-noyabr) so'zga chiqqan RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi birinchi kotibi I. Zelenskiy quyidagicha fikr bildirgan edi: «Men o'rtoqlarga (ariza byergan o'rtoqlarga) yangi xo'jalik yili boshlanayotganda MK rahbariyati to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yish barcha sohadagi ishlarga salbiy ta'sir qilishini, shuningdek hozir rahbariyatni almashtirish partiya va sovet organlarining quyi bo'g'in rahbarlarini ham almashtirishga sabab bo'lishini tushuntirdim». Demak, bundan ko'rinib turibdiki, o'n sakkizlar guruhi a'zolarining talablaridan biri Markaz manfaatlarini O'zbekistonda amalga oshirayotgan respublika kommunistik tashkilotining rahbarlari B. Ivanov va A. Ikromovni o'z vazifalaridan ozod qilishdan iborat bo'lgan.

O'n sakkizlar guruhi a'zolari RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi komissiyasi va O'zbekiston Kompartiyasi MK ikkinchi chaqiriq 1 plenumi qaroriga ko'ra 1925-yil dekabrda quyidagicha jazolandi: Rahmat Rafiqov, Muxtorjon Saidjonov, Inomjon Xidiraliev, Nuritdin Qoriyev o'z vazifalaridan olib tashlandi, Rahmat Rafiqov va Bahodir Maqsumov partiya a'zolidan chiqarildi, Zokir Hasanov va Obid Maqsumovga qattiq hayfsan e'lon qilindi, Rahmatulla Muzaffarovning ichki ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Kompartiyasi MKKga topshirildi, Rahimjon Rahimboboyev va Abdurahim Hojiboyevga tanbeh berildi, o'z xatolarini «tan olgan» 8 kishini shaxsiy ishiga esa guruhbozlik kushida ishtirok etganligi yozib qo'yildi.

Biroq o'n sakkizlar guruhi a'zolarining keyingi taqdiri ayanchli kechdi. Inomjon Xidiraliev 1928-yil 31-dekabrda Moskvada fojiali o'lim topdi, ayrim kishilar 1930-yili B. Mavlonbekov guruhida ishtirok etganlikda ayblandi va jazolandi, qolganlari esa 1934-, 1937–1938-yillardagi ommaviy qatag'onlarning qurboni bo'lishdi. Faqat umri-ning katta qismini surgun va qamoqxonalarda o'tkazgan Mirzaxo'ja O'rinxo'jayev 1958-yilda tug'ilgan yurti Samarqandga qaytib keladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston SSR va O'zbekiston Kompartiyasi tashkil topgach, hukumat va partiya organlarining vakolatlari doirasi qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti rahbariyati BKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zolari hamda Markazning boshqa vakillari madadi va ko'rsatmasiga tayanib, respublikadagi sovet va xo'jalik organlari ishiga, xususan, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti faoliyatiga bepisandlik bila qaradilar. 1925–1926-yillarda partiya saflari o'rtasida qat'iy tartib va intizom yo'qligi turli guruhbozlik holatlarini keltirib chiqardi.

Partiya tashkilotlari rahbar kommunistlarni xo'jalik, ijtimoiy va madaniy qurilishining barcha sohalariga mutasaddi qilib qo'ygan edi. Ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan ish olib borgan partiya tashkilotlari korxonalar va muassasalar rahbarlari hamda mehnat jamoalarining mustaqilligini cheklab, ularning tashabbusini bo'g'ar, ular faoliyatidagi demokratik jihatlarni yo'qqa chiqarar edi.

Hukumat va partiya organlarining funksiyalari konstitutsiya va turli qonunlarda ko'rsatilgan bo'lishiga qaramasdan, partiyaviy vakolatlar doirasi tobora kengayib, keyinchalik jamiyatning barcha sohalarini ustidan hukmron kuchga aylandi. Bu holatga qarshi chiqqan milliy rah-

bar xodimlar (o'n sakkizlar guruhi, R. Inog'omov va b.) muxolifatda ayblanib, ular avval g'oyaviy jihatdan, so'ngra jismoniy jihatdan mahv etildi. Sovet rejimining repressiv xususiyati O'zbekistonda ham yaqqol namoyon bo'la boshladi.

«Inog'omovchilik» 1926–1931-yillarda mustabid tuzum tomonidan milliy rahbar va ziyolilarning qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan uydirma. «Inog'omovchilik» – o'sha yillarda O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasini bajarib kelgan Rahim Inog'omov (1902–1938) nomi bilan bog'liq.

R. Inog'omov va uning tarafdorlari xalq ta'limi va madaniyatini proletarlashtirishga qarshi chiqib, BKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosi faoliyatini tugatish talabini ko'tarib chiqadilar. Shuningdek, R. Inog'omov o'zbek mehnatkashlarining oktabr to'ntarishiga tayyor bo'lmaganliklari va uning yevropalik proletar kuchlar tomonidan amalga oshirilganligi hamda rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni faqat ziyolilar o'ynagan, bizda esa hali proletariat yo'q degan dadil fikrlarni bildiradi.

Maxsus uyushtirilgan viloyat plenumlarida «inog'omovchilik» qoralanib, u bilan ayovsiz kurash olib borishga da'vat etiladi. Hatto «inog'omovchilik»ni partiya saflaridagi burjuaziya agenturasi deb baholashadi. «Inog'omovchilik»ka qarshi kurash matbuotda ham davom etadi. O'rta Osiyo byurosining «Za partiyu» degan jurnalida I. Zelenskiy «inog'omovchilik»ni qattiq tanqid qilib, uning kommunistlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganligi, unga qat'iy zarba berilganligini alohida ta'kidlaydi.

Rahim Inog'omovga shu kabi asossiz «aybnomalar» qo'yilgandan so'ng, uni Qashqadaryo viloyatining eng chekka qishloqlarining biriga ishga yuborishadi. Quvg'in va ta'qiblar ta'sirida R. Inog'omov matbuot orqali tayba-tazarru mazmunidagi «ochiq xat»i bilan chiqadi.

Inog'omovning qarashlari xususida Mustafa Cho'qayev quyidagi fikrlarni bildirgan: «...Biz ruslarga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lishni istamaymiz. Mana shu haqiqatni kommunist bo'lishga shoshilgan turkistonlik yoshlar anglay boshladi. R. Inog'omov boshliq guruh o'zbeklarga o'z-o'zini boshqarish huquqini berish, Turkiston ustidan O'rta Osiyo byurosi nazoratini bekor qilinishini talab qilgan».

«Qosimovchilik» – 1929-1930-yillarda milliy an'anaviy sud va huquq sohasidagi qadriyatlarni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan vatan-

parvar ruhdagi huquqshunos mutaxassislarni mustabid sovet tuzumiga majburan bo'ysundirish yo'lidagi (repressiya) qatag'onga qarshi harakat bo'ldi.

1929-yilda O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimovning «qosimovchilik» deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlanadi.

S. Qosimov, B. Sharipov, sudyalar M. Mirzokirov, I. Xo'jayev, sud idorasi xodimi Spiridonov ustidan 1930-yilning martida boshlangan sud jarayoni natijalari oldindan tayyorlangan yolg'onga aylantirilgan edi. Davlat va jamoat ayblovchilari S. Qosimov va maslakdoshlarining huquqiy jinoiy ishlarini isbot qila olmadilar. Biroq, ularning Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan «Turk odami markiziyati» partiyasi bilan aloqalari, S. Qosimovning Sulton Segizboyev va advokat Ubaydulla Xo'jayev (Asadullaxo'jayev), Yaponiyadagi Turkiston milliy qo'mitasining muxtor vakili (aslida bunday qo'mita bo'lmagan) Hasanxon Qori Karimov bilan do'stona munosabatda bo'lganligi bir necha marotaba esga olindi. S. Qosimov va uning tarafdorlari «bosmachilar»ni qo'llab-quvvatlashda, «aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar» a'zolari bilan aloqa bog'laganlikda, islom dinini himoya qilishda ayblandilar. Holbuki, S. Qosimov va B. Sharipov o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida tub millat manfaatlarini imkoniyat doirasida himoya qilishgan edi. S. Qosimov tergov va sud jarayonida SSSR Oliy sudi tomonidan O'zbekistonning suverenlik huquqi va milliy manfaatlari poymol qilinayotganligini ochib tashlashdan cho'chimadi.

1930-yilning 22-iyunida hukm e'lon qilinadi. Ularning hammasi yot g'ina manfaatlarini himoya qilganliklarida, Sharipov esa bosmachilarga faol yordam byerganlikda ayblanadi. Katayan so'nggi sud jarayonida: «... adolatli qonun g'alaba qilsin va qon to'kilsin!» deb xitob qiladi. Qosimov va uning 3 tarafdori otib tashlanadi.

Bu jarayonning asl mohiyati ko'zga ko'ringan mahalliy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

Minglab ziyolilar yo'q qilinishining cho'qqisi 1937–39-yillarga to'g'ri keldi. 1937-yil dekabr – 1938-yil yanvarida XKS va O'zbekiston KP(b) MQning «O'zSSR Xalq Maorif Komissarligi tizimida ziyonchilik oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori e'lon qilingandan so'ng, xalq ta'limining barcha sohalarida, ayniqsa mahalliy tilda dars beriladigan maktablar, pedagogik bilim yurt-

lari va institutlarida o'qituvchi kadrlar va talabalarni «tozalash» ishlari avj oldirib yuborildi.

Ayni paytda istiqloq va erk kuychilari, o'zbek xalqining mashhur yozuvchilaridan Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir Stalin istibdodining begunoh qurboni bo'ldilar. 30-yillarda o'zbek adabiyotining Fitrat va Cho'lpon kabi «keksa» avlodi vakillarining erkin ijod etishiga yo'l qo'yilmadi. Fitrat 1938-yil 4-oktabrda «...sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy, panturkistik ishlar olib borganlikda» ayblanib, otib tashlanadi.

Cho'lpon 1932-yili F.Xo'jayevning maslahati bilan Moskvaga borib, SSSR XKS va SSSR xalqlari markaziy nashriyotida tarjimon bo'lib xizmat qilayotganida, Toshkentda **badriddinovchilar** ustidan sud boshlanadi. «Badriddinovchilik» – O'zbekiston SSR Oliy sudining prokurori Shamsuddin Badriddinov nomi bilan bog'liq ish. Sh. Badriddinovga «Milliy ittihad» tashkiloti a'zolari va bosmachilar bilan aloqa bog'lagan, Munavvar Qori va S. Qosimovning yaqin do'sti va ham fikri bo'lgan degan ayblar qo'yilgan Sh. Badriddinov va uning 5 tarafdori ustidan sud jarayoni 1932-yil 5-may – 15-iyunda Toshkentda bo'lib o'tadi. Ana shu sudda fosh etuvchi nutq bilan so'zga chiqqan Olimov ismli guvoh Cho'lponning ham nomini g'ayri niyatda tilga oladi. Bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishiga sabab bo'ladi. Cho'lpon o'z oldiga sovet hokimiyatini qurol bilan ag'darib tashlash va O'zbekistonda burjua davlatini barpo etish maqsadini qo'ygan, aksilinqilobiy millatchilik tashkilot a'zosi bo'lgan..., sovet hokimiyatiga qarshi kurash uchun milliy kadrlar tayyorlagan..., tashkilotning topshirig'iga muvofiq aksilsho'roviy-millatchilik ruhidagi she'rlarni yozgan. Xorijiy razvedka organlarining ayg'oqchilari Shohid Eson Musayev, Fitrat va G'ozzi Olim Yunusov bilan doimiy aloqada bo'lgan...» degan soxta aybnomalar asosida sovetlarning jazo organlari tomonidan 1938-yil 4-oktabrda qatl etiladi.

O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy XX asr 20-yillarida «O'tkan kunlar»dan keyin, «Mehrobdan chayon» asarlarini yaratib, o'zbek romanchiligini jahon madaniyati darajasiga olib chiqdi. Biroq sovet rejimi uning «O'tkan kunlar» asari kitobxonlarni sovet voqeligidan uzoqlashtiradi va unda millatchilik qarashlari ochiq aks etgan deb tanqid ostiga olishadi va bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishi

uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotimizning eng sara arboblari qatorida A. Qodiriy ham 1938-yil 4-oktabrda otiladi.

Taniqli o'zbek shoiri, dramaturg va tarjimon Usmon Nosir o'zining «Yurak», «Mehrim», «Norbo'ta», «Naxshon» va boshqa she'riy dostonlari bilan shuhrat qozongan. Shuningdek, u Dobrolyubov, Lermontov asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Usmon Nosir ham 1944-yilda sovet rejimining begunoh qurboni bo'lgan.

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, respublika NKBDsi «uchlik»lari tomonidan 1937–39-yillarda 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olinib, ulardan 6 ming 920 tasi otib tashlangan edi. Bu davrda millatning ilg'or taraqqiyparvar ziyolilarining qatag'on qilinishi oqibatida xalqimiz ularning noyob asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi.

Ma'lumki, sovet hukmronligi davrida din davlatdan ajratilgan, deb e'tirof etilgan, nomigagina vijdon erkinligi e'lon qilingan bo'lsa-da, aslida diniy e'tiqod goh oshkora, goh pinhona tarzda ta'qib-u tazyiqqa olinar edi. Holbuki jamiyatsiz din, dinsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas. Sovet tuzumida bunga mutlaqo e'tibor berilmas edi. Balki, iloji boricha, dinga, diniy tarbiyaga to'sinlik ko'p bo'lib, jamiyatdan ularni ajqib chiqarishga harakat qilingan. Sovetlarning e'tiqodi dahriylik edi. 30-yillarning boshi dindor va e'tiqodli kishilarga zo'rovonlik va siyosiy qatag'onlikning cho'qqisi bo'ldi.

Hatto Alloh taoloning uyi hisoblanmish masjidlar xudosislar uyiga, ateizm muzeyiga aylantirilgan. Ushbu siyosat oqibatida ko'plab ko'hna masjidlar uzoq vaqtgacha qarovsiz qolib ketdi, yangi masjidlar qurish to'g'risida esa hatto so'z bo'lishi mumkin emas edi. Bu davrda O'zbekistondagi diniy ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. Inson huquqlari amalda poymol etildi. Qamoqxonalarda mahbuslar shafqatsiz jismoniy jazolarga mahkum etildi.

Xulosa qilib aytganda XX asr 20-30-yillardagi mustabid tuzumning qatag'onlik siyosati jiddiy va fojiali oqibatlarga olib keldi. Milliy ziyolilarning jismonan yo'q qilinishi oqibatida milliy madaniyat to'lato'kis rivojlana olmadi. Millatning aql-idrokli kishilari mahv etilgach, hamma «yo'l boshchi»ning itoatkor quliga aylantirildi. Shunday qilib, har qanday o'zgacha fikrni kuch bilan bo'g'adigan, ommaviy o'z boshimchalik va zo'rlik bilan Vatanga sodiq necha o'n minglab kishilarni qirib tashlagan mustabid tartibot qaror topdi va kuchaya bordi.

6. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston.

Insoniyat juda ko'plab urushlarni boshidan kechirgan bo'lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 mln.dan ortiq kishining yostig'ini quritgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939-yil sentabr – 1945-yil sentabr) davom etgan bu urush er sharining 80% aholisi joylashgan hududni o'z ichiga olgan 61 ta mamlakatni qamrab oldi.

Ikkinchi jahon urushini Angliya, Fransiya va SSSR kabi yirik davlatlar o'rtasidagi ixtiloflar, xususan, paydo bo'lgan dastlabki damlaridanoq tashqi siyosat strategiyasi «jahon proletar inqilobi» mafkurasiga tayanib, butunjahon kommunistik imperiyasini tuzishga qaratilgan sovet davlati hamda Germaniya va Yaponiya kabi agressiv kuchlarning dunyoga hukmron bo'lish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushning asosiy aybdorlari jahonga hukmronlik qilish da'vosi bilan maydonga chiqqan Adolf Gitler va Iosif Stalin yurgizgan agressiv siyosat bo'ldi. Fransiya va Angliya siyosiy yetakchilarining javobgarligi shundan iborat bo'ldiki, ular bolshevizm xavfiga qarshi turuvchi kuchni tashkil qilish g'oyasi bilan Germaniyada gitlerchilar partiyasining mustahkamlashuviga yordam beribgina qolmasdan, Avstriyaning Germaniya tarkibiga qo'shib olinishiga (1938 y. mart) va Myunxen bitimiga (1938-yil sentabr) yo'l ochib berishdi. Bu esa, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

30-yillar oxirlarida xalqaro keskinlikning va Ikkinchi jahon urushining boshlanishida Stalin boshliq sovet rahbarlari kapitalistlarni o'zaro urishtirib, ularning kuchi kamayishi bilan qizil armiya kuchlarining qaqqshatqich zarbasini berishga intilishlari va aynan shu maqsadda 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan 10-yil muddatga o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomasi ularning javobgarliklarini tashkil qiladi. Sovet-german bitimining maxfiy qo'shimcha bayonnomasiga ko'ra, Germaniya bilan SSSR ta'sir doiralarini bo'lib olishgan edi. Ularning manfaatdor hududlari chegarasi Polshadan o'tgan bo'lib, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya hududlari hamda Boltiqbo'yi mamlakatlari SSSR ta'sir doirasidagi hudud ekanligi Germaniya tomonidan tan olingan edi.

Eng so'nggi tarixiy tadqiqotlar «avgust bitimi» mamlakat xavfsizligini mustahkamlab, sovet-german urushining boshlanishini orqaga sur-

gan emas, balki, ikkinchi jahon urushini va unga SSSR ning tortilishini tezlashtirgan hujjat bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki, Germaniya davlatining ham, Sovet davlatining ham strategik maqsadlarini aks ettirgan bu shartnomaga muvofiq Germaniya bilan SSSR Polshaga bir vaqtda qo'shin kiritishlari lozim bo'lgan. Shunga ko'ra 1939-yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga bostirib kirdi. 3-sentabrda esa Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildilar hamda Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Natijada Germaniya ikki frontda urush holatida bo'lib qoldi. Gitler jahon jamoatchiligi ko'z o'ngida halokatli urush yong'inining asosiy aybdori bo'lib namoyon bo'ldi. Stalin esa aynan shuni kutgan edi. U sovet qo'shinlarini 17-sentabrdagina Polsha hududlariga kiritishni boshladi va Sharqiy Yevropaning «xalokori» sifatida G'arbiy Belorussiya erlarini bosib olib, keyinroq rasmiy ravishda SSSR ga qo'shib oldi.

1939-yil oxiri – 1940-yil boshlarida bo'lgan sovet-fin urushi natijasida Finlandiya Leningrad va Murmansk oralig'idagi o'z erlarini SSSRga berishga majbur bo'ldi. Sovet davlati 1940-yil iyunda Estoniya, Latviya va Litva davlatlarini bosib olib, avgust oyida o'z tarkibiga kiritdi. O'z hududlarini bunday kengaytirish siyosati Germaniya va SSSRni 1939–1940-yillarda yanada yaqinlashtirdi. G'arbiy Yevropada fashistlar Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg kabi davlatlar poytaxtlarini bosib olganda, sovetlar hukumati nemis qo'mondonligini tabriklab borgan.

Kapitalistlar o'zaro urush natijasida zaiflashishini kutayotgan Stalin boshliq sovetlar hukumati bir zarba bilan Yevropani sovetlashtirishga tayyorlanar, buni zimdan his qilgan Gitler hukumati Stalindan xavfsirar, ularning har biri «hujum qilmaslik haqidagi bitim»ini o'zi uchun qulay bo'lgan paytda bekor qilishni oqilona ish deb o'ylandilar. Aynan shu narsa ikkita «do'st» davlat o'rtasidagi muqarrar urushni tezlashtirdi.

1941-yil 22-iyun yakshanba kuni tongotarida avgust shartnomasini buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR ga hujum boshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari-Italiya, Finlyandiya, Bengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo'lgan barcha respublikalar shu jumladan, O'zbekiston xalqlari uchun og'ir sinovlar vaqti va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig'ilishlar tashkil qilindi. 1941-yil 22-iyundayoq Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab o'zlarini Vatan himoyasiga safarbar qilingan deb hisoblashlarini bildirishdi. 23–24-iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Nukus va boshqa shaharlardagi yig'ilishlarda Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishga shay ekanliklarini bildirgan o'zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko'ngilli sifatida jo'natishlarini so'rab arizalar bera boshladilar.

Urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o'zbekistonliklarning o'z vatanparvarlik burchlarini, har bir urush insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini yuksak darajada anglab, urush olovini yoquvchilarga qattiq nafrat bilan qaraganliklarini ko'rsatadi. Chunki, boshlangan urush yuqori hokimiyat rahbarlari orasida sarosimalikni keltirib chiqargan bo'lib, faqat 29-iyundagina Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko'rsatmalar jo'natib, unda urush ahvolni keskin o'zgartirib yuborganligi, Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat'iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilib, keyinroq esa, «hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!» chaqirig'i talab darajasiga ko'tarilgan edi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq sovet xalqi – o'zbekistonliklar ham bosqinchilar ustidan g'alabaga erishishga butun kuchlarini baxshida etishdi. O'zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada his qilgan o'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRni emas, eng avvalo O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi. Chunki, o'zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati, front ortidagi fidokorona mehnati mustabid davlat mashinasining tazyiqi, erksiz harakat tarzida emas, balki ongli, asl vatanparvarlikning manbai bo'lgan Vatanga muhabbat tuyg'usining yuksak darajadagi ko'rinishi bo'ldi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiy harbiy safarbarlik e'lon qilindi. O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik

hosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Hosh qo'mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziya tuzilib frontga jo'natildi. Umuman, urush boshlarida 6,5 mln. kishidan iborat bo'lgan O'zbekiston aholisining 1.433.230 nafari urushga safarbar etilgan. Ularning ko'pchiligi mardlik namunalari ko'rsatib, jungovar orden va medallar bilan taqdirlandi.

Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch chora-tadbirlar ko'rishni talab qildi. Xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish umumiy dasturning tarkibiy qismi bo'ldi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlariga bo'ysundirildi. Respublika sanoat korxonalarini urush boshlanishi bilanoq qayta qurilib, mudofaaga zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazildi. 26-iyundan boshlaboq mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida ish kuni 12–14 soatga cho'zilardi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilar sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1-3 ga oshirish imkonini berdi.

Ishchi kuchining yetishmasligi natijasida idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb etildi. 1941-yil dekabrda harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar deb e'lon qilindi va mazkur korxonalariga biriktirib qo'yildi. Korxonalaridan o'zboshimchalik bilan kyetib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida – O'zbekistonda ham «yuqoridan» ortiqcha qistovsiz ozodlik va mustaqillik yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

O'lka aholisi an'anaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko'rsatish edi. O'zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg'armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etishdi. Mudofaa jamg'armasiga ishchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, «kommunistik shanbalik»larda ishlab topilgan pul-lar, fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi. Urushning dastlabki kunlarida respublika aholisidan 30 mln. so'mlik miqdorda

pul, obligatsiya va qimmatbaho buyumlar to'plandi. O'zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg'armasiga jami 649, 9 mln. sum pul va 55 kg.ga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topshirdi. Bu jamg'arma hisobiga tank kolonnlari, evakuatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo'natildi.

Aholi tomonidan issiq kiyimlar to'plash va tayyorlash keng avj oldi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida 421,5 mingta turli issiq kiyimlar frontga yubordi. Jangchilar uchun to'plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi Y. Oxunboboyev (1885–1943) rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralariga yetkazib berdi.

O'zbek xalqining bag'rikengligi urush yillarida namoyon bo'ldi. Rossiyaning bosib olingan rayonlardan – Ukrainadan, Belorussiyadan hammasi bo'lib bir mln.dan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Aholi ularga turar joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ular poyafzal, kiyim bosh to'pladi. Ularga 135 ming kv.m turar joy maydoni ajratib berildi. Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 1941–1942-yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etilib, joylashtirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941-yil 25-noyabridan 1942-yil oktabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar 8 bolani o'z oilalariga olishdi. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945-yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. 1943-yilda bolalar bog'chalarida

tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mexr-muhabbatini, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

Urush yillarida O'zbekistonga frontda yarador bo'lgan jangchilar ko'plab keltirildi. Urush boshlangandayoq respublika hukumati hospital bazasini tashkil qilishga kirishgan edi. 1941-yil 1-oktabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 hospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi.

Yashin tezligida urush olib borish rejasiga ega bo'lgan nemis-fashist qo'shinlari shiddat bilan Sharqqa qarab harakat qilardi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga – Sharqqa ko'chirish boshlandi. O'rta Osiyo respublikalariga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 104 tasi O'zbekistonga joylashtirildi. Bu korxonalarni joylashtirish, montaj qilish va g'oyat qisqa muddatlarda ishga tushirish vazifasini tashkiliy jihatdan ta'minlash ishi bilan maxsus komissiya shug'ullandi. 1941-yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942-yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

Elektr energiyasi va yoqilg'i ishlab chiqarish, ko'mir, qora va rangli metall bazalarini tashkil etish, kimyo sanoatini rivojlantirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni ko'paytirish urush yillaridagi O'zbekiston sanoatining asosiy yo'nalishlari edi. Harbiy ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib borish zarurati sanoat qurilishini ko'paytirishni talab qilar edi. Asosiy qurilish ishlari hashar usuli bilan olib borildi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 7 ta yirik va 30 ga yaqin kichik GESlar qurildi. Ayniqsa, O'zbekistonning eng yirik gidroelektrostantsiyasi bo'lib qolgan Farhod GESi qurilishi umumxalq qurilishga aylanib, 10 oy ichida Sirdaryo to'silib, GES ishga tushirildi. Salar, Quyi Bo'zsuv, Tovoqsoy, Oqqovoq, Oqtapa, Qibray GESlari ham muddatidan oldin qurilib ishga tushirildi. Bu respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirdi. Elektr energiyasi 1940-yilga qaraganda 1943-yilda 3,5 barovarga oshdi, 1945-yilda esa 1187 mln. kilovatt soatga ko'paydi.

Respublika ishchilari front orqasidagi og'ir mehnatda haqiqiy jasorat namunalari ko'rsatishdi. Sharoit og'ir, oziq-ovqat yetishmas, siyosiy

vaziyat og'ir, berilgan rejani qattiq talab qilish ko'pchilikni toliqtirar, ba'zilar bardosh berolmasdan halok bo'lishardi. Shunga qaramasdan, 1943-yilga kelganda SSSR harbiy ishlab chiqarishda Germaniyaga yetib, hatto o'tib kyetishida mamlakat ichkarisidagi ishchilarning xizmati juda katta bo'ldi. Urush yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan harbiy sanoat kopleksi tomonidan front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotlar, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, dala radiostantsiyalari uchun 3 mln. radio lampa, qariyb 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom kir yuvish poyezdi, 2200 dona ko'chma oshxona va 7518,8 mingta gimnastyorka, 2636,7 mingta paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar. Bu o'zbekistonliklarning fashist-bosqinchilarini tor-mor etishga, g'alabaga qo'shgan katta hissasi bo'ldi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushirilishi natijasida 1945-yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barabar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 baravar, ko'mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 ko'paygan.

Markaz ko'rsatmalari bilan asosan paxta ekishga moslashtirilgan, qishloq xo'jaligidagi yaxshi texnika vositalari, otlar front uchun olib kyetilgan, tajribali dehqonlarning ko'pchiligi front va front orqasidagi ishlarga jalb qilingan bir paytda yuqoridagi vazifani bajarish yanada mushkullashar edi. Stalincha ma'muriyat O'zbekistonga oziq-ovqat bilan «o'z-o'zini ta'minlash» vazifasini qo'yar ekan, mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim bo'lgan xomashyo-paxta yetishtirishni kamaytirmaslikni talab qildi. Buning ustiga dehqonlarni qishloq xo'jalik mashinalari bilan ta'minlash to'xtalishi bilan bir paytda mexanizatorlarning soni ham qisqardi, ya'ni urush arafasida O'zbekistonda 27 888 mexanizator bo'lgan bo'lsa, 1942-yilda ularning soni 2775 kishiga tushib qoldi, keyinchalik yanada kamaydi. Ular o'rni ayollar, bolalar, keksalar mehnat qila boshladilar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish, suvdan foydalanishni yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Urush yillarida hashar yo'li bilan O'zbekistonda Shimoliy Toshkent, yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on

kanallari, Rudasoy, Kattaqo'rg'on suv omborlari qurilib ishga tushirilishi yangi erlarni o'zlashtirishga imkon berdi. 1942–1943-yillarda O'zbekistonda sug'orilib ekin ekiladigan yerlar maydoni 546 ming gektarga ko'paydi.

Urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida ipakchilik, qorako'ldchilik alohida ahamiyat kasb etgan bo'lsa, meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish ham salmoqli o'ringa ega edi. 1942–1943-yillarga kelganda sabzavot maydonlari urush arafasiga qaraganda 12,5 ming, uzumzorlar maydoni 5,1 ming gektarga ko'paydi.

Urush yillarida O'zbekiston qishloq mehnatkashlari 4 mln. 148 ming t. paxta, 82 mln pud g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming t. quruq meva, 159 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berish bilan dushman ustidan qilingan g'alabaga munosib hissa qo'shgan bo'lsa, nemis-fashist okkupantlaridan ozod qilingan hududlarda qishloq xo'jaligini tiklash ishlari uchun texnika va ishchi kuchlari bilan yordam berib, o'zbek xalqi o'zining insonparvarlik, do'stlik, birodarlik tuyg'ularini namoyon etdi. 1943-yilda O'zbekistondan ozod qilingan tumanlarga 1152 ta traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta plug, 379 ta seyalka kabi texnikalar, Ukraina va Stavropol o'lkasiga 1596 nafar kombaynchi, 41 nafar mexanik, 30 nafar agronom, 11 nafar buxgalter yuborildi. RSFSR, Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo'yi respublikalarining xalq ho'jaligini tiklashda minglab o'zbekistonliklar faol ishtirok etdilar.

O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. «Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!» shioriga «labbay!» deb javob byergan ko'pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar. Ular orasida O'zbekistonning mashhur olimlaridan – U. A. Orifov, Ya. X. To'raqulov, I. Ismoilov, X. Usmanov va boshqalar bor edi. T. N. Qori-Niyozov, B. I. Romanovskiy, T. Z. ohidov, I. A. Raykova, O. S. Sodiqov kabi olimlar natijasi xalq xo'jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qilishdi.

O'zbek matematik, mexanik va astronomlari evakuatsiya, o'q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo'lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qilishdi. Bunda T. A. Sarimsoqov,

B. I. Ramonovskiy, M. Kamolov, N. N. Nazarov va boshqa olimlarning hissasi katta bo'ldi. Ularning ehtimollik nazariyasi va matematika statistikasi sohasidagi ijodiy izlanishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi.

Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarni qidirib topish, sanoatni zarur xomashyo bilan ta'minlash vazifalarini bajarishga katta e'tibor berishdi. O'zbekiston tog'lari va cho'llarida 1943-yilning o'zidagina 35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi.

O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari – tarixchilar, Sharqshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, iqtisodchilar va faylasuflar o'zlarining ijodiy mehnatlari bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, ommaga insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik g'oyalarini singdirishga qimmatli hissa qo'shdilar.

Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940-yilda tashkil etilgan SSSR FANing O'zbekiston filiali (O'zFAN), keyin 1943-yil noyabrda ochilgan O'zFA amalga oshirdi. O'zFA ning birinchi prezidenti qilib T. N. Qori Niyozov saylandi. Bu o'zbek xalqi hayotida muhim voqea bo'ldi. 1943–1945-yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O'zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'zFANing faoliyatida ko'chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o'ziga xos hissasi bo'ldi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekistonda Oliy va o'rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to'xtab qolmadi. O'zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko'chirib keltirilgan 31 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o'quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi.

O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'afur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruhlantirishdi.

Oybekning «Yovga o'lim!» she'ri, «Navoiy» romani, F. G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri, Hamid Olimjonning «Yigitlarni frontga jo'natish», «Jangchi Tursun», «Roksananing ko'z yoshlari» va boshqa asarlar urush yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalari.

A. Axmatova, I. Birta, S. Gorodetskiy, A. Deych, K. Zelinskiy, Ya. Kolas, N. Pogodin, A. Tolstoy, B. Yan kabi yozuvchi-shoirilar ham O'zbekistonda yashab, o'zbek adabiyotchilari bilan hamkorlikda ajoyib asarlar yaratishdi. Bunda respublika Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan H. Olimjonning xizmati katta bo'ldi. Dramaturgiya sohasida N. Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg'un va Sobir Abdullalar yozgan «O'zbekiston qilichi» va A. Umariyning «Qasos», Yashin va Sobir Abdullaning «Davron ota» kabi asarlari bilan birga Uyg'un va Izzat Sulton «Alisher Navoiy», Hamid Olimjon «Muqanna», Maqsud Shayxzoda «Jaloliddin Manguberdi», Oybek «Mahmud Tarobiy» kabi dramatik asarlarini yaratdilar, ularda o'zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

1941–1945-yillardagi urush davrida O'zbekistonda ta'sirchan vosita hisoblangan teatr va san'at ancha rivojlandi. Teatr va san'at arboblari frontning oldingi marralarida bo'ldilar. Bu davrda O'zbekistonda 35 ta mahalliy va 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko'rgazib, butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar va 6 667 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va kontsertlar ko'rsatdilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovoqli badiiy filmlarini yaratish bilan I. A'zamov, K. Yormatov, N. G'aniyev, S. Muhamedov kabi o'zbek rejissyorlari urush yillarida kinomotografiyani rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan «Nasriddin Buxoroda», «Tohir va Zuhra» kabi filmlar «O'zbekfilm»ning oltin fondiga aylandi.

Ikkinchi jahon urushi frontlarida o'zbekistonlik jangchilar o'zlarining botir, mard, qo'rqmaslik xislatlarini namoyon qilib qahramonlik namunalari ko'rsatdilar.

Sovet siyosiy rahbarlarining razvedka ma'lumotlari yetarli bo'lishiga qaramasdan 1941-yilda Germaniya SSSRga hujum qilmasligiga ishonchi, G'arbiy frontda charchab qolgan kapitalistlar ustiga hujum qilish maqsadida chegarada qo'shin va qurollarni to'plash bilan mudofaa inshootlarini barpo etmaganligi, 1937-yilda armiyadagi ommaviy qatag'onlar natijasida sovet qurolli kuchlarining jangovar qobiliyatiga berilgan zarbaning o'rni to'ldirilmaganligi, qo'mondonlar

kasbiy tayyorgarligining past darajadaliği sababli urushning dastlabki kunlarida shiddat bilan bostirib kirgan dushman qo'shinlari to'xtatib qolinmadi va ko'plab kishilarning qurbon bo'lishiga sabab bo'ldi.

Chegara qo'shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida o'zbekistonliklar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi. Ular o'z zastavalarini himoya qilishda qahramonlik namunasini ko'rsatib, oxirgi o'qlari qolguncha dushmanga qarshi jang qildilar. Ular halok bo'lganlaridan keyingina dushman zastavalariga kirish imkoniga ega bo'ldi. Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar Sharipov, Brest qal'asi mudofaasida Ahmad Aliyev, Doniyor Abdullayev, Bobokomil Kashanov, Uzoq O'tayev, Nurum Siddiqov, Madamin Hojiyev, E. Ya. Liss, Rahimboy Arslonboyev, Sayidahmad Boytemirov, F. I. Layenkov kabi o'zbekistonlarning ko'rsatgan jasoratlari Vatan himoyachilarining qahramonona jasoratining ramzi bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushida Smolensk, Odessa, Leningrad, Moskva mudofaasatlari sovet jangchilarining haqiqiy qahramonlik mo'jizalari bo'ldi desak, xato qilmaymiz. Bu janglar dushmanni to'xtatib qolish imkonini berdi. Gitlarning yashin tezligida urush olib borish rejasi barbod bo'ldi.

Moskva mudofaasiga yetib kelgan, Turkiston harbiy okrugida tuzilgan, general-mayor I. B. Panfilov qo'mondonlik qilgan, tarkibida 180 dan ortiq harbiy va harbiy siyosiy bilim yurtlarini tamomlagan komandirlari bo'lgan 316-o'qchi diviziya Bolokolamsk, Dubosekovo, Novo-Petrovsk yonidagi janglarda qahramona kurashdi. O'zbekistonlik Abdulla Tog'ayev, Mamadali Madaminov, Leytenant Pilyugin boshliq to'qqizta jangchi jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva uchun olib borilgan janglarda o'zbek xalqining qahramon qizlarining jasorati namunasini ko'rsatgan Zebo G'aniyeva Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi. Moskva ostonasida fashist qo'shinlarini tormor qilishda ko'rsatgan jasoratlari uchun 1753 o'zbekistonlik jangchi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi. S. Qosimxo'jayev Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Moskva yonidagi g'alaba sovet rahbarlarida 1942-yildayoq urushni yakunlash, mamlakatni ozod qilish fikrini vujudga keltirdi va butun front bo'ylab hujum qilish haqida buyruq berildi. 1942-yildagi qishki hujumlarda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatib, mahorat bilan jang qilgan Qo'chqor Turdiyevga 1942-yil may oyida Sovet Ittifoqi

Qahramoni unvoni berildi. Jangchilarimizning jasorati hali o'z harbiy kuchining asosiy qismini taqriban qo'ldan qo'yib qo'ylab dushman qo'shinlarini tamomila yo'q qilishga, sovet rahbarlarining xatolari o'rmini qoplashga kamlik qilar edi. Buning uchun dushmanlikdan kuchli harbiy-texnika yarog' va taktika kerak edi.

Volga bo'yidagi Stalingrad mudofaasini yoqib, dushman ustidan katta g'alabani qo'lga kiritilishi urushning borishida tub burilishga asos bo'ldi. Bu janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun 2733 ta o'zbekistonlik jangchilar «Stalingrad mudofaasi uchun» medaliga sazovor bo'ldi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qo'mondonligidagi diviziya jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, 8 mingdan ortiq dushman jangchilarini qirib tashlashdi.

Bu diviziya yurtdoshimiz qo'mondonligida Sharqiy Prussiyagacha jangovar yo'lni bosib o'tdi. Keyinchalik Polsha yerlarini ozod qilishda Sobir Rahimov rahbarligidagi 37 gvardiyachi Rechitsk o'qchi diviziyasi alohida ajralib turdi. Dantsig shahriga birinchilardan bo'lib kiritildi. Og'ir yarador bo'lgan S. U. Rahimov 1945-yil 25-martda halok bo'ldi. 1965-yil 6-maydagina tarixiy haqiqat tiklanib, S. U. Rahimovga o'limidan so'ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonini berildi.

1943-yilda Oryol-Kursk yo'nalishi bo'yicha olib borilgan jiddatli janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun A. Shukurov, B. Shalandin, M. Abdullin, A. Solihovlar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi. Dnepri kechib o'tishdagi qahramonliklari uchun 100 ga yaqin o'zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Ulardan J. Usmonov, B. Nabiyev, X. Aminov, Sh. hoimov jasoratlarini alohida qayd etish mumkin.

1944–1945-yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining G'arbiy viloyatlaridagi partizanlik otryadlarida faoliyat ko'rsatgan o'zbekistonlik jangchilar faoliyati Ikkinchi jahon urushi tarixi sahifalariga bitilgan bo'lib, ularning nomlariyoq dushman ko'ngliga qo'rquv solgan edi, Bular orasida M. Topiboldiyev, J. Otoboyev, I. Musayev, A. Hakimov, I. Qosimov va boshqalarning mardlik namunalarini ta'kidlash mumkin.



**General Sobir
Rahimov**

1944-yil kuziga borib SSSR chegaralari butunlay tiklandi, sovet qo'shinlari Yevropa mamlakatlariga ozod qiluvchi sifatida kirib bordi. Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Bengriya, Chexoslovakiya, Avstriyani ozod qilib, Berlinni egallashda sovet qo'shinlari tarkibida o'zbekistonlik jangchilar ham o'zlarining baynalminallik tuyg'ularini namoyon qilib, Yevropa xalqlarining fashistlar asoratidan ozod bo'lishlariga o'z hissalarini qo'shishdi. Bu mamlakatlarni ozod qilishdagi jasoratlari uchun B. Boboyev, P. Nurpeksov, T. Nazarov, A. Rahimov, M. Fayozov va boshqalar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni, 2430 nafar hamyurtimiz «Budapeshtni ozod qilish uchun» medali, 1706 kishi «Berlin olingani uchun», 109208 kishi «Germaniya ustidan g'alaba qozonganligi uchun» medali bilan taqdirlanishdi.

O'zbekistonlik jangchilar Yevropadagi qarshilik ko'rsatish harakatlari faol ishtirok etib, nemis-fashistlari ustidan qozonilajak g'alabaga va Yevropa xalqlarining ozod bo'lishlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishdi.

Polsha, Yugoslaviya, Italiya, Fransiya, Norvegiya, Avstriya, Germaniya davlatlarida tashkil topgan ozodlik armiyalari safida, partizanlar tuzilmalarida ishtirok etgan, 40 mingdan ortiq sovet fuqarolarining orasida o'zbekistonliklar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi. Masalan, Yugoslaviya xalq ozodlik armiyasida 260 dan ko'proq o'zbekistonlik bo'lgan. L. Kolantarov, U. Xolmaboev, A. Mamajonov, O. Berdiev, R. Rahimov, H. Jabborov, H. Ismoilovlar qarshilik ko'rsatish harakatida faol ishtirok etgan hamyurtlarimizdir.

Hozirgi kunda «Turkiston legioni» to'g'risida turli fikrlar mavjud bo'lib, bu masala mufassal tadqiqotni talab qiladi. Ma'lumki, Stalin boshliq sovet hukumati Kommunistik Internatsional a'zolaridan, umuman chet el kommunistlaridan Yevropadagi mavjud siyosiy hukumatga muxolif kuch sifatida foydalangan. Gitler ham «oq» muhojirlardan sovetlarga qarshi kuch sifatida foydalanishga harakat qilib, 1941-yil dekabrda asir olingan sovet generali Lukinga harbiy asirlardan stalinizmga qarshi kurash olib borishni tashkil etuvchi ruslarning muxolif hukumatini tuzishni taklif etadi. Bunday taklif 1941–1942-yillar bo'sag'asida milliy vakolatxona tuzish uchun intilayotgan quvg'indagi Turkiston milliy ziyolilariga ham qilindi. Natijada 1942-yil noyabrda Bali Qayumxon rahbarligidagi «Turkiston milliy qo'mitasi» tashkil topdi. Bu qo'mita 1941-yil kuzida tashkil topgan Turkiston bataloni

asosida tuzilib, harbiy asirlardan «Turkiston legioni»ni tashkil qilish to'g'risida 1942-yil dekabrda Bermaxtning Oliy qo'mondonligi rasman farmoyish e'lon qildi. Shuningdek, bu davrda «Arman», «Gruzin» legionarlari ham tuzilib, A.A. Blasov rahbarligidagi rus ozodlik armiyasi tarkibiga kiritildi. Lekin bu, «milliy tuzilmalarga urushning oxiriga kelib 1 mln. ga yaqin kishi yozilgan bo'lsa ham, ular gitlerchilar kutganday qat'idor kuchga» aylanmadilar. Chunki, bu tuzilmalarga ko'pincha majburan yozib qo'yilgan harbiy asirlar, frontga yuborishsa, o'zimiznikilar samonga o'tib olamiz degan umid bilan qarar, buni sezgan nemislar har bir rotaga asosan nemis zobitlarini qo'yishgandi.

Huqiqatdan ham «Turkiston legioni»da tashkil topgan yashirin guruhlilar qarshilik harakati jangchilari va partizanlar bilan aloqa bog'lab, nemis-fashistlarning bir qancha rejalarini barbod qilganlar. 1943-yilda Desna daryosi yonidagi Kupchixa qishlog'i hududida jang qilayotgan 74-diviziya tomoniga Abdulla Otaxonov boshchiligida to'la qur'ollangan, 370 kishidan iborat Turkiston bataloni o'tgan. Keyinchalik sovet qo'mondonligining ishonchsizligi bilan ular frontdan chetlatiladi. 1944-yilda Chernogoriyaga yuborilgan «Turkiston legioni» birlashmalari fashist komandirlarini o'ldirib, tog'dagi partizanlar oldiga chiqib kiyetishgan. O'zbekistonliklar partizan otryadlari va qarshilik ko'rsatish harakatlari faol qatnashib, dushmanni tor-mor qilishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Urushning dastlabki kunlaridayoq sovetlar davlatida parokandalik avj olib kiyetishiga umid bog'lagan gitlerchilar turli xil milliy tuzilmalar tuzish, sovet xalqlari orasida soxta tashviqotlar olib borib bunga asos hozirlashga intilgan bo'lsa, Stalin boshliq sovet siyosiy rahbarlari ham milliy kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xalqlarni majburan ko'chirish, butun-butun xalqlarga «sotqin» tamg'asini bosishdek choralarni amalga oshirishgan. Shunday tamg'a bilan 1944-yil mamlakat bo'ylab 2.230.500 kishi majburan ko'chirilgan. Shulardan O'zbekiston hududiga Qrimdan – 151604 qrim tatarlari, Gruziyadan – 110 mingga yaqin mesxeti turklari, Shimoliy Kavkazdan 20 mingdan ortiq ingush, 4,5 ming arman va greklar ko'chirib keltirilgan.

Ular NKBD nazoratida, repressiv rejimga qat'iy rioya qilgan holda yashashga mahkum etilib, milliy davlat tuzilmalari va konstitutsion huquqlaridan mahrum etilgan edi. Ko'chirib keltirilgan joylardagi mahalliy aholi bilan bog'lanish kabi huquqlardan ham mahrum qilingan

edilar. Lekin o'zbekistonliklar ko'chirib keltirilganlarni o'z uylariga qabul qilib, oxirgi burda nonlarini bo'lishib yeb, o'zlarining yuksak ma'naviyati, buyuk insonparvarligini namoyon qildi.

Sobiq ittifoq xalqlarining fidokorona mehnatlari, jangchilarning qahramona jasoratlari sabab, nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, 43 kuni kam 4-yil (1941-yil 22 iyun – 1945-yil 9-may) davom etgan urush g'alaba bilan yakunlandi. Lekin ikkinchi jahon urushi davom etardi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo'lgan kelishuv va Sharqda xavf bo'lib turganligi sababli 1945-yil 9-avgustga o'tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2-sentabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar o'zbekistonlik jangchilar ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag'lubiyatga uchratishda, Yaponiyaning taslim bo'lishida o'z hissalarini qo'shishdi. N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko'plab hamyurdoshlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovar faolliklarini namoyish etishdi.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlanishida o'zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari katta hissa bo'lib xizmat qildi. 120 mingdan ortiq o'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldi. Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga ega bo'lgan 300 dan ortiq jangchidan 75 tasi o'zbek o'g'lonlari edi. O'zbekistonlik 82 ta jangchi «Shuhrat» ordenining uchala darajasi bilan taqdirlandi. Italiya, Angliya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslavakiya, Vengriya kabi mamlakatlarining ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etadi.

O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. 1939–1945-yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi halok bo'ldi, 132.670 kishi nogiron bo'lib qaytdi.

Urush yillarida asirga tushgan 6,2 mln. kishidan 4 mln. kishi halok bo'lgan, 1 mln. kishi «Vlasovchilar»ga qo'shilgan, tirik qolgan 1 mln. kishi esa nemis lagerlarini sovet lagerlari bilan almashtirishga majbur bo'ldilar. Ular orasida nohaq jazolanganlardan yurtdoshlarimiz ham bor bo'lib, S. Abdullayev, L. Popov, K. Abramovich, P. Rustamov va boshqalar shular jumlasidandir.

Katta qurbonlar evaziga bo'lsa ham o'zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib hissa qo'shdilar. Urushda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari

tuzildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va motamsaro ayol yodgorlik majmuasi tiklandi. Mustaqillik yillarida 9-may o'tgan Vatan qahramonlariga hurmat va e'tibor ramzi sifatida «Xotira va qadrlash kuni» deb e'lon qilindi.

Tayanch so'zlar

Sovet, Turkiston, mustabid, hukumat, qurolli qarshilik, muxtoriyat, Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xiva, BXSР, XXSR, Turkiston ASSR, Yangiiqtisodiy siyosat, qatag'on, «Qo'shchi», yer-suv islohoti, kolxozlashtirish, quloq, sanoatlashtirish, «Hujum» harakati, «Madaniy inqilob», «O'n sakkiz lar guruhi», «Inog'omovchilik», «Qosimovchilik», «Badriddinovchilik», Ikkinchi jahon urushi, armiya, safarbarlik, harbiy, jangovor, front orti, fashizm, xotira, evakuatsiya, natura, punkt, gospital, korxonа, sanoat, fan, madaniyat, adabiyot, truppa.

Savol va topshiriqlar

1. 1917-yil fevral-oktabr oralig'idagi ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday bo'lgan?
2. O'lkada sovet hokimiyatiga mahalliy aholining munosabati qanday edi?
3. «Harbiy kommunizm siyosati» va uning mohiyati nimadan iborat edi?
4. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat haqida nimalarni bilasiz?
5. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) va uning mohiyati haqida so'zlab bering.
6. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish aslida qanday kechgan edi?
7. Sovet hukumatining O'zbekistonda amalga oshirgan «Madaniy inqilob» siyosati mohiyatini tushuntirib bering.
8. Sovetlarning qatag'onlik siyosati O'zbekistonda qanday kechgan edi?
9. Ikkinchi jahon urushining sabablari nimada edi?
10. O'zbek xalqining bag'rikengligi nimalarda namoyon bo'ldi?
11. O'zbek xalqining front ortidagi fidokorona mehnati haqida so'zlab bering.
12. Urush yillarida O'zbekiston sanoati qay ahvolda bo'lgan?
13. O'zbekistonlik jangchilarning frontdagi jasoratlari haqida so'zlab bering.
14. Urush yillaridan fan va madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?

10-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov I. Istiqolga intilgan qalblar nidosi. – Toshkent, 1995.
2. Ibroxim A., Sultonov X., Jurayev N. Vatan tuyg'usi. – Toshkent: «O'zbekiston», 1996.
3. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidlari va saboqlari. – Toshkent: «Sharq», 2000.
4. O'zbekiston tarixi. R.H. Murtazayevaning umumiy taxriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2005. 338-372-betlar.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: «Sharq», ikkinchi kitob, 2000.
7. Alimova D.A., Golovanov A.A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarini. – Toshkent: «O'zbekiston», 2000.
8. Shamsutdinov R. Qatag'on qurbonlari. Ikkinchi kitob. – Toshkent: «Sharq», 2003.
9. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. – Toshkent: «Sharq», 2003.
10. Ишанхаджаева З. Р. Репрессивная политика советской власти и культуры Узбекистана: трагедия выживаний (1925–1953 гг.). – Ташкент: «Tafakkur», 2011.
11. Karimov Sh. G'alabaga qo'shilgan hissa. Toshkent: 1995.
12. Shamsutdinov R. T. O'zbekistonliklar Stalingrad janglarida. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonliklarning tarixiy hissasi (1941–1945) Toshkent: «Fan», 1996.
13. Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победы над фашизмом. Ч.2 Самоотверженный труд во имя победы. Самарканд, 2006.
14. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Mualliflar jamoasi. Ikkita kitob. – Toshkent: «O'zbekiston». 2019.

11-mavzu. O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosati va uning oqibatlarini (1946–1991)

Reja:

1. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti.
2. Respublikada 1946–1990-yillardagi ma'naviy-madaniy qaramlik va uning oqibatlarini. Qatag'onlikning yangi to'liqini.
3. O'zbekistonda demografik jarayonlar. Soxta «urbanizatsiyalash-tirish». O'zbekistonda ekologik holatining og'irlashishi. Orol fojiasi.
4. O'zbekiston «qayta qurish» yillarida. O'zbekistonda qatag'onlikning yangi bosqichi. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» nomli soxta ishlar.
5. O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989–1991).

1. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayoti.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jaligining tinch qurilishga o'tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Urush davrida umumiy dushman fashizmga qarshi kurash antifashist davlatlar va xalqlarni birlashtirgan bo'lsa, urush tugagandan keyin bu ittifoqdagi davlatlar orasida ajralish yuz berdi va ikki o'rtada sovuq urushlar munosabati boshlanib ketdi.

Urushdan so'ng fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalqlari oldida harbiylashgan xalq xo'jaligini tinch qurilish yo'liga solish, uni urushdan oldingi darajaga etkazish va rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turardi.

Urush davridagi harbiy-iqtisodiy hamkorlik tajribasi urushdan keyingi vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda ham G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatdi. Lekin haddan tashqari mafkuralashgan sovet tizimi respublikalarni xorijiy mamlakatlardan «temir qo'rg'on» bilan ajratib, mamlakatni ortiqcha qi-yinchiliklar va qurbonliklarga mahkum etdi. Sobiq ittifoq boshqa mam-lakatlardan tiklanishning ilg'or tajribalaridan, chet el sarmoyalaridan

foydalanishni istamadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan «Marshall plani» asosida ajratilgan taxminan 50 mlrd. dollar Yevropa mamlakatlarining iqtisodini o'nglab, hayot darajasini ko'tarishga, ilg'or texnologiyalarni joriy etishda hal qiluvchi kuch bo'ldi. Sovet davlatining g'oyat mafkuralashgan iqtisodiy siyosati esa yakkalanib qoldi va bu xalqimizning boshiga ortiqcha kulfatlar olib keldi.

O'zbekiston urushdan keyingi yillarda o'z xalqining arzon kuchidan, boy xomashyo manbalaridan cheksiz ravishda foydalanishiga asoslangan, kompartiya chizib byergan besh yillik rejalarni bajarishga kirishdi. Bir tomonlama, Markaz manfaatiga bo'ysundirilgan Respublika iqtisodiyotini urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifani bajarishda o'zbek xalqining mehnatsevarligi, sabr-toqatli va tinchliksevarligi kabi fazilatlaridan foydalanildi.

Iqtisodiyot oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalar O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946-yil avgustida chaqirilgan 8-sessiyasida qabul qilingan 1946–1950-yillarga mo'ljallangan rejada belgilandi. Bunga ko'ra, xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3 mlrd. 900 mln. so'm kapital mablag' ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi. Elektr quvvati ishlab chiqarishga alohida e'tibor berildi. 5 yilda 8 ta yirik va o'rta hajmdagi elektrostansiyalar, shu jumladan 300 000 kv. soat kuchga ega bo'lgan Farhod suv elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya Sobiq Ittifoqda uchinchi o'rinda bo'lib, urushgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo'ldi.

Qisqa davr oralig'ida, 20-30-yillardagi «sotsializm qurish» azoblari, ayniqsa Ikkinchi jahon urush davri qiyinchiliklarini, mashaqqatlarini boshdan kechirgan O'zbekiston xalqi iqtisodni tiklash va rivojlantirish yo'lida ham hormay-tolmay mehnat qildi. Besh yilda sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 foizga ko'paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko'p edi. Sanoatning xalq xo'jaligidagi salmog'i 47,7 foizni tashkil qilgan edi. Shu yillarda Farhod, Oqqovoq-2, Bo'zsuv-2 elektrostansiyalari, jami 150 ta yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi.

O'zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti rejaları Ittifoq markazida ishlab chiqarilib, aksariyat hollarda mahalliy sharoit, ijtimoiy ahvol

hisobga olinmasdan iqtisodni bir tomonlama, ya'ni o'lkani xomashyo bazasi sifatida saqlab qolishga qaratildi. Sanoat, xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlari paxtachilikni rivojlantirishga bo'ysundirildi. Sovet hukumatining 1946-yil 2-fevraldagi O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risidagi qarori O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish uchun asos bo'ldi.

Iqtisodiyotni tiklash ishlari qishloq xo'jaligida ayniqsa, paxtachilikda qiyinchilik bilan o'tdi. O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish to'g'risida sovet hukumatining urushdan keyin qabul qilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan o'nlab qarorlari izchillik bilan amalga oshirilmadi, shuning uchun ham kutilgan natijalarni bermadi. 1947–1948-yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi. 1949-yildan boshlab ahvol birmuncha o'zgardi. 1950-yili 2 mln. 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnyerga yetdi. 1950-yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasiga 2200 so'm ya'ni avv.dan ikki baravar ko'p haq to'landi. Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarida ekin maydonining qisqartirilganligi oqibatida g'alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga yetmadi.

Iqtisodni rejali ravishda rivojlantirish bilan bir qatorda ba'zi ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qilindi. Jumladan, ish haqi oshirildi, harbiy soliq, kartochka tizimi bekor qilindi. Pul islohoti o'tkazildi, qisqartirilgan ish soati joriy etildi, kundalik iste'mol mahsulotlarining narxi arzonlashtirildi. Bu tadbirlar pulning xarid quvvatini oshirish imkonini tug'dirdi. Lekin shunga qaramasdan narx-navo hali ancha yuqori edi. 1950-yili O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari 1940-yilga nisbatan deyarlik ikki barobar qimmat edi.

Keng iste'mol mollarini ishlab chiqarish tobora kamaydi. Ular asosan chetdan keltiriladigan bo'ldi. Natijada Respublika aholisining yengil sanoat, oziq-ovqat mollariga ehtiyoji kuchaydi.

Respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil qilgan qishloq aholisining moddiy ahvoli achinarli edi. Ularning oylik daromadi o'rtacha 20 so'mni tashkil qilgan holda, bu ko'rsatkich ishchilarda 64 so'm edi. Vaholanki, urushdan keyingi xo'jalikni tiklash va rivojlantirishning asosiy og'irligi qishloq mehnatkashlari zimmasiga tushdi. O'zining bog' va mevalari bilan mashhur bo'lgan O'zbekiston aholisi haddan tashqari ko'p olinadigan soliq tufayli bog'laridan voz kechdi. Chorvadorlar shu sababga ko'ra mol boqib foyda ko'rmadi. Ahvol shu darajaga yetdiki,

aholining shaxsiy mollari soliq hisobiga davlat va jamoa xo'jaliklari foydasiga olindi. Sotishdan bosh tortganlar jinoiy-javobgarlikka tortildi. Oqibatda shaxsiy xo'jaliklarda chorva mollarning soni keskin kamaydi. Bunday zo'raonliklar urush oqibatlari, vaqtinchalik, o'tkinchi holat deb tushuntirildi.

50-60-yillarda qo'riyq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga, shu asosda paxta hamda g'alla yetishtirishni ko'paytirish choralari ko'rildi. O'zbekistonda uch yil ichida (1953-1955) 130 ming gektar yangi yerlar ochildi. 1956-yili Mirzacho'lning o'zida sug'oriladigan maydon 205.000 gektarga etdi.

Shu yillarda Markaziy Farg'onani o'zlashtirish munosabati bilan Katta Farg'ona kanali qayta ta'mirlandi. Toshkent viloyatida Ohangaron suv omborining 2-navbati, Yuqori Chirchiq suv tarmog'i, Buxoro viloyatida Quyimozor suv ombori, Sirdaryo viloyatidagi Janubiy Mirzacho'l magistral kanali qurilib foydalanishga topshirildi. 1960-yili respublikada sug'oriladigan er maydoni 2.571 ming gektarga etdi.

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Respublikada 1951-yilda 0,9 mln t. mineral o'g'it ishlatilgan bo'lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln. tonnadan oshib ketdi. G'oz barglarini to'kish va zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatilgan o'ta zaharli ximikatlilar (butifos, merkaptafos va b.)dan haddan tashqari keng miqyosda foydalanish, aholi sog'ligiga keskin yomon ta'sir qildi.

Dunyo bo'yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 gr.dan, AQShda 800 gr.dan to'g'ri kelgan bo'lsa, respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 1989-yil 25-45 kgdan to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha bo'lsa, bu har bir kishiga 7-8 kgni tashkil etdi.

Paxta xomashyosi yetishtirish 1946-1985-yillarda 5,5 barovar ko'paydi, paxta ekiladigan maydonlar 1 mln. ga. dan ortdi. 1966-1986-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq xo'jaligiga 45 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 17,1 mlrd. so'mi sug'orish tarmoqlariga sarflandi. Shu davrda 1,5 mln. ga yer o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda yangi 160 ta sovxozlar tashkil etilgan bo'lib, 20-yil davomida bu yerlarda 10,4 mln tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

Sanoat va qishloq xo'jaligida yuzaki islohotlar xalqning turmush ahvolidan deyarli o'zgarish yasamadi. Ayniqsa, Sobiq Ittifoqdagina

emas, balki mehnat sharoiti eng og'ir bo'lgan o'zbek paxtakorlarining turmush darajasi ayniqsa, achinarli ahvolda bo'ldi.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari «sotsializm uzil-kesil g'alaba qilgan» davrda aholining jon boshiga hisoblaganda quyidagicha edi: go'sht 29 kg, sut 150 litr, tuxum 78 dona, qand-shakar 21,2 kg, kartoshka 28, sabzavot va poliz mahsulotlari 66 kilogramdan to'g'ri keldi. Bu miqdor umumittifoq darajasidan ancha past edi. Qishloq aholisining iste'mol darajasi bu o'rta hisobdan ko'ra yana ham achinarli edi.

Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq xo'jaligini boshqa sohalarini qoloqlikka olib keldi, g'alla, chorvachilik mahsulotlari, sabzavot-mevaga aholining talabi qondirilmadi. Buning ustiga tomorqaga nisbatan noto'g'ri siyosat olib borildi. 50-yillarning boshlarida respublika rahbarlarining tashabbusi bilan sug'oriladigan, yerlarda tomorqa hajmi 25 sotihdan 13 sotihga tushirildi. Bu ko'rsatkich joylardagi rahbarlarning o'zboshimchaligi bilan 10 sotihgacha, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida esa, hatto 6-8 sotihgacha kamayib ketdi. Bu holat respublika qishloq aholisining turmush darajasini g'oyat og'ir qilib qo'ydi.

1990-yil boshiga kelib respublikada 9 mln. yoki respublika aholisining 45 foizi jon boshiga hisoblaganda oyiga 75 so'mdan kamroq daromadga ega edi. Bu esa kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng past darajadagidan ham kamdir. 80-yillarda kundalik hayotda hamma-ga kerak bo'lgan mebel garnituri, xolodilnik, sifatli changyutqich va boshqalarni topish muammoga aylanib qoldi.

Bu davrda respublika sanoatini rivojlatirilishi masalasida ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud edi. 1950-yillarda sanoat va qurilish, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tarqoqlikning respublika iqtisodini kompleks rivojlanishiga to'sqinligi yanada kuchaydi. Respublikaning sanoat va qurilish ishlari uchun huquqi va ma'suliyati cheklanganligi sababli, 1953-yili respublika ixtiyoridagi korxonalar jami sanoat mahsulotlarining 31 foizni ishlab chiqargan bo'lsa, ittifoqqa bo'ysungan korxonalarga 69 foiz to'g'ri keldi. 1956-yilida esa sanoat mahsulotlarining salmog'i 55% foizga ko'tarildi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xatolarga ham yo'l qo'yildi. Xususan Toshkent va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari qurilib, sanoat ishlab chiqarish joylashtirishda nomutanosiblikni keltirib chi-

qardi. 1955-yil dekabrda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimiga avval Vazirlar Kengashining raisi vazifasida ishlagan Nuriddin Muhiddinov saylandi. Shu davrdagi ko'plab ijobiy o'zgarishlarda N. Muhiddinovning shaxsan hissasi katta bo'ldi. Uning tashabbusi bilan Markaz qaramog'idagi yuzlab sanoat korxonalari respublika ixtiyoriga o'tkazildi. 1960-yillarda O'zbekiston sanoatida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 1959–65-yillar 450 dan ziyod sanoat korxonalari (shundan 150 yirik) va sexlar ishga tushirildi. Toshkent (birinchi navbati) Navoiy, Taxiatoş issiqlik elektrostansiyalari, gazli gaz koni shular jumlasidan-dir.

Respublika aholisining aksariyat ko'pchiligi tabiiy gazga muhtojligini qondirish va butun iqtisodiy ishlab chiqarishini gazlashtirish asosida qayta qurish mumkin bo'lgan sharoitda chetga tabiiy gazni olib kyetish avj oldi. O'zbekiston tabiiy gazi sobiq ittifoqning Yevropa qismi, Ural, Qozog'iston, Tojikiston, Boltiqbo'yi mamlakatlari va boshqa mintaqalarga uzluksiz jo'natib turildi. Vaholanki, tabiiy gaz yetishtirish Respublikada yildan yilga ortib bordi. Masalan, 1960-yilda 447 mln m³ hajmda tabiiy gaz olingan bo'lsa, 1970-yilga kelib bu miqdor 32 mlrd. m³ ni tashkil qildi.

Sobiq SSSRning 50-60-yillarda fan-texnika sohasidagi erishgan yutuqlarida O'zbekistonning qo'shgan hissasi katta bo'ldi. Mahalliy aholining mashaqqatli mehnati hisobiga yetishtirilgan qimmatbaho mahsulotlari sovet mamlakatining iqtisodiy va harbiy kuch qudratini oshirishga bo'ysundirildi. Urushdan avv. yillarda ham, Farg'ona vodiysida uranning bir necha manbalari ochilgan bo'lib, urushdan keyin barcha uran konlari ittifoq ixtiyoriga o'tkazilgan edi. 1948-yil yanvaridan O'rta Osiyodagi uran qidirish tashkilotlari yagona-Krasnogorskiy ekspeditsiyasiga birlashdi. 1951-yil ana shu «10-korxonona» deb nom olgan tashkilot bazasida Krasnoyolm ekspeditsiyasi tuzilib, ittifoq geologiya vazirligiga bo'ysundirildi. Qizilqumda 50-60-yillarda jami 27 kompleks uran konlari ochildi. Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod shaharlarida bir necha yuz kilometrni tashkil etgan temir yo'l, avtomobil yo'llari qurildi.

Urushdan keyingi qiyin sharoitda transport qurilishiga alohida e'tibor berildi. Amudaryoning chap qirg'oqlari bo'ylab 400 km masofaga Chirchik yo'li – Urganch temir yo'li qurildi. Bu bilan Ashxobod, Samar-

qand, Dushanbe, Toshkent va boshqa shaharlardan tovar, yo'lovchi poyezdlari Rossiya orqali Yevropa mamlakatlariga yo'l oldi.

1966–1970-yillarda sanoatda zo'raki jadallashtirish natijasida yangi (oltin, uran, neft ishlab chiqaruvchi) sohalar rivojlandi. Respublikada kimyo tolasi, organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Lekin ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqarishning butkul markazlashtirilishi ko'p o'tmay samara bermay qo'ydi. 70-yillardan boshlab yildan yilga sanoat va qishloq xo'jalik rejalari bajarilmay qoldi.

70-80-yillarning birinchi yarmida xalq xo'jaligini ishchi kadrlarga bo'lgan talabi ilmiy asoslangan tarzda o'rganilmadi. Natijada, kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarda keragidan ortiq ishchi kadrlar tayyorlandi, boshqa sohalarda, ayniqsa texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tanqisligi sezilib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston aholisining soni va tarkibiga, respublika iqtisodiy taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin, 1971-yildan – 1985-yillarga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida ishchi va xizmatchilar soni 2641,5 mingdan 4833,5 ming nafarga ko'paydi. Biroq, bu o'sish sun'iy ravishda, ya'ni respublikamizga tashqaridan ko'plab kishilarni ko'chirib keltirish hisobiga ro'y berdi.

Aholi tarkibida ishchilar soni anchagina o'sganiga qaramay, respublikamiz bu ko'rsatkich bo'yicha Sobiq Ittifoq respublikalari ichida 1979-yilgi ma'lumotga ko'ra, 13 o'rinda turar edi. O'zbekiston ishchilar sinfining milliy salmog'i jihatidan orqada qolmoqda edi. Masalan, o'zbeklar 1973–1983-yillarda sanoatda 51,1 foizni, qurilishda 46,5 transportda 38,6 aloqada-40,6 kimyo va neft kimyosida 24,9 foizni tashkil qilar edi.

Toshkent shahrida 1985–1986-yillarda mehnat resurslari ortiqchaligi 200 ming kishi bo'lishiga qaramay, respublikaga tashqaridan 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar jalb qilindi. Shu bilan birgalikda ishlab chiqarishda band bo'lmagan aholi soni ortib bordi. Ularning soni 1983-yilda 836 ming nafarni tashkil qildi.

Respublika iqtisodiyotini ahvoli, jamiyatni boshqarish usullarini qayta ko'rib chiqishni, ularni yangi sharoitga moslashtirishni talab qilsa ham O'zbekiston kommunistik partiya, uning qo'mitalari, urush davri-ning ish tajribasini davom ettirib, markazda va joylarda hokimiyatni

o'z qo'lida mahkam ushlab, ma'muriy-buyruqbozlik tizimini yana ham kuchaytirdi.

Urushdan keyingi yillari partiya va hukumat rahbarligiga nazariy jihatdan kam tayyorlangan, ish tajribasi yetarli bo'lmagan xodimlar keldi. Davlatni boshqaruv tizimida mahalliy xalq vakillari faqat 47 foizni tashkil qildi. Partiyaga qabul qilishga yuzaki, to'ralarcha yondashuv natijasida qabul qilinganlarning ko'pchiligini ishchi va dehqonlar tashkil qilib, ilg'or ziyolilar, malakali mutaxassislar rahbarlik ishlari-dan chetlashtirildi. O'zbekiston SSR Oliy va mahalliy kengashlariga saylovlar yuzakilashib, oldindan tuzilgan ro'yxat va reja asosida deputatlikka nomzodlar ko'rsatildi. Saylovchilarning 99,9 foizi ovoz berishda qatnashib, «yakdillik» bilan kommunistlarning vakillari-ga ovoz berdi. Bu qanchalik haqiqatga to'g'ri keladi, tushunish qiyin emas. Sovetlar faoliyatida yuzakichilik, qog'ozbozlik kuchaydi. Oliy Savetning, ayniqsa mahalliy sovetlarning sessiyalari vaqtida chaqiril-masdan undagi masalalar ko'pincha muhokama qilinmay yoki hurfikr-liliksiz qabul qilinardi.

Urushdan keyingi yillarda dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashga O'zbekiston o'z hissasini qo'shdi, uning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalari kengaydi. 1958-yili O'zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chiqargan bo'lsa, 1970-yil 76 mamlakat bil-an savdo aloqalarini o'rnatdi. Chet davlatlarga mahsulot chiqarishda O'zbekiston sobiq ittifoqda RSFSR va Ukrainadan keyingi uchinchi o'rinda turdi. Qorako'l teri va paxta tolasidan boshlab, mashinasozlik mahsulotlarining 250 turi to'rt qit'aning deyarli hamma mamlakatlari-ga chiqarildi. Ming afsuski, bu mahsulotlar O'zbekiston nomidan emas «SSSRda ishlangan» degan tamg'a bilan dunyoga tanildi.

1960–70-yillari O'zbekiston Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun minglab Oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislar va malakali ishchi kadrlar tayyorlab berdi. 1961-yili Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) qoshida chet ellik-lar uchun tayyorlov bo'limi ochildi. O'zbekistonning minglab mutaxas-sislari ko'pgina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning iqtisodiyotini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdi. O'zbekistonlik mashinasozlar, paxtakorlar, suv xo'jaligi inshootlari va ipakchilik mutaxassislari ko'p mamlakatlarda o'zlarining boy tajribalarini tashviqot qilishdi. Misrdagi

Avon va Xelvonn suv inshootlari, Afg'onistondagi Jalolobod kanali va Kubadagi sanoat qurilmalarida O'zbekiston mutaxassislari ham ishtirok etishdi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, O'zbekiston chet davlatlar bilan si-yoniy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirish, uni samarali olib borish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lsa ham bu imkoniyatdan to'la foydalana olmasdi.

Vaholanki, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 76, 77, 112, 122-moddalariga ko'ra O'zbekiston chet davlatlar bilan aloqalar o'rnatish, diplomatlar va elchilar tayinlash va chaqirib olish huquqlariga ega va xalqaro tashkilotlar bilan mustaqil aloqalari o'rnatish mumkinli-gi ko'rsatilgan edi. Lekin, amalda respublikaning xalqaro munosabatlari markazda rejalashtirilib, chizib berilgan doirada olib borildi. Chet dav-latlardan birorta delegatsiyaning qabul qilinishi, respublika o'tadigan uchrashuvlar, kengashlar, anjumanlar uchun «markazdan» ruxsat shart edi. Ittifoqchi respublikalarning, jumladan, O'zbekistonning teng hu-quqligi va mustaqilligi to'g'risidagi qonunlar aslida qog'ozda qoldi.

2. Respublikada 1946–1990-yillardagi ma'naviy-madaniy qaramlik va uning oqibatlari. Qatag'onlikning yangi to'liqini.

Sovet boshqaruv tizimi sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar-dan ommaga g'oyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida keng foydalanildi. 1960-yillar respublikada 2.977 ta klub bo'lsa, 1970-yilda ularning soni 3.441 taga etdi. Shu yillari kutubxonalar soni tegishli ravishda 3.418 tadan 5.822 taga, muzeylar soni 14 tadan 26 taga, kinoqurilmalar soni 2.178 tadan 3.988 taga oshdi. Lekin, bularning ko'pchiligi statistik hisobotlarda oshirib ko'rsatilgan bo'lib, aslida o'zlarining bevosita va-zifalarini samarali bajarish uchun hayotiy imkoniyatga ega bo'lmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi past darajada bo'lib, moliya bilan yetarli ta'minlanmadi. Bu jihatdan O'zbekiston sobiq sovet respublikalari o'rtasida eng quyi pog'onada turdi.

1969-yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muas-sasasi to'g'ri kelsa, Belorussiyada 11 ta, O'zbekistonda esa atigi 4 ta edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mab-lag' aholini jon boshiga Estoniyada 21,3 so'mni, Armanistonda 17,9, RSFSRda esa 9,7 so'mni tashkil qilsa, O'zbekistonda 4,5 so'mni tashkil

qilardi. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950–1970-yillarda o'n barobarga ko'paygan bo'lsa, lekin ularning ko'pchiligini mafkuraviy targ'ibot uchun zarur bo'lgan marksizm-leninizmga oid asarlar tashkil qilar edi. Olingan kitoblarning 8–10 foizgina respublikada nashr etilgan bo'lib, qolganlari chetdan keltirilib, ularning aksariyati rus tilida edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazorati chetda qolganligi uchun bunday muassasalar ko'pincha jamoatchilik asosida qurildi. Masalan: 1961-yili O'zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan jamoatchilik asosida 45 ta madaniyat va texnika universitetlari, 5 ta xalq teatrlari, 1.258 jismoniy tarbiya jamoalari ish olib bordi.

Bu davrda O'zbekistonda ta'lim tizimini yaxshilash uchun o'nlab qarorlar qabul qilinardi. Biroq bu qarorlar milliy maktablarda to'liq bajarilmasdi. Maktablar urushdan keyin ham darsliklar bilan to'liq ta'minlamadi. Moddiy o'quv bazasi rusiyzabon maktablarnikidan ancha past edi.

O'rta maktabni bitiruvchilari orasida erta turmushga berilishi tufayli qizlar kamchilikni tashkil qilar edi. Maorifni rivojlantirishda mahalliy millatlarga past nazar bilan qarash sovet tuzumi siyosatining pinhona faoliyatiga yashiringan edi. Keyingi yillarda ochilgan arxiv ma'lumotlarida Sobiq Ittifoqdagi respublikalarda ongli, madaniyatli, hurfikrli kishilarni bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi maxfiy ko'rsatmalar bejiz emas edi. 1985-yilda oliy o'quv yurtlari soni 42 taga yetdi.

1946–47 o'quv yilida respublikada 4483 maktab bo'lib, 212.000 o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1965–66 o'quv yilida 9716 ga undagi o'quvchilar soni 2.476.000 kishiga yetdi. Oliy o'quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga yetdi. Bu miqdor «mahalliy millat yigit-qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin» degan aqidaga asoslanganligini ko'rsatadi. Shunday bo'lishiga qaramay O'zbekistonliklarni, xususan o'zbeklarni ilmga chanqoqligi har qanday sun'iy to'siqlarni yenga boshladi.

O'zbekistonda fan va texnikaning hamma sohalarida yirik olimlar yetishtirilib, fan nomzodlarini va doktorlarini tayyorlash bo'yicha sobiq SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

1950-yil O'zbekistonda 1760 fan nomzodi 180 fan doktorlari ilmiy ish olib bordi. 1965-yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324 ga etdi. 50–60-yillari Respublika Fanlar akademiyasining

olimlari ayniqsa matematika-mexanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida ishlar olib bordi. Bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari travmatologiya va ortopediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda tashkil etilib, Sharqshunoslik instituti faoliyati kengaytirildi.

O'zbekistonlik olimlarning bir qanchasi, ayniqsa tabiiy fanlar sohasida, o'zlarining ilmiy yutuqlari bilan nafaqat sobiq Ittifoq doirasida, balki jahon miqyosida tan olindi va yuqori darajadagi davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar. O'zbek olimlaridan matematiklar – T. N. Qori-Niyoziy, T. A. Sarimsoqov, S. X. Sirojiddinov, fiziklar – U. O. Orifov, S. A. Azimov, ximiklar – O. S. Sodiqov, S. Yu. Yunusov, M. I. Nabiyev, geologlar – H. M. Abdullaev, I. X. Xamraboev, X. T. To'laganov, G. A. Mavlonov, biologlar – A. M. Muzaffarov, K. Z. Zokirov, T. Z. Zohidov, texnika sohasida M. T. O'razboyev, X. A. Rahmatullin, X. Fayziyev, jamiyatshunoslik fani sohasida I. M. Mo'minov, H. Sulaymonova, Ya. G. G'ulomovlar shular jumlasidandir.

Partiyaviy g'oyaviy tizimga qaramasdan adabiyot va san'at sohasida ko'zga ko'rinarli asarlar yaratildi. G'afur G'ulom, Uyg'un, Zulfiya, Mirtemir, Turob To'la, M. Boboyev, Mirmuhsin va boshqalarning tinchlik mavzusiga bag'ishlangan she'rlari yuzaga keldi. Oybekning «Oltin vodiyan shabadalar», Parda Tursunning «O'qituvchi», Asqad Muxtorning «Opa-singillar» romanlari, Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», «Og'riq tishlar», B. Rahmonovning «Yurak sirlari» dramalari katta shuhrat qozondi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy qatag'onlikdan ozod bo'lgan ijodkorlarning asarlari yuzaga chiqqan boshladi. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani, Mirtemirning «Surat» dostoni, Shayxzodaning «Toshkentnoma»si nashrdan chiqdi.

1960-yillardan adabiyotda yangi avlod paydo bo'ldi. Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, Husniddin Sharipov, Ozod Sharafutdinovlar bilan izma-iz yangi ijodiy tafakkurga ega bo'lgan iste'dodli Abdulla Oripov, Erkin Bohidov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Xoshimov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Omon Matjon, Rauf Parpi kabi yosh adabiyotchilar maydonga chiqdi. O'zbek adabiyotining rivojlanishida adabiyotga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quruli sifatida qarab, ijod erkinligi bo'g'ildi va partiyaviy sinfiy aqidalar tiqishtiril-

di. 50-80-yillarda ahyon-ahyonda bo'lsa ham ozodlikka intiluvchi fikrlar ko'zga chalinardi. Biroq bunga darhol tanqidlar, ma'muriy jazolar to'sig'i qo'yilardi.

XX asr 80-yillarining o'rtalaridan adabiyot xalq hayotini haqqoniy aks ettirish yo'lida yangicha qadamlar qo'ya boshladi. Badiiy asarlarning mavzuyi doirasiga Orol fojeasi, o'zbek dehqonining mashaqqatli taqdiri, tabiat, til, madaniyat va tariximizga oid muammolar shiddatliroq kirib keldi. Yangi mazmun ijodda yangicha zamonaviy shakl, xalqona ohanglarda keng yo'l ocha boshladi.

1950–60-yillarda Respublika san'atida, xususan teatr va raqs san'atida ilgari siljishlar yuz berdi. 1947-yili Toshkentda xoreografiya bilim yurti ochildi. 1957-yili mashhur raqqosa M. Turg'unboyeva tomonidan «Bahor» o'zbek xalq raqs ansambli, 1958-yili G. Rahimova rahbarligida Xorazm ashula va raqs ansambllari tuzildi. Bu jamoalar o'zbek sahna raqsalarini boyitdi. Respublikada teatr san'atining rivojlanishida Samarqand Davlat ashula va balet teatrining (1964-yil) Toshkentda «Yosh gvardiya» (1990-yildan Abror Hidoyatov nomidagi) o'zbek drama teatrining ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Musiqqa va teatr sohasidagi bu o'zgarishlar bir tomonlama bo'lib jahon san'ati darajasiga tezroq yetib olish uchun o'zbek milliy madaniyatidan uzoq bo'lgan opera, balet, simfonik musiqaga asosiy e'tibor berilib, milliy drama teatrlarimiz e'tibordan chetda qoldi. «Shaklan milliy mazmunan sotsialistik» shiori ostida rivojlangan sovet adabiyoti va san'atining asl maqsadi «bainalmilallashtirish» bo'lib badiiy asarlarda milliylik yo'qola bordi.

Urushdan keyingi chorak asr mobaynida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi, madaniyati va fani rivojlanishida ma'lum natijalarga erishdi. Lekin bu rivojlanish ziddiyatlar bilan to'la bo'ldi, demokratiyalashtirish yo'lida olib borilgan tadbirlar yetarli natijalarni bermadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi kuchayib borayotgan O'zbekistonda xalqning turmushi, aholiga ko'rsatiladigan maishiy xizmat jihatidan Respublika sobiq ittifoqda oxirgi o'rinlarda edi. Ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohasidagi balandparvoz ko'rsatkichlar sotsialistik tizimning tashviqot-targ'iboti uchun foydalanildi. Umuman olganda, jamiyatning inqiroz tomon yo'l tutishi kuchaya bordi.

Jumladan, urushdan keyingi yillarda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukmronligi kuchayib bordi. Siyosiy qatag'onlikning yangi bosqichi boshlandi. Agar 30-yillarda qatag'onlikni ichki ishlar xalq komissarlari (NKBD) olib borgan bo'lsa, endilikda bu mudhish ishlarni kommunistik partiyaning markaziy komiteti va uning quyi tashkilotlari bajardi. 1949-yilning martida chaqirilgan O'zbekiston kommunistlarining X syezdi respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda zaharlash, milliy qadriyatlarga, «diniy xurofot»ga qarshi kurashni kuchaytirish vazifalarini qo'ydi. Bu bilan jamiyatda sotsialistik mafkurani vayronkorlik roli yana ham kuchaytirildi.

1949–1952-yillarda ko'pgina mashhur o'zbek ijodiy ziyolilari asossiz ravishda ayblanib, qatag'on qilindi. O'zkompartiyaning 1949-yil 25-iyundagi byuro majlisida bir guruh yozuvchilar militchilikda, eski feodal madaniyati oldida bosh egish, o'tmishni ideallashtirishda ayblandi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamasari Boboiev, Mirtemir, Shayxzoda kabi o'zbek yozuvchilari badnom qilindi. 1951-yili avgustda bir guruh atoqli ijodkor ziyolilar «militchilar» deb matbuotda nohaq tanqid qilindi, «buzg'unchilikda» ayblandi. Keyinchalik yozuvchilardan Shayxzoda, Shukurullo, Shuhrat, Said Ahmad va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Xurshid, Chustiy, G'ayratiy va boshqalar yozuvchilar uyushmasidan haydaldi. Buni eshitgan G'. G'ulom kuyinib «Tokaygacha o'zbekning aqli kirganda boshini chopib tashlaydilar» degan edi.

1951-yil aprelida O'zkompartiya byuro majlisi «Musiqqa san'atining ahvoli va uni yanada yaxshilashning choralari to'g'riqidagi» masalani muhokama qildi. Majlisda san'at ishlari bo'yicha boshqarma ko'p yillar davomida «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra» kabi afsonaviy mazmunda opera, balet va musiqali dramatik spektakllarni yaratib, zararli ishlarni amalga oshiryapti deb qayd etildi. Majlis qarorida janr repertuarlari va radioeshittirish dasturlarini qayta ko'rib chiqish tavsiya etildi, Mazkur spektakllar sahnadan olib tashlandi. Faqatgina 1956-yilga kelganda bu masalalarga yondashuv birmuncha o'zgarib, nohaq qatag'on qilingan shaxslarning haq-huquqi tiklanishi borasida ma'lum ishlar qilindi.

3. O'zbekistonda demografik jarayonlar. Soxta «urbanizatsiyalashtirish». O'zbekistonda ekologik holatining og'irlashishi. Orol fojeasi.

Sovet davridagi urbanizatsiya jarayonini tahlil qilish bu masalaning murakkabligini va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng O'zbekiston sanoatining rivojlanish darajasi evakuatsiya qilingan va shu yerda qoldirilgan korxonalar hisobiga ancha oshdi. 1945–1950-yillarda Ohangaron ko'mir havzasi, Farhod GESi, Ohangaron metallurgiya kombinati ishga tushirildi, ko'pgina korxonalar kengaytirildi va rekonstruktsiya qilindi. Keyingi yillarda ishga tushirilgan korxonalar orasida Oltintopgan mis kombinati, Ohangaron sement, Popdagi rezina buyumlari zavodi, Chirchiqdagi kiyin eriydigan va is-siqqa chidamli metallar kombinati, Farg'ona va Navoiy azot o'g'itlari zavodlarining birinchi navbati, Ohangaron GRESi, tabiiy gaz bilan ish-laydigan Toshkent va Navoiy GRESlari qurilishi avj oldirildi. Chirchiq elektrokimyo kombinati, Samarqand va Qo'qon superfosfat zavodlari ishga tushirildi.

Bunday korxonalarining barpo etilishi natijasida, sanoatning yan-gi va mavjud tarmoqlarida ishlash uchun sovet respublikalaridan ko'plab ishchi, texnik va mutaxassislar ko'chirib keltirildi. Birgi-na 1959–1962-yillar mobaynidagi migratsiya natijasida O'zbekiston aholisi mehnatga qobiliyatli erkak va ayollar hisobiga 133226 ki-shiga ko'paydi. Ushbu holat o'z navbatida respublikada mehnat resurslarining ko'payishiga, turli millat va elat vakillari sonining o'sishiga sabab bo'lgan.

Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston hududida vujudga kelgan shaharlar o'ziga xosligi bilan ajralib turar edi. Sovet hokimiyatining iqtisodiyoti umumittifoq manfaatlarini ko'zlab, O'zbekistonni xom-ashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirdi. Natijada, katta hududlar-da qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirilib, paxta maydonlariga aylantiril-di. Qishloq xo'jaligida paxtachilik asosiy tarmoqqa aylantirilib barcha hududlarda paxtani dastlabki qayta ishlovchi sanoat korxonalarini ishga tushirildi. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston iqtisodiy hududlar-ga ajratilgan va bular jumlasiga: Toshkent iqtisodiy hududi (Toshkent, Sirdaryo), Farg'ona iqtisodiy hududi (Farg'ona, Andijon, Naman-gan), Janubiy-G'arbiy iqtisodiy hudud (Buxoro, Samarqand, Qashqa-

daryo, Surxondaryo), Quyi Amudaryo iqtisodiy hududiga (Xorazm, Qoraqalpog'iston) kiradi.

Har bir hududning tabiiy sharoiti, joylashishi, tabiiy boyliklari, aholisining milliy va jinsiy tarkibi hisobiga olingan holda yangi shahar-lar qurildi. Sovet hokimiyatining shaharlar qurishdagi asosiy xususiyati aholisi 100 ming kishidan iborat bo'lgan kichik va o'rta shaharlarga e'tibor qaratilganidir.

1970-yilga kelib shaharlarning 90 foizini kichik va o'rta shaharlar tashkil etgan. XX asr 50-yillarida Mirzacho'l o'zlashtirilib Yangiyer shahriga, Qizilqum cho'lida esa Navoiy shahriga asos solindi. 1959-yil-larda vujudga kelgan shaharlar asosan xalq xo'jaligida ishlab chiqaruv-chi kuchlarning hududiy va tarmoq sohalardagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda bunyod etildi. Respublikada shu yillarda vujudga kelgan shaharlar soni 10 taga ko'paydi.

Mirzacho'l hududida ma'muriy markaz Guliston shahri 1959-yil-da vujudga keldi. 1963-yilda Sirdaryo viloyati tashkil etilishi bilan qayta tashkil topgan Gulistonda sanoat korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shaharda pax-ta tozalash, yog'-ekstratsiya, sut zavodlari va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta tayyorlovchi zavod va fabrikalar ishga tushiril-di. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida Shirin va Baxt shaharlariga asos solindi.

Umuman, O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidan keyingi yillarda bunyod etilgan shaharlar sovet hokimiyati sanoatlashtirish si-yosatining uzviy davomi bo'ldi. 1939–1959-yillar aholini ro'yxatga olish oralig'ida 54 ta shahar va shaharchalar vujudga kelganligi aniqlangan. Bu davrda shahar tipidagi shaharchalar soni 1939-yilgacha bo'lgan davrda 110 tani, 1959-yilgacha bo'lgan davrda esa uch baravar ko'proqni tashkil qildi. 1959–1969-yillar oralig'ida tarkib topgan shaharlar sanoatlashtirish jarayonida vujudga kelgan. O'zbekistonda 1970-yildagi aholini ro'yxatga olish yakuniga asosan katta shaharlarning o'sganligi ko'rinadi. Ularning umumiy soni 5 tadan 8 taga ko'tarildi. Toshkentdan tashqari (1385 ming) Samarqandda (267 ming), Andijon (188 ming), Qo'qon (133 ming), Buxoro (112 ming), Farg'ona (110 ming), Chirchiq (107 ming) ko'p aholiga ega shaharlar vujudga keldi. O'zbekistonda shaharlar soni 70-yillarda 1,5 baravarga ko'tarildi, 50 ta yangi shaharlar vujudga keldi.

Mazkur shaharlar tashkil etilib O'zbekistonda shaharlashish jarayonini kuchaytirgan bo'lsa-da, lekin ulardagi ishlab chiqarish markaz manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Respublikaning agrar mintaqa bo'lganligi ham bu shaharlar atrofida yangi yerlarning o'zlashtirilishiga zamin hozirlar va bu yerda asosan paxtachilikni ustasi bo'lgan tub joy vakillari joylashgan edilar.

Ma'lumki, O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar orasida demografik jarayonlar tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan respublikalar qatoriga kirar, bu ahvol milliy siyosatga ham jiddiy ta'sir etar edi. 1989-yilda o'tkazilgan butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston SSRda 120 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilgan. Respublika aholisi 1979-yilda SSSR aholisining 5,9 foizini, 1989-yilda esa 6,9 foizini tashkil etgan. Shu yillar ichida RSFSR, Ukraina, Belorussiya aholisi o'rta hisobda bir foizdan kamaygan. Respublika aholisi ichida nisbatan ko'pchilikni tashkil etuvchi millatlarning salmog'i esa quyidagicha bo'lgan:

O'zbekiston SSRning milliy tarkibi. 1979-1989

Millatlar	1979		1989		1989-yilda 1979-yilga- nisbatan % o'zgarishi
	soni	%	soni	%	
O'zbeklar	10569007	68,7	14142475	71,4	133,8
Ruslar	1665658	10,0	1653478	8,3	99,2
Qoraqalpoqlar	297788	1,9	411878	2,1	136,3
Tojiklar	594627	3,9	933560	4,7	157,0
Qozoqlar	620136	4,0	808227	4,1	130,3
Ukrainlar	113826	0,7	153197	0,8	134,6
Turkmanlar	92285	0,6	121576	0,6	131,7
Qirg'izlar	142182	0,9	174907	0,9	123,0
Qrim tatarlari	117569	0,8	188772	1,0	160,5
Koreyslar	163062	1,1	183140	0,9	112,3
Turklar	46726	0,3	106302	0,5	210,0

Uyg'urlar	24104	0,2	35762	0,2	122,3
Ozarbayjonlar	59779	0,4	44410	0,2	74,3
Armanlar	42374	0,3	50537	0,3	119,3
Yahudiylar	73920	0,6	65493	0,3	88,6

Alohida ta'kidlash lozimki, aholi sonining o'sishiga o'zbek xonadonlaridagi urf-odat, an'analar, xalqimizning bolajonlik va ko'p farzandlilik xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, turmush tarzlari ancha uyg'unlashib ketgan baynalmilal oilalar soni ham nisbatan ko'paygan. Mahalliy millat yigitlarining Rossiya, Ukraina, Belorus, Tatariston va boshqa o'lkalarga borib harbiy xizmatdan oilali bo'lib kelishlari ham bu jarayonga ta'sir etgan edi. 1989-yil aholi ro'yxati ma'lumotlarida ko'rsatilishicha, turli millat vakillariga mansub oilalar soni 1979-yildagi 233,7 mingdan 435,1 mingga yetgan yoki 186,2 foizgacha ko'paygan va ularning salmog'i respublikadagi jami oilalar miqdorida 10,9 foizdan 12,7 foizga etdi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlari haqiqatda paxta ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bilan bevosita bog'liq edi. Respublikada sobiq SSSR va bir qator xorijiy ehtiyojini qondiradigan darajada paxta xomashyosi yetishtirish boshlandi. O'zbekiston jahondagi yirik paxta yetishtiruvchi davlatlardan biriga aylandi. Lekin, bularning barchasi butun mamlakat manfaatlarini, ittifoqning iqtisodiy va siyosiy qudrati rivoji uchun edi. Paxta ekin maydonlarining to'xtovsiz kengayib borishi, har qanday yo'l bilan hosildorlikni oshirishga ruju qo'yish, boshqaruvni ma'muriy-buyruqbozlik tarzida ko'r-ko'rona tashkil etilishi hamda, iqtisodiyotning ekstensiv tarzidagi chuqur qo'lami respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Respublikada ekin ekiladigan maydon yerlar asosan bo'z erlardan, oddiy tuproq, ba'zi joylarda esa sho'rlangan yerlardan iborat edi. Vaqt o'tishi bilan maydonlar oriqlab, yerning hosildorligi imkoniyatlari kamayib, yer eroziyasi kuchaydi. Oxir-oqibatda ko'proq mineral o'g'it solinmasa yerdan hosil olish mumkin bo'lmaydigan darajaga kelib, tuproqdagi yo'qolgan moddalarni o'rnini mineral o'g'itlar bilan qoplash zaruriyati kuchaydi. 1984-yilga kelib respublikada 600 mingga yer tezda meliorativ ishlar olib borilishini talab qiladigan holatga tushib qoldi. O'zbekistonda har gektar yerga ishlatilayotgan mineral o'g'itlarning

miqdori o'rtacha hisobda 600 kg ni tashkil etdi, bu esa jahonda qabul qilingan normadan 20-30 marta yuqori darajada bo'ldi. Holbuki, bu o'g'itlarning deyarli 60 foizi aksariyat o'zlashtirilmay, tuproq sahnida qolib ketdi va yer tarkibini buzib yubordi. 1985-yilga kelib respublikada sho'rlangan erlar sug'oriladigan maydonlarning jami 25 foizini tashkil etdi. O'sha yilning o'zidagina haddan tashqari sho'rlanib ketgani bois besh ming gektardan ko'proq yer qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarib tashlandi.

Mazkur holat o'simliklarning tabiiy yo'l bilan o'zini himoya qilish immunitetini kamaytirib, dalalarda turli hashoratlar ko'payishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligini, xususan, paxtazorlarni zaharli kimyoviy moddalar bilan dorilashda aviatsiyadan keng foydalanish usulini qo'llash kuchaydi. Birgina 1980-yilning o'zida paxtazorlarni dorilash uchun 6,03 ming tonna zaharli moddalar ishlatildi. Paxta ekiladigan maydonlar turli kimyoviy moddalar bilan shunchalik zaharlandiki, bu holat, eng avvalo, aholi sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Yuqoridagi holatlar natijasida hosildorlik kamayib bordi. Masalan, 1980-yilning o'zida paxtaning har bir gektar yeridan olinadigan hosil 1975-yilgi darajaga tushib qoldi, yillik rejaga nisbatan shu yili 350 400 ming tonna kam xomashyo olindi. Agar respublikada har gektar sug'oriladigan yerdan olingan daromad 1980-yilda 1.337 rublni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 1982-yilga kelib 1.241 rublga tushib qoldi.

Natijada, aholi turmush-tarzining pasayib, genofond buzila boshladi, bolalar o'limi va turli kasalliklar tarkalishi avj oldi, ekologik vaziyat og'irlashib, (tabiiy jabhalar – suv, havo, tuproqning zaharlanishi.), ishsizlik, qambag'allashish va boshqa ijtimoiy salbiy illatlarni yuzaga kelishi aynan bir tomonlama – paxta yakka hokimligiga asoslangan iqtisodiy siyosatning O'zbekistondagi fojeali yakunlari edi.

O'zbekiston XX asrning 60-yillaridayoq ittifoqdosh respublikalar orasida mineral o'titlar ishlab chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan, 1980-yillarga kelib mamlakatdagi butun kimyo korxonalarining beshdan bir qismi O'zbekistonda joylashtirildi. Bu korxonalar ham mamlakat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarib, respublika atrof-muhitiga tuzatib bo'lmas darajada zarar keltirdi. Buning ustiga bunday korxonalar asosan aholi zich yashaydigan, namlik juda tez so'rilib ketadigan yerlarda qurildi.

O'zbekistonda ekologik falokatning og'irlashib borishi juda qo'riq omillar bilan bog'liq bo'lib, sanoat korxonalarida ishlatiladigan suvni tejash va undan qayta foydalanish texnologiyasining mutlaqo yo'qligi ham shular jumlasiga kirardi. Mirzacho'l, Qarshi. Surxon-Sherobod dashtlarining quriq erlarida, Markaziy Farg'onada va Amudaryoning quyi oqimida barpo etilgan yangi xo'jaliklarda ham suv va yer osti resurslaridan foydalanishda jiddiy xatolar mavjud edi.

1976–1985-yillar davomida respublikada 555,2 ming gektar yer sho'rlashib ketgan. Xorazm viloyatida sho'rlanmagan yerlar 1970-yilda 86 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilga kelib bu maydonlar 68 foizga tushib qoldi. Qoraqalpog'istonda esa sho'r bosgan yerlar umumiy ekin maydonlarining 54 foizini tashkil etdi. Vaholanki, bu viloyatlarda har gektar yerni sug'orish uchun sarflangan suv o'rtacha 36.000 kub. metr ga yetib, bu ilmiy asoslangan sug'oruv normativdan 4 marta ko'p edi. Lekin bu suvlar ham qumliklarga oqizildi. Natijada, qumliklarga, cho'llarga oqizib yuborilgan suvlardan hosil bo'lgan Armasoy, Aydarko'l kabi qo'llar Orolga har yili oqib borishi lozim bo'lgan 5-8 kub.km suvni ushlab qoldi. Umuman, Amudaryo atroflarida yerlardan foydalanish, ularni o'zlashtirishdagi tuturuqsizliklar natijasida tang ekologik vaziyat yuzaga kelgandi.

Buning ustiga 1965–1970-yillarda respublikada sug'oriladigan erlarning hajmi 7 foizga ko'paygach, faqat Sirdaryo oqimida umumiy sathi 1,6 ming kv.km.ni tashkil etgan suv omborlari qurilgandi. Sirdaryo suvning ko'p qismi Farg'onadagi eng sersuv bo'lgan So'x daryosidan kelib quyilgan. Tog'lardagi irmoqlardan suv olgan bu daryoning yoz oylarida suvi ko'payib, yerlarni sug'orish uchun imkon byergan. Paxtachilikda hosildorlikni oshirish yo'lida So'x daryosida suv ombori qurish ishlari boshlanib, bunga katta mablag', texnika ham jalb etilgan edi. Biroq suv ombori qurib bitirilmasidan Rishton shahrining aholi istiqomat qiladigan Janubiy tomonlarida yer osti suvlari ko'tarilib, botqoqlash holatlari yuz berdi.

O'rtacha Osiyoda yuzaga kelgan ekologik tanglikning eng og'iri Orol dengizi qurib borishi, uning atrofidagi hududlarda og'ir ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat yuzaga kelishi edi. Respublikada qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orish, xususan qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikni yuksaltirish, hosildorlikni oshirish birinchi navbatda irrigatsiya va melioratsiya ishlari bilan ham bog'liq edi. Bunday holat

o'z navbatida Orol dengizining qurib borishiga ham ta'sir etgan edi. Orol dengizi suvni asosan Amudaryo, Sirdaryodan olgan. Orolning suvi pasaymagan vaqtlarda dengiz sathiga har yili 7 milliard tonna shartli yoqilg'i quvvatiga teng quyosh nuri tushgan. Bu esa mamlakatda qazib olinadigan jami yoqilg'ilar quvvatiga barobar edi. Quyosh nurining taxminan 40 foizini dengiz suvi yutib, katta radiusda qishloq xo'jaligi uchun qulay ilik iqlimni yuzaga keltirar edi.

1960-yillarda Orolning chuqurligi 53 metr bo'lib, uning umumiy maydoni 66,1 ming kv. km. ni tashkil etgan. 27-yildan so'ng 1987-yilga kelib, uning akvatoriyasi 20.000 kv.km.ga kamayib ketdi. Suvning umumiy hajmi ikki marta, qirg'oq 30 km dan 80 km gacha qisqardi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Orol dengizi er kurrasining cho'l mintaqasida joylashgan eng yirik, suvi sho'r va oqmaydigan ko'llardan hisoblanib, kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi, ittifoqda Kaspiy dengizidan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Bu dengizning qurib borishi butun jahonni tashvishga solib turgan vaqtda, qurigan Orolning tubida yaxshi ekinzorlar yaratamiz degan g'ayri ilmiy tasavvurlarga berilib, yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya shaxobchalarini qurish masalasini ilgari surildi.

4. O'zbekiston «qayta qurish» yillarida. O'zbekistonda qatag'onlikning yangi bosqichi. «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» nomli soxta ishlar.

SSSRdagi «qayta qurish» jarayoni avval boshdanoq siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohotlar esa unga bo'ysunuvchan ahamiyat kasb etdi. Oradan ko'p o'tmay, jadallashib borayotgan siyosiy jarayonlar (oshkoralik, demokratiya) bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o'rtasida katta farq ko'zga tashlana boshladi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham qayta qurish girdobiga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985–1986-yillar) asosan ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo'yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uni-ig asnosida inson omilini faollashtirishdan iborat bo'ldi.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi. Shuning uchun ham 1986-yil 1-mart kuni KPSS XXVII s'ezdining KPSS Markaziy Komiteti siyosiy ma'ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyada fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan edi.

Xullas, qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Ammo, bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo'ldi. Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lindi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi.

Bu davrda butun Sovet Ittifoqida bo'lgani singari O'zbekistonda ham dastlab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ma'lum o'zgarishlar yuz bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari ayrim qadamlar tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni boshlandi. Ammo, tub o'zgarishlar va barcha sohalarda haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. Statistik ko'rsatkichlarda qayd etilishicha, 1986-yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987-yil yanvardan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda mag'lubiyatga uchradi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987–1990-yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa kommunistik mafkura tomonidan 1987-yil yanvarda yanada aniqlashtirildi. Moskva shahrida 1987-yil 27-28 yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS Markaziy Komitetining Bosh sekretari M. S. Gorbachyov «Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida» ma'ruza qildi. Unda siyosiy islohotlarning asosiy maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishga e'tibor qaratildi. Keyinchalik M. S. Gorbachyov o'zining qayta qurish haqidagi mashhur kitobida bu g'oyalarini davom ettirdi. Biroq siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish, keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayon-

larda ishtirok etishi Markaz uchun qutilmagan oqibatlariga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohotlar boshi berk ko'chaga kiritib qo'yildi. Oqibatda 1990-yil nafaqat qayta qurishning ikkinchi bosqichi, balki SSSR aholisi, balki butun dunyo umid ko'zi bilan qarayotgan qayta qurish siyosati butunlay mag'lubiyatga uchradi. Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va uning parchalanishiga olib keldi.

Mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlari oxiriga ytkazish mumkin bo'lmadi. Bu quyidagi uch sabab bilan izohlanadi: birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, kommunistik partiya rahbarlari (partokratiya) qayta qurish g'alabasidan manfaatdor emas edi. Ular har qanday demokratiya va oshkoralik totalitar tuzumning kushandasi ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan, M. S. Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Sotsializmga xos sinfiy munosabatlar, davlat mulkchiligi, milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakkapartiyaviy rahbarlik, kommunistik mafkura, mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmas edi.

Ma'lumki, qayta qurish yuqoridan boshlandi. Mazkur jarayonning boshlanish paytida jamiyat a'zolari unga juda katta umid bog'ladilar. Ro'y berayotgan o'zgarishlar, ayrim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar kishilarda ertangi kun va porloq kelajakka ishonch ruhini yana uyg'otdi. Dastlabki davrda qayta qurish raxnamolari, ya'ni, yuqorining quyi bilan munosabatlarida ma'lum kelishuvchilik, xayrixohlik sezildi.

Lekin, keyinchalik vaziyat butkul o'zgardi. 1986–1987-yillardan boshlangan iqtisodiy inqirozning kuchayishi, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi uquvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo'lda qolib kyetishi – bularning barchasi jamiyat a'zolarida qayta qurishga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi. Qayta qurishning uchinchi yilida uning to'liq mag'lub bo'lishi aniq ko'zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o'rniga siyosiy jabhadagi turli tadbirlar: siyosiy safsatabozlik, quruq va'dalar, so'z bilan ish birligining yo'qligi jamiyatdagi loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o'rnini sustkashlik, davlat va firqa siyosatiga ishonmaslik, befarqlik va sovuqqonlik egalladi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkon yaratdi. Shu bilan birga, bunday jarayonlarni madaniy shaklda xalqaro andozalar asosida olib borish imkoni bo'lmadi. Buning ustiga Ittifoqqa nisbatan O'zbekistonda respublika rahbariyati demokratiya va oshkoralikning kuchayishiga turli to'siqlar qo'ydi. Bunga ko'proq kommunistik mafkuraning yakkahokimligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asoratlari ta'sir qilar edi. Natijada tom ma'nodagi oshkoralikka erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi siyosiy o'yinlar qo'rinishini oldi. Fikrlar xilma-xilligining turli ko'rinishlari esa yuqorining siyosiy va g'oyaviy masalalarda hurfikrlilik va demokratiyani ta'qib etishi asnosida yuz berdi.

Ma'muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o'z ichki **siyosiy mavqeini** mustahkamlash maqsadida ma'lum davrlarda zo'ravonlik siyosatini amalga oshirib turdi. Tazyiq, zo'ravonlik va qatag'onlar boshqa xalqlar ichida milliy ruh va o'zlikni yo'qotishga, loqaydlik kabi kayfiyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Sovet davlati tomonidan boshlangan qatag'onlarning oxirgi davri O'zbekistonda XX asr 80-yillarida «paxta ishi», keyinroq «o'zbeklar ishi» degan ma'shum nom ostida tarixga kirdi. Sovet davlatini qamrab ola boshlagan inqiroziy holatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki «yuzaga kelgan salbiy illatlarda» deb bilgan markaz, O'zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab oldi.



1982-yil noyabrda KPSS MQ, Bosh kotibi L. I. Brejnev vafotidan so'ng mazkur lavozimni egallagan Yu. B. Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Yu. B. Andropov o'zining Davlat xavfsizlik qo'mitasidagi uzoq yillik tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatning tobora og'irlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotiga doir bo'lgan barcha ma'lumotlardan, jumladan rahbar-kadrlar faoliyatidagi nuqson va kamchiliklardan xabardor edi. Markazdagi siyosiy rahbariyat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqiroziy holatlarning sabablari yechimini aksariyat kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib-intizomning bo'shishi, mafkuraviy hushyorlikni yo'qotish bilan izohladi. Hukmron partiyaning 1983-yil iyun plenumida ham aynan partiya ideologik, ommaviy siyosiy ishining muhim masalalari ko'rib chiqildi va jamiyatdagi poraxo'rlik illatlarining asosiy sabablarini biron-bir xodimning xatolaridan, rivojlanishning aniq muammolaridan va qiyinchiliklaridan qidirish lozimligi ta'kidlandi.

Respublika ijtimoiy hayotida katta «burilish» yasagan O'zbekiston KP MQ 1984-yil XVI plenumi ham markazning respublikadagi «sog'lomlashtirish» borasida ko'rsatayotgan va belgilayotgan tadbirlarini qo'llab-quvvatladi. Bunday tartib respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir etayotgan bo'lsa-da, kadrlar bilan ishlashni partiyaning asosiy «vazifalaridan» biriga aylantirib olganlarga nisbatan hech qanday chora ko'rilmagan edi. Mazkur plenum markazning «O'zbekistonda turg'unlik davri illatlariga qarshi kurash»ini qo'llab-quvvatlagan holda mahalliy rahbar kadrlarni turli yo'llar bilan tazyiq ko'rsatish va jazolash jarayonlarini boshlab yubordi.

Bunday holatlar O'zbekiston sovet mamlakatidagi «poraxo'rliklar, qo'shib yozishlar, o'g'rilik kuchayib ketgan yagona hudud», degan tushuncha paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston KP MQ XVI plenumi va XXI syezdi qarori bilan O'zbekistonga markazdan kadrlar jo'natila boshlandiki, O'zbekiston Kompartiyasi MQ O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR prokuraturasi, O'zbekiston SSR Ichki ishlar ministrligi kabi muhim boshqaruv bo'g'inlari shunday kadrlar qo'l ostiga tushib qoldi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana borishdi. Qisqa muddat ichida O'zbe-

kiston prokuraturasining eng yuqori, eng muhim lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillari bilan almashtirilgan. 1984-yilda O'zbekiston SSR prokurori, uning muovinaridan uchtasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga markazdan yuborilgan xodimlar qo'yildi. Natijada, Buxoro viloyatiga G. N. Matyushov, Samarqand viloyatiga B. I. Eremenko, Xorazm viloyatiga A. D. Titorenko, Navoiy viloyatiga A. P. Suxarev, Surxondaryo viloyatiga B. M. Jeltkov, Qoraqalpog'iston ASSRga B. B. Dontsov, Toshkent shahriga G. P. Filippenkovlar prokuror etib tayinlanishdi.

Bu hol aslida respublikadagi asosiy mas'uliyatli lavozimlarga markazdan yuborilgan «desantchilarni» joylashtirish siyosati boshlanganligidan darak berar edi. Ular ittifoq markazining respublikadagi tayanchi bo'lishi va respublikada sovetcha usuldagi «tartib-intizom»ni yanada mustahkamlashlari lozim edi. Shubhasiz, mahalliy rahbariyat «iltimosiga binoan» yuborilgan kadrlar noqonuniy tarzda hibsga olinganlarning manfaatlarini himoya qilishi ham qiyin edi. Aksincha, «desantchilar» qatag'onlik siyosatining davom etishida, respublikada nohaklik va qonunbuzarlik, mansabni suiiste'mol qilishning avj olishida, zo'ravonlik va tazyiqni kuchayishida «faol» rol o'ynadilar. O'z navbatida ular markazning respublikadagi tayanchi bo'lib qoldi va respublika huquq-targ'ibot organlariga ehtiyojni «desantchilap» orqali to'ldirib borishdi.

Ayni paytda o'zi egallab turgan lavozimiga noloyiq deb «hisoblangan» kadrlarga nisbatan ta'qib boshlanib, yetilib kelayotgan iqtisodiy inqiroz «gunohkorlar»ini topish, ularga partiyaviy jazo berish bilan, go'yoki, muammolarni oldini olish boshlandi. 1983-yilda SSSR Bosh prokurori A. M. Rekunkov topshirig'iga ko'ra, SSSR prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T. Gdlyan boshchiligida mamlakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib, O'zbekistonga yuborilgan. Bu «paxta ishi»ni amaldagi boshlanishi edi.

«Paxta ishi» uydirmalaridan boshlangan vaqtda xalq xo'jaligida «jinoiy ishlarga qo'l urgan» xodimlar javobgarlikka tortilib, ular xalq xo'jaligida «qo'shib yozishlarga» yo'l qo'yilganlikda ayblandilar. Qo'shib yozishlarni tekshirishdan boshlangan tergov guruhining faoliyati asta-sekinlik bilan rahbarlik lavozimida ishlayotgan kishilarni

ham torta boshladi. «Paxta ishi», «o'zbeklar ishi» nomini olib kelgan qatag'onga keyinroq milliy tus berilib, to'liq «o'zbeklar ishi»ga aylantirildi. Natijada, mahalliy rahbar xodimlar, ziyolilar ham ta'qib ostiga olindi. O'zbekistondagi bu holatlar haqida markaziy matbuot sahifalarida shunchalik ko'p maqolalar chop etildiki, ulardan «xalqimizning tarixi, madaniyati, paxta va paxtakorning mashaqqatli mehnatlaridan bexabar odamlarda go'yo, o'zbeklar turli nopok yo'llar bilan daromad orttirib, yengil-yelpi hayot kechiradi», degan noto'g'ri tasavvur tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Tergov guruhiga kirgan tergovchilarning asosiy qismi katta bilim va tajribaga ega bo'lmagan, noqonuniy holatlardan ko'z yumadigan, topshiriqlarni ko'r-ko'rona tarzda bajaradigan kishilar bo'lgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan. Ular soxta ayblovlar bilan qonunsizlik yo'liga o'tib, tergov jarayonlarida tuhmat, ig'volar uyushtirish, faktlarni soxtalashtirish, kishilarni soxta ma'lumot berishga majbur etish, o'zlariga yoqmagan kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanishgan. T. Gdlyan olib borayotgan jinoyat-tergov ishlarining barchasi ochiqdan-ochiq ayblov yo'nalishida bo'lgan. Ko'plab jismoniy va ma'naviy azoblardan so'ng qamoqqa olinganlar o'z ayblarini bo'yinlariga olishga majbur bo'lishgan.

Mana shunday qabih yo'llar bilan tergov guruhi guvohlik beruvchilardan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olgan. Noqonuniy qamoqqa olingan kishilar orasida ko'p bolali onalar, homilador ayollar, yosh bolalar ham bo'lgan. Bu ishlardan ko'zlangan maqsad iqtisodiy «jinoyatchilik»ni fosh etish emas, balki mamlakat hayotidagi umumii salbiy holatlarning aniq bir qo'rinishi bo'lgan qo'shib yozishga qarshi harakatlarni to'xtatish, «temir intizom» bilan milliy kadrlarni jazolab, erkin fikrlaydigan ziyolilarni jilovlash, respublikalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bo'g'ib tashlash, milliy ong, fuqaroning faolligini ham bir tizginda ushlab turishdan iborat edi.

T. Gdlyan guruhining O'zbekistondagi faoliyati davomida O'zbekiston SSR prokraturasi va O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimi, O'zbekiston Kompartiyasi MQning to'rt nafar kotibi, viloyatlardagi qo'mitalarining sakkiz kotibi, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi, O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumi Raisi, O'zbekiston Paxta tozalash sanoati vaziri va boshqa bir qancha mas'ul xodimlar, umuman 62 nafar mas'ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy-

javobgarlikka tortilishdi. 1989-yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984–1989-yillar davomida T. Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq «jinoiy» ish ko'rilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lgan. O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri B. Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan.

XX asr 80-yillariga kelib qo'shib yozishlar, poraxo'rlik, mansabni muste'mol qilish hollari ittifoqdosh respublikalarning barchasida kuchaygan edi. Shuningdek, bu illatlar faqat mahalliy rahbar kadrlar yo'l qo'ygan xato, kamchiliklarinigina emas, balki mamlakatda o'tgan yillar ichida shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining natijasi edi. «Paxta ishi» uydirmalari bo'lsa, o'zbek xalqining kuchayib kelayotgan iqtisodiy inqirozlardan chalg'itish, bunda biror bir xalqni «aybdor» qilib ko'rsatish orqali xalq e'tiborini boshqa tomonlarga burib yuborishdan iborat edi. Aslida shunday ham bo'ldi, butun mamlakat bo'ylab O'zbekistondagi «ulkan o'g'riliklar», «poraxo'rliklar» muhokama etildi. Natijada, «turli millat xalqlarining buzilmas ittifoqi tashkil topgan» bu ulkan davlatda «do'stlik va qardoshlarcha hamkorlik» bir chetda qolib, butun mamlakatga o'zbek xalqiga nisbatan «boqimanda» degan yorliq yopishtirildi. Butun bir millatni ayblash yo'liga o'tib olgan siyosiy rahbariyat «paxta ishi»ni «o'zbeklar ishi»ga aylantirib yubordi. O'zbekiston mustaqil ravishda «paxta ishi»ni tekshirish boshlanganda ishni mahalliy rahbarlarga berishni istamay, tekshiruv ishlariga to'sqinlik qilishga, haqiqiy aybdorlarni yashirib turishga, barcha ayblovlarni yana o'zbek xalqi yelkasida qoldirishga intildi.

O'zbekistonda inson huquqlari behad to'xtalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo'natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko'rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumash-talariga ketma-ket unvonlar berildi.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi ishdan boshlandi.

«Paxta ishlari»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh

prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda «Paxta ishlari» chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rniga tayziqni kuchaytirishdi.

Respublika rahbarining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi avf etildi.

Paxta komissiyasi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, paxta ishlari bo'yicha sudlanganlarning ko'pchiligi hayotligida oqlandi, yuzlari yorug' bo'ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o'z ish joylariga qaytishdi, musodara qilingan mulki qaytarilib, boshqa yetkazilgan moddiy zararlar qoplandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xususan, respublika rahbariyatining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Minglab begunoh fuqarolarning nomlari oqlandi.

5. O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989–1991).

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan yaqqol tunazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. «Qayta qurish» siyosatining barbod bo'lishi, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishini inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo'ygan, yagona partiya ish hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko'rsatgan edi. Bu vaqtda O'zbekiston iqtisodiy hayoti juda og'ir ahvolda, xususan, sanoatning biryoqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og'irlashib, onalar va bolalar o'limining oshib kyetishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta'qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo'ygan edi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining jabhalarida O'zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlari bilan bog'liq masalalar birinchi navbatda turar edi. Shunday vaziyat-

da tinch hayotni ta'minlash uchun davlatni boshqara oladigan, bo'lib o'tgan va o'tayottan iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan to'g'ri xulosa chiqarib, millat ravnaqi yo'li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar respublika uchun zarur edi. 1989-yil iyunda I.A. Karimov O'zbekiston rahbari etib saylanishi bilan O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadal-lashtirish masalalariga bag'ishlangan Kengashda so'zlangan nutqida: «Hozirgi kunda ko'pgina odamlar Farg'ona voqealarning sabablarini turlicha izohlashmoqda. Men ham butun barcha sabablarni sanab ularning eng asosiylarini qayd etmoqchi emasman. Lekin, barcha voqealarining ildizi – Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog'liq, desam, o'ylaymanki, ko'pchilik bu fikrga qo'shiladi», – deb alohida ta'kidlab o'tadi.

O'zbekistonda chuqur demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning zarurligini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov respublika rahbari etib tayinlangan kunning ertasidayoq, ya'ni 1989-yil 24-iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida so'zlagan nutqida birinchi bor ochiqdan-ochiq ta'kidladi. U O'zbekistonda vujudga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va uning sabablarini chuqur tahlil qilib, achchiq va haqqoniy bir xulosaga keldi. «Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi», deb yangi lavozimga qanday ulug' maqsad va mas'uliyat bilan kirishayotgani O'Z faoliyatida islohotchilik, el-yurtning dard-u tashvishlari eng oliy mezon bo'lib qolishini ochiq bayon qiladi.

I. A. Karimov respublikamizdagi o'sha davrdagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini bir muncha bo'lsa-da yaxshilash uchun paxta ekin maydonlarini qisqartirish, uni ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishni maqsad qilib qo'ydi. Shuning uchun 1989-yil 17-avgustda I. Karimov boshchiligida respublika hukumatining yig'ilishida «qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida» qaror qabul qilinadi. Qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotihdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Buning natijasida 1989–1990-yillarda 1,5 mln. dan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratil-

di. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Paxta yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi.

Ta'kidlash joizki, I. A. Karimov o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan yirik davlat arbobi va mohir siyosatchi, bunyodkor va tashkilotchi, katta tajribaga ega bo'lgan amaliyotchi va teran nazariyotchi sifatida serqirra va samarali faoliyat bilan respublikada millatidan va dinidan qat'iy nazar, odamlar O'zbekistonni o'z Vatani deb hisoblashlariga naqat da'vat etdi, balki ular uchun shart-sharoit yaratish qayg'usi bilan yashadi. 1989-yil sentabrda KPSS MQning navbatdagi plenumida ham I. A. Karimov O'zbekistonning yangi rahbari sifatida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Biroq markaz respublikalar milliy manfaatlarini o'ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avvallari markazni qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa endilikda ham uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqtirmas edi. Mana shu vaqtda respublika rahbarining haqiqiy milliy rahbar sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'lgan edi.

Uzoq yillik tarix davomida dunyoning ko'plab davlatlarida xalqlar millatlarning ozodlik kurashlari tarixida ona xalqining milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qilgan ko'plab yo'lboshchilar ma'lum. O'zbekiston tarixida ham XX asr 90-yillariga kelib Islom Karimov ham millatning lideri, ulug' yo'lboshchi sifatida maydonga chiqdi. U avvalo respublikadagi tang ahvolni qalban sezgan holda markazdan xoli xalq manfaatlarini ko'zlab ish olib borish lozimligini anglab, og'ir va mas'uliyatli vazifalarni hal etishni boshladi. Farg'ona vodiysida kuchayib ketgan mesxeti-turklari va o'zbeklar o'rtasida turli ig'volar va bo'htonlar natijasida boshlangan mojarolarga ehtiyotkorona va bosiqlik bilan, mojarolar ildizini bilib, ular yana kuchayib kyetishining oldini olish choralari belgilagan holda siyosat yuritdi. Uning siyosiy etakchilikka xos fazilatlarini, masalaga yondashish usuli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini o'ta nozik va chuqur anglay olish salohiyatiga ega ekanligi mana shu yerda yaqqol ko'zga tashlandi. 25-iyun kuni Farg'ona vodiysiga borgan I. A. Karimov sarosimaga tushgan odamlar bilan suhbatlashdi. Xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiliga qaramay Qo'qon shahriga bordi, yo'l-yo'lakay bir-ikki joyda to'xtab, odamlarning ro'y

berayotgan voqealar haqidagi fikrini bilib oldi. Mojarolar tufayli zarar ko'rganlar savdoga chiqariladigan zaxira hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlandi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlariga «ko'nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil 8-iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutilgan edi. Natijada, 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo'ldi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig'i esa yarador qilindi. Umuman 3–12-iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lib, 1009 kishi yarador bo'lgan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan edi.

Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilgach, sovet davlati milliy siyosati o'zini oqlay olmaydigan darajada sayoz ekanligini anglagan O'zbekiston rahbari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish, xususan ona Vatanlaridan majburan ko'chirilgan xalqlarni yillar davomida ta'qib ostida ushlagan siyosatdan himoya qilish, ularga milliylik hissini berish, g'ururni shakllantirish maqsadida respublikada milliy madaniy markazlar tuzish uchun harakatlarni boshladi. Bu markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston SSR Madaniyat ishlari vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi va ularning soni 1989-yilda 12 ta edi. Ushbu markazga milliy madaniy markazlar faoliyatiga rahbarlik qilishi, turli millatlarning urf-odat, diniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishda ko'mak berishi asosiy vazifa qilib belgilandi.

Bunday markazlar, xususan, polyak milliy madaniy markazi «Svetlitsa Polska», koreys milliy madaniy markazi «Bozrojdenie» (Tiklanish), ozarbayjon milliy madaniy markazi «Gardashlo'k» (Do'stlik), nemis milliy madaniy markazi «Bidergeburt» (Tiklanish, Wiedergeburt), kabilar respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xalqlar o'rtasida do'stlik, qardoshlikni mustahkamlashda sharaflı xizmatni o'tadi. Shuningdek, respublikaning umumta'lim o'rta maktablarida tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tilida o'qitish darajasini kengaytirish, respublika oliy o'quv yurtlarida qozoq, tojik, qirg'iz tillarida o'qitish bo'limlari va ularni darslik hamda o'quv ko'rgazmalari bilan qurollantirish vazifasi ham belgilandi.

1990-yil 1-noyabrda qishloqda yashovchi aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi ishlar davom ettirilib, 2.220.129 oiladan 1.327.149 oila yangi tomorqa uchastkalari olish va mavjudlarni kengaytirishga muhtoj bo'lgan holda ularning 394.098 nafar oilasi yangi yer uchastkalari olishdi. Ularga foydalanishlari uchun 55.036 gektar yer ajratib berildi. O'z uchastkalarini kengaytirishga muhtoj bo'lgan 933 164 oiladan hammasining talabi qondirildi. Ularga ko'shimcha ravishda 101.117 gektar yer ajratildi. Natijada, qishloq mehnatkashlarining davlat tomonidan olgan yerlari 156.153 gektarga etdi. Bundan tashqari bu qaror bajarib bo'lingandan so'ng yangi tashkil topgan oilalarga ham maydoni 11.009 gektar bo'lgan 87.515 ta tomorqa uchastkasi ajratib berildi. Mazkur tashkil toptan xo'jaliklarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish maqsadida davlat 1990-yilda 765.862 ta shartnoma tuzdi.

Yer uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo'jalikda yetishtirilgan mahsulotning oilasidan ortgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo'ldi. Natijada, mayda tovar ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshladi. Bunday yordamchi xo'jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga muayyan hissa qo'sha boshladilar. 1990-yil 28-iyulda Prezident Islom Karimovning «Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonning qabul qilinishi qishloq qiyofasini tubdan o'zgartirish, u yerda yashovchi fuqarolarning turmush-tarzini yaxshilash borasida tashlangan yana bir muhim qadam edi.

Bu harakatlar zamirida mustaqil tiklanish, milliy davlatchilikni tuzish uchun harakatlarni sezish mumkin edi. 1989-yilning oxirlariga kelib o'zbek tiliga ham Davlat tili makomini berish uchun harakatlar milliy davlatchilikni rivojlantirishning bir yo'li edi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish harakatlari 1988-yildan boshlangan bo'lsa-da, hali-hanuz bir qarorga kelishning imkoni yo'q, matbuotda esa bu haqida turli qarashlar va fikrlar bildirilar, aniq bir natija belgilashning imkoni bo'lmas, markazniig ta'siri ham kuchli edi. Respublikada rahbarlikni boshlagan I. A. Karimov alohida komissiya tuzish haqida ko'rsatma beradi. Ushbu komissiya xalq fikrini o'rganib, o'zbek tiliga davlat tili maqomini beruvchi qonun loyihasini tayyorlashi kerak edi. Yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritil-

gan edi. Loyiha muhokama qilinayotgan to'rt oy davomida komissiyaga jami to'rt mingga yaqin maktub kelib tushdi, bu xatlarga jami 150 mingdan ortiq kishi imzo chekkan edi.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o'rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga keldi. Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o'rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989-yil 11-oktabr kuni matbuotda e'lon qilindi. Loyiha umumxalq muhokamasidan o'tganidan so'ng O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda bo'lgan 11 sessiyasida «O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida» Qonuni qabul qilindi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston rahbariyati o'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarishda respublikada istiqomat qiladigan boshqa xalqlarning milliy manfaatlarini ham hisobga oldi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi boshqa milliy tillarning manfaatlariga zid kelmasligi belgilangan edi. Qonunga respublikada yashovchi barcha xalq va millat vakillari teng huquqli ekanini ko'rsatuvchi modda ham kiritildi.

Umuman, 1989-yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o'rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo'l ochib berdi. Shu ma'noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo'lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam bo'ldi va milliy mustaqillikning ma'naviy poydevoriga asos yaratdi. O'z-o'zidan, ushbu Qonun o'zbek xalqining mavqeini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to'la amal qilishiga katta imkon yaratdi.

O'zbekiston aholisi xohish-irodasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xalqning chinakam taraqqiyoti va gullab-yashnashini ta'min-

lash, uning ma'naviy imkoniyatlarini boyitish zarurligiga asoslanib, O'zbekiston Prezidentining «Navro'z xalq bayramini o'tkazish yakunlari to'g'risida»gi 1990-yil 3-mayda qabul qilingan Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida har yili 21-martni dam olish kuni va umumxalq Navro'z bayrami kuni deb e'lon qilindi. Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qo'shnichilik, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham bo'lishga intilishlari qudratli omil bo'ldi.

Ma'muriy-buyruqbozlik avj olgan milliy his-tuyg'ularni poymol etish evaziga shovinistik ruh bilan shakllangan kommunistik tuzum XX asr 80-yillarida butun O'zbekiston xalqini ta'na-dashnom va tuhmatlar domiga tortgan, «paxta ishi» yoki keyinchalik «o'zbeklar ishi» nomini olgan uydirmalar sovet tuzumi qatag'onining yangi bosqichi bo'lgan edi. Yuzaga kelgan turli ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar mavjud salbiy vaziyatni keskinlashtirib yuborgan, biroq 1989-yilning ikkinchi yarmidan respublikadagi o'zgarishlar «paxta ishi» qatag'onlari bilan bog'liq bo'lgan T. Gdlyan guruhiga nisbatan munosabatni ham o'zgartirib yubordi. 1989-yilga qadar respublika aholisi orasida qo'rquv hissini uyg'otib kelgan «paxta ishi» yoki «o'zbeklar ishi» uydirmalariga ham 1989-yilning ikkinchi yarmidan boshlab barham berila boshlandi.

Xalqning prokuratura organlariga ishonchini uyg'otish, birinchi navbatda xalq va yurt manfaatlaridan kelib chiqib ish tashkil etish, Gdlyan-Ivanovlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarga barham berish, ularga nisbatan jinoiy ish ko'zg'ash, noqonuniy jazoga tortilganlarni ozod qilish, markazdan kelgan «qonun posbonlarini» kelgan joyiga qaytarib yuborish, markaz bilan aloqani asta-sekin uzish ishlari eng muhim vazifaga aylandi.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989-yil 12-sentabrda «paxtachilikdagi qo'shib yozishga yo'l qo'ygani uchun jinoiy-javobgarlikka tortilgan kishilarni avf etish maqsadida hujjatlar tayyorlaydigan» komissiya tashkil etdi. Ushbu komissiya tayyorlagan hujjatlarga tayanib, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi jinoiy-javobgarlikka tortilgan 43 kishini gunohidan o'tishni O'zbekiston SSR Oliy Sovetidan so'radi. Unda ko'plab shaxslarga belgilangan jazo muddatlarini yengillashtirish choralari so'ralgan edi. Ma'lum bo'lishicha, shu vaqt oralig'ida «paxta ishi»da sudlanganlar soni 4018 kishini tash-

kil etgan bo'lsa, respublikada boshlangan ijobiy o'zgarishlardan so'ng rehabilitatsiya qilinganlar soni 2940 kishini, qayta tergovga yuborilganlar 63 kishini, asossiz sudlanganlar 1016 kishini tashkil etdi.

1990-yil 31-oktabrga kelib Oliy Sovetning 12-chaqiriq uchinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti tavsiyasi bilan respublika prokurorining ittifoq prokuroriga qaramligiga barham berish va bu tizimning mustaqilligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Prokurori Respublika oliy organi tomonidan tayinlandi. Umuman, 1990-yilga kelib sovet davlatining hukmronligi inqirozga uchrayotgan, ittifoqdosh respublikalar o'z milliy mustaqilligi uchun keng harakatlarni olib borayotgan davr bo'ldi. O'zbekistonning yangi rahbariyati ham mustabid tuzum uchun butkul yot bo'lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan maydonga chiqdi. Aynan mana shu davr respublikaning mustaqillik sari yo'l olishi bilan ifodalandi. O'zbekistonning rahbari I. A. Karimov boshchiligida boshlangan bu yo'l tarixiy-ma'naviy tiklanish, markaz tomonidan olib borilgan qatag'onlik siyosatiga chek qo'yish, o'zbek xalqi sha'nini himoya qilish, iqtisodiy tanazzul holatini cheklash, ichki bozorni himoyalash, butkul yangi ijtimoiy himoya siyosatini olib borish, markaz ta'sirini kamaytirish va boshqa keng qamrovli tadbirlarlan iborat bo'ldi.

1990-yil bahorida Islom Karimov «gorbachyovcha» qayta qurish boshi berk ko'chaga kirib qolganini anglab yetdi. O'sha vaqtda SSSR siyosatchilari orasida bunday odamlar kamdan-kam edi. Rossiyada va boshqa ittifoqdosh respublikalarda tobora kuchayib borayotgan tartibsizliklar O'zbekistonda ham yuz bermasligi uchun qat'iy choralar ko'rish kerak edi. O'zbekistonda hokimiyatning ozgina zaiflashuvi ham respublikada millatlararo nizolar yangidan boshlanishiga, ijtimoiy portlashlarga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli Gorbachyov va uning atrofidagilar norozi bo'lishiga va qarshilik ko'rsatishiga qaramay, O'zbekistonda respublika Prezidentligini joriy etildi.

1990-yil 23-martda esa O'zbekiston Kompartiyasi MKning Plenumi ham respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqqan va unda O'zbekiston hokimiyatning Prezidentlik boshqaruvi shakliga o'tishi respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta'kidlangandi. 1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1-sessiyasida SSSR doirasida birinchi bo'lgan siyosiy hujjatni – «O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi ta'sis

etish to'g'risida»gi qarorni qabul qildi va O'zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O'zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib o'zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi. O'zbekiston xalqining manfaatlarini ko'zlab I. A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlarning o'ziyoq prezidentlik boshqaruvining o'z vaqtida ta'sis etilganidan dalolat berdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishida qo'yilgan yana bir muhim qadam bu 1990-yil 20-iyunda «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonun O'zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. Deklaratsiyada har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi. 1990-yil 1-oktabrda «O'zbekiston SSR Prezidenti Kengashining tarkibi to'g'risida» O'zbekiston SSR Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Farmon asosida O'zbekiston SSR Prezidenti Kengashining 14 kishidan iborat a'zolari tayinlandi.

O'zbekiston Prezidentining bevosita ko'rsatmasi bilan respublika ichki ishlar vazirligining mas'ul lavozimlariga malakali mahalliy kadrlar qo'yildi. Bu tadbirlarning huquqiy asosi bo'lib 1990-yil 31-oktabrda Prezident imzolagan «Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston SSR Qonuni, 1991-yil 25-oktabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi to'g'risida»gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi.

1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avv.dek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib tura boshladi. Xususan, 1991-yil 21-iyulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiuminiig «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysinuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish»

to'g'risida qabul qilgan qarori ham O'zbekiston SSR Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlanganligining isboti bo'lib qoldi.

1991-yil 18-avgustda Moskva shahrida bir guruh avantyuristlar M. Gorbachyovni rahbarlikdan chetlashtirib, Favqulodda holat davlat komitetini tuzadi. Bu voqea «GKChP voqeasi» nomi bilan tarixga kirdi. GKChP rahbarlarining asosiy maqsadi mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta'qiblarni kuchaytirib, tobora zaiflashib borayotgan qizil imperiyani saqlab qolishdan iborat edi. Shu maqsadda ular butun SSSR hududida favqulodda holat joriy etmoqchi, milliy respublikalarning o'z xalqi manfaatlarini o'ylab qilgan qonun va qarorlarini bekor etmoqchi bo'lishadi.

O'zbekistonning rahbari bu vaqtda Hindiston safarida bo'lib, Respublika rahbarining yo'qligidan foydalangan O'zbekiston SSR vitse-prezidenti va O'zbekiston Kompartiyasining ikkinchi kotibi O'zbekiston SSR hududida SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasining faoliyatini qo'llab-quvvatlash haqida ko'rsatma berib yuboradi. I. Karimov Favqulodda holat e'lon qilinganini eshitib, zudlik bilan Toshkentga qaytadi va O'zbekiston SSR hududida GKChPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma beradi. 1991-yil 20-avgust kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Soveti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida majlis o'tkazadi. Unda so'zga chiqqan I. Karimov «... har birimiz og'ir va vazmin bo'lishimiz kerakligini, boshimizga tushgan sinovlar, noaniq davr va sharoitdan, avvalambor, aql va idrokimizni bir joyga yig'ishtirib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerakligini» alohida ta'kidlab o'tadi. 1991-yil 21 avgust kuni O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo'mitasining O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi Farmoniga binoan Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika Ichki ish-

lar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuratura, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shinlari partiyadan butunlay xoli qilindi.

Umuman, XX asrning 80-yillari ro'y byergan ulkan siyosiy voqealar jahon taraqqiyotini keskin o'zgartirib yubordi, qarama-qarshilikka, sinfiy ziddiyatga, o'zaro kamsitishlarga va zo'rvonlikka asoslangan, besamar «sotsialistik taraqqiyot» yo'lini mahkam ushlagan, dunyoning oltidan bir qismida umumbashariy g'oyalarni rad etib, faqat kuch ishlatish va xalqlarni qaramlikda saqlab turish yo'lini amalga oshirib kelgan yirik va so'nggi imperiyalardan biri bo'lgan SSSRning parchalanib kyetishi dunyoda yangicha siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy qiyofa kasb etdi. Mustamlakachilikning uslubiga asoslangan imperiya o'rnida umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va demokratiya taraqqiyotining asosiy yo'nalishi qilib olgan mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Yangi paydo bo'lgan MDH davlatlari o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyot yangi bosqichiga qadam qo'yishdi. O'zbekiston Respublikasining qaramlik asoratidan qutilib, davlat mustaqilligini qo'lga kiritganligi xalqimiz taqdirida buyuk o'zgarishlar yasadi.

Tayanch so'zlar

O'zbekiston, SSR, sovet, syezd, kompartiya, qaramlik, qatag'onlik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografiya, urbanizatsiya, madaniy hayot, mafkura, «qayta qurish», konsepsiya, ekologik fojea, Farg'ona, Toshkent, Markaz, mustaqillik, deklaratsiya, Prezident, markaziy komitet, sotsialistik, siyosat, sanoat, paxtachilik, xomashyo.

Savol va topshiriqlar

1. Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekistonda xalq xo'jaligini tiklash jarayoni qanday kechdi?
2. XX asr ikkinchi yarmidan to mustaqillikgacha bo'lgan davrda O'zbekiston madaniy-ma'naviy qaramlik qanday oqibatlariga olib keldi?
3. 40-yillar oxirlari – 50-yillar boshlaridagi qatag'onlik mazmun-mohiyatini izohlang.
4. 50–80-yillar respublika iqtisodiy hayotidagi bir tomonlik va uning oqibatlarini tushuntirib bering.

5. O'zbekistonda kechgan demografik jarayonlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ldi?

6. Respublikada ekologik holatning keskinlashishi sabablari nimada edi?

7. XX asr 50–80-yillardagi madaniy jarayonlar haqida qanday ma'lumotga egasiz?

8. «Qayta qurish» siyosati va uning O'zbekistondagi salbiy oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?

9. 80-yillar oxirlari – 90-yillar boshida respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayot qay yo'sinda kechdi?

11-mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: «O'zbekiston», 2011.
6. Yusupov E. Istiqlol yo'lida. – Toshkent: «Fan», 1996.
7. Usmonov Q. O'zbekiston mustaqillik odimlari. – Toshkent, 1994.
8. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. – Toshkent: «O'zbekiston», 1992.
9. Usmonov Q., Abdug'aniyev A. O'zbekiston – siyosiy va huquqiy islohotlar sari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
10. O'zbekiston tarixi. R.H. Murtazayevaning umumiy taxriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2005. – 413-449; 479-502 betlar.
11. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2006.
12. O'zbekiston tarixi. (1917–1991-yillar). Ikkita kitob. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2019.
13. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Toshkent: «Akademiya», 2013.
14. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов. – Ташкент: «Адабиёт учкунлари», 2018.

12-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish.

Reja:

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Siyosiy islohotlar. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi.
3. Sud-huquq sohasidagi islohotlar.
4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlari.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi – mustaqillik yillarida.

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va Sobiq Ittifoqdosh respublikasidagi o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurash jarayonini tezlashtirib yubordi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 1991-yil 31-avgustdagi VI sessiyasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I. A. Karimov ma'ruza qildi. U o'z nutqida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19-21-avgust kunlari Moskvadagi Favqulodda holat davlat komiteti (GKChP) a'zolari faoliyatining xalqlar ozodligi, respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi haqida ro'yi-rost fikr bildirildi. Oliy Kengash deputatlari har bir moddaning muhokamasidan so'ng, «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilishdi. So'ngra «Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun – 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi.

Ushbu qonunda O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo'linishi hamda iqtisodiy asoslari ham Qonunda o'z aksini topdi. Hujjatda O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan oldi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etildi.

1991-yil 14-sentabrda esa O'zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e'lon qilindi. Partiyaning bundan buyon faoliyat ko'rsatmasligi e'tiborga olinib, ushbu partiya o'rnida Xalq Demokratik partiyasi tuzildi. O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kuni o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar qurildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida» Qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ulug' ajdodlarimizning aqida va maslaklariga mos keluvchi, millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi» to'g'risida Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumush rangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog'lar havo rangda, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy

va yulduz oq rangda. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992-yili 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Konstitutsiya muqaddima, olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'lib, birinchi bo'limda Konstitutsiyaning asosiy printplari bayon etildi, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'nalishlari o'z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning Ikkinchi bo'limi 35 moddadan iborat bo'lib, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishi, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo'shilish huquqlari taqqoslab ko'rsatilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli rivojlandi. 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylov muqobillik tarzida o'tdi va bu lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I. A. Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra 8 mln. 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 mln. 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

Mamlakatda keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26 -martda Prezident I. A. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazdi. 2000-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga bo'lgan saylov natijalari tasdiqlandi. Shu kuni «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan I. Karimov uchun 11 mln. 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi, ya'ni 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi I. A. Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i qilib belgilanishini ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan.

O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar Kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomi va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Boshqaruv idoralari faoliyatni takomillashtirish maqsadida 1995-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibini tasdiqladi. 2000-yil ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishi (11-fevral) Vazirlar Mahkamasining yana yangi tarkibini tasdiqladi. Boshqaruv tizimining boshqa bo'g'inlari ham bozor iqtisodining O'zbekistonga xos yo'lga moslashtirildi.

1991-yil 6-sentabrda Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzil-

di. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim deb topildi. 1992-yil iyulida u Mudofaa vazirligiga bo'ysundirildi.

Mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida ham tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yildan ushbu Qo'mita Makroiqtisodiyot va zirligiga aylantirildi.

Xalq xo'jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida kontsernlar vujudga keltirildi. Bu, avvalo, iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o'tish zaruriyati bilan bog'liq bo'ldi. «O'zdonmahsulot», «O'zbekneftgaz» va boshqa ko'plab kontsernlar shular jumlasidan. 1991-yil 7-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga ko'ra respublika parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisiga saylovda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis – Yangi Parlament demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi. O'tgan davr mobaynida Oliy Majlis «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to'g'risida», «O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida», «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunlar, Mehnat kodeksi (1995), «Fuqarolik kodeksi» (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko'plab qonun va qarorlar qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda «Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi»ni tasdiqladi. Dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy

madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdan iborat bo'ldi.

Oliy Majlis faoliyatini erkinlashtirish maqsadida ikki palatali Parlament tuzish to'g'risida 2002-yil 27-yanvarda umumxalq referendumini o'tkazildi, Referendumda qatnashgan fuqarolarning 93,65 foizi parlamentning ikki palatadan iborat bo'lishini qo'llab-quvvatladi.

2004–2005-yilning dekabr-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasiga saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekiston fuqarolarining faol ishtiroki, mahalliy va xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillarining nazorati ostida o'tgan saylov natijasida Qonunchilik palatasiga 120 deputat saylandi. Bularning 28 nafari Xalq Demokratik partiyasidan, 41 nafari Liberal-demokratik partiyasidan, 18 nafari «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasidan, 11 nafari Milliy tiklanish demokratik partiyasidan, 10 nafari «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan saylandi. 12 deputat tashabbuskor guruhlardan bo'ldi. Mahalliy hokimiyat organlaridan yuqori palata – Senatga har viloyatdan 6 nafardan jami 84 senator saylandi, yana 16 senator Prezident tomonidan ko'rsatildi.

Respublikada inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida 1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. 1997-yil aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo'yicha vakillik (Ombudsman) tashkil qilindi.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo'lib, u ijtimoiy manfaatlarining muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko'maklashadi. Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko'rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatini tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyati qurilishi uchun mustahkam poydevor qo'yildi.

2. Siyosiy islohotlar. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, huquqiy jamiyat va demokratik davlat barpo etish yo'lida siyosiy islohotlarni amalga oshirishni kun tartibidagi dolzarb masala sifatida belgilab oldi.

Xususan, bu borada dastlabki qadam sifatida asosiy qonun – konstitutsiyani yaratish bo'ldi. O'zbekistonning yangi konstitutsiyasini ishlab chiqish g'oyasi aslida respublika Oliy Sovetining 1990-yil 20-yunda bo'lgan 2-sessiyasida ilgari surilgan edi. Bu boradagi ishlar deyarli 2,5 yil davom etdi. Uch guruhdan iborat komissiya bu borada tegishli faoliyat ko'rsatib uning 149 ta moddadan iborat yangi variantini 1992-yil bahorda ishlab chiqdi. 1992-yil 26-sentabrda esa umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Loyiha taklif va mulohazalar asosida qayta tuzatilib 1992-yil 21-noyabrda ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning 12-chaqiriq, 11-sessiyasida muqaddima, 6-bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyot yo'lidagi, zamonaviy demokratik va huquqiy davlat barpo etishdagi asosiy huquqiy hujjat bo'lib shakllandi. U o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, jahondagi eng ilg'or va demokratik jihatlarni o'z ichiga singdirgan. Keyinchalik jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratiyalash, ikki palatali parlament tuzish zaruriyatidan kelib chiqqan holda Konstitutsiyaga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Konstitutsiyaning Oliy Majlis vakolatlariga doir 76-88-moddalarga, Prezident vakolatlari va vazifalariga doir 89, 90, 93, 95, 96, 97-moddalariga ham o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritildi. 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonunga binoan Konstitutsiyaning ayrim moddalariga, xususan Prezident vakolatlariga doir 89, 93-modda 15-bandi, 102-modda 2-qismi o'zgartirildi.

Konstitutsiyaviy tizimning prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

1. Davlat hokimiyatini tashkil qilish asoslari. 2. Ijtimoiy hokimiyatni tashkil qilish. 3. Fuqarolik jamiyati turmushini tashkil qilish.

Ma'lumki, 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash 8-sessiyasida «Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan edi. 1992-yil 2-iyulda Oliy Kengash 10-sessiyasida esa «Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun

qabul qilindi. 1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengash 11-sessiyasida «Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Prezident Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan milliy valyuta – so'm muomalaga kiritildi. Mazkur ramzlar mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olganligini, jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashga harakatini e'tirof etar edi.

O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli zamonaviy tizim o'zagini tashkil etadi. 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash VIII-sessiyasida «Prezident saylovlari to'g'risida» Qonun va «Prezident saylovini tayinlash to'g'risida» Qaror qabul qilindi.

Bu qonunga ko'ra, Prezident lavozimiga 35 yoshga to'lgan, davlat tilini biladigan, saylovgacha kamida 10-yil O'zbekistonda muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

Prezident 7 (5) yil muddatga saylanadi, bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo'lishi mumkin emas, Prezident saylashning asosiy prinsiplari: umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri, yashirin ovoz berish bilan, fuqarolarning saylovda ixtiyoriy qatnashishi, saylov kuni-gacha 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylovda qatnashishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi respublika Konstitutsiyasining 19-bobida aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 89-moddasida Prezident davlat boshlig'i va davlat organlarining faoliyatini ta'minlashi qayd etilgan. Prezidentning shaxsi daxlsiz bo'lib, u qonun bilan muhofaza etiladi deya, belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 93-moddasida Prezidentning vazifalari, uning vakolatiga kiradigan masalalar doirasi belgilangan.

Prezident bir vaqtning o'zida Konstitutsiya, inson va fuqaro huquqlarining kafili bo'lib, davlat hokimiyat organlari faoliyatini ta'minlaydi, qonunlar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi. Prezident bir vaqtning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni, Xavfsizlik kengashining raisi bo'lib ham hisoblanadi. Vakolati tugagach, iste'foga chiqqan Prezident umrbod parlament yuqori palatasi – senat a'zosi lavozimini egallaydi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Prezident vakolat muddati 2007-yil dekabrda tugashi munosabati bilan 2007-yil 23-dekabrda navbatdagi Prezident saylovi o'tkazildi. XDPdan A. Rustamov, Adolat SDPdan D. Toshmuhammedova, saylovchilar tashabbuskor guruhi (STG)dan A. Saidov, LDP dan I. Karimov nomzodi ko'rsatildi. Saylovda ro'yxatga

olingan 16.297.000 saylovchidan 90,6%i qatnashdi. I. Karimov uchun saylovchilarning 88,1%i ovoz berdi. 2007-yil 27 dekabrda bo'lgan Markaziy saylov komissiyasi majlisida I. Karimov Prezident lavozimiga saylandi deb qaror qilindi.

2015-yil 29-mart kuni muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Uning natijalariga ko'ra Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq Islom Karimov 5-yillik muddatga mamlakatning oliy lavozimiga saylandi.

Islom Karimov O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi, yurtimizning yorug' istiqboli yo'lida ko'pmillatli xalqimizni birlashtirib, uni ulug' maqsadlar sari boshlab bordi. Mana shunday buyuk ishlarni amalga oshirgan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 2016-yil 2-sentabr kuni 78 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi. U 2016-yil 3-sentabr kuni Samarqand shahrida dafn etildi. Dafn marosimida jahonning 17 ta mamlakatidan delegatsiyalar, davlat rahbarlari, ko'plab rasmiy doira vakillari, respublikaning keng jamoatchilik a'zolari ishtirok etishdi.

2016-yil 8-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida parlament palatalarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. M. Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalarga asosan 2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan ovoz berish jarayonida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 mln. 461 ming 805 nafar saylovchidan 17 mln. 951 ming 667 nafari ishtirok etganini aniqladi. Bu ro'yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 87,73 foizini tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining natijalariga ko'ra, Sarvar Sa'dullayevich Otamuratovni yoqlab 421 ming 55 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 2,35 foizi ovoz berdi, Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni yoqlab 15 mln. 906 ming 724 nafar saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi, Xatamjon Abduraxmonovich Ketmonovni yoqlab 669 ming 187 nafar

saylovchi yoki 3,73 foizi, Narimon Majitovich Umarovni yoqlab 619 ming 972 nafar saylovchi yoki 3,46 foiz saylovchilar ovoz berdi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90, 117-moddalariga, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 35, 36-moddalariga, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 9-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblash to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonini beshta xalqaro tashkilot – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari uyushmasi va Islom hamkorlik tashkilotidan hamda Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikaning 46 ta davlatidan 600 nafarga yaqin kuzatuvchi kuzatib borgani siyosiy kampaniya demokratiya talablari asosida ochiq va oshkora o'tganining yorqin dalilidir. Saylov jarayonini monitoring qilishda siyosiy partiyalardan 37 mingdan ortiq kuzatuvchi ham faol ishtirok etdi.

Majlisda qayd etilganidek, 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakat o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlar yo'lida – dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash, mamlakatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan modernizatsiya qilish, xalq uchun erkin, tinch va farovon hayotni ta'minlash borasida yana bir ulkan qadam qo'yganini, ta'bir joiz bo'lsa, mustaqil taraqqiyotining yangi davriga kirib borayotganini yaqqol namoyish etdi.

2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovi yakunlari bo'yicha saylovchilarning 88,61 foiz ovozi bilan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2016-yil 14 dekabrda rasman o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

O'tgan qisqa vaqt davomida Prezident Sh. M. Mirziyoyev raxnamligida yurtimizning barcha hududlarida ulkan bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini olib borish, aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish, respublikaning shahar va tumanlari, ayniqsa, uzoq qishloq

tumanlarini kompleks rivojlantirish orqali aholining turmush va mehnat sharoitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli va samarali tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sh. M. Mirziyoyevning faoliyatida sotsial-iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda ta'lim, fan, sog'liqni saqlash tizimlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, onalik va bolalikni kuchli muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida muhim o'rin egalladi.

O'zini o'zi boshqarishning noyob instituti bo'lgan mahallaning nufuzi va obro'sini yanada oshirish, shuningdek boshqa jamoat tashkilotlarini demokratik islohotlarga keng jalb etish orqali jamiyatda ularning mavqeini mustahkamlash, milliy, ma'naviy qadriyatlarini e'zozlash va izchil rivojlantirish ishlariga yuqori darajada e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar va xalqaro tuzilmalar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatimizning milliy manfaatlariga va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan kelishuvlarga erishishda bevosita rahbarlik qilmoqda.

Davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlarning bo'linish tamoyili Konstitutsiyada keltirilgan. Davlat hokimiyatining har biri mustaqil faoliyat yurituvchi 3 hokimiyatga: qonun chiqaruvchi; ijro etuvchi; sud hokimiyatiga bo'linishi qonunlashtirilgan. Konstitutsiyaning 76-moddasiga ko'ra Oliy davlat vakillik organi bo'lgan – Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bu vazifani bajaruvchi vakillik organlari parlament deb ham yuritiladi.

BMTga a'zo davlatlarning 185 tasidan 160 tasida Parlament instituti bo'lib, AQShda 535 deputatdan iborat Kongress, Rossiyada – Federal Majlis (626 deputat), Turkiyada – Buyuk Millat Majlisi (550 deputat), Shvetsiyada – RIKS (349 deputat), Misrda – Xalq Majlisi (454 deputat), Isroilda – Knesset (120 deputat), O'zbekistonda 120 deputat va 100 senat a'zosidan iborat Oliy Majlis faoliyat ko'rsatadi.

Qayd etish lozimki, O'zbekistonda zamonaviy asnoda faoliyat ko'rsatuvchi, xalq xohish-irodasini o'zida ifodalovchi, yosh respublikaning kelajak taraqqiyot yo'lida tegishli qonunlar ishlab chiquvchi parlamentga katta ehtiyoj mavjud edi.

Shu bois ham «Oliy Majlis to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning 1994-yil 22-sentabrda qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi.

Konstitutsiyaning 77-moddasi bo'yicha Oliy Majlisga saylanish tartibi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylanadi. O'zbekistonning 25 yoshga etgan har bir fuqarosi Oliy Majlisga saylanish huquqiga ega bo'ldi.

1994-yil 25-dekabrda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga saylov o'tkazish uchun 250 okrug va 7192 uchastka saylov komissiyasi tuzildi. Oliy Majlisning 1-chaqirig'i deputatligiga XDPdan 247, Vatn taraqqiyoti partiyasi (BTP)dan 146, hokimiyat vakillik organlari (HBO)dan 250 nomzod ko'rsatildi. Saylovlar qonun talablari asosida umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. Oliy Majlis deputatligiga 139 saylov okrugidan 3 tadan, 106 saylov okrugida 2 tadan nomzod ovozga qo'yildi. Saylovda ro'yxatga olingan 11,2 mln saylovchining 93,6%, ya'ni 10,5 mln dan ortiq kishi o'z konstitutsion huquqidan foydalandi. Qayta saylovlar 1995-yil 8- va 25-yanvarda bo'lib o'tdi, Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

Sessiya qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Bakili instituti ham (1995-yil 23-fevral) joriy etildi. Ushbu vakillik institutining joriy etilishi mamlakatimizning demokratik huquqiy davlat barpo etishda inson haq-huquqlarining qanchalik ahamiyatli o'rin tutishidan darak berar edi.

Oliy Majlis 1995–1999-yillar davomida 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 452 ta qaror qabul qildi, qonunlarga esa 216 ta qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. 70 ta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilindi, xalqaro konventsionalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qilindi. Shubhasiz, yuqorida qayd qilingan raqamlar respublika parlamentining 90-yillardagi hali saqlanib qolayotgan nisbatan murakkab iqtisodiy ahvol, ijtimoiy hayotdagi qator muammolar davrida bunday samarali faoliyati izsiz ketmadi. Qonunlarning izchilligi va hayotbaxshligi, demokratik ruh va zamonaviylik bilan sug'orilganligi natijasida mavjud muammolarning asta-sekin bartaraf etilishi boshlandi.

1999-yil dekabrda bo'lgan saylovlar natijasida 250 deputatdan iborat parlamentning yangi tarkibi shakllandi.

Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida Oliy Majlis qo'mitalarining butun tarkibi ishtirok etadi. Qonun loyihalarini tayyorlashda maxsus ishchi guruhlari tuzilib, unda olimlar va mutaxassislarni kengroq jalb etish kabi xalqaro tajribadan foydalanildi. Inson huquqlari bo'yicha

Vakil instituti Oliy Majlis Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bormoqda.

«O'zbekistonning Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi Konstitutsiyaviy sud, Oliy va Xo'jalik sudlari tarkibini saylab, sud tizimini vujudga keltirish jarayonini nihoyasiga etkazdi. Konstitutsiyaning 8-bob, 34-moddasida fuqarolarning siyosiy partiyalarga uyushish huquqi kafolatlangan. «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonun 1996-yil 26-dekabrda, 7-sessiyada qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi ijtimoiy-siyosiy hayot bobida ko'pfikrlilik, turli qarashlar va munosabatlarning demokratik dunyo talablariga binoan shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Zero, jamiyat ijtimoiy hayotida ko'p partiyaviylikning tatbiq etilishi shubhasiz, turli salbiy ilatlarga g'ov bo'lishi, jamiyatning ma'naviy jihatdan sog'lomlashishi muammolarning tezkor bartaraf etilishi, qonunlarning ustuvorligi hamda inson haq-huquqlarining himoya etilishi borasida muhim qadam edi.

1995-yil 22-dekabrda Oliy Majlisning 1-chaqiriq 4-sessiyasida «Davlat mukofotlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. 1995-yil mayda Oliy darajadagi mukofot – «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali ta'sis etildi (birinchi bo'lib, Prezident I. Karimov ushbu mukofotga sazovor bo'ldi). Jasurligi, qahramonligi, fidoiyligi va mehnatdagi faolligi uchun «Mustaqillik», «Amir Temur», «Buyuk xizmatlari uchun», «El-yurt hurmati», 1-2-darajali «Sog'lom avlod uchun», «Mehnat shuhrati», 1-2 darajali «Shon-shuhrat», «Do'stlik», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Shuhrat» medallari berilishi belgilandi.

Oliy Majlisning 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari ta'sis etildi. 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarni taqdirlash uchun Prezidentning 1999-yil 10-iyundagi maxsus farmoni bilan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, ijro hokimiyatini demokratik ruhda, yangi tashkil etilgan davlat milliy manfaatlariga mos ravishda qayta barpo etishga ehtiyoj tug'ildi. Shu boisdan ham sovet davridagi ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organ – Ministrlar Sovetining maqomini tubdan o'zgartirish jarayoni boshlandi. 1990-yil 15-noyabrdayoq, «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Prezident Farmoni e'lon qilingan edi. Bu Farmon asosida xalq xo'jaligi, sanoat, ma'naviy-

ma'rifiy sohalar tegishli komplekslarga ajratilib, Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklatildi.

Mustaqillikning dastlabki davrida qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatida izchillikni ta'minlash, islohotlarni mutanosib ravishda amalga oshirish maqsadida Prezident bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimini ham bajardi.

Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi Vitse-Prezident (1990, 15-noyabr) lavozimi 1992-yil 4-yanvarda tugatilib, o'rniga Bosh vazir lavozimi ta'sis etildi.

1991-yil 18-noyabrda «Prezident saylovi to'g'risida»gi Qonun Prezidentlik institutining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Oliy Kengash 1992-yil 8-dekabrda qabul qilgan Konstitutsiyaning 89-moddasida «Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir, ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanadi» deya, belgilab qo'yildi. Referendum asosida 2003-yil 24-aprelda Oliy Majlis Konstitutsiyaning boblariga tuzatishlar kiritilgan holda, Prezident vakolatlari hamda Vazirlar Mahkamasi tarkibi va vakolatlari belgilandi.

90-yillardagi o'tish bosqichida kuchli markazlashgan davlat hokimiyatini barpo etish hayotiy zaruriyat bo'lgan. Prezidentlik-respublika boshqaruvida ijro hokimiyati Prezident qo'lida mujassam bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq, davlat boshqaruvi sohasida, tegishli sohalar bo'yicha o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shu boisdan ham tez orada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda muhim o'rin tutuvchi idoralar xususan, Davlat reja qo'mitasi o'rniga Iqtisodiyot vazirligi, Davlat ta'minot qo'mitasi o'rnida respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi, Davlat narx qo'mitasi o'rniga Moliya vazirligi tarkibida narxlarni nazorat qiluvchi maxsus boshqarmalar tuzildi. Respublikada moliya va bank tizimi ham tubdan o'zgarib, Moliya vazirligi respublika budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, davlat soliq va moliya siyosatini belgilashi va valyuta ishlarini boshqarishi belgilab qo'yildi.

Bank tizimi isloh etilib, Davlat banki va uning bo'limlari tugatildi. Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklari – «O'zsanoatqurilishbank», «Paxtabank» (Agrobank), «O'zjamg'armabank», «G'allabank», «Tadbirkorbank», «Savdogarbank» singari banklar tuzildi.

Davlat nazorati tizimi ham tartibga solindi. Xususan, Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatilib, Davlat soliq va Bojxona qo'mitalari, Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi. Davlat suvereniteti va milliy manfaatlarini himoya qiluvchi, tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi – Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar tashkil etildi. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etilib, u mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonning chet mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yish maqsadida Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil qilindi. Ishlab chiqarish va transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan uyushmalar, konsern, korporatsiya va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transporti va qurilish sohalarida boshqaruv tizimi ham qayta tashkil qilindi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining tarkibiy tuzilmasi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan o'zgartirildi. Respublika doirasidagi ahamiyatga molik bo'lgan qator sohalar jumladan, sayyohlik, transport, madaniyat, kino, televideniye va radio tizimida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar ham yuzaga keldi.

Fuqarolar huquqini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, faoliyatini tartibga soluvchi 500 dan ortiq qonun va Parlamentning qonunga tenglashtirilgan qarorlar tizimi, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Fuqarolarning dinga bo'lgan munosabati «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1998) Qonun bilan tartibga solinib, daxlsizligi ta'minlandi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston inson huquqlariga oid qator xalqaro shartnomalariga qo'shilgan. O'zbekiston 1996-yil aprelda BMT komissiyasiga siyosiy va inson huquqlari bo'yicha Xalqaro pakt normalarini bajarish borasida milliy ma'ruza matnini taqdim etdi. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» va xalqaro hujjatlar asosida 1991-yil 4-sessiyada

«Jamoat birlashmalari to'g'risida», 1996-yil «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlis 1-sessiyasida saylandi. Inson huquqlari bo'yicha vakilning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 26-apreldagi «Inson huquqlari bo'yicha Bakili (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab berildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi Prezidentning 1996-yil oktabrdagi Farmoni bilan tashkil etildi. Milliy Markaz o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13 noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra faoliyat olib bormoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda 1997-yil 26-apreldagi «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi Qonun alohida ahamiyatga ega. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) mansabdorlar, tadbirkorlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili BMTning Inson huquqlari bo'yicha markazi, EXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Inson huquqlari borasidagi masalalar 2017-yildan boshlab o'zining yangicha, konstruktiv yechimini topa boshladi. BMTning inson huquqlari bo'yicha vakili Ahmad Shahid boshchiligidagi delegatsiya 2017-yil sentabrda O'zbekistonda bo'lib, Prezident Sh. Mirziyoyev boshchiligida bu sohada amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni ijobiy baholadi. Zero, inson huquqlariga oid 2017–2019-yillar mobaynida qator farmon va hukumat qarorlari chiqdi. 2018-yil noyabrda Samarqandda o'tkazilgan inson huquqlari bo'yicha «Osiyo forumi» O'zbekistonda inson haq-huquqlariga bo'lgan munosabatning dolzarbligini va yangi-cha yechimini namoyon etdi.

Saylov tizimining huquqiy asosi sifatida 1991-yil 18-noyabrdagi «Prezident saylovlari», 1993-yil 28-dekabrda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylov» to'g'risidagi qonunlar xizmat qiladi. Oliy Majlis 2003-yil avgustda 2-chaqiriq 12-sessiyasida «Oliy Majlisga saylov to'g'risida»gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun ikki palatali parlament saylovining huquqiy asosi bo'ldi.

Konstitutsiya va qonunlarda saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan har bir fuqaroning saylovda ishtirok etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. O'zbekistonda saylovlar umumiy va tenglikka asoslanib, har bir saylovchi 1 ta ovozga ega. Ijtimoiy kelib chiqishi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dini, faoliyat turi va harakati, ijtimoiy va moddiy ahvolidan qat'iy nazar fuqarolar teng saylov huquqiga ega.

«Oliy Majlisga saylov to'g'risida»gi Qonunga muvofiq siyosiy partiyalar ikki palatali parlamentning Qonunchilik palatasiga deputatlikka nomzod ko'rsatishi mumkin. Fuqarolar 35 yoshdan – Prezidentlikka, 25 yoshdan – Oliy Majlisga, 18 yoshdan – viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylanish huquqiga ega. Saylovchilar umumxalq ovozig'a qo'yilgan masalalarni, Prezidentlikka va hokimiyatning vakillik organlariga ko'rsatilgan nomzodlarni yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga ega.

Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis tomonidan tuziladi. Okrug saylov komissiyalarini Markaziy saylov komissiyasi tuzadi. Saylov komissiyalari tarkibida siyosiy partiyalar a'zolarining bo'lishi man etiladi. Agar nomzodlardan biron tasi ham yetarli ovoz ololmasa ikkinchi tur saylovi o'tkaziladi. 2019-yil O'zbekistonda ilk bora saylov kodeksi qabul qilinib, saylovlarining oshkora va shaffof o'tishida ushbu qonun muhim o'rinni egalladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi davlat hokimiyati oliy va mahalliy organlarining takomilida katta ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillari vujudga kelgan siyosiy partiyalar o'z faoliyatida o'zbek xalqining eng yaxshi demokratik an'analari, adolat, ezgulik, tenglik va inson erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar hamda g'oyalarga, axloqiylik va odamiylik qoidalarga suyandi. Siyosiy partiyalar demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, aholi turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etishda muhim demokratik institut hisoblanib, vakillik demokratiyasining rivojlanishi, yangi g'oyalar, muqobil takliflar qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois O'zbekistonda tashkil etilgan turli partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1996-yil 26 dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek o'z dasturlariga asosan amalga oshirishdi.

Xalq demokratik partiyasi siyosiy partiya sifatida mamlakatda birinchilardan bo'lib, 1991-yil 1-noyabrda tashkil topdi. 440 ming a'zoga ega bo'lgan bu partiya I chaqiriq Oliy Kengashga 69 deputat sayladi. II chaqiriq Oliy Majlisga 48 deputat sayladi. A'zolarining soni 2001-yilning I mayiga kelib, 557 ming 168 ta bo'ldi.

«Vatan taraqqiyoti» partiyasi 1992-yili 24-mayida tashkil topgan bo'lib, 35 ming a'zosi bor edi. I chaqiriq Oliy Kengashga 14 deputat saylandi. II chaqiriq Oliy Majlisga 20 deputat saylandi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yili 18-fevralda tashkil topdi va 30 ming a'zoga ega bo'ldi. Oliy Kengashdagi fraksiyasiga 47 deputat birlashdi. «Adolat» SDPsining hozirda 33 ming a'zosi bo'lib, ulardan II chaqiriq Oliy Majlisga 11 deputat saylandi.

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi 1995-yil 3-yunda tashkil topdi. MTDP a'zolarining soni dastlab 6 mingta bo'lib, hozirda 11 mingdan oshdi. II chaqiriq Oliy Majlisga bu partiyadan 10 kishi deputatlikka saylandi.

«Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi 1998-yil 28-dekabrda tashkil topdi. Uning 20 ming 500 a'zosi bo'lib, II chaqiriq Oliy Majlis deputatlarining 34 nafari «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasiga mansub a'zolaridir. FMDP bilan «Vatan taraqqiyoti» partiyasi 2000-yilning 14-aprelida birlashdi va 54 deputat Oliy Majlisda «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi fraksiyasini tuzdi.

O'zLDP Respublikadagi katta nufuzga ega partiyalardan biri hisoblanadi. Bu partiya soniga ko'ra XDP dan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda «Xalq birligi» harakati ham 1995-yil iyunidan faoliyat ko'rsatgan.

Harakatning asosiy maqsadi – ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

Qayd etish lozimki, Mustaqillik yillarida shakllangan ushbu partiyalarning dasturlarida sog'lom muxolifatchilik ko'rinmaydi. Faqatgina O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi dasturida jamiyatda uchrab turadigan ayrim qonunsizliklar, suiiste'molchilik, oshna-

og'aynigarchilik tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik aqidaparastlik illatlariga nisbatan muxolifatda bo'lishi ta'kidlangan edi. Shunday bo'lsa-da, siyosiy hayotni erkinlashtirish, siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish vazifalari ko'ndalang bo'lib turgan bugungi kunda partiyalar o'z o'rinlarini aniq topmoqda.

Shu nuqtai nazardan yondashganda harakat dasturlarida o'zaro yaqinlik bo'lganligi sababli hamda demokratik jarayonlarning talablarini hisobga olgan holda «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bilan FMDPning o'zaro birlashishi ham shu ruhni o'zida aks ettiradi.

2019-yildan boshlab kelib O'zbekistonda teng huquqli asnoda 5 ta partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular: Xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologiya partiyasi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan buyon Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan chuqur o'ylangan milliy siyosat amalga oshirilmoqda. Davlat umummilliy siyosatiga milliy siyosatdan tashqari iqtisodiy va sotsial, ilmiy-texnika, ta'lim va sog'liqni saqlash, xalqaro munosabatlar (tashqi siyosat), milliy xavfsizlik va boshqa siyosatlar kiradi.

O'zbekiston umummilliy siyosatining katta tizimida milliy aholi siyosati alohida o'rin egallaydi. Bu siyosat diqqat markazida millatidan qat'iy nazar inson turadi. Bunda milliy aholi siyosati respublika aholisiga xos sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni ko'zda tutadi.

2017-yil yanvarda ko'plab millatlar madaniy markazlarini birlashtirgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi tantanali nishonlandi. 2020-yili may oyida ushbu markaz faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini yuksaltirish borasida u «Millatlararo munosabatlar va chet davlatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi»ga aylantirildi.

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida etakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi bo'lganligi

uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida: «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», – deyilgan. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, erkinligini ko'rsatish, ularning xalqqa haddoqat bilan xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dastur bo'ldi.

Mazkur yillarda yana ikki Qonun: O'zbekiston Respublikasining «Jurnalistik kasbini himoya qilish to'g'risida» hamda «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar fuqarolarning axborot qidirib topish, olish, uzatish va tarqatish huquqini to'la miqyosda ta'minlaydigan huquqiy qurol bo'lib, aholi uchun axborot olish va yetkazishning bosh vositachisi bo'lgan jurnalistning amaliy faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asosni vujudga keltirdi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari mansabdorlarning to'rachiligi, korrupsiya, mustabidlik va boqimandalik psixologiyasi yo'lida mustahkam g'ov bo'lib, qonunchilikni ro'yobga chiqarish islohotlarning borishi va inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning ta'sirchan vositasi bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish masalasi tashqi siyosiy faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanchalik tez kirib borishi ana shu axborot vositalari tarqatadigan xabarlarining to'g'riligiga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yaratilgan boshqaruv tizimi va uning qonunchilik asoslari, fuqarolik jamiyati mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishga va huquqiy demokratik davlat barpo etilganligini kafolatlaydi.

3. Sud-huquq sohasidagi islohotlar

Istiqlol yillarida insonning ishonchli konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan qonunlarning qabul qilinishiga asosiy e'tibor qaratil-

di. Shuningdek, sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog'liq bo'lmagan hokimiyat sifatida shakllantirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari vujudga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi. Jumladan, 1994-yili Jinoyat kodeksi qabul qilinganida 13 ta moddada jazo chorasi sifatida o'lim jazosi ko'zda tutilgan edi. 1998-yili bu jazo turi Jinoyat kodeksining 5 ta moddasidan olib tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, 2008-yil 1-yanvardan mamlakatimizda jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etilishi butun dunyoda katta aks-sado berdi. Bu boradagi islohotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etib, jahon tendensiyalariga to'la mos keladi. Sud-huquq sohasidagi islohotlar xususida so'z yuritganda, O'zbekistonda o'tgan qisqa davr mobaynida yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish vazifasi muvaffaqiyatli hal etilganiga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Sudlar ixtisoslashtirilib, aniqroq aytganda, fuqarolik, jinoiy va xo'jalik ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etilib, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi. Sudyalarning mustaqilligi va huquqiy kafolatlari tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Sudlar to'g'risida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda «sudyalarning mustaqilligi» tushunchasi mustahkamlandi va yangi huquqiy kategoriya – «sud hokimiyatining mustaqilligi» joriy etildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 106-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilib, uni amalga oshirishning aniq protsessual-huquqiy mexanizmi yaratildi. Bu fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolatiga aylandi. Yana bir yangilik, bu – Yarashtiruv instituti joriy etilishi jinoyat protsessi qonunchiligini takomillashtirishda muhim qadam bo'ldi. Xo'sh, bu yerda gap nima haqda bormoqda? Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxs, agar muqaddam sudlanmagan bo'lsa, o'z aybini bo'yniga olsa, jinoyat oqibatida

keltirgan zararni to'lasa, jabrlanuvchi bilan yarashsa, sud ishini harakatdan to'xtatadi. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi haqida so'z yuritilar ekan, ushbu materialda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda parlament palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surgani ta'kidlanadi. Kontsepsiyada belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatini kuchaytirish imkonini beradi. Ummuman olganda, sud-huquq islohotlari barcha istiqbolli yo'nalishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat jamiyat va davlat tuzilmasini demokratlashtirish va liberallashtirishning natijasi, balki uning kafolati sifatida xizmat qilib, amalda mamlakatning «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida olg'a harakatlanishini ta'minlaydi. Axborot materialida qayd etilishicha, O'zbekistonda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadlari sud-huquq tizimining mohiyatini o'zgartirish, uni inson huquqlarini samarali ta'minlashning asosiy kafolatiga aylantirish hamda sud hokimiyatining tom ma'nodagi mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishi sifatini yaxshilash maqsadida «Sudlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, ularning jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi mustahkamlandi, ishlarni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqish tartibi joriy qilindi. 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran «Xabeas korpus» institutining joriy qilinishi, ya'ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi natijasida sudlarning fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilish bo'yicha vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Jinoyat ishi qo'zg'atish, ish yuzasidan ayblov xulosasini o'qib eshittirishni sudlar vakolatidan chiqarilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga kiritilib, bu sudlarning xolisligini, betaraffligini ta'minlash, jinoyat protsessida tortishuv prinsipining kuchayishiga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi o'laroq, O'zbekistonda quyidagilarga erishildi: og'ir jinoyatlar tasnifi kamaytirilib, og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi;

sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar joriy etildi; iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. 2013-yili ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar soni 2000-yil bilan solishtirganda, ikki marotabadan ziyodga kamaydi. Xususan, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi to'g'risidagi qonun qabul qilinganidan so'ng 412 milliard so'mlik zararni qoplagan 26000 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llandi. Mamlakatda yarashuv instituti joriy etilganidan buyon 138 ming 527 ta ish bo'yicha 150 ming 346 shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari qo'llanildi. Bugun O'zbekistonda 60 turdagi jinoyatlar bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati mavjud. Amnistiya aktini qo'llash sudlar vakolatiga berilgan. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikada amnistiya aktini e'lon qilish tartibi joriy qilingan. Har yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80- va 93-moddalariga binoan, amnistiya haqida akt qabul qilinib, uning asnosida jazodan ozod qilish, mahkumlarning ozodlikka chiqishi va ularning o'z oilalari bag'riga qaytishi bilan bir qatorda, amnistiya qilinganlarning salomatligini mustahkamlash, ularning turmush shart-sharoitlarini yaxshilashga va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish yuzasidan ham ishlar amalga oshiriladi.

2008-yilning 1-yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilinishi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari, oliy jazo – umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazo turi faqatgina ikki turdagi jinoyatlar – terrorism va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun tayinlanadiki, ushbu holatlar bo'yicha muqobil, uncha og'ir bo'lmagan jazo turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Insonning huquq va erkinliklari samarali himoya qilinishini har tomonlama ta'minlashga yo'naltirilgan sud-huquq islohotlarining hayotga tatbiq etilishida advokatura institutini mustahkamlash muhim ustuvorlik hisoblanadi. Ushbu institutni yanada takomillashtirish maqsadida 2008-yil 1-may kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bu borada muhim dasturilamal bo'ldi. Ushbu Farmon fuqarolarning tergov va

sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlashga qaratilgan konstitutsiyaviy me'yorni amalga oshirish, advokatura instituti mustaqilligini ta'minlash, uni malakali kadrlar bilan to'ldirish, advokatlik kasbining nufuzini oshirish hamda insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tuzildi, 2008-yil 31-dekabrda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, 2009-yil sentabrda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik protsessual kodeksining 52-moddasiga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi Qonuniga binoan, sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi haqidagi muhim me'yor mustahkamlab qo'yildi. O'rnatilgan bunday tartib sud ishida yurisprudensiya sohasidagi maxsus bilimlardan bexabar shaxslarning ishtirokiga yo'l qo'ymaslik va fuqarolarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Sud qarorlarining qat'iy bajarilishi odil sudlov faoliyatining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida sud qarorlarining majburiy ijro etilishi samaradorligini oshirish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijro etilishi sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, sud qarorlari ijro etilmasligi va ularning bajarilishiga to'sqinlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

2016-yil oxirlaridan boshlab, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, ya'ni sohani yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, faoliyati samaradorligini yuksaltirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini yuzaga keltirish, jismoniy, yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, yuksak axloqiy-irodaviy, kasbiy fazilatlariga ega, yuklatilgan vazifalar, amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali bajarilishini ta'minlashga

qodir bo'lgan kadrlarni shaffof tanlov asosida ishga qabul qilish, qolaversa, sudlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash mexanizmini davrimizning yuksak talablari darajasida tashkil etishga, tizim xodimlariga, sudyalarga alohida mehnat sharoitlari yaratish, lavozim maoshlariga ustamalar hamda malaka-mansab darajasi uchun qo'shimcha haq miqdorlarini berishga qaratilgan uchta Farmoni chiqarildi. Boshqacha aytganda, sud-huquq tizimidagi islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida sud hokimiyati mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga og'ishmay amal qilinishi kerakligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish holatlari bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rish, sud faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari hamda aholi bilan hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini keng qo'llashga e'tibor qaratilishi alohida ta'kidlab o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligining sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyingi o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi takliflari ma'qullandi.

Ushbu Farmonga muvofiq, 2017-yil 1-apreldan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlarini qo'llashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jinoiy jazo tugatildi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1-yildan 7 oygacha qisqartirildi. Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ekskumatsiya qilish uchun sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralarini qo'llash huquqi berildi. Tergovning to'liq emasligini sud muhokamasi jarayonida to'ldirish mexanizmlarini joriy etish orqali sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining

ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqish bo'yicha bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi. Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturni amalga oshirish bo'yicha komissiya tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligiga sud-huquq tizimidagi ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish vazifasi topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillash-tirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra, sud hokimiyatining ikki oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining mavjudligi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanishiga, yagona sud amaliyoti ta'minlanmasligiga olib kelganligi uchun birlashtirildi. Bundan tashqari, sudyalarning hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan, nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini tubdan yaxshilash hamda yuqori malakali sudyalarning korpusini shakllantirishga mas'ul bo'lgan organ – O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarning tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning 21 nafar bo'shagan ijro apparati shtat birligi kengashiga o'tkazildi. Kengash tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan Senat tomonidan tasdiqlanadigan kengash raisi va ko'pchilikni tashkil etuvchi sudyalarning hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati instituti vakillari, shuningdek huquq sohasidagi malakali mutaxassislar orasidan Prezident tomonidan tayinlanadigan 20 nafar a'zodan iborat bo'ldi. Kengashning 13 nafar a'zosi doimiy, 8 nafar a'zosi esa jamoatchilik asosida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda. Sudyalarning oliy kengashiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislaridan tashqari barcha sudyalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda lavozimlariga tayinlash va lavozimlaridan ozod etish bo'yicha vakolatlari berildi. Sudyalarning kasbiy jihatdan tayyorlash, malakasini

oshirishni tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek, sudyalarni rag'batlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatish ham Sudyalar oliy kengashi zimmasiga yuklatildi.

Ilk marotaba davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etildi. Davr talablardan kelib chiqib, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ushbu Farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar etib o'zgartirildi. Bunda mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tadbirkorlik subyektlarining ortib borishini hisobga olgan holda tumanlararo tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi «Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi va O'zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasining sud organlari faoliyatining shaffoqligini ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish hamda odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik rolini kuchaytirish borasidagi takliflari qabul qilindi. Sudlar faoliyati to'g'risida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari tomonidan brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi hamda shaffoqligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalar korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzish haqidagi takliflari qabul qilinib, bu borada komissiyalar tuzildi. Farmonga muvofiq, O'zbekiston

Respublikasi Oliy sudi raisiga Oliy sud va uning huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamentining yuqori malakali, tashabbuskor, xizmat majburiyatlarini, vazifalarini halol va samarali bajarayotgan sudyalarga, xodimlariga Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda oylik mehnatga haq to'lash fondining 100 foizigacha miqdorda ustama (pul ta'minoti) to'lash huquqi berildi. Shuningdek, ushbu Farmonda malaka va mansab darajasiga ega bo'lgan sudyalarga, ularga tenglashtirilgan shaxslarga avtomobillar sotib olish uchun, Konstitutsiyaviy sud, Sudyalar oliy kengashi, Oliy sud, quyi sudlar apparatlari, Oliy sud huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti va uning hududiy bo'limlari xodimlariga esa uy-joy sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berishni nazarda tutuvchi takliflar bildirildi. Ayni paytda bu borada ijobiy ishlar qilinayotganligi ahamiyatlidir.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash va nufuzini oshirish, uni ilgarigi jazolovchi organdan inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning muhim vositasi bo'lgan institutga aylantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganligi, sud-huquq tizimini isloh qilish hamda takomillashtirish davrimizning yuksak talablaridan biri ekanligi yig'ilishda alohida ta'kidlab o'tildi. Asosiy maqsadimiz, fuqarolarning huquq va erkinliklarini munosib tarzda himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda «Adolat qo'rg'oni»ga aylantirishdan iborat ekanligini Prezident Sh. M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida ko'p marotaba qayd etib o'tmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, Farmonga asosan quyi-dagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi: **birinchidan**, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mus-

tahkamlash; **ikkinchidan**, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish; **uchinchidan**, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish; **to'rtinchidan**, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish va boshqalar.

4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari

O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli mahalladir. O'zini o'zi boshqarishning mazkur shakli asrlar osha yashab kelmoqda. Mahalla mamlakatimizda ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston davlat mustaqilligidan keyingina munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'ldi. 1992-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning Farmoni bilan «Mahalla» Respublika xayriya jamg'armasi tashkil etilgani, 1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishining o'ziyoq mahalla institutining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini yorqin dalildir. 1995-yil 21-dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ham mahalla haqida alohida modda kiritilgan bo'lib (78-modda), unda qayd etilganidek, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir».

Jamiyat taraqqiyoti takomillashgan sari hamda bozor munosabatlarga o'tish davrida, ayniqsa, fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi bilan ushbu Qonunni ma'lum normalar bilan to'ldirish ehtiyoji sezildi. Shu boisdan 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 23-apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida»gi qarori mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vakolatli huquqlar: qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; atrof-muhitni muhofaza qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilishdir.

Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimlari tomonidan tayinlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimlari tomonidan tayinlanadi va ishdan ozod qilinadi. Viloyat, tuman va shahar hokimlarining qarorlari Xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari davlat hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga: shaharlardagi tuman, shahar va viloyat kengashlari kiradi.

Mustaqillik yillarida hokimlik institutining tashkil qilinishi hududiy boshqaruv tizimining muvofiqlashishi va mexanizmining aniq faoliyat ko'rsatishida muhim qadam bo'ldi. 1993-yil 2-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun bu borada tegishli huquqiy hujjat vazifasini o'tadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va Qoraqalpog'iston Qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'ldi.

1994-yil 4-yanvarda Oliy Kengashning 9-sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Toshkent shahri va 12 viloyatda 1992-yil davomida Prezident tavsiyasi asosida birinchi marta hokimlar tayinlanishdi.

1995-yil sentabrda Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tashkil qilindi. Ushbu akademiyada o'tgan faoliyat yillari davomida 2000 ga yaqin rahbar va tegishli mutaxassis kadrlar o'z malakalarini oshirishdi. Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 30-maydagi qarorida istiqbolli boshqaruv kadrlar faoliyatini takomillashtirishda mazkur akademiyaning o'rni va roli alohida belgilab qo'yildi.

Jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish – O'zbekiston istiqbolda tanlagan bosh strategik yo'l bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston uchun an'anaviy Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik, totuvlik, bag'rikenglik g'oyalari hamda jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi Sharqona demokratik qadriyatlar asos qilib olindi. Shubhasiz o'z-o'zini boshqaruv tizimida an'anaviy mahalla institutining o'rni va roli katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jihatdan mahalla kishilarni hamjihatlikka, totuvlik, o'zaro xayrixohlik organ bo'lib kelgan.

«Mahalla» so'zi asli arabcha «joy», «o'rin», ma'nosini anglatadi. Respublika Konstitutsiyasining 105-moddasida shaharcha, qishloq va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning huquqiy o'rni belgilab qo'yilgan.

O'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil qilishda 1993-yil sentabrda Oliy Kengash 12-sessiyasida qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentning 1992-yil 12-sentabrda «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish va 1992-yil 8 oktabrda xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi Farmonlari mahallalarga homiylikni tashkil etishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Yirik shaharlarda ko'p qavatli uylar joylashgan dahalarga 1992-yil boshlaridan mahalla maqomi berilib, tarixiy nomlar berildi, fuqarolar yig'ini o'tkazilib, mahalla oqsoqoli va mas'ul kotiblar saylandi. Sovet davrida tuzilgan qishloq va posyolka (shaharcha)larda vakillik boshqaruv organlari qishloq yoki posyolka sovetlari deb atalgan, ular mustaqil hokimiyat organi bo'lmay, xalq deputatlari tuman yoki shahar kengashlari, ularning ijroiya qo'mitalariga bo'ysunar edi. Mustaqil bo'lgach mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutildi.

1994-yil 12 mingdan ortiq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllantirildi, 2001-yil ularning soni 7847 tani tashkil etdi. 1999-yil 14 aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunda o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va huquqi kengaytirildi.

2017-yil fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etdi. Shu yildan boshlab mahalla o'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyatida zamonaviy asnodagi o'zgarishlar ro'y berib, uni tom ma'noda xalq organiga aylantirish chora tadbirlari belgilandi.

Mahalla oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, oilalarni mustahkamlash, odamlarni loqaydlik, boqimandachilik kabi illatlardan forig' etish, aholini tom ma'nodagi fuqarolik jamiyatini barpo etishga safarbar qilishdir.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan yasash masalasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan Yarashtirish komissiyalarining vazifasi faqat nizoli oilalardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqishdagina emas, balki nizoni keltirib chiqaruvchi sabablarni atroficha o'rganib, oilalarda sog'lom turmush-tarzi keng targ'ib qilishdan ham iborat hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining muqaddimasida xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zaruriyatiga e'tibor qaratish lozim, deb belgilangan. G'arb mamlakatlari ayrim siyosatchilari ham O'zbekistondagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining o'ziga xosligini yuqori baholashgan. Jumladan, nemis siyosatchisi Artur Faynberg: «Mahalla – inson hu-

quqlarini hurmat qilgani holda yoshlarni tarbiyalashga, uning kamol topishiga ko'mak beruvchi jamiyat instrumenti», deb baho byergan. Shu bilan birga, individualizm singib ketgan G'arb mutaxassislari uchun bu tizimning tub mohiyatini tushunish mushkulligini ham obyektiv tavsiflab berishgan.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib mahalla faoliyatiga oid qonun hujjatlari muntazam ravishda takomillashtirib borilyapti. Xususan, 2013-yil 22-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi. 2016-yil oxirlaridan boshlab mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatini yanada takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish, mazkur organni aholining joylardagi haqqoniy tarzda dolzarb masalalarni hal etuvchi o'z-o'zini boshqarish xalq idorasiga aylantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, 2017-yil 3-fevral kuni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi.

Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi. Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport

maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017–2021-yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqildi. Shuningdek, tumanlar va shaharlar markazlarida «Mahalla markazi» majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan «Mahalla iftixori» ko'krak nishonini ta'sis etildi. Kompleks chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasidagi vazifalarni samarali bajarish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi. «Obod mahalla» dasturi doirasida Toshkent shahri, viloyat markazlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda barcha tumanlarda mahalla hududlarini obod qilish, maishiy qurilish obyektlarini barpo etish, gaz, elektr energiyasi, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Mahalla xalqqa huquq va erkinliklardan foydalanish yo'lini ochib, unga osoyishta hayotdan bahramand bo'lishni o'rgatadi. Mahalla taqdiri mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Mahalla obod bo'lsa, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi.

2016-yil sentabrdan boshlab faoliyatini boshlagan «Xalq qabulxonalarini» ko'plab yig'ilib qolgan muammolarni echimini topishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyevning «Xalq davlat idoralariga emas balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi lozim» iborasi mazkur qabulxonalar ish faoliyatining negizini tashkil etmoqda.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi – mustaqillik yillarida.

1990-yil 14 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida»gi Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'zining huquqiy asosini topdi. O'zbekiston hukumati Qoraqalpog'istonning o'ziga xos o'rni va mavqeiga katta hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lib keladi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar O'zbekiston Konstitutsiyasining 70–75-moddalarida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 21-moddasida «Qoraqalpog'iston fuqarosi ayni paytda O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi» – deyilgan. 1993-yil 9-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi 12-sessiyasida Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasini qabul qildi (Davlat gerbi ham tasdiqlandi). 1992-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Oliy Kengashining 11-sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i qabul qilindi. Qoraqalpog'iston Oliy Kengashining 14-sessiyasida 1993-yil 4-dekabrda Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

1994-yil 25-dekabrda Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobilik asosida saylandi, Respublika parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kenesi deb ataldi. 1995-yil 11-yanvarda Jo'qarg'i Kengesning Nukusda bo'lgan 1-chaqiriq 1-sessiyasida Jo'qarg'i Kenges Raisi, uning o'rinbosarlari, mandat komissiyasi, 8 ta qo'mita raislari va uning a'zolari saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya hokimiyat organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonda hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning bo'limlari: «Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi», «EKOSAN», «Aralso», «Sog'lom avlod uchun» kabilar ish olib bormoqda. Jo'qarg'i Kengesning 1997-yil 17-iyulda bo'lgan navbatdan tashqari sessiyasi qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatdagi kamchiliklarni tahlil qildi.

Qoraqalpog'istonga bugungi kunda berilayotgan subventsiya-moliyaviy yordam miqdori 9 mlrd dan ziyod so'mni, butun Qoraqalpoq budgeti xarajatlarining 75% ini tashkil etmoqda. Sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda nodavlat sektorning hissasi 80–90% ni tashkil etmoqda.

To'rtko'l tumanida 2000-yil 6-martdan Rossiyaning Savinovo yigiruv fabrikasi bilan hamkorlikda yiliga 2750 t. ip-kalava ishlab chiqaradigan qo'shma korxonasi qurila boshladi. O'zbekistondagi eng katta neftgaz maydoni (90 ming kv.km.) Ustyurt-Orolbo'yi mintaqasi (Kaspiybo'yi, To'qay, Amudaryo tekisligi) hisoblanadi. Qo'ng'irotdagi 37,4 mlrd. M kub gaz va 739 ming t. gaz kondensati zaxirasiga ega «Urga» koni 1995-yil ishga tushdi. «Sharq Byerdaq» koni 2002-yil noyabrda foydalanishga topshirildi. Ustyurt-Orolbo'yidagi konlardan

2002-yil 1,2 mlrd m kub gaz va 10,4 ming t. gaz kondensati qazib olindi.

«Qoraqalpoqqurilish» aksionerlik jamiyatida Italiyaning sifatli jihozlari bilan qurilgan yangi marmar sexi ochildi. «Nukusun» zavodida spirt ishlab chiqaradigan yangi tsex qurildi. Yengil sanoat ishlab chiqarish bazasi kengayib, 1993-yil Nukusda «Kateks», 1995-yil Ellikqal'ada «Elteks» to'qimachilik majmuasi barpo etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston rahbariyati Qoraqalpog'istondagi ekologik ahvolga alohida ahamiyat bilan qarab kelmoqda. Xususan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan 1992-yildayoq Nukusda Orol muammosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 2-sentabrda «Qoraqalpoqdagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechish tadbirlari to'g'risida» qaror ham qabul qilgan edi.

Bu borada 1995-yil sentabrda Nukusda o'tkazilgan xalqaro konferensiya tarixiy ahamiyat kasb etib, undagi asosiy hujjat – «Nukus Deklaratsiyasi» bo'lib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi.

1997-yil martda Almatida Markaziy Osiyo Respublikalari Kengashi yig'ilishida Orolbo'yi xalqlariga ijtimoiy muammolarni yechishda amaliy yordam berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

2010-yilda BMT Bosh kotiblari Pan Gi Mun, 2017-yilda Antonio Gutterish shaxsan Orolbo'yida bo'lib, ekologik fojea va uning oqibatlari bilan tanishdilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ushbu masalaga davlat miqyosidagi vazifa sifatida qarab, mazkur hududdagi ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va aholi turmush-tarzinini yaxshilash borasida qator tashabbuslar bilan o'rta qataga chiqdi. Orol dengizining qurigan hududidagi deyarli 500 ming kv.km. yerda yashil mintaqalar barpo etish rejasi amalga oshirilishi boshlandi. Shuningdek, Orolbo'yida qarovsiz holatga tushib qolgan ko'plab chekka hududlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, aholining maishiy turmush-tarzinini yaxshilash, obodonchilik ishlarini amalga oshirish borasida qator ishlar qilindi. Jumladan, birgina Mo'ynoq shahri qiyofasi butkul o'zgarib, u zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi. Butun Qoraqalpog'iston 2017-yildan boshlab, Respublika Prezidenti va hukumatining diqqat nazarida bo'lib,

respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayot jabhasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Mustaqillik yillarida qoraqalpoq xalq qahramonlari Ernazar Olako'z, Ollayor Do'stnazarov, shoirlardan Byerdaq va Ajiniyozning ijodiy merosi to'la tiklandi. Bugungi kunda qoraqalpoq yozuvchi-shoirlari Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaipbergenov, Tilovbergen Jumamuratov asarlari O'zbekiston adabiyotidan haqli yuqori o'rinni egalladi.

Istiqlol yillarida Qoraqalpog'istondagi ta'lim sohasiga ham katta e'tibor berildi. 2017–2018-yil hisobiga ko'ra, Qoraqalpog'istonda 763 ta umumta'lim, 405 ta maktabgacha, 91 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasasi, 28 ta sport maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilda Nukusda I. Yusupov nomidagi ijod maktabi, 2019-yilda Prezident maktabining ochilishi ta'limga bo'lgan katta e'tibordan darak bermoqda. Shuningdek, respublikada maktabgacha ta'lim tizimiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Byerdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali va boshqalar hozirgi kunda samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq filialiga 1992-yil O'ZR FA Qoraqalpoq bo'limi maqomi berildi. Ilgari FAning Qoraqalpoq filialida 3 ta institut mavjud bo'lgan bo'lsa, unga yana 2 ta institut: 1) Tarix, arxeologiya va etnografiya; 2) Bioekologiya institutlari qo'shildi. FA tarkibiga 1994-yil O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi FAning Qoraqalpoq bo'limi 1992-yil tashkil etildi. «Bioekologiya» instituti xodimlari 1993-yildan beri Germaniya olimlari bilan birga Orolbo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. GFR yordamida «Bioekologiya» institutining xalqaro ekologiya stantsiyasi 1995-yil Mo'ynoqda ochildi. «Tarix, arxeologiya va etnografiya» instituti Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib borishmoqda. Nukusdagi Savitskiy nomidagi muzey

esa hozirgi kunga kelib nafaqat O'zbekiston, balki MDH davlatlari ichida ham eng nufuzli muzeylardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Nukus shahrining 60-yilligi, To'rtko'l shahrining 120-yilligi, ulug' qoraqalpoq adibi Ajiniyozning 170-yilligi, nafaqat Qoraqalpog'iston, butun O'zbekistonda ham tantanali ravishda nishonlandi.

Tayanch so'zlar

O'zbekiston, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik, urbanizatsiya, madaniy hayot, mafkura, Toshkent, mustaqillik, deklaratsiya, prezident, davlat, islohot, milliy, huquqiy, demokratik, qonun chiqaruvchi, idro etuvchi, sud hokimiyati, mahalliy, mahalla, o'z-o'zini boshqaruv, fuqaro, jamiyat.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyatini izohlab bering.
2. Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidan kyetishda I. Karimovning o'rni va roli haqida fikr bildiring.
3. O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar haqida nimani bilasiz?
4. Mustaqillikning dastlabki davrida davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslari qanday barpo etilgan?
5. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
6. Sud-huquq sohasidagi islohotlar jarayoni qanday kechgan?
7. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotini modernizatsiya qilish jarayoni haqida so'zlab bering.
8. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlari haqida qanday tushunchaga egasiz?

12-mavzu bo'yicha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016.
2. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: «O'zbekiston», 2011.
3. Usmonov Q. O'zbekiston mustaqillik odimlari. – Toshkent, 1994.
4. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning buniyod bo'lishi. – Toshkent: «O'zbekiston», 1992.
5. Usmonov Q., Abdug'aniyev A. O'zbekiston-siyosiy va huquqiy islohotlar sari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob – Toshkent, «Sharq». 2000.
7. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: «Akademiya», 2013.
8. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов. – Ташкент: «Адабиёт учкунлари», 2018.
10. Shamsutdinov R. Mo'minov H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2013.

13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishdagi qadamlar.
3. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Ma'naviy va ma'rifiy hayot, fan va madaniyatning rivojlanishi.
4. O'zbekistonning tinchliksevar mustaqil tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.
5. Millatlararo munosabatlar xavfsizlik garovi.

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. O'zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib ijtimo-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilash eng muhim vazifa bo'lib qoldi.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilindi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq, ikki vazifani – ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Bu bosqichda iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

– o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

– qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

– ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning qatlami shakllantirilib, xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

1992–1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida «Kichik xususiylashtirish» amalga oshirildi. Buning natijasida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o'zgarishi bo'ldi. Mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklariga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada, qishloq xo'jaligida 770 ta kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchliklarni bartaraf etishga to'g'ri keldi. Agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berdi. Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib

borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasining chiqarish, auksion (kimoshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda muhim yil bo'ldi. Eng muhimi islohot jarayonlariga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to'xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz berdi. Moliyaviy vaziyat o'nglanib, inflyatsiyani 1994-yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o'sishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valyuta bozorida joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11 marta ko'p, ya'ni 1,3 mlrd. dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995-yilda 1994-yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o'rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o'tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo'ldi.

1995-yil 5-yanvarda Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida Prezident Farmoni, 1995-yil 21-fevralda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. 1995-yil Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzilib, bu tadbirkorlarga 10 mlrd. so'm. yordam ko'rsatdi.

Shuningdek, kichik va o'rta biznesga chet el investitsiyalari jalb etildi. 2003-yili 450 mln. dollar xorijiy investitsiya sarf qilindi. 1992–1996-yillarda 85 mln. dollarga yaqin mablag' jalb etilgan bo'lsa, 2001-yil boshlarida 190 mln. dollardan oshdi. 2003-yil 1-iyulgacha kichik va o'rta biznes korxonalari 200 mingdan oshdi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida respublikada g'oyat yirik qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqbolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995-yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lgan o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi.

O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990-yili 2,8 mln. tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997-yili bu ko'rsatkich 7,9 mln. tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997-yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna dizel yoqilg'isi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990-yilgi 40,8 mlrd. kubometrda 1998-yil salkam 54 mlrd. kubometrga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi.

Tabiiy gazning Buxorodagi Gazli korxonasi qayta ta'mirlandi. 1997-yili Ko'kdumaloq gaz kopressor stantsiyasi ishga tushirildi. Natijada, O'zbekiston aholisining 75% 2003-yilda tabiiy gazdan foydalaniladigan bo'ldi. Bu ko'rsatkich ayrim viloyatlarda ayniqsa ko'zga ko'rinarli bo'ldi. Masalan: 1990–2003-yillari tabiiy gazdan foydalanish Surxondaryo viloyatida 3,2%dan, 59%ga, Qashqadaryoda 5,7%dan 66%gacha, Namanganda 10,5%dan 70,5%ga, Andijonda 11%dan 68,5 gacha oshdi.

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda. Endilikda jahonning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim tuzilganligi va bir qancha jahon banklari bilan shartnomaning imzolanishi O'zbekistonning xalqaro savdo va xorijiy investitsiyalardan unumli foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaxshiladi.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq SSSRning parchalanib kyetishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar muhandis va malakali ishchilari qiyin ahvolda qolishdi. O'zbekiston rahbariyati vaziyatni har tomonlama o'ylagan holda Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdin tushgan foydalarni besh yil davomida korxonaga ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlatlar korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. Hisob-kitoblar, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatni valyuta zaxirasini to'ldirdi. Arzon va sifatli uran olish

ham yo'lga qo'yildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aniq yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa uning muhim tarmog'i –avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992-yilning avgust oyida Janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan bitim asosida «UzDEU avto» qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida, yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1996-yilning mart-iyul oylarida «UzDEU» avtokorxonasi «NEKSIYA», «TIKO», «DAMAS» engil avtomashinalarini chiqara boshladi. 1999-yilni 1 iyuniga qadar, uch yil davomida 87 mingdan ko'proq «NEKSIYA», 51 mingdan ko'proq «TIKO», 40 mingdan ortiq «DAMAS» avtomashinalari ishlab chiqarildi. Endilikda yengil avtomashinalari jahon bozoriga chiqa boshladi. Faqat Rossiyaning o'zida 18 mingdan ortiq mashinalar sotildi. Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Saratov, Tyumen va boshqa shaharlarda «O'zbekiston avtomashinalar»ga servis xizmatini ko'rsatuvchi tarmoqlar qurilmoqda. So'nggi yillarda Rossiyada xorijiy avtomashinalari o'rtasida «NEKSIYA» mashinamiz etakchi o'rinni egallab turibdi. Endilikda «DEU» korxonasi bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarila boshladi. 2004-yilning o'zida «UzDEUavto» korxonasi jami 70.070 avtomashina ishlab chiqardi. 35659 donasi xorijiy davlatlarga sotildi. Jami 39.079 ta «Neksiya», 9495 ta «Damas», 19856 ta «Matiz», 1139 ta «Tiko» va 507 dona «Lasetti» tashqi bozorga chiqarildi. Bugungi kunda O'zbekistonda engil avtobillarning yangi modellari ishlab chiqilmoqda.

1993-yilda GFRdagi «Mercedes Bents AG» korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma tuzildi. 1994-yili «Do'stlik» avtomobil zavodida dastlabki 350 «Mercedes Bents» yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1995-yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur «Kochholding» kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So'g'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999-yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi.

1992-yil 28-yanvar Farmoniga muvofiq «O'zbekiston havo yo'l-lari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. 1993-yildan boshlab, aviakompaniya zamonaviy A-310, BOING-767, BOING-757, RL-85 samolyotlariga ega bo'ldi. 1991-yili Xalqaro avia yo'li Dehli va Ka-

rachigacha uchgan bo'lsa, endilikda MDH va AQSh marshrutlari yo'nalishida O'zbekiston samolyotlari uchmoqda.

O'zbekiston «Milliy avia havo yo'llari» kompaniyasi jamoasining mustaqillik yillarida olib borgan samarali faoliyati natijasida bu sohada o'tkazilgan islohotlar ko'zga ko'rinarli natijalarga olib keldi. Havo yo'llarida G'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlar foydalana boshlandi, mamlakatda turistik markazlar, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva aeroportlari qayta qurildi. Yoqilg'i tanqisligiga bog'liq ayrim reyslarning qisqartirilganiga qaramasdan 2000-yili 1 mln. 800 ming yo'lovchilar tashildi, o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich besh foizga ko'p bo'ldi. Shu vaqt davomida Ukraina havo kompaniyasi 500 ming, Qozog'iston 230 ming yo'lovchilar tashigan xolos. Eng muhimi yo'lovchilar xavfsizligi ta'minlandi. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining Xalqaro aviatsiya xavfsizligi jamg'armasi tomonidan faxriy diplom bilan mukofotlanganligi buning guvohidir.

Istiqloq yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga olib keldi:

Yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojini O'zbekiston o'zini o'zi ta'minlaydigan bo'ldi;

- g'alla mustaqilligiga erishildi;
- ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi oshdi;
- sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissasi oshdi.

Iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo'g'ini sifatida qishloq xo'jaligida islohot o'tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Bunga sabab O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'prog'i qishloqda yashashi, ya'ni ichki mahsulotning 24 foizdan ko'prog'i agrar sektorga to'g'ri kelishi va qishloqda istiqomat qilganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo'jaligi bilan bandligida edi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan erlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligini huquqiy hujjatlarda qayd etildi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda, xususan «Yer to'g'risida»gi (20-iyun 1990-yil) va

boshqa qonunlarda va Prezident Farmonlarida qishloq xo'jaligidagi tub islohotlarni huquqiy va nazariy asoslari yaratildi.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, yerni sotish-olishga yo'l qo'ymasdan balki uni uzoq muddatlarga (50-yilgacha) meros qilish huquqi bilan vaqtincha yoki umrbod foydalanishga berish masalalari hal qilindi. 1992-yildan boshlab atigi uch yil ichida mavjud 1137 davlat xo'jaligidan 1066 mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa yoki ijaradagi xo'jalikka aylantirildi, 1516 ta qoramolchilik fermasi mehnat jamoalarining mulki qilib berildi. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997-yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi – 3 mln. gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaligining ekin maydoni 1989-yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997-yil – 599,7 ming gektarga ko'paydi.

Barcha islohotlarning tub maqsadi insonning ijtimoiy turmushini yaxshilashga qaratilgandir. O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos yo'lning asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Kam ta'minlangan aholi qatlamlari nafaqa va moddiy yordamdan tashqari turli xil imtiyozlardan keng foydalanadi. Jumladan, jamoat transportida tekin, arzon haq to'lab yurish, turarjoy va kommunal xizmatlari uchun haq to'lashda, dori-darmonlarni bepul yoki arzon narxda olish va boshqa bir qancha yengilliklar berilgan.

Bozor munosabatiga o'tish jarayonida aholi daromadining mohiyati yangilandi. Ularning manbalari o'zgardi. Maosh bilan o'lgangan ish haqidan tashqari tadbirkorlik daromadi, aksiyadorlik dividendi, mulkdan kelgan daromad, tomorqa mahsulotlarini sotishdan olinadigan tushum shakllarida bozor daromadlari paydo bo'ldi.

Soliq tizimini takomillashtirishga dastlabki kunlardan boshlab katta e'tibor berildi. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida Davlat soliq organlari haqida»gi qarori asosida davlat soliq tizimi shakllana boshladi. Soliq to'lovchilar soni yildan yilga ko'payib bormoqda.

O'zbekiston uchun o'zi tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan ijtimoiy yo'naltirilgan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan edi. Birinchi Prezident I. A. Karimov: «ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishini, insonning shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin», – deya ta'kidlagan edi.

Mustaqillikning ilk yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi birinchi bosqichda ikki muhim vazifani birdaniga hal etishga to'g'ri keldi:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekistonda ushbu vazifalarni hal qilishning muhim yo'nalishlarini belgilab byergan asosiy ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat bo'ldi:

- islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish, mustahkamlash va rivojlantirish;

- kichik xususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlashdir.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida muhim va ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar amalga oshirildi.

Moliya va soliq siyosati sohasida:

- qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish va davlat budjeti defitsitini kamaytirish;

- budjet mablag'larini daromadlarga qarab umumdavlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag' ajratish;

- xalq xo'jaligi tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirish uchun investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

- soliq tizimini takomillashtirish va soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish.

Kredit-pul siyosati sohasida:

- ikki bosqichli bank tizimini shakllantirish va xorijiy banklarni jalb qilish uchun sharoitlar yaratish;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va pul emissiyasini nazorat qilish;

- milliy pulni muomalaga kiritish.

Iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish sohasida:

- yoqilg'i-energetika kompleksini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va energetika mustaqilligiga erishish;

- chetdan keltiriladigan muhim mahsulotlarga qaramlikni kamaytirish choralarini ko'rish;

- qishloq xo'jalik xomashyosining muhim turlarini qayta ishlash, to'qimachilik tikuvchilik va boshqa ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish;

- eng muhim iste'mol mollarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarni jadal rivojlantirish va o'ta kamyob tovarlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarini tashkil etish.

Qishloq xo'jaligi sohasida:

- Qishloq xo'jaligini yuritishning yangi shakllarini va yetishtirilayotgan mahsulotning to'la huquqli xo'jayinlar deb his qildiradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish;

- er maydonlarini fermer (dehqon) xo'jaliklariga berish, shaxsiy tomorqa yerlarini kengaytirish va yerni meros qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berish;

- ekin maydonlarini oqilona strukturasi yaratish va oziq-ovqat ekinlarini ko'paytirish orqali chuqur siljishlarni amalga oshirish;

- qishloqda qayta ishlovchi korxonalarini, kasanachilik va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan firmalarni rivojlantirish;

- qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi faol shakllantirish.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida:

- tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatning tashkiliy strukturasi shakllantirish, kadrlarni tayyorlash;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;

- tovarlarni eksport va import qilishning imtiyozli tartibini joriy qilish va notarif uslublar orqali tartibga solinadigan tovarlar ro'yxatini qisqartirish;

- eksport va import tarkibini takomillashtirish;
- xorijiy investorlar uchun imtiyozlar tizimini vujudga keltirish va investitsiya faoliyatini rag'batlantirish;
- xorijiy kreditlar va investitsiyalarni birinchi navbatda kerakli, ustuvor tarmoqlarga jalb qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat infrastrukturasi rivojlantirish.

Iqtisodiy islohotlar strategiyasini amalga oshirishda hamma bosqichlarda dolzarb ahamiyatga ega umumiy ustuvorlik bo'lgan aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlar quyidagilardan tashkil topadi:

- ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash;
- ijtimoiy adolat qoidalarini mustahkamlash va aholining muhtoj qatlamlari ijtimoiy himoyalashining kuchli vositasini yaratish;
- ijtimoiy yordamni aholining real daromadlari bilan bog'lash asosida uning ta'sirchanligini oshirish;
- aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla qo'mitalari rolini oshirish;
- mehnat bozorini tartibga solish va ish bilan ta'minlash sohasida faol siyosat yuritish.

Shuningdek, boshqa umumiy ustuvorliklar ta'lim va madaniyatni rivojlantirish va isloh qilish, aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlashdan iboratdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustuvorligini ta'minlash;
- o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanishi;
- bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat ta-

sarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Amalda bu O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Birinchi strategik vazifaning asosiy mazmuni – bu davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan mulkning haqiqiy mulkdorlar qo'liga berilishi iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish uchun real shart-sharoit yaratishga imkon tug'diradi.

Xususiylashtirishning **ikkinchi strategik vazifasi** esa iqtisodiyotda ko'p ukladlilikni hamda rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lgan raqobat muhitini yaratish, shu orqali davlatni mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarni barpo etishdir.

Ana shu modelga asoslangan holda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari shartli ravishda o'zaro bog'liq uch bosqichga bo'linadi.

Dastlabki, **birinchi bosqich** «kichik xususiylashtirish» davri deb nomlandi va 1992–1993-yillarda amalga oshirildi. Unda aholi yashaydigan davlatga tegishli uy-joylar, savdo, maishiy xizmatlar ko'rsatish, dorixona va shu kabi 53,9 mingta mayda davlat korxonalari xususiylashtirildi. Ularning negizida 28,8 mingdan ortiq nodavlat korxonalari tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich 1994-yildan 1998-yilgacha davom etgan bo'lib, bu davrda mashinasozlik engil va oziq-ovqat sanoati, qurilish, avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa tarmoqlarning o'rta va yirik korxonalari ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish boshlandi. Bundan asosiy maqsad xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamlari hamda chet el sarmoyalarini jalb etish va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining nodavlat sektorini jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'ldi. Ushbu bosqichda 21361 xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida 5747 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, 3903 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat va 11711 ta xususiy mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalar tashkil etildi.

Xususiylashtirishning **uchinchi bosqichi** 1999-yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqich «yakka tartibda xususiylashtirish» davri hisoblanadi. Xususiylashtirishning ushbu davri avv. bosqichlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, ushbu davrda iqtisodiyotning yonilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, temir yo'l transporti va shu kabi boshqa strategik tarmoqlarning yirik korxonalarini chet el investitsiyalarini keng jalb etgan holda yakka loyihalar asosida xususiylashtirishga kirishildi.

Ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlaridagi joylashtirilmagan, shu jumladan, davlatga tegishli aksiyalar paketlari hamda ayrim korxonalarni butunlay yoki ular mulkining bir bo'lagini birja yoki birjadan tashqaridagi bozorlarda turli yondashuvlar va usullarni qo'llash asosida sotish yo'lga qo'yildi.

Uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar bilan ishlovchi hamda istiqbolsiz korxonalar va ular mulkidagi davlat ulushlari nol qiymat bilan chet el yoki mamlakatimiz sarmoyadorlariga investitsiya kiritish hisobiga bepul berish tartibi joriy etildi va amalga oshirilmoqda.

Ushbu bosqichning o'ziga xos tomonlari shundan iborat bo'ldiki, unda davlat mulkiga asoslangan korxonalarni xususiylashtirish shakllarini tanlash va xususiylashtiriladigan mulkni baholash bo'yicha tegishli tajribalar to'plandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2015-yildagi PQ-2340-sonli «Iqtisodiyotda xususiy mulk ulushi va ahamiyatini ko'paytirish bo'yicha choralar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini baholashdan o'tkazish asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan 2015–2016-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish Dasturi tayyorlandi.

2017-yilda xususiylashtirilgan obyektlarning 341 tasi (62,9%) mahalliy davlat hokimiyati organlariga, sog'liqni saqlash vazirligiga – 66 tasi (12,2%), Xalq ta'limi vazirligiga – 58 tasi (10,7%), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga – 16 tasi (3%), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga – 11 tasi (2%), Navoiy tog' kon metallurgiya kombinati davlat korxonasiga – 10 tasi (1,8%) tegishlidir. Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 228,3 milliard so'mni tashkil etdi.

Qishloqda mulkchilik munosabatlarini isloh qilishdan tashqari, dastlabki bosqichda xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga ham katta ahamiyat berildi. Bunda umumdavlat ehtiyojlari uchun yetkazib berilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotiga oqilona xarid narxлари belgilash ko'zda tutiladi. Shuningdek, davlat buyurtmasini asta-sekinlik bilan kamaytirib borish davom ettiriladi.

Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, moddiy texnika ta'minoti, agrokimyo xizmati ko'rsatish masalalarida yordam beruvchi tuzilmalar ishini takomillashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasi takomillashtirilib, respublikani g'alla, don, kartoshka va boshqa oziq-ovqatlar bilan mustaqil ta'minlash masalasi hal etilmoqda.

Qishloqni yangilash va qayta ko'rish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Yerdan foydalanish islohoti. Fermer xo'jaliklarini tashkil qilishning ilk yillarida qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga asosan «fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini merosga qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilish, kamida 10-yil muddat bilan foydalanish yoki ijaraga yer uchastkalarini ajratish» belgilangan bo'lsa, 1998-yil avgust oyida qabul qilingan «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq «fuqarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari 50-yilgacha bo'lgan, lekin 10-yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilishi» ko'zda tutildi.

2003-yillardan boshlab fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ustuvor yo'nalish sifatida barqaror rivojlantirish jarayonlari boshlanib, yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga birlashtirish, egalik qilish va undan foydalanish bilan bog'liq masalalar ko'lami kengaytirildi. 2004-yil avgust oyida qabul qilingan yangi tahrirdagi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq «fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga birlashtirilishi» belgilandi.

Xullas, yer islohoti natijasida quyidagilar amalga oshirildi:

2004-yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy qilindi;

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga yer uchastkalari faqat tuman hokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;

Yer uchastkalari ijaraga 30 yildan 50 yil muddatgacha berilishi qonuniy belgilab qo'yildi;

Er uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi;

Moliya-kredit va soliq islohoti natijasida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar yetishtirishni imtiyozli kreditlash tizimi orqali moliyalashtirish belgilanib, hosil o'rib-yig'ib olinguncha 60 foiz qismini ajratish, paxta xomashyosini xarid qilishda joriy yil oxirigacha 90 foiz qismini ajratish tizimi joriy qilindi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun barcha turdagi soliqlar umumlashtirilib, yagona yer solig'i joriy qilindi. So'nggi yillarda yagona yer solig'ini aniqlash va to'lash muddatlari ham takomillashtirilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqarilgan texnika vositalari va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarini lizingga berish tizimi joriy etildi. Fermer xo'jaliklari uchun tijorat banklari, nodavlat moliyaviy institutlar va tashkilotlar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yaratildi. Yer ijarasi huquqini va bo'lg'usi hosilni garovga qo'ygan holda kredit olish shakllanmoqda.

Narx-navo islohoti natijasida davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jahon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy qildi. Boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlardan aholi va davlat ehtiyojlarini oqilona va yanada to'laroq qondirish maqsadida ulardan foydalanish tarkibini o'zgartirish ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida paxta ekin maydonlari qisqartirilib, g'alla, kartoshka, poliz, sabzavot ekin maydonlari, tokzorlar va bog'larning maydonlari ancha kengaytirildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng olib borilgan agrar siyosat tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish natijasida 2000-yillardan boshlab, uning yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 5-6 foizni tashkil etmoqda. 2017-yilda 2016-yilga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2,0%ga o'sdi. 1991-2017-yillar mobaynida qishloq xo'jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 48,2% dan 19,2% ga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida band bo'lganlarning milliy iqtisodiyotda band bo'lgan aholining umumiy sonidagi ulushi esa 41,7% dan 27,1% ga qisqardi. Umuman mustaqillik yillarida qishloq

xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ikki barobardan ziyodga o'sdi.

Shu davrda qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi mos ravishda 83,8% dan 1,2% ga kamaydi. Qishloq xo'jaligini isloh va diversifikatsiya qilish natijasida mustaqillik yillarida texnik ekinlar maydonlari qisqarib, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ekin maydonlari kengaytirildi. Oqibatda 2017-yilda 1991-yilga nisbatan paxta xomashyosi ishlab chiqarish 37,6% ga kamaydi, don mahsulotlari 4,2 barobarga, kartoshka yetishtirish 8,5 barobarga, sabzavot 3,4 barobarga, poliz ekinlari 2,2 barobarga o'sdi.

Chorva mollari sonining o'sishi natijasida chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi 1990-yildaga 36,6%dan 2016-yilda 2016-yilda 41% ga oshdi. Ammo 2017-yilda bu ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, 31,0%ni tashkil etdi. Chorvachilik mahsulotlari hajmining o'sishi asosan dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida chorva mollari sonining jadal o'sganligi bilan izohlanadi. 2017-yilda 1990-yilga nisbatan go'sht ishlab chiqarish hajmi 2,9 barobarga, sut 3,3 barobarga tuxum 5,3 barobarga ko'paydi.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi tufayli ularning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori ham o'sib bordi.

Boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar natijasida ko'plab boshqaruv organlari bo'g'inlarining vazifasi o'zgardi, ba'zi o'zini oqlamagan boshqaruv organlari tugatildi va yangi organlar tuzildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida va bozor munosabatlarini boshqarishda moliya-kredit tizimi muhim o'rinni egallaydi. Islohotlarni birinchi bosqichida, respublika moliya vazirligi va markaziy bankning vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Ularning yangi bo'g'inlari tuzildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish uchun Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi.

Respublikamizda mavjud boshqaruv organlari faoliyati qaytadan ko'rib chiqilish bilan birga, ularning vazifalari ham yangi jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqildi, o'zgartirildi. Tashkil etilgan yangi ijro organlari tizimi rejalash-taqsimlash vazifalaridan xoli bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini bajarmoqda.

O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini keskin cheklash, davlatning boshqaruv tuzilmalari va ularning vazifalarini qisqartirish, davlat boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirish zarur. Davlat vazifalari va vakolatlarini tobora ko'proq jamoat, nodavlat tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazish kerak.

Ikkinchidan, boshqaruvni nomarkazlashtirish, ayrim vazifalarni esa hududiy boshqaruv bo'g'inlariga keng ko'lamda topshirish, ortiqcha ma'muriy vertikal tuzilmalarni tugatish zarur. Barcha darajadagi hokimliklarning islohotlarni amalga oshirish, joylardagi ishlarining ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, bandlik muammolarini yechish hamda aholi turmushini farovonlashtirish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ayrim tarmoq va hududiy boshqaruv tuzilmalarini qayta tuzish, birlashtirish, qisqartirish va tugatish asosida iqtisodiyotni boshqarish tuzilmalarining samaradorligini ta'minlash. Bugungi kunda nafaqat ayrim bo'g'inlarni, balki qilinayotgan sarfxarajatlarni deyarli oqlamayotgan ayrim idoralarni ham saqlab qolish qay darajada maqsadga muvofiq degan masalani qayta ko'rib chiqish payti keldi.

To'rtinchidan, boshqaruv tizimining samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish. Qarorlarni tayyorlash va qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmini joriy etish zarur.

Beshinchidan, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, keraksiz hisobotlarni va qog'ozbozlikni qisqartirish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hisobidan uning samaradorligini oshirish.

Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishda oldimizga qo'yilayotgan eng asosiy vazifa, birinchi, davlat, jamoat va xo'jalik subyektlarini boshqarishning butun tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirishni ta'minlash, ikkinchi, esa, ularni mamlakatni isloh va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichi talablariga mos holatga keltirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

– respublikaning yonilgi-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji to'la ta'minlandi;

– energetika mustaqilligiga erishildi;

– ozuqabop g'alla importiga karamlik barham topdi. G'alla mustaqilligiga erishildi;

– ishlab chiqarishda tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qisqarib bormoqda;

– xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib, ular hajmining YalMdagi ulushi ortib bormoqda;

– xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'li bilan yangi avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi hamda samolyotsozlik radioelektronika, elektronika sohalari, shuningdek, qayta ishlash sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda;

– tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi oqibatida sanoat mahsulotlarining tarmoq tarkibida yonilgi-energetika, kimyo va neft-kimyosi, mashinasozlik metallomni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ulushi o'sib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Unga ko'ra, islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita ma'muriy usullardan keng foydalanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan bevosita iqtisodiy usullari joriy etilib, ekportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari:

Birinchi bosqich – 1991–1994-yy.	Import o‘rnini qoplash siyosatining yuritilishi. Tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullari yetakchilik qildi.
Ikkinchi bosqich – 1995–1997-yy.	Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklari joriy qilindi. Bu davr miqdoriy cheklovlarining qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo‘llash davri hisoblanadi.
Uchinchi bosqich – 1997–1999-yy.	Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishni chuqurlashtirish, tarif va notarif usullarini soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo‘naltirilgan siyosatning olib borilishi bilan izohlanadi.
To‘rtinchi bosqich – 2000–2003-yy.	Tashqi savdoni va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002-yilning 1-iyulidan boshlab import tarifining uch pog‘onali stavkalari (0; 10; 30) joriy etildi.
Beshinchi bosqich – 2003-yildan 2016-yilga qadar	O‘zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu, o‘z navbatida, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag‘batlantirish bo‘ldi.
Oltinchi bosqich – 2017-yildan boshlandi.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishning yangi bosqichi. Valyuta bozori va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, xususan qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish. Eksportni yanada rag‘batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish.

Respublikamizda ham eksport salohiyatini oshirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan. Shuningdek, mamlakat milliy xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ichki bozor

ehtiyojlarini to‘liqroq darajada ta‘minlash maqsadida ko‘pgina import tovarlarini olib kirish bo‘yicha ham qator yengilliklar yaratilgan. Bu boradagi yengilliklarning xususiyatli jihati sifatida, ta‘kidlash lozimki, mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xorijdan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar va iste‘mol uchun birlamchi darajada zarur bo‘lgan un, yog‘och va yog‘och materiallari kabi tovarlarga ko‘proq ustuvorlik berilgan. Yuqorida sanab o‘tilgan usul va vositalar asosida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tashqi savdo balansida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2017-yil yakunlari bo‘yicha 26907,0 mln. AQSh dollarini (2016-yilga nisbatan 111,0%ni), shu jumladan, MDH mamlakatlari bo‘yicha 9737,7 mln. AQSh dollarini (116,1%), boshqa xorijiy mamlakatlar bo‘yicha 17169,3 mln. AQSh dollarini (108,4%) tashkil etdi.

2017-yilda 2000-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 4,3 martaga, eksport hajmi 4,2 martaga, import 4,4 martaga, tashqi savdo aylanmasi savdosi esa 2,8 martaga oshdi. Mamlakatning iqtisodiyotidagi tub tarkibiy o‘zgarishlarni eksport va importning tovar tarkibidagi o‘zgarishlar misolida ko‘rish mumkin. Eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 1990-yildagi 59,7% dan 2017-yilda 3,4% ga kamaydi. Shuning bilan birga kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar ulushi 2,3%dan 6,4%ga, ya‘ni 2 martadan ziyodga, xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi esa 1,3% dan 25,2%ga oshdi.

O‘zbekistonda mustaqillik e‘lon qilingandan so‘ng aholi turmush darajasini yuqori daraja ta‘minlash, inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va uni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridayoq, davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

Ijtimoiy siyosati o‘tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;

Ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;
Aholining yashash darajasini keskin tushib kyetishiga yo'l qo'y-
maslik;

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga
aniq manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish;

Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy
vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

Aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash;

Mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste'mol bozorini
shakllantirish;

Aholining to'lov talablarini keng miqyosda qondirish va uning
o'sishini ta'minlash;

Aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqala-
shuvining oldini olish;

Ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohot-
larning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy
siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borilmoqda:

Davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyat-
ning har bir a'zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul
qilish;

Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;

Ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat
tomonidan beriladigan imtiyozlar;

Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolat-
lanishi;

Ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;

Kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;

Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni
ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

Talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;

Ishsizlik nafaqasi;

Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda
sotilishini ta'minlash;

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni
budjet hisobidan qoplash;

Ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim,
jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasining rivojlantirishni
qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik
islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan
demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi
islohotlarni amalga oshirish orqali ta'minlash mumkin. Chunki, har
qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay
darajada hal etilayotganiga bog'liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o'stirib borishdan iboratdir. Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalar o'sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi. Aholining daromadlar tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi 2010-2017-yillarda 45,0% dan 34,3% ga kamaydi, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi 25,0% dan 34,5% ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni doirasida «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan «Davlat xaridlari to'g'risida», «Davlat va xususiy sektor sherikligi to'g'risida»gi qonun loyihalari hamda 30 dan ziyod qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash borasida faol ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes subyektlariga 15,9 trillion so'mlik kreditlar ajratildi va o'sish 2015-yilga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Jumladan, qiymati 3,3 trillion so'mlik mikrocreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 206,7 mln. dollar miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi. 2016-yil mobaynida «E-ijro» idoralararo elektron hamkorlik tizimini faol joriy etish asosida

tadbirkorlik subyektlariga «Yagona darcha» markazlari orqali 100 mingdan ziyod davlat xizmatlari ko'rsatildi. 127 mingdan ziyod firma nomlariga Internet orqali buyurtma berildi.

Respublikamiz rahbari Sh. Mirziyoyevning mamlakatni yanada isloh qilish bo'yicha istiqbol rejaları uning 2016-yil 1-noyabr kuni Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatidagi saylovoldi dasturida o'z ifodasini topdi. Dasturda davlatimizning jadal rivojlanishi yo'lida xalaqit berishi mumkin bo'lgan to'siqlar har tomonlama tahlil etilgan holda, yurtimiz hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan va ehtimol tutilgan xavf-xatarlarning oldini olish, yaqin va olis istiqbolga mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan va shuningdek mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishni ta'minlaydigan beshta ustuvor yo'nalish belgilab olingan edi.

Mazkur saylovoldi dasturini amalga oshirishdagi dastlabki kadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon», «Xazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risidagi farmoni bilan tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida Samarqand viloyati Urgut tumanida – «Urgut», Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida – «G'ijduvon», Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida – «Qo'qon», Xorazm viloyati Hazorasp tumanida – «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etildi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va chuqur isloh etishning ustuvor vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da o'z ifodasini topdi.

Harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish» deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik qurish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasi nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada, keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshirish mo'ljallangan.

Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutilgan. Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25

mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilgan.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo'nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijasida 2016-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 199 993,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2015-yilga nisbatan taqqoslaganda 6,2% ga o'sdi. Sanoat hajmi 6,6 foiz, pudrat qurilish ishlari 12,5 foiz, chakana savdo aylanmasi 14,4 foiz, xizmatlar 12,5 foiz o'sdi.

Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSh dollaridan ko'p investitsiya qilindi, yoki 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlar hajmi esa 11,3 foizga o'sib, 3,7 milliard dollardan ko'p bo'ldi.

Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida 2016-yilda 28 mingdan ko'p loyiha amalga oshirildi. 2015–2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturiga muvofiq 2016-yilda Respublika Yo'l jamg'armasi hisobiga 520,1 kilometr avtomobil yo'llari qurilishi va ta'mirlanishi yakunlandi.

Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan ishonchli transport aloqasini bog'lovchi, Qamchik dovonidan 19,2 kilometr uzunlikdagi yer osti yo'li orqali o'tuvchi yangi Angren–Pop elektrlashtirilgan

temir yo'l liniyasi qurildi. Mazkur temir yo'lining foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimizni barcha hududlarini qamrab oluvchi yagona to'liq temir yo'l tizimi yaratildi.

Umuman olganda, 2016-yilda respublikada 12413,5 ming kvadrat metr, jumladan, qishloq joylarda 9000,6 ming kvadrat metr uy-joylar, 2448,1 kilometr, xususan, qishloq joylarda 1972,4 kilometr suv ta'minoti tarmoqlari bunyod etildi.

2016-yil oxirlaridan respublikada mamlakatimiz rahbari M. Mirziyoyev sa'y-harakati va tashabbusi bilan boshlangan tub iqtisodiy islohotlar bois, O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, zamonaviy bosqichiga qadam qo'ydi.

2. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishdagi qadamlar.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va chuqur isloh etishning ustuvor vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da to'laqonli tarzda o'z ifodasini topdi. Ushbu dastur respublikaning strategik jihatdan milliy yuksalish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. U quyidagi ustuvor yo'nalishlarda o'z aksini topdi:

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish;

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish;

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

Iqtisodiy sohada Harakatlar strategiyasini amalga oshirishdagi birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanishlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 23-fevraldagi qarori bo'ldi. Ushbu

qarorga binoan davlat tomonidan xususiy mulk qilib berilgan (shu jumladan ustav kapitaliga berilgan, sotilgan va boshqa usullar bilan boshqa shaxsga berilgan) ko'chmas mulk obyektlari, keyinchalik mulkdorlar o'zgariganidan qat'iy nazar, ilgari xususiylashtirilgan binolar, noturar joy xonalari va qurilishi tugallanmagan ko'chmas mulk obyektlari sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikroreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 17-martdagi qaroriga muvofiq yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikroreditlar ajratish; yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish xaqining 60 barobarigacha miqdorda mikroreditlar kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida ko'rsatilgan vakolatlar doirasida kafilligi asosida ajratishni kengaytirish belgilandi.

Mamlakatimizda savdo va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish bo'yicha 2017–2019-yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish, 2017–2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish, 2018–2022-yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturlari hamda 2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish hamda 2017–2021-yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari qabul qilinib amalga oshirila boshlandi.

Respublikamizning farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, dorivor o'simliklar xomashyosini yetishtirishning noyob sharoitlarini inobatga olgan holda mahalliy dorivor vositalar

bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli dori vositalari bilan to'ldirish, ularni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatli farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish va respublikamiz aholisi daromadlarini oshirish maqsadida: «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonlik-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish ishlari boshlab yuborildi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yil 2-maydagi Prezident qaroriga binoan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni izchil oshirish, shu asosda yangi ekologik toza ishlab chiqish quvvatlarini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish negizida amaldagi gidroelektrostantsiyalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ilg'or xorijiy tajribani izchil o'zlashtirishni hisobga olgan suv resurslarini samarali boshqarish, shuningdek energetika resurslarining mutanosibligini oshirish va shu asosida korxonalar va aholining elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirishni ta'minlash maqsadida 2017–2021-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-iyundagi qaroriga muvofiq «2017–2021-yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi» qabul qilindi. Mazkur dasturga muvofiq zamonaviy yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega tog' texnikasi va uskunalardan foydalanish hisobiga o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda ko'mir sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; yangi konlarni ishlab chiqishga jalb etish yo'li orqali, jumladan, ko'mirni yer ostidan qazib olishni joriy etishni nazarda tutgan holda, ko'mir sanoatining xomashyo bazasini kengaytirish; tog'-kon ishlarini olib borishda sanoat xavfsizligi talablariga so'zsiz rioya etgan holda kon yuzini ochish ishlari hajmlari bilan bir vaqtning o'zida ko'mir qazib olish suratlarini oshirish; ko'mir sanoati va yo'l-yo'lakay qazib olinadigan foydali qazilmalarning xomashyo bazasidan oqilona foydalanish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi Farmoniga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar

konsepsiyasi» tasdiqlandi. Farmonda «iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolinganligi» qayd etilgan.

Prezident Farmoniga ko'ra quyidagilar davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilangan:

a) ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

b) ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohaslarini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jaryonlarini takomillashtirish;

d) iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish;

c) vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish;

f) davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish;

g) professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017-yil 2 sentabrdagi Farmoni e'lon qilindi.

Aytish lozimki, 2016-yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borildi. Natijada, 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, milliy valyutaning

2016-yil boshidagi almashuv kursiga nisbatan devalvatsiya darajasi 15 foizni tashkil qilib, so'mning AQSh dollariga nisbatan rasmiy almashuv kursi 3231,48 so'm AQSh dollarini tashkil etgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2017-yil 2 sentabrdagi Farmoniga asosan 2017-yilning sentabr oyidan boshlab valyuta kursi shakllanishining bozor mexanizmlari joriy etilishi va ichki valyuta bozori faoliyatining erkinlashtirilishi nafaqat pul-kredit sohasida, balki butun iqtisodiyotda ijobiy tomonga tub o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim zamin yaratdi. Xususan, ushbu islohotlarning amalga oshirilishi pul muomalasi sohasidagi muammolarni hal qilish, bankdan tashqari pul mablag'larini bank tizimiga jalb qilish va banklar orqali aylanishini ta'minlash, eng asosiysi pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmon qabul qilinganidan keyin 2017-yilning sentabroyabr oylarida valyuta birjasidagi o'rtacha operatsiyalar hajmi birinchi yarim yilning o'rtacha ko'rsatkichi bilan solishtirganda qariyb 1,5 barobarga, eksportyorlar tomonidan valyutani sotish hajmi esa 2 barobardan ziyodga oshishi kuzatildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi. Ushbu davrda so'mning AQSh dollariga nisbatan kursi bozordagi umumiy talab va taklif dinamikasini o'zida aks ettirgan holda o'zgarib bordi. Xususan, sentabr oyida ichki valyuta bozorida talab hajmining taklifga nisbatan yuqori bo'lishi natijasida valyuta birjalarida shakllangan almashuv kursi 8110 so'm/dollardan 8054 so'm/dollargacha ko'tarildi.

Mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga karatilgan islohotlar natijasida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (keyingi o'rinlarda YaIM) hajmi joriy narxlarda 249 136,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2016-yilga nisbatan 5,3% ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2016-yildagi narxlarga nisbatan 118,9% ni tashkil etdi. 2017-yil yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaIM 7 692 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 3,6% ga oshdi.

Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo'shimcha 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo'shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug'-gaz qurilmasi, Qizilqum bag'ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo'yicha ishlar davom yettirildi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinata tomonidan «Yoshlik – 1», «Yoshlik – 2» konlarini o'zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg'ona va To'palang suv omborlarini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borildi.

Farg'ona – Marg'ilon yo'nalishidagi temir yo'l tarmog'i ayni paytda elektrlashtirilmoqda. Yana bir yirik obyekt – Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018-yilda qo'shimcha ravishda 4 milliard 100 mln. kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi. O'zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo'shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to'liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida «O'zagrotex-sanoatxolding» aksiyadorlik jamiyatida 2018-yilda 5 mingdan ko'proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo'lga qo'yish maqsadida ishlar boshlab yuborildi.

Yuridik va jismoniy shaxslar xorijiy valyutani tijorat banklaridan cheklovsiz sotib olish va erkin sotish imkoniga ega bo'ldi. Chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalari hajmi liberalizatsiya davriga nisbatan 1,5 barobar oshib, o'rtacha 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, davlatimizning oltin-valyuta zahiralarini yil davomida 1,1 milliard dollarga ko'paytdi. 2017-yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasini faoliyati yo'lga qo'yildi va bu tashkiliy choralar hududlarni jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Yaqin vaqt ichida yana 50 ta yangi sanoat zonasini tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bu jarayonda 2017-yilda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish obyektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilni «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb nomlash hamda iqtisodiyot sohasidagi ustuvor vazifalarning belgilab berishi 2018-yilda bir qator tizimli islohotlarni amalga oshirishga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan iqtisodiy muammolar, ya'ni tabiiy, iqtisodiy boy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi, bu boyliklarning katta qismining bekordan bekorga isrof bo'layotganligi, bazaviy sohalarda ishlab chiqarishning yillar davomida modernizatsiya qilinmaganligi, mahsulot energiya sig'imining yuqoriligi, energiya resurslariga narxlarning pastligi, ba'zi korxonalariga imtiyozlar berish orqali raqobat muhitining bo'g'ib qo'yilishi, narxlarning barqaror bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatilganligi, investitsiya dasturlarini shakllantirishdagi kamchiliklar, biznesga davlat aralashuvi ko'lamining kattaligi, innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdagi sustkashliklar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar hamda iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdidlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

– O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur ishlab chiqish;

– Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili davlat dasturini amalga oshirish;

– mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash;

– soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish;

– tez rivojlanayotgan, yiriklashib borayotgan korxonalarni rag'batlantirish siyosatiga o'tish;

– budjet tizimini qayta ko'rib chiqish, budjet daromadlari va xarajatlari xalqimiz uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash;

– investitsiya dasturlarini shakllantirishda puxta rejalashtirilgan, uzoq muddatga mo'ljallangan yagona konsepsiyani yaratish;

– milliy yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida «Milliy logistika portalini» tashkil etish;

– qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish;

– hududlarni jadal rivojlantirish;

– qurilish sohasini 2030-yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarining amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning salbiy ta'sirini yumshatishga hamda 2018-yilda tizimli islohotlarni amalga oshirish bo'yicha imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5296-sonli Farmonida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) tomonidan tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi, banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda» – deb qayd etilgan. Shu boisdan quyidagilarni ta'minlash Markaziy bank faoliyatining strategik maqsadli yo'nalishlari deb hisoblanadi:

– narxlar barqarorligi;

– bank tizimi barqarorligi va rivojlanishi;

– to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanishi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

• birinchidan, asossiz inflyatsion kutilmalarni oldini olish maqsadida inflyatsion targetlashning prinsip va mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish bilan pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini tubdan takomillashtirish, ushbu usulga o'rta muddatli istiqbolda

to'liq o'tish va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va choralarning shaffofligini oshirish;

• ikkinchidan, inflyatsiya omillarini chuqur o'rganish va to'lov balansini hisobini yuritish va tahlil qilish tizimini to'liq shakllantirish asosida pul-kredit siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish uslublarini takomillashtirish maqsadida statistik tahliliy va tadqiqot bazasini rivojlantirish;

• uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko'rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

• to'rtinchidan, o'rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik subyektlarining o'zaro to'liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institutsional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

• beshinchidan, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

• oltinchidan, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, shuningdek ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• yettinchidan, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan tizimli islohotlardan biri soliq islohotidir. Prezidentimizning 2018-yil 29-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni soliq siyosatida yangi sahifa ochdi. Yangi soliq konsepsiyasi bu safar tor doirada, sokin kabinetlarda qabul qilinmadi. Aksincha, 3 oy davomida jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p bahslar bo'ldi. Minglab taklif va munozaralar bildirildi. O'zbekiston

Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida soliqqa tortish tizimini tubdan isloh etish, shu jumladan, soliqlar va majburiy to'lovlarni qisqartirish, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish ko'zda tutilgan. Qulay raqobatli muhit yaratish, soliq qonunchiligi barqarorligi va soddalashtirilishini ta'minlash, soliq yuklamasini kamaytirish, respublikamizning investitsion jozibadorligini oshirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish konsepsiyaning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019-yil 1-yanvardan, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuklamasi, barcha jismoniy shaxslar daromadlariga 12 foizlik yagona soliq stavkasi joriy etilishi orqali pasaytirildi, shundan 0,1 foizi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisoblariga yo'naltiriladi, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy badallari bekor qilindi. Biznes uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi. Yuridik shaxslar aylanmalari (naqd pul tushumi)dan undiriladigan davlat maqsadli fondlariga majburiy ajratmalar bekor qilindi, yuridik shaxslar foydasiga soliq stavkasi 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun esa 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirildi. Qo'shilgan qiymatga soliq stavkasining 20 foizlik hozirgi miqdori saqlab qolindi, bunda soliq hisobi to'laqonli tizimi joriy etildi, soliqqa tortish bazasi aniqlashtirildi, imtiyozlar soni kamaytirildi va 2019-yil yakunlari bo'yicha ushbu soliq stavkasi pasaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabr-dagi «2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5544-sonli Farmoni bilan «2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi» tasdiqlandi. Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – Strategiyaning bosh maqsadi etib belgilangan.

Ushbu bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

- innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

- boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

- mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Mazkur strategiyaning amalga oshirilishi respublikamizning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

2018-yilga «Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyiha amalga oshirildi. «Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

2018-yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoldirildi. Bu, 2017-yilga nisbatan 6 barobar, 2016-yilga nisbatan esa 32 barobar ko'pdir. «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada, 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'ldi.

2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga

erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmogda. O'zbekiston davlat statistika qo'mitasining dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi 2018-yilda 407,5 trln so'mni tashkil etdi va 2017-yilga nisbatan 5,1 foizga o'sdi. Yil yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaIM 12,3 mln so'mni tashkil etdi. Bu 2017-yilga nisbatan 3,3 foizga ko'proq demakdir. Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 11,2 foizni tashkil etdi va 5,5 foiz darajasida o'sish qayd etildi (YaIM mutloq o'sishiga ta'siri 0,6 f.p.).

YaIM o'sish sur'atiga sanoat tarmog'i eng katta ta'sir ko'rsatdi (2,1 f.p.) va o'tgan yilga nisbatan 10,6 foizga o'sdi. Sanoat tarmog'idagi ijobiy dinamika tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i qo'shilgan qiymatining 28,2 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatining 6,4 foizga va boshqa sanoat tarmoqlarining 4,7 foizga o'sishi hisobiga ta'minlandi. 2018-yilda YaIM deflyatori indeksi 2017-yildagi, narxlarga nisbatan 128,1 foizni tashkil etdi. YaIM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 144,3 foiz va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 128,6 foiz qayd etildi.

Prezidentimizning 2018-yil 19-iyuldagi «2018–2019-yillarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari va infratuzilmani amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida 2018–2019-yillarda umumiy qiymati 6,4 trillion so'mlik investitsiyalarni jalb etish hisobiga 553 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. 2018-yilda umumiy qiymati 1,8 trillion so'mga teng bo'lgan 411 ta loyiha amalga oshirilgan. Buning natijasida 12 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan. Qariyb 20 mln. AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilingan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga 20,7 mln. dollar miqdorida import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega quvvatlar foydalanishga topshirilgan. Jumladan, 2 milliard 800 mln. so'm miqdorida investitsiya o'zlashtirilib, Andijon tumani Xortum qishlog'ida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan yiliga 10

mln. flakon insulin dori vositasi ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod ishga tushirilgan.

2018-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 33,8 milliard dollarni tashkil etdi va 2017-yilga nisbatan 27,3 foizga oshdi. Eksport hajmi 14,2, import hajmi esa 19,5 milliard dollardan iborat bo'ldi. Tashqi savdo saldosi minus 5,2 milliard dollarni tashkil etdi. 2018-yil 11 oyi yakuni bo'yicha bu farq yanada ko'proq – 6 milliard dollarga teng edi. Dekabrda eksportning keskin oshishi hisobiga uni qisqartirishga muvaffaq bo'lindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim:

- ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
 - iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish;
 - iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
 - «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
 - valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
 - iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash – deb ta'kidladi.
- Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun davlat rahbari tomonidan quyidagi vazifalar belgilangan:
- Birinchidan, biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashimiz shart. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi belgilangan:
 - jahon tajribasini puxta o'rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish;
 - Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro valyuta fondining Milliy hisoblar tizimini respublikamizda 2020-yil 1-yanvardan boshlab to'liq joriy etish;

– iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– mamlakatni 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqib, xalqaro ekspertlar ishtirokida muhokama qilish;

– iqtisodiyotning barcha sohalarni raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tatbiq etish. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo‘lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish, 2019-yilda barcha mamlakatlar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2018-yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallandi. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga etkazish, natijada 142 ta zamonaviy korxonalar ishga tushirish rejalashtirildi.

Aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil 18-dekabrda qaroriga muvofiq Mazkur dastur doirasida jami 112 trln 251 mlrd so‘mlik kapital kiritilishi, xususan shundan ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga 4 trln. 43 mlrd. so‘m, ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilashga 1 trln. 101 mlrd. so‘m, avtomobil yo‘llari uchun 1 trln. 961 mlrd. so‘m, yerlarning meliorativ ahvolini yaxshilashga 353 mlrd. so‘m va Orolbo‘yi hududini rivojlanishiga 243 mlrd. so‘m kapital kiritilishi hamda 34 trln. 213 mlrd. so‘mlik to‘g‘ridan to‘g‘ri va 22 trln. 278 mlrd. so‘mlik davlat kafolati asosidagi xorijiy investitsiya va kreditlar ajratilishi belgilangan.

Shuningdek, qaror bilan alohida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budget mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, 2019-yilda obyektlar qurish va ularni rekonstruksiya qilish manzilli dasturi hamda markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan 14 va markazlashtirilmagan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan 2 ta manzilli dasturlar ham tasdiqlandi.

Uchinchidan, 2019–2021-yillarda, ya‘ni o‘rta muddatli istiqbolda pul-kredit sohasida qarorlar qabul qilishda Markaziy bank joriy iqtisodiy

shart-sharoitlar tahlili va makroiqtisodiy prognozlarga asoslanadi. 2019-yildan boshlab Markaziy bank faoliyatiga makroiqtisodiy tahlil va prognozlashning zamonaviy tizimi joriy etila boshladi. Prognozlarni shakllantirishda makroiqtisodiy rivojlanishning tashqi va ichki omillari, mamlakatimizda kelgusida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan choralar inobatga olindi.

To‘rtinchidan, fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak. Soliq ma‘muriyatchiligi shunday bo‘lishi kerakki, ko‘shilgan qiymat solig‘i keng joriy qilinsa ham bu holat iste‘mol tovarlarining narxi o‘shishiga olib kelmasligi shart va zarur.

Beshinchidan, tadbirkorlik faoliyati qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar jadal davom ettiriladi.

Oltinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvini keskin kamaytirish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda 603 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularning 486 tasida davlat ulushi 52 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Hozirgi vaqtda 972 ta davlat korxonasi aktivlarining atigi 21 foizi Davlat raqobat qo‘mitasi tomonidan, qolgan 79 foizi vazirlik va idoralar hamda xo‘jalik birlashmalari tomonidan boshqarilmoqda. Mavjud tizimni tartibga solish maqsadida Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni mustaqil agentlik etib qayta tashkil qilish lozimligi belgilangan.

Yettinchidan, biz erkin bozor tamoyillarini o‘rnatmoqchi ekanmiz, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratishimiz shart.

Sakkizinchidan, iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifadir.

To‘qqizinchidan, hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish lozim. Iqtisodiyotdagi tizimli o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Mamlakatimizning Markaziy bank monetar siyosatning kelgusi uch yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqdi urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko‘rilmasa, ushbu ko‘rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

O'ninchidan, qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifamizdir. Keyingi yilda klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52 foizga etkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shuningdek, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qullash, qishloq xo'jaligi maqsadlarida yer berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda «2019–2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturi»ni qabul qilish vazifalari belgilangan.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tashabbusi va sa'y-harakati bilan qabul qilingan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va keng qamrovli yangilanishlar bois mamlakatimiz rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Tom ma'noda bu bosqich mamlakat rivojlanishining milliy yuksalish davrini boshlab berdi.

3. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Ma'naviy va ma'rifiy hayot, fan va madaniyatning rivojlanishi.

Milliy g'oya va mafkura millatlar, xalqlar va mamlakatlar shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvining barcha bosqichlari uchun umumiy nazariy asos vazifasini bajaradi. Ammo o'zgarmas emas, balki, uni yuzaga kelgan muammolar, amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan vazifalar va maqsadlardan kelib chiqqan holda izchillik bilan takomillashtirilib borilishini taqozo qiladi. O'zbekistonda milliy g'oya millat shakllanishi davomida yuzaga keldi, milliy istiqlol g'oyasi esa millatimizning qaramlik holatiga tushib qolish va undan ozod bo'lishining nazariy asosi sifatida shakllandi. U milliy g'oyaning tarkibiy qismini tashkil qilib, ular bir-birini to'ldiradi.

Milliy g'oya millat taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun nazariy asos hisoblanadi, milliy istiqlol g'oyasi esa uning tarkibiy qismi sifatida millatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi tarixiy bosqichining nazariy asosi sifatida shakllandi va u 1991-yilda O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida real harakat dasturi sifatida namoyon bo'ldi.

Ammo, bu milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan unda belgilangan barcha vazifalarni ham to'la amalga oshirdi – degani emas. Chunki, qo'lga kiritilgan siyosiy mustaqillikni mustahkamlash vazifasi kun tartibida turgan edi. Xususan, uni amalga oshirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi qaramlikdan qutilishdek murakkab vazifalarni amalga oshirish zarur edi. Ularning asosiy vazifalaridan biri milliy-ma'naviy tiklanish, ya'ni qaramlik sharoitida toptalgan milliy til, urf-odat, an'ana va qadriyatlarni qayta tiklash, ajdodlardan qoldirilgan milliy-ma'naviy meroslarni o'rganish va ularni xalqimizning ongi va qalbiga yetkazish kabilar ana shu vazifalarning asosiy qismini tashkil qilgan edi. Ayni paytda, millatimiz va xalqimiz ongini yuzaga kelgan yangi sharoit va imkoniyatlar ruhiyatida shakllantirish zarur edi. Ularning barchasi bir kunlik yoki bir-ikki yillik vazifalar emas, balki, ma'lum muhitni talab qiladi. Eng asosiysi ularning nazariy asoslari bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining millatimiz va xalqimizning, ularning mustaqillikni qo'lga kiritishda ozodlik, erkinlik va mustaqillik g'oyalari bilan qurollantirishdagi imkoniyatlari, tajribasi asosida milliy-ma'naviy tiklanishni amaliyotga samarali tatbiq qilish edi. Bu borada O'zbekistonda bir qator tadbirlar, tashkiliy ishlar belgilandi va ularni real hayotga tatbiq qilina boshlandi. Ularda asosiy e'tibor milliy istiqlol g'oyaning o'zagi bo'lgan milliy ma'naviyatni, ajdodlar qoldirgan meroslarini qayta tiklash va ularni xalqimizga yetkazish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Bu borada qilingan ishlarning dastlabkisi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1994-yil 24-aprelda «Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida»gi qabul qilingan Farmoni bo'lgan edi. Bu qabul qilinganda turli munosabatlar bildirilgan edi. Ularda ba'zilar undan ko'zlangan maqsadlarni to'g'ri tushungan bo'lsa, nafaqat xorijdagi, shu jumladan o'z respublikamizdagi ayrim «nazariyotchilar» O'zbekiston yana sobiq tuzumi davridagi kabi mafkuralashgan davlatni qurishga kirishgan – degan fikrlarni ham bildirgandi. Ammo O'zbekistonda bunday iddaolarga e'tibor berilmasdan ma'naviy, ma'rifiy, g'oyaviy va mafkuraviy sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Xususan, 1998-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish

to'g'risida», 1998-yil 24-iyulda «Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarni qabul qilgan bo'lsa, 1999-yil 3-sentabrda O'zbekiston Prezidentining «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Bu qabul qilingan hujjatlar, mamlakatimiz milliy-ma'naviy tiklanishni amalga oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida mustaqillikning ulug' ne'mat ekanligini tushunib yetish, uni asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirish, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirishda dasturul-amal bo'ldi. Ulardagi kontseptual g'oya mustaqillik sharoitida milliy-ma'naviy tiklanishni amalga oshirishga qaratilgan edi. Chunki, ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma'naviy meroslarni qaytadan tiklamasdan, ular bilan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongi va qalbini boyitmasdan boshqa sohalardagi islohotlarni amalga oshirib bo'lmas edi. Xo'sh, milliy-ma'naviy tiklanish nima edi? Milliy tiklanish – millatimiz hayotida sodir etilgan, zo'ravonlik yo'li bilan avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odat, an'analar, qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan, milliy o'zligini anglash cheklangan manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichiga kelib esa o'zining mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida, milliy rivojlanishi borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni millat taraqqiyotiga yo'naltirishga qaratilgan umummilliy nazariy va amaliy faoliyat hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar milliy istiqloq g'oyasining mustaqillikning asosiy yo'nalishi sifatida real hayotda o'zining samarasini berdi. U xalqimiz milliy-ma'naviy g'ururini qayta tiklanishiga, ularda ertangi kunga ishonch uyg'otishga va ruhiy ko'tarinkilikka o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Amalda yuqorida Respublikamizda milliy-ma'naviy tiklanish, ma'naviy-ma'rifiy sohada islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari mamlakatimizning sho'rolar davridagi sobiq yakka mafkura hukmronligiga qaytish emas, balki, unda erishilgan mustaqilligimizni ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi.

O'tgan davr tajribasi ko'rsatdiki, mustaqilligimizni ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlashga qara-

tilgan nazariy va amalga oshirilgan tadbirlar o'zining to'g'riligini amaliyotda tasdiqlaydi. Ularning boshida O'zbekistonning Birinchi Prezidentining milliy-ma'naviy tiklashga bosh homiy bo'lgani, viloyat hokimlarining ma'naviy va ma'rifiy kengashlarga shaxsan o'zlari raislik qilganlari bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini berdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Prezident farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida «Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish», «Aholini siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish» yuzasidan hujjatlar qabul qilinib, 39 ta kichik ishchi guruhlari tuzildi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini kuchaytirish yuzasidan kengashlardagi bo'limlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdi.

Milliy istiqloq g'oyasida belgilangan vazifalarni aniq tizim asosida amaliyotga tatbiq etildi. Ular: 1) ajdodlardan bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarni chuqur o'rganish va ularni xalqimizning chinakam ma'naviy boyligiga aylantirish; 2) asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan shakllantirilgan urf-odat, an'ana va qadriyatlarni qayta tiklash va ularni zamonda kechayotgan o'zgarishlarga mos ravishda rivojlantirish; 3) diniy qadriyatlarimizni qayta tiklash va ularning yoshlarimiz tarbiyasidagi imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va turli yovuz niyatli g'oyalardan himoya qilish; 4) mamlakatimizning polietnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unda yashayotgan barcha millatlar va elatlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hamjihatlikni ta'minlash asosida dinlararo bag'rikenglikni hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash; 5) yoshlar ongi va qalbida Vatanparvarlik, millatparvarlik va xalqparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash; 6) ta'limni tarbiya bilan uyg'un holda olib borish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish kabi vazifalar mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin milliy istiqloq g'oyasini amaliyotga tatbiq qilishda belgilangan vazifalarni tashkil qildi.

Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistonning barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at, oliy o'quv yurtlari, folklor etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshlandi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yoshdashishga chek qo'yildi. Bahouddin Naqshband, Feruz, Xoja Ahror, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib asarlari chop etildi. Barkamol avlodni tarbiyalashdagi katta xizmatlarni hisobga olib adabiyotning ilg'or namoyandalari Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibrohim Yusupovlar O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lishdi.

1991-yil buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlab respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunning 600-yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YuNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik o'tdi.

Mustaqillik yillarida erishilgan katta ma'naviy yutuqlardan biri – Sohibqiron Amir Temurning 660-yilligini jahon miqyosida nishonlash bo'ldi. YuNESKO tomonidan 1996-yil «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi. Shu yili YuNESKOning Parijdagi qarorgohida «Temuriylar davri, ilm, fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuyida anjuman va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Mamlakatimizda 1996-yil «Amir Temur va temuriylar tarixi» davlat muzeyi, Amir Temur nomi berilgan xiyobonlar, bog'lar, ko'chalar barpo etildi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida buyuk davlat arbobi va sarkarda hurmatiga ehtirom sifatida mahobatli haykallar o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida islom olamining buyuk allomasi Iso at-Termiziyning 1200-yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920-yilligi, Najmiddin Kubroning 850-yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675-yilligi keng ko'lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi, so'nggi oromgohlari obodonlashtirilib, joylarda maqbaralar, ziyoratgohlar tashkil qilindi.

1998-yili jasoratli sarkarda va Vatan himoyachisi – Jaloliddin Manguberding 800-yillik tavalludi, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000-yilligi keng miqyosda nishonlandi.

1998-yil Imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200-yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Respublikada yubileylar munosabati bilan allomal hayotiga bag'ishlangan ilmiy-anjumanlar tashkil qilindi, badiiy ko'rgazmalar ochildi.

Xalqimiz ma'naviy hayotida Imom al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi «Al-Jome' as-Sahih» (Ishonarli to'plam) asari, shuningdek, «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) nomli kitobining o'zbek tiliga tarjima qilinishi katta ahamiyat kasb etdi.

Buyuk vatandoshlarimiz fikh ilmining bilimdoni, nomi Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan Abul Hasan ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy al-Marg'inoniy tavalludining 910-yilligi, kalom ilmining asoschisi Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligi butun mamlakatimizda keng nishonlandi. Yurtimiz hali ittifoq tarkibida bo'lgan bir paytda – 1990-yil iyul oyida Birinchi Prezident Islom Karimov «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida»gi Farmonga imzo chekdi. O'zbekiston hukumatining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bilan 1991-yilda Haj qilish baxtiga 350 kishi sazovor bo'lgan bo'lsa, 2001-yili hojilarning soni 3801 kishiga etdi. So'nggi yillarda Haj safariga boruvchilar har yili 5,5-6 ming nafar kishini tashkil etmoqda. Davlat ularni har tomonlama qo'llab-quvvatladi. Bugun mamlakatimizda hojilarning umumiy soni 15 mingdan oshib ketdi. Xususan, 2019-yili Haj safariga yurtimizdan 7200 nafar kishi borib, Haj amalini ado etib kelishdi. O'zbekiston hukumati Haj ziyoratiga boruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib byerganligi musulmon olamida katta hurmat va ehtiromga sazovar bo'lishiga sabab bo'ldi.

1992-yil Prezident Farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Xalqimiz asrlar davomida nishonlab kelgan bayramlardan biri «Navro'z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

Movarounnahr diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Imom Buxoriy nomidagi islom instituti, 9 ta o'rta-maxsus o'quv-yurtlari tashkil etildi. Xususan, «Islom nuri» gazetasi, «Hidayat» jurnali chop etilishi yo'lga qo'yildi. Mustaqillik arafasida O'zbekiston bo'yicha 87 ta masjid bo'lsa, hozirda ularning soni 2060 dan ziyodga yetdi.

Milliy g'oyamizning muhim manbalaridan biri bo'lgan diniy va milliy qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga yetkazish maqsadida asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan ma'naviy meroslarni o'zlashtirish hamda ularni aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz

o'rtasida keng targ'ibot va tashviqot qilish hamda butun Islom olamida e'tirof etilib kelinayotgan buyuk allomalarimizning meroslarini to'plash, o'rganish va ularni xalqimizning ma'naviy boyishiga yo'naltirish kabi ezgu amallarni ro'yobga chiqarishni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-sonli Qarori, «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 1-noyabrda 896-sonli qarori qabul qilindi. Bugun uni amalga oshirish bo'yicha unga mas'ul bo'lgan tashkilotlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Mustaqillik yillarida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasida ko'zga tutilgan vazifalarni amalga oshirish borasida bugun ishlab chiqilgan va real hayotga tatbiq qilinayotgan vazifalarning barchasi shiddat bilan o'zgarayotgan zamon va makondagi ularning mantiqiy davomi sifatida takomillashtirish va yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Din inson ruhini poklashi, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlash, milliy qadriyat va an'analarni asrashga xizmat qilish bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda o'n oltita diniy konfessiyalar o'zaro bag'rikenglik asosida yonma-yon yashab kelmoqda.

1995-yili rus provoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O'zbekiston evangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganligining 100-yilligiga bag'ishlangan «Bir osmon ostida» shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o'rtasida o'tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etadi. Toshkentda 2000-yilning sentabrida YuNESKO rahnamoligida «Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo'lida» mavzuyida dinlararo muloqot xalqaro anjumani bo'lib o'tdi. Unda AQSh, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan

kabi o'ttizga yaqin mamlakat, shuningdek xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashishdi. Anjumanni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o'lkadan dunyoga dong'i ketgan buyuk allomalar, Islom olamida katta hurmatga ega bo'lgan buyuk zotlar yetishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda.

O'zbekiston o'zining XXI asrdagi rivojlanishining yangi bosqichida milliy tiklanishdan – milliy yuksalish g'oyasi ma'naviy yangilanish jarayonlarining asosiy shiori sifatida tanlab olindi.

Istiqlol yo'lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillariga e'tibor berish bilan birga maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda, O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'lim tashabbusini inobatga olib ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnik bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda Respublikamizda 1992-yil 2-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib borilishi belgilab qo'yildi:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

1993-yil Respublikamiz Birinchi Prezidenti tomonidan «O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun rivojlangan davlatlarda universitetlarda ta'lim

olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eski tafakkur, e'tiqodidan qutilgan istiqlol uchun, o'z ona yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi turdi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshidagi «Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi», «Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti», ayrim vazirliklar qoshida akademiyalarni tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etdi. 1997-yil 29-avgustda Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I. A. Karimovning «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi asosida yangi tahrirda «Ta'lim to'g'risida» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilib, o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlari, biznes maktablari ochildi, 8 ta institutlar asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000-yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlari, shu jumladan 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba bilim oldi. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan, bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab mustaqil ish yuritadigan yoshlarni jamiyatimizning eng katta boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo'yildi.

Bu borada «Umid» (1997 y.), «Ulug'bek» (1993 y.) jamg'armalari olib borayotgan ishlar alohida o'rin tutdi. Faqat «Umid» jamg'armasi sinovlarida 1997–1999-yillar mobaynida 5500 nafar yoshlar qatnashib 658 tasi Prezident grantlariga sazovor bo'ldi. 2000–2001 o'quv yilidagi bu tanlovda 3000 nafar yoshlar bilimli sinovdan o'tkazilib ulardan 124 tasi xorijiy davlatlarni eng nufuzli o'quv yurtlarida o'qishga sazovor bo'lishdi.

O'z faoliyatini boshlagan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz qalbiga va ongiga milliy istiqlol g'oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tash-

kil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asosida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari aniq belgilab ko'rsatadi:

- uzluksizlik: ta'lim-fan-ishlab chiqarish;
- mutaxassislariga talab istiqbolini o'rganish;
- o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- o'quvchi-yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli ma'naviyatli va vijdonli etib tarbiyalash;
- korxonalarda maktab-institutlar bazasini mustahkamlashdan foydalanish;
- chet el sarmoyalaridan foydalanish.

Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunga ko'ra, uzluksiz ta'lim bir necha bosqichlarda: maktabgacha-oila va bog'cha tarbiyasi; boshlang'ich ta'lim 1–4 sinflar; umumiy ta'lim majburiy bo'lib, 5–9 sinflarda umumiy bilim asoslari, dunyoqarash shakllanadi. Majburiy-ixtiyoriy tusdagi o'rta-maxsus bilim va kasb-hunar o'quv yurtlari: uch yilga mo'ljallangan akademik litseylar, maxsus kasb-hunar kollejlari. Oliy ta'lim: bakalavr – 4 yil, magistratura – ikki yil o'qish muddati, keyinchalik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun aspirantura – uch yil, doktorantura – uch yil muddatda amalga oshirilishi belgilangan edi.

Ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagi islohotlar:

I. 1997–2001 – o'tish davri;

II. 2000–2005 – islohotni keng miqyosda amalga oshirish davri;

III. 2005-yildan keyin kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davri sifatida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda maktab va o'rta-maxsus ta'lim tizimidagi yutuqlar bilan bir qatorda ma'lum kamchiliklar ham yuzaga kelib qolgan edi. 2017-yil mayda davlatimiz rahbarining mavjud vaziyatni tahlil qilgan holda o'rta maktab ta'lim tizimini 11 yillik o'qishga o'tkazish keng jamoatchilik tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 2017-yilda yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta'mirlashga

alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, 2018-yilda umumta'lim maktablarini Koreyaning Eksimbanki kredit mablag'lari hisobidan, Xitoy Xalq Respublikasining grant mablag'lari hisobidan, Ta'limda xalqaro hamkorlik tashkilotining grant mablag'lari hisobidan tegishli tarzda kompyuter texnikalari bilan ta'minlandi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va o'qitishning innovatsion metodlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, 11-sinf o'quvchilari uchun 20 nomdagi 9,7 mln. nusxa darsliklar chop etildi.

Umumta'lim maktablarining 10–11-sinf o'quvchilariga kasb o'rgatish shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish majmualarining 489 ta sinfini zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Respublika Prezidentining hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan tanishish yuzasidan tashriflari davomida, o'quvchilarning muayyan fanlar bo'yicha iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov, Qarshi shahrida O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya, Andijon shahrida Muhammad Yusuf, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari tashkil etildi. Harbiy litseylar «Temurbeklar maktabi»lariga aylantirilib, tom ma'noda yangicha mohiyat kasb etdi. 2018-yil – «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» davlat dasturining 174-bandida umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar va o'qituvchilarining ish vaqti me'yorlarini qayta ko'rib chiqish asosida ortiqcha hisobotlarni kamaytirish, ta'limni boshqarish organlari va rahbarlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilmagan hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilishga barham berish vazifasi belgilandi. Ayni paytda shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limi tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarori maktab ta'limini rivojlantirish, o'qituvchilarni moddiy jihatdan rag'batlantirish borasida katta ahamiyat kasb etdi. 2016-yil oxirlaridan 2019-yilning birinchi yarmiga kelib, xalq ta'limini rivojlantirish borasida jami 6 ta Prezident Farmoni va Qarorlari kuchga kirdi. 2019-yil birinchi yarmigacha 156 ta yangi maktab qurilib ishga tushirildi. O'qituvchilarning oylik maoshlari oshirilib, moddiy manfaatdorlik oshdi. Ularni ortiqcha qog'ozbozlik

va majburiy mehnatdan ozod etildi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida 2018-yilda xalq ta'limi tizimi 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadr bilan to'ldirildi. Qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 29-apreldagi Farmoni bilan xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Yo'l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinishi belgilab qo'yildi. Ushbu konsepsiya shaxs kamoloti uchun yo'naltirilgan dastur bo'lib, o'z ichiga o'qitishining zamonaviy, ilg'or usullarini qamrab oldi.

Mustaqillik yillarida respublikada sport inshootlarini qurish masalasiga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatda sport va jismoniy tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1999-yil 27 maydagi 271-sonli qarori va shu qaror asosida qabul qilingan Davlat Dasturi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dasturga ko'ra, ayniqsa qishloq yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport shaxobchalarini kengaytirib, ularning moddiy-texnika bazalarini kuchaytirish tadbirlari belgilandi. Bunga javoban o'tgan bir yildan ko'proq vaqt ichida qishloq tumanlarida 184 sport-sog'lomlashtirish klublari tashkil qilindi.

Jumladan, 2000-yilga kelib 500dan ortiq sport klublari, 536 sport maskanlari, 5 ta olimpiya klublari, 8 ta Respublika oliy sport maktablari va jismoniy tarbiya instituti ishlab turibdi. Sport bilan shug'ullanuvchilarga 233 stadion, 135 suzish havzasi, 32865 sport maydonchalari xizmat ko'rsatmoqda. 4841 futbol maydoni, 168 tennis, voleybol, basketbol maydonlari mavjud bo'lgan.

2000-yil O'zbekiston sporti tarixida muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Saralash musobaqalarida g'olib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi bo'yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII Olimpiada o'yinlarida qatnashishga muyassar bo'ldilar. Olimpiadachilarimiz 1 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, 200 mamlakat o'rtasida 41-o'rinni egallashdi. Respublika kurashchilari, bokschilari, tennischilari, dzyudochi va karatechilari mustaqil O'zbekistonimizni butun jahonga tanitdi.

Mustaqillik yillarida eng tez rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri shaxmatdir. Sobiq sovetlar davrida shaxmat bo'yicha bit-ta grossmeyster tayyorlangan bo'lsa, endilikda ularning soni 11 nafar

bo'ldi. Turkiyada bo'lib o'tgan jahon shaxmat olimpiadasida ham-yurtlarimiz 120 dan ortiq mamlakatlar ichida farqli 11 o'rinni egalladi. Respublika chempioni Rustam Qosimjonov o'z taxtasida bronza medaliga ega bo'ldi. 2004-yili dunyoning eng kuchli shaxmatchilari ishtirokida o'tgan jahon chempionatida R. Qosimjonov jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Chunki, sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush-tarzinini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, Vatandarparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi. Mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush-tarzigaga oshno qilish vositasiga aylandi. Iste'dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari va o'quv-yig'in mashg'ulotlarida mahoratini oshirmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o'tgan Olimpiya o'yinlarida 13 ta, Paralimpiya o'yinlarida 31 ta medalga sazovor bo'lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni hamda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga oid qarorlari ushbu sohada yangi davrni boshlab berdi. Bu borada asosiy bilim maskani bo'lgan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti Chirchiq shahriga ko'chirildi. Nati-

jada institut malakali sportchi va murabbiylarni o'qitish hamda tayyorlash uchun zarur infratuzilmaga ega bo'ldi, zamonaviy sport shaharchasi barpo etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, institutda 2017/2018 o'quv yilidan boshlab sirtqi ta'lim olish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etildi. Markazda hozirgi kunga qadar 800 dan ortiq xodim malaka oshirdi. O'zbekistonda 2018 yil fevral oyida Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tashkil topishi sohaga berilayotgan katta e'tibordan darak beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori sohada yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017–2021-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutildi.

2019-yil 13-fevralda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, 2019–2023-yillar davrida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Bu o'z navbatida O'zbekistonda sport sohasini jahon miqyosida rivojlantirish va aholining keng qatlamlarini jismoniy tarbiyaga jalb qilish jarayonida asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo'ladi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy istiqloq g'oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida 130 dan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o'zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo'lidagi ustuvor yo'nalish deb qaraydi. «O'zbekiston vatanim manim» g'oyasi barcha O'zbekistonliklarning qalbidan o'rin olgan.

G'oyalar har doim taraqqiyotdan oldin shakllanadi va ayni paytda ana shu jarayondagi nazariy asosga harakat dasturi vazifasini bajaradi. O'zbekistonda milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi milliy mustaqillikka o'tishga erishish va uni mustahkamlashda ana shu vazifalarini amalga oshirishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlar samog'i katta bo'ldi. Ammo, bu hali mamlakatimizda milliy istiqloq g'oyasida belgilangan va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar, muammolar yo'qligini bildirmaydi. Aksincha, hali bu yo'nalishda vazifalar ko'lami nihoyatda katta.

Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan o'rta tashlangan «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» g'oyasi hozirgi kunda O'zbekiston madaniy-ma'naviy taraqqiyotining bosh mezoniga aylandi.

Ularni amalga oshirish bo'yicha mamlakatimiz Prezidenti tomonidan keyingi yillarda bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilingan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash va uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan. Farmonning to'rtinchi yo'nalishidagi «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning» belgilangan kompleks vazifalarda maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutildi. Ularni amalga bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2017-yil 16-fevralda 4958-sonli Farmoni qabul qilindi.

Bu farmon bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalar belgilandi va u bugungi kunda amalga oshirila boshlandi. Ayni paytda mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 2017-yil 27-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» PF-5121-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizning mehnat va intellektual salohiyatining asosi bo'lgan yoshlarga qaratilgan davlat siyosati milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining muhim yo'nalishini tashkil etib kelmoqda. Bu yo'nalishda ham mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni mustahkamlash va yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ham bir qator vazifalar hamda chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni bo'ldi. Farmonda belgilangan barcha vazifalar mamlakatimiz yoshlarining ko'pgina sohalardagi faolligini oshirish, ularda Vatandarlik ruhiyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan Strategik vazifalarni amalga oshirishda ma'naviyat va ma'rifatning milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining tarkibiy qismi sifatidagi rolini yanada takomillashtirishga ham e'tibor kuchaytirildi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan «Milliy g'oya ilmiy markazi» va «Ma'naviyat va ma'rifat markazi» O'zbekiston Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi 2017-yil 28-iyuldagi PK-3160-son Qaroriga binoan birlashtirilib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga aylantirildi. Bundan ko'zlangan maqsad, respublikamizda ma'naviy va ma'rifiy ishlarining hamda ilmiy salohiyatini bir markazda birlashtirgan holda yanada faollashtirish nazarda tutildi.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida qadimdan boshlab ilmfanning hamma sohasi, ayniqsa, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, me'morchilik, madaniyatshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. Hozirgi kunda O'zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o'rganib yanada boyitishmoqda. O'zbekiston olimlari o'z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shishmoqda. Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi FANing bo'limlari ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek universitetlar va boshqa oliy

o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyasi tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'lim tizimida ham tayyorlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Hayot taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3 aprelidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi FANing yangi Nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-aprelidagi Farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida»gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish uchun yuborishga alohida e'tibor berildi. Ilmiy yechimlarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etish va tarqatish maqsadida Respublika ilmiy ishlanmalari innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FANing mavqei ortdi.

O'zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O'zbekiston balki jahon hamjamiyatida ham tan olinib boshlandi va ko'pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'lishdi va xorijiy davlatlar akademiyalariga haqiqiy ham faxriy a'zolikka saylanishdi. O'zbekiston Respublikasining Fanlar akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallarni ta'sis etdi. 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi FANing akademigi H. F. Fozilov tabiiy va texnikaviy sohada katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Oltin medal birinchi bo'lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining a'zosi U. I. Karimovga nasib etdi.

1992-yil oktabr oyida esa geologiya-minerologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi I.H. Hamroboev geologiya va geofizika sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uc-

hun Habib Abdullayev nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo'ldi. U AQShda chiqadigan «Global tektonika va metallogeniya» xalqaro ilmiy jurnali tahririyatiga a'zo etib saylandi.

«Fan va texnikada kim haqiqatan kim?» deb nomlangan jahon fan va texnikasining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan eng buyuk olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomusga O'zbekiston Respublikasi FANing akademigi P. Q. Habibullayev kiritilgan. O'zbek olimi bu sharafiga o'zining qattiq va yumshoq jismlar issiqlik fizikasining katta muammolarini, energetikaning fizikaviy-texnikaviy muammolarini ishlab chiqqanligi uchun muyassar bo'lgan.

Mustaqillik yillarida (1996) FANing 40 ga yaqin ilmiy markazi va tadqiqot laboratoriyalarida yirik olimlar faol mehnat qilgan. O'zbekiston Respublikasi FA institutlari olimlari xorijiy davlatlar olimlari bilan hamkorlikda ilmiy aloqalarni kengaytirib borishmoqda. Natijada, 1992-yil dekabr oyida texnika fanlari doktori K. E. Umarov Siolkovskiy nomidagi Kosmonavtika Xalqaro akademiyasining a'zosi bo'ldi. U mazkur Xalqaro Akademiyaning a'zosi bo'lgan birinchi o'zbek olimidir. Shuningdek, o'zbekistonlik M. S. Bulatov, S. M. Sutyagin, I. I. Notkinlar, 1993-yilda Iordaniya Islom Fanlar akademiyasi a'zolariga, M. S. Salohiddinov, YuNESKO Informatsiya Xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga, 1994-yil oktabr oyida Xudoyor Olloyorov, 1995-yil fevral oyida Azamat Shamsiyev Nyu-York FANing faxriy a'zolariga, ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zolariga Z. S. Salimov, A. A. A'zamxo'jayev, 1997-yil oktabrida U. Tojixonov va Z. Zaripovlar tabiat va jamiyat fanlari Xalqaro akademiyasining a'zolariga, akademik E. Yusupov esa Turkiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga saylanadi. Amerika biografiya instituti O'zbekistonning yetakchi olimlaridan biri Omonulla Fayzullayevga uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga asoslanib, «2001-yil insoni» unvonini berdi hamda mazkur institutning maslahatchilar Kengashi a'zolariga saylandi. Bular O'zbekiston fanining xalqaro miqyosda tan olinishining yaqqol misolidir. XXI asrda quroli, qo'shini bo'lgan davlatgina emas balki turli sohalar bo'yicha kuchli mutaxassislari bo'lgan davlatgina qudratli davlat hisoblanadi. Zeroki, har bir xalq fan sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan mashhur farzandlari bilan buyukdir.

Ilm-fan mamlakat taraqqiyoti va farovonligining asosidir. Ayniqsa, barcha sohada yangiliklarga intilish hamda raqobat kuchayib borayotgan bugungi davr iqtisodiy salohiyatni mustahkamlab borish uchun ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnikaviy yutuqlardan samarali foydalanishni talab etmoqda.

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O'zbekiston zamini jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab byergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Mustaqil davlatimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash ilg'or ilmiy ishlanmalar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yutuqlarini samarali joriy etish bilan bevosita bog'liq. Ishlab chiqarishga innovatsion ishlanma va texnologiyalarni keng joriy etish O'zbekistonimizni har tomonlama rivojlangan davlatga aylantirish imkonini berdi. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy-texnikaviy sohada yangi tarixiy voqe'larga javob beradigan davlat siyosatini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish zaruratini taqozo etardi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning 2006-yil 7-avgustda qabul qilingan «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizning ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi siyosatini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biri bo'ldi.

Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston ilm-fanini boshqarish va moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, uning sa'y-harakatlarini mamlakatimiz uchun ustuvor bo'lgan sohalarga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlarni davlat ilmiy-texnik dasturlari va innovatsion loyihalar bo'yicha tanlov yo'li bilan grant orqali moliyalashtirishga o'tkazish sohasidagi islohotlar davom ettirilmoqda. Innovatsion ishlanmalarini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish hajmi bir necha barobar oshirildi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi kasbiy va axloqiy madaniyati uyg'un rivojlangan mutaxassislarni tayyorlash orqali xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga erishish, xalq bilan hokimiyat, fuqaro bilan mansabdor shaxs o'rtasidagi axloqiy munosabatni madaniy jihatdan yuksaltirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda har tomonlama kamol topgan, yuksak kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan, jamiyat, davlat, oila oldida o'z javobgarligini his etadigan shaxslarni tarbiyalash masalasida amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy maqsadi sifatida qaralmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi yangilanish yo'lini bosib o'tdi, qator yutuqlarga erishdi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Fanlar akademiyasi muassasalarining jahondagi yirik ilmiy markazlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ilmiy aloqalari tenglik va o'zaro manfaatdorlik asosida sezilarli ravishda kengayib bormoqda. Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSh, Fransiya va Germaniyadagi ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlik samarali rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo'nalishlar rivojlanish yo'liga tushib oldi. Ilmiy-texnik salohiyat mustahkamlangani, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yirik muammolarini hal etishga yo'naltirilgani, mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini faollashtirish, belgilangan vazifalarni hal etish uchun katta miqdorda valyuta mablag'lari ajratilayotgani shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'p. Ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarur. Bu yo'lda hech narsani ayamaymiz» – deya haqli ravishda ta'kidlagandi.

Jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda, – dedi Prezidentimiz. Xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan

yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish kerak.

Mamlakatimiz ilm-fani oldiga qo'yilgan bunday muhim vazifalarning amalga oshirilishi ilmiy tadqiqotlar yetakchi markazi va innovatsion g'oyalar ijodkori sifatida Fanlar akademiyasi faoliyatini tubdan isloh etishni ko'zda tutardi. Bu borada akademik ilm-fanni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, iqtisodiyotimiz ehtiyojlariga mos va jahon bozorida munosib raqobatlasha oladigan ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarish uchun boshlang'ich shart-sharoitlar yaratish, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega yangi avlod ilmiy kadrlarni tayyorlashni taqozo etardi.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur

O'zbekistonda ilm-fan ko'p asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. O'zbek zaminidan Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi va jahon ilm-fani xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boshqa ko'plab buyuk olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Mamlakatimiz olimlarining bugungi avlodi jahon ilm-fanining buyuk ijodkorlari, shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab vakillari nomini mamnuniyat bilan esga oladi. Bugun O'zbekiston olimlari mamlakatimiz ilm-fanini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingan. Harakatlar strategiyasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi.

Mazkur strategiyaning to'rtinchi bandi «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari»deb nomlangan.

Xususan, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bo'yicha yo'nalishida quyidagi dolzarb masalalar belgilab qo'yildi:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunolari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Prezidentning 2018-yil 12-maydagi yildagi «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qi-

lish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarori imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi niyatlarimizni amalga oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Oilada, maktabda, kollejda, o'quv muassasalarida kitobxonlik muhiti mavjud bo'lsa, farzandlar o'qimishli, yurtimiz kelajagi esa yanada buyuk bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining akademiklar va ilm-fan ziyolilari bilan 2016-yil dekabr oyida o'tkazgan uchrashuvi, 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, shuningdek, maktabgacha, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim, akademik ilmni rivojlantirishga doir qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Bugungi kunda ham O'zbekiston Fanlar akademiyasining olimlari buyuk ajdodlari an'alarini munosib davom ettirib, mustaqil Vatanimizning ilmiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti yo'lida keng ko'lamlil ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

O'zbekistonda davlat ilmiy-texnika dasturlarining ijrochi tashkilotlari hisoblangan 93 ta ilmiy-ta'lim, 73 ta oliy ta'lim, 63 ta konstruktorlik, jami 230 ga yaqin ilmiy-ta'lim muassasasi mavjud. Ularda 11 mingdan ortiq fan doktorlari, ilmiy va boshqa xodimlar fan taraqqiyoti yo'lida xizmat qiladi. Joriy yil davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 400 dan ziyod fundamental, mingga yaqin amaliy, 370 ta innovatsion ilmiy tadqiqot loyihasi bajarilmoqda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida 1 ming 400 dan ziyod doktorantlar ilmiy ish bilan mashg'ul. 2017-yilda Fanlar akademiyasining ilmiy hajmdor mahsulotlar eksporti hajmi 3 mln. 200 mingdan ko'proq AQSh dollarini tashkil etdi.

Respublikamizda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion potentsialni yaratish va taraqqiy ettirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan tizimini boshqarishni takomillashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini kengaytirish, akademik va oliy ta'lim tadqiqotlarini takomillashtirish choralari amalga oshirilmoqda,

ishlab chiqarishning innovatsion xarakterini oshirish, axborot va innovatsion infratuzilmalarini yaxshilash, yangi ilmtalab korxonalarini yaratish, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish ishlari ancha faollashmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlarida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy ta'lim muassasalarida, Sog'liqni saqlash vazirligining ilmiy tashkilotlarida, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ilmiy va o'quv institutlarida, ilmiy va innovatsion markazlarida va boshqa loyiha va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarida olib borilmoqda.

Ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining moddiy manfaatdorligini tubdan oshirish, shu jumladan, lavozimlar, ilmiy unvon va darajalar o'rtasidagi tabaqalashuvni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi «Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror 2018-yil 1-sentabrdan boshlab 81 ta oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va 136 ta ilmiy tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tarkibining barcha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari sezilarli oshirilishini nazarda tutadi: hammasi bo'lib 38 mingdan ortiq oliy ta'lim muassasalari (28,1 ming odam) va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari (8,0 ming odam), shuningdek 1,9 ming doktorantlar.

Qabul qilingan qaror respublikaning oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash yo'li orqali ta'lim sifatini va ilmiy faoliyatni oshirish masalalarini hal etish, oliy ta'lim muassasalari va akademik ilm-fanini yanada rivojlantirish, ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iste'dodli yosh olimlar va talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilishga yordam beradi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohaslarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta'minlanishi davlatimizning e'tibor markazida bo'ldi. 2001-yilning davlat budjetidan madaniyat va san'at muassasalarini rivojlantirish uc-

hun 12 milliard 703 mln. so'm (bu ko'rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln so'mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning guvohidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etildi. 1991–1994-yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan «Turkiston» saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi.

1991-yil respublikadagi yirik orkestrlardan biri «So'g'diyona» ijodiy jamoasi o'z faoliyatini boshladi. Orkestr 18 kishidan iborat bo'lib, turli xil musiqiy shakllari va janrlarini an'anaviy ijrochilik ko'nikmalari va zamonaviy akademik ijro madaniyatini o'zida mujassam etgan birinchi ijodiy jamoalardan hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida «So'g'diyona» orkestri bilan birga O'zbekiston Milliy simfonik orkestri, Respublika teleradiokompaniyasining Kamer orkestri, Toshkent Davlat konservatoriyasining musiqali teatr-studiyasi orkestri, «Turkiston», «Yosh iste'dodlar» kamer orkestri kabi mashhur ijodiy jamoalar faoliyat olib borishdi. Musiqa industriyasini zamon talablarini hisobga olgan holda shakllantirish uchun avvalo, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash muammolarini hal etish talab etildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida musiqa sohasi muassasalarini moliyaviy ta'minlashda jahon davlatlarining ilg'or tajribalaridan unumli foydalanildi. 1997-yil Toshkentda YuNESKO tashkiloti «Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyatni moliyaviy ta'minlash» mavzusida Xalqaro Kengash o'tkazdi. Kengashda madaniyat muassasalarini mablag' bilan ta'minlash uchun xususiy, xorijiy va boshqa homiy tashkilotlarni jalb etish muhimligi ta'kidlandi. Mustaqillik yillarida o'zbek musiqasining Xalqaro musiqiy aloqalari yangicha siyosiy-ijtimoiy vaziyatda amalga oshirildi. Ijodiy jamoalar tez-tez xorij mamlakatlariga gastrolga chiqib, o'z iste'dodlarini namoyish qilish bilan birga, chet ellik musiqachilar bilan ham aloqa o'rnatib, hamkorlik qilishdi. Masalan, «So'g'diyona» orkestri turli mamlakatlarning musiqiy jamoalari bilan ijodiy hamkorlikda turli kontsertlar uyushtirdi. 1994-yil mayda hamkorlik masalalari bo'yicha O'zbekiston – Germaniya qo'shma komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi. 1995-yil dekabrda Leypsigda nemis, fransuz va o'zbek sozandalarining dastlabki uchrashuvi o'tkazilib, tadbir tashkilotchisi Germaniya –Fransiya Yosh ittifoqi

(DFAW, Bonn) bo'ldi. Ushbu uchrashuvda Germaniya tomonidan Leyptsigning «Braser-Kollegium» ansambli, Fransiya tomonidan Lion konservatoriyasining qadimiy musiqiy ansambli, O'zbekiston tomonidan «So'g'diyona» orkestri ishtirok etdi. Bu ijodiy jamoalarning ikkinchi uchrashuvi Germaniya va Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonalar yordamida 1996-yil oktabrda Toshkent va Samarqandda, uchinchi uchrashuvi 1997-yil iyun oyida Lionda bo'ldi. Bu kabi ijodiy jamoalar xalqaro festivallarda faol ishtirok etib, Sharq musiqa san'ati bilan G'arb tinglovchilarini tanishtirish ishiga juda katta hissa qo'shdi. Shuningdek, o'zbek an'anaviy musiqa san'atini, o'zbek xalq cholg'u ijrochilik san'atini dunyo miqyosiga ko'tardi. O'zbekistonda musiqa-ning simfonik yo'nalishini rivojlantirishda O'zbekiston Milliy simfonik orkestri, M. Ashrafiy nomidagi konservatoriyaning musiqali teatr-studiyasi simfonik orkestri va xor jamoasi, O'zbekiston xor kapellasi, O'zbekiston teleradiokompaniyasi kamer orkestri, «So'g'diyona» o'zbek cholg'ulari kamer orkestri, «O'zbekiston yosh iste'dodlari» kamer orkestri kabi jamoalarining xizmati katta bo'ldi.

2001-yil YuNESKO Boysunni «Jahon nomoddiy madaniyati durdonasi» deb tan oldi. 2002-yildan YuNESKO shafe'ligida «Boysun bahori» festivali o'tkazila boshlandi.

Istiqlol tufayli O'zbekistonga dunyoning ko'plab mamlakatlari ohanglarining to'siqsiz kirib kelishi natijasida musiqa madaniyati ham o'zining yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. «Oltin Humo», «Taron», «Ofarin» kabi tanlovlarni o'tkazish muntazam tarzda yo'lga qo'yildi. Musiqiy estradani rag'batlantirish maqsadida 1998-yil tashkil etilgan «Nihol» shou festivali 2000-yildan «Zamin yulduzlari» deb nomlanib, «xalqaro festival» maqomini oldi. Estrada musiqasi shou biznesning tarkibiy qismiga aylanib bordi. Ushbu jarayonda «O'zbeknavo» jahon shou biznesiga kirib bordi. Natijada o'g'irlangan ohanglarga solingan (fors, arab, turk) matni mazmunsiz, yengil-yelpi so'zlardan iborat qo'shiqlar ko'payib bordi. Bu esa yoshlar orasida milliy ohanglardan uzoqlashish, ko'p asrlik milliy badiiy qadriyatlardan begonalashish kabi xavotirli holatlarni yuzaga keltira boshladi. 2000-yilda yosh iste'dod egalarini rag'batlantirish maqsadida «Nihol» mukofoti ta'sis etildi. Hozirda o'zbekistonlik 157 nafar yosh iqtidor egalari shunday nufuzli mukofotga sazovor bo'ldi. Bugungi kungacha «Nihol» mukofoti sovrindorlaridan 1 ta O'zbekiston xalq artisti, 22 nafar O'zbekistonda

xizmat ko'rsatgan artist, 6 ta Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist, 3 nafari «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlandi.

2002-yilning 4-dekabr kuni Germaniyaning Bonn shahrida «Alpomish» dostonining nashr etilishiga bag'ishlangan tantanalarga O'zbekiston xalq baxshisi Sh. Boltayev taklif etildi. Buyuk Britaniya poytaxti London shahrida 2009-yil o'tkazilgan VII Xalqaro pianinotchilar tanlovida «Nihol – 2008» mukofoti sovrindori Behzod Abduraimov ishtirok etib, Gran Pri sohibi bo'ldi. 2012-yil Parijda bo'lgan VII Aleksandr Glazunov xalqaro tanlovida R. Gliyer nomidagi RIMAL o'quvchisi A. Qoriyeva Gran Priga loyiq topildi. 2015-yil R. Gliyer nomidagi RIMAL o'quvchisi Oqila Mirxo'jayeva Italiyada «Premio Rovere d'Oro» xalqaro ko'rik tanlovida Gran Priga loyiq topildi.

Mustaqillik davri tarixi zarvaraqlaridan o'rin olgan muhim tadbir, 1997-yildan buyon har ikki yilda o'tkazilib kelinayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalidir. Dastlab festivalda 30 dan ortiq mamlakatdan 57 nafar san'at namoyandalari ishtirok etgan bo'lsa, 2017-yil XI marta bo'lib o'tgan festivalda jahonning 58 mamlakatidan 241 san'atkor xonanda va sozandalar kelishdi. 2019-yilda o'tgan XII «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida 70 dan ziyod mamlakatdan vakillar qatnashdi.

2017-yil 8-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning «O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Buning natijasida musiqa san'atining yanada rivojlanishi, sohani tegishli iqtidorli san'at vakillari bilan to'ldirish imkoniyati kengaydi.

O'zbek mumtoz musiqa san'atini rivojlantirishda 2018-yil 6–10-sentabr sanasida bo'lib o'tgan «Xalqaro maqom» festivali katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda dunyoning 73 mamlakatidan san'atshunos olimlar, musiqachilar va xonandalar ishtirok etishdi.

1998-yil 26-martda O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Teatrlarning 90-yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy

pesalar keng o'rin oldi. 1996-yili Amir Temurning 660-yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar saxnalashtirildi. «Navro'z-97» teatr festivali munosabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 ta spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Farg'oniy, al-Buxoriylarni yubileylariga bag'ishlangan pesalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni etakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo'yildi. 1995–1997-yillari Respublika teatrlari tomonidan 313 yangi spektakllar qo'yildi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishgani teatr san'ati taraqqiyotiga ham o'zining tabiiy ta'sirini ko'rsatdi. Zamonaviy o'zbek teatri o'z an'alarini avaylab saqlab kelayotgan, shuningdek insoniyat qo'lga kiritgan nodir yutuqlarni o'ziga singdirishga intilayotgan san'atdir. O'tgan yillar mobaynida respublikamizda teatr san'atining har xil turlari va janrlari rivojlandi. Yoshlar, bolalar va qo'g'irchoq teatrlari ham alohida mavqega ega. Mustaqillik sharofati bilan tiklangan milliy qadriyatlar, jamiyat ma'naviyati, haqidagi yangilangan tushunchalar, tarix va zamonaviylik muammolari ushbu teatrlar e'tiborida turibdi. Mustaqillik yillarida tarixiy drama sahna san'atida etakchilik qildi. O'tgan qisqa vaqt davomida yaratilgan yuzlab sahna asarlari orasida «Piri koinot», «Kunduzsiz kechalar», «Hayotdan to'ygan tun» (Hamza nomidagi teatr), «Amir Temur» (Sirdaryo teatri), «Buyuk ipak yo'li» (Abror Hidoyatov nomli teatr), «Ato qilingan muhabbat tariqati» (Yoshlar teatri), «Ot kishnagan tomonda», «Boz masxaraboz» (Y. Oxunboboyev nomidagi Yosh tomoshabinlar teatri), «Beddua» (Qoraqalpoq teatri), «Kampir topaymi, dadajon» (Farg'ona teatri), «Rangin tushlar» (Ilhom), «Taqdir» (Muqimiy nomidagi teatr), «Amerikancha nikoh» (Operetta teatri), «Figaroning uylanishi», «Oqqush ko'li» (Alisher Navoiy nomli DAKT) singari spektakllar teatr muhlislari va mutaxassisleri e'tiborini qozondi. Mustaqillik sharofati ila ijodiy hamkorliklarga ham keng yo'l ochildi. Amerikalik rejissyor Devid Kaplan Abror Hidoyatov teatrida «Qirol Lir» tragediyasini, Buyuk Britaniyalik Maykl Brut Alisher Navoiy nomidagi O'zbek davlat akademik teatrida «Knyaz Igor» operasini sahnalashtirdi. O'z navbatida O'zbekistonlik rejissyorlar ham chet ellarda spektakllar sahnalashtirish uchun takliflar olishmoqda. Abror Hidoyatov nomidagi teatr badiiy rahbari B. Yo'ldoshyev Fransiyada, O'zbekiston Yoshlar teatrlarining badiiy rahbari N. Abdurahmonov Isroilda asarlar sahnalashtirishdi. Istiqloq sharofati bilan o'tgan «Sharq va G'arb», «Navro'z –

97» Xalqaro teatr festivallari madaniy hayotda muhim voqea bo'ldi. Bu festivallarda qator Yevropa va Osiyo mamlakatlari – Angliya, Germaniya, Finlyandiya, Rossiya, Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi qator mamlakatlar teatr jamoalari ishtirok etishdi. Teatr jamoalarimizning AQSh, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Malayziya, Syangan, Rossiya, Misr singari mamlakatlarda o'tgan xalqaro festivallardagi muvaffaqiyatli ishtiroklari, balet ustalarining Londonda malaka oshirishlari ham shu yo'ldagi xayrli ishlar sirasiga kiradi. Yoshlar teatrlarining «Humo» xalqaro festivallari jug'rofiyasi yildan yilga kengayib borayotganligi, ikkinchi tarafdan uning marafon shaklida o'tayotganligi san'at muxlislariga xorijlik mehmonlar san'ati bilan yaqindan tanishish imkonini tug'dirmoqda.

2014-yil O'zbek Milliy drama teatri (sobiq Hamza teatri) o'zining 100-yillik yubileyini tantanali ravishda nishonladi.

Mustaqillik sharofati bilan asrlar davomida shakllangan ommaviy xalq bayramlari teatrlashgan tomoshalar timsolida yangi xarakter kasb etdi. Qisqa vaqt mobaynida keng miqyoslarda nishonlanadigan teatrlashgan maydon tomoshalari nomli yangi san'at turi dunyoga keldi. Navro'z va Mustaqillik bayramlari, buyuk davlat arboblari va allomalari yubileylari, Buxoro va Xiva shaharlarining yubileylari, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali munosabati bilan o'tkazilgan teatrlashgan tomoshalar shundan guvohlik beradi. Ma'naviy-ruhiy kamolotni shakllantirishda, inson tafakkuriga ta'sirchanlikda kino san'atining imkoniyatlari beqiyosdir. Teatr, tasviriy san'at, musiqa, adabiyot unsurlarini o'zida mujassam etgan ekran san'ati bir tomondan – jamiyatda kechayotgan jarayonlarga badiiy, falsafiy, estetik umumlashmalar nuqtai nazaridan yondashish imkoniyatiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan – unga xos bo'lgan ommaviylik bu umumlashmalarni katta-katta auditoriyalarga maroqli va ta'sirchan shakl-shamoyilda yetkazib berish imkonini yaratadi. So'nggi yillarda sahnalashtirilgan tarixiy mavzudagi spektakllar tahlili bu davrga qadar o'zbek tarixiy dramaturgiyasida shakllangan an'analar ijodiy davom ettirilayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston kino san'atining rivoji uchun Respublikamizning mustaqilligi keng yo'l ochib berdi. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'larga suratga olingan «Buyuk Amir Temur», «Imom al-Buxoriy», «O'tkan kunlar», «Otamdan qolgan dalalar», «Abdullajon», «Boiz» filmlari madaniy hayotimizda katta voqea bo'lib, tomoshabinlar tomonidan iliq qabul qilindi. Umuman, «O'zbekkino»

DAK faoliyatining dastlabki davrida, ya'ni 1996–98-yillar davomida muayyan ijobiy jihatlar ustunlik qildi. Masalan, senariy yozish ishiga tajribali yozuvchilarning jalb etilgani, shuningdek badiiy asos sifatida zamonaviy va mumtoz adabiyotimizning sara namunalari tanlangani natijasida keng tomoshabinlar e'tiboriga, «Yolg'iz yodgorim», «Sevgi», «Chayongul», «Ayollar saltanati» kabi turli janr va mavzulardagi filmlar havola etildi. 1998-yildan e'tiboran «Ma'naviyatimiz qo'limizda yengilmas kuchga aylansin» shiori ostida o'zbek milliy filmlari festivalining joriy etilishi ham respublika madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. 1998–2001-yillarda Buhoro shahrida I, II, III, IV o'zbek milliy filmlari festivallari o'tkazilib, so'nggi yillarda yaratilgan hujjatli, badiiy, animatsiyali filmlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Shu davr oralig'ida Farg'ona (1999) va Navoiy (1998, 2001) viloyatlarida o'tkazilgan «O'zbek kinosi kunlari», «Kino bayrami» kunlari milliy kinosan'atimiz namunalari targ'ibot va tashviqot etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Koreya, Malayziya kabi davlatlarda o'tkazilgan «O'zbek kinosi kunlari» milliy kinofilmlarimizni jahonga tanitish va targ'ib etishning o'ziga xos tajribasi bo'ldi. Shuningdek, so'nggi yillarda milliy badiiy va hujjatli filmlarimiz ko'plab nufuzli kinoanjuanlarda ishtirok etib, taqdirlanishdi. Respublika badiiy hayotida ulkan voqea bo'lgan «Islom Karimov: O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» (muallif va rejissor B. Ishoqov, rejissyor Sh. Qurbonboyev, operatorlar T. Qurbonov, R. Shukurov, U. Ortiqov, E. Shoyunusov) turkum filmining «Milliy xavfsizlikning harbiy strategik asoslari» deb nomlangan 4-qismli Moskva shahrida bo'lib o'tgan MDH va Boltiqbo'yi davlatlarining hujjatli kino va telefilmlar festivalida MDH davlatlari va Mudofaa Vazirlari Kengashining maxsus mukofoti, III Yevroosiyo teleforumi diplomi va maxsus «Terrorizm xavfiga qarshi MDH davlatlarining hamkorlikdagi kurashini keng va yorqin aks ettirgani uchun» diplomi bilan taqdirlandi. Rejissyor Yu. Roziqovning «Boiz» filmi (stsen. mual. Yu. Roziqov, operator U. Hamroyev) 1999-yilda Anapa shahrida o'tkazilgan MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarning «KinoShok» festivalidan Bosh sovrin va kinotanqidchilarning eng yuqori sovrini bilan qaytdi. Shuningdek, mazkur film Berlin Xalqaro kinofestivali, Dehli, Sietlda bo'lib o'tgan kinoanjuanlar ko'rik-tanlovida ishtirok etdi. 2000-yilda «Artek»da bo'lib o'tgan Bolalar xalqaro kinofestivalida Z. Musoqovning «Kichkina tabib» (stsen. muallifi va rej. Z. Musoqov, operator A. Ismoilov) filmi

Bosh sovringa, M. Mahmudovning «Bulbul» animatsiyali filmi esa Moskvada o'tkazilgan «Золотая рыбка» festivalida I Sovringa sazovor bo'ldi. M. Abzalovning «O'tkan kunlar» filmi ham Gatchina shahrida o'tgan «Kino va adabiyot» festivalida maxsus sovrin bilan mukofotlangan. 1991–2001-yillarda Sh. Abbosov, L. Fayziyev (marhum), T. Kamolova, X. Fayziyev, M. Abzalov kabi ustoz san'atkorlar bilan bir qatorda – I. Ergashev, Z. Musoqov, Yu. Azimov, S. Nazarmuhamedov, Yu. Roziqov, B. Odilov, J. Qosimov, T. Kalimbetov, Yu. Sobitov, N. Abbosov singari yosh rejissyorlar ijod qilishmoqda. M. To'ychiyev, Sh. Boshbekov, R. Muhammadjonov, Z. Musoqov, Yu. Roziqovlar qalamiga mansub senariylarda milliy kinoning o'ziga xos jozibasi, maroqli xususiyatlari aks etmoqda. Operatorlardan X. Fayziyev, R. Ibrohimov, X. Hasanov, D. Abdullayev, U. Hamroyevlarning, shuningdek, kinomusavvirlar Yu. Guseynov, D. Abdurahmonov, I. Gulenko, Z. Nosirovalarning ijodlari kinosan'atimizda alohida o'rin tutadi. Zamonaviy kinomusiqaning rivojida kompozitorlar E. Solihov, M. Maxmudov, D. Yanov-Yanovskiy, J. Izomovlarning ulushlari salmoqlidir. 1991–2001-yillarda o'zbek badiiy kinosi keskin ijtimoiylikdan bir qur chekinib, ma'naviy-ruhiy izlanishlar qatlamida gavdalana boshladi. Hayot muammolari, mavjudlik muammolari bilan bog'liq mavzular bilan bir qatorda ta'sirchan melodrama va yengil komediya filmlaridan iborat «etnik kino» yo'nalishi ham o'z rivojini topa boshladi. «Temir xotin», «Sharif va Ma'rif» (rej. I. Ergashev), «Sho'rpushonalar» (rej. J. Qosimov, B. Odilov), «Dallo» (rej. B. Odilov), «Qarib quyilmagan», «Chimildiq» (rej. M. Abzalov), «Adashganlar» (rej. R. Muhammadjonov), «Bomba», «Kichkina tabib», «Osmondagi bolalar», «Osmondagi bolalar 2», «Vatan», «Qo'rg'oshin» (rej. Z. Musoqov) filmlari fikrimiz dalilidir. Kino san'atida 1991–2001-yillarda kechgan badiiy-ijodiy jarayonlar tahlili so'nggi yillarda ekranlarga chiqqan ayrim asarlarda badiiy-estetik did tanqisligi, zamonaviy mavzu va qahramon talqinidagi yuzakilik, bayonining tomoshabin uchun zerikarli, sust maromda kechishi holatlarini ham aniqlashga imkon berdi. Bu o'rinda «Piyoda», «Baxt qadri», «Pari Momo», «Oliyjanob sevgi», «Fazli», «G'urbat» filmlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Buning asosiy sabablari milliy kinodramaturgiya muammolari doirasida bo'lib, xususan, stsenariy tanlashda mezonlarning pasayib ketgani bilan bog'liqdir. Shuningdek, filmlar namoyishi (kinoprokat), mutaxassislarni tayyorlash, tomoshabin bilan aloqani mustahkamlash hamda kino

sohasining moliyaviy o'z-o'zini qoplay olish-olmasligi bilan bog'liq muammolar ham o'z yechimini kutmoqda. Tariximizni o'rganishga talab bor ekan, bu tarixni kino tasmlarida muhrlovchi hujjatli filmlarga ham ehtiyoj oshmoqda. Istiqlol kinosolnomasini yaratishda hujjatli filmlarning o'rmi beqiyosdir. «O'zbekiston mustaqillik yo'lida», «Istiqlol fidoyilari», «O'zbekiston Qahramonlari», «Islom Karimov: O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» ruknlaridagi hujjatli filmlar fikrimiz dalilidir. O'zbekiston Teleradiokompaniyasi tizimida tayyorlanayotgan badiiy va hujjatli axborot dasturlari, turli mavzudagi ko'rsatuvlar, videofilmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasi milliy istiqlol mafkurasi mezonlariga hamohangdir. Milliy televidenie yurtimizda kechayotgan tub islohotlarni keng targ'ib etish yuzasidan samarali faoliyat olib bormoqda. O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda yangi zamon an'alarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik, hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq havaskorligi hamda jo'shqin ommabop estrada ijodiyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalar namoyon bo'ladi. Istiqlol sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'alarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etdi. Shuningdek, qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sa'y-harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

2017-yil 3-avgust kuni Respublika Prezidenti Sh. Mirziyoyev madaniyat va san'at arboblari, teatr va kino sohasi vakillari bilan uchrashuvda keyingi yillarda yig'ilib qolgan bir qator muammo va kamchiliklarga to'xtalib, uning yechimi, istiqboli, madaniyat va san'at sohasi vakillari oldida turgan dolzarb masalalarga alohida to'xtaldi. Buning natijasida mamlakatimizda yuqorida ta'kilangan sohaning zamonaviy jihatdan rivojlanishi uchun qator Farmon va Qarorlar qabul qilindi.

Bugungi o'zbek musiqa san'atining jahon sahnalarida erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovordir. Bunga, xususan, O'zbekiston kompozitorlari asarlarining yirik va nufuzli xorijiy ijrochi jamoalari repertuarlaridan o'rin olishi, yetuk san'atkorlarimiz – Turg'un Alimatov AQSH da, Abduhoshim Ismoilov AQSh, Fransiya, Germaniyada,

Munajot Yulchiyeva Fransiyada, Yulduz Usmonova Gollandiya va Germaniyada, Nasiba Abdullayeva va «Yalla» ansambli AQShda, Milliy simfonik orkestri Turkiyada, «So'g'diyona» o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestri Ispaniya, Gollandiya, Germaniya mamlakatlarida muvaffaqiyat qozongan gastrol va kontsertlari yorqin misoldir. Shuningdek, ushbu o'n yillik davrida ellikdan ortiq yosh iste'dodli sozanda va xonandalar nufuzli Xalqaro tanlovlarning sovrindorlari bo'lishdi. Ular orasida pianino ijrochilari – Ulug'bek Polvonov (Portugaliya, 1991; Italiya, 1996; Germaniya, 1996; Gruzziya, 1997; AQSh, 1998), Gulnora Alimova (Fransiya, 1993; Portugaliya, 1994; AQSh, 1995), Nargiza Alimova (Italiya, 1996; Belorussiya, 1996; Shimoliy Koreya, 1997), Irina Gulzarova (Italiya, 1997; Italiya, 1999; Ukraina, 2000), Rustam Abdullayev (Gretsiya, 2000), xonandalar – Anna Guzairova (Italiya), Sayda Mamadalieva (Shimoliy Koreya, 1996), Sevara Nazarxonova (Bolgariya, 1999), kamonli-torli cholg'u ijrochilari – Dilshod Nazarov (violonchel, Fransiya, 1999), Sunnat Ibrohimov (violonchel, Qozog'iston, 2001), Marina Sarkisova (skripka, Turkiya, 2000), Anastasiya Yudenich (skripka, Fransiya, 2001), damli cholg'u ijrochisi – Ali Izmaylov (Qozog'iston, 1995) va boshqalar bor. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va respublika hukumatining e'lon qilgan Farmon va Qarorlari («O'zbeknavo» gastrol-kontsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida (1996), «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiqlar bayramini o'tkazish to'g'risida (1996), «Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida» (1996), «O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish to'g'risida» (1997), «O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida» (1998, 2001) va boshqalar) o'zbek musiqa madaniyatining yanada rivoj topishiga va yuksalishiga qaratilgan. Shunga muvofiq ushbu o'n yillikda respublikamizda va uning musiqiy hayotida tarixiy voqealar va muhim o'zgarishlar ro'y berdi, jumladan, Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (1997, 1999), Toshkentda Xalqaro simfonik musiqa festivali (1998, 2000), 1995-yildan boshlab Toshkentda «Ilhom – XX» Xalqaro zamonaviy kamer musiqasi festivali, 1996-yildan «O'zbekistan – Vatanim manim» qo'shiqlar tanlovi, 1999-yili «Alpomish» dostonining 1000-yilligi, 2000-yildan boshlab «Navro'z» qo'shiq-tanlovi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimiz ta-

valludlariga bag'ishlangan shonli sanalar keng nishonlandi. Ushbu yillari o'zbek estrada san'ati ham qator yutuqlarga erishdi. «Ofarin», «Ona zamin yulduzlari», «Nihol» sovrinlarining ta'sis etilishi fikrimiz dalilidir. Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ulamolarimiz byergan ta'riflardan biriga ko'ra, musiqa – inson ruhining ozig'idir. Binobarin, milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lgan jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig'idir.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi. Shu boisdan respublika miqyosida ko'plab ko'rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Xususan, dastlabki o'n yillikda katta ashula ijrochiligi va oilaviy ansambllar (Qo'qon, 1991; Shahrisabz, 1994), «Alla» ijrochilari (Toshkent, 1992, 1998, 2000; Marg'ilon, 1996), to'y-marosim qo'shiqlari ijrochilari (Toshkent, 1993), folklor-etnografik jamoalari «Chashma» tanlovi (Toshkent, 1994), «Iste'dod» nomli yosh xonandalar (Toshkent, 1995), baxshi-shoirilar (Denov, 1991; Narpay, 1993; Toshkent, 1997; Termiz, 1999), maqom ijrochilari va xalq cholg'ulari ansambllari (Shahrisabz, 1996), «Barhayot siymolar» (Toshkent, 1997, 1998), oilaviy ansambllar (Jizzax, 1998), folklor-etnografik ansambllari (Toshkent, 1999), M. Uzoqov va J. Sultonov nomidagi yosh xonandalar (Marg'ilon, 1999), Hoji Abdulaziz Rasulov nomidagi yosh xonandalar (Samarqand, 1997), Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar (Urganch, 2001), Yu. Rajabiy nomidagi IV Xalqaro va V Respublika Maqom ijrochilari (Toshkent, 1995, 1999), oilaviy ansambllar (1995) va folklor-etnografik jamoalari (1996), telefestivallar shular jumlasidandir. Ta'kidlash joizki, hozirgi paytda o'zbek estrada musiqasi o'zining uslub nuqtai nazaridan murakkab jaryonni boshdan kechirmoqda. Xususan, unda Yaqin va O'rta Sharq estradasidan tortib to Lotin va Shimoliy Amerika hamda G'arbiy Yevropa mamlakatlari ommaviy musiqasining kuy-ohang va ritm-usullari ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Oldingi davrda man etilgan yoki davlat

tomonidan «qo'llab-quvvatlanmagan» ommaviy musiqa uslublaridan («disko» va «xard-rok»dan boshlab «rep» va «xevi» metallgacha) erkin foydalanish, milliy an'anaviy musiqa namunalarining estrada sahnasiga olib chiqish tajribalari ham 1991-yildan boshlab keng o'rin tuta boshladi. Shu bilan birga endilikda O'zbekistonda musiqiy estradaning yangi oqimlari, jumladan, yoshlar orasida «texno-pop», «pank», «xard-rok», «reggey» va «jaz-rok», «bard» qo'shiqchiligi kabi yo'nalish va uslublar rivojlanmoqda. Sarvar Qoziyev rahbarligida kamol topgan hamda turli estrada tanlovlari sovrindori darajasiga ko'tarilgan «Qars» («Chiproddallidalli»), «Yor-Yor, yoro-ney»), shuningdek «Toshkent» («Bedana») va «Manzur» («Etolmaysiz», «Meni yor dema») guruhlari, Muhammadjon Ro'zimuhammedov va «Shofayz», Doniyor Mamedov va «Bayram», Abdulla Shomagrupov va «Nola» («Nazokat», «Sensan sevarim»), Rashid Xoliqov va «Shahzod» («O'ynaysan», «Kelinchak»), Sevara Nazarxon va «Sideriz» («Unutma»), Abdulaziz Karim va «Asr» («Qurbon bo'laman»), Tohir Sodiqov va «Xo'ja», «Toj» kabi guruhlar hozirgi davr yoshlar estrada musiqasining saralangan bo'g'inini tashkil etadi. Albatta, bu jarayonda ayrim natijalar bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlar estradasiga yuzaki taqlid qilish, «yevropacha» va «Sharqona» uslublarda «ijod» etish tamoyillari keng tus olmoqda. Shuningdek, yana bir alohida tamoyil sifatida jahonda mashhur ommaviy estrada (turk, eron, arab, fransuz, ingliz va boshqa estrada yulduzlari) qo'shiqlarining kuy-ohanglariga o'zbekcha so'z va she'rlarni «bog'lab» ijro etish tajribalarini qayd qilish mumkin. Ammo bu kabi tajribalarni badiiy-ijodiy jihatdan doim ham qoniqarli, deb bo'lmaydi. Unutmaslik kerakki, bunday jarayonda yuzaga kelgan qo'shiqlar va shu asosda «ruhiy ozuqa» olayotgan yoshlarimiz pirovard natijada ona tilimiz-u, milliy ohanglarimiz tarovatini, qolaversa ularning qadr-qiyamatini teran his etolmay qolishlari mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida respublikamizda teatr, kino va musiqa san'atida yuz byergan rivojlanishlarni bu borada hukumatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar, jamiyatda yuz byergan ijtimoiy o'zgarishlarning in'ikosi deb qabul qilish mumkin. Yuqorida ta'kidlangan sohalarda yuz byergan o'zgarishlar jamiyatning ma'naviy, estetik ruhidagi o'zgarishlarini belgisi sifatida mustaqillik yillarida bu borada olib borilgan ishlarni natijasini belgilovchi omil deb qarash mumkin. Bulardan kelib chiqib mustaqillik sharoitida bu sohalarni

rivojlantirish uchun ko'p ishlar amalga oshirilganligini va yuqorida ta'kidlangan ko'plab yutuqlar qo'lga kiritilganligini ta'kidlagan holda sohada hali o'z yechimini topmagan bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini ham qayd etib o'tish lozim. Ammo shu kungacha olib borilgan ishlarning jo'shqinligi va bu borada erishilgan natijalarga asoslangan holda biz ushbu muammolar yaqin kelajakda o'z yechimini topa olishini ishonch bilan ta'kidlashimiz mumkin.

O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi. San'atni barcha sohalari, madaniy-ma'rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash davlatimizning doimo e'tibor markazida bo'lib keldi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Badud Mahmud, Munavvar qori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o'z o'rnini egallashdi.

Ma'rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'y-rost ko'rsatish boshlandi. O'tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili deb tamg'a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'oni karim va hadislar chop etildi. Bunday asarlarning xalqimiz qo'lga yetib borishi butunlay yangi, sog'lom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va ko'plab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqloq g'oyasi hamda mafkurasining buyuk hayotbaxsh kuchini ko'rsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqdorlari O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa'dullayevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqloq davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. T. Malikning romanlari, O. Matjon,

O. Hojiyeva, X. Sultonov, Erkin A'zam, U. Azim, A. Suyun, Y. Eshbek, H. Do'stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari o'zbek milliy istiqlol adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mustaqillik yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlarida ham keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu muassasalarning soni 1997-yili 9442 ta bo'lsa, bulardan 60 tasi muzeylar, 2657 ta klublar, 6725 ta kutubxonalardir. Mustaqillik yillari bu muassasalar aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy tarbiyaning o'chog'iga aylandi.

Aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil qiluvchi muassasalardan biri kutubxonalar bo'lib, ularning soni 1996-yili 6723 ta edi. Kutubxonalarda jami kitobxonlar 6 mln 211 kishini tashkil qilsa, shundan 4 mln 425 mingi qishloq tumanlarida edi. Kutubxona xodimlaridan 65 foizi oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislardir.

Mamlakatimizda 2017-yil 12-yanvardagi Prezident farmoyishiga ko'ra, Respublikada kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlar majmuaasi belgilandi.

Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda. «Temuriylar tarixi davlat muzeyi»ning qurilishi, «O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi», «Xalq amaliy san'ati muzeyi»ning qayta jihozlanishi buning yorqin dalolatidir. Keyingi paytda O'zbekistonda tarixiy merosimizni o'rganishga va madaniyat sohasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu sohada muzeylarga alohida o'rin ajratilgan. 1994-yil 23-dekabrda Vazirlar Mahkamasi «Respublika muzeylar faoliyatini yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. 1998-yil 12-yanvarida esa «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmon qabul qilindi. Bu g'oyat muhim ikkita hujjat O'zbekistonda o'tmishning buyuk merosiga alohida ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi. 2014 holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 73 ta muzeydan 22 tasi o'lkashunoslik, 14 tasi tarix, 10 tasi badiiy, 12 tasi memorial va bitasi tabiiy-ilmiy muzey bo'lgan. Mustaqillik yillarida tashkil etilgan Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shonshuhrati muzeyi, Y. Oxunboboyev, A. Qahhor, Y. Rajabiy uy-muzeylari, M. Turg'unboyeva muzeyi, Jizzaxdagi Sh. Rashidov, H. Nosirov muzeylari, Nukusdagi Byerdaq nomidagi Adabiyot muzeyi, Navoiy

va Olmaliqdagi o'lkashunoslik muzeylari, Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi muzeyi, Zomin tarix muzeyi, Marg'ilondagi adabiyot va san'at muzeyi, Shahrisabzdagi Amir Temur nomidagi Tarix va moddiy madaniyat muzeyi respublikamiz madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Kamoliddin Behzod yodgorlik majmuasi va muzeyi hamda Termizdagi arxeologiya muzeyining qurilishi yakunlandi. O'zbekiston muzeylari xalqaro hamkorlik – tajriba almashish, noyob eksponatlar hamda qiziqarli ekspozitsiyalar ayirboshlash jabhasiga faol kirishdi. O'zbekistonning AQShdagi madaniyat kunlari doirasida Filadelfiyada o'zbek xalqi amaliy san'ati ko'rgazmasi katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. Ta'kidlash joizki, Davlat san'at muzeyi O'zbekiston, xorijiy Sharq, Rossiya va G'arbiy Yevropa amaliy bezak va tasviriy san'atiga oid 50.000 ga yaqin eksponatlar fondiga ega. Muzey ularni jamlash, saqlash, namoyish qilish bilan bir qatorda kataloglar, bukletlar va albomlar nashr etish yo'li bilan keng targ'ibot ishlarini ham amalga oshirmoqda. Qoraqalpog'istonning I. B. Savitskiy nomidagi San'at muzeyi esa, ko'plab xalqaro ko'rgazmalar ishtirokchisidir. O'zbekistonning eng keksa muzeylaridan bo'lgan respublika tabiat muzeyi fondida 372 mingdan ziyod eksponat saqlanyapti. Yaqinda 20 yilligini nishonlagan S. Yesenin muzeyi ishining xilma-xil shakllarini izlab topmoqda. Muzeyda Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi elchixonasi, Rus madaniyat markazi, mahalliy tashkilot va muassasalar bilan birgalikda hamda Soros jamg'armasi ko'magida Yesenin she'rlarini badiiy o'qish yosh ustalarning an'anaviy bahorgi tanlovlari, rus romansi kechalari va boshqa tematik tadbirlar o'tkazib turiladi. Masalan, 2000-yil yanvarda Anna Axmatovanning Sankt-Peterburgdagi muzey fondidan keltirilgan eksponatlarining ko'rgazmasi, 2001-yil martda esa «Rus samovarlari» ko'rgazmasi o'tkazildi.

Hukumatimizning muzeylar faoliyatiga oid qarorlarida xalqimiz tarixini to'laqonli aks ettiruvchi noyob ashyolarni to'plash – katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, davlatimiz muzeylar faoliyatini rivojlantirishga va yodgorliklarni tiklashga ahamiyat berayotganligi tufayli bu borada ijobiy natijalarga erishilmoqda. Poytaxtimizning Amir Temur xiyoboni yonida Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Toshkentga xorijdan kelgan sayyohlar mamlakatimiz bilan tanishuvni shu muzeydan boshlashadi. 2017-yili O'zbekiston Respublikasi Ma-

daniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar buyicha 68 ta muzey mavjud bo'lgan bo'lib, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 ta memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta adabiy, 1 ta tabiiy ilmiy muzeylar tashkil etgan. Respublikadagi mavjud 3 ta muzey qo'riqxonasi Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlarida joylashgan. Bular Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi, Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi va Xivadagi «Ichon-Qal'a» davlat muzey qo'riqxonalaridir. Tizimda, shuningdek, tasviriy va xalq amaliy san'atining nodir namunalari saqlanayotgan Davlat san'at muzeyi, Respublika xalq amaliy muzeyi hamda I. B. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

1999-yili mamlakatimizda qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasini barpo etishga qaror qilindi va bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999-yil 12 maydagi farmoniga ko'ra, mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi tuzilib, Toshkentning Yunusobod tumanida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi barpo etildi. 2000-yil 12-may kuni «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasining tantanali ochilishi mamlakatimiz va xalqimizning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida ulkan voqea bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martdagi «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi 98-sonli hamda 1999-yil 27-dekabrda «Termiz shahrining 2500-yil-ligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi 545-sonli qarorlari asosida o'z faoliyatini 2001-yilda boshlagan Termiz arxeologiya muzeyi tashkil topdi.

2008-yil 12-sentabrda qabul qilingan «Muzeylar to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqimiz ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini o'rganish, avaylab-asrash, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish imkonini yaratib berdi. 2009-yilda Toshkentda aloqa tarixi muzeyi ish boshlagan bo'lsa, 2015-yilda esa mintaqadagi ilk bor Politehnika muzeyi ochildi. Bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 25-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ko'p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish ishlari amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 15-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi hamda «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib keladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish borasidagi quyidagi fikrlarni bildirib o'tdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan «kichik haj» dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda qabul qilingan «2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori muzeylar faoliyatini zamonaviy asnodda rivojlantirish yo'lida katta amaliy qadam bo'lib xizmat qildi.

Respublikada olib borilayotgan o'zgarishlar jarayonida 1998-yili 10 noyabrda sog'liqni saqlash tizimini islohot qilish to'g'risida Prezident farmoni chiqdi. Davlat sog'liqni saqlash muassasalari bilan bir qatorda nodavlat, shaxsiy tibbiy muassasalari rivojlanmoqda. 1991–2001-yillarda 19,5 ming o'rinli shifoxonalar ishga tushirilib, 2001-yili ularning soni 1500 ga etdi. Bundan tashqari jami 5700 nodavlat shaxsiy tibbiy muassasalari ishlamoqda. 2001-yil mart oyidan 1-Respublika klinik shifoxonasi Respublika tez tibbiy yordam ilmiy markaziga aylantirildi. Kardiologiya, xirurgiya, oftalmologiya, onkologiya respublika markazlari tashkil etildi.

1998-yil 10-noyabrda Respublika Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan 2006-yilgacha Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi qabul qilindi. 1991-yilda 188400 ta shifo o'rinlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000-yil 1-yanvar kuniga samarasiz ishlayotgan 56600 shifo o'rinlari qisqartirildi. Ularning o'rnida aholiga qulay va iqtisodiy jihatdan arzon, barcha sharoitlarga ega bo'lgan 47407 kunduzgi shifo o'rinlari tashkil etildi. Bundan tashqari 217 ambulator jarrohlik markazlari va 106 ta maxsus ambulator davolash komplekslari tashkil qilindi. 1999-yil davomida respublikada 5613744 nafar bemorlar tibbiy muassasalarda davolandi. Birgina 1997-yilda 159 ta qishloq-tibbiyot punkti ishga tushirildi, 1,5 ming bemorga mo'ljallangan shifoxonalar qurildi. 202 ta tibbiyot muassasasi qishloq tibbiyot punktlariga aylantirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ayollar umrining davomiyligi 72 dan 73 yoshgacha uzaydi. Shu davrning o'zida Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonda ayollar umrining davomiyligi 1-3 yoshga qisqardi, Turkiya va Indoneziyada ayollar umrining davomiyligi shu davr ichida oshdi, lekin tegishli ravishda 71 va 66 yosh darajasida saqlanib turibdi. Xuddi shunday vaziyat erkaklarda ham kuzatilmoqda, O'zbekistonda erkaklar umrining davomiyligi 1990-yildagi 66 yoshdan 1998-yilda 68 yoshgacha ko'tarildi, ayni paytda Rossiya va Qozog'istonda erkaklar umrining davomiyligi 2-4 yoshga qisqardi, Turkiya va Indoneziyada erkaklar umrining davomiyligi uzaydi, lekin tegishli ravishda faqat 66 va 62 yosh darajasiga yetdi.

O'zbekistonda tibbiy ta'limning uzluksiz borishiga va mutaxassislarning o'z malakalarini oshirib borishiga katta ahamiyat berildi. Toshkentda vrachlar malakasini oshirish instituti ishlab turibdi. Uning 42 kafedrasini va har xil ixtisoslikka mo'ljallangan kurslarida har yili 5-6 mingga yaqin vrach, jumladan boshqa hamdo'stlik mamlakatlaridan kelgan mutaxassislar o'z malakasini oshirishdi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotning borishi tibbiyot xodimlari tayyorlash ishini, umuman tibbiy ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo qilardi. Respublikadagi tibbiyot institutlarida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash ko'zda tutildi. Shunga ko'ra «davolash ishlari» ixtisosligidan vrach kadrlar tayyorlash ishi 3 bosqichdan tarkib topadigan bo'ldi, shulardan birinchisi – tabobat bo'yicha 5 yil davomida umumiy tayyorgarlik ko'rib, bakalavr, ya'ni vrach yordamchisi unvonini olish; ikkinchisi

– to'la-to'kis tibbiy ma'lumotga ega bo'lib, tibbiyot doktori darajasiga erishish; uchinchisi – xodimning tanlagan ixtisosiga qarab, magistraturada o'qish. Magistraturada mutaxassis vrach tayyorlash eng yaxshi ilmiy maktablar va klinikalarda olib borildi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanila boshlandi. Shu bilan birga, mutaxassisning malakasini tekshirib borish yoki oshirish uchun uni vaqti-vaqtida sinov (attestatsiya)dan o'tkazib turiladi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha Samarqand va Andijon viloyatlarida shoshilinch tibbiy yordam markazlari ochildi. Vazirlar Mahkamasi-ning 1998-yil 4-martdagi maxsus qaroriga muvofiq Shoshilinch tibbiy yordam o'quv markazi tashkil etildi. 2002–2006-yillarda mamlakatning barcha viloyatlarida eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan shoshilinch tibbiy yordam markazlari qurilib foydalanishga topshirildi. Respublikada tibbiyot xodimlarini tayyorlashda yangi dastur qabul qilingan, bu bo'yicha 2380 ta umumiy (oilaviy) amaliyot vrachlari tayyorlanmoqda. 1999-yilda 4 ta hamshiralarni o'qitish kollejlari tashkil qilindi. Respublika bo'yicha 234 ta tibbiyot muassasalari qisman o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tdi. 1999-yilda 48 ta tibbiy muassasalar mulk shaklini o'zgartirib xususiylashtirildi. 3075 ta shifokorlar yakka tartibda faoliyat ko'rsatish uchun maxsus ruxsatnoma olishdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan yosh tibbiy xodimlarni chet mamlakatlar (Angliya, Italiya, Rossiya, Isroil va Shvetsiya)da o'qitish uchun 18 ta grant ajratilgan. Mustaqillik yillarida tibbiyot sohasida erishilgan ilg'or jahon tajribalarini hayotga tatbiq qilish bilan bir qatorda dunyo tabobat ilmining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' bobokalonlarimiz merosini o'rganish borasida ham bir qator ishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tashkil etilganligi ham ushbu sohaning rivojlanishiga davlat miqyosida katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Tibbiyotdagi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri, bu tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun tashkiliy va amaliy sharoitlar yaratish. Jamiyatda tibbiyot xodimlarining mavqeini ko'tarish, ularning mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirishdan iboratdir. Bu borada Respublikamiz Prezidentining 2005-yil 1-dekabrda «Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lash tizi-

mini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori asosida tubdan yangi, bajarilgan ishning hajmi va sifatiga bog'langan tizim joriy etildi.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi. Hozirgi vaqtda bu boradagi islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri nihoyasiga yetmoqda. Aholiga bepul shoshilinch va yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun eng yuksak talablarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan shifoxona va bo'limlar tarmog'ining tashkil etilishi bu bosqichning eng muhim va aniq natijasi bo'lganini ta'kidlash joiz. Maxsus tashkil etilgan respublika markazi bu tizimga rahbarlikni va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlamoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni ta'minlash borasidagi ishlar 2010-yilda Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi asosida davom ettirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda sifat jihatidan yangi, eng yuksak talablarga javob beradigan va respublika hamda viloyatlar shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazlarini o'z ichiga olgan tibbiyot muassasalari tarmog'i shakllandi. Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qishloq vrachlik punktlarining soni 2000-yilga nisbatan 2 barobar ko'payib, 3 ming 200 tadan oshdi. Sog'liqni saqlash birlamchi bo'g'inining tuzilmasi o'zgartirildi. Avvalgi tizim – tuman markaziy shifoxonasi, tuman shifoxonasi, qishloq uchastka shifoxonasi, qishloq vrachlik ambulatoriyasi, feldsher-akusherlik punktlaridan tashkil topgan bo'lsa, yangi tizimda barcha bo'g'inlar tuman markaziy shifoxonasi hamda qishloq vrachlik punktlariga birlashtirildi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi. O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam

ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irsiy va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishining oldini olish maqsadida respublika va hududiy skrining markazlari tashkil etildi.

Natijada 1991–2017 yillarda umumiy o'lim ko'rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o'limi 3,1 barobar kamaydi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1995-yilga nisbatan 4,6 yilga oshdi va bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda. Xususan, 2011-yil noyabrda Toshkent shahrida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Ona va bola sog'lig'ini saqlash» mavzusidagi xalqaro anjumanda O'zbekistonning keyingi 20 yil ichida ushbu sohada erishgan yutuqlari haqli ravishda e'tirof qilindi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasi faoliyatini tashkil etishda so'nggi yillarda to'planib qolgan tizimli kamchilik va muammolar fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to'sqinlik qilmoqda edi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z chiqish va nutqlarida bu masala davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga kirishini alohida qayd qilmoqda. Shu boisdan qabul qilingan qator davlat va hukumat darajasidagi hujjatlar, xususan, Prezidentning «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida» 2018-yil 7-dekabrda Farmoni sohani rivojlantirish borasida muhim amaliy qadam bo'ldi. Bu borada 2019–2025-yillarga mo'ljallangan tegishli konsepsiya ham qabul qilindi.

1993-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Butunjahon turistik tashkiloti (BTT)ning a'zosi. Dunyoning 24 mamlakati bilan bir qatorda yurtimiz BTTning «Buyuk ipak yo'li» dasturida ishtirok etmoqda. 1995-yildan boshlab har yili tashkil etilib kelinayotgan «Ipak yo'li bo'ylab turizm» deb nomlanuvchi Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi mamlakatimizda diplomatik va konsullik muassasalari tomonidan turizm sohasida vakillik vazifalarini bajarish bo'yicha samarali faoliyat amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish hamda mamlakatning boy tarixiy va madaniy merosini targ'ib qilishdagi rolini oshirish xoriyda mustaqillik yil-

larida erishilgan yutuqlar haqida xolis tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jahon standartlariga mos keluvchi turizm sohasini shakllantirish, sohada jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni mustahkamlash, milliy iqtisodiyotimizga zamonaviy xalqaro faoliyatga mos keladigan raqobatbardosh turizm tarmoqlarni olib kirishga e'tibor qaratilmoqda.

Turizm ya'ni sayyohlik, dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. «YuNBTO jahon sayyohlik barometri»da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda xalqaro sayohatlar hajmi 4,6 foiz o'sdi. Keyingi yillarda dunyoning ayrim mintaqalarida yuz berayotgan turli geosiyosiy va iqtisodiy tahdidlarga qaramasdan, 2010-yildan buyon xalqaro sayohatlar soni yiliga o'rtacha 5 foiz oshmoqda. Bu jahon yalpi mahsulotida ushbu sohaning ulushi 9 foizni tashkil etayotganida ham o'z ifodasini topgan. Qolaversa, dunyo bo'yicha yaratilayotgan har 11 ish o'rining bittasi mazkur tarmoqqa to'g'ri keladi.

Buyuk ipak yo'li xalqaro savdo markazida joylashgan O'zbekiston sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'nta mamlakat qatorida turadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid yetti mingdan ortiq yodgorlik bor. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular doimo xorijliklar qiziqishini orttirib kelgan. Ana shularni inobatga olib, mustaqillik yillarida turizm sanoatini rivojlantirishga, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan mehmonxona industriyasi, xizmat ko'rsatish va servis sohasi, transport-kommunikatsiya tizimini zamon talablari darajasida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori turizm va turistik infratuzilmani ravnaq toptirishda, uning xalqaro sayyohlik bozorlarida faol ishtirokini ta'minlashda ma'lum ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston 1993-yildan buyon Jahon sayyohlik tashkilotining a'zosisidir. Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining Buyuk ipak yo'lidagi mintaqaviy markazi 2004-yildan faoliyat yuritib kelmoqda. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni

rivojlantirish, boy tarixiy va madaniy merosimizni jahonga keng targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan turizmni ravnaq toptirish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda BMT –Jahon sayyohlik tashkiloti bilan mustahkam hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. 2014-yil oktabr oyida Samarqandda ushbu xalqaro tashkilot Ijroiya kengashining 99-sessiyasi muvaffaqiyatli o'tkazilgani sayyohlik sohasida integratsiyani kengaytirish, yangi rejalar ishlab chiqish, dunyoning yetakchi turistik kompaniya va firmalari bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Nufuzli madaniy tadbirlar mazkur tarmoq rivoji va dunyo xalqlarining madaniyat sohasidagi amaliy muloqotida muhim hisoblanadi. Samarqand shahrida o'tkazilgan «Sharq taronalari» XI xalqaro musiqqa festivali va «Jahon tamadduni tarixida Markaziy Osiyo Renessansi» xalqaro anjumani shu jihatdan ahamiyatli bo'ldi. Ushbu tadbirlarda qator – xalqaro tashkilotlardan yuqori martabali mehmonlar, jumladan, BMT Jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi Taleb Rifai ham ishtirok etdi. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Ipak yo'lidagi turizm» Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasida qisqa vaqtda xalqaro maydonda tanilib, turizm mahsulotlarini namoyish etish, ishbilarmonlik aloqalarini izchil yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish, sayyohlikdagi dolzarb masalalarni atrofficha muhokama qilish, yangi yo'nalishlar ochish borasida qulay imkoniyatlarni taklif etib kelmoqda. Yarmarkada Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Tailand, Malayziya, Italiya, Singapur, Vengriya, Chexiya, Latviya, Indoneziya kabi qirqdan ziyod davlatdan firma va kompaniyalar qatnashib keladi.

«Turizm va san'atning ipak bog'lami» shiori ostida o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi doirasida biznes, ekologik, sport va ma'rifiy sayohat, ekskursiya, kruiz, mehmonxona hamda restoran servisi, sohaga doir ko'chmas mulk va sug'urta, sog'lomlashtirish kabi muhim mavzular yuzasidan fikr-mulohazalar almashiladi. «Milliy taomlar festivali», «Sharq bozori» hamda «Hunarmandlar shahri» bo'limlarida tashrif buyuruvchilar uchun o'zbek milliy taomlari, pazandalik san'ati haqida yanada kengroq ma'lumotga ega bo'lish, milliy hunarmandlik buyumlarini nafaqat tomosha qilish, balki sotib olish imkoniyati ham yaratilgan.

2016-yil oxirlaridan boshlab mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish masalasiga respublika rahbariyati tomonidan katta e'tibor

berilmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, yaqin va uzoq qo'shni davlatlar bilan yuqori saviyadagi do'stona aloqalarni o'rnatilishi natijasida O'zbekistonning boy tarixiga jahon afkor ommasida haqli tarzda yuqori qiziqish uyg'otmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni mazkur sohada dasturiy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Qayd etilgan vazifalar keng ko'lamli bo'lib, turizm salohiyatiga erishish respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlarini yangi pog'onaga chiqarishda muhim rol o'ynadi.

Mustaqillik yillarida turizm milliy iqtisodiyotimizning jadal rivojlanib borayotgan tarmog'iga aylandi, o'sish sur'atlari so'nggi 20 yil davomida o'rtacha 7,6% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich jahon turizmi o'sish sur'atidan (4,5%) ancha yuqori. 2000-yilda respublikamizga 320 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2006-yilda bu ko'rsatkich 7,1 barobarga oshib, 2,16 mln. kishini tashkil etgan. Turizm eksporti 33,8 mln. dollardan 1,2 mlrd. dollargacha o'sdi. 2016-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning YaIMdagi to'g'ridan-to'g'ri ulushi 2002,6 mlrd. so'm yoki uning bir foiziga, jami ulushi esa (bilvosida hisilaviy) 6203,0 mlrd. so'm yoki YaIMning 3,1% iga teng bo'ldi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mazkur yo'nalishning tarkibiy qismi – ekologik turizmni rivojlantirish mamlakatimiz tabiiy xilma-xilligi va boy resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va farovonligini oshirishga salmoqli hissa qo'shishni ko'zda tutadi.

Jahon turizm tashkiloti (JTT) hisob-kitobiga ko'ra, xalqaro sayyohlarning 40-60 foizini tabiiy ajoyibotlari obyektlarini

ko'rishni istovchi ekoturistlar tashkil etadi. Aniqlangan prognoz qiymatiga ko'ra, 2020-yilda ekoturizmdan olinadigan daromadlar hajmi 2015-yilning mazkur ko'rsatkichiga nisbatan 4,42 baravar ko'p bo'ladi. Ayni paytda turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli, mamlakatning moliyaviy, madaniy va intellektual maqomini belgilovchi yetakchi omilga aylandi. Xususan, turizmdan ko'riladigan foyda Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Xitoy va Sharqiy Osiyoning YaIM va budget daromadlarining katta qismini, ayrim «mitti» davlatlar budjetining 70–90 foizini tashkil qilmoqda. Bu esa ularda aholi bandligi ta'minlanishiga, turmush sifati hamda hayot darajasi sezilarli darajada oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turizmni rivojlanishi sohada tegishli mutaxassis-larga bo'lgan ehtiyojni kun tartibiga qo'yimoqda. Shu bois ham, mamlakatimiz rahbarining 2018-yil 28-iyundagi «Ipak yo'li turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida»gi qarori yuqoridagi mulohazaga mantiqiy javob bo'lib xizmat qildi. Universitet qadimiy va navqiron Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekistonda qisqa fursatda mazkur sohaga etarlicha e'tibor qaratilishi natijasida zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko'plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga kompleks yondashish, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllantirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to'liqlik va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirildi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, mamlakatimizga xorijiy sayyohlarning tashrifi 2017-yilda 32 foizga, 2018-yilda esa 100 foizga o'sgan. Lekin, masalaning boshqa jihati bor. Turizm sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hali hanuz mukammal emas, mehmonxonalarining va zarur infratuzilmaning yetishmasligi esa bu yo'nalishni jadal taraqqiy yetishiga imkon bermayotgan edi.

Davlatimiz rahbarining «Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori muammolarga yechim topdi. Ushbu hujjat bilan O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlandi:

– xorijiy sayyohlarni (2018-yilda) 5,3 mln. dan (2025) yilda 9 mln. nafarga oshirish;

– turistik xizmatlar eksportini (2018-yilda) 1 mlrd. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollariga yetkazish;

– mehmonxonalar sonini (2018-yilda) 900 tadan (2025-yilda) 2994 taga ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, chet ellik sayyohlar uchun viza rejimi yanada soddalashtirildi. Hozirda 30 kunlik viza rejimi asosida 19 ta davlat fuqarolari O'zbekistonga tashrif buyurayotgan bo'lsa, bu ro'yxatga yana 45 ta davlat qo'shildi. Qolaversa, 76 ta davlatning fuqarolari O'zbekistonga elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2019-yilning 5-yanvarida yana bir «keng qamrovli» hujjat, 2019-2025-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ham qabul qilindi. Unga ko'ra, turizm sohasini jadal va zamonaviy tarzda rivojlantirishning istiqboli belgilab berildi.

O'zbekistonda zamonviy sirk bundan 100 yillar muqaddam XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga gastrol safarlariga Rossiya va Yevropa davlatlaridan attraksionlar kelgan davrlarda paydo bo'lgan. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Namangan, Urganch kabi bir qator shaharlarda yarimstasionar shapito sirkleri barpo etilgan. Ilk ko'chmas sirk Toshkent shahrida 1914-yilda qurilgan, ammo 1966-yilda ro'y byergan zilzila oqibatida vayron bo'lgan. «O'zbekdavlsirk»ining yangi binosi 1976-yilda qurib bitirilgan va 1999-yilda mazkur bino tubdan rekonstruksiya qilingan. 1942-yili urush davri bo'lishiga qaramay, bu yerda sirk tarixidagi birinchi milliy sirk guruhi – ya'ni O'zbek sirk jamoasi tashkil etildi. Uning tarkibiga mashhur dorboz Toshkenboevlar, ot o'rgatuvchi Muhammad Xo'jayev, chavandoz Zaripovlar, havo gimnastlari Madaliyevlar, qiziqchi Akrom Yusupovlar kirib, zamonaviy o'zbek sirkining eng yorqin namunalarini yaratishdi. 1991-yili Toshkent Davlat sirkiga O'zbekiston va Rossiya xalq artisti, dorbozlar sulolasi asoschisi Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. 1999-yilda sirk binosi ta'mirlanib, zamonaviy talablarga javob beradigan asbob-uskunalar bilan jihozlandi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 1991-yil 25-dekabrda qabul qilgan qarori bilan 1992-yilning 2-yanvaridan «O'zbekdavlsirk» respublika birlashmasi tashkil etildi. Mustaqillik davrida Toshkent sirk haqiqiy ijodiy ustaxonaga, izlanish va tajribalar maskaniga aylantirildi. Sirk arenasida jahonning turli mamlakatlaridan kelgan artistlar o'z mahoratlarini namoyish etishmoqda. 1992-yilda «O'zbekdavlsirk» respublika birlashmasining tashkil

etilishi sirk san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent sirk zamonaviy talablar asosida qayta ta'mirlandi. An'anaviy sirk san'atining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste'dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-sirk kolleji ochildi. O'zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, BAAda gastrol safarlarida bo'lgan respublikamiz sirk ustalari o'zbek milliy sirk san'atini namoyish etishdi. Olimjon Toshkenboev rahbarligidagi «O'zbekiston dorbozlari» guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarlarida bo'lib 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatishdi. 15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Butlion sirkida bo'lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib «Plastik etyud» janrida oltin medalni qo'lga kiritdi. O'zbek sirkchilari 1999-yilda Dubayda, Saratovda, 2000-yilda Xitoyda, 2001-yilda Belgiyada bo'lib o'tgan xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallashgan. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida O'zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o'rin egalladi.

2019-yil 23-yanvarda o'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish va «O'zbek davlat sirk» davlat muassasasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi Hukumat qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2019-yil 1-aprelgacha «O'zbek davlat sirk» davlat muassasasini investorlarga berish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Samarqand, Farg'ona va Xiva shaharlarida 500-700 o'ringa mo'ljallangan sirklar tashkil etiladi. Qarorga ko'ra, 2019–2020-yillarda o'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish hamda «O'zbek davlat sirk» faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. 2021-yildan Toshkent shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro sirk san'ati festivali o'tkaziladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtdagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga ham e'tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarib bordi.

4. O'zbekistonning tinchliksevar mustaqil tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi

XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kirdi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan SSSR va AQSh yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sotsialistik tuzum yemirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta'sir etdi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lamini bilan jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O'zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish maqsadida o'zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O'zbekistonning o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikr bo'lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda.

Ma'lumki, Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkonidan mahrum bo'lib, respublikaning o'rni faqat qog'ozlarda federatsiya subyekti sifatida mustahkamlangan edi, xolos. O'zbekiston o'z imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko'rsatishdan ajrab qolgan, xorij bilan xalqaro aloqalar faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilardi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o'rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, turistik aloqalarni yo'lga qo'yish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

«Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yarog'lardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat», – deb 1991-yil 31-av-

gustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Bayonot»da o'z tashqi siyosatining asosiy yo'lini belgilab olgan O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 17-moddasida bu yo'lni qonun bilan mustahkamladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

- milliy-davlat manfaatlarini ustun qo'ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;
- umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'ygan holda nizoli mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlikni o'rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
- barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o'rnatishga intilish;
- xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;
- tashqi siyosatda ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e'tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitutsiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmui Konstitutsiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasidan va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlardan, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida «Diplomatik munosabatlarni o'rganish tartibi», «O'zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish» haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o'z aksini topdi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, bu tamoyillar yosh suveren davlatning asosiy tashqi siyosiy doktrinasini ifoda etish bilan birga davlatlararo munosabatlar yo'nalishlarining rivojlanishi va keng doiradagi tashqi muammolarni hal qilish imkonini berdi. Mamlakatimizni jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatdagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar

ekan, 1991-yil dekabrda 1992-yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, 2015-yilga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. 2018-yilga kelib, ularning 134 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Poytaxtda 44 ta davlat diplomatik missiyasi akkreditatsiyadan o'tdi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekistonning elchilari dunyodagi 46 ta davlatlarda faoliyat ko'rsatishmoqda.

Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e'tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992-yil 2-martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin olishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi.

O'zbekiston BMTning to'laqonli a'zosi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yig'ilishlarida ishtirok etishi bilan o'zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi. O'zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida e'tiborini qaratishi O'zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o'rnini belgilab berdi. Chunonchi, 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida ham asosiy e'tiborni bu

tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorism, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezident muayyan «olovli nuqtalar» deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O'zbekiston «ommiy qirg'in quollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori» ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammo ham ko'tarildi. Prezident I. A. Karimov «Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojea, butun er yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab mln. kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo» ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi.

1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko'pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig'ilishlarda O'zbekiston Prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan taklifi, BMT boshchiligidagi «6+2» guruhining tuzilishiga asos bo'lgan edi. (O'zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va «Tolibon» harakati) Ushbu guruhning 1999-yil iyul oyida Toshkentda o'tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo'ldiki, bu uchrashuv mintaqaning o'zida bo'lib o'tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni «Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to'g'risidagi» tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning

rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasi edi. 2017-yil 4-6-dekabr kunlari Afg'oniston Prezidentining mamlakatimizga rasmiy tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Muzokaralar yakuni bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarga oid qator hujjatlar imzolandi. O'zbekiston tomoni Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish yo'lida e'tiborga molik tashabbuslar bilan chiqdi. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yilning 26-27-mart kunlari «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzuyida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanda 20 dan ortiq davlatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari ishtirok etdi.

2010-yil sentabrda bo'lib o'tgan BMTning insoniyat rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan «Ming yillik» sammitida O'zbekiston ushbu nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan qo'yilgan ijtimoiy dasturlarni bajarish borasidagi e'tirofga molik mulohazalar bilan chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil sentabrda bo'lgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, zamonaviy dunyodagi ma'lum global muammolarga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdi. Jumladan, Prezident o'z nutqida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, Orol fojeasi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'rifat, bag'rikenglik masalalariga alohida to'xtaldi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» tamoyilini xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilinishi to'g'risidagi taklif davlat rahbarlari va delegatsiyalari o'rtasida yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. Ushbu tamoyil 50 dan ziyod davlatning qo'llab-quvvatlashi natijasida 2018-yil 12-dekabr kuni BMT tomonidan qabul qilindi. BMT Bosh kotibi A. Guterrish bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 10-iyunda Samarqand shahridagi uchrashuvi va keyingi bir qator uchrashuvlar xalqaro nufuzli tashkilotning O'zbekistonning jahonda tinchlik va barqarorlik, hamjihatlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdagi sa'y-harakatiga berilgan yuqori bahosidan darak beradi.

O'zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanishi istiqbolli natijalarni ko'rsatdi. Ko'pgina min-

taqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO, EKO, Islom konferensiya, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yo'lga qo'yildi. 1994-yil iyul oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi. Bu dasturga ko'ra, O'zbekiston harbiy qismlari Shimoliy Korolina (AQSh)dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida o'tkazilgan harbiy mashqlarda, O'zbekiston hududida amerikaliklar bilan o'tkazilgan desantchilarning «Ultrabalans 96» harbiy mashqlarida qatnashishdi. Shuningdek, respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada o'tkazilgan «Kooperativ bankers-97» mashqlarida ham qatnashishdi. Bu kabi hamkorliklar jangchilarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabi, tajriba bo'lib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. O'zbekistonning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladi. NATO Bosh kotibi X. Solana va AQShning NATOdagi doimiy vakili R. Xanerning O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi tinchlik yo'lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko'rsatdi.

O'zbekiston BMTga a'zo bo'lib kirgan yillari Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) katta mansabdor xodimlari qo'mitasining Pragadagi yig'ilishida MDH tarkibidagi davlatlarni ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi masalasi ko'tarildi. 1992-yil 26 fevralga kelib O'zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O'zbekistonning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bo'linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. EXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo'yicha Byurosi mintaqada barqarorlikni ta'minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda EXHTning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar», «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzusidagi bir qator anjumanlarini o'tkazishdi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Yevropada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko'rib chiqdi. Bunday yig'ilishlarda O'zbekistonning ishtiroki tanchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo'lib qoldi.

O'zbekistonning 1996-yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi.

1999-yil 18–19-noyabr kunlari 54 mamlakat rahbarlarining Turkiyaning Istanbul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib, mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. Yig'ilishda O'zbekiston rahbarining ma'ruzasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush-tarzini faqatgina xavfsizlikni ta'minlagandagina amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti yig'ilishda global ahamiyatga ega bo'lgan terrorizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabih niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi. XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo'ldi. Bu kurashga O'zbekiston o'zining katta hissasini qo'shmoqda. Buni AQSh senatorlaridan biri bo'lgan Liberman tasdiqlab, quyidagilarni ta'kidlagan edi: «O'zbekistonsiz bizning Afg'onistondagi aksiterrorchilarga qarshi kurashimiz muvaffaqiyatli bo'lmas edi», – deydi.

Bu o'rinda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalasiga ham to'xtab o'tmoq joiz. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun tuziladigan bitim bo'yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo'lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o'laroq O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi bitim 1996-yil 21-22 iyun kunlari Italiyaning Florentsiya shahrida Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlarining yig'ilishida imzolandi. Florentsiyaning «Fortezza de basso» qal'asida Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuvi-sammitda imzolangan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bu hujjat O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida o'z o'rni va ovozigaga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etdi. 2017-yil noyabrida Yevropa Ittifoqi delegatsiyasining Samarqandga tashrifi o'zaro hamkorlik borasida yangi sahifani ochdi. 2018-yil 23-noyabrda Bryusselda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvida bir qator dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi «Islom konferensiyasi tashkiloti», «Qo'shilmaslik harakati» kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o'rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, 1985-yilda tuzilgan, yuzdan ortiq a'zoga ega «Qo'shilmaslik harakati» tomonidan olib borilayotgan siyosat O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo'nalishlarga to'la mos keladi. O'zbekiston bu tashkilotga 105-a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar qatoriga kirdi. Shu bois O'zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib oldi. Shu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni tiklab oldi. Ularning vakolatxonalari respublikamizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. BMTning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YuNESKO tashkiloti bilan ham respublikamiz o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari shu kunlarda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston 1993-yil YuNESKOga a'zo bo'lgan edi.

1994-yilga kelib esa O'zbekiston Respublikasining YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va bu ham o'zaro hamkorligimizning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'ldi. 1996-yilga kelib Toshkentda YuNESKoning vakolatxonasi ochildi. Shu o'tgan vaqtdan beri O'zbekiston va YuNESKO tashkiloti o'rtasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bordi.

1996-yil O'zbekiston Prezidenti ham YuNESKO qarorgohiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu tashrif chog'ida I. Karimov YuNESKO Ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq so'zladi. YuNESKoning Bosh direktori va Fransiya Prezidenti ishtirokida YuNESKO qarorgohida

«Temuriylar davrida fan, madaniyat va ma'rifatning gullab-yashnashi» ko'rgazmasini ochdi.

O'zbekiston bilan YuNESKOning o'zaro hamkorligi kengayshi natijasida YuNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yil 28-dekabrda esa Shahrisabz shahri YuNESKO ro'yxatiga kiritildi. Shahrisabz bu ro'yxatga kiritilgan respublikamizdagi uchinchi shahar bo'ldi. Bunday aloqalar o'z navbatida munosabatlarimizni yanada yuqori pog'onaga ko'tarib, hamkorligimiz sohalarini kengaytirdi. Mustaqillik yillari respublikada o'tkazilgan barcha tadbirlarda YuNESKO ishtirok etmoqda. Xususan, Amir Temur tavallud topgan kunining 660 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarning yubiley tantanalari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Samarqanda shahrining 2750 yilligi, Toshkent shahrining 2200 yilligi, Marg'ilon shahrining 2000 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yilligi kabi tadbirlar bevosita YuNESKO homiyligida o'tkazildi. Keyingi yillarda bu aloqalar yanada kengaymoqda.

Xususan, 2018-yil 8-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Fransiya davlatiga bo'lgan rasmiy tashrifi chog'ida YuNESKO Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, birgalikda O'zbekiston bilan YuNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha hamkorlik dasturini imzolashdi. 2019-yil avgust oyining oxirgi o'n kunligida YuNESKO Bosh direktori Odri Azule Samarqand shahrida bo'lib o'tgan XII xalqaro «Sharq taronalari» musiqa festivalida bevosita ishtirok etdi.

Mustaqil O'zbekiston 2001-yilning iyun oyida «Shanxay beshligi» deb yuritilgan xalqaro tashkilotning XXRni Shanxay shahrida chaqirilgan Sammitida bu tashkilotning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. 1998-yili tashkil etilgan «Shanxay beshligi»da Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari a'zodir. Shundan keyin «Shanxay hamkorlik tashkiloti» nomi bilan yuritilib bosh maqsad har tomonlama hamkorlik o'rnatishdan iborat bo'lib, ayni bir vaqtda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashni tashkilotning faoliyat markazida turadigan bo'ldi. Terrorizmga qarshi kurash qarorgohi (shtabi) Bishkekdan Toshkentga ko'chirildi. Tashkilotning aniq vazifalarini tashqi ishlar, mudofaa vazirliklarining kengashlarida hal qilinadi.

2005-yilning 2-iyul kuni Qozog'istonning Astana shahrida «Shanxay hamkorligi» tashkilotining o'ninchi marta uchrashuvi o'tdi. Sammitda doimiy a'zo davlat rahbarlaridan tashqari Mo'g'uliston Respublikasining vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kengash Hindiston, Pokiston va Eron davlatlarini tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qilingan edi. 2016-yil iyun oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ShHT yig'ilishida Pokiston va Hindiston tashkilotning teng a'zosi sifatida qabul qilindi. Astana uchrashuvi qatnashchilari «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash konsepsiyasi»ni yakdillik bilan qabul qildi. O'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish to'g'risida hujjatlar imzoladi. Tashkilotning faoliyat ko'lamini kengaytirish maqsadida 2005–2006-yillarda ShHTning Banklararo birlashmasi, Ishbilarmonlar kengashi va Forumi tashkil qilindi.

2017-yil 9-iyunda Astanada bo'lib o'tgan ShHT davlatlari yig'ilishida iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayot bobidagi qator masalalar bo'yicha fikr almashilib, umumiy xulosalarga kelindi.

2018-yil 9–10 iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashi majlisi bo'lib o'tdi. A'zo davlatlar rahbarlari 2017-yilgi Astana sammiti yakunlarining ijrosini hamda jahon siyosati va iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar asnosida ShHTni yanada rivojlantirishga doir birinchi galdagi vazifalarni ko'rib chiqishdi. Tomonlarning o'zaro kelishilgan pozitsiyasi qabul qilingan Sindao deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi.

A'zo davlatlar ShHT Xartiyasining maqsad va prinsiplariga rioya etgan hamda «Shanxay ruhi»ga tayangan holda ShHTni 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirayotganlari qayd etildi. Bugungi kunda ShHT noyob, nufuzli va obro'li mintaqaviy birlashma sifatida qaror topgani, Tashkilotga Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgandan so'ng uning salohiyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlandi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari bilan ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish bilan bir vaqtda taraqqiy etgan davlatlar va qo'shni mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirdi.

Keyingi yillarda yosh mustaqil davlatlar ichida Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini, urf-odatlar va an'analar yaqin bo'lgan Sharq mamlakatlari bilan o'zaro aloqalar olib borish imkoniyatlari bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi. Shuningdek,

O'zbekiston 1992-yil 6-fevralda Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va 1992-yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog'iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan «Trans-Osiyo» temir yo'l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad yo'li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llariga, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi. Arab mamlakatlari bilan olib borilgan aloqalar madaniy va diniy tomondan ham uzviy bog'liq bo'ldi. Bu yo'ldagi harakatlar natijasida savdo-sotiq, turizmni rivojlantirish va kadrlarni o'qitish imkoniyatlariga yo'l ochildi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarida Qozog'iston alohida o'rin egallaydi. 2018-yilga kelib Qozog'iston bilan o'zaro hamkorlik aloqalariga oid 170 dan ziyod hujjatlar imzolangan bo'lib, ular orasida «Abadiy do'stlik» va «Strategik sheriklik» to'g'risidagi shartnomalar alohida o'rin egallaydi. Oxirgi yillarda bu hamkorlik aloqalariga katta ahamiyat berilib, Qozog'iston va O'zbekiston davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi bir qator uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Xususan, 2017-yil mart oyida bo'lib o'tgan Prezident Sh. Mirziyoyevning Qozog'istonga rasmiy tashrifi yaxshi qo'shniçilik aloqalarini yanada rivojlantirishda yangi sahifani ochdi. O'zbekistonda qozog'istonlik investorlar ishtirokida 260 ta korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qo'shni davlatda yurtimiz ishbilarmonlari ishtirokida 105 ta biznes subyekti faoliyat olib bormoqda. 2017-yil Ostona va Toshkent shaharlarida bo'lib o'tgan biznes-forumlar natijasi bo'yicha umumiy qiymati 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi kelishuvlarga erishildi. Siyosiy jabhadagi muloqotlar rivoji iqtisodiy aloqalarni yanada jadallashtirish uchun qulay muhit yaratadi. Bu nafaqat savdo aylanmasi va sarmoyalar hajmini kengaytirishga xizmat qiladi, balki madaniy-gumanitar aloqalar rivojini ham kafolatlaydi. O'tgan yilning sentabr oyida ikki davlat rahbarlari 2018-yilda Qozog'istonda O'zbekiston yili hamda 2019-yilda O'zbekistonda Qozog'iston yilini o'tkazishga kelishib olgan edi. Qozog'iston Respublikasi 2018-yilni mamlakatda O'zbekiston yili deb e'lon qildi. Bu qozoq eli va Qozog'iston davlatining o'zbek xalqiga hurmati, yurtimizga yuksak ehtiromi ramzidir. Shuningdek, 2017-yildan boshlab Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Afg'oniston davlatlari bilan ham o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasi-

da qator amaliy ishlar hayotga tatbiq etildi. A'zo davlatlar rahbarlari 2017-yilgi Ostona sammiti yakunlarining ijrosini hamda jahon siyosati va iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar asnosida ShHTni yanada rivojlantirishga doir birinchi galdagi vazifalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarning o'zaro kelishilgan pozitsiyasi qabul qilingan Sindao deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi.

A'zo davlatlar ShHT Xartiyasining maqsad va prinsiplariga rioya etgan hamda «Shanxay ruhi»ga tayangan holda ShHTni 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirayotganlari qayd etildi. Bugungi kunda ShHT noyob, nufuzli va obro'li mintaqaviy birlashma sifatida qaror topgani, Tashkilotga Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgandan so'ng uning salohiyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlandi.

O'zbekistonning AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi bilan aloqalari kengayib, bu davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik bir-birining ishiga aralashmaslik, xalqaro huquq normalarida belgilangan qoidalarga va tamoyillarga asoslandi.

Hech bir mamlakat iqtisodiy hamkorliksiz rivojlana olmasligini hozirgi kun voqeligi isbotlab turibdi. O'zbekiston rahbariyatining bu vaziyatga chuqur yondashishi orqali tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berildi. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- o'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;
- ilg'or texnologiyani kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish;
- Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda raqobat bardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishi va bu aloqalarni erkinlashtirishida huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlarning

ahamiyati katta bo'ldi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Shu qatorda respublika chet el investitsiyalarini ishonchli sug'urta bilan himoyalashni ham ta'minladi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Amaldagi qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar berdi. Birinchi navbatda O'zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 mln. dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar boj to'lashdan ozod qilindi. Bu investitsiyalarning davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarda ishtiroki natijasida yetti yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan va korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliq to'lashdan ozod qilindi. Ishlab chiqarilgan tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish lozimki, chet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etildi. Bular qatorida «O'zbekinvest» Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasi, chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonga 12 milliard amerika dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. O'zbekistonga kiritilgan chet el kapitali yordamida respublika hududida qayd qilingan qo'shma korxonalarining soni esa shu kunlarga 1810 taga yetdi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarda o'z mavqeiga ega bo'lib borishi quvonarli holdir. Bu o'rinda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab AQSh bilan o'zaro hamkorlik aloqalari bu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni keng miqyosda olib borilishi xususida to'xtab o'tish lozim. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan AQSh bilan O'zbekiston o'rtasida imzolangan o'zaro manfaatli shartnomalar asosida O'zbekistonga AQShning sarmoyalari kiritib keldi. Bu sarmoyalar ishtirokida respublikada qo'shma korxonalar tashkil topib faoliyat ko'rsatib turibdi. O'zaro tuzilgan shartnomalarga

ko'ra, AQSh O'zbekistondagi bepoyon yer osti va yer usti boyliklarini o'zlashtirish uchun katta sarmoya mablag'larni ajratishni o'z zimmasiga oldi, natijada respublikaga Amerikaning zamonaviy texnikasi kirib keldi. O'zbekistonda Amerikaning «Nyumont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi qurib ishga tushirildi.

Shuningdek, xorijiy sarmoyalar natijasida O'zbekistonda «Sam-Kuchavto», «O'zDEUavto», Ko'kdumaloq kompressor stantsiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar qurildi.

Koreya Respublikasi sarmoyadorlari bilan «O'zDEUavto», «O'zDEU elektroniks» hissadorlik birlashmalari keng faoliyat natijasi o'laroq O'zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakat qatoridan o'rin egalladi va yuqori baholarga sazovor bo'ldi. Bu mamlakat bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilandi.

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida Sobiq Ittifoqning barcham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya davlatlari imzo chekishdi. 13 dekabrda Ashxobodda o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo'stlikni kengaytirish zarur deb topdi. Natijada shu yili 21-dekabrda Almatida o'tgan uchrashuvda jami 11 davlat MDHga a'zo bo'lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

MDH a'zolarining birgalikdagi harakatlariga quyidagi vazifalar kiritildi:

- tashqi siyosiy faoliyatlarni muvofiqlashtirish, mudofaa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;
- umumiy iqtisodiy muhitni rivojlantirish va Umumiyevropa, Yevroosiyo bozorini shakllantirish;
- iqtisodiy islohot o'tkazish;
- bojxona siyosatini birga olib borish;
- transport, aloqa, energetika tizimlarini rivojlantirish;
- ekologik, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;

Umuman aytganda, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi.

O'zbekiston MDH doirasidagi hamkorlikka katta e'tibor berib, uning ishtiroki quyidagi holatlarda belgilab berildi:

– yangi mustaqil davlatlarning ko'p yillar mobaynida tarkib topgan munosabatlari chuqurlashishi xalqaro maydonda vaziyatni chigallashtirishga olib kelishi mumkinligi;

– respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo'lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllanganligi, mustaqillik yillarida bo'lsa, MDH doirasidagi davlatlarning o'zaro aloqalarini uzib qo'yishi ishlab chiqarish hajmlarining pasayib kyetishiga olib kelishi mumkinligi;

– MDH doirasidagi davlatlarda chegaralarning ochiqqligini saqlab qolish respublikada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni va millatlararo munosabatlarda totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi;

– mustaqil davlatlarning o'zaro hamkorligi xalqaro maqomda o'z mavqeini saqlab qolishi uchun muhim omil bo'lib hisoblanishi.

1991–2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo'lib o'tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo'mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to'laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to'lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo'yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlari bilan imzolab o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

Ayni vaqtda O'zbekiston 1996-yil Venada Sobiq Ittifoqdosh davlatlar Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan o'ziga xos tuzilmaga ham 1999-yil aprel oyida a'zo bo'ldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Yevropa transport yo'lagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001-yil iyun oyida ana shu tashkilotga a'zo davlatlarning uchrashuvi bo'lib, unda O'zbekiston ham ishtirok etdi. Yaltada bo'lib o'tgan sam-

mitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda GUUAM davlatlarining ko'pchiligi ichki va tashqi siyosatida yuz byergan keskin o'zgarishlar yuz berishi oqibatida O'zbekiston bu tashkilotga a'zolicini bekor qildi.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida bo'layotgan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o'tish joizdir. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi 1992-yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarida 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

2003-yilning avgustida ikki mamlakat Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Rossiyaning «Gazprom» va «Lukoil» kompaniyalarining O'zbekistonda neft va gaz manbalarini qidiruvda ishlayotgan korxonalarini texnika jihatidan qayta qurish masalalarini muhokama qildi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar almashuv 2002-yili bir milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2003-yili bu ko'rsatkich 25 foizga oshdi.

2004-yili Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Shu yili ikki davlat Prezidentlari jami etti marta uchrashdi. O'zbekistonda 32 marotaba Rossiya hukumati delegatsiyalari tashrif buyurdi, shu jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari O'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. Shu yili 16-iyunda ikki davlat o'rtasida strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bunda siyosiy, harbiy, harbiy-texnika, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa masalalar bo'yicha alohida bitimlar imzolandi.

O'zbekistonda 350 korxonalar Rossiya investitsiyasi asosida ishlab, shundan 300 tasi qo'shma korxonalarda, Rossiyada esa 100 dan ortiq O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonalari ishga tushdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. V. Putin O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarga to'xtalib: «...biz har xil sohalarida munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdormiz», degan edi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federatsiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo'lga qo'yildi. 1994-yili Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O'zbekiston va Ukraina davlat rahbarlarining o'rtasidagi o'zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral xomashyo qazib

olish, fan taxnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo'lgan masalalar asosiy o'rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Leonid Kuchma o'zining O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston baynalminal madaniy markazida ham bo'ldi. O'z navbatida O'zbekiston Prezidenti ham Ukrainaga uch marotaba safar qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 mln. AQSh dollaridan oshdi. O'zbekiston Ukrainaga rangli metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib byergan bo'lsa, Ukrainadan O'zbekistonga texnika asbob-uskunalari keltirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalarini ishlab turibdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10-yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o'z ishini boshladi. Sammitda o'tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o'zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko'paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar, xo'jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi.

2017-yildan boshlab, MDH davlatlari bilan o'zaro munosabatlar yangi sifat pog'onasiga ko'tarildi. Xususan, MDH davlatlari bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi 20% ga ko'tarildi. MDH davlatlarining 2017-yil 11-oktabrdagi Sochi sammitida unga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining «Oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha» bayonoti, Hamdo'stlikda 2019-yilni Kitob yili, 2020-yilni 1941–1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida qozonilgan G'alabani 75-yilligi yili, deb e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi. Hamdo'stlik mamlakatlarining jinoy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorligiga doir konsepsiyalar ma'qullandi. Shuningdek, MDH mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yana qator hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy, savdo aloqalarini mustahkamlash, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini rivojlantirish tarafdori.

1993-yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng Markaziy Osiyo hamdo'stligiga asos solindi. Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xomashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o'z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Din, e'tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'ziga ruhan, urf-odatlarini va an'analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish suveren O'zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, o'zaro iqtisodiy muammolarni echish, milliy-madaniy aloqalarini tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg'ularini, uyg'otib kelmoqda.

1994-yil 10-yanvarda Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti N. Nazarboyevning O'zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo'stligiga amaliy poydevorni qo'ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari «Yagona iqtisodiy hudud» barpo etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko'zda tutildi. Fan, maorif, sog'liqni saqlash yo'lida imzolangan hujjatlar bo'lsa o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo'lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg'iziston keyinchalik Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi nuqtasi 1994-yil Almati shahrida bo'lib o'tdi. Tomonlar Davlatlararo Kengash hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta'xis etishdi. Kelishuvda qatnashgan mamlakat vakillarining davlatlararo ijroiya qo'mitasi Almati shahrida joylashdi.

1995-yil 15-dekabr Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo'ldi. Mazkur Kengashda Prezidentlar 2000-yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarni hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokoma etishdi. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sohadagi uzviy hamkorlikning davomi Markaziy Osiyo Respublikalari Prezidentlarining 1999-yil aprel oyida Cho'lpon-Ota shahridagi uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda O'zbekiston tomoni barchaning diqqat e'tiborida turgan Afg'oniston hisoblangan xalqaro terrorizm o'chog'ining xavfi masalasi keskinligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti yig'ilish qatnashchilari hamda BMTni butun xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqirdi. Uchrashuvda Tojikiston Respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi I. Karimovni tojik xalqining og'ir kunlarda yordam beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari va do'sti sifatida qabul qildi. Prezident I. Rahmonov I. Karimovni tojik xalqining «boshidagi toji, ko'zidagi nuri» – dedi. Kengashda mintaqaning suv resurslaridan samarali foydalanish, Saraz ko'lining toshish xavfining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e'tibor qaratildi. Bu hamdo'stlik davlatchiligini qaror toptirish Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda «bozor munosabatlariga o'tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g'ayratlari va sa'y-harakatlarini jiplash-tirishga qaratilgandir».

Ayni paytda O'zbekiston Markaziy Osiyo Respublikalari bilan aloqalarni yo'lga qo'yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi asosiy xavf Afg'oniston mojarosi ekanligini doimo diqqat-markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan diniy ruhdagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korruptsiya va jinoyatchilik, narkotik moddalarni tarqatish, qurol-yarog' savdosi kabi muammolarni kiritish mumkin.

Markaziy Osiyo Respublikalarining diqqat-markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jiplashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda Prezidentning Do'rmon qarorgohida bo'lib o'tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro marka-

zi tuzish haqidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. To'rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog'iston va O'zbekiston Respublikasi Prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to'g'risida, yo'lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to'g'risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o'rin tutadi. Shu bois bu masalani to'laqonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi.

Sobiq ittifoq parchalanib ketgandan beri bu muammoni hal etish Markaziy Osiyo Respublikalarining o'zaro aloqalarida o'z aksini topib bormoqda. Orol dengizi muammosi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O'rda (1993), Nukus (1994), Toshhovuz (1995) uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlarda asosan Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan chora-tadbirlarni ko'rish belgilab olindi. O'zbekistonning tashqi siyosatidagi har tomonlama hamkorliklar qatorida Orol masalasi ham o'ziga xos o'ringa ega. Respublika rahbariyatining Orolbo'yi masalasini hal etishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyodagi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Jumladan, 2001-yil Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Tadao Chino O'zbekistonga tashrif buyurib, Orolbo'yida yuz byergan holat bilan tanishib chiqdi. Ushbu tashrif natijasida Tadao Chino O'zbekiston hukumatining Orol bo'yidagi suv taqchilligini tugatishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatladi. U Yaponiyaning maxsus jamg'armasidan beg'araz grant ajratishni jadallashtirishini ta'kidlab o'tdi.

2010-yil BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun O'zbekistonda, xususan, Orol dengizi bo'yida bo'lib, asr ekologik fojiasini o'z ko'zi bilan ko'rdi. 2017-yildan boshlab Orol mintaqasi bo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha qator amaliy harakatlar boshlandi. Orol fojeasi, uning asoratli oqibatlarini to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida alohida ta'kidlab, uning qurigan xaritasini jahon hamjamiyatiga namoyish qildi. Prezident Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan Orolbo'yidagi ekologik vaziyat-

ni barqarorlashtirish yo'lida 2018–2019-yillarda dengizning qurigan qismidagi deyarli 500 ming gektar yerga cho'lga chidamli saksovul va boshqa ekinlar ekilib, o'rmon massivlarini barpo etish boshlandi. Shuningdek, Qoraqalpog'istondagi ekologik fojeadan aziyat chekkan Mo'ynoq va boshqa hududlarni tubdan obodonlashtirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi ijobiy hal qilindi.

2002-yil 28-fevral, 1-mart kunlarida Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotini tuzish to'g'risidagi shartnomaga imzo chekildi. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko'rsatmaydi, balki murakkab o'tish davrida mintaqa mamlakatlarining o'zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgandir. Respublikaning geosiyosiy va geostrategik ahvoli, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti va boshqa omillardan qat'iy nazar davlatning tashqi siyosatidagi ustuvor prinsipi davlatlarning suveren teng huquqlilik prinsipi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilgandir. Umuman, O'zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida bir necha yillarga arziydigan ishlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqei yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. 2016-yil oxirlaridan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zaro qo'shni davlatlar bilan chegara, savdo-iqtisodiy, madaniy, xo'jalik aloqalarni yanada yaxshilash bo'yicha O'zbekiston tomoni qator takliflar bilan chiqdi. Xususan, 2018-yil 15-martda Astanada bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari 2017-yilning 10-noyabr kuni BMT shafeligida Samarqand shahrida o'tgan «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada mazkur uchrashuvni o'tkazish taklifini ilgari surgan edi. O'shanda bu tashabbusni mintaqadagi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar qo'llab-quvvatlagan va Qozog'iston Respublikasi

Prezidenti Nursulton Nazarboyev birinchi uchrashuvni Astanada o'tkazishni taklif qilgandi.

Oliy darajadagi uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon, Turkmaniston Respublikasi Majlisi raisi Akja Nurberdiyeva ishtirok etishdi.

Uchrashuvni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ochdi. Sammitda mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, Markaziy Osiyo nafaqat geografik va geosiyosiy, balki qadriyatlarini mushtarak yagona madaniy makondir. Shu nuqtai nazardan mamlakatlarimiz o'rtasida mintaqalararo hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta'minlagan holda, mamlakatlarimiz hududlarining sanoat, investitsiya va intellektual sohalardagi salohiyatini to'la ishga solish imkonini beradi.

Davlat rahbarlari MDH, ShHT, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini qayd etdi. Uchrashuvda mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga doir keng ko'lamli masalalar ko'rib chiqildi. Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarini ko'p ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnilik rishtalari bog'lab turadi. Tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi. Mintaqamizda dunyo tamadduni rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot mavjud bo'lib, bu Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajagi, barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlashda mustahkam poydevor bo'la oladi. Keyingi yillarda mintaqa davlatlari yaxshi qo'shnilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini namoyon etmoqda. Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish yo'lida

sobitqadam bo'lmogda. Davlatlar umumintaqa manfaatlaridan kelib chiqib chegara, suvdan foydalanish, transport va savdo singari o'tkir masalalarga samarali yechim topmogda.

Jumladan, bir necha yillardan buyon muammoli masala sifatida qarab kelingan O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnoma imzolandi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'z chegaralarining 85 foizi yuzasidan kelishuvga erishildi. Transport sohasidagi hamkorlik borgan sari kengaymogda. Tojikiston bilan to'g'ridan-to'g'ri avia, temir yo'l va avtomobil qatnovi tiklandi. Amudaryodan o'tadigan Turkmanobod – Forob yangi temir va avtomobil yo'llari ko'priklari ishga tushirildi. O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy temir yo'li qurilishi bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston tomonining tashabbusi bilan mintaqa mamlakatlari ishbilarmun doiralari hamda etakchi korxonalar vakillari ishtirokida ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi. Bu iqtisodiy aloqalarni sezilarli ravishda faollashtirish va o'zaro savdo hajmini oshirish imkonini berdi. O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan tovar aylanmasi o'rtacha 20-30 foizga o'sdi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega. Mamlakatimiz taraqqiyotining chegaralarimiz xavfsizligidan suv resurslarini oqilona taqsimlashgacha bo'lgan barcha muhim hayotiy masalalarini hal etish mintaqa davlatlari bilan munosabatlarimizga bevosita bog'liq. Transport-kommunikatsiya va energetika sohalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarni qo'shni mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilmasdan, ularning yuksak darajada integratsiyalashuvini ta'minlarnasdan amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash tarafdori. So'nggi ikki yilda davlatimiz rahbari Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga borib, o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'lida muhim qadamlarni qo'ydi. Birgina Qozog'iston bilan ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard AQSh dollariga chiqarishga muvaffaq bo'lindi. Tomonlar 2020-yilda mazkur ko'rsatkichni 5 milliard AQSh dollariga yetkazishni rejalashtirgan.

Sovet davlati parchalanib ketgandan so'ng Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar

qo'poruvchilik harakatlari bilan tazyiq o'tkazishga harakat qilishmogda. Islom Karimov O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, xalqaro tashkilotlarning majlislarida Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afg'onistondagi tolibonlar va diniy ekstremistlarning butun jahon xalqlari uchun xavfli ekanini qayta-qayta ta'kidlab aytgan edi.

90-yillar oxirlariga kelib hududiy mojarolar, diniy ekstremistik harakatlar O'zbekiston mustaqilligi uchun xavfli tahdidligi ayon bo'lib qolgan edi. Haqiqatan ham Afg'onistonda o'rnashib ko'p mamlakatlar tomonidan madad olib turgan diniy ekstremistlar 1999-yil 16-fevralda, 1999–2000-yillari davlat chegaralarini buzishlar, 2003–2004-yillarda Toshkent va Buxoroda amalga oshirilgan qo'poruvchilik harakatlari O'zbekiston rahbariyatining fikrlarini tasdiqladi. 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkdagi qo'poruvchilik harakatlari yirik davlatlar rahbarlarining ko'zini ochdi va O'zbekiston tomonining qanchalik haq ekanligini ko'rsatdi. Terrorizm butun dunyoni qamramogda, uning uchun diniy, milliy ajratuvchilik, davlat chegaralari ham yo'q.

1995–2003-yillarda faqat MDH davlatlari hududida 4.500 uyushgan jinoyatchilar guruhi tor-mor qilindi, 300 ming o'qotar qurollar, 400 tonna portlovchi moddalar yo'q qilindi.

2016-yil umumxalq tomonidan saylangan Prezident Sh. Mirziyoyev tashqi siyosatda o'zaro hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik, manfaatli munosabatlar, ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillarini ilgari surgan holda oshkoralik va shaffoflik masalalariga ham katta e'tibor qaratdi. Shu boisdan ham O'zbekiston Prezidentining mazkur siyosati jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy e'tirof etilmogda. Xalqaro «The Economist» jurnali talqiniga bo'yicha 2019-yil yakunlariga ko'ra Prezident Sh. M. Mirziyoyev «Yil odami» deya e'lon qilindi.

5. Millatlararo munosabatlar xavfsizlik garovi.

Tarixan O'zbekiston polietnik davlat bo'lib, mustaqillik yillarida ko'pmillatlilikdan kelib chiqib, respublikada tinchlik va millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati olib borildi.

Har qanday ko'pmillatli va ko'p dinli jamiyatning umummilliy xavfsizligini va barqaror taraqqiyoti ikkita eng muhim nodir hodisa bilan chambarchas bog'liqdir. Bu hodisalarning birinchisi mamlakat-

da yashovchi turli millat vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar butun majmuasining uyg'unligi, mamlakat asosiy millati bilan etnik ozchiliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida mohiyatini e'tiborga olish bo'lsa, ikkinchisi mazkur jamiyatni tashkil etuvchi turli diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi o'zaro sog'lom munosabatlardir. O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkinki, davlat faqat adolat kuchiga tayanib, milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat'iy nazar, mamlakat fuqarolarining huquq va manfaatlarini birdek himoya qila oldi.

O'zbekistonda milliylikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarining umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Mustaqillik sharoitida respublikaning asosiy millati bo'lgan o'zbeklarning zimmasiga millatlararo tinchlikni saqlashdek katta mas'uliyat tushdiki, ular bu sinovdan sharaf bilan chiqishdi. Bu hol o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan bag'rikenglikning natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», – deb ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deyiladi. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishiga munosib. Demak, O'zbekiston fuqarolari o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Mustaqil O'zbekiston milliy siyosatining eng asosiy qoidalari quyidagi tarzda e'lon qilindi:

- millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar respublika barcha fuqarolarining teng huquqliligi;
- shaxsning ustuvorligi va jamiyatdagi ijtimoiy adolatni belgilaydigan inson huquqlarining boshqa barcha huquqlardan ustunligi;
- kam sonli millatlarning haq-huquqlariga e'tibor bilan qarash, ularning tili, an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish, ularning o'ziga

xosligini saqlab qolish, shuningdek erkin va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– har bir oilaning, har bir insonning millatidan qat'iy nazar ijtimoiy himoyalanihini ta'minlaydigan yuksak darajada rivojlangan, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga tayanish;

– millatlararo munosabatlardagi nizoli vaziyatlarni ijtimoiy-siyosiy asosda tinch yo'l bilan hal etish.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo'nalish sifatida «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash haqida chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar» belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag'rikenglikka berilayotgan ulkan e'tibordan dalolat beradi.

«Bag'rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha «tolerare», ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan «tolerantlik» so'zi, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, «chidamlilik», «bardoshlilik», «toqatlilik», «o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish», «muruvvatlilik», «himmatlilik», «kechirimlilik», «mehribonlik», «hamdardlik» kabi ma'nolarga ega.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YuNESKO) bosh konferentsiyasining 28-sessiyasida «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'iy nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

1998-yil 6-noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YuNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida «Tinchlik madaniyati va YuNESKOning a'zo davlatlaridagi faoliyati» deklaratsiyasi qabul qilindi. YuNESKOning

«Tinchlik madaniyati» konsepsiyasi BMT tomonidan ma’qullanib, 2000-yil «Xalqaro tinchlik madaniyati yili», 2001-yil esa «Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili» deb e’lon qilindi.

O‘zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e’tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko‘chib kelib, o‘rmashib qolgan emas. Bu zamin – ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin – Sharq va G‘arbning, Shimol va Janubning, qadim o‘tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an’analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurti «falsafiy tafakkur beshigi», deb bejiz ta’riflamagan. Shuni ta’kidlash joizki, bizning sivilizatsiyamiz o‘ziga xos bag‘rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an’analar avloddan avlodga o‘tib kelmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bundan yuz yil avval mamlakatimiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926-yilda yurtimizda 90 millat va elat yashagan bo‘lsa, 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123, 1989-yilda esa 130 taga etgan edi.

O‘zbekiston aholisining milliy tarkibi (ming hisobida)

№	Millati	1989-yil	2000-yil	2008-yil	2013-yil	2017-yil
	Jami	1 9810,1	2 4430,2	27072,2	29993,5	32120,5
1.	O‘zbeklar	14142,5	18959,6	21962,1	24858,2	26917,7
2.	Ruslar	1653,5	1199,0	913,0	809,5	750
3.	Tojiklar	933,6	1166,7	1327,2	1450,0	1544,7
4.	Qozoqlar	808,2	990,0	862,3	803,5	803,4
5.	Tatarlar	467,8	324,1	230,6	211,1	195
6.	Qoraqalpoqlar	411,9	504,3	593,4	661,6	708,8
7.	Koreyslar	183,1	163,8	147,7	140,0	136,9

8.	Qirg‘izlar	174,9	231,9	241,5	260,5	274,4
9.	Ukrainlar	153,2	104,7	85,3	75,5	70,7
10.	Turkmanlar	121,6	152,1	162,9	179,5	192
11.	Armanlar	50,5	42,4	38,5	36,7	35,4
12.	Ozərbayjonlar	44,4	35,8	40,4	41,1	35,4
13.	Nemislar	39,8	7,8	4,8	4,3	3,8
14.	Beloruslar	29,4	20,4	20,6	19,3	17,6
15.	Buxoro Yahudiylari	28,4	19,7	10,6	10,2	8,4

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng nafaqat mamlakatga nom byergan o‘zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminida istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, ko‘pmillatli diyorumizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo‘lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992-yil 13-yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘ziga xos an’ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko‘maklashish deb belgilandi.

2017-yilda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi keng nishonlandi. Mamlakatimizda milliy-madaniy markazlarni soni 140 dan ziyod bo‘lib, ular yurtimizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida, millatidan qat’i nazar, barcha yurtdoshlarimiz qatnashishlari mumkin. Millatlararo munosabatlar yo‘nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri – aholining milliy tar-

kibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilishdir. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogika institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda, O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda e'fira uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Bugungi kunda, 12 (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarda teleradio eshittirishlar e'fira chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

Ko'rinib turganidek, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston o'ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qurilgan bu siyosat:

– ko'p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo'lgan omil sifatida tan olish;

– fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qati nazar, tengligini ta'minlash;

– milliy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini kafolatlash;

– milliy til, urf-odat va an'analar hurmat qilinishini ta'minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;

– ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta'minlash;

– fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan irqiy, diniy adovat va nizoni targ'ib qiluvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslik;

– millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, qayerda millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avv. barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g'oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.

Bag'rikenglikning muhim yo'nalishlaridan biri «diniy bag'rikenglik»dir. Turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud farqlardan qat'iy nazar, ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etishini nazarda tutadi. «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da ta'kidlanganidek, «Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi».

Asrlar mobaynida o'lkamizning shahar-u qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelishgan. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'iy nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kat-

talarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular yurtimiz aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy esosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonlardan o'lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Eng qadimiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo'lgan zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Chunki, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

O'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'zga din vakillari bilan o'zaro murosa yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjixatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'ldi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag'rikenglik bilan bog'liq qadriyatlar targ'ib qilingan g'oyalarni uch-ratamiz. Jumladan, Shayx Ahmad Yassaviy ham o'z hikmatlarida o'zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo'lishni uqtirgan:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,
Ko'ngli qottig' dilozordan xudo bezor.

Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarimizning bu kabi o'gitlari uzoq yillar davomida xalqimizni bag'rikeng bo'lishga, turli din va elatlar bilan tinch-totuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan.

Hozirgi kunda ham yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag'rikenglikka doir qoidalarining qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovordir.

Eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan «*Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan*

dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z dini va e'tiqodiga amal qilishda er-kindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog'i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart» degan norma asosida turli diniy e'tiqoddagi insonlarning dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekani e'tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, yurtimizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, «*Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.*» Bu qoidaning mohiyati shundaki, O'zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi hamda ular o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi.

O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 1991-yilda qabul qilingan bo'lib, 1993-yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo'lib keldi. Keyingi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zarur bo'lib qoldi va 1998-yilning 1-may oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkinli-

gini ta'minlaydi. Mazkur me'yor 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948-yili qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 18-moddasida «*Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir*», deb ta'kidlangan. 1966-yili qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»da ham «*Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'lmasligi kerak*», deb ko'rsatilgan. Bu esa, diniy bag'rikenglikning na-faqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanidan dalolat beradi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi huquqiy me'yorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, mustaqillikkacha yurtimizda bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi evangel-lyuteran jamoasi, rim-katolik cherkovi, «yettinchi kun adventistlari» diniy tashkiloti, bahoiylar, yahudiylar diniy jamoalari kabi konfessiyalar rasmiy faoliyat yurita boshladi.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniye orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni berib borishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rinlidir. Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjixat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O'z navbatida, pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Farmoniga ko'ra, 1903-yilda qurilgan «Svyataya Bogoroditsa» ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Evangel-lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida «Bidergeburt» nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996-yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligi keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi.

Shuningdek, xristianlarning «Rojdestvo», «Pasxa», yahudiylarning Rosh-Ashona (yangi yil), Yom-Kipur (Gunohlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylarning Sagaalga (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug'ilgan kuni) kabi bayramlarini nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

2000-yil 13–15-sentabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YuNESKO kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikni muhokama qildi. Unda 40 ga yaqin davlatdan 80 dan ortiq turli din va konfessiyaga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdi. Kongressdan so'ng 18-sentabrda Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Unda «tasavvuf»ga bag'rikenglikni targ'ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi islom dinining noyob, o'ziga xos ko'rinishi, degan ta'rif berildi. Shuningdek, 2001-yil sentabrda Toshkentda o'tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YuNESKO «Bag'rikenglik tarmog'i»ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urf-odatlari bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlandi.

Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO) tomonidan Toshkentning islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2007-yil 14–15-avgustda Toshkent va Samarqand shaharlarida «O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzuyida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ham mamlakatimizning jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lidagi yutuqlari yana bir bor e'tirof etildi. Shuningdek, 2014-yilning 15–16-may kunlari Samarqand shahrida «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Bugungi kunda ham mamlakatimiz boy tarixiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarini

asrab-avaylash va targ'ib etish, islomning ma'rifiy g'oyalarini yoyish hamda diniy bag'rikenglikni qaror toptirish va mustahkamlashda butun dunyoga o'rnak bo'lmoqda.

Bag'rikenglikning ziddi «mutaassiblik»dir. Umumiy ma'noda «mutaassiblik» – bu bir g'oyaning to'g'riligiga qattiq ishonish va undan o'zgarini keskin rad etishni anglatadi. Mazkur fenomenning xavfli jihati shundaki, u borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va hatto terrorizmga aylanadi.

Terrorizm butun dunyoda tinchlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy g'ov, to'siqdir. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o'zini ochiq namoyon etayotgan xatarli voqealardan biri, turli shiorlar bilan niquoblangan terrorizm mintaqalar va mamlakatlarning hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng ko'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etayotgan ushbu illatga qarshi kurash butun dunyo uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo bo'yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir yil mobaynida butun Yer yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida halok bo'lganlarning soni bir necha o'n mingni tashkil etishi terrorizmning tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobidan jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo Respublikalari mustaqillikka erishgan 90-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Mintaqada «Hizbut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiylar», «Nurchilar» kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Islom asoslarini buzib talqin qilish, ilmsiz, tashqi ta'sirga beriluvchan aholini o'z talqinidagi diniy g'oyalar bilan zaharlash, o'zlariga qo'shilmagan kishilarga, davlatlarga va tuzumlarga nisbatan zo'ravonlik, buzg'unchilik, qotillik bilan munosabatda bo'lishni halol deb hisoblash kabi xususiyatlar yuqorida zikr etilgan tashkilotlarning barchasiga xosdir. Afsuski, so'nggi yillarda mazkur guruhlar faoliyati natijasida dunyo bo'ylab har yili 30 mingdan ortiq tinch fuqaro halok bo'lmoqda. O'nlab mln. aholi o'z uylarini tashlab kyetib, dunyoning tur-

li-mamlakatlarida sarson-u sargardon bo'lishga majbur qolmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bir mln.dan ortiq yosh bolalar ochlikdan o'lish xavfi ostidadir. Ularning aksariyati terrorchilik avj olgan, buzg'unchi guruhlar tomonidan egallab turilgan hududlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda Iroq, Suriya, Nigeriya, Afg'oniston, Yaman, Liviya hanuz dunyoning eng xatarli nuqtalari hisoblanadi. Tahlilchilarning fikricha, hech qaysi davlat o'zining terrorchilar xurujidan xoli ekaniga 100 foiz kafolat bera olmaydi. Jumladan, 2015-yilda dunyoning 96 mamlakati, u yoki bu darajada terrorchilikdan aziyat chekkan.

Mana shunday sharoitda ekstremizm va terrorizm xavfini to'g'ri anglab yetish, ularga qarshi amaliy choralar ko'rish – davr talabidir. Shunday ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, «yanada ogoh va syergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir». Zero, mamlakatimiz Prezidenti masala mohiyati dolzarbligidan kelib chiqqan holda 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» tamoyilini qabul qilish to'g'risida taklifni o'rta taga tashlagan edi. Ushbu taklif xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof qilingan holda 2018-yil 12 dekabr kuni BMT da 50 dan ziyod mamlakatning qo'llab-quvvatlashi natijasida xalqaro normativ hujjat sifatida qabul qilindi.

Tayanch so'zlar

O'zbekiston, Toshkent, mustaqillik, bozor iqtisodiyoti, Harakatlarning strategiyasi, milliy, g'oya, mafkura, madaniyat, ilm-fan, ta'lim, investitsiya, innovatsiya, hamkorlik, ma'naviyat, ma'rifat, bag'rikenglik, millat, tashqi siyosat, MDH, Markaziy Osiyo, jahon hamjamiyati, BMT, YuNESKO, millatlararo munosabatlar, xavfsizlik.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Harakatlarning strategiyasi dasturi mohiyati nimadan iborat?
3. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar haqida so'zlab bering?

4. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
5. So'nggi yillarda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar haqida nima deya olasiz?
6. O'zbekistonda millatlararo munosabatlardagi barqarorlik va diniy bag'rikenglik haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
7. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro aloqalar qanday kechmoqda?
8. O'zbekiston va Jahon hamjamiyati deganda nimani tushunasiz?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev olib borayotgan oqilona tashqi siyosatining jahondagi e'tirofi haqida qanday ma'lumotga egasiz?

13-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2018.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016.
3. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil, 29-dekabr.
7. Usmonov Q., Abdug'aniev A. O'zbekiston-siyosiy va huquqiy isloxotlar sari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
8. O'zbekistoning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob – Toshkent: «Sharq». 2000.
9. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: «Akademiya», 2013.
10. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов. – Ташкент: «Адабиёт учқунлари», 2018.
11. Shamsutdinov R. Mo'minov H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2013.

GLOSSARIY

- Avorizot – favquloddagi xarajatlar uchun to'planadigan yig'im.
- Avfoq – masjid va madrasalarning vaqf xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi.
- Agema – makedoniyalik Aleksandrning maxsus otliq qo'shini.
- Ajam – arab xalqlari va mamlakatlaridan o'zga yurt va xalqlar.
- Azarxurra – otashparastlar sig'inadigan muqaddas olov, o't.
- Akkor – koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.
- Amazonkalar – qadimgi yunon asotirlarida qurollangan jangchi ayollar.
- Amiri shikor – sulton oylarini tashkil etgan.
- Amid ul-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir ul-umaro – amirlar amiri, bosh sarkarda.
- Amir ul-a'lam (a'lamdor) – sulton bayroqdori.
- Anabasis – yunoncha davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan harbiy yurish.
- Anaxita – suv, yer va hosildorlik ilohasi.
- Animizm – ruh va jonga ishonish; ota-bobolar ruhiga sig'inish.
- Antik davr – qadimgi dunyo tarixi davri.
- Ariz – qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi vazir.
- Ark – ichki qal'a, hukmdorning shahar ichidagi qo'rg'on – saroyi, qarorgohi.
- Aryonam Bayjo (Aryonam Baychax) – oriylarning dastlabki vatani.
- Arxeologiya – yunoncha «arxayos» – qadimgi, «logos» – fan, qadimshunoslik.
- Axriman – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o'lim, gunoh va barcha yovuzlik xudosi.
- Assimilyatsiya – qorishib kyetish, aralashish.
- Ahuramazda – zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug'lik, farovonlik, sihatsalomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.
- Basilevs – yunoncha «podsho».
- Band – toshlardan bino qilingan suv omborining to'g'oni, suv ombori; to'g'on.

Banno – g'isht teruvchi binokor.
 Bantak – qul.
 Barzikor – qo'shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.
 Barid – kirim.
 Barot – ijaraga olish.
 Bek – el-yurt, viloyat hokimi.
 Begor – jamoat ishlariga safarbar etish; hashar.
 Biy – urug', qabila oqsoqoli.
 Boj – savdogardardan olinadigan soliq.
 Borgoh – podshoh saroyidagi qasr, qabulxona.
 Bosqoq – mug'ullar hokimlik qilgan XIII–XIV asrlardagi mahalliy hokim.
 Bronza – mis bilan qalay qotishmasi.
 Burong'or – qo'shinning o'ng qanoti.
 Burj – shahar va qal'a devorlaridagi harbiy minora.
 Burg'u – karnay.
 Budun – chorvador aholi, qora budon – qora, oddiy xalq.
 Bara – devor bilan o'ralgan to'rtburchakli istehkom.
 Vazir – devonxona boshlig'i.
 Bazkirom – soliq yig'uvchi, moliya xodimi.
 Bag'n – ibodatxona.
 Bag'npat – ibodatxona ruhonasi.
 Bag'nze – ibodatxona yer va mulklari.
 Bis – «Avesto»da – urug'.
 Bisobqoshi – to'rt nafarli askariy guruh boshlig'i, chodir boshlig'i.
 Goplit – yunon-makedonlarning og'ir qurollangan jangchisi.
 Gipparx – makedoniyalik Aleksandr davrida fors satrapini o'rniga tayinlangan viloyat hokimi.
 Davirpat – kotib, elchi, sarkotib.
 Debo – tovlanuvchi nafis ipak mato.
 Dehnishin – o'troq, qishloq aholisi.
 Diadoxlar – makedoniyalik Aleksandr davlatini qismlarga bo'lib, o'z qo'llariga kiritgan lashkarboshilar, «merosxo'rlar».
 Dehqon – ilk o'rta asrlarda «qishloq hokimi», yer egasi.

Digir – charxpalak va chig'irlarga ariqdan yoki chig'ir xandaqdan suv botirgich ko'za.
 Dinor – bir misqol (4,8 gr) og'irlikda zarb etilgan oltin yoki kumush tanga.
 Dmana – «Avesto»da – oila.
 Dovul – katta nog'ora.
 Dorug'a – harbiy ma'mur.
 Dorug'ona – dorug'alar foydasiga olinadigan to'lov (soliq).
 Dudang – hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.
 Do'lob – charxpalak; quduqdan suv chiqaradigan charx.
 Yom – jom, savdo yo'llaridagi qo'noq.
 Jizya – islom diniga o'tmaganlardan olinadigan jonboshi solig'i.
 Jome' – masjid – juma kunlari jamoat namozi o'qiladigan katta masjid.
 Joriya – cho'ri.
 Juvong'or – qo'shinning so'l qanoti.
 Juybon – suv taqsimlovchi mirob.
 Zantu – «Avesto»da – qabila.
 Zakot – chorvadan olinadigan soliq, to'plangan boylikdan daromad solig'i.
 Zarbxona – chaqa va tangalar zarb etiladigan ustaxona.
 Zobitona – kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to'lov (soliq).
 Ibodatxona – muqaddas deb e'lon qilingan, qadimda odamlar xudolarga sig'ingan bino yoki joy.
 Izofa – zaxira qism.
 Ilmi aruz – poetika.
 Ila – yunon- makedonlar safida otliq harbiy qo'shin (200 ta suvoriy)
 Ilmi hayat – astronomiya.
 Innovatsiya – yangilanish, tarixiy jarayonda, madaniyatda, fanda vujudga kelgan yangi uslublar, ixtirolar va kashfiyotlar.
 Ixshid – ilk o'rta asr viloyati hokimi, alohida mulk hukmdori.
 Iqto', iqta – yirik mansabdorlarga hadya etilgan yer va mulk.

Kadivar – ilk oʻrta asrlarda yirik yer egalariga qaram boʻlgan ziroatkor qishloq aholisi; chorikor.

Kavi – «Avesto»dagi mamlakat sardori, podshosi.

Kaviylar – Kayyoniyar «Avesto» va «Shohnoma»dagi podsholar sulolasi.

Kalavachi – ip yigiruvchi.

Kalon – XIII asrdagi yer soligʻi.

Kanbul – qoʻriqchi askariy boʻlinma.

Karbos – boʻz; paxta ipidan toʻqilgan mato.

Karsharvar – zardushtiyar taʼlimotida dunyoning iqlim qismlarini belgilab beruvchi tushuncha.

Kashovarz – ilk oʻrta asrlardagi ozod qoʻshchi, ziratkor.

Kahhol – koʻz tabibi.

Keshik – XIII asrda moʻgʻullar qoʻshinidagi zaxira qism; gvardiya, guruh.

Kibor – aslzoda ulugʻ kishilar.

Koriz – yer osti suv inshooti.

Korikor – xizmatkor.

Kofiya – arab tili morfologiyasi.

Koshin – sirli, rangdor, qurilishdagi sopol bezak.

Koh – saroy, ichki qalʼa, ark, oʻrda.

Kohin – qadimda ibodatxonalarda diniy marosimlarni amalga oshiruvchi eʼtiqodlar xizmatchisi, xudolar va odamlar oʻrtasida vositachi, ibodatxona ruhoniylari.

Koroplastika – sopol haykalchalar.

Koʻhandiz – hukmdor qarorgohi.

Koʻragon – xon kuyovi.

Koʻshk – istehkomli baland uy-qoʻrgʻon.

Qissador – hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yigʻib, payshanbadan jumaga oʻtar kechasi sultonga topshiruvchi amaldor. U eng obroʻli mansabdorlardan biri boʻlgan.

Labirint – tanbur, dalon, darvoza oldi istehkomi (adashtiruvchi yoʻlak)

Lavh – yozuv taxtasi, yozuv kursichasi, yoki kursi.

Lak – yuz ming.

Lahm – yer osti yoʻli.

Loyqoq – sel loyqalari qoplagan maydon.

Madrasa – oliy diniy ilmgoh.

Majus – otashparast.

Majusiy – otashparastlik dindori.

Manglay – ilgʻor guruh.

Mesh – suv yoki qimiz olib yuradigan teri xalta yoki toʻrva, sanoch.

Mikrolit – mayda tosh qurol.

Mirixazora – minglik harbiy boʻlinmaning amiri (sardori).

Mirob – suv xoʻjaligi boshqaruvchisi.

Mirobona – suv soligʻi.

Moi sardaraxt – bogʻ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.

Muzoriy – qoʻshchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.

Mulk – xususiy yer.

Mulki vaqf – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.

Mulki devoniy – davlat yerlari.

Mamlakai xos – davlat mulklari.

Musallas – uzum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob, may.

Mustavfiy – markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi; moliya vaziri.

Muxassilona – soliq yigʻuvchilar uchun toʻlov.

Muhrkash – chit va matolarga gul bosuvchi.

Muxtasib – oʻrta asrlarda maxsus davlat amaldori, bozorlarda tosh va tarozilarning toʻgʻriligini hamda savdoni nazorat qilish, mahsulotlarning sifatini tekshirib turish, qoidabuzarlikka yoʻl qoʻymaslik kabi ishlarni amalga oshiruvchi shaxs.

Mushrif – saroy ish boshqaruvchisi.

Muqtoʻ yoki iqtador – iqtoʻ yer va mulklariga ega boʻlgan yer egasi.

Muhoraba (mahoraba) – jang, urush, harbiy toʻqnashuv.

Muhrdor – devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi.

Naus – zardushtiy xilxonasi, ossuariylar saqlanadigan inshoot.

Naf – shahar va qishloq aholisi.
Naftandoz – neftli va pilikli ko‘zachalarni irg‘itadigan palaxmon, harbiy moslama.
Namozgoh – iyd ibodatlari o‘qiladigan masjid; iydgoh.
Nasassalar – zardushtiylar dafn marosimlarini amalga oshiruvchi kishilar.
Nmana – «Avesto»da oila jamoasi, uy.
Nova (nov) – suv tashlag‘ich tarnov; suv tashlag‘ich.
Nohid – zardushtiylarning hosildorlik va farovonlik ma‘budasi.
Numizmatika – tangashunoslik fani.
Oykumena – yunonlar tasavvurlarida insonlar joylashgan dunyo hududlarining chegaralari.
Oriylar (ariylar) – bronza davrida O‘rta Osiyo, Eron va Hindiston hududlariga Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan chorvador qabilalar, boshqa nazariyalarga ko‘ra, ular Old Osiyodan kelib chiqqanlar.
Ostadon (ossuariy) – sopol tobutcha.
Otashkada – muqaddas o‘choq; o‘txona, olovxona.
Otashgoh – zardushtiylarda muqaddas olov yonib turgan maxsus joy, inshoot, ibodatxona.
Ohangar – temirchi.
Payza – mo‘g‘ullar davrida imtiyozli shaxslarga beriladigan yorliq.
Paykon – kamon o‘qi yoki nayzaning tosh, suyak yoki metalli uchi.
Palahmon – toshotar; harbiy qurol.
Pandus – ko‘tarma yo‘l.
Parchin – sirlangan rang-barang g‘isht parchalari.
Polis – yunoncha «shahar».
Poykor – kichik mirob; qishloq mirobi.
Rabod – shaharning tashqi qismi, karvonsaroy.
Rais – shahar hokimi.
Ra‘dandoz – o‘t otgich; harbiy qurol.
Riyoziyot – matematika.
Savquljaysh – strategiya.
Sadoq – o‘qdon.
Sadoqxona – kamon va o‘qdonlar ombori.

Sardoba (obdon) – pishiq g‘ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.
Sarissa – yunon-makedonlar qurollangan 4 metr uzunligidagi og‘ir nayza.
Sarishumor – jonbosh solig‘i.
Sarroj – egar va jabduq yasovchi usta.
Satrap – harbiy-ma‘muriy o‘lka hokimi (ahamoniylar va antik davrda).
Satrapiya – hududiy-ma‘muriy bo‘lim alohida yoki viloyatlar birlashmalari (ahamoniylar va antik davrda).
Strateg – mudofaa va qo‘shin vaziri (antik davr).
Sahronishin – sahroyi, tuyakash.
Sohibi jamoa – hosil miqdorini belgilovchi ma‘mur uchun yig‘iladigan to‘lov.
Sohibi muayyid – maktubod va axborot vaziri.
Sohibi shurot – harbiy vazir.
Suvoriy – otliq askar.
Suyurg‘ol – oliy tabaqa zodagonlariga in‘om qilingan yer-mulk.
Terrakota – loydan ishlangan va xumdonlarda pishirilgan sopol haykalchalar.
Tavajjuhota xorijiy – favquloddagi xarajatlar solig‘i.
Tamg‘a – savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.
Tanob – 200–250 kv. m. hajmdagi yer maydoni.
Tarbiyat ul-jaysh – harbiy taktika.
Tashtdor – sulton hammomlari va hovuzlarning boshlig‘i. Uning qo‘lida ko‘plab qullar ham bo‘lgan. U sultonga eng yaqin kishilardan biri bo‘lgan. Masalan, Xorazmshoh Muhammad tashtdori Ayoza keyinchalik malik (hokim) unvonini ham byergan.
Tirkash – kamondan o‘q uzadigan nishon tuynigi.
Totem – urug‘ yoki qabila jamoalari sig‘inadigan hayvon, o‘simlik yoki jism.
Totemizm – totemlarga sig‘inish.
Toq yoki tim – usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.

Tudun – turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili, viloyat hokimi.

Tuman – o‘n minglik harbiy qism.

Tuman og‘asi – o‘n minglik askariy qism amiri, qo‘mondon.

Tug‘ro – davlat nishonasi, ramzi, gerbi.

Urbanizatsiya – aholi va ishlab chiqarishning shaharlarda to‘planish jarayoni.

Usturlob – astronomiya asbobi.

Ushr – hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.

Farmondor – boshqaruvchi.

Farna – zardushtiylardagi baxt va tole xudosi.

Farrosh – sulton o‘mi-to‘shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig‘i bo‘lib, uning ixtiyorida gilam, chodir, ko‘rpa-to‘shaklar bo‘lgan. Farroshga ko‘plab o‘rgatilgan qullar xizmat qilgan.

Fulus – mayda chaqa.

Xabargir – xabarchi, ayg‘oqchi, kuzatuvchi.

Xazora – minglik askariy bo‘linma.

Xandaq – mudofaa inshooti, zovur.

Xaraju maraj – boshboshdoqlik, o‘zboshimchalik, beboshlik.

Xatib – din peshvosi.

Xattot – kitob, risolalar ko‘chiruvchi kotib.

Xvabu – viloyat hokimi, yirik yer egaligi.

Xvatov – hokim.

Xiroj – hosilning 25-33% hisobida olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i; XV asrda bu soliq «mol» deb yuritilgan.

Xonashumor – har xonadondan olinadigan jonboshi solig‘i.

Xonaqoh – g‘aribxona, musofirxona.

Xonbodi (konbandi) – suv ombori, katta hovuz.

Xoqon yoki qog‘on – hukmdor yoki podsho.

Xronologiya – asrlar, davrlar, vaqt o‘lchovi haqidagi fan, yunoncha «xronos» – vaqt, «logos» – fan so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha.

Xushun – yuz nafarlik harbiy bo‘linma.

Xushunboshi – yuzlik bo‘linma zobiti.

Chilangar – temirchi.

Chilangarlik – temirchilik.

Chig‘ir – tuya yoki ho‘kiz qo‘shib aylantiriladigan suv ko‘targich inshooti.

Chokar – harbiy drujina, ko‘ngillilar to‘dasi.

Chokardiza – chokarlar qal‘asi, turarjoyi.

Chorikor – hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo‘shchi ziroatkor.

Chohpar – o‘ra.

Shajara – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik majmui.

Shayxulislom – din va ilm peshvosi.

Sharobdor – sulton sharobxonasining boshlig‘i.

Shahriston – ichki shahar.

Shod – o‘n minglik lashkar boshlig‘i.

Shulen – XIII asrda olingan oziq-ovqat solig‘i.

Eloq – kichik yurt, kichik mulk.

Etnogenez – xalq va elatlarning kelib chiqishi.

Yabg‘u yoki jabg‘u – el-yurt hokimi, mahalliy hokim.

Yasovul – soqchi.

Yasoqlar – Chingizxon joriy etgan qonun-qoidalar to‘plami.

O‘lpon – er solig‘i.

O‘rdugoh – qo‘shin lageri to‘xtaydigan qo‘noq; podsho qarorgohi.

O‘tloq va suvoq – yaylovlardan olinadigan soliq.

Qabo – ustki kiyim, yopinchiq.

Qayr – daryo, anhor yoki shohariq bo‘ylaridagi tabiiy namli erlar.

Qam – shaman, ko‘k tangriga sig‘inuvchilar e‘tiqodi.

Qasr – saroy, oliy va hashamatli bino.

Qopchur – mo‘g‘ullar davrida chorvadan olinadigan soliq.

Qoraxon – buyuk xoqon.

Qutvol – davlat qurilishi boshlig‘i, sarkori, qal‘a va qo‘rg‘on soqchisi, qarorgoh nazoratchi.

Qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha – atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan darvozali istehkom.

Qo‘sh – bir juft ho‘kiz bilan haydalanadigan yer maydoni.

G'ozī – din homiysi, din yo'lida kurashuvchi.
 G'oziy – g'olib.
 G'uvokor – savdogar (ilk o'rta asrlar).
 G'ul – muntazam qo'shin.
 Haylboshi – suvoriylar amiri, o'nlik amiri.
 Xaoma – efedrin, ninabargli o'simlik yoki giyohvand o'simliklardan ishlab chiqarilgan va sut bilan aralashtirilgan, kishini kayfiyatini ko'taruvchi va mast qiluvchi ichimlik.
 Hojib – harbiy boshliq.
 Hojib ul-buzruk – qo'mondon.
 Hojib ul-hujob – bosh qo'mondon.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va ob'ekti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati	5
2-mavzu. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.....	21
3-mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.....	74
4-mavzu. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot	155
5-mavzu. IX–XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.....	192
6-mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi – mard va jasur ajdodimiz.....	291
7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot	333
8-mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....	371
9-mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.....	441

10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatiishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosati.....	486
11-mavzu. O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosati va uning oqibatlari (1946–1991 yy.).....	551
12-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish.....	590
13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.....	629

O'quv qo'llanma

**Tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrası**

O'ZBEKISTON TARIXI

Muharrir I. Axmedov
Rassom D. Mulla-Axunov
Texnik muharrir R. Axmedov
Musahhah S. Saydamirova
Kompyuterda tayyorlovchi B. Dushanova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049, 18.03.2020-y.

Bosishga 2020-yil 15-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84¹/₁₆. Bosma tabog'i 48. Shartli bosma tabog'i 44,64.

«Times New Roman» garniturası. Ofset qog'ozida bosildi.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma raqami № 15.

«Donishmand ziyosi» MCHJ, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.

Tel: +998-71-244-40-91, 99-808-19-49.

«Kamalak-PRESS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy